O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

XAZRAT JABBOROV

PSIXOLOGIYA

(O‘quv qo‘llanma)

Bakalavriat hamda magistratura ta’lim yo‘nalishlari uchun

TOSHKENT 2021

UO'K: 159.9
KBK: 88.3
J-13

X.X.Jabborov/ Psixologiya o'quv qo'llanma – T., 2021. – 282 b.

Mazkur o'quv qullanma barcha ta'lim yo'nalishlari uchun psixologik bilimlarning o'rni va ahamiyati, psixologiya fanining dolzarb vazifalari, predmeti, psixologiyaning zamonaviy metodlari va ularni amaliyotga tatbiq etish, shaxs psixikasining rivojlanishi, organizm va psixika, shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi, bilish mezonlari, va ularning adekvatligi, diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol bilish jarayonlarining boshqarilishi, tafakkur va mustaqil fikrlash shart-sharoitlari, ijodiy va mantiqiy fikrlash, shaxsning hissiy va irodaviy jihatlari, psixologiyada shaxs muammosi, shaxsga ta'sir etuvchi psixologik omillar, shaxsning individual psixologik xususiyatlari va ularni diagnostika qilish, o'quv jarayonini samarali tashkil etishda ta'sirchan psixologik omillar, o'quvchi shaxsiga individaul yondashuv tamoyillari, ta'limda psixologik xizmat yo'nalishlari, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy guruhlar psixologiyasi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

O'quv qo'llanma barcha ta'lim yo'nalishidagi bakalavriatura va magistratura ta'lim bosqichi talabalari uchun "Psixologiya" fanidan tavsiya etiladi.

Shuningdek mazkur o'quv qo'llanmadan doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, maktab psixologlari va ushbu sohaga qiziquvchi barcha soha vakillari foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:
Abdullayeva Sh.X. - psixologiya fanlari doktori, dotsent
Muxtorov E.M. - psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2021 yil 25 may oyidagi 10-sonli majlisida muhokama etilib Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining griftini olishga tavsiya etilgan.

*O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 18 avgustdagi "356" – sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat etilgan (Ro'yxat raqami **356-t 009**).*

© X.X.Jabborov, 2021.

KIRISH

Yigirma birinchi asr fan va texnikaning yangi bir yuksalish pallasiga kirganligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishga mo‘jallangan fanlardan bittasi psixologiya hisoblanadi. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tatbiq etish ko‘lami kengayib borishi uning mas’uliyati va nufuzi ortayotganligidan dalolat beradi.

Xuddi shu bois psixolog mutaxassislarga nisbatan ijtimoiy buyurtmaning ko‘payishi ularni hozirgi zamon talabiga javob beradigan darajada tayyorlashni taqozo qilmoqda. Shu ma’noda psixologiya fanining oldida turgan vazifalar ko‘lami va salmog‘i kattadir. Biz jamiyatimiz hayotida ro‘y berayotgan barcha o‘zgarishlarning psixologik mohiyatini psixologiyaning bugungi xolati va istiqboli nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali bu fanning jamiyatdagi o‘rni va imkoniyatlariga baho berishni niyat qildik.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ham “Oldimizga yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi”, deya jamiyatimiz hayotida ro‘y berayotgan barcha o‘zgarishlarning pedagogik-psixologik mohiyatini bo‘lg‘usi mutaxassislar tomonidan o‘zlashtirilishiga ko‘mak beruvchi ilmiy manbalarning ahamiyatini yana bir marotaba ta’kidlab o‘tdilar.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, talabalar hukmiga havola etilayotgan ushbu o‘quv qullanma psixologiyani o‘rganish zaruriyati hamda uning tamoyillari haqidagi bilimlarni inobatga olgan holda tayyorlashga harakat qilindi. O‘quv qullanma ahamiyati yana shundaki, u mustaqil yurtimiz fuqarolari psixologiyasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, ularning hayotga, qadriyatlarga, kasb-kori, oilasi, o‘z salomatligi va yaqinlariga bo‘lgan munosabatlarida milliy mafkuramizning asosiy mazmun va mohiyatlari namoyon bo‘layotganligi bilan uyg‘un tarzda bayon etilganligidir. Zero, mustaqillik psixologiyasini ongi va shuurida aks ettirgan hamyurtlarimiz, birinchi navbatda, yosh avlod kundalik muomalasi va turmush tarzida o‘sha millat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi solih amallarga intilaveradi va sog‘lom g‘oyalarsiz yashay olmaydi.

Keyingi yillarda butun jahon miqyosida, shu jumladan Respublikamizda qaysi soha mutaxassislari bo‘lishidan qat’iy nazar ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish masalasiga alohida e’tibor berilmoqda. Diniy ta’lim muassasalari talabalari o‘z mutaxassisliklarini chuqur egallashdan tashqari shaxs psixikasidagi yosh va individual xususiyatlarni farqlay olishga, shaxs taraqqiyoti jarayonini kuzatishdan to‘g‘ri psixologik-pedagogik xulosalar chiqara bilishga o‘rganish talab etilmoqda.

Shundan kelib chiqib, mazkur o‘quv qullanmada shaxs taraqqiyoti va kamoli uchun muhim bo‘lgan psixologik jarayon, individual psixologik xususiyat, psixik holat va psixologik omil hamda jihatlar, jumladan, psixologik bilimlarning o‘rni va ahamiyati, psixologiya fanining dolzarb vazifalari, predmeti, psixologiyaning

zamonaviy metodlari va ularni amaliyotga tatbiq etish, psixikaning rivojlanishi, organizm va psixika, shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi, bilish mezonlari, va ularning adekvatligi, diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol bilish jarayonlarining boshqarilishi, tafakkur va mustaqil fikrlash shart-sharoitlari, ijodiy va mantiqiy fikrlash, shaxsning hissiy va irodaviy jihatlari, psixologiyada shaxs muammosi, shaxsga ta’sir etuvchi psixologik omillar, shaxsning individual psixologik xususiyatlari va ularni diagnostika qilish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda ta’sirchan psixologik omillar, o‘quvchi shaxsiga individaul yondashuv prinsiplari, ta’limda psixologik xizmat yo‘nalishlari, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy guruhlar psixologiyasi kabi qator masalalar yoritilgan.

1-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANINING DOLZARB VAZIFALARI VA PREDMETI

Reja:

1. Psixologiya haqida tushuncha.
2. Psixika va uning namoyon bo‘lish shakllari
3. Yangi davr psixologiyasi
4. Psixologiya fanining vujudga kelishi va fanlar tizimida tutgan o‘rni.

Mavzuning qisqacha mazmuni

Psixologiyaning predmeti faoliyatida tutgan o‘rni. Psixologiyaning predmeti, maqsadi, vazifalari va psixologik bilimlarning tibbiyotdagi o‘rni.

Psixologiyaning shakllanish tarixi. Psixologiyaning shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari, qadimgi dunyo va o‘rta asr faylasuf va mutafakkirlarining psixologiya ilmi to‘g‘risidagi tushunchalari, dunyo va rus olimlarining psixologiya faniga qo‘shgan hissalari.

Psixika va ong. Psixika va ong muammolari, psixikaning reflektor tabiati, psixikaning moddiy asosi, ongning psixologik tavsifi, onglilik va ongsizlik tushunchalari

Tayanch so‘z va iboralar: psixologiya, psixika, reflector, biologic, yemotsiya, sezgi, xarakter, ong, tafakkur, idrok, intellektual bilim, shartli va shatrsiz reflekslar, kasbga yo‘naltirish, individual yondashuv, psixik jarayonlar, psixologik xolatlar, psixik xususiyatlar, yeksperiment, bixeviorizm, neobixeviorizm, freydizm, neofreydizm, ustanovka, tafakkur, geshtaltpsixologiya, psixoanaliz, kognitivizm.

1-Reja. Psixologiya haqida tushuncha.

«Psixologiya» so‘zi ikkita grek so‘zlaridan - «psyche» - jon, ruh va «logos»- ta’limot, ilm so‘zlaridan iborat bo‘lib, an’anaviy ma’noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmeti har birimizning tashqi olamni va o‘z-o‘zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlar tashkil etadi. Psixologiya bo‘yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, psixikadir, deb ta’rif berishadi. Psixika - bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya’ni bilishimiz, anglashimizni ta’minlaydi. Lekin bu qisqa ta’riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto‘g‘ri bo‘ladi. Chunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma - xilki, biz ba’zan o‘z-o‘zimizni ham tushunmay qolamiz. Shuning uchun ham odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda ro‘y berayotgan ob’ektiv

hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlar majmuiga ega bo‘lish bilan, balki hayotda munosib o‘rin egallash, o‘z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan xolda faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar bo‘lish, o‘ziga va o‘zgalarga ta’sir ko‘rsatishning usullarini bilish va ulardan o‘z o‘rnida unumli foydalanishni nazarda tutadi. Psixologik bilimdonlikning murakkabligi aynan shundaki, atrofimizdagi narsalar va hodisalarning mohiyatini bevosita his qilib bilishimiz mumkin, lekin psixikaga aloqador bo‘lgan jarayonlarni, o‘zimizda, miyamiz, ongimizda ro‘y berayotgan narsalarning mohiyatini bilvosita bilamiz. Masalan, o‘rtoqlarimizdan biri bizga yokadi, doimo bizda yaxshi, ijobiy taassurot qoldira oladi, lekin uning u yoki bu hatti - harakatlarini bevosita ko‘rib, baholab, tahlil qilolsak-da, unga nisbatan his qilayotgan mehrimizni, uzoq ko‘rishmay qolganimizda uni sog‘inayotganligimiz bilan bog‘liq hisni bevosita ko‘rib, idrok qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Aynan shunga o‘xshash holatlar psixologiya o‘rganadigan hodisalar va holatlarning o‘ziga xos tabiati va murakkabligidan darak beradi va ular boshqa turli hodisalardan farq qiladi. Shunday qilib, psixologiya fani o‘rganadigan jarayonlar va hodisalar murakkab va xilma-xil. Ularni o‘rganishning ikki jihati bor: bir tomondan, ularni o‘rganish qiyin, ikkinchi tomondan oson ham. Oxirgi jihati xususida shuni aytish mumkinki, bu hodisalar bevosita bizning o‘zimizda berilgan, ularni uzoqdan qidirish, mavhum analogiyalar qilish shart emas, boshqa tomondan, ular o‘zaro bir - birlari bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarga bo‘ysunadi. Demak, psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq - atvori va turli faoliyatlarining o‘ziga xos tomonlaridir, deb ta’riflash mumkin.

2-Reja. Psixika va uning namoyon bo‘lish shakllari.

Inson mavjud ekan, u o‘z hayotiy tajribaciga asoslanib, u yoki bu holda idrok etish, olamni anglash, narsa va hodisalarni ajratish kabi xususiyatlarga ega ekanligi haqida o‘ziga o‘zi hisob beradi.

Biz kunda qushlarning sho‘x navosini, musiqa asboblarining xonishini, inson nutqini, uchib o‘tayotgan samolyot shovqinini eshitamiz, atrofimizni o‘rab turgan narsa, daraxt, hayvonlar, mashinalarni ko‘ramiz. Ularning rangi va hajmini ajrata olamiz. Mazkur jarayonlar insondagi aks ettirish xususiyati bilan chambarchas bog‘liq.

Psixikaning tarkibiy qismlari bo‘lmish faoliyat, xulq, muomala yaqqol namoyon bo‘lish xususiyatiga ega bo‘lsa, bilish jarayonlari, psixik holatlar, ichki kechinmalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlar esa miyada mujassamlashgani uchun ular ko‘zga ko‘rinmaydi. Psixologiya fanining keyingi davrdagi taraqqiyoti ular o‘rtasida bir talay tafovutlarni keltirib chiqardi.

Demak, psixologiyaning predmetini har birimizning tashqi olamni va o‘z-o‘zimizni bilishimizning asosida yotgan *jarayonlar, hodisalar, holatlar* va shakllangan *xislatlar* tashkil etadi. Psixologiya bo‘yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, *psixika*dir, deb ta’riflashadi.

Psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati va miyaning mahsuli bo‘lib, u borliqning sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta’sir etishi asosida vujudga kelib, bilish jarayonlarida, shaxsning xususiyati va holatlarida, diqqati, his-tuyg‘ulari, xarakter xislatlarida, qiziqishi hamda ehtiyojlarida o‘z ifodasini topadi.

Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati yotib, tashqi dunyodan kirib keladigan qo‘zg‘atuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlarning javob reaksiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarim sharlarida vujudga keladigan muvaqqat nerv bog‘lanishlari psixik hodisalarning fiziologik asoslari hisoblanib, ular tashqi ta’sirning natijasida hosil bo‘ladi. Miyaning funksiyasi psixofiziologik qonuniyatlarga binoan muvaqqat nerv bog‘lanishlarining birlashish mexanizmi hamda analizatorlar faoliyati mexanizmlari ta’sirida hosil bo‘ladi.

Psixikani tadqiq etish deganda insonning butun ongli faoliyatini – uning ham nazariy, ham amaliy hayot faoliyatini o‘rganish tushuniladi. Odamning ongliligi uning turli-tuman faoliyatida, xatti-harakatlarida namoyon bo‘lib, uning shaxsi har xil shakl va mazmunga ega bo‘lgan nazariy hamda amaliy faoliyatlarda tarkib topadi. Bunda muhit, irsiy belgilar, ijtimoiy ta’sir asosiy omillar hisoblanadi.

Inson o‘zi yashab turgan davrni, moddiy turmushni aks ettiradi, ijtimoiy-siyosiy muhit ta’siri ostida bilimlarni o‘zlashtirgan holda ijtimoiylashadi. Shuningdek, ijtimoiy muhitda uning his-tuyg‘ulari, xarakteri, qobiliyati, iqtidori, tafakkuri, ehtiyojlari, e’tiqodi, uni faollikka da’vat qiluvchi harakat motivlari, istaklari, tilaklari, xohishlari asta-sekin o‘zgarib boradi.

Psixikaning turli shakllarda ko‘rinishi, jumladan, psixik jarayonlar, anglanilmagan holatlar, xulq-atvor, psixosomatik *(yunoncha psyche “jon” somo “tana” ma’nosini anglatadi)* hodisalar, inson aql-zakovati va qo‘lining mo‘’jizakorligi moddiy va ma’naviy madaniyat mahsulini yaratdi. Har qanday faktlarda (voqelikda), hodisalarda psixika namoyon bo‘lib, o‘zining xususiyatlarini ajratadi va faqat ular orqaligina psixikani o‘rganish mumkin bo‘ladi.

1-jadval.

PSIXIK HODISALAR KLASSIFIKATSIYASI		
Psixik jarayonlar	**Psixik holatlar**	**Psixik xususiyatlar**
Diqqat	Emotsiya	Temperament
Sezgi	E’tiqod	Xarakter
Idrok	Stress	Qobiliyat
Xotira	Kayfiyat	
Tafakkur	Frustratsiya	
Nutq	Affekt	
Xayol	Hayratlanish	
	Ehtiros	
	Ruhlanish	
	Iroda	

Psixikaninng moddiy asoslari to‘g‘risida fikr yuritilganda, eng avvalo, u miyaning xususiyati ekanligini ta’kidlash lozim. Organizmning psixik faoliyati tananing ko‘p miqdordagi a’zolarining yordami bilan ishga tushadi. A’zolarning ba’zi birlari ta’sirotlarni qabul qilsa, boshqalari ularni signallarga aylantiradi, xatti-harakatlarning rejasini tuzadi hamda uning amalga oshishini nazorat qiladi. Shuningdek, ularning bir guruhi xatti-harakatga kuch-quvvat, g‘ayrat, shijoat baxsh etadi, yana bir turi esa mushaklarni, paylarni harakatlantiradi. Mana shunday murakkab funksiyaning yig‘indisi (majmuasi) organizmning tashqi muhitga moslashuvini, unga muvofiqla-shuvini, hayotiy vazifalar ijro etilishini, bajarilishini ta’minlaydi.

Organik olamning mikroorganizmdan to insonga qadar bir necha o‘n million yil davom etgan evolyusiyasi davomida xatti-harakatlarning, xulq-atvorning fiziologik mexanizmlari uzluksiz ravishda murakkablashib, tabaqalanib, buning oqibatida organizm muhitning o‘zgarishlariga tez reaksiya qiluvchan, moslashuvchan xususiyat kasb etib borgan.

Jumladan, bir hujayrali amyobaning hayot kechirishi uning ozuqa qidirish imkoniyati, o‘z hayotini muhofaza qilish qobiliyati muayyan darajada cheklangandir. Undagi yolg‘iz hujayraning o‘zi ham sezuvchi, ham harakatlanuvchi, ham ovqat hazm qiluvchi vazifalarni ijro etadi. Murakkab tuzilishga ega bo‘lgan hayvonlarda a’zolarning ixtisoslashuvi ozuqani ko‘rish, uni farqlash, xavf-xatarni tez sezish, aniq mo‘ljal olish imkoniyatini beradi. Ixtisoslashuvning asosiy funksiyasi signallarni idrok qilishdan iborat xujayralarning vujudga kelishida o‘z aksini topadi. Mazkur hujayralar yig‘indisi reseptor deb nomlanadi. Hujayralarning boshqalari mushak to‘qimalari ishini, bezlarning shira ajratishini nazorat qiladi. Bunday hujayralar effektorlar deyiladi. Ixtisoslashuv a’zolarni hamda funksiyalarni bir-biridan ajratadi. Organizmning asosiy boshqaruv imkoniyati yaxlit narsa sifatida harakat qiladigan markaziy nerv sistemasi vositasi bilan erishiladi.

Nerv sistemasining asosiy tarkibiy qismlari nerv hujayralari (neyronlar) hisoblanib, ularning funksiyasi qo‘zg‘atishdir. *Neyron* h*ujayra tanachasidan, dendritdan, aksondan tashkil topadi*. Markaziy nerv sistemasi bosh miya va orqa miyadan iborat.

Hozirgi zamon fanining ko‘rsatishicha, *orqa miya va miya naychasi reflektor faoliyatining tug‘ma (shartsiz reflekslar) hisoblangan shakllarni amalga oshiradi*, katta yarim sharlarning qobig‘i esa hayotda orttirilgan, psixika yordami bilan boshqariladigan xulq-atvor shakllarining organi sanalanadi.



Bosh miya va uning tuzilmasi

Miya katta yarim sharlari faoliyatining umumiy qonunlari I.P.Pavlov tomonidan kashf etilgan. Hozirgi zamon fiziologiyasi ma’lumotiga qaraganda, miyada hosil bo‘ladigan to‘lqinlar turli chastotadagi elektromagnit tebranishlariga o‘xshab ketadi. Miyada elektroensefalogramma ko‘rinishdagi kuchaytirgich yordamida yozib olish mumkin bo‘lgan elektr toklari paydo bo‘lishining kashf etilishi muhim ahamiyatga ega.

Odamning psixik hayotida katta yarim sharlar qobig‘i sirtining peshona qismlari alohida rol o‘ynaydi. Psixik funksiyalar chap va o‘ng yarim sharlar o‘rtasida taqsimlanadi. Ma’lumki, *psixikaning mazmuni tirik mavjudod o‘zaro munosabatda bo‘ladigan tashqi olam bilan belgilanadi*. Psixik va nerv-fiziologik jarayonlarning o‘zaro munosabati masalasi murakkab muammolardan hisoblanadi. Psixikaning o‘ziga xos xususiyatlari nerv-fiziologik xususiyatlaridan qanday muhim belgilari bilan farqlanishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Agarda mazkur o‘ziga xoslik mavjud bo‘lmaganida edi, u holda psixologiya mustaqil bilim sohasi sifatida tadqiq etilishi ham mumkin emas edi. Psixik jarayonlar o‘zida ichki, fiziologik jarayonlarning emas, balki tashqi ob’ektlarning tavsifini mujassamlashtiradi.

Psixikada o‘tmishning, hozirgi davr va kelasi zamonning hodisalari ifodalangan, tartibga solingandir. O‘tmish hodisalari inson xotirasida mujassamlashib, shaxsiy tajribalarda namoyon bo‘ladi. Hozirgi zamon aqliy jarayonlar, hissiy kechinmalar, obrazlar va tasavvurlar majmuasida ifodalanadi. Kelajak esa turtkilarda, maqsad, ezgu niyatlarda, shuningdek, fantaziya, vijdon azobi, armon va tushlarda aks etadi. Inson psixikasi ham anglanilmagan, ham anglanilgan xususiyatga ega bo‘lib, anglanilmagan psixika o‘z navbatida hayvon psixikasidan sifat jihatidan keskin tafovutga va ustuvorlikka ega.

Psixikaning insonda paydo bo‘lishi sifat jihatdan mutlaqo yangi tuzilishga ega, chunki u ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning qonuniyatlari bilan shartlangandir.

Faoliyat regulyatsiyasining yuksak darajasi sifatida ong vujudga keladi, psixika faolligining yuksak ko‘rinishi manbai tariqasida esa shaxs shakllanadi.

Insonning ongi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli bo‘lish bilan birga, u mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishda, hamkorlikdagi o‘zaro ta’sirda, tabiatga, jamiyatga nisbatan munosabatlar mohiyatida vujudga kelgan. Buning mahsuli, shakli sifatida individual, guruhiy, etnik (milliy) ijtimoiy ong namoyon bo‘lgan va ularning barchasi taraqqiyot tufayli o‘zining yangi bosqichlariga o‘sib borib, fan, texnika yaralishiga puxta zamin hozirlagan.

Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli, ya’ni faqat odamgagina tegishli bo‘lib, u nutq bilan bog‘liq bo‘lgan markaziy nerv sistemasi faoliyatidir. Shuningdek, ***ong*** shaxsning tevarak-atrofdagi narsalarni, hozirgi va o‘tmish davrni yaxshi bilish, o‘zlikni anglash, qaror qabul qilish, vaziyatga qarab o‘z xatti-harakatini boshqarish qobiliyati bilan namoyon bo‘ladi.

Psixologik manbalarda *ongning tarkibiy qismlarining mohiyati* quyidagicha tavsiflanadi:

Ong - narsa va hodisalar haqidagi bilimlar majmuasidan iborat bo‘lib, uning tuzilishi tarkibi barcha bilish jarayonlari (diqqat, sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol) kirib, ular yordami bilan shaxs o‘z axborotlari ko‘lamini uzluksiz ravishda boyitib boradi. Bunda bilish ikki xil *hissiy* va *aqliy* bosqichda namoyon bo‘ladi.

Ongning ikkinchi psixologik tavsifi sub’ekt bilan ob’ekt o‘rtasidagi aniq farqlanishda o‘z ifodasini topishi, ya’ni shaxs “Men” degan tushunchasi bilan “Men emas” atamasi tarkibiga nimalar tegishli ekanligini aniq bilishi bilan izohlanadi. Shaxs tirik mavjudodlar olamida birinchi bo‘lib borliqda real uni qurshab turgan tevarak-atrofga nisbatan o‘zini qarama-qarshi qo‘yadi va ong yordamida o‘z-o‘zini anglaydi.

Ongning uchinchi psixologik tavsifi shaxsning maqsadni ko‘zlovchi faoliyatini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Bunda shaxs faoliyatining turli xususiyatli motivlari ehtiyojlar asosida yuzaga kelishi, ular inson tomonidan chamalab chiqilishi, buning natijasida motivlar kurashi namoyon bo‘lishi, bu o‘rinda ustuvorlikka erishish yetakchilikni ta’minlashi, irodaviy zo‘r berish oqibatida muayyan qaror qabul qilinishi, harakatlarni bajarishning izchilligi qay yo‘sinda amalga oshirilayotgani hisobga olinishi, maqsadni qaror toptirish yo‘lidagi to‘siqlar bartaraf etilishi va unga muayyan o‘zgarishlar kiritilishi, samaradorlikni oshirish uchun ba’zi bir tuzatishlar amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

4. *Ongning so‘nggi tavsifi* uning tarkibiga muayyan darajadagi emotsional (hissiy) munosabatlar tizimi qamrab olinganligini aks ettiradi. Shaxs ongiga turli-tuman his-tuyg‘ular, kechinmalar, stress, affekt holatlar to‘g‘risidagi axborotlar oqimi kirib kela boshlaydi. Shaxsning boshqa kishilarga, tabiatga, jamiyatga, narsalarga nisbatan munosabatlari mavjud mezonlarga asoslansa, muayyan qoidalarga bevosita amal qilinsa ongning nazorat funksiyasi me’yorda ekanligidan dalolat beradi.

Odamda ong asta-sekin rivojlana boradi. Yangi tug‘ilgan bolada ong bo‘lmaydi, lekin u ruhan va jismonan taraqqiy etgan sari rivojlana boradi va

takomillashadi. Ongga yuqori darajali izchillik xosdir. U doim jadalligi, chuqurligi va kengligi bilan boshqa bilish jarayonlaridan farq qiladi. Odam hayotining turli davrlarida — o‘smirlik, o‘rta yosh, qarilik chog‘ida ong turli ko‘rinishda bo‘lsa-da, u bir butundir.

Odam tanasi faqat tashqi olamdan (ko‘ruv, eshituv, hid bilish) dan emas, balki tanasining ichki a’zolaridan ham ta’sirot yetkazuvchi reseptorlar orqali ma’lumot olib turadi, lekin ular ongda aks etmaydi. Tashqi olamdan axborot olish va o‘zini-o‘zi anglash doimo ongda aks etib turadi. Ana shu jarayonlar natijasida odam o‘z his-tuyg‘ulari, sezgilari, xohishlari, ehtiyojlarini atrof-olam vaziyatlari bilan taqqoslaydi. Bu ongning eng muhim funksiyasidir.

Psixofiziologlar ongga bosh miya po‘stlog‘ining funksiyasi deb ta’rif berishadi. Ularning fikricha, bosh miya po‘stlog‘i va birinchi galda ikkinchi signal sistemasi ong uchun, uning rivojlanishi hamda saqlanib qolishi uchun hal etuvchi o‘rin tutadi. Miya ustuni retikulyar formatsiyasi ham ong jarayonida muhim o‘rin tutadi. Retikulyar formatsiya ongga ta’sir o‘tkazadi, uyqu va tetiklikni idora etadi. Ikkinchi signal sistemasi ongga xos bo‘lgan o‘z-o‘ziga hisobot berishni ta’minlasa, ong faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan po‘stloqning tetiklik holati retikulyar formatsiyaning faoliyati bilan uzluksiz bog‘langandir.

3-Reja. Yangi davr psixologiyasi.

XIX asr oxirlariga kelib psixologiya sohasida mukammal darsliklar yozila boshlagan. Shu davr ichida juda ko‘plab ilmiy tadqiqot natijalarini o‘z ichiga olgan monografiyalar, darsliklar, qo‘llanmalar yozildi. Lekin, bu bilan fanning jamiyat hayotida tutgan o‘rni juda oshib ketdi, deb bo‘lmaydi. Sababi, psixologiya sohasida faoliyat ko‘rsatgan barcha olimlar ko‘prok diqqatlarini mavxum shaxs va individual psixologiyaga qaratdilar.

Vaholanki, inson, uning barkamolligi, jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’siri masalasi hozirgi davrga kelib, o‘ta dolzarb va muhim muammolar qatoridan joy oldi. XX asrda insoniyat texnika, elektronika va boshqa shunga o‘xshash murakkab texnologiyalarni yaratgangani bilan xarakterlansa-da, vaqti kelganda, shunday xolatga duch kelamizki, murakkab elektron texnikani yaratgan o‘ta aqlli inson o‘zi va o‘zi atrofidagilarning ruhiy kechinmalarini to‘g‘ri baholay olmasligi sababli, o‘zini nochor va kuchsiz sezishi mumkinligini hayot isbotladi. XXI asrda juda ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi dunyo xaritasida munosib o‘rin olgan mustaqil O‘zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko‘tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma’naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog‘ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o‘z ustida ishlashi, o‘z mukammalligi xususida qayg‘urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Inson psixologiyasini bilish, o‘z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o‘zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta’minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro‘y berayotgan jarayonlarni ob’ektiv va to‘g‘ri idrok qilish

qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi. Shunday qilib, yangi davr har bir insondan o‘z ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk Suqrot o‘z davrida «O‘z - o‘zingni bil!» degan shiorni o‘rtacha tashlagan bo‘lsa, yangi davr «o‘z yoningdagilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil», degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qo‘ydi. Ayni shu muammoni yechishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir. An’anaga aylanib qolgan hodisalardan biri shuki, psixologiya va u o‘rganadigan hodisalarni faqatgina ushbu fan bilan bevosita shug‘ullanadigan kimsalar o‘rganib kelishgan, zero, psixologik hodisalar bilan har qanday inson ham tanish bo‘lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Yangi davr va uning o‘zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

Psixologiyaning fan sifatida dunyoga kelishi va rivojlanishi ko‘plab olimlarning ilmiy adabiyot va darsliklarida bayon etilgan. Fransiyalik olim J.Godfruaning “Chto takoe psixologiya” nomli 2-jilddan iborat kitobida antik dunyodan boshlab inson psixikasi, uning qalbi, hislari, xulqi masalalari diqqat markazda bo‘lgan ekanligi, psixologiyaning fan sifatida rivojlanishida faylasuflarning qarashlari, tabiiy fanlar rivoji, 17asrdan boshlab falsafa fanidan turli fanlarning ajralib chiqishi, 18 va 19asrlarda Kondilyak, Lokk, Yum yondashuvlari asoslab berilgan. Psixologiyaning Fan sifatida rivojlanishida nemis psixologi va fiziologi Vilgelm Vundt (1832-1920)ning xizmati, uning tomonidan maxsus tajribaviy sinov laboratoriyalarining tashkil etilishi va mohiyati ochib berilgandir. Psixologiyaning paydo bo‘lishi va Fan sifatida e’tirof etilishida biologik, ijtimoiy, bixevior (xulqga ko‘ra), kognitiv, psixoanalitik, gumanistik, sotsial-psixologik yo‘nalishlar va ularning asoschilari bayon etilgan. (Godfrua J. Chto takoe psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frans. M., Mir, 1992. -496 s. 57-80-b.) Rossiyalik psixolog olim R.S.Nemov uch jilddan iborat “Psixologiya” kitobida psixologiya atamasi 16-asrda birinchi marta qo‘llanilganligini, ong va o‘zini kuzatish tufayli inson o‘zidagi psixik xolatlarni o‘rgana borganligini, keyinchalik insonning faoliyati sohasida shu psixik jarayonlarni o‘rganish zarurati yetilganligini izohlab bergan. (Nemov R.S. Psixologiya: Uchebnik dlya stud. Vuzov., Kn. 1.: 688 s. 8-12 b.)

O‘zbek psixolog olimlari E.G‘oziev, M.Xolmuxamedov, X.Ibrohimovlarning “Psixologiya metodologiyasi” o‘quv qo‘llanmasida psixologiya fanining falsafa va tabiatshunoslik fanlari negizida paydo bo‘lganligi yetarlicha dalillar vositasida ko‘rsatib berilgan. Demak, psixologiya 1879-yilda Leypsig Universitetida nemis fiziologi va psixologi Vilgelm Vundt tomonidan birinchi psixologik laboratoriya tashkil etilib, unda ilmiy asosda turli tajribalar o‘tkazish boshlangandan keyin mustaqil fan sifatida tan olingan.

4. Reja. Psixologiya fanining vujudga kelishi va fanlar tizimida tutgan o‘rni.

Psixologiya fanining maqsad va vazifalari shaxs psixik faoliyatining shakllanish va rivojlanish mexanizmlarini o‘rganishdan iboratdir. Psixologiya fani yaqqol inson fazilati, muayyan taraqqiyot xususiyatlari, mexanizmlari, qonuniyatlari, o‘ziga xoslik, alohidalik, yakkahollik tabiati yuzasidan bahs yuritadi.

Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino (980-1037) o‘zining davrigacha ma’lum bo‘lgan psixologiyaga doir ma’lumotlarni to‘plab, maxsus asarlar (“Jon to‘g‘risida risola” (“Risola fi-al-nafs”), “Psixologiya to‘g‘risida risola” (“Risola-dar revanshinosi”), “Kitob al-ta’bir” (“Tushni yo‘yish kitobi”), “Jon-ruh haqida kitob” (“Kitob al-muhjat”), “Tib qonunlari” (“Kitob al-qonun fit tib”), “Shifo beruvchi kitobi” (“Kitob an-najot”), “Donishnoma”) yozib qoldirgan.

Ibn Sino antik dunyo olim va faylasuflari va o‘tgan sharq mamlakatlari olimlari yozib qoldirgan asarlarini chuqur o‘rganar ekan, u psixologiyaning “otasi” deb nom olgan Arastuni o‘zining “birinchi o‘qituvchisi” deb tan oladi. U Arastu singari odam tanasi va “ruhiy quvvatlar” materiya bilan shaklan bir-biridan ajratilmagan holda mavjud ekanligini e’tirof etadi. Bu bilan mashhur mutafakkir psixik faoliyat bilan odam salomatligining bir-biriga ta’sir etish kuchi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini isbot qilishga harakat qiladi. Ibn Sino o‘zining nazariy bilimlarini turli tajribalari natijalariga ko‘ra asoslab berishga harakat qiladi.

Ibn Sino psixik holatlarning organizmga ta’siri har qanday ruhiy jarayonning fiziologik asoslari bilan bog‘liq ekanligi hamda organizmga tashqi muhitning ta’siri katta bo‘lishini isbotlash maqsadida ikkita qo‘zi olib, ulardan birini och bo‘ri yaqiniga bog‘lagan, ikkinchisini esa bo‘riga ko‘rsatmay, oddiy, tinch sharoitda boqqan. Har ikkala qo‘yga ham bir xil hajmdagi yemakni aynan bir vaqtda berib borgan. Ko‘p o‘tmay bo‘riga yaqin bog‘langan qo‘zi uning doimiy hamlalaridan uzoq vaqt qo‘rqqanidan juda ham ozib ketgan va yaxshi boqilishiga qaramay, kasallikka uchrab nobud bo‘lgan. Tinch sharoitda boqilgan qo‘zi esa kundan-kun semirib, xotirjam uzoq yashagan. Ibn Sinoning turli kasallikka chalingan og‘ir bemorlarni psixoterapevtik ya’ni so‘z bilan ruhiy ta’sir qilish orqali davolaganligi haqida ko‘plab hikoyalar uchraydi.

Shuningdek, uning asarlarida kasalliklarning oldini olishda tarbiyaning ahamiyati alohida ko‘rsatib o‘tiladi. “Tarbiya erta bolalik davridan boshlanishi kerak”, degan edi Ibn Sino. Bolani qo‘rqoq, g‘amgin yoki juda erka qilib o‘stirmaslik kerakligini, bolaning istaklarini yaqinlari payqashi va uning xohishini muhayyo qilishini, yomon illatlardan esa bolani yiroqlashtirishlari zarurligini uqtirgan. Bu amallarni bajarish bolaning zehnini o‘tkir, tanasini sog‘lom qilib o‘stirishini ta’kidlab o‘tgan.

Ibn Sinoning tana va ruhiyatning bir butunligi haqidagi fikrlari hozirgi kunda zamonaviy tibbiyot yutuqlari tufayli o‘z isbotini topib, psixosomatik tibbiyot faniga asos soldi. U xotiraning buzilishi bosh miyaning orqa qismi, tafakkurning buzilishi miyaning o‘rta qismi, idrokning buzilishi esa miya qorinchalarining zararlanishi bilan bog‘liq deb mulohaza bildirgan. Psixik jarayonlarning buzilishini

o‘rganish XIX asrlarda G‘arb olimlari tomonidan boshlangan degan fikr hali-hanus manbalarda uchraydi. Vaholanki, buyuk bobokalonimiz o‘z davrida depressiya, epilepsiya, ongning buzilishlari, gallyusinatsiyalar, alahsirash, tafakkur va xotira buzilishlarini o‘rganib, ular haqida yozib qoldirgan.

Abu Ali ibn Sino bosh miyaning atrof muhitdagi narsa va hodisalarni o‘zida turli xil shaklda aks ettirish qobiliyatiga ega ekanligini anglab yetgan. Tashqi ta’sirlar avvalo sezgilar orqali namoyon bo‘lishi va ular ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m va teri-tuyg‘u ko‘rinishga ega ekanligini, ularning xususiyatlari va ahamiyati haqida to‘xtalib, har qaysi sezgining bosh miyada alohida boshqarib turadigan markazi borligini ta’kidlagan. U insonning tafakkuri, xayoli, xotirasi va iroda sifatlariga yuqori baho beradi va bu psixik jarayonlarning bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanligini anglaydi. Tafakkurning yordamida hodisa va voqealarni bir-biri bilan almashtirish, abstraksiyalash bilan haqiqatni yolg‘ondan ajratiladi. Xotira yordamida esa idrok qilingan narsa va hodisalar kishi ongida mustahkam joylashadi va idrok qilingan bir ob’ektni ikkinchisidan ajratishga yordam beradi. Xayol kishi ongida ob’ektiv voqelikni aks ettiradi, degan fikrlarni bayon etish orqali Ibn Sino psixologiya sohasida chuqur bilimga ega bo‘lganidan dalolat beradi. Abu Ali ibn Sino psixologiya fanining keyingi taraqqiyotiga ham ko‘pgina ilg‘or va haqqoniy fikrlari bilan katta hissa qo‘shgan.

Sharqlik yana bir buyuk mutafakkir alloma Ismoil Jurjoniy (1080–1141 yillarda Xorazmda yashab ijod qilgan) tibbiyotga oid asarlarida (“Ibn Sino haqida so‘z”, “Xorazmshoh xazinasi” va “Xastaliklarni aniqlash usullari”) bemorlar psixologiyasiga bag‘ishlangan bir qancha fikrlar bayon qilingan. Sharq olimlari bemorlar psixologiyasi va ruhiy kasalliklarni o‘rganishga katta hissa qo‘shibgina qolmay, ular Marvda, Bog‘dodda, Quddusda, Damashqda bemorlar uchun shifoxonalar ochadilar.

XVII asr biologiya va psixologiya fanlari taraqqiyoti uchun muhim davr bo‘lib, jumladan, fransuz olimi Dekart (1596-1650) tomonidan xulq-atvorning reflektor (g‘ayriixtiyoriy) tabiatga ega ekanligini kashf etilishi, yurakdagi mushaklarning ishlashi (faoliyati) qon aylanishning ichki mexanizmi bilan boshqarilayotganligini tushuntirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, refleks *(lot. “reflexus” - aks ettirish)* organizmning tashqi ta’sirga qonuniy ravishdagi javob reaksiyasi sifatida talqin qilinishi asab-mushak faoliyatini ob’ektiv tarzda bilish vositasiga aylandi, sezgi, assotsiatsiya, ehtiros yuzaga kelishini izohlashga imkon yaratildi.

Psixologiya fanining ilmiy asosga qurilishida ingliz olimi Gobbs (1588-1679) ruhni mutlaqo rad etib, mexanik harakatni yagona voqelik deb biladi va uning qonuniyatlari psixologiyaning ham qonuniyatlari ekanligini ta’kidlaydi. Uning negizida epifenomenalizm *(yunon. “epi” - o‘ta, “phainomenon” - g‘ayritabiiy hodisa)* vujudga kelib, psixologiya tanadagi jarayonlarning soyasi singari ro‘y beradigan ruhiy hodisalar to‘g‘risidagi ta’limotga aylandi.

Niderlandiyalik olim Spinoza (1632-1677) ongni katta ko‘lamga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqelik, ya’ni yaqqol narsa deb tushuntirib, u determinizm *(lot. “demerminata” - belgilayman)* prinsipining, ya’ni tabiat, jamiyat

hodisalarining, shu jumladan, psixik hodisalarning ob'ektiv sabablari bilan belgilanishi haqidagi ta'limot targ'ibotchisi hamdir.

Nemis mutafakkiri Leybnis (1646-1716), ingliz faylasufi Jon Lokk (1632-1704), ingliz tadqiqotchisi Gartli (1705-1757), fransuz adibi Didro (1713-1784) kabilar g'oyalar assotsiatsiyasi (bog'lanishi) qonuni, idrok va tafakkurning paydo bo'lishi, qobiliyatlar psixologiyasi haqida muhim ta'limotlarini yaratish bilan fanning rivojlanishiga muhim hissa qo'shdilar.

XVIII asrga kelib Galler, Proxazkalar nerv tizimini tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishdilar, natijada esa psixika miyaning funksiyasi ekanligi haqidagi ta'limot vujudga keldi. Ingliz tadqiqotchisi Charlz Bell va fransuz Fransua Majandi tomonidan yozuvchi va harakat nervlari o'rtasidagi tafovut ochib berilib, uning negizida reflektor yoyi degan yangi tushuncha paydo bo'lib, bularning natijasida ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz) reflektor turlari kashf qilindi.

Avstriyalik shifokor F.Gall (1758–1828) odam miyasining tuzilishini juda mukammal o'rganib, miyaning frenologik xaritasini yaratdi. U bosh miya katta yarim sharlarining kulrang va oq moddasini bir-biriga bog'liq bo'lgan alohida tuzilmalar ekanligini birinchilardan bo'lib aniqladi. F.Gall bosh miya po'stlog'ida 40 ga yaqin ruhiy funksiyalarni joylashtirdi va ularni miyaning pushtalari (bo'rmalar) bilan bog'ladi. U harakat, ko'ruv, eshituv va sezgi markazlari bilan birgalikda miyada xotira, tafakkur, sevgi, kamtarlik, donolik, ayyorlik markazlarini joylashtirdi. O'ta qobiliyatli odamlarning miyasidagi pushtalar kuchli rivojlangan, botiq va chuqur bo'ladi, kimning fikrlashi sust bo'lsa, uning miyasi silliq bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi.

Yuqoridagi ilmiy kashfiyotlar ta'sirida rus olimi I.M.Sechenovning (1829-1905) reflektor nazariyasi ro'yobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari, bosh miya reflekslarining o'ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu muhim nazariy qoidalar I.P.Pavlov (1849-1936) tomonidan tajriba yo'li bilan tasdiqlandi. U hayvon va odamning tashqi muhit bilan o'zaro harakati miya tomonidan boshqarilishi qonuniyatlarini kashf etgan edi. Olimning ushbu qonuniyatlariga nisbatan barcha qarashlari odatda ikki xil signal tizimi haqidagi ta'limot deb ataladi.

XIX asrning o'rtalarida psixologiyaning rivojlanishida katta o'zgarishlar yuz berib, Mesmer gipnoz (*yunoncha – "uyqu" degan ma'noni anglatib, fanga ushbu tushunchani 1843 yili angliyalik jarroh Jeyms Bred kiritgan.*) haqidagi ta'limot yaratadi. Gipnozda kuzatiladigan barcha hodisalarni Mesmer "magnetizm" bilan bog'laydi. Keyinchalik fransiyalik olim J.M.Charkott (1888) gipnoz asosida fiziologik jarayonlar yotadi deb uqtiradi. Mazkur davrda mashhur nevrologlar va psixiatrlar (J.Sharko, Benedikt, Forel, Levenfeld, Mapassan, S.S.Korsakov, Mebius) bemorni gipnoz usuli bilan davolashni keng yo'lga qo'yishadi.

1879 yili Leypsigda birinchi psixologik laboratoriya tashkil qilgan Vilgelm Vundt (1832-1920) psixologiyaning strukturaviy maktab yo'nalishiga asos soladi. Vundt psixologiyaning asosiy vazifasi sifatida ong jarayonini qismlarga ajratish va ular o'rtasidagi qonuniyat bog'lanishlarni o'rganish taklifini kiritadi.

Venalik yosh shifokor Zigmund Freyd (1856-1939) psixologiya sohasida katta shov-shuvga sabab bo‘lgan psixoanalitik maktab yo‘nalishiga asos soladi. Z.Freyd odam psixik hayotining markaziga ongni qo‘yish o‘rniga, uni ozgina qismi suvning tepasiga chiqib turgan aysbergga qiyosladi. U shu davrgacha hukmronlik qilib kelgan odamga o‘z xulqini anglay oladigan aqlli mavjudot sifatida qarashlarga mutloqo zid bo‘lgan nazariyani ilgari suradi. U odamlar doimiy ziddiyat holatida bo‘lishini va nizolarning sababini anglanilmagan jinsiy, agressiv mayllar bilan bog‘liqligini e’tirof etadi. Z.Freyd o‘zining 45 yillik samarali ilmiy faoliyati davomida shaxsning birinchi keng ko‘lamli nazariyasini, o‘zining terapevtik tajribasi va o‘zini o‘zi tahlil qilishga asoslangan klinik kuzatishlarning keng miqyosli tizimini, nevrotik buzilishlarni davolashning o‘ziga xos usulini, boshqa hech qanday usul bilan o‘rganib bo‘lmaydigan psixik jarayonlarni tadqiq qilish usullarini yaratib, freydizm yo‘nalishiga asos soladi.

Z.Freyd fiziologlar (I.M. Sechenov, I.P. Pavlov) hamda nevropatolog va psixolog olimlarning (Ernest Krechmer, Emil Krepelin, Eygen Bleyler) ilmiy ishlarini ham o‘rganadi. U isterik nevrozlarning kelib chiqishida I.P.Pavlovning tormozlanish va qo‘zg‘alish jarayonlari haqidagi ta’limotini yuqori baholaydi. Uning dastlabki safdoshlari va shogirdlari A.Adler va K.G.Yunglar nevrozlarning kelib chiqishiga oid o‘z nazariyalarini ilgari surib, Freydcha yondoshuvni kengaytirishga harakat qilishdi. A.Adler fanda individual psixologiya g‘oyasini ko‘tarib chiqib, shaxsning ijtimoiy determinantlariga alohida e’tibor beradi. K.G.Yung esa o‘z e’tiborini analitik psixologiyaga qaratib, shaxsning psixik salomatligiga erishish uchun uning turli yo‘nalishdagi intilishlari o‘zaro mutanosiblikdagi bir butunlikda jamlanishi kerak, degan fikrni isbotlaydi.

O‘tgan asrning birinchi yarmida E.Krechmer (1888-1964) “Tibbiyot psixologiyasi” asarini yozadi va tibbiyot psixologiyasini alohida fan sifatida rivojlanishiga sababchi bo‘ladi. U mazkur fanni barcha tibbiy, falsafiy va biologik fanlar yutug‘iga asoslanib o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Krechmer tibbiyot psixologiyasida va psixoterepiyada odam ruhiyatining shakllanishida va buzilishida asosan tug‘ma konstitusional omillarga katta e’tibor berdi.

Psixologiya fanining eksperimental, psixoanalitik, bixevioristik, empirik, epifenomenalistik, geshtalt, assotsiativ, vyursburg, psixogenetik, reduksionizm, solipsizm, gumanistik, biogenetik, sotsiogenetik kabi yo‘nalishlari tomonidan to‘plangan ma’lumotlar hozirgi zamon psixologiyasini vujudga keltirdi.

Psixik (ruhiy) hodisa insonning shaxsiy g‘oyalarini, hissiy kechinmalarini, sezgi va idrok jarayonlarini o‘zi kuzatish jarayonida aks etuvchi voqelikdangina iborat emas. Balki u refleks singari tashqi qo‘zg‘atuvchilarning ta’sirini va unga javoban bildiriladigan harakat reaksiyasini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Ma’lumki, I.M.Sechenovgacha bo‘lgan psixologik, fiziologik nazariyalarda insonning ongida obrazlar, tasavvurlar, mulohazalar, g‘oyalar tarzida aks ettiriluvchi hodisalarni psixologiya fanining predmeti sifatida tan olinar edi. Lekin bu psixologik voqelik I.M.Sechenov tomonidan organizmning muhit bilan o‘zaro ta’sir harakatining alohida shaklidan iborat ekanligi, psixologik yaxlit jarayonning ayrim holatlari, uning lahzalari tariqasida tushuntirildi. Psixologiyada tan olib

kelinayotgan psixik jarayonlar ongning ichida tug‘iladi va uning ichida yakunlanadi, degan g‘oya I.M.Sechenov tomonidan inkor qilinadi, asossiz da’vo ekanligi ta’kidlanadi.

Psixikaning reflektor tabiati, xususiyati to‘g‘risida rus olimi I.M.Sechenov va uning shogirdlari tomonidan to‘plangan materiallar asos hisoblanadi. I.M.Sechenovning “Bosh miya reflekslari” nomli asarida “ong va ongsiz hayotning barcha harakatlari ro‘y berish usuliga ko‘ra reflekslardan iboratdir” deydi. Uning fikricha, psixik hodisa sifatida ongning harakati tanasiz ruhning xususiyatiga emas, vujudga kelish usuliga, tuzilishiga binoan refleksga o‘xshash xislatga ega bo‘lgan jarayondir.

I.M.Sechenovning fikricha, psixik hodisa yaxlit reflektor harakat tufayli yuzaga keluvchi va uning mahsuli bo‘lishi bilan birga ham vujudga kelmagan, lekin ta’sir o‘tkazish ehtimoli mavjud kutilmadan boxabar qiluvchi omil funksiyasini ham bajaradi, ya’ni ilgarilab ketuvchi bashorat vazifasini ijro etadi. Bunday dadil ilmiy mushohadalar psixik jarayonlar umuman qanday rol o‘ynashi mumkinligi, ularning o‘rni to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish uchun moddiy negizni vujudga keltiradi. Psixik jarayonlar organizmda signal va boshqaruv (regulyativ) funksiyasini ijro etib, o‘zgaruvchan shart-sharoitlarga harakatni moslashtiradi, shuningdek, mazkur daqiqada yuqori samaraga erishishni ta’minlaydi. Psixik jarayon miyaning bo‘lmalari (tarkibiy qismlari) funksiyasi tariqasida tashqi olam (borliq) to‘g‘risidagi axborotning qabul qilinishi, saqlanishi, qayta ishlanishini o‘zida mujassamlash-tiruvchi javob faoliyatining idora qiluvchisi hisoblanadi. Shuning uchun odamlarning bilimlari borliq to‘g‘risidagi tasavvurlari, shaxsning shaxsiy tajribalarining yig‘indisi reflektor harakat tarkibiga kiradi. Shunday qilib, psixik hodisalar deganda miyaning tashqi (qurshab turgan olam) va ichki (fiziologik tizimdagi organizmning holati) ta’sirlarga javobini tushunmoq kerak.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, I.M.Sechenov psixikaning reflektorligi va faoliyatning psixik jihatdan boshqarilishi ta’limotini xaspo‘shlab berdi. Bu ta’limot ya’ni nazariya rus olimi I.P.Pavlov (1849-1936) tomonidan eksperimental tasdiqlandi va xususiy holatlarda keng ko‘lamda yaqqollashtirildi. I.P.Pavlov ham odamlarning, ham hayvonlarning tashqi muhit bilan o‘zaro harakati *miya bilan boshqarilishi* qonuniyatini ochgan edi. Uning mazkur qonuniyatlarga taalluqli qarashlari yig‘indisi birinchi va ikkinchi signallar tizimi to‘g‘risidagi ta’limot tariqasida fan olamida muhim o‘rin egalladi.

Tevarak-atrof muhitidagi narsa va hodisalarning ko‘rinishi, eshitilishi, hid tarqatishi, tovlanishi, yengil yoki og‘irligi, qattiq yoki yumshoqligi kabilar hayvonlar uchun *shartsiz qo‘zg‘atuvchi signal* bo‘lib xizmat qiladi, keyinchalik ular *shartli refleks*ga aylanishi mumkin. Hayvonlar o‘z xatti-harakatlarida I.P.Pavlov ta’biri bilan aytganda, birinchi signal sistemasining signallari (“birinchi signallar”)ga rioya etadilar. Binobarin, ularning psixik faoliyati birinchi signallar sistemasi bosqichida amalga oshadi va unga uzluksiz ravishda amal qiladi. Inson faoliyati va xulq-atvori uchun ham birinchi signal sistemasining signallari (yaqqol, tasavvurlar, timsollar, obrazlar) ularni boshqarishi, yo‘naltirishi, harakatlantirishi

faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, yo‘l (ko‘cha) qoidalari, avtomobil, elektrovoz signallari, havf-xatar belgilari shaxs uchun muhim rol o‘ynaydi. Shuni unutmaslik kerakki, insonning xulq-atvorini signal qo‘zg‘atuvchilar mexanik ravishda boshqarmaydi, balki mazkur *qo‘zg‘atuvchilarning miyaga o‘rnashib qolgan timsollari, ya’ni signallari boshqarib turadi*. Muayyan timsolga ega bo‘lgan timsollar narsa va hodisalar to‘g‘risida signal jo‘natadi, buning natijasida insonning xatti-harakatini boshqarib turadi.

Odamlarda hayvonlardan farqli o‘laroq, birinchi signallar sistemasi bilan bir qatorda ikkinchi signallar sistemasi ham mavjuddir. Ikkinchi signallar sistemasining signallari odamlar tomonidan talaffuz etilgan, qabul qilingan, eshitilgan, o‘qilgan tushunchalar va so‘zlardan (“ikkinchi signallari”dan) tashkil topadi. Odatda birinchi signallar sistemasining signallari timsoliy signallar, o‘z navbatida so‘zlar bilan almashtiriladi, uzatiladi. So‘z birinchi signallar sistemasi signallari o‘rnini bosishi, umumlashtirishi va ular vujudga keltiradigan jamiki xatti-harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda psixika ob’ektiv borliqning su’ektiv obrazining voqelik tarzida miyada aks etishi deb baholash mumkin.

Z.Freyd yaratgan psixonaliz to‘g‘risidagi nazariya inson ruhini bir muz tog‘iga qiyoslaydiki, go‘yo uning ustki, oltidan bir qismi ong bo‘lsa, suv ostida ko‘rinmay yotgan oltidan besh qismi — *ong ostidagi jarayonlardir, ya’ni ongsizlikdir*. Psixoanaliz fani o‘z oldiga ongdan yashirinib yotgan chuqur psixologik jarayonlarning sir-asrorini ochishni maqsad qilib qo‘yadi va shu yo‘l bilan nevrozni keltirib chiqaruvchi omillarni o‘rganadi. Z.Freyd “yashirinib” yotgan psixologik jarayonlarni ongsiz jarayonlar deb ataydi.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

Psixologiya haqida tushuncha.
Psixikaning mohiyati.
Psixologiya fanining predmeti.
Ilmiy psixologiya va kundalik psixologiya.
Psixologiya fanining vujudga kelishi:
a)antik dunyo psixologiyasi to‘g‘risida tasavvurlar;
b)XVII—XVIII asrlarda psixologiyaning taraqqiyoti.
Psixikaning fiziologik mexanizmlari.
Psixologiya va uning moddiy asoslari.
Psixika va aks ettirish.
Aks ettirishning hozirgi zamon talqini.
Psixikaning predmeti to‘g‘risida psixologik qarashlar.
Psixologiya fani taraqqiyoti bosqichlari.
Psixikaning moddiy asoslari to‘g‘risida mulohazalar.
Aks ettirishning psixologik asoslari.

Test savollari:

№1

Hozirgi zamon psixologiya fanining predmeti quyidagi qoidalarning qaysi birida to‘g‘ri aks yettirilgan?

psixologiya psixik faktlarni, ularning qonuniyatlarini, mexanizmlarini o‘rganuvchi fandir.

psixologiya kishining ongini o‘rganuvchi fandir

psixologiya ruh, jon haqidagi fandir

psixologiya kishining hatti-harakati, xulq-atvorini o‘rganuvchi fandir.

№2.

2300 yil ilgari psixologiyaga qanday ta’rif berilgan?

ruh haqidagi fan

ong haqidagi fan

inson xulq-atvorini o‘rganuvchi fan

psixikaning qonuniyatlarini, mexanizmlari va faktlarni o‘rganuvchi fan

№3.

Empirik psixologiyaning asoschisi kim?

Jon Lokk

Gartli

Leybnits

Didro

№4.

Bosh miya katta yarim sharlari faoliyatining umumiy qonuniyatlarini kashf yetgan olimni aniqlang?

I.M.Sechenov

I.P.Pavlov

P.K.Anoxin

B.M.Bexterev

№5.

Fan klassifikatsiyasiga muvofiq psixologiya markaziy o‘rin egallaydi deb kim aytgan?

B.M.Kedrov

V.I.Vernadskiy

F.Bekon

M.V.Lomonosov

2-MAVZU. PSIXOLOGIYANING ZAMONAVIY METODLARI VA ULARNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH.

Reja:

1. Psixologiyaning asosiy metodlari.
2. Psixologiyaning tadbiqiy va amaliy sohalari.
3. Amaliy psixologiyaning yo‘nalishlari

Mavzuning qisqacha mazmuni

Psixologiyaning zamonaviy metodlari va ularni amaliyotga tadbiq etish. *Psixologiyaning* an’anaviy, asosiy va yordamchi empirik metodlari to hozirgi kungacha muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. *Psixologiyaning o‘ziga hos tadbiqiy va amaliy sohalari mavjud bo‘lib ular insoniyaning psixik taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Hozirgi zamon ilm - fanining qadri va ahamiyati uning nechogli amaliyotga kirib borib, tadbiqiy salohiyati ortib borishi bilan baholanadi. Psixologiyaning oxirgi yillardagi taraqqiyoti ham aynan ana shu mezon talablariga javob berishi bilan xarakterlanadi. Psixologiyaning amaliy sohali ishlab chiqish, xizmat ko‘rsatish, huquqiy, tibbiy, psixologik xizmat, oila va maorif sohalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgandir.*

.

1-Reja. Psixologiyaning asosiy metodlari.

Psixologining asosiy metodlari: Har bir fan taraqqiyotining asosiy sharoitlaridan biri uning malum darajada mumkin qadar obektiv, aniq ishonchli uslublarga ega ekanligidir. Metod – uslubning manosi biror narsaga borish yo‘li demakdir. Umuman psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilishda metodlarning turli tasnifi mavjuddir. Tadqiqot metodlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan rus psixologi B.G.Ananev mazkur metodlarni xususiyatlariga qarab klassifikatsiya qilgan.

B.G.Ananev psixikani o‘rganish metodlarini turli guruhga ajratib, o‘rgangan:

A) tashkiliy guruhga - qiyoslash, longityud, kompleks metodlari kiradi;

B) emperik guruhga kuzatish, eksperiment, suhbat, so‘rovnoma, test, faoliyat mahsulini o‘rganish metodi, biografiya, sotsiometriya;

V) natijalarni qayta ishlash yoki statistik metodlar;

G) sharhlash guruhiga genetik va donalash metodlari kiradi.

B.G.Ananev tomonidan ajratilgan klassifikatsiyaga ko‘ra, tadqiqot ishlarida foydalaniladigan asosiy metodlar emperik guruh metodlari hisoblanadi. Shunday bo‘lsada oshqa guruh metodlariga ham qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Tadqiqot metodlarining birinchi tashkiliy guruhi o‘z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko‘pyoqlama) deb ataladigan turlarni qamrab oladi.

Asosiy metodlar	Asosiy metodlarning variantlari
KUZATISH	Tashqi (ob’ektiv kuzatish) Ichki (sub’ektiv, o‘z-o‘zini kuzatish) Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
SO‘ROV	Og‘zaki so‘rov Yozma so‘rov (anketa) Erkin so‘rov (suhbat) Standartlashtirilgan so‘rov
FAOLIYAT MAHSULLARINI TAHLIL QILISH	Bolalar faoliyat mahsulini tahlil qilish Kattalar faoliyat mahsulini tahlil qilish
TEST	Test - so‘rov Test - topshiriq Proektiv test Sotsiometrik test
EKSPERIMENT	Tabiiy eksperiment Laboratoriya eksperimenti
BIOGRAFIYA (TARJIMAI HOL) METODI	
MODELLASHTIRISH	Matematik modellashtirish Mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish Kibernetik modellashtirish

Kuzatish metodi tabiiy metodlar jumlasiga kirib, bunda tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorini bevosita tashqaridan turib kuzatish orqali ma’lumotlar to‘plash usuli bo‘lsa, o‘z-o‘zini kuzatish esa odam o‘zida kechayotgan biror o‘zgarish yoki hodisani o‘zi o‘rganish maqsadida ma’lumotlar to‘plashdir.

*Erkin kuzatuv*da ko‘pincha biror ijtimoiy hodisa yoki jarayonni o‘rganish maqsad qilib qo‘yiladi. Masalan, dars jarayonida ta’lim oluvchilarning u yoki bu mavzu yuzasidan umumiy munosabatlarini bilish uchun ham ba’zan erkin kuzatish tashkil etilishi mumkin. *Standartlashtirilgan kuzatuv* esa, buning aksi bo‘lib, nimani, qachon, kim va kimni kuzatish qat’iy belgilab olinadi va maxsus dastur asosida kuzatuv olib boriladi.

Psixologiyada guruhiy jarayonlarning shaxs xulq-atvoriga ta’sirini o‘rganish maqsadida bevosita *ichkaridan kuzatuv* tashkil qilinadi, bunda kuzatuvchi shaxs o‘sha guruh hayotiga tabiiy ravishda qo‘shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi. Shu yo‘l bilan olingan ma’lumotlar bir tomondan tabiiyligi va mufassalligi

bilan qimmatli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, agar kuzatuvchida konformizm xislati kuchli bo‘lsa, o‘zi ham guruh hayotiga juda kirishib ketib, undagi ayrim hodisalarni sub’ektiv ravishda takrorlaydigan bo‘lib qolishi ham mumkin. Guruhiy fenomenlarni *tashqaridan kuzatish* buning aksi – ya’ni kuzatuvchi guruhga yoki kuzatilayotgan jarayonga nisbatan chetda bo‘ladi va faqat bevosita ko‘zi bilan ko‘rgan va eshitganlari asosida fikr-mulohaza yuritadi.

Kuzatish metodining ijtimoiy hayot, professional ko‘rsatkichlarni qayd qilishda so‘zsiz afzalliklari bor, lekin shu bilan birga kuzatuvchining professional mahorati, kuzatuvchanligi, sabr-qanoatiga bog‘liq bo‘lgan jihatlar, yana to‘plangan ma’lumotlarni sub’ektiv ravishda tahlil qilish xavfi bo‘lgani uchun ham biroz noqulayliklari yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun ham kuzatish boshqa metodlar bilan birgalikda ishlatiladi.

So‘rov metodi ham psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma’lumotlar to‘plashning an’anaviy usullaridan biri bo‘lib, unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo‘yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo‘ladi.

Og‘zaki so‘rov oddiygina qilib, suhbat metodi deb ham ataladi. Suhbat o‘tkazadigan shaxs unga ma’lum darajada tayyorgarlik ko‘rgach so‘roq o‘tkazadi. Agar so‘rovchining professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo‘lmasa, so‘rov o‘z natijalarini bermasligi, aksincha bo‘lsa esa ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo‘lgan noyob ma’lumotlarni to‘plash imkoniga ega bo‘ladi.

Yozma so‘rov yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o‘zida ko‘pgina odamlar fikrini o‘rganish mumkin bo‘ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o‘z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so‘rovnomalar aniq va ravon tilda, javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo‘lsa, qimmatli birlamchi materiallar to‘planadi.

So‘rovning ham *erkin* va *standartlashtirilgan* shakllari mavjud bo‘lib, birinchisida oldindan nimalar so‘ralishi qat’iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, hattoki, dastur ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so‘roq o‘tkazilishi nazarda tutiladi.

Faoliyat mahsullarini tahlil qilish metodi inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida psixologiyada keng qo‘llaniladi. Ijodiy faoliyat mahsullariga sxema, ixtiro, asbob-uskunalar, referat, kurs va malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy ma’ruza, konspekt, taqriz, tezis, maqola, ko‘rsatmali qurollar (bolalarning chizgan rasmlari, yasagan o‘yinchoqlari) kabilar kiradi.

Test (ing. sinash, tekshirish) metodi yordamida biror o‘rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko‘pchilikda qayta-qayta sinash va ma’lumotlarni korrelyatsion analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkin. Testga qo‘yilgan talab hech qachon o‘zgarmaydi, hattoki, shunday testlar borki, ular turli millat va elat vakillarida, turli davrlarda ham

o‘zgarmagan holda ishlatiladi (masalan, Ravenning aqliy intellektni o‘lchash, Kettelning va Ayzenkning shaxs testlari).

Testning *so‘rov* shaklida oldindan qat’iy tarzda qabul qilingan savollarga javob berish talab qilinadi (masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya - ekstroversiyani aniqlab, undagi savollarga “ha” yoki “yo‘q” tarzida javob berish so‘raladi).

*Test-topshiriq*da esa odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholash tushuniladi. Bunday testlarga shaxsning kreativliligini aniqlash maqsadida sinaluvchiga tugallamagan shakllardan o‘zi xohlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Chizilgan rasmlarning o‘ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayoniga baho beriladi, miqdoriy ko‘rsatkich aniqlanadi. Mazkur metodlarning afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo‘llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o‘tkazish imkoniyatining mavjudligidir. Kamchiligi – agar sinaluvchi testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, natijalar sun’iy xarakterga ega bo‘lib qoladi.

Testning *proektiv (loyiha)* turida uning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo‘ladi. Bunda tekshiriluvchi o‘zining qaysi xislati yoki holati, yoki jarayoni tekshirilayotganidan bexabar bo‘ladi. Masalan, mashhur Rorshaxning “siyoh dog‘lari” testi, assotsiativ (tugallanmagan hikoyalar), ekspressiv (psixodrama, o‘yinlar, ishbilarmonlik o‘yinlari, ijtimoiy treninglar, erkin mavzuda rasm chizish) kabi testlarda bir narsaning loyihasidan go‘yoki ikkinchi bir narsaning mohiyati aniqlanadi.

Sotsiometrik test kichik guruh a’zolari o‘rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o‘rganish va ularning darajasini o‘lchashda qo‘llanilib, unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur test yordamida muayyan guruhdagi har bir a’zoning o‘zaro munosabatlarini aniqlash uchun, uning qaysi faoliyatida kim bilan qatnashishi so‘raladi.

Eksperiment metodining psixologiyada ikki turi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment tafovut qilinadi.

Laboratoriya eksperimentida tekshiruvchi kishi tekshiriladigan psixik hodisani qachon kerak bo‘lsa, o‘sha vaqtda ataylab vujudga keltiradi. Bunda tekshirilayotgan psixik hodisa tabiiy sharoitda birgalikda sodir bo‘ladigan boshqa psixik hodisalar eksperiment mobaynida o‘zgartirilishi, boshqa psixik hodisalar bilan muayyan bir tarzda bog‘lanishi, kuchi, tezligi, hajmi va boshqa shu kabi jihatlari o‘lchab ko‘rilishi mumkin. Psixik hodisalarning qonuniyatlari yaxshiroq aniqlanishi mazkur metodning yutug‘i sanaladi. Bu metodni o‘tkazishda maxsus metodik materiallar – narsa, rasm va so‘zlar, maxsus asboblar qo‘llaniladi.

Tabiiy eksperiment kuzatish va laboratoriya eksperimenti metodi o‘rtasida turadi. Tabiiy eksperimentda tekshiruvchi kishining o‘zi tekshiriladigan kishida yoki kishilarda psixik jarayon (masalan, xotira, diqqat, tasavvur) hosil qilish yoki tekshiriladigan kishilarda individual xususiyatlarni namoyon etish uchun maxsus sharoit tug‘diriladi.

Biografiya (tarjimai hol) metodi yordamida inson hayoti, faoliyati, ijodiyoti to‘g‘risidagi og‘zaki va yozma ma’lumotlar o‘rganiladi. Bunda kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o‘zgalar ijodiga bergan baholari, tanbehlari, taqrizlari alohida o‘rin egallaydi.

Modellashtirish metodi kuzatish, so‘roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida olingan natijalar qoniqtirmagan vaziyatda qo‘llaniladi. Bunda o‘rganilayotgan hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o‘sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o‘rganiladi va xulosalar chiqariladi (V.M.Karimova “Psixologiya” 2002).

Har bir metodni o‘z vaqtida va professional tarzda qo‘llay bilish va olingan natijalardan to‘g‘ri xulosalar chiqara olish muhim ahamiyatga egadir.

2-Reja. Psixologiyaning tadbiqiy va amaliy sohalari

Hozirgi zamon ilm - fanining qadri va ahamiyati uning nechogli amaliyotga kirib borib, tadbiqiy salohiyati ortib borishi bilan baholanadi. Psixologiyaning oxirgi yillardagi taraqqiyoti ham aynan ana shu mezon talablariga javob berishi bilan xarakterlanadi.

Amaliy hamda tadbiqiy psixologiya sohalarining o‘ziga xos jihatlari avvalo shundan iboratki, ular jamiyatning bevosita bugungi kundagi talablari va buyurtmalariga ko‘ra ish yuritadi.

Jamiyatimizda esa psixologik bilimlarni bevosita amaliyotga tadbiq etishga ehtiyoj katta. Birgina O‘zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy dasturini oladigan bo‘lsak, uning bajarilishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun psixologiyaning aralashuvi zarur.

Joylarda tashkil etilgan Tashhis markazlarida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislar o‘quvchilardagi rivojlanish ko‘rsatkichlari, aqliy o‘sish omillari va iqtidoriga qarab ta’lim - tarbiyani tashkil etishlari uchun qator diagnostik tadbirlarni o‘tkazishlari zarurki, bu tadbirlar oxir - oqibat aniq samara berishi lozim.

Ta’kidlash zarurki, tadbiqiy psixologiyadagi «samara»ni o‘lchash mezonlari bilan nazariy psixologiyadagi samara tushunchalari biroz farq qiladi. Ya’ni, bu yerda bevosita buyurtmaning bajarilishi sifatiga buyurtmachining o‘zi baho beradi.

Shuning uchun ham amaliy psixologiyaning alohida tarmog‘i bo‘lmish sotsial psixologiya bilimlarga amaldagi ehtiyojni uch asosiy sabab bilan tushuntirishi mumkin: a) kichik korxona yoki yirik firmalardan tortib, toki xukumat darajasidagi idoralar ham o‘z faoliyati samaradorligini oshirish uchun tobora insonlar faoliyati va ulardagi rezervlardan omilkorona foydalanishning psixologik manbalarini qidirish lozimligini tushunib yetmoqdalar; b) professional psixologlarning o‘zi ham o‘z ishlaridan keladigan obro‘ - e’tiborning amaliy sohalarida ishlay olish qobiliyatlariga bog‘liq ekanligini tushunib yetmoqdalar; v) amaliyotda ishlayotgan boshqa soha vakillari ham agar psixologik tayyorgarlikdan o‘tgan bo‘lsalar, ishni tashkil qilishga o‘quvlari yaxshirok va ishlari unumliroq bo‘lishini tushunib

yetmoqdalar. Shuning uchun ham ko‘plab yangi turdagi markaz va firmalar, qo‘shma korxonalarda amaliyotchi psixologlar ishlamoqdalar.

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo‘nalishdagi muammolarni ma’lum ma’noda o‘rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqazo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo‘lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o‘ziga xos va yetakchidir.

Psixologiya va falsafa. Falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo‘lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to‘la anglash va uning rivojlanib borish tendensiyalarini belgilashdagi o‘rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo‘lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o‘zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma’lumotlarga ega bo‘lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan - falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog‘liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi ko‘ndalang turgan tarixiy davrda milliy mafkura va milliy g‘oyani shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda.

Psixologiya va sotsiologiya. Sotsiologiya fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o‘z taraqqiyotining muhim bosqichiga o‘tgan ekan, psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko‘lami kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo‘lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta’minlash ishiga xizmat qiladilar.

Qolaversa, huquqiy, demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O‘zbekiston aholisining huquqiy madaniyatini va demoqratik o‘zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta’minlash, bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr va insonlar fikr va qarashlaridagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida o‘rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tadbiqiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun joylarda tashkil etilgan ijtimoiy-psixologik xizmat markazlari ayni shu vazifani bajarishga qaratilgandir.

Respublikamiz miqyosida esa “Ijtimoiy fikr” markazining turli mavzular bo‘yicha olib boradigan ijtimoiy so‘rovlari aholining kayfiyati, qiziqishi, xoxishi, ehtiyoji, niyatini ifodalash bilan birga, hukumat va davlat tomonidan qanday istiqbolli rejalar tuzish lozimligiga olib keladi. Ijtimoiy-psixologik so‘rovlarning oliygohlarda o‘tkazilishi ustoz-shogird, talaba-o‘qituvchi munosabatlarini, ish joylarida o‘tkazish xodim-rahbar, xodim-xodim munosabatlarini bilib olish imkonini yaratadi. Bu orqali nafaqat sotsiologik so‘rov, balki inson shaxsiga aloqador psixologik xususiyatlarni aniqlash mumkin bo‘ladi.

Psixologiya va pedagogika. Pedagogika bilan psixologiyaning o‘zaro hamkorligi va aloqasi an’anaviy va azaliy bo‘lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o‘ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan «Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning Milliy Dasturi»ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o‘zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo‘ydi. Milliy dasturda e’tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo‘lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart - sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta’lim va tarbiya jarayonlariga tadbiq etishda pedagogikaning o‘z uslub va qoidalari yetarli bo‘lmaydi.

Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining ta’lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o‘qitish texnologiyalarini bola tomonidan o‘zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechoglik ta’sir ko‘rsatayotganligini o‘rganish va shu asosda ishni tashkil etish psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Ayniksa, ma’naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta’lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan xolda o‘qitishning eng ilg‘or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiq etishni nazarda tutadi. Shaxsga ta’lim va tarbiya berishning alohida emas, birgalikda qaralishida pedagogika va psixologiya fanlarining o‘zaro uzviyligi muhimdir. Hozirgi kunlarda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun ta’lim oluvchining psixologik xususiyatlarini bilgan xolda, unga pedagogik ta’sir etish va uni yangi bilimlarga yo‘naltirish texnologiyasi joriy etilganligi ham bu ikki fan bir-biriga chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Psixologiya va tabiiy fanlar. Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va b.k. psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini ob’ektiv o‘rganish uchun material beradi. Ayniksa, bosh miyaning hamda markaziy asab sistemasining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiklashtirishdagi rolini e’tirof etgan xolda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug‘ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni taqozo etgani sababli, o‘sha tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan (miya assimetriyasi qonunlari, miya bioritmlarini yozib olish, neyrodinamik hodisalarni aniqlash, qon aylanish va tana haroratini o‘lchash metodlari) o‘z o‘rnida foydalanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi. Shuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiyaning predmetini mukammalroq yoritishga o‘z hissasini qo‘shgan xolda uni boyitadi.

Psixologiya va kibernetika. Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo‘lib, u inson shaxsining o‘z-o‘zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo‘lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot

metodlari, maxsus dasturdan o‘z o‘rnida foydalanadi. Ayniksa, ma’lumotlar asri bo‘lgan XX1 asrda informasion texnologiyalar va modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so‘zning shaxslararo munosabatlardagi ta’sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o‘rinli foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o‘rni va rolini oshiradi, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo‘llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o‘rganishni kafolatlaydi.

Psixologiya va texnika fanlari. Texnika fanlari bilan psixologiyaning o‘zaro aloqasi va hamkorligi yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini yechishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo‘nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, u ham bo‘lsa, texnika taraqqiyotga intilayotgan bir vaqtda murakkab texnika va mashinalar bilan «muloqot» qilayotgan shaxs faoliyatini yanada mukammallashtirish va uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo‘lgan masaladir. Ayniksa, mustaqil O‘zbekiston uchun murakkab zamonaviy texnika sir - asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta’minlash qanchalik dolzarb bo‘lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fukaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va «odam - mashina» dialogining eng samarali yo‘llarini izlab topishi juda muhim. Texnika bilan bemalol «tillashadigan» malakali mutaxassislar tayyorlash borasida ham texnika fanlari pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina, muvaffaqiyatga erishadi.

Psixologiya va iqtisodiyot. Iqtisodiyot bilan psixologiyaning o‘zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo‘lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma - bosqich o‘tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o‘ziga xos namoyon bo‘lish qonuniyatlarini o‘rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq fuqarolarda, birinchi navbatda, yoshlarda yangicha iqtisodiy tafakkur shakllanishining jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatiga e’tiborni qaratgan edilar. Demak, yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo‘lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot o‘z navbatida iqtisodiy islohotlarning ob’ekti hamda sub’ekti bo‘lmish inson omilidagi barcha psixologik o‘zgarishlarni aniqlash, tahlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechishi kerak. Yuqorida ta’kidlangan fan tarmoqlari psixologiya bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, psixologiya o‘sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi. Shuning uchun bugungi kunda psixologiya fanidan alohida bo‘lib ajralib chiqqan tarmoqlar to‘g‘risida ham fikr yuritish mumkin.

Psixologiyaning tarmoqlari. Psixologiyaning alohida tarmoqlarini differensiatsiya qilish eng avvalo ishlab chiqarishdagi inson faoliyati kechadigan sohalar va ularning vazifalaridan kelib chiqadi. Hozirgi davrga kelib psixologiyani inson shaxsi haqidagi eng muhim fanlardan biri sifatidagi ahamiyatini hamma tan olmoqda. Inson shaxsining esa bevosita kirib bormagan sohasini topish qiyin. Psixologiya iqtisod, pedagogika, falsafa, mantiq, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqador fan hisoblanadi. Chunki hamma sohada inson shaxsi faoliyat ko‘rsatar ekan, har bir sohada ishni samarali tashkil etish, olib borish uchun kishilar psixologiyasini, shaxslararo munosabatlar psixologiyasini, odamlarning turli vaziyatlardagi xulq-atvor normalarini bilish va shunga ko‘ra ish olib borish muhimdir. Shuning uchun hozirgi davr mutaxassislari psixologik bilimlardan boxabar bo‘lishlari lozimdir.

Psixologiyaning 300dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda psixologiyaning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi: - umumiy psixologiya - psixologiyaning barcha masalalarining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganadigan maxsus sohasi; - pedagogik psixologiya - kishiga ta’lim va tarbiya berishni psixologik qonuniyatlarini o‘rganishni o‘z predmeti deb biladi; - yosh davr psixologiyasi - turli yoshdagi odamlarning tug‘ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o‘zaro munosabatlari qonuniyatlarini o‘rganadi; - ijtimoiy psixologiya - odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo‘ladigan tasavvurlar, fikrlar, e’tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o‘rganadi; - mehnat psixologiyasi - kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o‘rganadi; - injenerlik psixologiyasi - avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorning faoliyatini, odam-texnika o‘rtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o‘rganadi; - yuridik psixologiya - huquq sistemasining amal qilishi bilan bog‘liq masalalarning psixologik asoslarini o‘rganadi; - harbiy psixologiya - kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo‘ladigan xulq-atvorini, boshliqlar bilan ijro etuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o‘rganadi; - savdo psixologiyasi - jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga oid, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko‘rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi kabi masalalarini ko‘radi; - tibbiyot psixologiyasi - shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o‘rganadi. Shuningdek psixologiyada etnopsixologiya, oilaviy hayot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, iqtisodiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, rahbar psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, pedagogik psixologiya, intellekt psixologiyasi, psixodiagnostika va boshqa ko‘plab sohalari mavjud.

3-Reja. Amaliy psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari.

Sanoat va ishlab chiqarish sohasi. Sanoat va mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida tadbiqiy ishlar birinchi navbatda konkret tashkilotda kadrlar zahirasini

to‘g‘ri va oqilona tashkillashdan tortib, xodimlar ish sharoitlari va mehnat unumdorligiga ta’sir etuvchi omillar kompleksini ilmiy ravishda o‘rganib, hayotda natija olishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida ushbu yo‘nalishdagi tadbiqiy ishlarning ikki sohasini ajratish mumkin:

- marketing xizmatlari
- xodimlar (personal) bilan ishlash.

Birinchisi eng zamonaviy va muhim ish bo‘lib, bu yerda psixologning vazifasi «Nimani?» va «Kim?» harid qilib olishga ehtiyoji borligini o‘rganishga ko‘maklashishdir. Chunki, talab bilan ehtiyoj bevosita shaxsga va uning psixologik munosabatlari tizimiga aloqador kategoriyalar bo‘lib, bozor va raqobat sharoitida korxona yoki tashkilotlarning samarali ishlab ketishi eng avvalo haridorgir tovar mahsulotlarni ajratib, ularning odamlar talab - ehtiyojiga kanchalik mosligini aniq tahlil qilishdan boshlanadi. Marketing munosabatlari aslida odamlar o‘rtasidagi sof psixologik munosabatlar bo‘lib, uning negizida odamlar o‘rtasidagi jonli muloqot, ta’b va did tarbiyasi yotadi. Shuning uchun biz bugun odamlarda to‘g‘ri marketing tafakkurini shakllantirish vositalarini qidirishimiz va talab - taklif munosabatlarini real ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirishda inson psixologiyasi xususiyatlarini inobatga olib ishlashga o‘rganishimiz kerak.

Masalan, shunday «Case Study»ni olaylik: Psixologiyani qanday qilib sotish mumkin? (ya’ni, Psixologik ma’lumotlar va bilimlarni) Biz aniq va to‘g‘ri javoblar olishimiz kerak bo‘lgan savollar quyidagilar bo‘ladi: Nima sotiladi? - Test natijalari Nima uchun? - nima qilib bo‘lsa ham, pul ishlash, o‘z imkoniyatlarni tekshirish, shaxsiy ish ochish; Kim ? - firma yoki konkret kishilar; Nima ? - xilma - xil testlar batareyasi; Kimga ? - turli kasb egalari, o‘quvchilarga, xodimlarga; Qaerda? Qachon? - zarurat bo‘lgan har qanday joyda; Qanday qilib? - minimal vaqt sarflab, tez va soz; Qancha? - test o‘tkazuvchilarning soni va imkoniyatiga qarab; Kim bilan? - shu firma xodimlari bilan .....

Demak, marketing xizmatida javob berilishi zarur bo‘lgan savollardan ko‘rinib turibdiki, har bir savolga beriladigan javobning orkasida konkret odamlar, ularning qobiliyatlari, manfaatlari va ish unumi yotadi. Shuning uchun bu sohada psixologik xizmat zarur. Ikkinchi soha - kadrlar va ular bilan bevosita ishlash sohasi. Bu kadrlarni ishga jalb etishda bilish zarur bo‘lgan qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlardan tortib, ularni to‘g‘ri yunaltirish, o‘z joyiga qo‘yish, tashkilot doirasida guruhlarni shakllantirish, xodimlarga ma’lumotlarni o‘z vaqtida yetkazish bilan bog‘liq kadrlar siyosatini olib borishga aloqador xizmatdir. Psixolog bu o‘rinda asosan maslahatchi - konsultant va ekspert sifatida rol o‘ynaydi.

Siyosat sohasidagi psixologiya. Har bir davr o‘z kishilari ongida beixtiyor siyosiy ongni shakllantiradi va odamlar uning tamoyillariga bo‘ysunadilar. Siyosat borasidagi psixologik masalalarga psixolog aralashuvining zarurati har doim bo‘lmasa - da, ayrim paytlarda - yirik islohotlar boshlanishi arafasida, saylov oldi kompaniyalarda, yangi siyosiy liderlarning halk tomonidan qabul qilinishi jarayonlari, ko‘pchilik auditoriyaga zarur ma’lumotlarni yetkazish, ijtimoiy ustanovkalarni o‘zgartirish, siyosiy arboblar imidjini omma ongiga singdirish

paytlarida psixologik ta’sir vositalaridan o‘rinli foydalanish, maslahatlar berish va ayrim guruhlar e’tiqodiga ta’sir etish kerak bo‘lganda kerak bo‘ladi.

Siyosiy sohada ishlayotgan psixolog ishining o‘ziga xos jihatlari bo‘lib, unga quyidagilar kiradi: a) siyosatda psixolog aralashuvi ko‘pchilik ommaga bevosita aloqador bo‘lmaydi; b) zarurat tug‘ilganda, psixolog shunday tez va ishonchli o‘lchaydigan metodikalarni ishlatadiki, ularning natijalari sir saqlanib, o‘sha buyurtmachi - siyosatchining talabiga ko‘ra izlanishlar olib boriladi; v) psixolog har bir siyosatchi uchun shunday ishonchli shaxs bo‘lishi lozimki, undan odamlarning qayfiyatlari, reaksiyalari, his - kechinmalari xususida aniq ma’lumotlar so‘raladi; g) o‘ziga xos qiyinchilik shundan iboratki, jamoatchilik psixolog kiyofasida ko‘pincha liderning bevosita «odamini» ko‘rishga moyil bo‘lib, liderning o‘zi ham ba’zan o‘ta professional psixologdan hadiksirab qolishi mumkin.

Shuning uchun yuqorida ta’kidlaganimizdek, zarur paytlarda siyosiy arboblar psixolog xizmatiga murojaat qilishlari va undan asosan biror jiddiy ijtimoiy proektlarni qabul qilish jarayonida yordam berishini so‘rash mumkin. Buning uchun psixologdan jamoatchilik fikrini psixologik tahlil qilib berish, va shu asosda fukarolarning ustanovkalari va kayfiyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni birgalikda ajratish vazifasini hal qilishlari mumkin. Saylov oldi kompaniyalarda esa, psixologning asosiy vazifasi odamlarning kayfiyatini o‘rgangan xolda da’vogar imidjini shakllantirishga, odamlarga yoqtirishga sabab bo‘ladigan shaxsiy fazilatlar algoritmini tuzish, omma oldiga chiqishga psixologik tayyorlash, raqiblarning bahslashish madaniyati va etikasi borasida psixologik yo‘l - yo‘riq va usullar borasida ma’lumotlar almashinish kerak bo‘ladi. O‘zbekiston sharoitida siyosiy psixologiyaning o‘zi juda zaif rivojlangan tarmoq bo‘lgani sababli ham uni rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan xolda rivojlantirish muhimdir.

Oila va nikox borasidagi tadbiqiy ishlar.

O‘zbekistonda endi shakllanayotgan, lekin nazariy nuqtai nazardan ma’lum an’analarga ega bo‘lgan sohadir. 1998 yilning Prezidentimiz tomonidan «Oila yili» deb e’lon qilinishi joylarda psixologik xizmat o‘choqlarining paydo bo‘lishiga va u yerlarda psixologik xizmatidan foydalanishni anglashga turtki bo‘ldi. Shuning uchun Respublikamizda oila muamolarini maxsus tadqiq etadigan ilmiy-amaliy “Oila” markazi ham tashkil etilganki, bu markazda turli sohaga aloqador mutaxassislar oilani shaxs ijtimoiylashuvining asosiy maskanlaridan biri sifatida o‘rganib kelmoqdalar. Psixolog bu yerlarda yoshlardagi oila va nikoh borasidagi tasavvurlarning to‘g‘ri shakllanishidan tortib, toki muammoli, hattoki, ajrim bo‘lgan oila a’zolariga psixologik maslahatlar berish, «ishonch telefonlari» orqali maslahatlar uyushtirishni o‘z zimmasiga oladi.

Maorif sohasidagi amaliy ishlar.

Boshqa sohalarga nisbatan anchagina yaxshi tajribaga ega. Ayniqsa, O‘zbekistonda kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi qabul qilingandan so‘ng tashkil qilingan yangi tipdagi ta’lim muassasalari - akademik litseylar va kasb - xunar kollejlariga bir nechtadan psixologlar shtati kiritilgan va ular aynan tadbiqiy muammolar - bolaning o‘quv jarayoniga psixologik jihatdan tayyorligini

diagnostika qilishdan tortib, professional va kasb mahoratini rivojlantirishgacha bo‘lgan barcha muammolarni hal qilishga «aralashadi».

Huquqbuzarlikning oldini olish.

Bu soha va unga aloqador muammolar har doim ham psixolog aralashuvini talab qilib kelgan. Chunki jinoyatchi yoki huquqbuzar shaxsi o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi, uni shakllantiruvchi omillar, motivlar va bolani qayta tarbiyalash va reabelitatsiya masalalari ijtimoiy psixologik jarayonlar mohiyatini bilish va ularga faol ta’sir ko‘rsatish talab qiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yoshlar o‘rtasida huquqiy ma’rifat va huquqiy madaniyatni shakllantirishga juda katta e’tibor qaratilgan va bu ishda amaliyotchi xodim - psixologning o‘rni va roli katta bo‘ladi.

Yuqorida e’tirof etilgan psixologiyaning tadbiqiy sohalari uchun umumiy narsa shuki, bu sohalarda ishlaganlar avvalo yaxshi psixodiagnost, ya’ni psixologiya metodlarini o‘z o‘rnida samarali ishlatishni bilishi va yaxshigina psixoterapevt va psixokorrektor - ya’ni, aniqlangan muammo yoki «kasallikni» tuzatuvchi mohir professional bo‘lishi kerakligini taqozo etadi.

1 o‘quv topshiriq

Savol	**Psixologiya tabiiy va ijtimoiy ilmiy fan sifatida.....**
F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
M-ko‘rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

2 O‘QUV topshiriq:
Psixologiyaning asosiy muammosi toifalash jadvali

Ijobiylari	Salbiylari
1. 2. 3. 4.	

Psixologiya fanining boshka fanlar bilan alokadorligi



O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida taraqiyot davri masalalari.
2. Z.Freyd asarlarida ong va ongsizlik munosabatlari.
3. Inson ongi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli.
4. Psixologiyaning rivojlangan fanlar tizimidagi o‘rni.
5. Hozirgi zamon psixologiyasi yo‘nalishlari.

Test savollari:

№1.

Psixologiya mustaqil fan sifatida nechanchi asrda rivojlandi?

80 yillarda XIX asr

40 yillarda XIX asr

90 yillarda XIX asr

XX asrning boshlarida

№2.

Jon va tananing birligi haqidagi g‘oya birinchi bo‘lib kim tomonidan taklif yetilgan?

Aristotel

Epikur

Demokrit

B.Spinoza

№3.

“Psixologiya” terminini fanga olib kirgan olim kim?

X.Volf

R.Dekart

G.Leybnits

Aristotel

№4.
Psixik aks yettirish?
tanlovchilik xarakterida bo‘ladi
mustaqil rivojlanadi
tabiiy xarakterda bo‘ladi
voqelikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks yettiradi
№5.
Psixik hodisalarni materialistik nuqtai-nazardan o‘rgangan olim kim?
T.Gobbs
R.Dekart
B.Spinoza
Platon

3-MAVZU. PSIXIKANING RIVOJLANISHI. ORGANIZM VA PSIXIKA

Reja:
1. Ong va psixika.
2. Psixikaning rivojlanishi.
3. Organizm va psixika.

Mavzuning qisqacha mazmuni

Psixikaning rivojlanishi, organizm va psixika: Psixologiya fanining asosiy kategoriyalari ichida ong alohida o‘rin egallaydi va u borliqda insonning yuksaklik darajasini egallashga muhim zamin, kafolat negizini yaratadi. Insonni hayvonot olamidan ajralib chiqishining bosh omili ham ong hisoblanadi, xuddi shu boisdan u taraqqiyot va kamolotning eng zarur mezoni, o‘lchami sifatida muhim rol o‘ynaydi. Psixologik nuqtai nazardan ong olib qaralganda, u ijtimoiy-tarixiy (filogenetik) va individual (ontogenetik) taraqqiyotning mahsuli hisoblanmish insongagina xos bo‘lib, psixik aks etti-rishning va o‘zini o‘zi boshqarishning yuksak darajasi sanaladi. Ong kategoriyasi amaliy jihatdan tavsif qilinganda: a) u ham hissiy, ham aqliy obrazlarning uzluksiz ravishda o‘zgarib turuvchi majmuasi sifatida, b) bevosita sub’ektning oldida uning «ichki tajribasi» tariqasida, v) amaliy faoliyatdan qutiluvchi mahsulni oldindan sezuvchi (payqovchi) psixologik hodisa tarzida hukm suradi.

Psixikaning yuqori bosqichi faqat insongagina xos bo‘lgan, uning eng yuksak darajasi hisoblanmish ongda o‘z aksini topadi. Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli hisoblanib, insonning yakka va hamkorlik faoliyatining muloqot nutq, til vositasida, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida yuzaga kelgandir. Psixika ob’ektiv borliqning sub’ektiv obrazining voqelik tarzida miyada aks etishi deb baholash mumkin.

Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida insonlarning organizmlarida u yoki bu tarzdagi o‘zgarishlar yuz berib kelmoqda, buning natijasida ularning kattalashuvi yoki kichiklashuvi, pishiqlashuvi va mo‘rtlashuvi bilan antropogenetik, fonogenotipik, morfologik, konstitusion tuzilishlarga ma’lum ta’sirini o‘tkazadi. Organizmning tarkibla-rini yuzaga keltiruvchi moddalar (zarrachalar) nisbatining (arxi-korteks, paleokorteks, neokorteks qismlary orasidagi munosabat kamayishi yoki ortishi) tabiiy ravishda o‘zgarishi ularning tirik-lik, tashqi ta’sirlarga chidamliligi (mo‘rtligi), funksiyasi, ya’ni ichki tuzilishining o‘ziga xos tomonlarini keltirib chiqaradi.

1-Reja: Ong va psixika.

Ongning paydo bo‘lishi va uning ijtimoiy-tarixiy mohiyati. Inson psixikasi bilan yuksak tashkil topgan hayvon psixikasi orasida katta farqqa ega bo‘lgan

ijtimoiy voqelik hukm suradi. Hayvon o‘z to‘dasidagi a’zolariga yaqqol holat bilan bog‘liq bo‘lgan, bsvosita favquloddagi vaziyat bilan cheklangan hodisalar yuzasidan «o‘zining tili»da xabar uzatishi odatiy hodisa. Odam undan farkli o‘laroq nutq vositasida o‘z qabiladoshlariga o‘tmish (xotirot), hozir-gi davr va kelajak to‘g‘risida ma’lumot (axborot) berish hamda ijti-moiy turmush tajribalarini uzatish imkoniyatiga ega. Insoniyat-ning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida til tufayli aks ettirish (in’-ikos qilish) imkoniyatlari qayta qurildi, oqibat natijada odam miyasida atrof-muhittimsollari, xususiyatlari aniqroqaks eta bosh-ladi. Buning natijasida yakkahol shaxs kishilik dunyosi tomonidan orttirilgan tajribadan bahramand bo‘la bordi, shuningdek, uning uchun noma’lum hisoblangan borliq hodisalari, holatlari, qonuni-yatlari to‘g‘risidagi bilimlarga egalik qila boshladi. His-tuyg‘ular, ichki kechinmalar, taassurotlar, hayajonga soluvchi nafosat timsol-lar yuzasidan zavklanishi, maroq olish imkoniyatlari vujudga kel-di, ularning mazmuni, ma’nosi, mohiyati bo‘yicha o‘ziga o‘zi hisobot berish, ijobiy yoki salbiy ta’sir etishini baholash muammolarini keltirib chiqardi.

Hayvonot olami bilan insoniyatning xabar uzatish vositasi ora-sidagi farqi tafakkurda ham o‘z aksini topadi. Chunki har qanday psixik funksiya boshqa turdagi, shakldagi, mazmundagi funksiyalar qobig‘ida namoyon bo‘ladi va muayyan shart-sharoitlar vujudga kelga-nida rivojlanadi. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarda amaliy (sod-da) tafakkur mavjud bo‘lib, chamalash orqali mo‘ljal olishga, favqu-loddagi vaziyat yuzaga keltirgan vazifani bajarishga yo‘naltiril-gandir. Hayvonlar, aniqrog‘i maymunlar ayrim hollarda «qurol» yasash va undan muayyan masala hal etishda foydalanish hodisalari tajri-balarda kuzatilgan, lekin ulardan birontasi tafakkurni mavhum tarzda amaliyotga tatbiq eta bilmagan. Holbuki shunday ekan, hay-vonlar idrok qilish ko‘lamidan tashqariga chiqish imkoniyatiga ega emas, binobarin, u yaqqollikdan mavhumlikka o‘ta olmaydi, hatto bun-day vaziyatni aks ettirish imkoni ham yo‘q. Hayvon yaqqollik, bevo-sita idrok qilishlikni quli bo‘lsa, aksincha inson mavhum fikr-lashning gultojisidir. Inson bilan hayvon o‘rtasidagi bu boradagi tafovut quyidagilarda mujassamlashadi: a) shaxsning xulq-atvori, faoliyati yaqqollikdan mavhum holatga o‘tish imkoniyatiga ega; b) fav-quloddagi vaziyat munosabati tufayli vujudga kelishi ehtimol oqibat-ni oldindan payqash layoqati mavjud; v) qiyinchiliklar uchrasa, ularni yengish uchun qo‘shimcha vositalar qo‘llash, o‘zgartirishlar kiritish bilan ajralib turadi. Shuning uchun avtomobil ishdan chiqsa inson uni sozlaydi, yomg‘ir yog‘sa narsalarni panaga oladi, ayb ish qilib qo‘ysa himoyalanish yo‘l-yo‘riqlarini o‘ylaydi, muammo yechimini qidiradi va hokazo. Shaxs favquloddagi vaziyatning quliga aylanmaydi, ak-sincha u kelajakni ko‘ra bilishga qodir, aql-farosat esa bashorat qilish imkoniyatini yaratadi. Faoliyat mahsulini oldindan payqash, fe’l-atvor oqibatini ilgarilab ketib sezish uquviga egaligi bilan inson ustuvorlik qiladi. Hayvonlarning amaliy tafakkuri ularni yaqqol vaziyatdan bevosita ta’sirotga bo‘ysunishni taqozo etadi. Shax-sni mavhum fikrlashga nisbatan qobiliyati muayyan vaziyatga bevosi-ta bog‘liqlikdan uni xalos etadi. Inson bevosita muhim ta’siriga javob berish bilan qanoatlanib qolmasdan, balki uni kutayotgan ta’-sirini ham bartaraf etish qurbiga egadir. Inson psixikasi bilan hayvon psixikasi

o‘rtasidagi birinchi farq shaxsning o‘zi anglagan qadriyatga binoan ongli xatti-harakat qilish qobiliyati mavjudli-gidir.

Shaxsning hayvondan ikkinchi farqi uning mehnat qurollarini yaratish va saqlashga /ayoqatli ekanligi bo‘lib, oldindan tuzilgan reja bo‘yicha ularni yasaydi va ulardan muayyan maqsadni amalga oshirishda foydalanadi hamda keyinchalik qo‘llash niyatida asrab olib qo‘yadi. Ulardan odamlar hamkorlikda foydalanadi, hamkorlik faoliyatida esa qurollar yaratiladi, o‘zaro tajriba almashadi, bilimlarni bosh-qalarg‘a uzatishadi, umumiy saviyaga vorislik tufayli yuksaladi.

Inson psixikasining hayvondan yana bir farqli tomoni shunda-ki, uning ijtimoiy tajribaning boshqalarga uzluksiz ravishda uza-tishida aks etadi. Tajribalarni instinktiv xatti-harakatlar gar-zida o‘zlashtirish hodisasi ham insonga, ham hayvonga xos odatdir, lekin shaxsiy tajribaga ko‘ra ijtimoiy tajribaning ustuvorligi odamning ongli mavjudodga aylanishining asosiy manbai hisobla-nadi. Shaxsni ijtimoiy munosabat, ijtimoiy tajriba shakllanti-radi, moddiy va ma’naviy qurollarni egallash natijasida unda yuk-sak insoniy funksiyalar (ixtiyoriy xotira, ixtiyoriy diqqat, mavhum tafakkur) vujudga keladi va rivojlana boradi. Sub’ekt tomo-nidan kishilik dunyosida yaratilgan madaniy merosni o‘zlashtirili-shi, ayrim o‘zgartirishlar kiritilishi uning kamolotida sifat ji-xatidan yuksak bosqichni yuzaga keltiradi. Yuksak funksiyalar, nutqiy faoliyatning takomillashuvi, mehnatning hayotiy ehtiyojga ayla-nishi, ertangi hayot to‘g‘risida mulohazalar tug‘ilishi ongning rivoj-lanishi uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Shu bois inson bilan hayvon o‘rtasidagi tafovut tajribaning vorislik funksiyasi kasb etishi bilan yakunlanadi. Jismoniy va akliy faoliyat kundalik za-ruratga aylanishi sababli ong bevosita nazorat funksiyasini baja-ra boshlaydi, shuningdek, jamiyat, jamoa, tabiat to‘g‘risidagi tasav-vurlarini tushunishi, anglash ham uning tasarrufiga aylanadi.

Borliq voqeliklarini bir tekis in’ikos ettirish vositasi si-fatida insonda his-tuyg‘ular rivojlana boshlaydi. Inson bilan hayvonot olami orasidagi yana bir tafovut his-tuyg‘ular orqali na-moyon bo‘ladi. Lekin atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga nisbatan befarq-lik har ikkala toifadagi mavjudodlarda hukm surmaydi, biroqtash-qi ta’sirlar ijobiy yoki salbiy hissiy qo‘zg‘atishni vujudga kelti-radi. Emotsional holatlar hayvonlarda ustuvor rol o‘ynaydi, o‘zla-riningularga munosabatlarini bildiradi. Biroqhayvonlardan farq-li o‘laroqodam o‘zining yuksak his-tuyg‘ulari (axloqiy, aqliy, nafo-sat, praksik — lazzatlanish) bilan jamiyatga va tabiatga nisbatan munosabatini bildiradi, jumladan, quvonch, g‘am-g‘ussa, mehr-muhab-bat, achinish, hamdardlik, zavklanish, faxrlanish, iftixor va bosh-qalar. Tabiat manzaralari, mehnat mahsuli, turmush lahzalari, ezgu-lik, armon insonni faolikka undaydi, har bir soniyadan maqsadga muvofiqfoydalanish xohishlari motiv vazifasini bajarishga o‘tadi. Yuksak his-tuyg‘ular inson xulq-atvorining regulyatoriga aylanadi. Undagi vijdon, uyat, mas’ullik esa qadriyat tariqasida xizmat qiladi. His-tuyg‘ularni boshqarish, nazorat qilish onglilikni taqozo etadi, ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishni ta’minlashga yordam beradi.

Agarda psixikaning taraqqiyoti biologik evolyusion qonunlar ta’siri bilan ro‘y bergan bo‘lsa, inson ongining rivojlanishi ij-timoiy-tarixiy taraqqiyot qonunlari tufayli amalga oshgan. Hay-von bilan odam psixikasidagi yana bir tafovut ularni

rivojlanish shart-sharoitlarida ko‘rinadi va muhit, munosabat, ta’sir orqali aks etadi. Shaxslararo munosabatga kirishmasdan turib, yuksak his-tuyg‘ular shakllanmaydi, yuksak psixik funksiyalar rivojlanmaydi, inson shaxsi kamol topmaydi. Odam faqat ijtimoiy muhitda, shaxslararo munosabatda insoniy fazilatlarni egallab, til, aql, ong yordamida kamol topadi, xolos. Shunga qaramasdan, ong paydo bo‘lishining biologik shart-sharoitlari mavjudligi to‘g‘risida mu-lohaza yuritish mumkin. Chunki dastlabki ijtimoiy munosabatlarning biologik shart-sharoiti ibtidoiy jamiyatdagi to‘dadan iborat edi. Shaxsning biologik shartlangan jihatlaridan tashqari, uning ijtimoiy omillari ham mavjud bo‘lib, u muayyan ma’noda ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Bunga ijtimoiy muhitdan tashqarida (o‘rmonda) shakllangan inson farzandlarining qiyofasi yaqqol mi-soldir.

Muhitdagi keskin halokatli o‘zgarishlar tufayli inson o‘zining moddiy ehtiyojini qondirish maqsadida mehnat faoliyatini kashf etdi va u ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga, turmush shart-sharoiti yaxshilanishiga, ongningtakomillashuviga, fikr almashish, axborot uzatish imkoniyatining tug‘ilishiga olib keldi. Tartibsiz to‘dadardan kishilik jamiyati paydo bo‘lgunga qadar bir qancha davr-lar o‘tdi, odamning qo‘li mo‘’jizakor ish qurollarini yasaydigan, ularni takomillashtiradigan, keyinchalik foydalanishi uchun asray-digan ongli mavjudodga o‘sib o‘tdi. Mehnat faoliyatida odamning ongi aks ettirishning yuksak shaklini egalladi, faoliyatning ob’ektiv xususiyatlarini farkdash, ularni maqsadga muvofiqlashtirish tufay-li atrof-muhitni o‘zgartirish, unga ta’sir o‘tkazish qudrati, qobi-liyati, layoqati vujudga kela boshladi. U faqat qurollardan muvaqqat foydalanishdan voz kechib, avlodlarga qoldirish, asrashni ong ta’-sirida ro‘yobga chiqara bordi, buning natijasida insonning har xil shakldagi faoliyati ongli faoliyatga aylandi, o‘zaro munosabatlar mazmuni, ko‘lami kengaya boshladi, shaxsiy mehnat ulushi jamoa ehti-yojini qondirishnitasosiy manbaiga aylandi. Tabiatga ta’sir o‘tka-zish, uni o‘zgartirish to‘g‘risidagi maqsad o‘z funksiyasini o‘zgartir-di, qo‘l esa yangidan-yangi mo‘’jizalar ijodkoridan asta-sekin aks ettirish quroliga, sezish, payqash, paypaslash, his etish organi va-zifasini bajarishga o‘sib o‘tdi.

Kishilik jamiyatida mehnat faoliyatining takomillashuvi, shaxs-lararo munosabatning yangi shakllarining paydo bo‘lishi, til va nu-tqni vujudga keltiradi, ularning barchasini maqsadga muvofiqamal-ga oshirishni ta’minlovchi ong jadal sur’atlar bilan rivojlandi. Ong faqat faoliyat, xulq-atvor, muomala, his-tuyg‘ular regulyatori emas, balki yakkahol shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini to‘g‘ri amalga oshishining asosiy manbai rolini bajara boshladi.

Shunday qilib, insonning ongi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli bo‘lish bilan birga, u mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajri-bani o‘zlashtirishda, hamkorlikdagi o‘zaro ta’sirda, tabiatga, jami-yatga nisbatan munosabatlar mohiyatida vujudga kelgan. Buning mah-sulasi, shakli sifatida individual, guruhiy, etnik (milliy), ij timoiy ong namoyon bo‘lgan va ularning barchasi taraqqiyot tufayli o‘zining yangi bosqichlariga o‘sib o‘tgan hamda keyinchalik fan, texni-ka yaralishiga puxta zamin hozirlagan.

2-Reja. Psixikaning rivojlanishi.

Psixikaning yuqori bosqichi faqat insongagina xos bo‘lgan, uning eng yuksak darajasi hisoblanmish ongda o‘z aksini topadi. Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli hisoblanib, insonning yakka va hamkorlik faoliyatining muloqot nutq, til vositasida, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida yuzaga kelgandir. Psixika ob’ektiv borliqning sub’ektiv obrazining voqelik tarzida miyada aks etishi deb baholash mumkin.

Psixikaning o‘ziga xos xususiyatlari: Psixikaning tarkibiy qismlari faoliyat, xulq, muomala yaqqol namoyon bo‘lish xususiyatiga ega bo‘lsa, bilish jarayonlari, psixik holatlar, ichki kechimalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlar miyada mujassamlashgani uchun ular ko‘zga ko‘rinmaydi. Psixika faollik xususiyatiga ega bo‘lib, u mayllarda, maqbul yechim-ni qidirishda, xatti-harakat variantlari ehtimolligini xayoldan o‘tkazishda, undashda, turtkilarda o‘z ifodasini topadi. Agar inson idrok qilsa, sezsa, fikrlasa, eslasa, xohish bildirsa, albatta ana shu hodisalarni bir davrning o‘zida tushunib (kuzatib) ham turadi. Inson intilsa, ikkilansa, bir qarorga kelsa, biz ularning barchasini sodir bo‘layotganligini anglab turamiz ham. Shuning uchun psixik hodisalar bizning ruhiyatimizda sodir bo‘lishidan tashqari, ular bevosita ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘lib turadi. Obrazli qilib aytganda, odamning ichki dunyosida turli hodisalar vujudga keladi, kechadi, odatda, shaxs bunday hodisalarni harakatlantiruvchi kuchi hamda ularning tomoshabini hisoblanadi.

Psixik hodisalar: Odatda, psixik hodisalar deganda ichki, sub’ektiv tajriba faktlarning (voqelikning) namoyon bo‘lishi tushuniladi, ya’ni, psixika hayotning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi har biri alohida olingan yaqqol shakllaridan iboratdir. Insondagi quvonch yoki zerikish tuyg‘ulari, uning nimalarnidir esga tushirishi, biron-bir xohish yoki intilish kechinmalari, xotirjamlik yoki hayajonlanish, hadiksirash hislarining barchasi shaxsning ichki dunyosini tarkibiy qismlaridir, ya’ni bularning hammasi sub’ektiv psixik hodisalar sanaladi.

Psixikaning yuqori bosqichi faqat insongagina xos bo‘lgan, uning eng yuksak darajasi hisoblanmish ongda o‘z aksini topadi. Ong psi-xikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli hisoblanib, inson-ning yakka va hamkorlik faoliyatining (muloqot nutq, til vositasi-da, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida yuzaga kel-gandir. U ijtimoiy mahsul bo‘lishidan tashqari, unga muayyan muno-sabat bildirish maqsadni ko‘zlash, o‘zlikni anglash kabilarni namo-yon etish imkoniyatiga egadir. Quyidagi mulohazalarimizda ongning tarkibiy qismlarining mohiyatini yorituvchi va ularning hukm suri-shigata’sir etuvchi omillarga doir ayrim manbalar xususiyatini tav-siflashga harakat qilamiz. Odatda, inson ongi uni qurshab turgan tevarak-atrof haqidagi bilimlar majmuasidan iborat bo‘lib, uning tuzilishi tarkibiga shunday bilish jarayonlari kiradiki, qaysiki ularning bevosita yordami bilan shaxs o‘z axborotlari ko‘lamini uz-luksiz ravishda boyitib boradi. Insondagi bilimlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol singari bilish jarayonlari asta-sekin ular anglashinish darajasiga ko‘tariladi, keyinchalik esa muayyan turkum-larning tarkibiga kiradi. Harakatli hissiy tub ma’nodagi hissiy bilish

bosqichlariga taalluqli sezgi, idrok, appersepsiya, tanish, bilib olish va tasavvur kabi bilish jarayonlari ko‘magi asosida mi-yaga bevosita ta’sir o‘tkazuvchilarning aks ettirishi natijasida inson ongida borliqning mazkur daqiqasida shaxsning tasavvurida ularning hissiy manzarasi yuzaga keladi. Xotira jarayoni ongda o‘tmishdagi narsa va hodisalarining obrazlarini esga tushirsa u yoki bu bosh miya katta yarim sharlarining bo‘limlarida aks etgan muayyan izlarni jonlantirish imkoniyatiga ega bo‘lsa, xayol jarayoni esa ehtiyoj ob’ekti hisoblangan favquloddagi davr hukmiga kirmagan obrazlar modelini namoyon etadi. Bilishning yuksak darajasi bo‘lmish tafak-kur jarayoni umumlashgan, ijtimoiy xususiyatli, bilvosita va so‘z orqali ifodalanuvchi bilimlarga asoslangan holda gavdalanuvchi muammolar yechimini hal etishni ta’minlaydi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan bilish jarayonlarining unisi yoki bunisi aks ettirish im-koniyatidan mahrum bo‘lishi, buzilishi yoki ularning qaysinisidir xususiyati batamom, qisman izdan chiqishi ongni tubdan barbod etti-rish sari yetaklaydi. Ong psixologik tavsifining yana bittasi — bu unda sub’ekt bilan ob’ekt o‘rtasidagi aniqfarqlanishda o‘z ifodasini topadi, ya’ni shaxs «Men» degan tushunchasi bilan «Men» emas atamasi tarkibiga nimalar tegishli, aloqador ekanligini aniqbiladi. Tirik mavju-dodlar olamida birinchi bo‘lib, borlikda real uni qurshab turgan tevarak-atrofga nisbatan o‘zini qarama-qarshi qo‘ygan, yaratuvchan-lik kuch-quvvatiga, o‘zgartiruvchanlik imkoniyatiga asoslangan shaxs o‘zi uchun, sifat jihatidan yuksak darajadagi makon vujudga kelti-rish uchun hayvonot dunyosini mangu tark etgan, xuddi shu boisdan jonivorlar bilan uning o‘rtasidagi ziddiyat va tafovut ongida saq-lanib kelmokda. Tabiatning tarkibiy qismi hisoblangan inson sut emizuvchilar olamida tanho o‘zini o‘zi nazorat qilishga, o‘zini o‘zi bilishga, o‘zini o‘zi boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan jonli zot-dir, binobarin, u psixik faoliyatni tashkil qilishga, maqsadga yo‘nal-tirishga, o‘zini o‘zi tadqiq qilishga qodir mavjudoddir. Shaxs o‘z xulq-atvorini, bilish jarayonlarini aqliy va ijodiy faoliyatini, irodaviy sifatlarini, ongli ravishda oqilona baholay oladi hamda o‘zini o‘zi boshqara biladi.

Har qaysi insonda hukm suruvchi «Men»likning «Men emas»lik-dan ajratishga intilish «o‘zini namoyon qilish, o‘zini o‘zi ifoda-lash, kimligini kashf etish, o‘zini o‘zi takomillashtirish, o‘ziga o‘zi buyruqberish, o‘ziga o‘zi ta’sir o‘tkazish singari jarayonlarda» onto-genetik hayotning dastlabki taraqqiyot pallasidan, bolalikning ilk daqiqalaridan boshlab, to yetuklikning u yoki bu bosqichlarini egal-lash davrigacha davom etib, o‘zini o‘zi anglashning yuzaga kelishi bilan yakunlanadi. Lekin «Men»lik muammosining boshqa qirralari xususiyatlari, mexanizmlari, ta’sir etuvchi omillari, yangi sifat darajalari o‘zini o‘zi anglashning takomil bosqichlarida namoyon bo‘laveradi, bu jarayon komil inson (jismoniy va ma’naviy barka-mollik) darajasiga erishgunga qadar davom etishi mumkin. Biroq yuksak kamolot darajasiga erishish shaxsning iste’dodi, salohiyati, ishchanlik qobiliyati, aqliy va ijodiy faoliyati mahsuldorligiga bog‘liq bo‘lib, barcha insonlar taraqqiyot cho‘qqisiga erishadi, degan ma’noni anglatmaydi. Chunki ijtimoiy hayotdagi umumbashariy ta-lab, ehtiyoj negizida muayyan hududiy qulay (senzitiv) ham ob’ektiv, ham sub’ektiv shart-sharoitlar taqozosi bilan jahon fani va mada-niyatida keskin o‘zgarishlar yaratishga qodir tarixiy

yakka shaxs dunyo-ga keladi. Bizningcha, komil insoniylikka erishishning o‘ziga xos axloqiy, akdiy, irodaviy, g‘oyaviy tarkiblari mavjud bo‘lib, tanlan-gan idealga intilish, kasbga sodikdik, samoviy muhabbat uning negizini tashkil qiladi. Tashqi olam taassurotlaridan mutlaqo voz kechish (g‘oyibonalik), fikriy soflikka erishish (chilla), tana azo-larini musaffolashtirish (ortiqcha moddalardan tozalash), komfortga tortilganlik orqali shaxs oliy darajaga, ya’ni komillikka yetishi mumkin, lekin bu bosqich nisbiy xususiyat kasb etadi.

Ongninguchinchi psixologiktavsifi shaxsningmaqsadini ko‘zlovchi faoliyatini ta’minlashga oid ta’rifni ifodalagan bo‘lib, uning yana bir funksiyasi mazkur maqsadini yaratishga yo‘naltirilganligi bilan boshqalardan farq qiladi. Ushbu jarayonda shaxs faoliyati-ningturli xususiyatli motivlari yuzaga keladi, ular inson tomoni-dan chamalab chiqiladi, buning natijasida motivlar kurashi namoyon bo‘ladi, bu o‘rinda ustuvorlikka erishish yetakchilikni ta’minlaydi, irodaviy zo‘r berish oqibatida muayyan qonun qabul qilinadi, hara-katlarni bajarishning izchilligi qay yo‘sinda amalga oshirilishi hisobga olinadi, maqsadni qarortoptirishgato‘siqvazifasini o‘tovchi fikriy g‘ovlar (to‘siqpar) bartaraf etiladi va unga mutanosib o‘zga-rishlar kiritiladi, samaradorlikni oshirish uchun ba’zi bir tuza-tishlar amalga oshiriladi.

Maqsadni ko‘zlovchi faoliyatning amalga oshirilishi jarayonida, uning muvofiqlashuvida, voqelikka yo‘naltirilishida ob’ektiv va sub’ektiv sabablariga ko‘ra ayrim nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi, buzi-lishi vujudga kelishi ong funksiyasining zaiflashuvini bildira-di. Faoliyat ongli munosabatni taqozo etganligi tufayli uningtar-kibiy qismlari bajarilishida ayrim kamchilikka yo‘l qo‘yilsa, bu holat ongning nazorat funksiyasi izdan chiqqanligini anglatadi.

Ongning so‘nggi (to‘rtinchi) tavsifi uning tarkibiga muayyan da-rajadagi, ma’lum tizimga xos emotsional (hissiy) munosabatlar qam-rab olinganligini aks ettiradi. Shaxs ongiga muqarrar ravishda turli-tuman his-tuyg‘ular (har xil darajali, ijobiy, salbiy, bar-qaror, statik, dinamik), kechinmalar, stress, affekt holatlar to‘g‘ri-sidagi axborotlar oqimi kirib kela boshlaydi.

Shaxsning boshqa kishilarga, tabiatga, jamiyatga, ashyolarga nis-batan munosabatlari mavjud mezonlarga asoslansa, muayyan qoida-larga bevosita amal qilinsa, har bir narsaga oqilona, odilona va omilkorlik bilan yondashilsa, ongning nazorat funksiyasi hukm su-rayotganligidan dalolat beradi.

Shaxsdagi mo‘’tadillik, ruhiy sog‘lomlik ongning boshqaruv im-koniyati mavjudligini bildirib kelib, ayrim hollarda hissiyotga berilishi esa uning o‘z funksiyasini bajarishdan chetlashganligini namoyish qiladi. Turli xususiyatli munosabatlar ong nazoratida amalga oshirilsa, shaxs xulq-atvorida, faoliyatida va muomala jara-yonida, hech qanday nuqsonlar, chetga og‘ishlar sodir bo‘lmaydi. Shu narsani ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, patologik holatlarni tahlil qilish, ong mohiyatining genezisini atroflicha anglab olishga xiz-mat qilishi mumkin. Shu boisdan ongning zaiflashuvi shaxsning his-tuyg‘ulari va munosabatlarini o‘zgartiradi: simpatiya antipatiya bilan, quvonch qayg‘u bilan, optimizm pessimizm bilan vaqti-vaqti bilan o‘rin almashib turishi kuzatiladi.

Ongning yuqorida ta’kidlab o‘tilgan barcha funksiyalarini namo-yon bo‘lishining muqarrar sharti til va nutq hisoblanadi. Shaxs nutq faoliyati yordami bilan bilimlarini o‘zgartiradi, ajdodlar tomo-nidan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida yuzaga keltirilgan tajribalar majmuasi tilda mustahkamlanadi, u o‘zining tafakkuri orqali hayoti va faoliyatini boyitadi. Til alohida ob’ektiv tizim sifatida namoyon bo‘lib, unda ijtimoiy-tarixiy jarayonlarda vujudga kelgan an’analar, marosimlar, qadriyatlar, g‘oyalar majmuasi tari-qasida ijtimoiy ongda aks ettirilgandir. Psixologik talqinlarga qaraganda, alohida, yakkahol shaxs tomonidan egallangan til boylik-lari, qoidalari ma’lum ma’noda uning yaqqol, individual ongi si-fatida yuzaga keladi, shaxsiy hayoti va faoliyatini muvaffaqiyatlp amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Til bilan nutq borliqni anglashning aloqa quroli hamda vositasi funksiyasini bajarib, shaxsning boshqa mavjudodlaridan farqlash sharti hisoblanadi va unda til bilan tafakkur birligi ong uchun moddiy negiz vazifasida ishtirok etadi, qaysidir ma’noda mexanizm rolini bajarishi ham mumkin.

Shunday qilib, ontogenezda ongning paydo bo‘lishi («Men» dav-rining boshlanishi), uning taraqqiyoti, tarkibiy qismlari, unda ijtimoiy muhitning, zarur shart-sharoitlarning roli, biologik va ijtimoiy shartlanganlikning ta’siri, tarbiyaning ustuvorligi to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqot ishlari mazkur muammoning psixologik tavsifini ishlab chiqishga muhim negie yaratdi.

3-Reja Organizm va psixika

Organizm va psixika. Organizm va psixika bir-birisiz normal shakllanmaydi. Organizm (tana va uning a’zolari)ning mo‘’tadil ravishda ishlashi insonning barcha ruhiy holatlari, hodisalari, xususiyatlari, hislatlari, mexanizmlari, qonuniyatlari, shuningdek, aks ettirish imkoniyati, xulq-atvori, turlicha faoliyat ko‘rinishlari hukm surishini maqsadga muvofiq amalga oshishini ta’minlab turadi.

Organik shakllanish: Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida insonlarning organizmlarida u yoki bu tarzdagi o‘zgarishlar yuz berib kelmoqda, buning natijasida ularning kattalashuvi yoki kichiklashuvi, pishiqlashuvi va mo‘rtlashuvi bilan antropogenetik, fonogenotipik, morfologik, konstitusion tuzilishlarga ma’lum ta’sirini o‘tkazadi. Organik olamning mikroorganizmdan to insonga qadar bir necha o‘n million yil davom etgan evolyusiyasi davomida xatti-harakatlarning, xulq-atvorning fiziologik mexanizmlari uzluksiz ravishda murakkablashib, tabaqalanib, buning oqibatida organizm muhitning o‘zgarishlariga tez reaksiya qiluvchan, moslashuvchan xususiyat kasb etib borgan. Organizmning asosiy boshqaruv imkoniyati yaxlit narsa sifatida harakat qiladigan markaziy nerv sistemasi vositasi bilan erishiladi. Odatda, organizm avtomatik ravishda refleks yo‘li bilan muvozanat saqlaydi. Hozirgi zamon psixologlari stimulni tashqi qo‘zg‘atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar.

Psixologiya fanining asosiy kategoriyalari ichida (shaxs, motiva-siya, faoliyat, muomala va hokazo) ong alohida o‘rin egallaydi va u borliqda insonning yuksaklik darajasini egallashga muhim zamin, kafolat negizini yaratadi. Insonni hayvonot

olamidan ajralib chi-qishining bosh omili ham ong hisoblanadi, xuddi shu boisdan u taraq-qiyot va kamolotning eng zarur mezoni, o‘lchami sifatida muhim rol o‘ynaydi. Psixologik nuqtai nazardan ong olib qaralganda, u ijti-moiy-tarixiy (filogenetik) va individual (ontogenetik) taraqqiyot-ning mahsuli hisoblanmish insongagina xos bo‘lib, psixik aks etti-rishning va o‘zini o‘zi boshqarishning yuksak darajasi sanaladi. Ong kategoriyasi amaliy jihatdan tavsif qilinganda: a) u ham hissiy, ham aqliy obrazlarning uzluksiz ravishda o‘zgarib turuvchi majmuasi si-fatida, b) bevosita sub’ektning oldida uning «ichki tajribasi» ta-riqasida, v) amaliy faoliyatdan qutiluvchi mahsulni oldindan sezuv-chi (payqovchi) psixologik hodisa tarzida hukm suradi.

Ong muammosi bir qancha fanlarning, jumladan, falsafa (uning asosiy masalasi — bu ongning turmushga nisbatan munosabatidan iboratdir), mantiq, lingvistika, etnografiya, antropologiya, sotsi-ologiya, neyrofiziologiya, pedagogika kabilarning tadqiqot pred-metiga aylangandir.

Psixologiya fani individda ongning vujudga kelishi, uning tu-zilishi, rivojlanishi va hukm surishini tadqiq qiladi. Ong pred-metga faollik, yo‘nalganlik, intensiallik xususiyatlariga ega:

a) ongdoimo nimanidir tushunish sifatida; b) refleksiyaga nis-batan qobiliyatlilik; v) o‘zini o‘zi kuzatish, ya’ni o‘zligini anglash; g) motivasion — qadriy xususiyat yaqqollikningyoki ravshanlikning turlicha darajasi yoki bosqichi ekanligi.

Psixologik ma’lumotlarga qaraganda, har qaysi individningongi noyob, betakror, ammo u ixtiyoriy emas, chunki birinchi navbatda max-sus tizimda hukm suruvchi tuzilish bilan unga bogliq bo‘lgan tashqi omillar hamda hech qanday aloqasi bo‘lmagan omillar shartlangan-dir. Xuddi shu tufayli ongni tadqiq qilinishning ikkita muhim qiyinchiligi mavjud: a) barcha psixologik holatlar individning ko‘z o‘ngida shunday namoyon bo‘ladikim, bunda birinchidan, ular qay ta-riqa anglashilmoqda (ongsizlikning roli qanchalik), ikkinchidan, anglash darajasiga yetkazishning maxsus tashqi va ichki mashqi nati-jasida inson tomonidan anglashiniladi, uchinchidan, bevositalikda ong funksiyasida yanglishlik vujudga keladi.

O‘zini kuzatish natijalariga ko‘ra, ong o‘zining yaqqol psixologik o‘ziga xosligidan mahrumdir, chunki uning yagona alomati shundan .chboratki, bunda uning sharofati bilan individ oldida (u yoki bu an»chklik, ravshanlik darajasida) yaqqol psixologik funksiyalar mo-hiyat^ni yuzaga keltiruvchi turli holatlar, hodisalar namoyon bo‘ladi. Xuddi lgu boisdan ong psixika hukm surishining sifatga ega bo‘lma-gan umumi»'? sharti (sharoiti) tariqasida talqin qilingan, buning natijasida u .majoziy belgilangan. Jahon psixologiyasi fani konsepsiyalarida bu hodisa aksariyat hollarda «ongning nuri», «ongning maydoni», hatto «psixik funk-siyalarning umumiy hokimi» kabi tahlil etilgan, goho u qaysidir psixik funksiyalar bilan g‘ayritabiiy ravishda (qo‘shimcha diqqat, tafakkur bilan) ayniylashtirilgan. Shu munosabati bilan birinchi galda ongni yaqqol o‘rganish, tekshirish to‘grisida umuman gap bo‘li-shi mumkin emas. Ikkinchi holda esa ushbu masala unga mutanosib funksiya bilan almashtiriladi. Bunday talqinlarning barchasi shun-day

fikrni tugdiradiki, go‘yoki ong ilmiy psixologiya fani uchun shunchaki qayd qilinish, ya’ni fiksiya, xolos (U.Jeyms). Ongni tad-qiq qilishdagi ikkinchi qiyinchylik ham bevosita birinchisidan kelib chiqadi: a) ong bir qator psixik funksiyalar kabi tashqi fazo-da lokalizatsiyalashmaydi; b) ong psixik funksiyalardan farqli o‘laroq vaqtni (zamonni, davrni) muayyan qismlarga ajrata olmaydi. Tadqiqotchilar ongni o‘rganish uchun ommabop, sodda psixologik me-todlarning qo‘llaganliklari tufayli uning ma’lum tavsifini topa olmadilar, jumladan, vaqtning aniqbirliklari yordamida uni o‘lchash, muayyan vaqt oralig‘ida ongni solishtirish. Adabiyotlar tahlilining ko‘rsatishicha, ongni konstruktiv tarzda talqin qilishning muhim jabhasi K.I.Kanttomonidan ko‘tarilgan ongningbarqaror, invari-ant tuzilishi va sxemasi mavjudligi, uzluksiz ravishda o‘rin al-mashtirib turuvchi sensor oqim, axborotlar va uning muayyan daraja-da tashkil qiluvchanligi to‘g‘risidagi yuksak g‘oyasi hisoblanadi. Bir pecha asrlar davomida aylanib kelgan va bunda tabiiy-ilmiy mate-rialistik yondashuv diiiy nazariyalarga qarshi kurash olib borgan. Ong muammosining yechimida ilmiy dialektik materialistik ta’li-mot hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi, bu borada Gegel g‘oyasiga e’ti-roz muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ta’limotga binoan, ongning tuzilishi ijtimoiy-mada-niy xususiyat kasb etib, insoniyatningtarixiy taraqqiyoti davomida filogenetik tarzda, ustuvor individualistik hamkorlik jarayonida ijtimoiy ustuvor individualistiktuzilishningta’sirida, engav-valo, ishlab chiqarish amaliyoti negizida u shakllangandir. Ilmiy dialektik ta’limotdan kelib chiqqan holda sobiq sho‘ro psixologiya-sida ongning ontogenezda shakllanishi to‘g‘risida umumlashgan il-miy nazariya ishlab chiqilgan. Umumlashgan nazariyaga binoan, indi-vid ongining tuzilishi ontogenezning ilk davrida bolaning katta-lar bilan muomala (muloqot) qilish faoliyatida o‘zlashtirish (egal-lash, o‘ziniki qilib olish, o‘z ma’naviy dunyosiga aylantirish jara-yoni)ning sharofati bilan shakllanadi. Bunday tarzdagi o‘zlashtirishning qat’iyatlik imkoniyati filogenetik, tarixiy taraqqiyot-ning negizida ham mavjuddir. Predmetli faoliyatning atributi bo‘lmish muomala, uning tuzilishi tarkibida aks etuvchi quyidagi asosiy xususiyatlarga, xossalarga egadir: 1) ijtimoiy kelib chiqishi va tuzilishi; 2) uning ijtimoiy reglamentatsiyasi; 3) ruhiy qurol-lar va alomatlar bilvositaligida ifodalanishi; 4) ikki sub’ekt-ning o‘zaro alohidaligi va betakrorligi; 5) ob’ektga yo‘nalganligi kabilar.

Shaxslararo munosabatda hamkorlik faoliyatining tuzilishi ong strukturasini vujudga keltirib, uning quyidagi asosiy xususiyatla-rini aniqlashga xizmat qiladi: a) ijtimoiy xususiyati, hatto simvolik va verbal tuzilishga ega bo‘lgan belgilar bilvositalanganli-gini qamrab olinganligi; b) refleksiyaga, ya’ni o‘zini o‘zi tushunish-ga nisbatan qobiliyatlilik; v) ichki dialogizm, ya’ni ichki nutqqa, fikrlash mexanizmi negiziga qurilishi; g) predmetlilik, ya’ni har qanday psixologik holat muayyan yaqqol tasvirlarga va alomatlarga ega bo‘lishligi va hokazo.

Endi ongning psixologik tavsifidan kelib chiqqan holda uning shakllari yuzasidan qisqacha mulohaza yuritamiz. Ongning genetik jihatdan talqini ongsizlik birlamchiligini bildirib, u o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligini, inson faoliyati va xatti-harakatida mu-ayyan darajada rol o‘ynashini tan olishni taqozo etadi. Chunki

inson ongining yuksakroq shakllari uzoq ijtimoiy-tarixiy taraqqi-yotning keyingi davrida vujudga kelgandir. Xuddi shu boisdan ong-ning paydo bo‘lishi to‘g‘risida mulohaza yuritilganda ijtimoiy bor-liq, ijtimoiy taraqqiyot, ularga nisbatan munosabat uslubi asosiy mezonlar vazifasini bajarib kelgan va hozir ham xuddi shunday bo‘lib qolaveradi.

Psixologik talqinga ko‘ra, ongsizlik, birinchidan, voqelikning hodisalari bilan shartlangan ruhiy jarayonlar, aktlar va holatlar-ning majmuasi; ikkinchidan, tashqi va ichki ta’sirlarga nisbatan sub’ektning o‘ziga hech qanday hisobot bermasligi; uchinchidan, psi-xik aks ettirishning shakli, ya’ni voqelikning obrazi: tasviri, tim-soli va unga nisbatan sub’ektning munosabati refleksiyaning max-sus predmeti sifatida vujudga kelmaganligi; to‘rtinchidan, qismlarga ajralmovchi yaxlitlik tarkibiga ega ekanligi va hokazo.

Ongsizlikning onglilikdan farqi shuki, uning tomonidan aks ettiriluvchi voqelik sub’ektning kechinmalari bilan, uning bor-liqqa munosabati bilan qo‘shilib, aralashib ketadi. Shuning uchun ongsizlikda sub’ekt tomonidan amalga oshiriluvchi xatti-harakatlar natijasini ixtiyoriy ravishda nazorat qilish va baholash imko-niyati mavjud emas. Ongsizlikda voqelik sub’ektning o‘xshashlik, ayniyat singari mantiqiy shakllariga asoslanib aks ettiriladi.

Bu holat bevosita emotsional his qilish, emotsional yuqish va identifikatsiyalashga daxldorlik tuyg‘usi orqali turlicha hodisalar o‘zining tuzilishi, mohiyati jihatidan o‘ziga xoslikdan qat’i nazar bir tizimga birlashtiriladi, psixologik ob’ektlar o‘rtasidagi u yoki bu xususiyatli alomatlar o‘rtasidagi tafovutlar, mantiqiy qarama-qarshiliklar ochilmasdan namoyon bo‘ladi, in’ikos etiladi.

Ongsizlikda o‘tmish bilan kelajak ko‘pincha bir davrda hukm su-rayotganday, go‘yoki ular biron-bir psixik aktga bevosita birlashgan tarzda aks ettiriladi, bunga tush ko‘rish jarayoni yorqin misoldir. Ongsizlik borliqni bola tomonidan bilishning ilk shakllarida, ibtidoiy tafakkurda, intuisiyada, affektiv holatlarda, sarosimaga (panikaga) tushishda, gipnoz holatida, tush ko‘rishda, odatiy harakat-larda, subsensor idrokda, ixtiyorsiz esda olib qolishda, shuningdek, intilishlarda, hissiyotda, xulq-atvorda ifodasini topib, ularning sabablari va oqibatlari shaxs tomonidan tubdan anglashilmaydi. Odatda, ongsizlikning namoyon bo‘lishining to‘rt turkumi psixolog-lar tomonidan tan olinib kelinmokda.

I. Ustonglilik holatlari.

II. Faoliyatning anglashilmagan qo‘zg‘atuvchilari. Anglashilmagan motivlar va ma’no anglatuvchi ustanovkalar, odatda, ular shaxsga oid ma’no kasb etib, kelajakka xohish, istak orqali shartlangandirlar. Bunday holatlarning turkumi gipnoz holatidan chiqqan sub’ektning xatti-harakatini o‘rganishda qo‘lga kiritilgan, ushbu jarayonda unga aniq harakat dasturi orqali kuchli ta’sir o‘tkazilgan (masalan, bozorga borish va aytilgan narsalarni xarid qilish kabilar). Qo‘yilgan dasturiy topshiriqparni bajarish jarayonida inson o‘z xulq-atvori sabablarini izohlay va tushuntira olish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Mazkur hodisalarning psixologik tabiatini psixoanalitik pozisiyasidan turib tushuntirishga harakat qilgan Zigmund Freyd «ongsizlikning dinamik qisilishi» terminini fanga olib kiradi. Z.Freyd,

ongsizlik deb, ijtimoiy normalar talabi bilan nizoli holat, qarama-qarshilik tufayli ongga kira olmagan, amalga oshmay qolgan mayllar qisilish mexanizmi yordami bilan begonalashib, individ yanglish aytgan so‘zida, gapda yanglishib ketishida, tush ko‘rishida va hokazolarda aks etishini tushunadi. Ongsizlikning shunga o‘xshash tarzda namoyon bo‘lish xususiyati shundan iboratki, sub’ektning amalga oshmay qolgan mayllari psixoterapevtik holatlar bilan sababiy bog‘liqligini anglashi mazkur mayllar bilan shartlangan kechinmalarning yo‘qolishiga olib kelmaydi (masalan, qo‘rquvning yo‘qolishiga), chunki anglanish sub’ekt tomonidan qandaydir u bilan yuz bermayotgan, guyo shaxsga aloqasiz, begona hodisa sifatida idrok qilinadi.

Xulq-atvordagi ongsizlik samaradorligi ularni keltirib chiqaruvchi hodisalar shaxsning boshqa odamlar bilan hamkorlikda boshidan kechirishida (masalan, psixologik seans chogida) yoki guruhiy psixoterapiya davrida o‘zgalarda kechishida sodir bo‘lsa individni qoniqtiradi. Chet el psixologiyasida, eng avvalo, Z.Freydning psixoanalizida va uning izdoshlari qarashlarida ongsizlikning yuzaga keli-shini tor ma’noda, cheklanib tushunish uning dinamik jabhalarini shakllanishining bir tomonlama tahlil qilish bilan shartlangan-ligidir. Chunki, ongsizlikning ijtimoiy-tarixiy shartlanganli-gini tan olmaslik, ongsizlikning inson bilan borliqning o‘zaro ta’siridan bevosita ajratib olmaslik bir qator anglashilmovchi-liklarga olib keladi, ularni differensiyalash orqali shu kontekst-dagina uning asl mohiyati, funksiyalari shaxs xulq-atvorida ochili-shi mumkin, xolos. Bunday cheklanishlar sobiq sho‘ro psixologiyasi-da ustanovka nazariyasida, psixologik hodisalar o‘rganishda faoli-yatli yondashuvda psixikani dialektik materialistik tushunishdan kelib chiqqan holda anglashilmagan motivlarning funksiyalari, ta-biati, ma’no anglatuvchi ustanovkalar inson hayotida shaxsiy ma’no kasb etuvchi g‘oyalarida bartaraf qilib borildi.

III. Faoliyatni bajarish usullarining anglashilmovchi regulyatorlar (avtomatlashgan xulq-atvor stereotiplari va operasion ustanovkalar) uni kechishining barqaror va yo‘nalgan xususiyatini ta’minlaydi. Ular avtomatlashgan va ixtiyorsiz harakatlar regulyatsiyasi negizida yotadi (masalan, topshiriqni yechish jarayoni) va anglashilmagan hodisalarni oldindan sezish, payqash obrazlari harakat usullari bilan shartlangan bo‘lib, turli vaziyatlardagi o‘tmish tajribalariga bevosita tayanadi. Avtomatlashgan odatiy xulq-atvor yo‘lida kutilmagan to‘siqlar paydo bo‘lganda ular sub’ekt tomonidan anglashinishi mumkin. Anglashilmagan avtomatlashgan xulqning psixofiziologik mexanizmlari to‘g‘risidagi ilmiy tasavvur, nazariya N.A.Bernshteynning «Xatti-harakat tuzilish darajalari» konsepsiyasida ishlab chiqilgan.

IV. Subsensor idrok qilishning vujudga kelishi. Ongsizlikning tabiati to‘g‘risidagi ilmiy tasavvurlarning tobora o‘sishi, uni paydo bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari, kelti rib chiqaruvchi mexanizmlari va funksiyalari inson xulq-atvori-ning regulyatsiyasi, shaxs hayotining yaxlit ob’ektiv manzarasini yara-tishning zarur shart-sharoiti hisoblandi. Lekin bu muammo hali to‘laqonli ilmiy ma’lumotlarga ega emas, xuddi shu sababdan uning psixofiziologik asoslari,

mexanizmlari harakatga keltiruvchi kuch-lar to‘g‘risida atroflicha mulohaza yuritish imkoniyatini bermaydi.

Ongning tuzilishi:

Ongning tarkibi:

a) obrazni his qilish imkoniyati;
b) borliqdagi narsalarning qadr-qiymati;
v) atrof —muhit ob’ektlarining ma’no kasb etishi.

Ongning funksiyalari:

a) aks ettiruvchanligi;
b) ijodiylikning vujudga keltiruvchanligi;
v) baholovchanligi;
g) boshqaruvchanligi;
d) refleksivligi;
ye) ma’naviyligi.

O‘zini o‘zi anglashning omillari:

a) oilaviy muhit ta’siri;
b) milliy muhit va milliy til vositalari;
v) ma’rifiy, ma’naviy, madaniy qurshov;
g) maxsus hayotiy vaziyatlar va favqulodda hodisalar.

Ongning xislatlari:

a) borliqob’ektlari va jamiyat sub’ektlari bilan munosabat o‘rnagish;
b) biosfera va neosfera hodisalarini anglash (tushunish, bilish);
v) tabiiy va ijtimoiy holatlar hamda hodisalarga hamdardlik (empatiyaning namoyon bo‘lishi).

Ongning xususiyatlari:

a) reaktivligi;
b) sezgirligi;
v) refleksivligi;
g) taraqqiyotning ixtiyorsizligi (spontanligi);
d) polifonikligi;
ye) dialogizmga moyilligi.

Ongninig turlari:

a) individual;
b) guruhiy;
v) jamoaviy;
g) etnik;
d) milliy;
ye) ijtimoiy.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

Ong paydo bo‘lishining ijtimoiy-tarixiy mohiyati.
Ong psixologik kategoriya sifatida.
Ong tuzilmasi to‘grisida tushuncha.
Ongning shakllari yuzasidan mulohazalar.
Ongning turlari tavsifi.
Ongning rivojlanishi o‘ziga xosligi.
Ongning vujudga kelishi va rivojlanishi.
Ong to‘grisida psixologik nazariyalar.
Ong turlarining psixologik tavsifi.
Ongning ontogenezda o‘sishi to‘g‘risida mulohazalar.

Test savollari:

№1

Psixologiya ong haqidagi fan sifatida qachon rivojlandi?

XVIII asrda
XV asrda
XVI asrda
XVII asrda

№2.

Ong haqidagi tushunchani idealistik jihatdan o‘rgangan olimlarni aniqlang?

Plotin (eramizning III asri) va Avgustin (er. IV-V asr)
Jane (XVII asr) va Bine (XVIII asr)
Gerofil (eramizning IV asri) va Erazistrat (5 asr)
Djon Lokk va David Gartli

№3.

Ongning ta’rifi?

ong ijtimoiy mahsul bo‘lib, faqat odamlarga xosdir
ong-qaytarilmas shaxsdir
ong-individual
ong-insonga tug‘ma beriladi

№4.

Psixikaning quyi darjasi?

ongsizlik
anglanganlik
muvozanatlashgan
muvaffaqiyatsizlik

№5.

Psixikaning oliy darajasi?

ong
tafakkur
psixika
ruhiyat

№6.

Psixologiya fanining prinsiplari qaysilar?

Determinizm, ong va faoliyat birligi, psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi

Taraqqiyot, qarama-qarshilik kurashi

Ong va faoliyat birligi, shaxs taraqqiyoti

Ong va faoliyat birligi, monizm kuzatish

4-MAVZU. SHAXSNING IJTIMOIY BORLIQNI BILISHI. BILISH MEZONLARI VA ULARNING ADEKVATLIGI.

Reja:

1. Bilish jarayonlari
2. Sezgi xaqida tushuncha
3. Idrok xossalari
4. Diqqat xaqida tushuncha
5. Xotira turlari

Mavzuning qisqacha mazmuni

Diqqat va sezgi*. Diqqat haqida tushuncha, diqqatning fiziologik asoslari, diqqatning turlari, xususiyatlari, parishonlik. Sezgi turlari, ularning o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari.*

Idrok. *Idrokning umumiy ta’rifi va fiziologik asoslari, idrokning yaxlitligi, anglangan bo‘lishi, ayrim narsalarga qaratilishi va barqarorligi.*

Xotira va mnemik jarayonlar. *Xotira tushunchasi, xotira nazariyalari, mnemik jarayonlar (esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, va unutish), xotira turlari, xotiraning individual farqlari.*

1-reja. Bilish jarayonlari.

Professional faoliyat shaxsdan juda ko‘p bilimlarni hamda malakalarni talab qiladi. Nima uchun u yoki bu kasbni tanlaganini anglab yetgan shaxs (motivlar muammosi), endi o‘z faoliyati va qobiliyatlarini boshqara bilishi va o‘z ustida muttasil ishlab, malakalarini orttirib borishi shart.

Professional bilimdonlik shu nuqtai nazardan shaxs umumiy madaniyatining shunday yo‘nalishiki, unga faqat kasbiga taalluqli bo‘lgan bilimlardan tashqari shu bilimlarning hosil bo‘lish yo‘llari va malakalarning takomillashuvini ta’minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni bilishni ham taqozo etadi. Bu psixologiyada bilish jarayonlari va ularning mohiyatini va kechishini bilish demakdir.

Ma’lumki, odamlar bir-birlaridan ko‘p jihatlari bilan farq qiladilar. Masalan, ayrimlar ko‘rgan-kechirganlarini juda yaxshi esda olib qolib, kerak vaqtda aniq esga tushira oladilar. Ba’zilar ko‘zi bilan ko‘rgan har qanday ob’ektni mayda detallarigacha bayon etish qobiliyatiga ega. Yana birlari eshitgan narsalari xususida aniqrok fikrlaydi, kimdir sodda, ravon tilga o‘z his-kechinmalarini ayta olsa, boshqalar - har bir xikoyaga albatta, fantaziya

elementlarini qo‘shishga moyil bo‘ladilar. Demak, odamlarning tashqi olamdan oladigan taassurotlari va ularni ongda tartiblashtirish qobiliyatlari har xil bo‘larkan. Ikkinchi tomondan, shunday kasb-korlar borki, u shaxsdagi u yoki bu sifatlarning mukammalashib borishiga imkon beradi. Masalan, yirik avtomatik boshqaruv tizimlarida ishlaydigan operator o‘z diqqatini har qanday mayda o‘zgarishlarga ham qaratishga o‘rgansa, konstruktor mavhum matematik hisob - kitoblarga usta bo‘lib boradi. Iqtisodchi - moliyachi pulning har bir tiyinidan foyda olishga o‘rgansa, shoir tabiatan barcha hodisa va vokealarni badiiy bo‘yoqlarda, o‘ziga xos idrok qilishga moyilligi oshadi. Demak, odamning tashqi olam xossa va xususiyatlarini ongida aks ettirishi uning iqtidori o‘sishi va professional malakalari rivojlanganligiga bog‘liq tarzda kechadi. Shuning uchun har ongning muhim aks ettirish shakllari bo‘lmish bilish jarayonlari - idrok, sezgilar, xotira, diqqat, tafakkur, iroda va hissiyotlarning inson hayoti va professional o‘sishidagi roliga to‘xtab o‘tamiz.

2-Reja. Sezgi xaqida tushuncha

Sezgi bilish jarayonlari ichida oddiy psixologik jarayon bo‘lib, tashqi olamdagi narsa va hodisalarni aks ettiradi. Tashqi olamdan kelayotgan qo‘zg‘atuvchilarning muayyan reseptorlarga bevosita ta’sir etish orqali ayrim belgi va xususiyatlarni va organizm ichki holatini aks ettiradi. Ma’lumki, insondan sezishning dastlabki bosqichi hissiy bilishdan boshlanib, keyinchalik u mantiqiy bilishga o‘tadi. Sezgi ham oddiy psixologik jarayon bo‘lgani bilan uning yuzaga kelishi o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

Sezgi a’zolariga ta’sir etadigan narsa va hodisaning bo‘lishi.

Sezuvchi apparat, ya’ni analizatorning mavjud bo‘lishi. *Masalan*, havoning sovuqligini, temirning qattiqligini, qorning yumshoqligi va boshqalarni sezamiz.

Ma’lumki, sezgilar faqatgina tashqi ta’sirlar natijasida hosil bo‘lmay, balki organizmning ichki holatida ham amalga oshiriladi. Sezgi nerv tizimining u yoki bu qo‘zg‘atuvchidan ta’sirlanuvchi reaksiyalari tarzida hosil bo‘ladi va har qanday psixik hodisa kabi reflektorlik xususiyatiga egadir. Sezgilarning nerv – fiziologik asosini qo‘zg‘atuvchining o‘ziga aynan o‘xshaydigan analizatorga ta’siri natijasida hosil bo‘ladigan nerv jarayoni tashkil qiladi. Shuningdek, sezgilarning nerv fiziologik asosini o‘rganishda I.P.Pavlov ta’biri bilan aytganda analizator apparati tashkil etadi.

Analizator – tashqi va ichki muhitdan keladigan ta’sirotlarni qabul qilib olib, fiziologik jarayon bo‘lgan qo‘zg‘alishni psixik jarayonga, ya’ni sezgilarga aylantiruvchi nerv mexanizmlari tizimi. Analizator apparati 3 qismdan tashkil topgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- periferik (reseptor) – tashqi quvvatni nerv jarayoniga o‘tkazadigan maxsus transformator qismi;
- analizatorning periferik bo‘limining markaziy analizator bilan bog‘laydigan yo‘llarni ochadigan afferent (markazga intiluvchi) va efferent (markazdan qochuvchi) nervlar;

➢ analizatorning periferik bo‘limlaridan keladigan nerv signallarining qayta ishlanishi sodir bo‘ladigan qobiq osti va qobiq bo‘limlari.

Analizatorning qobiq bo‘limida reseptor hujayralarining asosiy qismi jamlangan o‘zak, ya’ni markaziy qism va qobiqning turli joylarida ma’lum miqdorda mavjud tarqoq hujayra qismlaridan tarkib topgan tashqi qism bo‘ladi. Analizatorning o‘zak qismida reseptordan markazga intiluvchi nervlar joylashgan bo‘lib, ko‘plab hujayralardan iborat. Mazkur analizatorning periferik, ya’ni tarqalib ketgan qismlari boshqa analizatorlarning o‘zaklari bilan yondosh sohalariga kiradi va alohida narsalarni izlash jarayonida butun bosh miya qobig‘ining katta qismi ishtirok etishiga erishiladi. Analizatorning o‘zagi analiz va sintez qilish funksiyasini bajaradi, *masalan*, tovushlarning balandligi.

Sezgilar qaysi a’zolar yordamida hosil qilinishiga qarab, quyidagi turlarga, ya’ni ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish, teri, muskul–harakat, organik sezgilarga ajratiladi. Ular sezgi a’zolari qaerda joylashganligiga qarab tavsiflanadi.

Jahon psixologiyasi fanining so‘nggi yutuqlari hamda atamalariga binoan sezgilar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi. Ushbu tasniflanishning dastlabki ko‘rinishi ingliz olimi Ch.Sherringtonga taalluqlidir. U reseptorning qaerda joylashganligiga qarab, sezgilarni uch turga bo‘ladi.

✓ Tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishgamoslashgan hamda reseptorlari tananing sirtqi qismida joylashgan sezgilar, ya’ni **ekstroreseptiv** sezgilar;

✓ Ichki tana a’zolari holatlarini aks ettiruvchi hamda reseptorlari ichki tana a’zolarida, to‘qimalarda joylashgan sezgilar, ya’ni **interoreseptiv** sezgilar.

✓ Tanamiz va gavdamizning holati hamda harakatlari haqida ma’lumot (axborot, xabar) beruvchi muskullarda, bog‘lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilar, ya’ni **proprioreseptiv** sezgilar.

Interoreseptiv sezgilar insonning kayfiyatida, emotsional reaksiyalari o‘zgarishida ko‘zga tashlanadi, bolada esa xatti–harakatning keskin o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Chunki bola tana a’zolaridagi ichki holatini anglash, his qilish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun undagi xatti-harakatning umumiy o‘zgarishi belgilardan buni sezish mumkin.

Interoreseptiv sezgilar organizmdagi ichki jarayonlarni o‘zaro o‘rin almashtirish muvozanatini ta’minlab turishning asosi hisoblanadi. Bu jarayonni bir so‘z bilan aytganda, organizmdagi jarayonlarni o‘zaro o‘rin almashib turishning gemostazi (barqarorligi) deb ataladi. Shuningdek, mazkur sezgilar insonda yuzaga keladigan puls, zo‘riqish, affekt holatlarini yo‘qotish, tug‘ilib kelayotgan mayllarni qondirish bilan bog‘liq vazifani bajaradi. Natijada ichki tana a’zolarining faoliyatini izdan chiqarish holati yuz berishi mumkin.

Interoreseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari interosepsiya bilan birgalikda K.M.Bikov, V.N. Chernigovkiylar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Ularning fikriga ko‘ra, bu narsalarning barchasi shartli reflektor faoliyati mexanizmlaridan kelib chiqadi

Proprioseptiv sezgilar gavdaning fazodagi holati to‘g‘risida signallar bilan ta’minlab turadi. Ular inson harakatining boshqaruvchisi hisoblanib va afferent asosini tashkil qiladi.

Pereferik reseptorlar muskullar, pay va bo‘g‘imlarda joylashgan bo‘lib, maxsus tanachalar shakliga ega va ular Puchchini tanachalari deb ataladi.

Tanachalarda vujudga keluvchi qo‘zg‘atuvchilar muskullarning harakatlashuvi natijasida va bo‘g‘imlar holatining o‘zgarishi, nerv tolalari yordamida, orqa miyaning orqa ustunidagi oq suyuqligiga yetkaziladi. Qo‘zg‘ovchilar Burdax va Goll yadrosining quyi bo‘limlariga yetib keladi va undan po‘stosti tugunchalaridan o‘tib, bosh miya katta yarim sharining qorong‘ulashgan zonasida harakatlarini yakunlaydilar.

Proprioreseptorlar harakatning afferent asosi ekanligini A.Orbeli tomonidan, hayvonlarda P.K.Anoxin, odamlarda esa N.A.Bernshteynlar tomonidan o‘rganilgan.

Psixologik ma’lumotlarga ko‘ra, gavdaning fazodagi holati, sezgirligi **statik** sezgilarda o‘z ifodasini topadi. Uning markazi ichki quloq kanallarida joylashgan bo‘lib, ular o‘zaro bir-biriga perpendikulyar bo‘shliqda tutash holatda yotadi.

Masalan, bosh holatining o‘zgarishi quyidagi sxemada ko‘rish mumkin:

a) endolimfa suyuqligiga bog‘liq qo‘zg‘alish;

b) eshitish nervi;

v) vestibulyar nervi;

g) bosh miya po‘stining chakka bo‘lmasi;

d) miya apparatiga o‘tadi;

Vestibulyator sezgi apparati ko‘rish bilan bevosita aloqada bo‘lib, fazoni mo‘ljalga olish (orientirlash) jarayonida ishtirok etadi.

Masalan, avtomobil yo‘lidan o‘tish va hokazo. Bu jarayon patologik holatda ham uchrashi mumkin.

Ekstroreseptiv sezgilar intermodal, nospesifik sezgi turkumlariga ham ajratiladi. Masalan, eshitish organi orqali 10-15 sekundga tebranishni sezish mumkin, lekin quloq bilan emas, balki suyaklar yordamida (miya qopqog‘i, tirsak, tizza uchlari) payqash – **vibratsiya** sezgilari deyiladi. Masalan, karlarni tovushlarni idrok qilishi. Odatda vibrasion sezgirlik intermodal sezgi deb ham nomlanadi. Uning quyidagi ko‘rinishlari ham mavjud:

a) hid, ta’m va maza sezgilarida;

b) o‘ta kuchli tovushda, o‘ta yorqin yorug‘likda;

v) uch xil ta’sirning uyg‘unlashgan integrativ holatida;

Sezgining nospesifik shakliga terining foto sezgirligi kirib, u ranglarni, nozik jumlalarni ajratish, qo‘l uchlari bilan sezish orqali ro‘yobga chiqadi. Terining foto sezgirligi A.N.Leontev tomonidan kashf qilingan bo‘lib, bu narsa ko‘pgina holatlarga oqilona yondashish imkoniyatini vujudga keltiradi. Tadqiqot asosan qo‘l uchiga yashil va qizil ranglarni yuborish orqali amalga oshirilgan. Terining foto sezgirligi tabiati psixologiyada yetarli darajada o‘rganilmagan.

Sezgi turlari. Psixologiya fanida uchta katta guruhga ajratilgan sezgilar (ekstroreseptiv, proprioreseptiv, introreseptiv) o‘z navbatida quyidagi turlarga ajratiladi:

- ✓ Ko‘rish sezgilari;
- ✓ Eshitish sezgilari;
- ✓ Hid bilish sezgilari;
- ✓ Ta’m bilish sezgilari;
- ✓ Teri sezgilari;
- ✓ Muskul – harakat (kinestetik);
- ✓ Statistik sezgilar;
- ✓ Organik sezgilar;

Sezgilar chegarasining absolyut me’yori bilan belgilanadigan analizatorning sezgirligi barqaror bo‘lmasdan qator fiziologik va psixologik shart-sharoitlar ta’siri ostida o‘zgarib turadi. Ushbu shart-sharoitlar orasida adaptatsiya (moslashish) hodisasi alohida o‘rin egallaydi.

Adaptatsiya – yoxud moslashuv – sezgi organlari sezgirligining qo‘zg‘atuvchi ta’siri ostida o‘zgarishi demakdir.

Adaptatsiya (yoki moslashish) ikki turga bo‘linadi:

a) negativ adaptatsiya;

b) pozitiv adaptatsiya.

Pozitiv adaptatsiyada kuchsiz qo‘zg‘atuvchi ta’siri ostida sezgirlik oshadi. Ko‘rish analizatorida pozitiv adaptatsiya, qorong‘ulik adaptatsiyasi deyiladi.

Negativ adaptatsiya ikki xil bo‘ladi:

a) qo‘zg‘atuvchining davomiy ta’siridan sezgirlik yo‘qoladi. Masalan, qo‘limizga yuk qo‘yilsa sezamiz, ammo vaqt o‘tishi bilan sezmay qolamiz.

b) kuchli qo‘zg‘atuvchi ta’siridan sezgirlikning susayishi. Masalan, qorong‘u xonadan birdaniga chiqib qolsak, avvaliga hech narsa ko‘rmaymiz, vaqt o‘tishi bilan sezgirlik pasayib biz normal ko‘ramiz.

Adaptatsiya teri reseptorlarida tez yuzaga keladi. I.P.Pavlov fikricha, “Adaptatsiya bosh miya po‘stloq qismidagi muhofazalovchi tormozlanishi tufayli hosil bo‘ladi”. Haroratga, hidlarga nisbatan ham adaptatsiya bo‘ladi.

Sensibilizatsiya – analizatorlarning o‘zaro munosabati va mashq qilishi natijasida sezgirlikning kuchayishidir.

Sensibilizatsiyaning adaptatsiyadan farqi:

- ➢ Adaptatsiyada sezgirlik oshadi yoki kamayadi, sensibilizatsiyada esa faqat oshadi;
- ➢ adaptatsiyada sezgirlikning o‘zgarishi tashqi chegaralarga bog‘liq bo‘lsa, sensibilizatsiyada psixologik, fiziologik holatlarga bog‘liq bo‘ladi.

Sinesteziya qo‘zg‘atuvchining bir analizatorga ta’siri bilan boshqa analizatorga xos sezgining paydo bo‘lishidir. Ko‘rish, eshitish sinesteziyasi ko‘proq uchraydi. Sinesteziyalar har bir shaxs uchun doimiy bo‘ladi. Masalan, kompozitorlardan Skrebin, A.F.Lest, N.Rimskiy Korsakovlarda “rangdor eshitish”

qobiliyati bo‘lgan. Demak, sinesteziya ikki sezgining bir sezgi bo‘lib qo‘shilishidir. “Masalan, “shirin so‘z”, “bag‘ri tosh”.

Sezgilar **kontrasti** qarama-qarshi sifatga ega bo‘lgan bir vaqtdagi qo‘zg‘alish tufayli sezgirlikning o‘zgarishidir. Masalan, tinch joyda tovush kuchliroq seziladi. Oqimtir fonda qora rang qoraroq, qoramtir fonda oq rang yana ham och bo‘lib seziladi. Odam charchaganda sezgirlik pasayadi. Harakat oshganda sovuqqa sezgirlik o‘tkirlashadi. Sezgirlik kasbga ham bog‘liq. Masalan, rassomlarda rang sezish, musiqachilarda tovush sezish va shu kabilar.

3-Reja. Idrok xossalari

Idrok. Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo‘lib, barcha ruhiy holatlar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni egallangan bilimlar, tajribalar, ko‘nikmalar bir davrning o‘zida namoyon bo‘ladi, aks ettirishda ishtirok etadi.

Idrok sezgiga nisbatan bir muncha murakkabroq, to‘laroq aks ettirish jarayoni bo‘lib, sezgi a’zolarimizga ta’sir etib turgan narsa va hodisalarni butun belgi hamda xususiyatlari bilan butunligicha, ya’ni yaxlit aks ettirishdan iboratdir. Masalan, olmani ko‘rgan paytimizda uning shakli, rangi, ta’mi, hidi va navi bilan birgalikda bir butun narsa tarzida idrok etamiz. Demak, idrok qilish jarayonida deyarli barcha sezgilarimiz qatnashadi. Shuning uchun ham idrok sezgiga nisbatan ancha murakkab aks ettirish jarayonidir. Shaxs tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning faqat ayrim xossalarini ongda aks ettirib qolmaydi, balki ularning barcha xossalarini birgalikda bir butun holda ham aks ettiradi.

Idrok deb sezgi a’zolariga bevosita ta’sir etib turgan narsa-hodisalar obrazlarini kishi ongida bir butun holda aks ettirilishiga aytiladi.

Idrokning muhim tomonlaridan biri – uning xususiyatlarini turli jabhalar, vaziyatlar, sharoitlarda namoyon bo‘lishidir. Idrokning muhim xususiyatlaridan biri – bu faol ravishda bevosita aks ettirish imkoniyatining mavjudligidir. Odatda insonning idrok qilish (perseptiv) faoliyatini uning o‘zlashtirilgan bilimlari, to‘plagan tajribalari shuningdek, murakkab analitik-sintetik harakatlar tizimi zamirida yuzaga keladi.

Idrokning yana bir muhim xususiyati, uning narsa va hodisalarni umumlashgan holda aks ettirilishdir. Ma’lumki, inson psixikasiga kirib borayotgan ko‘p qirrali, ko‘p yoqlama amallari idrok qilish bilan cheklanib, chegaralanib qolmasdan, balki o‘sha majmua aniq qism yoki hodisa sifatida baholanadi. Sezgilar eng oddiy elementar psixik jarayondir. Idrok esa sezgilarga qaraganda murakkab psixik jarayon hisoblanadi. Idrokning murakkabligi quyidagilarda ifodalanadi:

✓ Har bir idrok tarkibiga ayni vaqtda bir necha sezgi kiradi. Masalan, qovunni idrok qilish, bunda quyidagi sezgilar ishtirok etadi, qovunning shakli va rangini aks ettiruvchi ko‘rish sezgisi, hidini aks ettiruvchi hid sezgisi, mazasini aks ettiruvchi ta’m bilish sezgisi, harakatini aks ettiruvchi teri sezgisi va boshqalar. Bu sezgilar tahlil yordamida ajratib olinadi va idrokning perseptiv tomonini tashkil

qiladi. Ular ishtirokida narsaning barcha xossalari bir butun holda aks ettiriladi. Bu esa idrokning perseptiv tomonini tashkil qiladi.

✓ Har bir idrok tarkibiga kishining o‘tmishda hosil qilingan bilim va tajribalari kiradi.

✓ Idrokning o‘ziga xos juda muhim xususiyatlaridan yana biri kuzatuvchanlikdir. Umuman olganda idrok jarayonining hammasi kuzatish bilan har doim uzviy bog‘liq. Chunki odam idrok qilayotganida nimanidir kuzatadi. Lekin ixtiyorsiz idrok jarayonidagi kuzatiladigan narsa va hodisalar odamning esida saqlanib qola bermaydi.

✓ Kuzatishning muvaffaqiyati oldindan qo‘yiladigan tayyorgarlikka, kishining bilim va tajribalariga, diqqatining kuchiga va fikrlash faolligiga bog‘liq. Kishining rejali, tizimli va davomli ixtiyoriy idrok qilish qobiliyatini **kuzatuvchanlik** deyiladi. Kuzatuvchanlik shaxsning shunday xislatidirki, bunda u narsa va hodisalarning unga bilinmaydigan muhim xarakterli xususiyatlarini payqay oladi.

Akademik I.P.Pavlov kuzatuvchanlikning ilmiy bilimdagi ahamiyatiga yuksak baho bergan. U Sankt-Peterburg yaqinidagi Pavlova shahridagi fiziologiya institutining oldi tomoniga “Kuzatuvchanlik, kuzatuvchanlik va yana kuzatuvchanlik” deb yozdirib qo‘ygan.

Idrokda ob’ekt va fon. Odamga juda ko‘p narsa va hodisalar ta’sir qilib turadi. Bular shunday ko‘p xossalarga egaki, hatto odam bir vaqtning o‘zida ularga javob reaksiyasi qaytara olmaydi. Odam ko‘p sonli qo‘zg‘ovchilardan faqat ayrimlarini aniq holda ajratib oladi. Shu ajratib olingan narsa hodisalar esa fon sanaladi. Idrok qilinadigan narsani o‘rab turgan boshqa narsa, jism yoki hodisalarga nisbatan **ob’ekt** hisoblanib, ob’ektning atrofdagilari esa **fon** deyiladi. Masalan, o‘qituvchi bir darsda bir necha o‘quvchilardan so‘raydi. Har safar so‘rayotganlarni ko‘radi. Chaqirilgan o‘quvchi uning javobi xatti-harakati idrok ob’ekti hisoblanadi.

Idrokning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri idrok jarayoniga butun psixik hayot mazmunining (ya’ni butun ma’naviy boyligining) ta’sir etishidir. Yuqorida aytilganidek, idrok jarayoni odamning turmush tajribasi bilan bog‘liq ekan, binobarin, idrok jarayoniga bilim boyligi odamning ishonch, e’tiqodlari, dunyoqarashi, qiziqish va ehtiyojlari hamda kasbi ta’sir qiladi. Psixologiyada idrok jarayoniga odamning butun ma’naviy hayot boyligini ta’sir etishini appersepsiya deb yuritiladi.

Appersepsiya – idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivasiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman ruhiy hayotining barcha mazmuni bilan belgilanishidir. Appersepsiya xodisasi tufayli odamlar o‘zaro idrokining mazmuni bilan bir-birlaridan muayyan darajada tafovutlanadilar, ya’ni ular aynan bir xil narsani uzining bilimi, saviyasi, nuqtai nazari, dunyoqarashi va ijtimoiy kelib chiqishiga asoslangan holda turlicha idrok qiladilar hamda aks ettiradilar. Masalan, daladagi gullab turgan paxtani oddiy bir talaba bilan tajribali agronom idrok qiladigan bo‘lsa, albatta, ularning idroklari, ya’ni paxtani aks ettirishlari juda katta farq bo‘ladi. Talaba shunchaki, odatdagi

oddiy bir paxta sifatida aks ettirsa, agronom paxtaning qanday navi, taraqqiyotning qaysi bosqichda ekanligi, taxminan qancha hosil berishi va shu kabilar bilan birga chuqur hamda juda to‘la idrok etadi. Idrok xususiyatining yana bir o‘ziga xos xususiyati uning konstantligidir.

Idrokning **konstantligi** deganda biz idrok qilishdan ongimizda hosil bo‘lgan obrazning real voqelikdagi bizga ta’sir etib turgan narsaning tabiiy holatiga har jihatdan mos bo‘lishini tushunamiz. Ma’lumki, narsalarning hajmi (katta yoki kichikligi) shu narsalarni qanday masofadan (uzokdan yoki yaqindan) idrok qilayotganimizga qarab o‘zgarib turadi. Lekin shunday bo‘lsa ham idrok qilishdan hosil bo‘lgan narsalarning ongimizdagi obrazlari hamma vaqt shu narsaning tabiiy holatiga mos bo‘ladi, masalan, katta yo‘lda ketayotib, uzoqdan gugurt qutichasidek kichkina bo‘lib kelayotgan avtobusni ko‘rib, “kichkinagina avtobus” kelyapti demaymiz. Uzoqdagi avtobusni idrok qilishda ongimizda hosil bo‘lgan obraz avtobusning real hajmiga teng bo‘ladi. Idrok jarayonining navbatdagi yana bir o‘ziga xos xususiyati idrok qilishda ba’zan yuz beradigan illyuziya hodisasidir.

Illyuziya – bizga ta’sir qilayotgan narsalarni yanglish idrok qilish demakdir. Odatda ikki xil illyuziya farqlanadi:

a) ob’ektiv illyuziya;

b) sub’ektiv illyuziya.

Ob’ektiv illyuziya – hamma odamlar uchun umumiy xarakterga ega bo‘lib, uni geometrik illyuziya deb ham yuritiladi. Ob’ektiv illyuziya biz idrok qilayotgan narsalarning o‘zaro bir-biriga ta’siri tufayli yuz beradi. Illyuziyaning bu turi har xil geometrik shakllarni idrok qilishda juda yaqqol ko‘rinadi. Masalan, uzunligi baravar bo‘lgan ikkita gorizontal to‘g‘ri chiziq chizilsa, bu chiziqlarning uchlariga tashqariga qaratilgan va ichkariga qaratilgan chiziq kattaroq bo‘lib ko‘rinadi. Idrok jarayonida yuz beradigan illyuziyaning bu turiga juda ko‘plab misol keltirish mumkin. Masalan, baravar kattalikka ega bo‘lgan uchta ketma-ket turgan to‘g‘ri burchakli ustunchalarni chizib, ularning atrofiga uzoqlashtiruvchi chiziqlarni chizsak, bu uchta ketma-ket turgan ustunchalar har xil kattalikda bo‘lib ko‘rina boshlaydi. Bu erda uzoqlashtiruvchi chiziqlarning ta’sirida illyuziya hosil bo‘ladi.

Voqelikdagi narsa va hodisalarning tana a’zolarini qabul qilish analizatorlarga bevosita ta’sir etmasdan inson ongida turli obrazlarning (ovozlarning eshitilishi, sharpalarning sezilishi) xayolan, fikran paydo bo‘lishidan iborat idrokning psixopatalogik (ruhiy xastalik) hodisasiga **gallyusinatsiya** deyiladi. Gallyusinatsiya hodisasi muvaqqat ruhiy xastalikning alomati, ba’zan qo‘rqinch hissi mahsuli hisoblanib, bosh miya katta yarim sharlari qobig‘idagi qo‘zg‘alish jarayonlarining nuqsonli sust (patologik) harakati natijasida goho asab tizimining zaharlanishi, zaiflashuvi, haddan tashqari toliqishi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Gallyusinatsiya hodisasi bir necha xil ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin, ularning eng asosiylari quyidagilardan iboratdir: a) yo‘q narsalarning ko‘zga ko‘rinishi; b) u yoki bu ovozlar, tovushlar eshitilishi; v) yo‘q sharpalar, hidlar sezilishi kabilardir.

4-Reja. Diqqat haqida tushuncha.

Odamga har bir daqiqada atrof-muhitdan juda ko‘p narsa va hodisalar ta’sir etib turadi. Lekin odamga ta’sir etayotgan bu narsa va hodisalarning hammasi bir xil aniqlikda aks ettirilmaydi. Ulardan ayrimlari aniq yaqqol aks ettirilsa, boshqa birlari shunchaki juda xira aks ettiriladi, yoki umuman aks ettirilmaydi. Bu esa ana shu odamga ta’sir etayotgan narsalarga diqqatning qay darajada qaratilishiga bog‘liqdir. Demak, diqqatimiz qaratilgan narsa va hodisalar aniq va to‘la aks ettiriladi.

Diqqat tushunchasiga olimlar tomonidan bir qator ta’riflar keltirilganligini ta’idlash mumkin.

P.I.Ivanov tomonidan diqqat deb- ongni bir nuqtaga to‘plab muayyan bir ob’ektga aktiv qaratilishga aytiladi.

Odamga har bir daqiqada ta’sir qilib turadigan qo‘zg‘atuvchilar turlicha reflekslarga sabab bo‘ladi. Chunki har qanday refleks organizmning tashqi ta’sirotga beradigan qonuniy javob reaksiyasidir.

Diqqatning nerv-fiziologik asosida orientirovka yoki tekshirish deb ataladigan maxsus refleks yotadi. Bunday refleksni akademik I.P.Pavlov maxsus ibora bilan «bu nima gap refleksi» deb ham ataydi. Ana shu refleks odatda organizmga to‘satdan birorta yangi narsaning ta’siri yoki haddan tashqari kuchli ta’sirot orqali hosil bo‘ladi. Orientirovka yoki tekshirish refleksi diqqatning fiziologik asosi hisoblanadi, chunki bu refleks bosh miya yarim sharlarining po‘stida kuchli qo‘zg‘alish jarayonidan iborat bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda har bir daqiqada organizmga turli narsalarning ta’siridan hosil bo‘lgan qo‘zg‘alishlarga nisbatan orientirovka yoki tekshirish refleksi ayni chog‘da nisbatan kuchli (ya’ni optimal) qo‘zg‘alish manbaini yuzaga keltiradi.

Diqqat turlari. Odam ayrim narsalarga o‘z diqqatini ongli ravishda o‘zi hohlab qaratsa, boshqa bir narsalar diqqatni beixtiyor ya’ni bizning hohishimizdan tashqari jalb qiladi.

Ixtiyorsiz diqqat deb to‘satdan ta’sir qilgan biror sabab tufayli bizning hohishimizdan tashqari hosil bo‘ladigan diqqatga aytiladi.

Odamning ko‘z o‘ngida paydo bo‘ladigan juda yorqin rangli narsalar, o‘zining tashqi ko‘rinishi jihatidan odatdagi narsalardan keskin farq qiluvchi predmetlar, to‘satdan paydo bo‘lgan qattiq tovush, biror narsaning keskin harakati va shu kabilar ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiruvchi sabablar bo‘lishi mumkin. Masalan, hikoya o‘qish mashg‘uloti paytida to‘satdan uchib o‘tgan reaktiv samolyotning qattiq va bahaybat tovushi hammaning diqqatini beixtiyor o‘ziga jalb qiladi.

Ixtiyorsiz diqqat odamning har turli ehtiyojlari va qiziqishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan diqqatdir. Shuning uchun ham ayni chog‘dagi ehtiyojlarimiz, qiziqishlarimiz bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarning ta’siri ixtiyorsiz diqqatga sabab bo‘ladi. Masalan, erkin o‘yin paytida zaldan eshitib qolgan bolani qiziqtirgan musiqa ovozi uning diqqatini o‘yindan darhol o‘ziga jalb qilib oladi.

Ixtiyorsiz diqqatning nerv-fiziologik asosini orientirovka yoki bu nima? refleksi tashkil qiladi. Chunki tevarak-atrofimizdagi narsalarning salgina o‘zgarishi bizda darhol orientirovka refleksini yuzaga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda, «nima gap» degan ma’noda atrofimizga razm sola boshlaymiz.

Ixtiyoriy diqqat deb, oldindan belgilangan qat’iy bir maqsad asosida va ongli ravishda diqqatimizni ma’lum bir narsa va hodisalarga qaratishimizga aytiladi.

Odamning ko‘pchilik faoliyatlari asosan ixtiyoriy diqqatning ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun barcha faoliyat turlarida, ya’ni o‘qish, o‘yin va mehnat faoliyatlarida ixtiyoriy diqqatning roli juda kattadir. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatga nisbatan uzoq vaqt mobaynida davom etadigan diqqat turi bo‘lib, u zo‘r berishlikni, ya’ni irodaviy kuch sarf qilishlikni talab etadi.

Ixtiyoriy diqqatning nerv fiziologik asosida miya yarim sharlarining po‘stida vujudga keladigan optimal qo‘zg‘alish manbai bilan ikkinchi signallar sistemasining faoliyati yotadi. Ixtiyoriy diqqatning yuzaga kelishida nutqning roli g‘oyat kattadir. Chunki ko‘pchilik hollarda hoh ta’lim jarayonida bo‘lsin, hoh mehnat jarayonida bo‘lsin nutq orqali turli vazifalar qo‘yish bilan ixtiyoriy diqqat ishga solinadi.

Shuni aytish lozimki, ixtiyoriy diqqat har doim ixtiyorsiz diqqat bilan almashinib turadi. Ixtiyoriy diqqat vaqtida odam tez charchaydi, chunki ixtiyoriy diqqat odamdan hamma vaqt iroda kuchini sarflashni talab etadi. Iroda kuchini sarflash orqali, ya’ni odam o‘zini majbur qilish orqali diqqatni safarbar qilishi odamni charchatadi. Ixtiyorsiz diqqatda esa hech qanday iroda kuchini ishga solish talab etilmaydi. Shuning uchun ixtiyorsiz diqqatda odam charchamaydi. Ana shu jihatdan olganda ta’lim va mehnat jarayonida ixtiyoriy diqqatning vaqti-vaqti bilan ixtiyorsiz diqqatga o‘tib turishi yaxshi bo‘ladi.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatdan tashqari uning yana bir alohida turini ixtiyoriydan so‘nggi diqqatni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bu tushuncha psixologiyaga N.F.Dobrinin tomonidan kiritilgan.

Diqqat xususiyatlari. Odamning diqqati bir qancha xususiyatlarga ega bo‘lib, ulardan asosiylari – diqqatning kuchi va barqarorligi, diqqatning ko‘lami, diqqatning bo‘linuvchanligi va diqqatning ko‘chuvchanligidan iboratdir.

Diqqatning kuchi va barqarorligiga ko‘ra odamlarning diqqatlari o‘zining kuchi va barqarorligi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ayrim odamlarning diqqati kuchli va barqaror bo‘lsa, boshqa bir odamlarning diqqati kuchsiz va beqaror bo‘ladi.

Diqqatning kuchi va barqarorligi deb, odam o‘z diqqatini biror narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida muttasil qaratib tura olishiga aytiladi. Diqqatning kuchi va barqarorligi inson hayotida juda katta ahamiyatga ega. Chunki diqqatni ma’lum muddat biror narsaga muttasil, ya’ni uzluksiz tarzda qaratib odam ishlay ham olmaydi, o‘qiy ham olmaydi va hatto o‘ynay ham olmaydi. Diqqatning kuchli va barqaror bo‘lishi bir qancha sabablarga bog‘liqdir. Birinchidan, diqqatimiz qaratilgan narsaning xususiyatlari, biz uchun bo‘lgan ahamiyatiga, ikkinchidan diqqatimiz qaratilgan narsa bilan amalga oshiriladigan faoliyatlarimizga,

uchinchidan nerv sistemasining ayrim xususiyatlariga bog‘liqdir. Bularning hammasi ob’ektiv, ya’ni bizning irodamiz bilan bog‘liq bo‘lmagan sabablardir. Diqqatning kuchi va barqarorligi albatta sub’ektiv, ya’ni odamning ayni chog‘dagi holati bilan ham bog‘liq. Masalan, ayni chog‘da betobroq bo‘lib turgan odamning yoki boshiga bir og‘ir tashvish tushgan odamning diqqati kuchli va barqaror bo‘la olmaydi.

Odamlar o‘z diqqatlarining ko‘lami jihatidan ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ayrim odamlar diqqatining ko‘lami keng bo‘lsa, boshqa bir odamlar diqqatining ko‘lami torroq bo‘ladi. Diqqatning ko‘lami ayni bir vaqtda odamning idrokiga sig‘ishi mumkin bo‘lgan narsalar miqdori bilan belgilanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, idrok qilish jarayonida diqqatimiz qaratilgan narsalardan qanchasini ongimizga sig‘dira olishimiz diqqatning ko‘lamini tashkil etadi.

Odamning diqqati bir vaqtda faqat bitta narsagagina emas, balki ikkita yoki uchta narsaga ham birdaniga qaratilishi mumkin. Ana shunday paytlarda diqqatning bo‘linishi talab qilinadi. Demak, **diqqatning bo‘linishi** deganda biz ayni bir vaqtda diqqatimizni ikki yoki uch narsaga qaratishimizga aytamiz.

Diqqatning ko‘chuvchanligi odamning diqqati har doim bir narsadan ikkinchi bir narsaga, bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga ko‘chib turadi. Diqqatning ana shunday xususiyatini diqqatning ko‘chuvchanligi deb yuritiladi. Diqqatning ko‘chuvchanligi diqqatning bo‘lunuvchanligi bilan bog‘liq xususiyatdir. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, diqqatning ayni bir vaqtda birdaniga bir necha narsaga qaratilishi, ya’ni diqqatning bo‘linishi o‘z mohiyati jihatidan diqqatning bir narsadan ikkinchi narsaga juda tez ko‘chishidan iboratdir. Ana shu jihatdan olganda diqqatning ko‘chuvchanlik xususiyati juda ko‘p faoliyat va uning turlari uchun zarur bo‘lgan xususiyatdir. Masalan, hikoya o‘qib berish mashg‘ulotida bolalar o‘z diqqatlarini hikoya eshitishdan surat ko‘rishga, undan so‘ng yana eshitishga bemalol ko‘chira olishlari kerak. Agar maktab o‘quvchilariga nisbatan oladigan bo‘lsak, o‘quvchilar o‘z diqqatlarini bir dars predmetidan boshqa bir dars predmetiga bemalol ko‘chira olishlari kerak. Aks holda o‘quvchilar o‘tgan dars ta’sirida o‘tirib, yangi darsning mazmunini sifatli o‘zlashtira olmaydilar.

5-Reja. Xotira haqida tushuncha.

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g‘oyaviy yo‘nalishi katta o‘rin egallaydi. Bu yo‘nalish uning faoliyatini hayot sharoiti ta’sirida shakllantiradi. Kishi o‘zining shu faoliyati uchun muhim bo‘lgan voqea, hodisalarni yaxshi eslab qoladi. Aksincha, kishi uchun kam ahamiyatga ega bo‘lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutib yuboriladi. Shu o‘rinda xotira borasidagi ta’riflarga qaytsak, ko‘pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi. «Indvidning o‘z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi *xotira* deb ataladi». Shuni ta’kidlash joizki, keltirilgan mazkur ta’rif xotiraning murakkab, keng qamrovli jihatlarini to‘la ta’kidlash imkoniyatiga ega.

Shaxsning yo‘nalishi uning qiziqishida ifodalanadi. Kishining qiziqishi xotiraga aniq va kuchli ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni yaxshi esda olib qolishni ta’minlaydi. Biz ko‘pincha u yoki bu narsa va hodisalarni yomon esda qoldiramiz. Bu xotirani yomonligini emas, balki ularga qiziqish yo‘qligini ko‘rsatadi. Masalan, o‘quvchilar hamma fanlarni bir xil o‘zlashtira olmaydilar. Bu ularning har xil xotiraga ega ekanliklar bilan emas, balki o‘qitilayotgan fanga qiziqishning har xilligi bilan tushuntiriladi. Esda olib qolishga kishining emotsional munosabati ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Kishi uchun yaqqol hayajonli reaksiya vujudga keltiruvchi narsalar ongda chuqur iz qoldirib, puxta va uzoq yodda saqlanadi. Biz bir narsadan ta’sirlansak, o‘sha uzoq vaqt esda saqlanadi. Samarali xotira kishining iroda sifatlariga ham bog‘liqdir. Kuchsiz, irodasiz, ishyoqmas kishilar har doim yuzaki, yomon xotirlaydilar. Aksincha, irodali, materialni o‘zlashtirishga astoydil kirishadigan kishilar puxta va chuqur eslab qoladilar. Samarali xotira kishining umumiy madaniyatiga, uning aqliy saviyasiga, bilimiga, uquviga fikrlash qobiliyatiga, ko‘nikmaa va odatlariga ham bog‘liqdir. Shunday qilib, xotiraning tabiati va uning samaraliligi shaxsning xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Shaxs o‘z oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalari asosida o‘zining xotirlash jarayonini ongli ravishda tartibga soladi va boshqaradi.

Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bir-biridan farq qilinadi. Bu jarayonlar faoliyatda tarkib topadi va belgilanadi. Ma’lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya’ni shaxsiy tajribani to‘plash bilan bog‘liqdir. To‘plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma’lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoddan chiqarishga olib keladi.

Xotira, ya’ni esda olib qolish, idrok qilinayotgan narsalardan hosil bo‘lgan obrazlar o‘rtasida assotsiatsiyalarning yuzaga kelishidan iboratdir. Shu bois inson xotirasidagi assotsiatsiyalar 3 turga ajratiladi. Bular yondoshlik assotsiatsiyasi, o‘xshashlik assotsiatsiyasi va qarama-qarshilik assotsiatsiyalaridan iboratdir. Yondoshlik assotsiatsiyasining asosida vaqt va fazoviy munosabatlar yotadi.

Boshqacha qilib aytganda, yondoshlik assotsiatsiyasi bir necha narsa yoki hodisalarni ayni bir vaqtda yoki ketma-ket idrok qilishdan hosil bo‘ladi.

Masalan, bog‘chada bolasi har kuni o‘zining tarbiyachi opasi va tarbiyalanayotgan guruhini idrok qiladi. Keyinchalik, ya’ni katta bo‘lgandan so‘ng bog‘chasini eslasa tarbiyachi opasi va aksincha, tarbiyachi opasini eslasa, bog‘cha guruhi ko‘z o‘ngida gavdalanadi.

Hozirgi paytda idrok qilinayotgan narsa bilan ilgari idrok qilingan narsa o‘rtasida ma’lum o‘xshashlik bo‘lsa, bu narsalar o‘rtasida o‘xshashlik assotsiatsiyasi hosil bo‘ladi. *Masalan*, bola dastavval bog‘chaga kelgan paytida bog‘cha mudirasining tashqi ko‘rinishi, ovozi va munosabatlarini o‘z onasiga o‘xshatishi mumkin. Keyinchalik bola onasini ko‘rganda, mudira opasini va aksincha mudira opasini ko‘rganda onasini eslaydigan bo‘lib qoladi. Bu ikkala odamning bola tasavvuridagi obrazlari o‘rtasida assotsiatsiya hosil bo‘ladi.

Hozirgi idrok qilinayotgan narsalar bilan ilgari idrok qilinayotgan narsalar o‘rtasida qarama-qarshi belgilar va xususiyatlar bo‘lsa, bunday narsalar o‘rtasida qarama-qarshilik assotsiatsiyasi yuz beradi. *Masalan* yoz-qish, issiq-sovuq kabi narsalar o‘rtasida qarama-qarshilik assotsiatsiyalari hosil bo‘ladi.

Shunday qilib, xotiraning nerv-fiziologik asosida bosh miya po‘stida hosil bo‘ladigan shartli reflekslar, turli assotsiativ bog‘lanishlar yotadi. Lekin, odam esda olib qolish paytida assotsiatsiyalar hosil bo‘lganligini mutlaqo sezmaydi. Har xil assotsiatsiyalarning hosil bo‘lganini odam keyinchalik biror narsani esga tushirish paytida bo‘ladi.

Xotira turlari. Xotira insonning holati va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufayli uning namoyon bo‘lish shakllari, holatlari, shart-sharoitlari, omillari ham xilma-xil ko‘rinishga egadirlar. Odatda xotirani muayyan turlarga ajratishda eng muhim asos qilib uning tavsifnomasi sifatida esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish, unutish singari jarayonlarni amalga oshiruvchi faoliyatining xususiyatlariga bog‘liqligi olinadi.

Harakat xotirasi – inson faoliyatining har bir turida ruhiy faollikning u yoki bu ko‘rinishlarini ustunlik qilishida kuzatiladi. Masalan, harakat, hissiyot, idrok, aql-zakovat kabi ruhiy faoliyatning ko‘rinishlari mavjuddir. Ana shu ruhiy faollik turlarining har biri tegishli harakatlarda va ularning mahsulotlarida o‘z ifodasini topib harakatlarda, hissiy kechinmalarda, tuyg‘ularda, obrazlarda, timsollarda, fikr va mulohazalarda aks etadi. Turli harakatlar va ularning bajarilishi tartibi, tezligi, sur’ati, izchilligi va boshqalarni esda qoldirish, mustahkamlash, esga tushirishdan iborat xotira turi harakat xotirasi deb ataladi.

His-tuyg‘u yoki hissiyot xotirasi. Bu xotira his-tuyg‘ular, ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotganligidan, atrofimizdagi narsa va hodisalarning xususiyatiga nisbatan munosabatimiz qay tarzda amalga oshirilayotganligidan doimo xabar berib turish imkoniyatiga ega. Shuning uchun har bir kishining hayoti va faoliyatida hissiy xotira turi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Voqelikdagi narsa va hodisalardan, o‘z-o‘zimizga bo‘lgan munosabatlarimizdan kelib chiqadigan yoqimli hamda yoqimsiz kechinmalarni

esda qoldirish, esda saqlash, esga tushirishdan iborat xotira turi hissiy xotira turi deb ataladi. Boshimizdan kechirgan va xotiramizda saqlanib qolgan hissiyotlar harakatga undovchi va o‘tmishda salbiy kechinmalarga ega bo‘lgan harakatlardan saqlanib qoluvchi signal tarzida namoyon bo‘ladi.

Obrazli xotira – tasavvurlar va turmush manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, ta’mlar, ranglar shakllar, bilan bog‘liq bo‘lgan xotira turidir. Obraz xotirasi deb yaqqol mazmunni, binobarin, narsa, hodisa-larning aniq obrazlarini, ularning xususiyatlari va bog‘lanishlarini esda qoldirish, ongda mustahkamlash hamda zaruriyat tug‘ilganida esga tushirishdan iborat xotira turiga aytiladi.

So‘z-mantiq xotirasi mazmunini fikr va mulohazalar, aniq hukm hamda xulosa chiqarishlar tashkil etadi. Insonda fikr va mulohaza turli xil shakllar yordamida ifodalanganligi tufayli ularni ifodalash faqat o‘zlashtirilayotgan materiallarning asosiy ma’nosini izohlash, talqin qilib berish yoki ularni so‘zma-so‘z ifodalanishini aynan aytib berishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Agar ma’lumot, axborot, xabar, material ma’no jihatidan qayta ishlanmasa, u holda materialni so‘zma-so‘z o‘zlashtirish, mantiqiy o‘rganish bo‘lmasdan, balki aksincha mexanik esda olib qolishga aylanib qoladi.

So‘z-mantiq xotirasining vujudga kelishida birinchi signal bilan bir qatorda ikkinchi signallar tizimi asosiy hisoblanadi. Chunki so‘z mantiq xotirasi faqat insongagina xos bo‘lgan xotiraning maxsus turi hisoblanib, bu xotira turi o‘zining sodda shakllari bilan hayvonlarga ham taalluqli bo‘lgan harakat, his-tuyg‘u va obrazli xotiralardan sifat, ham miqdor jihatdan keskin farq qiladi. Ana shu boisdan so‘z-mantiq xotirasi bir tomondan xotiraning boshqa turlari taraqqiyotiga asoslanadi, ikkinchidan ularga nisbatan yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, boshqa turlarning rivojlanishi so‘z mantiq xotirasining takomillashuviga uzviy bog‘liqdir. So‘z-mantiq xotirasining o‘sishi qolgan xotira turlarining barqarorlashuvini belgilaydi.

Xotira turlariga nisbatan boshqacha tarzda yondashish hollari ham uchraydi. Shu bois xotira faoliyatini amalga oshirayotgan faollik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq ravishda turlarga ajratiladi. Masalan, faoliyat maqsadiga ko‘ra xotira ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlarga bo‘linadi.

Ixtiyoriy xotira deganda ma’lum maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun muayyan davrlarda aqliy harakatlarga suyangan holda amalga oshirilishidan iborat xotira jarayoni tushuniladi. Bu faoliyatni odam ongi bevosita boshqaradi. Ko‘pincha psixologiya fanida ixtiyoriy xotiraga ixtiyorsiz esda olib qolish qarshi qo‘yiladi. Bu jarayon ma’lum kerakli topshiriq yoki vazifa qo‘yilsa, esda olib qolishga yetaklovchi faoliyat biron-bir maqsadni ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan taqdirda yuzaga keladi. Biz matematik topshiriqlarini yechayotganimizda masaladagi sonlarni esda olib qolishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ymaymiz. Mazkur so‘z mantiq xotirada asosiy maqsad faqat masala yechishga qaratiladi. Buning natijasida sonlarni esda saqlashga, hech qanday o‘rin

ham qolmaydi. Shunga qaramay, biz ularni qisqa muddat bo‘lsa-da, esda saqlashga intilamiz. Bu holat faoliyat yakunlangunga qadar davom etadi.

Xotiraning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari xotira taraqqiyotining ikkita ketma-ket bosqichlarini tashkil etadi. **Ixtiyorsiz xotiraning** turmushda va faoliyatda katta o‘rin egallashini har kim o‘z shaxsiy tajribasidan biladi. Ixtiyorsiz xotiraning muhim xususiyatlaridan biri ma’lum maqsadsiz aqliy, asabiy, irodaviy zo‘r berishsiz hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan keng ko‘lamdagi ma’lumot, xabar, axborot, ta’surotlarning ko‘pchilik qismini aks ettirishdir. Shunga qaramasdan inson faoliyatining turli jabhalarida o‘z xotirasini boshqarish zarurati tug‘ilib qolishi mumkin. Xuddi mana shunday sharoitlar, holatlar, vaziyatlarda esda saqlash, esga tushirish yoki eslash imkoniyatini yaratadigan xotiraning mazkur turi katta ahamiyatga egaligi shubhasiz.

So‘nggi paytlarda rus va xorij psixologiyasida xotira borasidagi tadqiqotchilarning e’tiborini esda olib qolishning dastlabki, boshlang‘ich daqiqalarida vujudga keladigan holatlar, jumladan tashqi taassurot izlarining mustahkamlanishigacha bo‘lgan jarayonlar, holatlar, mexanizmlar, shuningdek, ularning mustahkamlanish muddatlarini ham o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

Masalan, biror material xotirada mustahkam joy olish uchun uni sub’ekt tomonidan tegishli ravishda qayta ishlab chiqish zarur va materialni bunday ishlab chiqish uchun ma’lum darajada muddat talab etish tabiiydir. Ana shu muddat xotirada qayta tiklanilayotgan izlarni mustahkamlash deb qabul qilingan. Mazkur jarayon inson tomonidan yaqindagina bo‘lib o‘tgan hodisalarning aks sadosi sifatida kechiriladi va takomillashadi. Inson muayyan daqiqalarda, lahzalarda, ayni paytda bevosita idrok qilinayotgan narsalarni go‘yo ko‘rishda, eshitishda davom etayotgandek tuyuladi. Ushbu jarayon kelib chiqishi jihatidan beqaror, hatto o‘zgaruvchan, lekin ular shu qadar maxsus tajriba orttirish mexanizmlarining faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ularning roli shu qadar ahamiyatli-ki, bu jarayonlarda esda olib qolish, esda saqlash, axborotlar, malumotlar, xabarlarni qayta esga tushirishning alohida turi sifatida qaraladi. Ushbu jarayon odatda psixologiya fanida **qisqa muddatli xotira** deb ataladi.

Operativ xotira inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan faol tezkor harakatlar, usullar uchun xizmat qiluvchi jarayonni anglatuvchi mnemik holat **operativ xotira** deb ataladi. Hozirgi zamon psixologiyasida ushbu holatni namoyon qilish uchun quyidagi misol keltiriladi. Matematik amalni bajarishga kirishar ekanmiz, biz uni muayyan bo‘laklarga ajratib hal qilishni maqsad qilib qo‘yamiz. Shu boisdan oraliq natijalarni yodda saqlashga intilamiz, nihoyasiga yaqinlashgan sari ayrim materiallar esdan chiqa boshlaydi. Mazkur holat matnni talaba yoki o‘quvchi tomonidan o‘qishda, uni ko‘chirib yozishda, ijodiy fikr yuritishda, aqliy faoliyatni amalga oshirishda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xotira jarayonlari. Xotira faoliyati esda qoldirishdan boshlanadi. Esda qoldirish idrok qilingan narsa va hodisalarni miya po‘stida iz hosil qilishdir. Uning fiziologik asosi miya po‘stida muvaqqat nerv bog‘lanishining vujudga kelishidir. Esda qoldirish o‘zining faolligi jihatidan ikkiga bo‘linadi:

a) ixtiyoriy esda qoldirish;

b) ixtiyorsiz esda qoldirish.

Ixtiyorsiz esda qoldirishda oldindan maqsad quyilmaydi, mavzu tanlanmaydi va iroda kuchi sarflanmaydi. O‘zining go‘zalligi, hissiy ta’sirchanligi, hajmi, harakatchanligi, tezligi, shakli va boshqa xossalari bilan farq qiladigan narsa va hodisalar ixtiyorsiz esda qoladi. *Masalan*, tasodifiy hodisalar, karnay-surnay ovozi ixtiyorsiz esda qoladi.

Ixtiyoriy esda qoldirishda esa oldindan maqsad qo‘yib mavzu belgilanadi. Masalan, dars materiallarini esda olib qolish, imtihonga tayyorlanish va boshqalar. Ixtiyoriy esda qoldirishda quyidagi turli usullardan foydalaniladi:

1. maqsad qo‘yish, masalan, institutga kirish oldidagi maqsad;
2. o‘quv materiallarini tushunib esda qoldirish;
3. esda qoldirishning rasional usullaridan foydalanish, masalan, esga tushirish yo‘li bilan esda qoldirish.

Beixtiyor esda qoldirishda qiziqish katta rol o‘ynaydi. Bizning oldingi tajribamiz bilan bog‘liq narsa va hodisalar beixtiyor oson esda qoladi. Biz ba’zi bir faktlarni bilsak, ular haqida tushunchaga ega bo‘lsa, shu faktlarga tegishli bo‘lgan hamma narsalar oson esda qoladi

Mavzuni amaliy o‘rganish maqsadida kuyidagi amaliy tavsiyalari dars davomida qullashimiz mumkin.

“SOYa” trening mashg‘uloti.

Mashg‘ulot tavsiya etiladigan holatlar: guruhiy psixokorreksion faoliyatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib shaxslararo munosabatlarni, oilaviy munosabatlar va farzand hamda ota-ona munosabatlarida yuzaga kelgan buzilishlarni korreksiya qilish, nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda. Maqsad e’tiborlilik, xotirani rivojlantirish, ichki erkinlik va hotirjamlikni oshirish, ijtimoiy idrok va boshqalarga moslashish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Fonda mayin musiqani past ovozda qo‘yib qo‘yish kerak. Hamma ishtirokchilar o‘z jufti bilan turib olishadi. Bir kishi “boshlovchi” ikkinchi odam uning “soyasi” vazifasini bajarishi lozim. Boshlovchi yurishi, har hil harakatlar qilishi kerak, soya esa uning ortidan 2- metr uzoqlikda yurib uni harakatlarini o‘xshatib aniq qaytarishi lozim. 5-10 daqiqa yoki bitta musiqa tugagach rollar almashinishi lozim.

Bunda boshlovchiga turli harakatlar qilishga stimul berish lozim. Ishtirokchilarga ko‘proq harakat qilish uchun bu mashg‘ulot kattaroq trening auditoriyasida yoki ochiq maydonda o‘tkazilishi ham mumkin. Boshlovchi, tasavvuriy harakatlar qilishi, yurishi, yugurishi, gul uzishi, o‘tirib olishi, bir oyoqda sakrashi, ortiga qarashi…mumkin. Soya esa uni harakatini qaytarishi lozim.

Eslatma: agar ona va farzandlar juftligida o‘tkazilganda mashg‘ulotni kattalar boshlovchi sifatida boshlashlari kerak. Keyin rol almashiladi.

Mashg‘ulot tugagach, maqsaddan kelib chiqib psixolog muhokama olib borishi kerak. Bunda bir biriga moslashish jarayonida ular nimani his qilganini,

qanday noqulaylik va qiyinchiliklar bo‘lganini, bu mashg‘ulotda nimalarni anglaganliklari yohud nimalarni bu mashg‘ulot anglatish mumkinligini so‘rash mumkin. Muhokamalardan so‘ng mashg‘ulotni yakunlash uchun psixokorreksion xususiyatga ega bo‘lgan biror voqea aytib berilishi yoki tavsiyalar berilishi ham mumkin.

P. Ya. Galperin diqqati sust bo‘lgan bolalar ustidan «aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi» ga asoslanib, bir necha seriyadan iborat tajriba ishlarini olib borgan. «Aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish» tajribasi 5 seriyadan iborat bo‘lib, uning birichi qismida 23 ta sinaluvchi (3-sinf o‘quvchilari) qatnashgan. Ularga 14ta xatosi bor tekst (matn) berilib, ularni tuzatish vazifasi qo‘yiladi. P. Ya. Galperin nazariyasiga binoan, bu asosda bolalarga orientirlash shakllantirish kerak. Shuning uchun 1-seriya «Orientirlash asosi» deb nomlanadi.

Tajribaning 2-seriyasi esa, «Moddiylashtirish» deb atalib, 9ta sinaluvchidan 20-25 minut davomida o‘tkaziladi. Bu tajriba individual tarzda olib boriladi. O‘quvchilar tekstdagi xatolarni topib, ularni kartochkalardan tekshirishlari (taqqoslashlari) kerak. Tajribada 5ta o‘quvchi ko‘proq qiyinchiliklarga duch kelishadi, ovoz chiqarmasdan o‘qib, tezgina xatolarni tuzatishadi.

3-seriya ob’ektni ovoz chiqarib muhokama qilish deyiladi.

Berilgan topshiriqni bajarish jarayoni birmuncha qiyin ko‘chadi. Chunki, hali bu yoshda bolalarda o‘z-o‘zini nazorat qilish shakllanmagan bo‘ladi. Shuning uchun tajribada uy topshiriqlarini o‘quvchilar mustaqil tarzda yechadimi yoki yo‘qmi nazorat qilish ota-onalardan iltimos qilinadi.

Va nihoyat, shunga erishildiki, «diqqatsizlik» yo‘qolib, o‘qishga munosabat o‘zgaradi. Ularda intiluvchanlik va qunt shakllanib, o‘z-o‘ziga ishonish, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish paydo bo‘ladi.

4-seriya shivirlab o‘zi uchun mulohaza yuritishdan iboratdir. Bu seriyada «diqqatsizlik» tufayli qilinayotgan xatolar barham topadi. Bolalar ushbu bosqichda 0, 2 xatoga yo‘l qo‘yadilar, xolos.

5-seriya-«Dilga jo qilish» («v ume») dir. Bu seriyada eksperimentatorlar o‘z oldilariga nazorat qilish xatti-harakatlarini umumlashtirish vazifasini qo‘yadilar.

1. «Shaxmat doskasiga figura holati to‘g‘riligini tekshir»
2. «Shular orasidagi o‘xshashini top»
3. «Namunaviy kartochkadagi raqam bilan bunisidagi (kartochkadagi) raqam bir xilmi, tekshir»
4. «Betartib joylashgan raqamlar ichidan mana bunaqasini top» va boshqalar.

Umuman olganda, 3-seriyaning natijalaridanoq ko‘rinadiki, topshiriqlar ko‘lamini (hajmini) kengaytirib nazorat qilish xatti-harakatlarini shakllantirishga asos bo‘ladi.

“OYIMLARNING QO‘LLARI” trening mashg‘uloti.

Mashg‘ulot tavsiya etiladigan holatlar: guruhiy psixokorreksion faoliyatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib farzand hamda ota-ona

Maqsad: ota yoki ona va farzand o‘rtasidagi aloqani tana darajasida yuzaga keltirish orqali mustahkamlash, yaqinlashtirish va ijobiylashtirish. Bir birini sezib idrok etishni rivojlantirish orqali munosabatlarni munosabatlarida yuzaga kelgan buzilishlarni korreksiya qilish. konstruktivlashtirish.

Ona va farzand juft bo‘lib qarama-qarshi bir-birlariga qarab o‘tirib olishadi. Ular psixolog tomonidan beriladigan quyidagi ko‘rsatmalarni ketma-ketlikda amalga oshirib borishadi:

1). bir-biringiz bilan ko‘rsatkich barmoqlaringiz yordamida qo‘l ushlashib salomlashing;

2). jimjiloq barmog‘ingiz bilan sherikingiz jimjilog‘ini silang(navbatma-navbat);

3). barmoqlaringiz orqali kuch sinashib ko‘ring;

4). barmoqlaringiz bilan ushlashib bir-biringizni bosh barmog‘ingizni ushlab olishga harakat qiling;

5). nomsiz barmoq yordamida qo‘l ushlashib xayrlashing.

Eslatma: har bir ko‘rsatma oralig‘i 15-20 sekundni tashkil qilishi, mashg‘ulot chap qo‘lda bajarilishi lozim. Uyga vazifa sifatida o‘ng qo‘lda shu mashg‘ulotni bajarish so‘raladi. Mashg‘ulotdan so‘ng psixolog albatta mashg‘ulot jarayonida nimalarni his qilganini ishtirokchilardan so‘rashi kerak.

Soyabon va tayoqcha

Maqsad: diqqat va eshitib reaksiyaga kirishish jarayonini rivojlantirish, ijobiy kayfiyatni shakllantirish.

Jarayon: ishtirokchilardan aylana shaklini hosil qilib turib olish so‘raladi. Hamma yonma-yon turib aylana shaklini hosil qilgach, ulardan o‘ng qo‘lining ko‘rsatgich barmog‘ini qo‘shni ishtirokchini kafti ostiga tegizib turishi kerak va bir vaqtning o‘zida barcha chap qo‘lining kaftini keng ochib (yerga qarata) o‘zining chap tomonidagi sherikiga uzatishi kerak. Shunda ishtirokchilarning chap qo‘li soyabon o‘ng qo‘li esa soyabonning ostidagi tayoqcha ko‘rinishini hosil qiladi. Bundan so‘ng ishtirokchilarga shart tushuntiriladi. Trener yoki moderator 1-2-3 deb sanaydi va ishtirokchilar 3 sonini eshitishi bilanoq chap qo‘llari ostidagi qo‘shnisining barmog‘ini ushlab olishi va bir vaqtning o‘zida o‘ng qo‘lining bosh barmog‘ini qo‘shni ishtirokchi ushlab olishiga bermay tezlikda olib qochishi zarur.

O‘yin 3 martaga yaqin o‘ynalgach o‘ng va chap qo‘llarining vazifalari almashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Olma-olcha

Maqsad: diqqat va eshitib reaksiyaga kirishish jarayonini rivojlantirish, ijobiy kayfiyatni shakllantirish.

Jarayon: birinchi navbatda ishtirokchilardan ikki kishilik kichik guruhlar (juftliklar) hosil qilinadi. Ular bir biriga yuzma-yuz turib olishlari va qo‘llarini xuddi salomlashishda qo‘l siqishgandagiday, lekin 5-10 sm masofa saqlab qo‘llarini tekkazmayin turishlari kerak. Shundan so‘ng shart tushuntiriladi, bunda trenerdan o‘ng tarafda turgan ishtirokchilar olma deb ataladilar va trenerdan chap tomonda turganlar olcha deb ataladilar. Agar trener olma so‘zini aytsa, “olma”lar (ya’ni olma deb atalgan ishtirokchilar) “olcha”larning (olcha deb atalgan

ishtirokchilarning) qo‘lini ushlab olishlari kerak, bunda “olchalar” qo‘llarini olib qochishlari lozim. Agar trener aksincha olcha so‘zini aytsa “olchalar” “olmalarning” qo‘llarini ushlab olishlari kerak, bunda “olmalar” qo‘llarini tezda olib qochish uchun ulgurishga harakat qilishi joiz. Trener uchun shart shuki, u olma va olcha so‘zlarini shunchaki emas, ishtirokchilarni avval ol ol ol ol ol ol deb chalg‘itib turib, keyin olma yoki olcha so‘zini aytishi muhim. Olma yoki olcha so‘zlarini trener ixtiyoriy tarzda qaysidir birini aytadi.

O‘yin ikki-uch marotaba o‘ynalgach, olma va olcha nomlarini ishtirokchilar o‘zaro almashishlari maqsadga muvofiqdir.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Xotira va uning jarayonlari haqida umumiy tushuncha.
2. Xotira turlari.
3. Xotiraning ta’lim jarayonidagi ahamiyati.
4. Xotiraning ta’lim jarayonida rivojlanishi va uni rivojlantarish *yo ‘*llari
5. Sezgilar to‘g‘risida umumiy tushuncha.
6. Sezgi nazariyalari haqida mulohazalar.
7. Sezgi nazariyalari.
8. Sezgining neyrofiziologik asoslari.
9. Sezgi qonuniyatlari bo‘yicha mushohadalar.
10. Sezgi turlarining psixologik tavsifi.
11. Sezgilarning rivojlanishi.
12. Idrok to‘g‘risida umumiy tushuncha.
13. Idrok bosqichlari va bilish.
14. Idrok xususiyatlari va sifatlari haqida mulohazalar.
15. Idrokning fenomenal holatlari talqini.
16. Diqqat to‘g‘risida umumiy tushuncha.
17. Diqqat nazariyalari haqida mushohadalar.
18. Diqqat turlarining psixologik tavsifi.
19. Diqqat regulyator sifatida.
20. Diqqatni shakllantirish imkoniyatlari
21. Tafakkur to‘g‘risida umumiy tushuncha.
22. Tafakkur operatsiyalarining psixologik mohiyati.
23. Tafakkur nazariyalari talqini.
24. Tafakkur turlari yuzasidan mulohazalar.
25. Tafakkurni rivojlanish xususiyatlari.

Test savollari:

№1.

Diqqat aynan shunday bir yeshikki tashqi olam kishi qalbiga kirib boradigan jamiki narsalarning barchasi shu yeshik orqali o‘tadi bu fikr muallifi kim?

D.K.Ushenskiy

A. Kardiner,

E. Fromm,
K. Xor
№2.
O‘zaro bir-birini bilish borasida shaxslararo idrok yetishning mexanizmlarini ayting.
Identifikatsiya, refleksiya, steriotiplashtirish
Asossiz izohlash, sababsiz taxmin
Noto‘g‘ri xulosa, yeslab qolgan fikrlar
Ijobiy, salbiy
№3.
Retseptorlarning rivojlanishi organizmning qaysi qismi rivojlanishi bilan birga boradi?
Nerv sistemasi
Sezgilar
Yurak jigar
Tayanch xarakatlanish sistemasi
№5.
Qaysi olim yuksak taraqqiy yetgan xayvonlarda faqat amaliy tafakkur ya’ni ko‘p tafakkuri xosligini ko‘rsatdi?
Pavlov
Sechenov
Petrovskiy
E Goziev

5-MAVZU. TAFAKKUR VA MUSTAQIL FIKRLASH SHART-SHAROITLARI. IJODIY VA MANTIQIY FIKRLASH.

REJA:

1. Tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati.
2. Tafakkurning turlari.
3. Tafakkur shakllari.
4. Tafakkur operatsiyalari.
5. Mustaqil fikrlash - sog‘lom ma’naviyatning mezoni sifatida.

Mavzuning qisqacha mazmuni

Tafakkur va mustaqil fikrlash shart-sharoitlari, ijodiy va mantiqiy fikrla: *Azaldan psixologiya fani nima mavzular yuzasidan bahs yuritadi degan an’anaviy savol mavjuddir, biroq hozirgi davrda tafakkur psixologiyasi predmeti nima, degan savol tug‘ilmokda. Ma’lumki, psixologiya fani tafakkurni o‘rganadigan yagona fan emas, chunki uning ayrim jihatlarini logika, mantiq, falsafa, hatto kibernetika tadqiq qilmoqda. Shuning uchun tafakkur psixologiyasi predmetini anikdash juda muhim masalalardan biriga aylanib qolmoqda. «Tafakkur - bu o‘z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bavosita aks ettirishni xarakterlaydigan, umumlashtirish darajasi va foydalanadigan vositalariga hamda o‘sha umumlashmalar yangiligiga bog‘liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir».*

Fikrlash yoki fikr yuritish inson akliy faoliyatining, aql-za-kovatining, muomala maromining, ongli xulq-atvorining yuksak shakli bo‘lib hisoblanadi. Mustaqil fikrlash tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, shaxs-ning keng ko‘lamli akliy faoliyatini oqilona, omilkorlik bilan amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. Mustaqil fikr yuri-tishning ro‘yobga chiqishida odamda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz, maqsad kabilar vujudga keladi va ular shaxs ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar sifatida ifodalanadi. Mustaqil fikr yuritish til va nutq bilan chambarchas bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi hamda ular uz-luksiz tarzda bir-birini taqozo etadi. Xuddi shu bois talaba o‘zi-ning mustaqil fikrlashi (muloqoti), nutqi, ongli xulq-atvori tu-fayli borliqdagi mavjudotlardan tubdan ajralib turadi.

Kishi mustaqil, ijodiy, mantiqiy fikr yuritish faoliyatida o‘zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan, eslab qolgan narsa va hodisalarning to‘g‘riligi, aniqligi, haqiqiyligi, haqqoniyligi yoki ularning voqelikka mos (mutanosib) tushishi va tushmasligini aniqlaydi. Borliqni bilish jarayonida hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar, farazlar (taxminlar), qaror qabul

qilishlari chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson mantiqiy va mustaqil fikrlashi tufayli voqelikni umumlashtirgan holda bilvosita yoki bevosita aks ettiradi, narsa va hodisalar o‘rtasidagi ichki, murakkab bog‘lanishlar, munosabatlar, xossalar, xususiyatlar hamda mexanizmlarni tushunadi, anglab yetadi. Binobarin, odam muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda tabiiy, ijtimoiy hodisa va voqealarning vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi hamda ularning oqibatini oldindan payqash, bashorat qilish imkoniyatiga ega. Hozirgi zamon kishisining bilish va amaliy faoliyatini oqilona, omilkorlik bilan tashkil qilishda mustaqil fikr yuritish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

1-Reja.Tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati

Psixologiya fani nimadan bahs etadi, degan an’anaviy savol mav-juddir, biroqhozirgi davrda tafakkur psixologiyasi predmeti nima, degan savol tug‘ilmokda. Ma’lumki, psixologiya fani tafakkurni o‘rganadigan yagona fan emas, chunki uning ayrim jihatlarini logi-ka, mantiq, falsafa, hatto kibernetika tadqiq qilmoqda. Shuning uchun tafakkur psixologiyasi predmetini anikdash juda muhim masa-lalardan biriga aylanib qolmoqda.

Umumiy psixologiyadarsliklaridatafakkurga berilganta’riftur-licha bo‘lib, ikkita yoki uchta muhim xususiyati ta’kidlab o‘tiladi, xo-los. Jumladan, P. I. Ivanovning darsligida «tafakkur insonning shunday aqpiy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to‘g‘ri), go‘liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning tag‘in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkon be-radi», deb ta’riflanadi. Ushbu ta’rifda tafakkurning to‘la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta’kidlab o‘tiladi, xolos, le-kin uning xarakterli xususiyatlari bavosita so‘z yordami bilan ifoda-lanishi muallifning diqqat markazidan chetda qolgan.

M. V. Gamezo «tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so‘z hamda o‘tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi» ekanligi bayon qiladi. U tafakkurning umumlashgan, so‘z vositasida va vositali at-rof-muhit hodisalarini aks ettira olishini ta’kidlaydi. Bizningcha, tafakkurga berilgan ushbu ta’rif uning predmetini to‘la ochib be-rishga qurbi yetmaydi, shuning uchun boshqa manbalarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

A. V. Petrovskiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga ushbu shaklda ta’rif o‘z ifodasini topgan: «Tafakkur — ijtimoiy-saba-biy, nutq bilan chambarchas bog‘liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafak-kur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlash-tirib aks ettirish jarayonidir». Ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, tafakkur yuqorida keltirib o‘tilgan ta’riflardan bir muncha kengroq xususiyatlarni ochib berish uchun xizmat qiladi, biroq uning jihat-lari to‘la qamrab olinmagan.

V. V. Bogoslovskiy tahriridagi darslikda ham tafakkurga beril-gan ta’rif uning umumlashgan va bilvosita aks ettirish xususiyatla-ri yoritilgan, xolos. Xuddi

shunga o‘xshash tafakkur xususiyatlari F. N. Gonobolin, K. K. Platonov darsliklarida ham uchraydi.

Bizningcha, tafakkur predmetini belgilash uchun to‘laroq ta’rif O. K. Tixomirovning darsligida berilgan. Tafakkur predmetiga kiruvchi tarkibiy qismlar mana bunday ifodalanadi: «Tafakkur — bu o‘z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bavosita aks etti-rishni xarakterlaydigan, umumlashtirish darajasi va foydalanadi-gan vositalariga hamda o‘sha umumlashmalar yangiligiga bog‘liq ra-vishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir». O. K. Tixomirov mazkur ta’rifda tafakkurning aksariyat jihatlari va xususiyatlarini ta’kidlab o‘tgan. Lekin tafakkur muammosiga yan-gicha yondashishlarning paydo bo‘lishi ta’rifni yanada takomillash-tirishni taqozo qiladi.

Hozirgi davrda tafakkurning predmeti yuzasidan psixologiyada turli-tuman qarash va ta’riflar mavjuddir. Ularni ayrimlariga xarakteristika berib o‘tamiz. S. L. Rubinshteyn nazariyasiga bino-an, tafakkurni psixologik jihatdan o‘rganishning asosiy predmeti jarayon, faoliyat tariqasida namoyon bo‘lishdir. Muallif tafakkur operatsiyalari, shakllarini shakllantirishda jarayon, muammoli va-ziyatni hal qilishda esa fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqur tahlil qilib beradi. S. L. Rubinshteyn tafakkur to‘g‘risidagi g‘oyani rivojlantirib, uni sub’ekt faolligining paydo bo‘lishi deb atadi.

A. N. Leontev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan mulo-haza yuritib, tafakkurni turli ko‘rinishlarga ajratadi, fikr yuri-tish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli-amaliy faoliyat deb nomlaydi. Shuning bilan birga tafakkurning struktu-rasi, fikr yuritish motivatsiyasi to‘g‘risida nazariy-metodologik muammolarni o‘rtaga tashlaydi.

P. Ya. Galperin fikriga ko‘ra, tafakkur - bu orientirlash-tad-qiqot faoliyati, orientirovka jarayonidir, ya’ni orientirovka ja-rayoni, orientirovka faoliyati. Muallif psixologiya fani intel-lektual masalalarini yechishda sub’ektning tafakkurga orientirovka qilish jarayonini o‘rganishdan iborat deb tushuntiradi. P. Ya. Gal-perin tafakkurning boshqa jahatlarini o‘zining aqliy harakatlar-ni bosqichli shakllantirish nazariyasidan kelib chiqqan holda yori-tishga intiladi.

A. V. Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangi-likni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari alohida ta’kidlab o‘tiladi. Yuqori-dagi mualliflardan farqli o‘laroq A. V. Brushlinskiy tafakkur-ning umumlashtirib, bilvosita aks ettirishdan tashqari muhim yangilikni izlash va ochish, oldindan bashorat qilish xususiyatlari mav-judligini dalillab ko‘rsatadi.

Tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan sho‘ro psixologlari tomonidan bildirilgan mulohazalarga yakun yasab, umumiy ta’rif berishning mavridi keldi. Psixologiyada tafakkurga nisbatan be-rilgan qator tushunchalar mavjuddir, jumladan, jarayon, fikr yuri-tish faoliyati, bashorat qilish, anglashilgan bilimlar,

aql mezoni, fahmlilik va boshqalar. Yuritilgan fikrlarga suyangan holda, tafakkurga quyidagi shartli ta’rifni berish mumkin: Tafakkur at-rof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bavosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, ijtimoiy-sababiy bog‘lanish-larni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir. Ta’rifda tafakkurning eng muhim xususiyatlari va funksiyasi sanab o‘tilgan, ya’ni so‘z (fikr) bilan, umumlashtirib, bavosita, ijtimoiy-sababiylik, yangilik ochish, bashorat qilish, jarayon, faoliyat va boshqalar. Bizningcha, berilgan ta’rifdan kelib chiqqan holda tafakkur predmetini anikdashga harakat qilinsa maq-sadga muvofiq ish qilingan bo‘lar edi. Tafakkur predmetini belgi-lash mashaqqati uning murakkab bilish jarayoni ekanligini yana bir karra tasdikdab turibdi.

Inson idrok qilgan, xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma’lum ma’no va mohiyatga ega bo‘ladi. Aks xolda u eslab qolmaydi ham, keyingi safar analogik ob’ekt bilan to‘qnash kelganda, unga diqqatini qaratmaydi ham, figura fonga aylanib qolaveradi. Ya’ni, biz ko‘rgan, eshitgan, his qilgan narsalarimizning barchasi ma’noli, kerak bo‘lsa, ma’nili bo‘lishini xohlaymiz. Shunisi xarakterliki, ana shunday narsa va hodisalarga biz tomondan beriladigan ma’no har bir alohida shaxs tomonidan turlicha idrok qilinadi. Masalan, olim uchun har qanday kitob - hayotining ma’nosi bo‘lsa, dexqon uchun yer va undan olinadigan hosil - ahamiyatli hisoblanadi. hattoki, bitta narsaning o‘zi turli odamlar uchun turli xil ma’no va mazmun kasb etadi. O‘sha kitob misolini oladigan bo‘lsak, kitob industriyasi bilan shug‘ullanuvchi muhandis uchun - ishlab chiqarish mahsuloti, kitob do‘koni sotuvchisi uchun - tovar - mahsulot, o‘quvchi uchun - ilm manbai, muallif olim uchun - ijodining mevasi, eng qimmatli narsadir.

Har bir alohida narsaga bo‘lgan munosabatimiz uning biz uchun qadr-qimmatiga bevosita ta’sir etadi, u gox ijobiy, gox salbiy bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan ham biz narsa va hodisalarga tanlab munosabatda bo‘lamiz. Tilshunoslikni kasb etib tanlagan talaba uchun kibernetik modellashtirishga bag‘ishlangan ma’ruza qanchalik zerikarliday tuyulsa, iqtisodchilik kasbini egallamoqchi bo‘lganlar uchun pul, foyda va daromad olish yo‘llari haqidagi ma’lumotlar shunchalik ahamiyatli, oddiy so‘zning morfologik tahlili - shunchalik befarqlik holatini keltirib chiqaradi. Demak, bizning dunyoni, uning sir-asrorlarini tushunishimizning zaminida narsa va hodisalarning biz uchun shaxsiy aloqasi, ahamiyatliligi darajasi yotadi. Ana shunday dunyoni tushunishimiz, anglashimiz va unga ongli munosabatimizni bildirib, izxor qilishimizga aloqador bilish jarayoni psixologiyada tafakkur, fikrlash deb ataladi.

Tafakkur - inson ongining bilish ob’ektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o‘rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo‘lishini ta’minlovchi umumlashgan va mavxumlashgan aks ettirish shaklidir. Tafakkur muammolari uzoq vaqtgacha o‘zining murakkabligi bilan psixologlar nazaridan chetda bo‘lgan, u asosan faylasuflar va mantiqshunoslar fikr yuritadigan masala hisoblangan. Psixologiya ilmining otaxoni hisoblanmish nemis olimi Vilgelm Vundt ham psixologiyani ikkiga bo‘lib - fiziologik psixologiya (eksperimental yo‘l bilan bilish

jarayonlarini o‘rganuvchi fan) va halklar psixologiyasi kismlariga bo‘lib, oxirgi psixologiyaning tarkibiga nutq va tafakkur psixologiyasini ham kiritgan va uni eksperimental tarzda o‘rganib bo‘lmaydi, ularni tushuntirish mumkin xolos deb hisoblagan. Bu xulosalar aslida tafakkur va fikrlash jarayonlarining naqadar murakkab tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin shunday bo‘lsa ham shuni ta’qildash joizki, birinchidan, tafakkur va fikrlash jarayonlari - bu bilish jarayonlari;

ikkinchidan, ular ham shaxs tomonidan borliqni aks ettirish shakli, umumlashtirib, bilvosita aks ettirish shakli;

uchinchidan, bu jarayonlar ham eksperimental psixologiya tomonidan o‘rganiladi;

to‘rtinchidan, tafakkur bilishning eng oliy va yuqori darajadagi shaklidir. Tafakkurning oliyligi va murakkabligi shundaki, u idrokdan farqli, bevosita aks ettirish bo‘lmay, narsalar va ularning xossalarini ular yo‘q paytda ham aks ettirishga imkon beradi. Masalan, Afrikaning subtropik xududlari to‘g‘risida gap ketganda, umrida biror marta Afrikaga bormagan odam ham subtropiklik xossasini b i l g a n i uchun ham ushbu axborotni tushunib, uni qabul qila oladi. Sinov paytida talaba kecha o‘qigan, laboratoriya sharoitida sinab ko‘rgan qonuniyatlar xususida xuddi ro‘parasida namoyon bo‘layotganday, obrazli qilib gapirib berishi, ro‘y bergan hodisalarni yana formulalar va statistik hisob-kitoblar vositasida isbot qilib berishi ham mumkin. Bu operatsiyalarning asosida tafakkur jarayonlari yotadi.

Tafakkur qilishimizni ta’minlovchi organ - bu bizning miyamiz. Barcha hisob-kitob ishlari - eng elementar harakatlarni rejalashtirishdan tortib, murakkab mavxum teoremalarni isbot qilishga qaratilgan operatsiyalar miyada sodir bo‘ladi. Shuning uchun ham juda charchab turgan paytda odamdan biror qiyinrok masala xususida fikr bildirishini so‘rasangiz, «hozir boshim og‘rib turibdi, juda charchaganman, biroz o‘zimga kelay, keyin fikrlashamiz», deb javob beradi. Demak, miya faoliyati bilan fikrlash faoliyati o‘zaro uzviy bog‘liq ekan.

Miyamizning fikrlash qobiliyati va imkoniyatlari shunchalik salmoqliki, ayrim olimlarning fikricha, uning ishlash qonunlari hozir biz ishlatayotgan kompyuterlar emas, yana 100-200 yillardan keyin paydo bo‘ladigan murakkab, o‘ta «aqlli» kompyuterlar faoliyatiga yaqin ekan. Kallamizga kelgan barcha uy - hayollar - bu fikrlardir. Normal insonni fikrsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, har on, har dakikada odam miyasi kandaydir fikrlar bilan band bo‘ladi. Ularni tartibga solish, keragiga diqqatni qaratish, ichki yoki tashqi nutq vositasida uni yechish - fikrlash jarayonidir.

Fikrlash jarayoni aslida ma’lum bir masala, muammo, jumboqni hal qilish kerak bo‘lganda paydo bo‘ladi. Fikrlash doimo bir narsa xususida kamida bitta yechimni berishi shart, aks xolda u boshqa jarayonga - hayol, fantaziyaga aylanib ketishi mumkin. Fikr, g‘oya, aniq yechim bo‘lmaganda, inson miyasining

borlikdagi narsa va hodisalar mohiyatini aks ettirishi hayol deb ataladi. Shuning uchun ham do‘stlar davrasida ba’zan muammo xususida tortishuv bo‘lib qolganda, aniq bilimi yoki g‘oyasi yo‘qligi tufayli kallasiga kelgan narsani aytgan bolaga qarab «Juda olib qochishga ustasan-da, hayolparast» deyishadi.

Shunday qilib, muammo yoki jumboqlar bizni fikrlashga majbur etadi. Masalan, shunday masalani olib ko‘raylik. Sizga mixlar solingan bir karton quticha va ikkita sham, bolg‘acha berilgan. Vazifa: eshikka shamni o‘rnatib, yoqib qo‘yish kerak. Kim qanday yechadi? Albatta, birdaniga to‘g‘ri yechimga kelish qiyin. Agar kutichani bo‘shatish mumkinligi va uni shamdon sifatida eshikka kokish mumkinligi to‘g‘risida fikr kallaga kelmaguncha, yechimni topish qiyin.

Ayni shu masala ikki xil shart bilan berilgan: bittasida kuticha mixlar bilan tula deyilgan, ikkinchisida quticha bo‘sh deb berilgan. Ikkinchi holatda bolalar uning yechimiga tezroq kelishgan. Psixologlarning fikricha, har qanday masalani yechish mobaynida odam uning shartlarini bir necha variantlarda tasavvur qilsagina yechimga kelarkan. Agar idrok bilan bog‘laydigan bo‘lsak, figura fonga, fon esa figuraga aylanadi, ularning o‘rinlari almashadi va hakozo. Bundagi individual farq shundaki, ba’zi bolalar yechimga to‘g‘ridan-to‘g‘ri figura asosida keladi, boshqalar esa bir necha yechimning variantlarini ko‘zoldiga keltirib, so‘ngbir qarorga keladi. Kimdir juda tez fikrlaydi, kimdir juda sekin.

Shuning uchun ham test yechish jarayonida yonma-yon o‘tirgan ikki bola bir xil yechimni belgilaydi, lekin o‘sha yechimga kelish yo‘llari har birida o‘ziga xos bo‘ladi. Aynan shu jarayonning qanday kechishini tafakkur psixologiyasi o‘rganadi. Muammoning yechimi ba’zan birdan, yorkin yulduzday yark etib paydo bo‘ladi. Bunday psixologik holat psixologiyada insayt - oydinlashuv deb ataladi. Odam qachon ana shunday fikrlarda tiniklik, insayt paydo bo‘lganini o‘zi ham bilmaydi. Eng iqtidorli, zukko olimlar ham o‘zfikr yuritish qonuniyatlariga e’tibor berib, yangi g‘oya qachon, qanday yo‘l bilan paydo bo‘lganiga javob topolmaganlar.

Hattoki, ba’zan shunday ham bo‘ladiki, yangilik kashf etgan olim o‘zining fikri naqadar noyob ekanligini ham anglash imkoniyatiga ega bo‘lmaydi, qolaversa, kashfiyot go‘yoki uniki emasday, qaerdan kelib qolganini ham tushunmaydi. Shuning uchun ham ko‘plab genial kashfiyotlarning haqiqiy qadr - qimmati muallif o‘tib ketgandan keyin tarix tomonidan baholanadi. Xuddi shunday qadrga ega bo‘lgan kashfiyotlar yurtimizda yashab o‘tgan yuzlab allomalar ijodiga taalluqli.

Masalan, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobiy, Al-Farg‘oniy, Xorazmiy, Zamashhariy kabi allomalar o‘zlari ijod qilgan paytlarida yaratgan g‘oyalari va kashfiyotlarining qanchalik ahamiyatli va o‘lmas ekanligini keyingi avlod, butun bir insoniyat tarixi isbot qilib, tan oldi. R. Dekartning kallasiga analitik geometriya g‘oyasi kelganda, o‘zida yo‘q xursand bo‘lgan va cho‘kkalab, yig‘lab shu fikrni unga ato etgan Xudoga sajda qilgan ekan. Darhaqiqat, miyadagi

tiniqlik, oydinlashuv avvalo Olloxning inoyati, qolaversa, o‘sha fikr egasining mashaqqatli mehnati, tinimsiz ilmlar dunyosida to‘kkan zaxmatli terlari evaziga ro‘y beradi. Umuman yangiliklar ochish, ijod qilishga aloqador tafakkur turi uning eng ahamiyatli va shu bilan birga eng qiyin turidir. Chunki ijodkor, yoki kashfiyotchi nimanidir kashf qilishni xohlaydi, tinimsiz izlanadi, lekin qachon, qanday sharoitda, qanday yo‘l bilan uni ochishi mumkinligini o‘zi ham bilmaydi. Shu o‘rinda akademik Kedrovning Mendeleyev davriy jadvalini kashf qilganligi xususidagi esdaliklari juda o‘rinli. Olim uzoq vaqt mobaynida barcha kimyoviy elementlarni ma’lum qonuniyat asosida jadvalga tushirishni o‘ylab yurgan. «Kallamga kelyapti-yu, uni ko‘rolmayapman», deb tashvishlanardi olim. Kunlardan bir kun u juda toliqib, yozuv stoli ustida uxlab qolganda, tushida davriy jadvalni «ko‘rgan». Xursand bo‘lib ketib, uyg‘ongan zaxoti moddalarni jadvalga joylashtira boshlagan. Tushdagi ishi bilan o‘ngidagi ishining farqi shu bo‘lganki, tushida yengil moddalar pastda joylashgan bo‘lgan, Mendeleyev ularni o‘ngida «to‘g‘rilab» chiqqan. Bu ham o‘sha insaytga bir misol.

2-Reja. Tafakkurning turlari

Muayyan ijtimoiy muhitda turmush kechirayotgan odamlarning ehti-yojlari, xatti-harakat motivlari, narsalarga qiziqishlari, intilish-lari, mayllari, aqliy qobiliyatlari, hatto faoliyatlari ham turli-tumandir. Xuddi ana shu boisdan, ularning tafakkuri ham har xil holatlarda, vaziyatlarda turlicha tarzda vujudga keladi, namoyon bo‘la-di. Bundan oldingi boblarda ta’kidlab o‘tganimizdek, bilish jarayo-nida, amaliy va nazariy vazifalarni hal etishda, o‘zga kishilarning nutq orqali ifodalangan fikrlarini uqib olishda, muomalaga ki-rishishda, fikrlarini tushunib olishda inson fikr yuritadi. Psi-xologiya fanida tafakkur shakliga, topshiriq xususiyatiga, fikr yoyiq-ligiga, fikran originallik darajasiga qarab quyidagicha shartli klassifikatsiya qilinadi.

Ko‘rgazmali-harakatli tafakkur

Tarixiy taraqqiyot bosqichida odamlar ijtimoiy turmushda voqe bo‘lgan muammolarning aksariyati amaliy yo‘l bilan hal qilingan, shuningdek, ularga nisbatan munosabat ham amaliy faoliyatidan ke-lib chiqqan holda amalga oshirilgan. Narsa va hodisalar yuzasidan nazariy fikr bildirish esa tarixiy taraqqiyotning bir muncha ke-yingi davriga to‘g‘ri keladi. Yer yuzasida fanlarning kelib chiqishi haqidagi bizgacha yetib kelgan ma’lumotlar mazkur mulohazamizga da-lil bo‘la oladi. Qadimgi avlod va ajdodlarimizda yer maydonini qadam bilan o‘lchash, ko‘z bilan chamalash bo‘yicha amaliy bilimlar-ning to‘planishi natijasida geometriya fani kashf qilingan. Ki-shilarning barmoqbilan hisoblash turmush talabini qondira olma-gandan so‘ng matematika, narsa va hodisalarning tasviri, shartli belgilarni qoldirilishi yakuni sifatida tarix fani kabilar vu-judga kelgan. Yer yuzasida amaliy bilimlar to‘planishi asosida asta-sekin nazariy umumlashmalar barpo bo‘la boshlagan, turli sohaga ta-allukdi informatsiyalarningtizimlashishi natijasida fanlar hosil bo‘lgan. Shuning uchun insonning amaliy va nazariy faoliyati o‘zaro uzviy aloqada bo‘lib, hamisha biri ikkinchisini taqozo etadi. Gene-tik kelib chiqishi nuqtai nazaridan amaliy faoliyat birlamchi hisob-lanib, obrazlar

tasavvurlar va fikrlarni aks ettiruvchi nazariy faoliyat esa amaliy faoliyatning ma’lum taraqqiyot cho‘qqisiga chiq-qandan so‘ng ajralib chiqqan. Mazkur jarayon bir necha o‘ng ming yil-lar davomida yuzaga kelgan.

Agarda insoniyatningtarixiy taraqqiyoti muammosidan chetlanib, ushbu masalani olib qarasak, u holda amaliy faoliyat birlamchi ekanligiga qanoat hosil qilamiz. Buning uchun insonning ontogenetik taraqqiyotini dastlabki fazasiga murojaat qilamiz. Bola tug‘ili-shidan tortib, to uning bog‘cha yoshigacha davrni amaliy faoliyatda ko‘rgazmali-harakatli tafakkur o‘sishining asosiy pallasi deb atash mumkin. Mazkur yoshdagi inson zoti ana shu amaliy faoliyat qobig‘i-da aqliy harakatlarni amalga oshiradi, amaliy bilimlarni o‘zlash-tiradi, natijada ko‘rgazmali-harakatli tafakkur o‘sa boradi. Ushbu yoshdagi kichkintoylar o‘zlari o‘ynayotgan narsalar, o‘yinchokdarni qo‘lla-ri bilan bevosita ushlab ko‘rish orqali ular bilan tanishadilar, shuning bilan birga ularni idrok qilishga intiladilar. Idrok qil-gan predmetlar va o‘yinchoqlarni o‘zaro solishtiradilar, qismlarga ajratadilar, analiz va sintez qiladilar, bo‘laklarga ajratilgan-larni yaxlit holga keltirib birlashtiradilar. Kattalar tushuntiri-shiga ishonch hosil qilmasdan, ayni chog‘da ularni — ob’ektlarni sin-dirib yoki buzib bo‘lsa ham ularning ichki tuzilishi bilan tanishish ishtiyoqi (mayli) kuchli bo‘ladi. Shu boisdan amaliy xarakterdagi muammolarni hal qilishda ko‘pincha «buzib-tuzatish» yo‘li bilan hara-kat qiladilar. Ko‘rgazmali-harakatli tafakkur bog‘cha yoshiga yetgandan so‘ng bolalarda o‘z qiymatini yo‘qota boshlaydi.

Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur

Inson tomonidan bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas, balki faqat tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikr-lashdan iborat tafakkur turi ko‘rgazmali-obrazli tafakkur deb ata-ladi. Tafakkurning mazkur ko‘rinishi 4—7 yoshgacha bo‘lgan bolalarda namoyon bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda ko‘rgazmali-harakatli tafakkurning amaliy elementlari ko‘rgazmali-obrazli tafakkur bos-qichiga o‘tgandan so‘ng ham saqlanib qoladi, lekin u o‘zining yetakchi rolini yo‘qota boshlaydi. Ushbu yoshdagi kichkintoylar jism va pred-metlar bilan tanishayotganda analitik-sintetik faoliyatdan foyda-lanib ish ko‘rayotganda ularni qo‘l bilan ushlab ko‘rishga, ichki tuzi-lishi bilan amalda tanishishga intilmaydilar. Chunki ko‘p hollarda ulardan amaliy harakat qilish talab qilinmaydi. Lekin bu ular jism va predmetlarni, ob’ektlarni aniq va to‘liq idrok qilish, yaqqol tasavvur etish imkoniyatidan mustasno qilinadi, degan so‘z emas, albatta. Bog‘cha yoshidagi bolalar ilmiy tushunchalarga ega bo‘lma-ganliklari uchun bilish faoliyatida asosan ko‘rgazmali-obrazlarga suyanib fikr yuritadilar, mulohaza bildiradilar, hukm chiqaradi-lar. Yuqoridagi fikrimizni tasdikdash uchun shveysariyalik psixo-log Jan Piaje tajribalariga murojaat qilamiz. U 6—7 yoshdagi bo-lalarga xamirdan bab-baravar qilib yasalgan ikkita zuvalachani ko‘rsatadi, shu zahotiyoq tekshiriluvchilar ularning bir-biriga teng ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Tajribaning ikkinchi bosqichida zuvalachaning bittasi non shakliga keltiriladi, bu holatni o‘z ko‘zla-ri bilan kuzatib turgan bolalardan so‘ralganda, ular zuvalacha haj-mining o‘zgarishiga qarab tenglik buzilgan deb javob berganlar. Ushbu holat bog‘cha yoshidagi bolalarda ko‘rgazmali-obrazli tafakkur bevosi-ta va

batamom ularning idrok jarayonlariga bog‘liqekanligini ko‘rsa-tadi. Shuning uchun ular narsa va hodisalarning, jism va predmet-larning ko‘zga yaqqol tashlanib turuvchi alomatiga, xususiyatiga, ta-shqi belgisiga e’tibor qiladilar. Lekin ularni ichki bog‘lanishla-ri, o‘zaro munosabatlarini bildirib keladigan muhim, asosiy si-fatlariga ahamiyat bermaydilar. Ob’ektlarni fazoda joylashgan o‘rni, tashqi nomuhim belgisi ularning ko‘rgazmali-obrazli tafakkurini vujudga keltiradi. Masalan, ularning nazarida odamlar bo‘yining baland va pastligi ularning yoshini (ulug‘ligini) belgilaydilar.

Intuitiv va analitik tafakkur

Tafakkur aktivligiga qarab ixtiyorsiz (intuitiv) va ixtiyoriy (analitik) tafakkur turlariga ajratiladi. Intuisiya deb, mantiqiy tafakkur yordamida ko‘p vaqtlar davomida hal qilinmagan aqliy va-zifalarning to‘satdan, kutilmaganda hal qilinib qolishi jarayoni ataladi. Shaxsning muayyan sohadagi hayotiy yoki ilmiy tajribalari-ga asoslangan intellektual sezgirligidan iborat faoliyatdir.

Ko‘pincha ixtiyoriy tafakkur jarayoni mulohaza, muhokama, isbot-lash, gipoteza qilish kabi shakllarda namoyon bo‘ladi. Matematika, fizika, kimyo, psixologiya va boshqa fanlardagi muammo va masala-larni yechish jarayonlari bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bundan tash-qari, ixtiyoriy tafakkurga tanqidiy yoki nazorat (kontrol) tafakkur ham kiradi. Moddiy borliqni adekvat aks ettirish fikr yuritishni tanqidiy va sinchkov bo‘lishini taqozo etadi. Binobarin, narsa va hodisalarni atroflicha bilish uchun ob’ektiv baho berish zaruriyati tug‘iladi, bu esa o‘z navbatida, fikr yuritish ko‘lami keng, analitik-sintetik faoliyat doirasi mustahkam bo‘lishini talab qiladi.

Tafakkur jarayonlari ixtiyorsiz yuz berishi ham mumkin. Lekin bu holda ular ixtiyoriy tafakkurga suyangan tarzda vujudga keladi. Jumladan, odamning amaliy, maishiy va hokazo faoliyatlarida ix-tiyorsiz ravishda qator savollar paydo bo‘lishi va ularga beixtiyor javoblar axtarish hollari uchrab turadi. Bunday paytlarda inson fikr yurityaptimi yoki yo‘qmi, buni bilish juda qiyin, vaholanki u o‘zicha go‘yo savollarga javob topganday, shirin his-tuyg‘ularni boshdan kechirayotganday bo‘ladi, shuning uchun ko‘pincha «tilimning uchida turibdi» odamlar qandaydir tekst yoki muammo, masala ustida bosh qotirib o‘tirganlarida (biror narsaning bevosita ta’siri natija-sida) fikr yuritish mutlaqo beixtiyor o‘y berib qoladi va ularni asosiy topshiriqni bajarishdan uzoqlashtiradi. Ba’zan amalga oshi-rilishi maqsad qilib qo‘yilgan topshiriqni ixtiyoriy ravishda ba-jarish jarayonimizda bu rejaga kiritilmagan (favqulodda vujudga kelgan) ayrim vazifalarni ham bajaramiz, bu jarayon biz uchun ixti-yorsiz ravishda o‘tadi.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti tarixidan shu narsalar ma’-lumki, yirik ilmiy kashfiyotlar ham ko‘pincha xuddi shunday beixti-yor fikr qilib turgan mahalda to‘satdan ochilgan. Jumladan, yunon olimi Arximed solishtirma og‘irlik qonunini zo‘r berib aqliy meh-nat qilish paytida emas, balki hech kutilmagan jarayonda, vannada cho‘milib turgan paytida kashf etgan. Ulug‘ rus olimi D. I. Mendele-evning hikoya qilishicha, u elementlar davriy tizimi jadvalini tu-zish vaqtida uch kechayu uch kunduz betinim mehnat qilgan, ammo bu vazifani nihoyasiga yetkaza

olmagan. Undan so‘ng charchagan olim ish stoli ustida uyquga ketgan va tushida bu elementlar tartibli joy-lashtirilgan jadvalni ko‘rgan. Shunda D. I. Mendeleyev uyqudan uy-g‘onib, bir parcha qog‘ozga tushida ayon bo‘lgan jadvalni ko‘chirib qo‘ygan.

Ko‘pincha psixolog va fiziologlar ta’kidlashlaricha, muammoning bunday oson ravishda yechilishi hech kutilmagan yuqoridagi kabi beix-tiyor hal qilinishi shu kashfiyotlar olam yuzini ko‘rganicha bo‘lgan davr ichida oylab, yo‘llab qilingan mehnatning yakuni, ya’ni tugal-lanmay qolgan tafakkur jarayonining nihoyasiga yetishdir, deb baho-lamoqdalar.

Yirik fiziolog hamda psixolog V. M. Bexterevning izoxdicha, bunday kutilmagan jarayonlarning ro‘y berishiga asosiy sabab — bu o‘rganilayotgan masala to‘g‘risidagi uxlashdan oldin zo‘r berib bosh qotirish o‘ylash (fikr yuritish) va butun zehni, shuning bilan birga diqqat-e’tiborining tortilishi, kashf qilinishi zarur masalaga to‘la-to‘kis yo‘nalishdan iborat maqsadga muvofiqlashtirilgan murakkab, barqaror psixik holatning hukm surishidir. Mazkur holat aniq ob’ektga qaratilgan aqliy zo‘r berishning intensiv tarzda da-vom etishi natijasida vujudga kelgan mahsuldir va hokazo.

Fikr yuritilishi lozim bo‘lgan narsa va hodisalarni idrok yoki tasavvur qilish mumkin bo‘lsa, bunday tafakkur konkret tafakkur deb ataladi. U o‘z navbatida yaqqol-predmetli tafakkur va yaqqol-ob-razli tafakkur nomi bilan ikki turga ajratiladi. Agar fikr yuritish ob’ekti bevosita idrok qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-pred-metli tafakkur deyiladi. Fikr yuritilayotgan narsa va hodisalar faqat tasavvur qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-obrazli tafakkur deb ataladi. Tafakkurning bir turi xotira yoki xayol tasavvuriga asos-langan holda namoyon bo‘ladi.

Abstrakt tafakkur narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so‘zlarda ifodalovchi tushunchalarga tayanib, fikr yuritishdir. Algeb-ra, trigonometriya, fizika, chizma, geometriya, oliy matematika ma-salalarini yechish mahalida fikr yuritish, mulohaza bildirish abst-rakt tafakkurga xos misollardir. Algebraik mikdorlarni konkret narsalarga taqqoslab, nisbatan berib konkretlashtirilsa bo‘ladi, lekin bu yerda bizning maqsadimiz konkret miqsor to‘g‘risida fikr yuritish emas, balki shu narsalar o‘rtasida mavjud umumiy mikdor aloqalari ustida mulohaza yuritishdir. Chunonchi, bu holda biz faqat umumlashgan tushunchalarga tayanib fikr yuritamiz.

Abstrakt tafakkur konkret tafakkurdan g‘oyat keng ma’no anglati-shi bilan voqelikni chuqurroq bilishga olib borishi bilan farq qiladi. Shuning uchun biz yakka hukm vositasi bilan qator narsa va hodisalarga taalluqli ichki qonuniyatlar to‘g‘risida fikr yurita ola-miz. Idrok va tasavvur qilish mumkin bo‘lmagan narsa va hodisalar to‘g‘risida abstrakt tafakkur yordamida mulohaza yuritsa bo‘ladi. Shu sababli jamiyat va tabiat qonunlari haqida, borliq to‘g‘risida, chek-sizlik, sifat, miqdor, tenglik to‘g‘risida, go‘zallik yuzasidan mavhum abstrakt mulohaza yuritish mumkin, xolos.

Biroq konkret tafakkur bilan abstrakt tafakkur o‘zaro uzviy bog‘-langandagina bir butun inson tafakkurini vujudga keltiradi, chun-ki predmetningtashqi va ichki xususiyatlarini atroflicha ochish alo-hida olingan tafakkurning u yoki bu turi yordamida ifodalab berish ancha mushkuldir. Abstrakt tafakkur konkret tafakkur zamirida vu-judga kelgan, uning poydevori ustida o‘sgan va rivojlangan. Chunki tafakkurning genetik jihatdan kelib chiqishini analiz qilib chiq-sak, konkret tafakkur amaliy tafakkur bilan parallel ravishda na-moyon bo‘la boshlagan, abstrakt tafakkur esa tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida hosil bo‘lgan. Shunga qaramasdan, hamma vaqt har qanday konkret fikr, mulohaza abstrakt fikr muhokama ichiga ma’lum darajada singib ketgan bo‘ladi.

Hodisalarni izohlashga, faraz qilishga qaratilgan tafakkur na-zariy tafakkur deb ataladi. Tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni, munosabatlarni, ichki bog‘lanishlarni yoritib borish va shu bog‘la-nishlarni nazariy jihatdan fikr yuritish yo‘li bilan izohlash kabi jarayonlarni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirish mumkin. Izohlash paytida izohlanayotgan narsa va hodisalar, xossa va xususi-yatlar, jism va predmetlar, umuman butun voqelik ma’lum turkumda-gi tushunchalar qatoriga kiritiladi va ularning farq qiladigan belgi va alomatlari fikran ajratib ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, muay-yan ob’ektlarning mohiyati, mazmuni, mavjud bo‘lishlik sabablari, kelib chiqishi, taraqqiyoti, o‘zgarishi, shuningdek, ularning ahamiya-ti va funksiya hamda vazifalari izohlab beriladi.

Nazariy tafakkur jarayonlarda «Nega?», «Nima uchun?», «Nima sa-babdan?», «Buning o‘zi nima?», «Bu hodisa yoki holatlar, yoxud tushun-chalar o‘rtasida qanday o‘xshashlik va tafovutlar mavjud?» kabi qator savollar vujudga keladi. Berilgan savollarga atroflicha o‘ylab, man-tiqan oqilona tuzilgan javoblar ham topiladi. Jumladan, «Quyosh botdi — qorong‘i tushdi», «Sovuqtushdi — suvlar muzladi», «Olmaxon — hayvondir», «Kit — sut emizuvchidir», «15+2 va 20—3 miqdorlari o‘zaro tenp>, «TAT matematik appersepsiya ochib berish apparatidir», «Xarakter — ijtimoiy turmush mahsulidir» va boshqalar. Bu keltir-gan misollarda o‘quvchi va talabalar narsa va hodisalardagi bog‘la-nishlarni, ichki qonuniyatlar va xossalarni, o‘zaro muntazam munosa-batlarni ta’kidlab o‘tadilar, izoxdaydilar va tushuntirib berishga harakat qiladilar.

Nazariy tafakkurni ayni bir paytda abstrakttafakkur deb atash-lik an’ana tusiga kirib qolgan. Bunday nom bilan atashga asosiy sabab nazariy tafakkurning umumiy hukmlarda ifodalanishidir. Misol uchun: «Metallar elektr tokini yaxshi o‘tkazadi». «Jismlar ishqalanishdan qiziydi». «Hamma hayvonlar o‘zi yashayotgan muhitga moslashadi». «Narsa va predmet nomini bildirib kelgan so‘zlar ot deb ataladi». «Diqqat barcha psixik jarayon va holatlarning muva-faqqiyatli amalga oshirish garovidir». «O‘tish (o‘smirlik) davri ham jismoniy, ham jinsiy jihatdan intensiv o‘sish davridir». «Shaxs taraqqiyoti nasliy (irsiy) belgi, ijtimoiy muhit va ta’lim-tarbi-yaga bog‘liqdir». «Qiziqish va ehtiyoj inson shaxsining muhim jiha-tidir» va hokazo.

Abstrakt tafakkur maktab o‘quvchilarida dastavval elementar shakl-dagi abstrakt tushunchalarga suyangan holda rivojlanadi, so‘ngra mu-rakkab tabiiy-matematik fan asoslarini egallash jarayonida ma’-lum tizimdagi abstrakt

tushunchalarni o‘zlashtirish evaziga yuqori-roq bosqichga ko‘tariladi. Oliy maktablarda tahsil olish davomida abstrakt tafakkur o‘zining eng yuqori ilmiy dialektik nazariy bos-qichiga ko‘tariladi. Bunda ijtimoiy fanlar alohida ahamiyat kasb etadi, jumladan filosofiya, psixologiya va boshqalar. Talabalar ham ko‘lam, ham daraja jihatidan murakkab bo‘lgan tushunchalar bilan ta-nishadilar. Masalan: materiya, ong, xususiyat, umumiylik, reallik, makon, zamon, harakat, psixika, sifat, krizis, bosqich va hokazo.

Abstrakt tafakkur muammosi qator sobiq sho‘ro psixologlari to-monidan izchillik bilan tadqiq etilgan. Sobiq sho‘ro psixologiya-sining dastlabki rivojlanishi pallasida ushbu masala bilan L. S. Vigotskiy, P. P. Blonskiy, keyinchalik S. L. Rubinshteyn, B. G. Ananev, A. N. Leontev, N. A. Menchinskaya, G. S. Kostyuk, P. Ya. Galperin, R. G. Natadze, D. B. Elkonin, V. V. Davidov, A. M. Ma-tyushkin va boshqalar shug‘ullanganlar. Hozir mazkur muammo yuzasi-dan yetarli darajada empirik va nazariy bilimlar to‘plangan. Fan va texnikaning taraqqiyoti abstrakt tafakkurni yanada rivojlanti-rishni taqozo etmoqda.

Bu aytib o‘tilgan mulohazalar nazariy va abstrakt tafakkurga yorqin misol bo‘la oladi. Nazariy tafakkur tufayli voqeliqdagi umumiy va muhim bog‘lanishlarni, xossalarni, qonuniyatlarni anglab ola-miz. Shuning uchun Quyosh va oy tutilishini, yulduzlar tizimining harakatini, ob-havo ma’lumotlarini, yer qimirlash o‘choqlarini voqea sodir bo‘lishidan ancha ilgari aytib berishimiz mumkin. Shu sabab-dan nazariy tafakkurni oldindan ko‘rish imkoniyatini yaratadigan umumlashgan tafakkur deb ham ataydilar.

Shunday qilib, abstrakt tafakkur orqali narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish mumkin bo‘lmagan xususiyatlari, o‘zaro muno-sabatlari aniqlanadi, u yoki bu sohaga oid qonuniyatlar ochiladi, sa-bab-oqibat bog‘lanishlari aks ettiriladi.

Voqelikni o‘zgartirishga yoki inson ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan real narsalar yaratishga qaratilgan tafakkur turi konstruktiv, tex-nikaviy, tasviriy san’at singari kasb sohalarini tadqiq etadi. Voqelikni o‘zlashtirish vositasi bilanreal narsa va hodisalarni yaratishga yo‘naltirilgan fikr yuritish amaliy tafakkur deb atala-di. U qo‘yilgan amaliy va nazariy vazifalarni yangi usullar bilan hal qilish, ongimizda yangi tasavvur, tushuncha va hukmlar hosil qilish, muayyan yangi narsalar yaratish bilan bog‘liq murakkab tafakkur ja-rayonidir. Amaliy tafakkur jarayonida ham nazariy tafakkurga o‘xshash savollar tug‘iladi. Amaliy tafakkur jarayonining davomi ish-hara-katlarni, akliy harakatlarni tasavvur qilishda, fikrlashda namoyon bo‘ladi. Maktab hayotidan o‘quvchilarning diktant, bayon yoki insho yozish jarayonini misol qilib keltirish mumkin. Talabalar faoliyatidan konspekt yozish, referat tayyorlash, kurs va bitiruv ishi ustida ishlash, seminarga hozirlik ko‘rish, laboratoriya mashg‘ulotlarida amaliy vazifalarni bajarish kabilar amaliy tafakkurga yorqin misol-dir.

Psixologiyada tafakkurning o‘ndan ortiqturlariga xarakteristi-ka berib o‘tilgan. Psixologiya tarixidan bizga ma’lum bo‘lgan mual-lifitar tafakkur turi ham o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqalar-dan keskin ajralib turadi. Muayyan fikrning chin yoki yolg‘onligini ob’ektiv dalillar bilan isbotlash o‘rniga inson shaxsning ijobiy yoki salbiy sifatlari bilangina cheklanib qolishdan iborat tafak-kur

turi avtoritar tafakkur deb ataladi. U ko‘pincha odamlarning muayyan soha bo‘yicha bilim saviyasining, darajasining cheklanganli-gidan va mustaqil fikr yuritish qobiliyatining yetarli darajada o‘sma-ganligidan dalolat beradi. Shuningdek, psixologiyada bir-birlari bilan uzviy ravishda bog‘langan mulohaza yuritishdan iborat manti-qiy tafakkur jarayonini diskursiv tafakkur deb atash qabul qilin-gan.

Ijodiy tafakkur

Ijodiy tafakkur murakkab bilish faoliyatidan biri bo‘lib, tad-rijiy ravishda, izchil o‘zaro bog‘langan jarayonlardan tashkil topa-di: dastavval savollar tug‘iladi, vazifa aniqlanadi, masalani yechish yoki savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Inson ol-dida turgan aniq vazifa yoki masala — bu bajarilishi yoki hal qili-nishi zarur bo‘lgan savolning ifodasidir. Namoyon bo‘lgan vazifa (masala) ko‘pincha ifodalanishi shart bo‘lgan maqsadni ham o‘zida aks ettirib keladi. Maqsad esa insonning izlanayotgan noma’lum voqe-likni topishga gumon va hayajon, shubha hislardan forig‘ etishga qara-tilgan maylidir.

Tafakkurning izlanish bosqichlarida vujudga kelgan masalaning ifodalanishi har xil darajada bo‘lishi mumkin. Jumladan, voqe-likning nimalari ma’lumki, nimalari yana noma’lum, ularni aniq-lash, qay holatda va qaysi yo‘l bilan yechilishi mumkin, uning tur-mush uchun qanday ahamiyati bor, singari jihatlarini aniklashga to‘g‘ri keladi.

Ijodiy tafakkurning navbatdagi komponentlari quyidagicha aks ettiriladi: qo‘yilgan savollarga javob izlash, masalani yechishga yordam beradigan yo‘llar, usullar, vositalar, qoidalar va ko‘nikmalarni qidirish, ularni tanlash hamda mazkur faoliyatda ularni tatbiq qilish va boshqalar. Odam ushbu konkret holdagi vazifani bajarish uchun qo‘yilgan savollarga beriladigan javoblarni ayrim paytlarda tevarak-muhitdagi ob’ektlardan topishga harakat qiladi. Mazkur holatning samaradorligi ko‘p jihatdan uning kuzatuvchanligi va sinch-kovlik sifatlariga bog‘liq. Ayrim hollarda berilgan savollarga javoblarni to‘plangan tajriba va yig‘ilgan bilim fondidan topish ko‘zga tashlanadi. Masalan, sessiya topshirayotgan talabaning fikr yuritishi, mulohazasi va xulosa chiqarishi xuddi ana shunday tarzda namoyon bo‘ladi.

Ijodiy tafakkur ijodiy xayol bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Shu-ning uchun inson amaliy faoliyatida bir talay savollarga javoblar-ni xayol yordami bilan topadi. Jumladan, har xil taxminlar, faraz-lar, ilmiy gipotezalar, kashfiyotlar, texnika sohasidagi ixtirolar ham ana shu yo‘sinda amalga oshadi, ya’ni xayol yordami bilan zarur natijalarga erishiladi. Shuningdek, ijodiy tafakkur jarayonida ba’zi bir vazifalarni hal qilish, bajarish, muhokama yuritish, mu-lohaza qilish, fikrlash, faraz qilish singari jarayonlar mantiqiy fikr yuritish usullari va vositalarini qo‘llash yo‘li bilan nihoya-siga yetkaziladi. Masalan, matematika, fizika kabi fan asoslarini o‘zlashtirishda xuddi shunday holat ro‘y beradi.

Ijodiy fikr yuritish jarayonida goho kamchilik va xatolarga yo‘l qo‘yiladi. Natijada olingan javoblar yoki qo‘llanilgan vositalarda shubhalanish hissi paydo bo‘ladi. Oqibatda natijalarni tanqidiy tek-shirish masalani hal qilish bilan parallel ravishda namoyon bo‘lishi mumkin. Odatda, ushbu kezlarda fikr yuritishning

mantiqiy jihatla-ri hukm va xulosa chiqarish, isbotlash, dalillash, asoslash, rad qilish, inkor etish kabilar ijodiy tafakkur yadrosini tashkil qiladi.

Ijodiy tafakkur jarayonida inson masalani hal qilishda o‘zga-larning yordamiga tayanib ish ko‘radi. Ayrim hollarda masala yoki top-shiriqni hal qilish, yechish paytida ijodiy tafakkur shaxslararo munosabatda, muloqotdagi voqe bo‘ladi. Muloqot esa fikr almashish, suhbatlashish, muhokama qilish, bahslashish, isbotlash, dalillash kabi mantiqiy usullardan tashkil topadi. Fan va texnika taraqqiyoti ta-rixining ko‘rsatishiga qaraganda, yirik ilmiy kashfiyotlar, falsa-fiy mushohadalar, ilmiy nazariyalar, konstruktiv ijodlarning ak-sariyati ulug‘ kishilar tomonidan ijtimoiy tafakkurning mahsuli sifatida, kollektiv tafakkuri natijasi tariqasida dunyo yuzini ko‘rgan. Demak, ijodiy tafakkur avlodlarning aql-zakovati durdo-nalarining tizimlashishi natijasida voqelikni yangilik elementi bilan boyitadi, xolos.

Ijodiy tafakkur bilan masala yechish o‘zaro uzviy bog‘langan bi-lish jarayonlaridir. Lekin ijodiy tafakkurni masala vositasiga aylantirib yuborish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun ularning nozik jihatlarini farklab olish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, masalani hal qilish, yechish faqat tafakkur yordami bilan amalga oshiriladi, chunki bunda hech qanday o‘zgacha yo‘l bo‘lishi mumkin emas va bo‘lmaydi ham. O‘z navbatida tafakkur masala yechish vaqtidagina vujudga keladi. Shu boisdan yangi masala qo‘yishda, yangi muammolar-ni barpo qilishda, ularning inson tomonidan (o‘zgalar) anglab yeti-shida va boshqa hollarda asosiy rol o‘ynaydi. Binobarin, ijodiy tafakkur faqat masala (muammo) hal qilish bilangina bog‘liqbo‘lmas-dan, balki bilimlarni egallash, matnlarni tushunish, narsa hamda hodisalarni tanqidiy jihatdan analiz qilish va hokazolarda ham juda zarurdir.

Xo‘sh, muammoli (muammoli) vaziyat bilan masala yechishning o‘zaro tafovuti bormi? Odatda, muammoli vaziyat vujudga kelganda odam favqulodsa hech kutilmagan, notanish, tushunilishi murakkab bo‘lgan, noma’lum narsa va hodisalar bilan uchrashadi. Aqliy zo‘r berish na-tijasida iroda sifatlarini ishga solish orqali muammoli vaziyat anglashilgan masalaga aylanadi. Binobarin, masala muammoli vazi-yatdan kelib chiqib, uning bilan mahkam aloqa qilib hukm suradi. Tafakkur muammoli vaziyatni analiz qilish natijasida uni rav-shanlashtirib, yechish mumkin bo‘lgan masalaga aylantiradi. Demak, bu yerda o‘zaro mustahkam bog‘langan fikr yuritishning berk zanjiri vujudga keladi. Tafakkur muammo masala. Zanjirning har bir zve-nosi hamisha va beto‘xtov bir-birlarini taqozo etadi.

Masalaning yuzaga kelishi muammoli vaziyatdan o‘zining spesi-fik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Odatda, masala ifodalan-ganda, garchi oldindan bo‘lsa ham, ma’lum ma’lumotlar va noma’lum-lar (qidirilishi zarur bo‘lgan narsalar) alohida mantiqiy bo‘lak-larga, qismlarga ajratilgan bo‘ladi. Masala nutqbilan bayon qilin-gan qismdan va shartli belgilar yoki abstrakt tushunchalardan tashkil topadi. Masalaning verbal bo‘lagida ma’lum ma’lumotlar va noma’-lum narsalarga bo‘lish aks ettirilgan bo‘ladi. Har qanday predmet-larga oid o‘quv masalasida uning asosiy shartlari yechuvchilar ongiga borib yetadigan darajada yaqqol shaklda bayon qilingan bo‘ladi, shu-ningdek, uning oldiga

qo‘yilgan talablar va savollar ham turli yoshdagi odamlarning yoshiga, saviyasiga mos ravishda tuziladi. Qattiq izla-nish, muhokama yuritish, vositalar tanlash va ularni tatbiq etish natijasida qidirilgan noma’lum narsa topiladi.

Sobiq sho‘ro psixologiyasida fikr yuritish aktlardan, harakat-lardan iborat ekanligi ta’kidlanadi. Insonning amaliy faoliyatida qo‘yilgan masalaning (vazifaning) akti fikr yuritish harakati deb ataladi. Tafakkurning harakati biron-bir vazifa yoki masala yuzaga kelishi bilanoq o‘z funksiyasini boshlaydi. K. K. Platonov tafakkur harakati bosqichlarining ushbu sxemasini ishlab chiqqan.

K.K. Platonov fikriga ko‘ra vazifaning hal qilinishi tafakkur harakatini yakunlaydi. Biroqtopilgan masala yechimi yangi tafakkur harakatlarini vujudga keltirishi, beto‘xtov fikr yuritish jarayon-lari bilan ta’minlaydigan yangi savollarni tug‘dirishi ehtimol.

Ijodiy tafakkur jarayoni mavjud bilimlarga bog‘liqdir. Shu narsani alohida qayd qilib o‘tish kerakki, o‘zaro aloqa qilishda tafakkur muhimroq, mavqeliroq o‘rin tutadi. Hozirgi zamon ta’limi oldida turgan asosiy maqsad, o‘quvchi yoki talaba shaxsini bilimlar bilan qurollantirish emas, balki ularni fikr yuritish faoliyatiga o‘rgatishdan iboratdir.

Xo‘sh, ijodiy fikr yuritish jarayoni qanday amalga oshiriladi?

Birinchidan, fikr yuritish faoliyatida eng avval hal qilinishi zarur bo‘lgan masala inson tomonidan aniqlab olinishi kerak. Agar-da inson oldida hech qanday masala yoki muammo vujudga keltirilma-gan bo‘lsa, u holda u biron-bir narsa to‘g‘risida fikr ham yuritmaydi, demakki, uning qarshisida hech qanday muammo mavjud emas. Mabodo odam hal qilishi shart bo‘lgan masala yuzasidan qanchalik aniq va to‘laroq ma’lumotga ega bo‘lsa, uni oqilona yechish yo‘l va vositalari-ni shunchalik yengillik bilan topadi. Buning uchun muammoni yechuv-chilar qo‘yilgan masala mazmunini avvalo tushunib olishlari, uning shartini tekshirib chiqishlari, nima ma’lum va nimalar noma’lum ekanligini aniqlashlari mutlaqo zarur. Faqat ana shundagina ular sira shoshib qolmaydilar va hech ikkilanmasdan masala shartini o‘ylab topadilar, to‘g‘ri yechimga erishadilar.

Ikkinchidan, muammo yoki masalani hal qilish uchun zarur bo‘lgan barcha bilimlarni (qoidalar, faktlar, qonuniyatlar, xossalar, xusu-siyatlar, muhim belgilar, munosabatlar, bog‘lanishlar va boshqalar) tatbiq qilish uchun intiladilar. Buning uchun esa shaxsiy tajriba-sida uchragan tajribadan, holatdan, usullardan unumli foydalanib, ko‘chish jarayonini amalga oshiradilar.

Uchinchidan, masalaga — muammoga taallukdi gipoteza olg‘a surila-di, bosqichlar taxmin qilinadi, yechish to‘g‘risida farazlar ishlab chi-qiladi, turli variantlar hamda variatsiyalar haqida mulohaza yuri-tiladi, o‘zaro xayolan solishtirib, eng samarali alomatlar ajratila-di va hokazo.

To‘rtinchidan, muammo oldiga qo‘yilgan gipotezani tekshirish za-ruriyati tug‘iladi. Uni tekshirish uchun analogik holatlar o‘zaro taq-qoslanadi. Bu o‘rinda ijodiy xayol materiallaridan atroflicha foy-dalaniladi. Uning haqqoniy ekanligiga ishonch hosil qilish uchun tafakkur harakatlari ierarxiyasi tatbiq qilib ko‘riladi. Gipoteza mantiqiy usullar yordamida fikran analiz va sintez qilinadi, uning adekvatligiga doir operativ ravishda hukm va xulosalar chiqariladi.

Beshinchidan, muammoni nazariy jihatdan hal qilish uchun ilgari surilgan gipoteza adekvat emasligi, noto‘g‘ri ekanligi anikdansa, u fikr yuritish ob’ektidan siqib chiqariladi va yangi farazlar, o‘ilar, taxminlar qabul qilinadi yoki o‘ylab topiladi. Yangi amaliy gipote-za fikran bir necha marta tekshiriladi, undan so‘ng amaliyotga joriy qilish uchun sinashga tavsiya qilinadi. Aytib o‘tilgan mulohazalar-ning aksariyati konstruktiv texnika masalalarini hal qilishda, kashfiyotlarni yaratishda, ixtirochilarning takliflarida, rasiona-lizatorlikda, texnologik qurilmalarni joriy qilishda turli-tu-man modellar, variantlar, preparatlar, texnologik kartalar va bosh-qalar fikran analiz qilinadi, so‘ngra ulardan eng ma’quli, eng maq-sadga muvofiqi tanlanadi va uning ustida to‘xtaladi.

Oltinchidan, muammo va masalani hal qilish, yechish, olingan na-tijalarni to‘g‘riligiga qanoat hosil qilish uchun yechuvchi uni tekshi-rish bilan tafakkur harakatlarini yakunlaydi. Ana shu operatsiya-lardan so‘ng masala batamom hal qilindi deb topiladi va u to‘g‘rida fikr yuritish to‘xtatiladi.

Odatda, inson ijodiy tafakkur qilish jarayonida ma’lum dara-jadagi qiyinchiliklarni yengadi. Ularni keltirib chiqaruvchi ob’ek-tiv va sub’ektiv sabablar xilma-xil bo‘lib, turlicha tarzda ifodala-nishi mumkin.

Psixolog V. A. Kruteskiy ijodiy tafakkurni taraqqiy ettirish maqsadida masalalar tipologiyasini ishlab chiqib, turli yoshdagi o‘quv-chilar o‘quv faoliyatida sinab ko‘rgan. Olingan natijalar olim to-monidan sifat va miqdor jihatdan analiz qilinib, fafik tasviri (ifodasi) aks ettirilgan. Tipologiyaga kiritilgan masalalarni V. A. Kruteskiy turlicha nom bilan ataydi.

Savol aniq qilib qo‘yilmagan masalalar. O‘quvchining masalada berilgan matematik munosabatlarni analiz qilgandan keyin ifoda-lab beriladigan savolning variantlaridan biri qavs ichida ko‘rsa-tiladi.

Berilganlari yetishmaydigan masalalar. Masalani aniq yechish uchun yetishmaydigan ma’lumotlar qavs ichida ko‘rsatiladi.

Ortiqcha ma’lumotlari bo‘lgan masalalar. Ortiqcha ma’lumotlar kursiv bilan beriladi.

Bir necha yo‘l bilan yechiladigan masalalar. Bu yerda turli yo‘llar bilan yechilishi mumkin bo‘lgan masalalar berilgan. Masala yechish-ning eng oddiy, eng tejamli yo‘li iloji boricha yashirilgan. Bu masalalar bir fikrlash operatsiyasidan ikkinchisiga, bir ishlash usulidan boshqasiga o‘tish qobiliyatini shakllantirishga qaratil-gan.

Mazmuni o‘zgarib turadigan masalalar. Bu masalalarda ham bit-ta mustahkamlangan aqliy qobiliyat tarkib toptiriladi.

Isbotlashga doir masalalar. Bu masalalar yordamida mantiqiy fikrlash, isbotlash singari akdiy qobiliyat takomillashtiriladi.

Fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritishga doir masalalar. Bu masalalarni yechish uchun hech qanday maxsus bilimlar talab qilin-maydi, lekin bunda ma’lum darajada ijodkorlik ko‘rsatib, manti-qiy mulohaza yurita olish kerak bo‘ladi. Bu masalalarning ba’zilari matematik xarakterda, boshqalari faqat mantiqiy xarakterda bo‘ladi.

Demak, ijodiy tafakkur turi o‘zining samaradorligi va dol-zarbligi, universalligi bilan boshqa fikr yuritish jarayonlaridan farq qiladi, yangi-yangi muammolarni o‘ylab chiqishda, masalani hal qilishda zarur jarayon bo‘lib, insonning bilish faoliyatida yetakchi rol o‘ynaydi.

Psixologiya fanida tafakkurni realistik va autistik turlarga ajratib o‘rganish holati hukm surib kelmokda. Odatda, realistik tafakkur qurshab olgan atrof-muhitni o‘rganishga, aks ettirishga qara-tilgan fikr yuritish bo‘lib, u mantiqiy qonun va qoidalarga bevosi-ta bo‘ysunadi va ularning yordami bilan voqelikni in’ikos qiladi. Mavjud narsa va hodisalarni aks ettirish mazkur tafakkur turi-ning ob’ekti bo‘lib hisoblanadi. Autistik tafakkur insonning xo-hish va istaklarini amalga oshirish bilan uzviy bog‘liq ravishda sodir bo‘ladi. Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tafakkur harakatla-ri faqat o‘sha shaxsning o‘z tilaklarini ro‘yobga chiqarishga yo‘nalti-rilgan fikr yuritishdan iborat individuallik yoki individualis-tik tafakkurdir.

Masala yechimini qabul qilishga va informasion tayyorgarlik ko‘rishga qaratilgan fikr yuritish vizual tafakkur deyiladi. Vizual tafakkur maqsadga muvofiqharakatlar yoki anglashilmagan operatsiya-lar, chunonchi, obrazlar manipulyatsiyasi va transformatsiyasi yordami bilan amalga oshiriladi va «akdiy aylanish»dan namoyon bo‘ladi. In-jenerlik psixologiyasi va mehnat psixologiyasi, shuningdek, ergo-nomika sohalarida muttasil vizual tafakkur ishtirok etadi. Ke-yingi yillarda vizual tafakkur muammosi kosmos psixologiyasida intensiv ravishda tadqiq qilinmoqda.

Yirik psixologlardan biri 3. I. Kalmikova o‘z tadqiqotlarida tafakkurning produktiv va reproduktiv turlarga ajratib o‘rgangan edi. Bu bo‘linish sub’ekt bilimlariga fikr yuritish faoliyatida olinadigan mahsulning yangilik darajasining munosabati asos qilib olinadi. Qisqa vaqt birligi ichida yangi, original fikrlar yaratish yoki muhim ilmiy, amaliy masalalarni hal qilish bilan belgilanadigan tafakkur produktiv tafakkur deyiladi. Reproduktiv tafak-kur esa passiv, tayyor mulohazalarni o‘zlashtirib olishga va «tayyor holda» undan foydalanishga qaratilgan insonning bilish faoliyati ko‘rinishidir.

Fazoviy tafakkur muammosi atokdi sobiq sovet psixologi B. G. Ananev va uning shogirdlari tomonidan tadqiq qilingan bo‘lib, keyingi yillarda bu muammo yuzasidan tanikli psixolog I. S. Yaki-manskaya intensiv ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borib, sermahsul natijalarni qo‘lga kiritayotir. Tajribalarning aksariyati kasb hunar-kolleji (bilim yurti) o‘quvchilari ustida olib borilgan. Fazoviy tafakkur deganda narsa va hodisalarning fazoda rasional joyla-shishi, zamon va makon munosabatlarini, murakkkab bog‘lanishlari-ni adektiv ravishda aks -ettirishdan iborat fikr yuritish jarayoni tushuniladi. U insonning fazoviy tasavvurlari, xotira va xayol tasavvurlari bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

3-Reja. Tafakkur shakllari

Psixologiyada nutq fikr yuritish faoliyatining vositasi deb yuritiladi. Odatda nutq tafakkur jarayonida hukmlar, xulosa chiqa-rish va tushunchalar shaklida ifodalanib keladi. Shuning uchun hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar tafakkurning spesifik shakllari deb ataladi.

Hukmlar

Narsa va hodisalarda, voqelikda haqiqatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan belgilar (alomatlar) hukmlarda ham bog‘liq ravishda ko‘rsatib beril-sa yoki voqeliqda bir-biridan ajratilgan narsa (tomon) hukmlarda ham ajratib ko‘rsatilsa — bu chin hukm deb ataladi. Masalan, «Me-tallar — elektr tokini o‘tkazuvchidir», «Metallar qizdirilgandan kengayadi», degan chin hukmlardir. Chunki elektrtokini o‘tkazish, qiz-dirilganda kengayish metallarga xos xususiyatlardir, bu hukmda u yoki bu holat faqat tasdiqlanib aytilayotir.

Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr hukm deb ataladi.

Moddiy olamda haqiqatdan bog‘liq bo‘lmagan narsa hukmda bog‘liq qilib ko‘rsatilsa, bunday hukm xato (yolg‘on) hukm deb ataladi. Chunki bu hukmda aks ettirilgan sifatlar (belgi va alomatlar) bu narsalar-ga aslo muvofiq kelmaydi. Masalan, «Atom — moddaning bo‘linmas zarrachasidir», degan noto‘g‘ri hukmdir. Atom murakkab moddiy ti-zimga ega bo‘lib, u yadro va elektronlarga bo‘linadi. Atomning yadrosi ham bo‘linadi, bu yadro protonlardan va neytronlardan iboratdir, degan hukmlardir. «Yer quyosh atrofida aylanmaydi», degan misol ham chin bo‘lmagan hukmlar doirasiga kiradi. Allaqachonlar inson tomo-nidan kashf qilingan geliotsentr nazariyasi mavjud bo‘lib, ana shu nazariyaga asoslangan holda mazkur qonun hukm surmoqda. Demak, hukm-ning chinligi, ya’ni voqelikni to‘g‘ri aks ettirishi — uning eng mu-him xususiyatlaridan biridir.

Borliqdagi narsalar, hodisalar va voqelikning miqdoriga, ularning biror hukmda aks ettirilgan aloqa va munosabatlariga qarab, hukm quyidagi turlarga bo‘linishi mumkin:

tasdiklovchi yoki inkor qiluvchi hukm. Hukmlarning ushbu asos-larga tayanib bo‘linishi sifatga qarab bo‘linishi deb ataladi;

yakka, juz’iy, xususiy va umumiy hukmga ajratilishi mumkin. Hukmlarning bunday belgilarga binoan bo‘linishi miqsorga qarab bo‘linishi deyiladi;

shartli, ayiruvchi va qat’iy hukm singari ko‘rinishlar mavjud bo‘lib, u hukmlarning munosabatga qarab bo‘linishi deb ataladi;

hukm taxminiy ko‘rinishga ega bo‘lishi ham mumkin. Bu hukmda aks ettiriladigan narsa va hodisalar belgisining nechog‘lik muhim bo‘linishiga yoki voqelikka mos kelish-kemasligiga bog‘liq. Masa-lan, «Ertaga yomg‘ir yog‘ish mumkin», «Paxta rejasi to‘lib qolsa ke-rak».

Hukmlarda tasdiklangan yoki inkor qilingan narsalar, hodisa-lar, alomatlar hukmning mazmunini tashkil qiladi.

Narsa bilan belgining aloqasi (bog‘liqligi) aks ettirilgan hukm tasdiqlovchi hukm deb ataladi. Masalan, «Alisher Navoiy buyuk o‘zbek shoiri va

mugafakkiridir», «Tinchlik imperializm uchun dahshatli quroldir», «O‘zbekiston qorako‘li bilan jahonga mashhurdir», «1977 yil Toshkent metrosi ishga tushgan sanadir» va hokazo. Narsa bilan belgi o‘rtasidagi biror bog‘lanish yo‘kligini aks et-tiruvchi hukm inkor hukm deb ataladi. Masalan: O‘zbekistonda paxta ekilmaydi. Oyga AQSh astronavtlari qo‘ngan emas. Samarqandda oliy maktablar qurilmagan va boshqalar.

Voqelikda ajratilgan narsa inkor qiluvchi hukmda fikran ajra-tilishi mumkin. Yakka (yolg‘iz) narsa va hodisa to‘g‘risidagi hukm yakka hukm deb ataladi. Misol uchun: «Alisher Navoiy nomli Katta opera va balet-teatri respublika faxridir». «Toshkent — O‘zbekiston Res-publikasi poytaxtidir» Amudaryo sersuv daryolardan biridir».

Belgining biror turkumigagina taallukli tasdiklovchi yoki in-kor qiluvchi hukm juz’iy hukm deb ataladi. Masalan: «Ba’zi metal-lar elektr tokini o‘tkazmaydilar, «Qarzdor talabalar sessiyaga qo‘yil-maydi». Bir turkumdagi narsa va hodisalarning hammasi to‘g‘risida tasdiklab yoki inkor qilib aytilgan hukm umumiy hukm deb ataladi.

Hukmda narsa va hodisa belgisining borligini muayyan sharoit-larda tasdiklab yoki inkor qilib aytilgan hukm shartli hukm deb ataladi. Masalan: «Agar quyosh nuri uch burchakli prizmadan o‘tkazil-sa, ekranda spektr hosil bo‘ladi», «Agar talaba sessiyalarga qunt bilan puxta tayyorlansa, u «yaxshi» va «a’lo» baholar oladi», «Agar o‘quvchi diqqat qilmasa, yangi materialni o‘zlashrtira olmaydi», «Agar pax-takor bahorda yerga yaxshi ishlov bermasa, kuzda hosil cho‘g‘i kam bo‘la-di».

Hukmda narsalar va hodisalarga bir necha belgi nisbatan beri-lib, shu belgilardan farq bittasi unga tegishli bo‘lsa, bunday hukm-ga ayiruvchi hukm deb ataladi. Misol uchun: «Jismlar yo qattiq yoki suyuq, gazsimon holda bo‘ladi», «Yer yuzasi fasllarning o‘zgarishiga qarab goh qattiq isib ketadi, goh ilib qoladi, goho keskin soviy-di». Narsa bilan belgi o‘rtasidagi aloqaning bor yoki yo‘kdigi qat’-iy shaklda aks ettirilsa qat’iy hukm deb ataladi. Masalan: «Neft zaxirasi jihatidan dunyodagi boshqa davlatlar o‘rtasida yetakchi o‘rin-lardan birida turadi», «Yonish kimyoviy jarayondir», «Yozgi ta’til davrida talaba mehnat otryadlari tuziladi», «Bahorda barcha joylar-da ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib boriladi» va hokazo.

Narsa va hodisalar bilan ularning xususiyatlari o‘rtasida aloqa bo‘lishi ehtimoli faqat faraz qilinsa, u holda inson o‘z fikrini quyidagi shaklda ifoda qilishi mumkin: «Ehtimol, Marsda organik hayot bordir». «Yigirma birinchi asr boshlarida fan va texnika prog-ressi hozirgi davrdagidan taxminan uch baravar ortishi mumkin», «Jahondagi foydali qazilmalar zaxirasi yana bir yuz ellik-ikki yuz yilga yetsa kerak» va boshqalar. Bunday hukmlar ehtimollik hukmlari deb ataladi. Narsa bilan xususiyat o‘rtasidagi aloqani taxminan emas, balki haqiqatda aniq bilganimizda biz o‘z fikrimizni mana bunday shaklda izhor qilamiz: «Bizning Milliy universitet Mar-kaziy Osiyoda eng keksa oliy o‘quv yurti maskanidir», «Maktabimiz-da fizika kabineti juda yaxshi uskunalar bilan jihozlangan», «Mak-

tab kutubxonasida ko‘p yangi kitoblar bor». Bunday hukmlar voqelik (assertorik) hukmlari deb ataladi.

Hukmning shunday yuqori formasi borki, unda faqat haqiqatda bo‘lgan voqea qayd qilinmasdan, balki narsa bilan xususiyatning aloqasi qonuniy ekanligi aniqlab beriladi. Masalan, «Butun dunyo-da, tinchlik g‘alaba qozonishi muqarrar». «Bazisning o‘zgarishi va tugatilishi ustqurmaning o‘zgarishi va tugatilishiga sabab bo‘ladi». «Sezgi chegarasining me’yori qanchalik kichik bo‘lsa, mazkur analiza-torning sezgirligi shunchalik yuksak bo‘ladi». «Sezgilarning inten-sivligi qo‘zg‘atuvchi kuchining logarifmiga proporsionaldir». Bun-day hukmlar zarurlik (apodiktik) hukmlari deb ataladi. Bunday hukm-larda inson narsa (voqelik, hodisa) bilan uning xususiyati o‘rtasida mahkam bog‘lanish borligini va bu bog‘lanishga zid keladigan boshqa bir holning bo‘lishi aslo mumkin emasligini aks ettiradi.

Psixologiyada hukmlar ikkita asosiy yo‘l bilan hosil qilinishi ta’kidlab o‘tiladi. Birinchi yo‘l bilan hukm hosil qilinganda, id-rok qilish zarur bo‘lgan narsalarning bevosita o‘zi ifodalanadi. Ikkinchi yo‘l bilan esa bavosita mulohaza yuritish yordami bilan hukm amalga oshiriladi. Masalan: «Bu avtomobilning yangi modeli». Mazkur misolda hukm chiqarishning birinchi yo‘li aks ettirilgan. Dastavval olimlar kashfiyot yoki ijodiy jarayonda nazariy jihatdan mulohaza yuritish yordamida hukm chiqaradilar. Ular chiqargan hukm-ningto‘g‘riligi amaliyotda keyinchaliktasdiqlanadi, bu ikkinchi yo‘l bilan hukm chiqarishga misoldir.

Xulosa chiqarish

Bir qancha hukmlarning mantiqiy bog‘lanishi natijasida hosil bo‘lgan yangi hukm insonning bilish faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Psixologiyada xulosa chiqarish jarayonida foydalanilgan tayyor hukmlar asoslar deyiladi, ularning tahlil qilib chiqarilgan yangi hukmni esa xulosa deb atash qabul qilingan. Xulosa chiqarish shunday tafakkur shaklidirki, bu shakl vositasi bilan biz ikki yoki undan orgiq hukmlardan yangi hukm hosil qilamiz. Masalan: «Har qanday harakat materiya harakatidir». «Issiqlik harakat shaklidir», degan ikkita hukmni olaylik. Bu ikki hukmdan «Demak, issiqlik materiyaharakatidir», degan yangi hukm chiqariladi. Yeinki ushbu misolni olib qaraylik: «Barcha sayyoralar harakatlanadi. Oy — sayyora. Demak, Oy harakatlanadi». Bunda har qanday harakat materiya harakatidir (umumiy yoki katta asos). Issiqlik harakat shaklidir (juz’iy yoki kichik asos) deb yuritiladi. Ikkinchi misolda esa: «Barcha sayyoralar hara-katlanadi (umumiy yoki katta asos), Oy — sayyora (juz’iy yoki kichik asos)» deyiladi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, mulohaza yuritish ham, xulosa chiqarish ham voqelikni bavosita bilishning asosiy shakli sifatida namoyon bo‘lgan. Oldingi ikki hukmga asoslanib uchin-chi hukm chiqariladi. Mazkur xulosani bevosita tekshirib ko‘rishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi. Shu sababdan xulosa chiqarish fikr o‘rtasidagi shunday bog‘lanishdirki, mazkur bog‘lanish natijasida bir yoki undan ortiqhukmlardan uchinchi hukm keltirib chiqariladi. Bun-da yangi hukm asosiy hukmning mohiyatidan keltirib chiqariladi.

Xulosa chiqarish uch turga bo‘linadi: induktiv, deduktiv va analo-giya.

Induktiv xulosa chiqarish — bu xulosa chiqarishning shunday man-tiqiy usuldirki, bunda bir necha yakka yoki ayrim hukmlardan umumiy hukmga o‘tiladi yoki ayrim fakt va hodisalarni o‘rganish asosida umumiy qonun va qoidalar yaratiladi. Masalan: «Temir elektr tokini o‘tkazadi». «Mis elektr tokini o‘tkazadi». «Kumushda ham elektr to-kini o‘tkazuvchanlik qobiliyati, xususiyati bor» va hokazo. Inson yuqoridagi hukmlardan yangi umumiy hukm (xulosa) chiqarib, demak, «Metallarning hammasi elektr tokini o‘tkazadi», degan yangi hukm chiqariladi. Shuningdek, «Toshkent Davlat madaniyat instituti talabalari qishki sessiyaga puxta hozirlik ko‘rmoqsalar. Shahardagi boshqa oliy o‘quv yurti talabalari ham qishki sessiyaga tayyorgarlikni ku-chaytirmokdalar». Demak, Toshkent shahrining barcha oliy o‘quv yurti talabalari qishki sessiyaga qunt bilan tayyorlanmoqdalar, degan hukm chiqariladi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Deduktiv xulosa chiqarishda — umumiy va yakka hukmlardan yakka yoki juz’iy hukm keltirib chiqariladi. Misol uchun: «Har qanday metall — element. Vismut metall». Demak, vismut — element.

Ta’lim jarayonida maktab o‘quvchilari umumiy qoida va qonunlar-ni yakka yoki juz’iy hollarga tatbiq etish orqali hamma vaqt deduk-tiv yo‘l bilan fikr yuritadilar. Masalan, o‘quvchilar umumiy gram-matik qoidalarni bilganliklari sababli o‘zbek tili darslarida qaratqich, tushum kelishiklarini differensiatsiya qila bilib, yozgan paytlarida fammatik xatolarga aslo yo‘l qo‘ymaydilar. Yoinki o‘quvchilar «ko‘pburchaklar ichki burchaklarning yig‘indisi *26* (p—2)ga teng» degan umumiy qoidani, teoremani o‘zlashtirib olgan bo‘lsalar, uni sira qiynalmasdan istalgan ko‘pburchakka tatbiqeta olishlari mum-kin. Idrok qilingan narsa va hodisalarni yoki inson tajribasida bor bo‘lgan narsalarni esda qoldirish hamda zarur vaqtda esga tushi-rishdan iborat psixik jarayon xotira deyiladi. Mantiqiy xotira turi xam psixik jarayondir. Demak, u ham esda qoldirish va esga tushirish xususiyatiga egadir.

Demak, o‘qish jarayonida oliy va o‘rta maktab o‘qituvchilari bayon qilib, izohlab bergan teorema, qonun va qoidalarni, murakkab xos-salarni ayrim, juz’iy hollarga ko‘chirish paytida talabalar, o‘quv-chilar hamma vaqt deduksiya usulidan foydalanib fikrlaydilar hamda mulohaza yuritadilar. O‘qitishning aksariyat metodlari va shaklla-rida yuboriladigan informatsiyalar deduktiv yo‘l bilan amalga oshi-riladi. Shuning uchun umumiy hukmlardan yangi yakka bir hukm kelti-rib chiqarishdan iborat mantiqiy tafakkur formasi muhim ahami-yatga ega.

Analogiya xulosa chiqarishning shunday shaklidirki, bunda biz ikki predmetning ba’zi bir belgilari o‘xshashligiga qarab, bu predmet-larning boshqa belgilarining o‘xshashligi to‘g‘risida xulosa chiqara-miz. Analogiya deb, narsa va hodisalarning bir-biriga o‘xshash bo‘lgan ba’zi belgilariga qarabgina hukm yuritishdan iborat xulosa chiqa-rish shakliga aytamiz. Analogik usulda chiqarilgan xulosa chin, tax-miniy hamda yolg‘on bo‘lishi mumkin. Fikr yuritishning bunday shak-li ko‘pincha yosh bolalarga xos xususiyatdir. Demak, juz’iy ikki yakka hukmlarga asoslanib juz’iy yoki yakka hukm keltirib chiqaramiz. Bog‘cha yoshidagi bola mana bunday mulohaza yuritadi: «Dadam darvozadan is-mimni

aytib chaqirib keldilar. Ular sovg‘a olyb kelgan bo‘lsalar kerak». Bu bolaning mulohazasini analiz qilib ko‘rsak, uning fikr yuritishning mana bunday tarzda taraqqiy etganligini shohidi bo‘la-miz. «O‘tgan galda dadam ismimni aytib chaqirib kelgan edilar. O‘shan-da ular menga sovg‘a olib kelgan edilar. Yana chaqirayotirlar. Albatta, dadam menga sovg‘a olib kelganlar», deb xulosa chiqaradi.

Endi turli yoshdagi kishilar turmush lavhalaridan namunalar kel-tiramiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi matematika darslarida, o‘smir yoshdagi o‘quvchi mulohazasidan parcha: O‘tgan yili noyabrning o‘rtala-rida qalin qor yoqqan edi. Noyabrning o‘rtasi yaqinlashmoqda Demak, yana qalin qor yog‘ishi ehtimol». O‘spirin xulosa chiqarishidan: «Shu yil yoz oyida pul-buyum lotoreyasiga soat yutib olgan edim. Kioskada lotoreya bileti sotilmoqda. Yana sotib olay, biror narsa yutib qolarman». Talaba analogiyasidan: «O‘tgan sessiyada variantni eng tagidan tortib olib «a’lo» olgan edim. Sessiyalar yaqinlashib qoldi. Yana tagidan tortib olsam omadim yurishib ketar». Yetuklik yosh davridagi kishi xulosa chiqarishidan: «Bolalarning zo‘ridan yakshanba kuni park-ka chiqsam, yigirma yillik qadrdonim kelib ketibdi. Bugun yakshan-ba, yana bolalar xarxasha qilishyapti. Yaxshisi uyda hordiq chiqarga-nim ma’qul, chunki yana kimdir mehmonga kelib qolar». Keksalar xulosa chiqarishlaridan namuna: «O‘tgan hafta zag‘izg‘on sayradi, qadr-don do‘stim keldi. Yana zag‘izg‘on sayrayapti. Bu gal sevikli nabiram Akobir mehmonga kelishi mumkin» va hokazo.

Shunday qilib, analogik yo‘l bilan xulosa chiqarganda, murakkab qonuniyatlar to‘g‘risidagi bilimlar o‘zlashtirilmasa-da, lekin tur-mushning turli jabhalarida undan foydalanib turiladi.

Tushunchalar

Inson voqelikni bilish jarayonida narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydi, ularning o‘xshashligi va farqini aniqlaydi: analiz va sintez yo‘li bilan narsa va hodisalarning mohiyatini ochadi, fikran ularning belgilarini ajratadi, bu belgilarni abstraksiyalashtira-di va umumlashtiradi. Natijada, odam voqelikdagi narsa va hodisa-lar to‘g‘risida tushuncha hosil qiladi.

Narsa va hodisalarning muhim belgilarini, bog‘lanishlarini, mohiyatini hukmlar orqali fikran keng va chuqur aks ettirishdan iborat fikr yuritish shakli va psixik mahsuli bo‘lgan tushuncha bi-lishning muhim jihatidir. Boshqa psixik mahsullar kabi tushuncha-larning manbai ham moddiy dunyo bo‘lib, tilning materiali bilan organik ravishda bog‘likdir.

Tushuncha narsa va hodisalarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi fikrdir.

Odatda, tushunchalar mohiyati jihatidan kon-kret va abstrakt tushunchalarga ajratiladi. Alohida olingan bir bu-tun narsaga aloqador tushuncha konkret tushuncha deb ataladi. Masa-lan: stol, divan, qayrag‘och, traktor, holva va hokazo. Moddiy bor-liqdagi narslardan fikran ajratib olingan ba’zi xususiyat, sifat holatlarga, shuningdek, narsalar o‘rtasidagi ichki munosabatlarga, qonuniyatlarga

qaratilgan tushunchalar abstrakt tushuncha deb ataladi. Masalan: okliq, uzunlik, balandlik, kenglik, harakat, yorug‘lik, qiy-mat haqidagi tushunchalar va hokazo.

Tushunchalar ko‘lami jihatidan uch turga bo‘linadi: yakka tushuncha-lar, umumiy tushunchalar va to‘planma tushunchalar. Yakka tushunchalar, yakka narsa va hodisa haqidagi tushunchadir. Bunday tushunchalarga Alisher Navoiy, general Sobir Rahimov, Toshkent, Amudaryo, Himo-lay, Tinch okean to‘g‘risidagi tushunchalarni misol qilib keltirsa bo‘ladi. Yakka tushunchalarning xususiyati shuki, bu tushunchalarda hami-sha aniq obraz mavjud bo‘ladi. Umumiy tushunchalarda bir jinsda bo‘lgan ko‘p narsa va hodisalar gavdalantiriladi. Masalan: kitob, maktab, yulduz, talaba, o‘spirin, hosil, tog‘ va yer va boshqalar.

To‘planma tushunchalar bir jinsda bo‘lgan narsa va hodisalar to‘pla-mi haqida yaxlit fikr yuritiladigan tushunchadir. Masalan: paxta-zor, kutubxona, yig‘ilish va hokazolar. To‘planma tushunchalarning bir qanchasi birdaniga tatbiq qilinganda umumiy to‘planma tushunchalar bo‘ladi. Masalan: Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat ku-tubxonasi tushunchasi yakka to‘planma tushunchaga oiddir. Guruh, sinf, kollektiv, polk, xalq, olomon va boshqalar umumiy to‘planma tushun-chasiga misol bo‘la oladi. Yetti og‘ayni yulduzlar to‘plami, Bolgariya ishchilar sinfi, Toshkent pochtamti xizmatchilari jamoasi kabilar yakka to‘planma tushunchalar jumlasiga kiradi.

Abstrakt tushunchalarning yuqorida qayd qilib o‘tilgan tushuncha-lardan farqi shuki, ular idrok yoki tasavvurga bevosita asoslanmay-di. Abstrakt tushunchaga misol tariqasida «qiymat» tushunchasini kel-tirib o‘tadi: siz har bir ayrim tovarni ushlab va qo‘lingizda aylan-tirib ko‘rishingiz, uni xohpaganingizcha ishlatishingiz mumkin, ammo shu tovarni qiymat tariqasida olib qaraganimizda uni aslo ushlab bo‘lmaydi.

Tushuncha bilan so‘z munosabati bir tekis bo‘lmaydi, ayrim payt-lar so‘z bilan tushuncha aynan mos tushadi (olma-so‘z, olma-tushuncha), qolgan paytlarda tushuncha o‘z ko‘lami jihatidan kengdir.

Fikr yuritishda tushuncha bilan so‘z o‘zaro bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, so‘z yordamisiz tushuncha vujudga kelmaydi, ikkinchi tomondan, so‘z tushunchaning moddiy asosi va funksiyasini bajaradi. Tushunchalar bir yoki undan ortiq so‘zlardan tashkil topi-shi mumkin. Masalan, xalq degan tushuncha bir so‘zdan, o‘zbek xalqi ikki so‘zdan, qahramon o‘zbek xalqi uch so‘zdan, ozodlik uchun kurasha-yotgan xalklar degan tushuncha to‘rt so‘zdan tashkil topgan.

Psixologiyada ba’zi tushunchapar shartli belgilar simvollar yordami bilan ham ifodalanadi. Bular qatoriga matematik simvollar + (plyus), — (minus), > (kattalik belgisi), < (kichiklik belgisi), = (tenglik belgisi),: (bo‘lish), • (ko‘paytirish) vaboshqa belgilar qo‘lla-niladi. Harflar ham tushunchalarni vujudga keltirishi mumkin: a, v, s, *6* va hokazo; yo‘l qoidalari belgisi, geografik shartli belgilar tushuncha o‘rnida ishlatiladi.

Tushunchalar fikr yuritishning asosiy jarayonlari, ya’ni klassi-fikatsiyalash, umumlashtirish va abstraksiyalashlar so‘zlar yordami bilan vujudga keladi. So‘zlar, belgilar, simvollar, terminlar tafakkur jarayonida tushunchalarning mazmunini aks ettiradi. I. P. Pavlov ta’biri bilan aytganda, so‘z birinchi signal

tizimining, barcha signallarning signallaridir, binobarin, shu signallarning hammasini ifodalaydi, shu signallarning hammasini umumlashti-radi.

Talaffuzdagi har bir so‘z muayyan mazmunni va muayyan ko‘lamdagi tushunchalarni aks ettiradi. So‘zlar aloqa (kommunikatsiya) quroli funksiyasini bajarib, tushunchalar mohiyatini anglashga yordam bera-di. Tushuncha so‘zlar yordami va vositasi bilan shaxslararo munosabat-lar o‘rnatishda faol ishtirok etadi.

Inson tushunchalarning aksariyatini meros tariqasida o‘zidan avvalgi avloddan tayyor holda oladi. Avlodlar estafetasi hukm suri-shi natijasida bir avlod yaratgan tushunchalarni ikkinchi avlod egal-lab oladi, ularga yangi mazmun va yangi shakl beradi. Oldingi avlod-ning boy merosiga asoslanib, ularni o‘rganib ulgurmagan voqelik xususiyatini ochishga intiladi, shu kashfiyot natijasida yangi tushun-chalar ijod qiladi. Binobarin, tushunchalarning mana shunday yo‘l bilan avloddan avlodga berilishi va egallanishi mazkur tushuncha-larning rivojlanishiga olib keladi.

Moddiy borliqto‘g‘risidagi tushunchalar filo-va ontogenetik ta-raqqiyot bosqichini bosib o‘tadi. Mazkur taraqqiyot bosqichi tushun-chalarningtakomillashuviga, mazmunan chuqurlashuviga, ko‘lam jihat-dan kengayishiga sababchi bo‘ladi. Masalan, 1) yarim asr muqaddam kishilarning Quyosh tizimiga kirgan planetalar to‘g‘risidagi tasav-vurlari va 2) maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘simliklar va hayvo-not dunyosi to‘g‘risidagi tushunchalari ko‘lami va maktabni tamomlash davridagi o‘spirin tushunchalari miqdori, 3) o‘tgan asrdagi odamlar-ning kimyo faniga oid tushunchapari va hozirgi kundagi inson tu-shunchalari va hokazo.

Shunday qilib, tushunchalar mohiyati hukmlarda yoritiladi, mav-jud hukmlar asosida xulosa chiqariladi. Yangi hukm hosil qilinadi, topilgan yangi belgilar, alomatlar tushunchalarni yanada boyitadi. Tafakkur yordamida inson yaratish, kashf etish, ixtiro qilishda da-vom etishi mumkin. Demak, yangi tushunchalar, terminlar bunyod qili-naveradi, iste’moldagilari esa yangi sifat va yangi mazmun kasb eta-di. Determinizm prinsipiga binoan, so‘zlar yangi tushunchalar yara-tilishiga vosita bo‘lib xizmat qilaveradi, shuning bilan birga tu shunchalar zamirida yangi so‘zlar va iboralar vujudga keladi, yoinki yangicha talqin qilinishga ko‘chadi. So‘z bilan tushunchalarning cham-barchas bog‘lanishi va munosabati filogenezda ham, ontogenezda ham operasional va funksional xususiyatlarni yo‘qotmaydi.

Shaxsda mustaqil fikrlashni shakllantirish vositalari

Fikrlash yoki fikr yuritish inson akliy faoliyatining, aql-za-kovatining, muomala maromining, ongli xulq-atvorining yuksak shakli bo‘lib hisoblanadi. Mustaqil fikrlash tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, shaxs-ning keng ko‘lamli akliy faoliyatini oqilona, omilkorlik bilan amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. Mustaqil fikr yuri-tishning ro‘yobga chiqishida odamda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz, maqsad kabilar vujudga keladi va ular shaxs ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar sifatida ifodalanadi. Mustaqil fikr yuritish til va nutq bilan chambarchas bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi hamda ular uz-luksiz tarzda bir-birini taqozo etadi. Xuddi shu bois talaba o‘zi-ning

mustaqil fikrlashi (muloqoti), nutqi, ongli xulq-atvori tu-fayli borliqdagi mavjudotlardan tubdan ajralib turadi.

Kishi mustaqil fikr yuritish faoliyatida o‘zi aks ettirgan, sez-gan, idrok qilgan, tasavvur etgan, eslab qolgan narsa va hodisalar-ningto‘g‘riligi, aniqligi, haqiqiyligi, haqqoniyligi yoki ularning voqelikka mos (mutanosib) tushishi va tushmasligini aniqaaydi. Borliqni bilish jarayonida hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar, farazlar (taxminlar), qaror qabul qilishlari chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson mustaqil fikrlashi tufayli voqelikni umumlashtirgan holda bilvosita yoki bevosita aks ettira-di, narsa va hodisalar o‘rtasidagi ichki, murakkab bog‘lanishlar, mu-nosabatlar, xossalar, xususiyatlar hamda mexanizmlarni tushunadi, anglab yetadi. Binobarin, odam muayyan qonun, qonuniyat va qoidalar-ga asoslangan holda tabiiy, ijtimoiy hodisa va voqealarning vu-judga kelishi, kechishi, rivojlanishi hamda ularning oqibatini oldindan payqash, bashorat qilish imkoniyatiga ega. Hozirgi zamon kishisining bilish va amaliy faoliyatini oqilona, omilkorlik bilan tashkil qilishda mustaqil fikr yuritish alohida ahamiyat kasb etmoqsa.

Odatda, fikr yuritish voqelikni umumlashtira olish darajasiga, muammoni yechish vositasining xususiyatiga, ob’ektning shaxs uchun yangiligi uning faollikka undashiga binoan bir necha turlarga ajratiladi. Mustaqil fikrlash aqliy faoliyat sifatidatahlil qilin-ganda talaba tomonidan masalalar va topshiriqlarni yechish nazarda tutiladi, ularning shartlarida, mohiyati, tuzilishi, shakllari va shaxsning anglashuv, tushunuv imkoniyatlarida kuzatiladi. Masala, muammo, topshiriqechish (hal qilish, bajarish) insonning ehtiyoji, qiziqishi, mayli, motivatsiyasi, aqpiy qobiliyati, iste’dodi, salo-hiyati bilan bog‘liq holda olib qaraladi, muammo tomonidan qo‘yil-gan talablarni qabul etish, shaxsiy qarorga kelish, yechimni topish uchun vositalar qidirish ijod, izlanish va fikrlashning mustahkam negizini tashkil qiladi. Mustaqil va ijodiy fikrlash faoliyatida muammo yechimini topish jarayonini boshqarish, borliqni in’ikos qilishda shaxsning his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari, favquloddagi vaziyatlari, ob’ektiv sharoitlari uning uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy turmushda ta’lim tizimida, ishlab chiqarish amaliyoti-da shaxslararo (ob’ektiv, sub’ektiv) munosabatlar, aloqalar, hamkor-liqdagi aqliy va jismoniy mehnat natijasi muomala qilish maromi nostandart fikrlashning majmuasi tariqasida yuzaga keladi. Talabalar jamoasida tanqid va o‘zini o‘zi tanqid, baholash va o‘zini o‘zi ba-holash, tekshirish va o‘zini o‘zi nazorat qilish, boshqarish va o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘zini o‘zi namoyon etish, o‘ziga o‘zi buyruq berish, guruhiy mulohaza hamda shaxsiy mushohadadan iborat mustaqil fikrlashning sifatlari shakllanadi.

Insonni inson tomonidan idrok qilish, ya’ni notanish shaxs-ning ruhiy holatini aniqlash, uni taxmin qilish, eng zarur alomat-lari va belgilari to‘g‘risida materiallar to‘plash ham ijodiy fikr-lashning mahsulidir. Mazkur murakkab bosqichli iborat bilish ja-rayoni insondan irodaviy zo‘r berishni, aqliy jiddiylikni, ongli munosabatni, barqaror vaziyatni, qulay sharoitlarni talab qiladi, bularning bevosita ta’siri orqali ma’lum bir qarorga kelinadi.

Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, ixtirochilik taklifla-ri ham ijodiy fikrlashning mahsuli hisoblanib, amaliy va naza-riy ahamiyatli ilmiy farazlar, g‘oyalar, ulug‘vor maqsadlar, yuksak ezgu niyatlar uning vazifasiga kiradi.

Insonning fikrlash faoliyati ijtimoiy xususiyatga ega. Fikr-lashning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval ovqatla-nish uchun ozuqa izlash, keyinchalik esa mehnat qurolini yasash va ulardan o‘z o‘rnida foydalanish kezida shaxslararo fikr almashish, tajriba bilan o‘rtoklashish ehgiyoji vujudga kelgan. Insonning o‘zaro muloqotga kirishishi, muomala qilishi, munosabat o‘rnatishi nati-jasida fikr bildirish, so‘zlashuv uquvi yuzaga kela boshlagan. Nutq-ning sharofati bilan fikrlash mahsullarining izchilligi, manti-qiyligi, tizimliligi paydo bo‘lgan, kelajak avlod uchun an’anaviy meros tariqasida qoldirish imkoniyati tug‘ilgan. Insoniyat tomoni-dan to‘plangan tizimlashtirilgan tajribalar, bilimlar, ko‘nikma va malakalar qoldirilmaganida edi, odamzod fikr yuritish fan, tex-nika, madaniyat sohalarida bunday ulkan yutukdarga erisha olmasdi.

Shaxsda mustaqil fikr yuritish muammoli vaziyat vujudga keli-shidan boshlanadi, lekin mazkur vaziyat tug‘ilishi, yechimi bu bilan tugallanmaydi. Unda bilishga nisbatan moyillik, ixtiyorsiz xatti-harakat muammoli vaziyatgacha yorqin bo‘lmaydi, u noaniq holda yuzaga keladi, so‘ngra bu ma’noda yechimga muhtoj muammoli vaziyat yaraladi va nihoyat uning yechimi topilsa, lekin bilishning muammodan ke-yingi bosqichi fikrning o‘z yo‘nalishida ixtiyorsiz davom etaveradi (muammogacha — muammoli vaziyat — muammodan keyingi vaziyat).

Talabaning o‘quv faoliyati fikr yuritishning o‘zaro mustahkam bog‘langan berk zanjiri vujudga keladi: mustaqil fikrlash, muam-mo, masala (topshiriq).

Talabaning mustaqil fikrlashi quyidagi bosqichlarda tarkib to-pishi mumkin:

1. Mustaqil fikr yuritish faoliyatida, engavvalo, hal qilinishi zarur bo‘lgan masala (topshiriq) talaba tomonidan aniqlab olinishi kerak. Agarda uning oldida hech qanday masala yoki muammo vujudga keltirmagan bo‘lsa, u holda biron-bir narsa to‘g‘risida fikr ham yuritmaydi. Demakki, talaba qarshisida hech qanday muammo paydo bo‘lmagan, mabodo u yechish shart bo‘lgan masala yuzasidan qanchalik aniq va to‘laroq ma’lumotlarga ega bo‘lsa, uning oqilona bajarishi yuza-sidan yo‘l va vositalarni shunchalik yengillik bilan topadi. Buning uchun talabalar qo‘yilgan masala mazmunini avvalo ma’lum darajada tushunib olishlari, uning shartini tekshirib chiqishlari, nima ma’ lum va nima noma’lum ekanligini aniqlashlari mutlaqo zarur. Fa-qat ana shundagina, ular sira shoshib qolmaydilar va sira ikkilan-masdan (topshiriq) shartini qidirib, zehn bilan uni tahlil qili-shi, tatbiq etish natijasida to‘g‘ri yechishga erishadilar.

Muammo yoki masalani hal qilish uchun eng zarur bo‘lgan barcha bilimlarni (qoidalar, omillar, qonuniyatlar, xossalar, xususiyat-lar, muhim belgilar, munosabatlar, bog‘lanishlar va boshqalarni) tatbiq qilish uchun intiladilar. Buning uchun esa insonning shaxsiy tajribasida uchragan holatlardan, usullardan unumli foydalangan holda yangi sharoitga, ob’ektga ko‘chirish jarayoni amalga oshiriladi.

Masala yoki muammoga taalluqli faraz (taxmin) ilgari surila-di, bosqichlar taxlil qilinadi, yechish to‘g‘risida mulohazalar yuriti-ladi, turli variantlar hamda

variatsiyalar, invariantlar haqida fikr bildiriladi, ular o‘zaro qiyoslanish natijasida eng samarali alo-matlarga, belgilarga ajratiladi va hokazo.

Muammo oldiga qo‘yilgan gipotezani muayyan mezonlar nati-jasi yordami bilan tekshirish zaruriyati tug‘iladi. Uni tekshirish uchun o‘zaro o‘xshashlik holatlari ma’noviy, shakliy, tuzilmaviy jihatdan taqqoslanadi. Bu o‘rinda ijodiy xayol materiallaridan atroflicha foydalaniladi, ya’ni ijodiy rejalar tuzish, umumlash-ma obrazlar yaratish maqsad, natijalarini ko‘z o‘ngiga keltirish, taxminiy munosabatlarni idrok qilish amalga oshiriladi. Uning haqqoniy ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aqliy xatti-hara-katlar tizimini tatbiq etib ko‘riladi va ayrim o‘zgarishlarni ki-ritish mo‘ljali oydinlashtiriladi. Gipoteza mantiqiy usullar yordamida fikran analiz va sintez qilinadi, uning muhim alomat-lari ajratiladi, uningto‘g‘riligi, haqqoniyligi bo‘yicha tezkor hukm va xulosalar chiqariladi.

Muammoni nazariy jihatdan hal qilish uchun ilgari surilgan gipotezato‘g‘riligi yoki noto‘g‘ri ekanligi anikdansa, u fikr yuritish ob’ektidan siqib chiqariladi va yangi farazlar, o‘ylar topiladi. Yangi amaliy gipoteza fikran bir necha marta tekshiriladi va undan so‘ng amaliyotga joriy qilish uchun sinashga tavsiya etiladi. Ta’kidlab o‘tilgan mulohazalarning aksariyati konstruktiv texnik masalalar-ni hal qilishda, kashfiyotlarni yaratishda, ixtirochilik taklifla-rida, rasionalizatorlikda, texnologik qurilmalarni joriy etish-da turli-tuman modellar, variantlar, preparatlar, texnologik kar-talar va boshqalar fikran taxlil qilinadi, so‘ngra ulardan eng ma’-quli, omilkori, oqili, eng maqsadga muvofiqi tanlanadi va uning ustiga bosh qotirishda davom ettiriladi. 6. Muammo yoki masalani hal qilish, yechish, olingan natijalar-ningto‘g‘riligiga ishonch va qanoat hosil qilish uchun talaba uni tek-shirish bilan mustaqil fikr yuritish xatti-harakatlarini yakunlay-di. Ana shu fikriy operatsiyalar, mulohaza shakllaridan so‘ng masala (topshiriq) batamom hal qilinadi deb topiladi va u to‘g‘rida o‘ylash nisbiy jihatdan to‘xtatiladi, xolos.

Odamning mustaqil fikr yuritishi quyidagi bosqichlardan tash-kil topgan bo‘lishi mumkin:

Muammoning shaxs idrok maydonida paydo bo‘lishi.

Kishi tomonidan masala, muammo, topshiriq mohiyatini anglash

Ularga o‘xshash ma’lumotlar yoki obrazlarning vujudga kelishi

Tasavvur va xotira materiallarining kamayishi, taxminlar (farazlar)ning uzluksiz tug‘ilishi.

Taxminlarni bosqichma-bosqich tekshirish yoki ularning haqqoniyligini tasdiqlash.

Yangi taxmin(faraz)ning yuzaga kelishi va takomillashuvi.

Farazlarni ikkilamchi tekshirish (ikkinchi marta tasdikdash).

Masala, topshiriq, muammo yechimini topishi (hal qilishi).

Ixtiyorsiz aqliy xatti-harakatlarning davom etishi fikrlar-ning nisbiy davomiyligi va hokazo.

Talabalarni mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish uchun muammoning ma’noviy, shakliy, tuzilmaviy jabhalarini hisobga olgan holda quyidagilarga diqqat-e’tiborni yo‘naltirish maqsadga muvofiq:

savollari aniq qilib berilmagan muammolar, masalalar, top-shiriqlarda ular o‘rtasidagi bog‘liqliklar, aloqalar, munosabatlar talaba tomonidan tahlil qilingandan keyin ifodalab beriladigan savollarning variantlaridan biri qavs ichida ko‘rsatiladi;

berilganlari yetishmaydigan muammolar, masalalar, topshiriq-lar, ularni yechish (bajarish, hal qilish) uchun yetishmaydigan ma’lu-motlar qavs ichida qoladi;

ortiqcha ma’lumotlarga, tafsilotga ega bo‘lgan muammo, masala, topshiriq, ortiqcha ma’lumotlar bilan beriladi;

bir necha yo‘l bilan, usul bilan, bosqich bilan yechiladigan, hal qilinadigan, bajariladigan muammo, masala, topshiriq, bu o‘rinda turli masalalar (muammolar, topshiriqlar) beriladi, bunda yechim-ning eng qulay, oddiy, eng tejamli, omilkor yo‘li iloji boricha yashiringan holda havola etiladi, muammolar fikrlashning bir usu-lidan ikkinchisiga, bir oddiyroq hukmdan murakkabrog‘iga, bir xu-losadan uning alohida ko‘rinishlariga, shakllariga o‘tish talaba aqliy qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi;

mazmun va mohiyati o‘zgarib turadigan muammolar, masalalar, topshiriqlar, ularda ham bitta mustahkamlangan akdiy xatti-hara-katlardan boshqasiga o‘tishdan iborat aqliy qobiliyat tarkib topti-rishga yo‘naltiriladi, ya’ni ularni yangi vaziyatga, ob’ektga ko‘chish jarayonida foydalanishga o‘rgatiladi;

isbotlashga, kashf qilishga, yangilik ochishga mo‘ljallangan mu-ammolar, masalalar, topshirikdar, ular yordami bilan mantiqiy fikrlash ichki munosabatlarni dalillash, qonuniyatlarini anglash singari aqliy qobiliyat takomillashtiradi;

mustaqil fikrlashga, mantiqiy mulohaza yuritishga muammo-lar, topshiriqlar, masalalar, ularni yechish (hal qilish) uchun hech qanday maxsus bilimlar talab qilinmaydi, lekin bunda ma’lum da-rajada ijodkorlik ko‘rsatish, hayotga murojaat etish, mantiqiy mu-lohaza yurita olish imkoniyati taqozo qilinadi, ularning ba’zilari matematik xususiyatli, boshqalari esa faqat mantiqiy boshqotirma shaklida havola etiladi.

Mustaqil fikr yuritish o‘zining samaradorligi, dolzarbligi, universalligi bilan kasbiy tayyorgarlik mahorat sari talabalarni yetaklaydi, jamiyat va tabiat hodisalarini anglash uchun puxta negiz hozirlaydi.

Fikr yuritishning mustaqilligi deganda talabaning shaxsiy ta-shabbusi bilan uning o‘z oldiga yaqqol maqsad, yangi vazifalar qo‘ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va nazariy, xususiyatli faraz (taxmi-nan, gipoteza) qilishi, kutilayotgan natijani ko‘z oldiga keltira olishi, qo‘yilgan muammoni hech kimning ko‘magisiz, ko‘rsatmasiz, o‘zining akdiy izlanishi tufayli, turli yo‘l, usul, vosita topib mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish joiz.

Fikr yuritishning mustaqilligi aqlning sertashabbusligida, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo‘ladi. Aqlning sertashab-busligi deganda talaba o‘z oldiga yangi muammoni aniq maqsad, yaqqol vazifa qo‘yishini, ana shularning barchasini amalga oshirishda ni-hoyasiga yetkazishga, yechimni qidirishda usul va vositalarni shaxsan o‘zi izlashi, aqliy zo‘r berib intilishi, ularga taalluqli qo‘shimcha belgi va alomatlarni kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon

bo‘lishi nazardatutiladi. Aqlning pishiqchigi vazifalarni tez yechish-da, yechish paytida yangi usul va vositalarni o‘z o‘rnida aniq qo‘llashda, eski yo‘llardan forig‘ bo‘lishda va boshqa ruhiy jarayonlarda ifoda-lanadi.

O‘zining va o‘zgalarning mulohazalarini, bu mulohazalarning chin yoki chin emasligini tekshira bilishda va namoyon bo‘lgan mulohazalar-ga, muhokamalarga, muammoli vaziyatga baho bera olishda aqlning tan-qidiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. Agartanqidiylik oqilona, muhim belgilarga, muammo mohiyatining to‘g‘ri ochilishiga, muayyan mezonga asoslanib amalga oshirilsa, unday tanqidiylik ob’ektiv tanqidiy-lik deyiladi. Mabodo, talabaning tafakkuri tanqidiyligi sub’ek-tiv (shaxsiy) xatolarga umuman sub’ektivizmga og‘ib ketsa, bunday holda sub’ektiv tanqidiylik deb ataladi. Talaba fikrlashidagi tanqidiy-lik oqilona, odilona, omilkorlik bilan amalga oshirilsa, namoyon bo‘lsa, unda shaxs uchun muhim ham akdiy, ham axloqiy sifat (xislat) vujudga keladi, deb komil ishonch bilan aytish mumkin.

Talaba fikr yuritishining mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan uzviy bog‘liq tarzda kechadi. Agar talaba tomonidan muayyan vaqt ichida ma’lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g‘oyalar, tavsiyanomalar bildirilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo‘lsa, bunday insonning fikr yuritishi sermahsul deyi-ladi. Vaqt oralig‘ida bajarilgan aqliy faoliyat ko‘lamiga va sifa-tiga oqilona baho berish talaba fikr yuritishi mahsuldorligini o‘lchash mezoni sifatida xizmat qiladi. Talaba oddiy narsalar to‘g‘ri-sida fikr yuritganda ham ularningtashqi belgilari bilan chegarala-nib qolmaydi, balki hodisalar mohiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush haqiqatidan umumiy ijtimoiy qonuniyat yaratishga harakat qiladi. Shubhasiz, talabaning mustaqil fikrlashi hali izlanmaga-ni, to‘la foydalanilmagan imkoniyatlarga ega bo‘lib, ularni to‘la ochish fan vatexnikataraqqiyotini jadallashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Har qanday tashkilot, yangilik taraqqiyot — inson aql-zakovati-ning mahsulidir, xuddi shu bois fan va texnika rivoji ko‘p jihat-dan mutaxassisning mustaqil fikrlashiga bog‘liq. Talaba kamoloti jismoniy, axloqiy va aqliy bosqichlardan iborat bo‘lib, bu borada uning mustaqil fikrlashi yetakchi, ustuvor o‘rin egallaydi. Hozirgi davr talabalari jismoniy, axloqiy jihatdan komillik darajasiga yengillik bilan erishsa-da, lekin akdiy kamolotga yetishish asab ti-zimining taranglashuvi, aqliy zo‘riqish, hissiy jiddiylashuv, barqaror irodaviy akt, uzluksiz faollik, fidoiylik namunalari evaziga bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshishi mum-kin. Komil inson bo‘lib kamol topishni ezgu niyat qilgan bo‘lg‘usi mutaxassis ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviyat va qadri-yatlarni egallash uchun hamda kelajak rivojini ta’minlash uchun talabalarda mustaqil fikrlashni, ijodiy izlanishni, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

4-Reja. Tafakkur operatsiyalari

Bundan tashqari, psixologiya bizdagi fikrlash jarayonini ta’minlovchi alohida operatsiyalarni ham o‘rganadi. Bular:

1. Analiz
2. Sintez

3. Mavhumlashtirish
4. Taqqoslash
5. Umumlashtirish
6. Konkretlashtirish
7. Klassifikatsiyalash
8. Sistemalashtirish

Fikrlash operatsiyalariga analiz (fikran narsa va hodisalarga taalluqli sifat va xususiyatlarni alohida qilib ajratish, tahlil qilish), sintez (analiz jarayonida ajratilgan qismlarni yana fikran birlashtirish, qo‘shish), mavhumlashtirish (alohida biror xususiyatni ajratib, boshqalaridan fikrni chalg‘itish, ayrim xossani mavhumlashtirish), taqqoslash (predmetlar va ularga xos bo‘lgan xususiyatlarni fikran bir - biriga solishtirish, umumiy va farq qiluvchi jihatlarini topish), umumlashtirish (umumiy va muhim sifatlariga ko‘ra predmetlarni guruhlashtirish, umumiylashtirish) kabilar kiradi.

Analiz va sintez operatsiyalari. Analiz shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fik-ran yoki amaliy va xususiyatlarini taxdil qilamiz. Allomalarning aytishicha, maymunning yong‘oqni chaqishining o‘ziyoq boshlang‘ich od-diy analizdir. O‘quvchi va talaba yoshlar turmushda va dars jarayonida analiz yordami bilan ko‘pgina ishlarni amalga oshiradilar, topshi-rikdar misol va masalalarni yechadilar. Demak, tabiat va jamiyatdagi bilim va tajribalarni inson tomonidan o‘zlashtirib olish analiz-dan boshlanar ekan. Darsda biz kimyoviy birikmalarni parchalaymiz. Ma’ruzalarda gap-larni grammatik taxdil qilish asosida turli gap bo‘laklariga, mor-fema va fonemalarga ajratiladi. Agarda inson oldiga avtomashina motorining tuzilishini bilish vazifasi qo‘yilsa, u holda bu top-shiriqni hal qilish uchun u motorni ayrim qismlarga ajratib, har bir qismni o‘z navbatida alohida olib tekshirish lozim bo‘ladi va hokazo.

Ma’ruza va dars jarayonlarida tafakkurning analiz qilish ope-ratsiyasi juda muhim rol o‘ynaydi. Insonga savod o‘rgatish bola nutqini analiz qilishdan boshlanadi. So‘ng bu holat matnni gaplar-ga, gaplarni so‘zlarga, so‘zlarni o‘z navbatida bo‘g‘inlarga, fonemalar-ga, ularni esa tovushlarga bo‘lish singari aqliy faoliyat bilan asta-sekin almashtiriladi. Arifmetika, algebra, geometriya, trigonomet-riya, fizika, yoinki O‘zbekiston tarixi, falsafa, iqgisod, polito-logiya, psixologiya va boshqa fan asoslarini o‘rganish muammoli top-shiriqlarni, masalalarni yechish ham analiz qilishdan boshlanadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan motor yoki boshqa qismlarning rolini chuqur tushunish uchun yolg‘iz analizning o‘zi kifoya qilmaydi. Chunki tarkibiy qismlarni birlashtirilgan holda bir-biriga ta’sir qilib turgan motor va mashinani butunligicha olib tekshirgandagina uning motor yoki mashini ekanligini anglash mumkin.

Sintez — shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, biz narsa va hodisalarning analizda bo‘lingan, ajratilgan ayrim qismlarini, bo‘laklarini sintez yordami bilan fikran yoki amaliy ravishda bir-lashtirib, butun holiga keltiramiz. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlari va bo‘laklarini bir butun qilib qo‘shish-dan iborat aqliy faoliyat ekanligi ta’rifdan ham ko‘rinib turib-di. Analiz

amaliy bo‘lgani kabi sintez ham amaliy xarakter kasb etadi. Masalan, motor yoki dvigatelning qismlarini, detallarini yig‘ishtirib o‘rni-o‘rniga joylashtirilganda, ya’ni sintez qilinganda motor yoki dvigatel hosil bo‘ladi. Avtomashinaning kuzovni, kabi-nasini, motor va hokazo qismlari sintez qilingan mahaldagina bir butun avtomashinani bunyod etish mumkin. Turli psixologik mavzu-larni o‘rganish orqali psixologiya fani to‘g‘risida yaxlit tushuncha paydo bo‘ladi. Kimyoviy elementni reaksiyaga kiritish yo‘li bilan-gina istalgan birikma hosil qilish imkoniyati tug‘iladi. Rassomlar ko‘z, qosh, burun va kishining boshqa organlarini mutanosib ravish-da chiziq orqali bir butun inson shaklini yasash, yaratish imkoniya-tiga ega bo‘ladilar va hokazo.

Birinchi sinf bolasi o‘z harf xaltasidagi kesilgan harflardan foydalanib bo‘g‘in, bo‘g‘inlardan so‘z, so‘zlardan gap, gaplardan qisqa informatsiya, undan esa hikoya tuzadi. Talabalar O‘zbekiston tarixi fanidan xalqimiz, davlatchiligimiz, madaniyatimiz, san’atimiz hamda bugungi kunimiz to‘g‘risida ma’lumot oladi.

Ish-harakatlarni yaxlitlash tufayli bir butun moddiy narsa hosil bo‘ladi, ish-harakatlarda ham sintez operatsiyasini qo‘llasa bo‘lar ekan. Tarixiy qahramonlar, buyuk sarkardalar, arboblar to‘g‘risida ham xuddi shunday fikr va mulohazapar yuritish mumkin.

Xalq orasida Afandi, Aldar ko‘sa, Rustambek, Alpomish, Zulqarnay, suv parisi, ajdarholar, jinlar, alvastilar, devlar, Semurg‘, oltin baliq va boshqa narsalar, ayrim tana organlarini, hayvon va inson tuzilishini, his va hayajonlarni, xarakter va irodani bir-lashtirib, yagona afsonaviy obrazlar yaratishga muvaffaq bo‘lingan.

Analiz va sintez o‘zaro bevosita mustahkam bog‘langan yagona ja-rayonning ikki tomonidir. Agar narsa va hodisalar analiz qilin-magan bo‘lsa, uni sintez qilib bo‘lmaydi, har qanday analiz pred-metlarni, narsalarni bir butun holda bilish asosida amalga oshi-rilishi lozim.

Talaba va o‘quvchilarni analiz va sintez qilishga o‘rgatishda fikr-larni muayyan ob’ektlarga yo‘naltirish asosiy rol o‘ynaydi. Bunda ular, albatta, qanday va qay yo‘sinda ish bajarilishlari kerakligi-ni bilib olishlari zarur. Masalan, o‘smirlarni ona tili darslari-da analiz va sintez faoliyatiga o‘rgatish uchun istalgan jumlani, chu-nonchi «It bo‘ynini burmasdan g‘alatiroq bukildi, och ko‘zlari bilan menga bir qarash qildi-da, dumini qisib o‘zini o‘rmonga urdi» gapi-ni mustaqil holda tahlil etish vazifasini qo‘yish (agar sinaluvchi-lar bu vazifani bajarishga qiynalsalar, eksperimentatorning o‘zi yordam berishi) mumkin. Ular predmet nomini anglatadigan so‘zlar-ni alohida ko‘chirib yozishlari va so‘zlarning qanday so‘roqqa javob bo‘lishini aniqlashlari, ot va so‘z turkumlariga ta’rif berishlari, shu so‘z turkumiga xos belgilarni (predmetni bildirib, kim va nima so‘roqlarga javob bo‘lishini) alohida ifodalashlari kerak.

Mazkur vazifani o‘quvchilardan biri qanday bajarganligini ko‘zdan kechiraylik: «Gapda predmetni bildirgan so‘zlar mavjud. Ma-salan, it, bo‘ynini, ko‘zlari, dumini. Bular nima so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Ana shu so‘roqlarga javob bo‘lib, predmetlarning nomini bildirgan so‘zlar ot deb ataladi. Otning eng muhim, boshqa so‘zlar-dan ajratib turuvchi belgisi bu predmetni bildirishi va savolla-ridir. Predmetni anglatuvchi so‘zlar turli xil qo‘shimchalar bilan kelishi mumkin».

Sinaluvchi o‘smir o‘quvchilarning ana shu muloha-zalari asosida shuni aytishi mumkinki, analiz va sintez operasi-yasi quyidagicha aqliy faoliyat tizimidan, tarkibiy qismlardan iborat; a) berilgan topshiriqni diqqat bilan o‘qish; b) matndagi so‘zlarni fikran parchalash; v) o‘xshash so‘zlarni ajratish, ya’ni may-da bo‘laklarga bo‘lish; g) o‘xshash so‘zlarni yaxlit holda keltirish; d) matndagi so‘zlarni fikran yig‘ish; j) gapning strukturasini tik-lash va boshqalar.

Talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatida, jumladan, kon-spekttuzish, referattayyorlash, seminarga hozirlik ko‘rish, kurs ishi va malakaviy bitiruv ishi yozish kabi aqliy faoliyatningturli shakl-larida analiz, sintez operatsiyalaridan foydalanadilar.

Taqqoslash insonning ijtimoiy faoliyatida, bilimlarning o‘zlashtirilishida, voqelikni to‘laroq aks ettirishida bir-biriga o‘xshash jihatlar tafovutini, shuningdek, bir-biridan farq qiladi-gan tomonlar o‘rtasidagi o‘xshashlikni topishdan iborat fikr yuri-tish operatsiyasi katta ahamiyatga ega. Taqqoslash — shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya vositasi bilan ob’ektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o‘xshashligi va bir-bi-ridan farqi aniqlanadi.

XIX—XX asrlarda yashagan allomalardan biri taqqoslashning psi-xologik mexanizmi to‘g‘risida juda ilg‘or fikrlarni ilgari surib, quyidagi mulohazalarni bildiradi: «Agar siztabiatningbiror nar-sasini ravshan tushunib olishni istasangiz, uning o‘ziga juda o‘xshash bo‘lgan narsalardan tafovutini topingiz va uning o‘zidan juda uzoq bo‘lgan narsalar bilan o‘xshashlik topingiz. Ana shunda siz shu narsa-ning eng muhim, hamma belgilarini payqab olasiz, demak, shu narsa-ni tushunib olasiz».

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, inson, ko‘pincha, jamiyat formatsiya-larini o‘rganish davrida, ularning avvalgi mohiyatini keyingi formatsiyani o‘rganish paytida yanada chuqurroq va puxtaroq egallab oladi.

Mazkur jarayon to‘g‘risida fikr yuritilganda, so‘zning negizini o‘zlashtirishda o‘zakning muhim belgilarini (xossalarini) to‘laroq tushunib olish kabi ko‘pgina aqliy harakatlarni keltirib o‘tish maq-sadga muvofiqdir.

Bilish ob’ekti hisoblangan narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshash-likni yoki farqni, tenglik yoki tengsizliklarni, ayniyat yoki ziddi-yatlarni aniklashdan iborat bo‘lgan fikr yuritish operatsiyasi bi-lishning dastlabki va zarur vositasi bo‘lib hisoblanadi. Ajdodla-rimiz taqqoslashning ta’limdagi roli to‘g‘risida shunday fikrlar-ni bildirgan edi: Taqqoslash har qanday tushunishning va har qan-day tafakkurning asosidir. Olamdagi narsalarning hammasini taq-qoslab ko‘rish yo‘li bilan bila olmasak, boshqa yo‘l bilan bila ol-maymiz, agar biz hech narsa bilan solishtirishimiz va farqini bi-lib olishimiz mumkin bo‘lmagan biron bir narsaga duch kelganimiz-da edi, u holda biz shu narsa to‘g‘risida hech qanday fikr hosil qila olmagan bo‘lar edik.

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, taqqoslash, fikr yuritish operatsiyasi sezgilarimizda va idroklarimizda hali gavdalanmagan o‘xshashlik va tafovutni topish zaruriyati vujudga kelgan paytda namoyon bo‘ladi. Psixologiyada

yana shu narsa ma’lumki, sezgi va idrokimizda dastavval narsalarning va hodisalarning o‘xshash va farklanuvchi tomoni ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Taqqoslash operatsiyasi ikki xil yo‘l bilan amalga oshishi mum-kin: amaliy (konkret narsalarni bevosita solishtirish) va nazariy (tasavvur qilinayotgan obrazlarni va narsalarni ongda fikran taq-qoslash). Agar inson ikki boylam yukni qo‘l bilan ko‘tarib, bir necha xil taom mazasini qiyoslasa, ikki paykal paxtazor hosildorligini taqqoslasa bu amaliy taqqoslash bo‘ladi. Shuningdek, o‘quvchilar ikki qalam yoki sterjenni, chizg‘ichni yog‘ochga yoki qog‘ozga solishtirsalar, u analogik holatdagi misol bo‘la oladi. Bundan tashqari, metr bilan masofani (gazlamani), tarozi bilan og‘irlikni termometr bilan haro-ratni, teleskop bilan osmon jismlarini o‘lchash paytida ham taq-qoslash jarayoni vujudga keladi.

Inson tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning barchasini bevosita aks ettirish, qo‘l bilan paypaslash imkoniyatiga ega emas. Shu boisdan to‘planadigan bilimlarning aksariyati qo‘l bilan ushlash, ko‘z bilan kuzatish evaziga emas, balki fikr yuritish orqali, mantiq yordamida anglashiladi. Ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli alomat hamda belgilar nazariy taqqoslash asosida ajratiladi. Demak, inson olayotgan keng ko‘lamdagi informatsiyalar farqini fikran taq-qoslash yordamida anglab yetadi. Jumladan, o‘quvchilar dilda o‘ylayot-gan narsalarni fikran solishtirib ko‘radilar. Ba’zan turli yoshdagi kishilar o‘z tengdoshlari xarakterida, qiziqishida, yurish-turishi-da, muomalasida va boshqa xususiyatlarida o‘xshashlik va tafovut bor-ligini topadilar.

Kishilar narsa va hodisalarni biron belgiga (alomatga) asosla-nib taqqoslashda qiyinchiliklarga uchraydilar. Shuning uchun beri-. layotgan informatsiyalar mohiyatiga diqqat-e’tibor qilish shart. Ki-shilar uchun taqqoslash prinsipi tushunarli va aniq bo‘lsa, mavjud qiyinchiliklarni bartaraf qilish imkoniyati tug‘iladi. Inson ol-diga aniq maqsad qo‘yilsa, yoinki o‘rganilayotgan ob’ekt mohiyatiga kirib borish uchun ustanovka berilsa, fikran taqqoslashda xatolar miqdori keskin kamayadi.

Shaxsiy kuzatishlarimizning ko‘rsatishiga qaraganda, taqqoslash operatsiyasida katta yoshdagi kishilarda va o‘quvchilarda uchraydigan asosiy kamchilik bu jarayonni noto‘g‘ri tasavvur qilish yoki xato tu-shunishdir, ya’ni taqqoslash deganda ikki va undan ortiq narsalarni yonma-yon qo‘yishlik deb faraz qilishlikdir. Inson shaxsiy faoliyatida, ta’lim jarayonida taqqoslash ustida qanchalik ko‘p mashq qilsa, taqqoslash ko‘nikmasi paydo bo‘lsa, unda fikr yuritish shunchalik samarali bo‘ladi.

Abstraksiya. Narsa va hodisalarning, qonun va qonuniyatlar-ning ayrim belgisi, sifati, alomati yoki xususiyatlarini fikran ulardan ayirib olib, mustaqil fikr ob’ektiga aylantirishdan ibo-rat fikr yuritish operatsiyasi inson bilish faoliyatida muhim ahami-yatga ega. Masalan, bilish jarayonida tabiat, jamiyat va ayrim inson-larga xos bo‘lgan «go‘zallik» belgisini ayirib olib, ularning go‘zal-ligi to‘g‘risida emas, balki umuman go‘zallik, ya’ni estetik kategoriya mazmunidagi tushuncha yuzasidan mulohaza bildiriladi.

Abstraksiyalash shunday fikr tafakkur operatsiyasidirki, bu ope-ratsiya yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini

farklab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodi-salarning muhim bo‘lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fik-ran ajratib tashlaymiz.

Abstraksiya jarayonida ob’ektdan ajratib olingan belgi (alomat)-ning o‘zi tafakkurning mustaqil ob’ekti bo‘lib qoladi. Abstraksiya operatsiyasi analiz natijasida vujudga keladi. Masalan, sinf devo-rini analiz qilish jarayonida uning faqat bir belgisini, ya’ni oqligini ajratib olish mumkin va oq devor to‘g‘risida emas, balki devorning okdigi to‘g‘risida, keyin esa umuman oqlik haqida fikr yuritish mumkin. Kishilar quyosh, oy, yulduz, elektr, olov, ba’zi pla-netalar, ayrim tosh va hokazolarning ko‘z o‘nglarida yoritishini ku-zata turib, ularning bitta umumiy belgisini, ya’ni yoritishini fik-ran ajratib olib, umuman yoritish to‘g‘risida mulohaza yuritishlari ayni haqiqatdir. Turli geometrik shakllarni - uchburchak, to‘rtbur-chak, kesik konus, kesik piramida, parallelofamm, ko‘pburchak, pa-rallelepiped va hokazolarni kuzata turib, ular uchun umumiy bo‘lgan belgini, ya’ni burchakni fikran ajratishlari, so‘ngra umuman burchak tushunchasi to‘g‘risida fikr yuritish mumkin.

Fan va texnika revolyusiyasi avj olingan hozirgi davrda kishi-larga uzatilayotgan informatsiyalarning ma’lum qismi abstrakt holatda inson ma’naviy mulkiga aylanmoqda. Mazkur bilimlarni hissiy bilish apparati yordami bilan o‘zlashtirish imkoniyati insonda yo‘q, shuning uchun ularni abstrakt yo‘l bilan o‘zlashtirib olish talab qilinadi. Lekin abstraksiya holatidagi informatsiyalar insoniyat tomo-nidan qiyinchilik bilan o‘zlashtiriladi. Yaqqol ko‘rgazmalikka asos-lanmagan bilimlar qiyinchilik bilan qabul qilinadi. Shunga qara-masdan, abstrakt holatidagi bilimlar ko‘lami kundan-kun ortib bormoqda. Chunki yangi kashfietlar, ixtirolar zamiridan kelib chiquvchi qonuniyatlar, ichki murakkab bog‘lanishlarning barchasi abstrakt ter-minlarda o‘z ifodasini topadi. Shu boisdan kishilarni mazkur ja-rayonga tayyorlab borish, o‘ng‘aysiz shart-sharoitga moslashtirish, ko‘niktirish mutlaqo shart.

Ta’lim tizimidagi bilimlarning aksariyati bilishning rasio-nal yo‘di bilan egallashga qaratilgan bo‘lib, abstraksiyadan keng ko‘lamda foydalanishni taqozo etadi. Shuning uchun o‘quvchilarni ab-straksiyani amalga oshirish yo‘l va usullari bilan tanishtirish ke-rak.

Yuqorida aytganlarimizdan tashqari, abstraksiyalash jarayoni yorda-mida qiymat, son, kenglik, tenglik, uzunlik, kattalik, qattiqlik, zichlik, balandlik, geometrik shakl, matematik ibora, tanqidiy re-alizm, bosim, solishtirma og‘irlik, geografik tushunchalar tizimi kabi abstrakt tushunchalar vujudga keltiradi.

Buyumlarni, narsa va hodisalarni, jism va predmetlarni bir-biri bilan taqqoslash paytida ham abstraksiyalash jarayoni yuzaga keladi. Bunda narsa va hodisalarning, voqelikning mavjud belgila-riga (masalan, tusiga, shakliga, tezligiga, og‘irligiga, qiymatiga va shu kabi o‘xshash sifatlariga) qarab taqqoslanadi.

Abstraksiya operatsiyasi bilan insonni qurollantirish intel-lektual jihatdan intensiv rivojlanishga olib keladi, shuningdek, mustaqil bilim olish faoliyatini takomillashtiradi.

Umumlashtirish. Psixologiyada umumlashtirish muammosi bo‘yi-cha yagona* "yunalishdagi nazariya yo‘q. Shuning uchun psixologlar bu jarayonni turlicha talqin qiladilar, goho uni guruhlarga bo‘lib o‘rga-nadilar. Shuningdek, maktab ta’limini qaysi umumlashtirish usuli asosida amalga oshirish to‘g‘risida olimlar turlicha fikrdadirlar. Ba’zi psixologlar ta’limda nazariy jihatdan umumlashtirish usu-lini qo‘llab chiqsalar (S. L. Rubinshteyn, V. V. Davidov va boshqa-lar), ayrimlari ham nazariy, ham amaliy usulni qo‘llashni tavsiya etmoqdalar (N. A. Menchinskaya, D. N. Bogoyavlenskiy). Ammo o‘quv faoliyatining turli-tumanligi, bizningcha, dars jarayonida har xil umumlashtirish usullaridan foydalanish kerakligini taqozo qiladi.

Psixologiyada umumlashtirishning keng qo‘llaniladigan ikki turi: tushunchali umumlashtirish va hissiy-konkret umumlashtirish yuza-sidan ko‘proq fikr yuritiladi. Tushunchali umumlashtirishda pred-metlar ob’ektiv muhim belgi asosida umumlashtiriladi. Hissiy-konkret umumlashtirishda esa predmetlar topshiriq talabiga bino an tashqi belgi bilan umumlashtiriladi. Ayrim psixologlar noto‘g‘-ri umulashtirishning (N. A. Menchinskaya, Ye. N. Kabanova-Meller) hissiy-konkret umumlashtirishdan tafovuti borligini hamisha ta’-kidlab kelmokdalar. O‘quvchi va talaba ba’zan predmetlarni muhim bo‘lmagan belgisiga asoslanib noto‘g‘ri umumlashtiradilar, vaholan-ki topshiriq shartida bu talab ular oldiga mutlaqo qo‘yilmaydi. Lekin bu nazariyaning himoyachilari noto‘g‘ri umumlashtirishni alohida tur deb hisoblamaydilar.

Umumlashtirish deganda psixologiyada narsa va hodisalardagi xossa, belgi, xususiyat, alomatlarni topish va shu umumiylik asosida ular-ni birlashtirish tushuniladi.

Masalan, temir, po‘lat, latun, oltin va boshqalarda mavjud bo‘lgan o‘xshashlik va umumiy belgilarni yagona tushuncha ostida to‘plab, uni «metall» degan ibora bilan nomlashimiz mumkin. Shuningdek, qish, bahor, yoz va kuz «fasl» degan tushuncha orqali ifodalanadi. Inson-ning yosh davrlari xususiyatidagi umumiy belgilar hisobga olinib, «o‘smir», «o‘spirin», «yetuk kishi», «keksa» singari terminlar ishla-tiladi.

Umumlashtirish abstraksiyalash operatsiyasidan ajralgan holda sodir bo‘lmaydi, har qanday umumlashtirish asosida abstraksiyalash jarayoni yotadi. Umumlashtirish jarayoni abstraksiyasiz mavjud bo‘li-shi mumkin, lekin abstraksiyasiz umumlashtirishning yuzaga kelishi mumkin emas. Agar abstraksiyalash faoliyatida narsa va hodisalar-ning o‘xshash hamda muhim belgilari tasodif belgilaridan fikran ajratib olinsa, umumlashtirishda esa ajratib olingan o‘xshash, umumiy va muhim belgilarga suyangan holda narsa va hodisalar birlash-tiriladi.

Boshqa fikr yuritish operatsiyalari kabi umumlashtirish ham so‘z, nutq yordamida ro‘yobga chiqadi. Jumladan, daraxt degan so‘z qo‘llanila-di, deb faraz qilaylik, unda biz turli daraxtlarga bevosita aloqada bo‘lgan iborani aks ettirgan bo‘lamiz. Yoinki talaba degan terminni ishlatish bilan turli kurs, har xil fakultet va barcha oliy maktab-da tahsil slayotgan yoshlarni birlashtiramiz va hokazo.

Umumlashtirish jarayoni so‘z ta’sirida vujudga kelgan ikkinchi signallar tizimiga asoslanadi. Akademik I. P. Pavlov fikricha, nutqsignallari tufayli nerv faoliyatining yangi prinsipi - abst-raksiyalash va bu bilan birga, oldingi tizimning behisob signalla-rini umumlashtirish vujudga keladiki, bunda ham o‘z navbatida ana shu umumlashtirilgan yangi signallar tag‘in analiz va sintez qilina-veradi.

Fikr yuritishning umumlashtirish operatsiyasi har xil asoslarga ko‘ra turlarga bo‘lib o‘rganiladi.

Umumlashtirishni mazmuniga ko‘ra tushunchali umumlashtirish va yaqqol-ko‘rgazmali yoki elementar umumlashtirish turiga ajratish qabul qilingan. Tushunchali umumlashtirish orqali ob’ektiv qonuniyatlarni muhim belgilari bo‘yicha birlashtirish amalga oshiriladi. Bunda muhim belgilar umumlashtirilib, ob’ektiv qonuniyatlarni ochish mumkin bo‘ladi. Yaqqol-ko‘rgazmali umumlashtirishda narsa va hodi-syalar tashqi hamda yaqqol belgilari bo‘yicha umumlashtiriladi.

Konkretlashtirish. Umumiy, mavhum belgi va xususiyatlarni yakka, yolg‘iz ob’ektlarga tatbiq qilish bilan ifodalanadigan fikr yuritish operatsiyasi insonning barcha faoliyatlarida aktiv ishtirok etadi. Voqelik qanchalik konkret (yaqqol) shaklda ifodalansa, inson uni shunchalik oson anglab yetadi. O‘zining genetik kelib chiqishiga qaraganda, kishilar dastavval tevarak-atrofni konkret belgilariga asoslanib, konkret holda aks ettirganlar, yaqqol obrazlarga suyanib, tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo‘lganlar. Shu boisdan to hozirgi kunga qadar konkretlik belgisi har qanday inson zoti uchun eng yaqin belgi bo‘lib hisoblanadi. Chunki konkret voqelik kishini akliy zo‘r berishlikdan, irodaviy tanglikdan va stress holatdan forig‘ qiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, odam eng murakkab qonun hamda tu-shunchalarni konkretlik darajasiga aylantirishga harakat qiladi. Masalan, inson «qiymat» tushunchasini konkretlashtirib «odamning qadr-qimmati», «tovarning qiymati» shaklida konkretlashtiradi va hokazo.

Psixologiya fanida mazkur fikr yuritish operatsiyasiga quydagi-cha ta’rif beriladi: Konkretlashtirish hodisalarni ichki bog‘lanish va munosabatlardan qat’i nazar, bir tomonlama ta’kidlashdan ibo-rat fikr yuritish operatsiyasidir.

Psixologlar tadqiqotlarining ko‘rsatishiga qaraganda, konkret-lashtirish, odatda, ikki xil vazifani (funksiyani) bajaradi. Dast-labki funksiyasiga taallukli ko‘pgina misollarni keltirish bilan uning psixologik mexanizmini ko‘rsatishiga harakat qilamiz. Ma-salan, o‘quvchilar «qora» degan so‘zni ishlatgan paytlaridan ko‘z oldi-da bitum, chaqich, asfalt kabi qora rangdagi narsalar va hayvonlar-ni gavdalantirishlari mumkin. Shuningdek, ular «harakat» degan iborani ishlatsalar, odamni, mashinani, hayzonlarni suv va samo-lyot kabilarni tasavvur qila oladilar. Keyinchalik esa harakat tu-shunchasining ko‘lami kengayib boradi, biologik, ijtimoiy va hoka-zo harakatlarni nazarda tutadi.

Konkretlashtirishning ikkinchi funksiyasi quyidagi misollar-dao‘ziningyorqin ifodasini topadi. Masalan, kishilar ketmon, bel-kurak, panshaxani dehqonchilik asboblariga; igna, bigiz, angishvona va tikuv mashinasini tikuv asboblariga; lola, atirgul, binafsha, buldanejni gulga; daftar, ruchka, chizg‘ichni o‘quv qurollariga kiri-tadilar. Demak, bu misollarda konkretlashtirish operatsiyasi umumiy va yakka

belgilari kam bo‘lgan umumiylikni ochishda namoyon bo‘la-di. Umuman konkretlashtirish abstraksiyalashni kontrast holati bo‘lib, inson bilish faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Klassifikatsiyalash. Insonning bilish faoliyatida muhim rol o‘ynovchi fikr yuritish operatsiyalaridan biri klassifikatsiya-lash hisoblanadi. Bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o‘xshashligiga va boshqa turkumdagi narsalardan farqqilishiga qarab, narsalarni turkumlarga ajratish tizimi klassifikatsiya deb atala-di. Fan olamida buyuk hissa bo‘lib qo‘shilgan D. I. Mendeleyevning «Elementlarning davriy tizimi» jadvali klassifikatsiya uchun yorqin misoldir. Bunda olim elementlarni atom og‘irligi ortib borishiga, kimyoviy sifatlarining bir tipligiga va boshqa belgi va alomatla-riga qarab tartib bilan joylashtirib chiqqan.

Fanda narsa va hodisalarningtabiatini ifodalovchi muayyan belgi (alomat) asosida qilingan jarayon klassifikatsiya deb atash qabul qilingan. Tabiiy klassifikatsiyaga zoologiya fanidagi hayvonlar klassifikatsiyasi (sudralib yuruvchilar, sut emizuvchilar, suvda va quruklikda yashovchilar, parrandalar, qushlar va hokazo), botanikada-gi o‘simliklar klassifikatsiyasi (bir yillik, ko‘p yillik, butalar, daraxtlar, o‘tlar, ildizdan ko‘payuvchilar, igna barglilar, tikanli o‘simliklar, dukkaklilar, poliz o‘simliklari va boshqalar) kabi qator misollarni keltirib o‘tish mumkin. Mabodo klassifikatsiyaga asos qilib olingan belgi narsa va hodisalarning tabiatini ifodalama-sa, bunday klassifikatsiya sun’iy klassifikatsiya deb ataladi. Ij-timoiy hayotimizda klassifikatsiyaning mazkur turi doimo qo‘llanib turadi. Masalan, kutubxonadagi kitoblar mazmuniga, shakliga, noyob-ligi va shunga o‘xshash belgilarga qarab tokchalar va peshtoqchalarga teriladi. O‘quvchilarning alifbe tartibi bilan tuzilgan ro‘yxati yoki xususiyatlari, jinsiy belgilari, ulgurishlari va qiziqishlarini nazarda tutib turkumlarga ajratish ham sun’iy klassifikatsiyalash-ga misol bo‘la oladi.

Lekin ijtimoiy turmushda va fan olamida oddiy klassifikasi-yalash holatidan tez-tez foydalaniladi. Jumladan, adabiyot, tarix, geografiya, psixologiya — gumanitar fanlari: falsafa, iqtisod, huquq, pedagogika, tarix - ijtimoiy fanlar: matematika, fizika, biolo-giya, kimyo-tabiiy-matematik siklдagi fanlar. Xuddi shuningdek, asosga suyanib psixologiya sohalari ham klassifikatsiya qilinadi. Injenerlik, aviatsiya, kosmos psixologiyasi — mehnat psixologiya-si, patopsixologiya, oligofrenopsixologiya, surdopsixologiya, tif-lopsixologiya — maxsus psixologiya; bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar, katta yoshdagilar psixologiyasi, gerantopsixologiya — yosh davrlari psi-xologiyasi; sud ishi psixologiyasi, kriminal psixologiya, peniten-siar psixologiyasi — yuridik psixologiya va boshqalar. Psixologiya fanida psixik holatlar, bilish jarayonlari, shaxsning individual tipologik xususiyatlari ham klassifikatsiya qilinadi. Aks ettirish xarakteriga va reseptorlarning o‘rniga qarab, sezgilar uch guruhga bo‘linadi: eksterotseptiv sezgilar, interotseptiv sezgilar, proprio-septiv sezgilar. Klassik bo‘linishga binoan sezgilar quyidagicha klas-sifikatsiya qilinadi: ko‘rish, eshitish, taktil, maza, hid, organik harakat va hokazo.

Maktab ta’lim tizimida murakkab bilimlar qulayroq yo‘l bilaN o‘zlashtirish uchun klassifikatsiya operatsiyasidan keng ko‘lamda foy-dalaniladi. Masalan, ot, sifat, fe’l, son — so‘z turkumlari; ibti-doiy jamoa, quldorchilik, feodalizm, kapitalizm, sotsializm ki-shilik formatsiyalari; proza, poeziya, drama, komediya, tragediya -adabiy janrlar; briz, musson, passat — shamollar va boshqalar.

Shunday qilib, klassifikatsiya biz tekshiradigan ob’ektlarninG muayyan tartibni topishda, o‘rganishimizda zarur bo‘lgan narsa va hodi-salarni yaxlit holda tekshirishimizda, o‘zlashtirmoqchi bo‘lgan mate-riallarni puxta esda qoldirishimizda muhim rol o‘ynaydi.

Sistemalashtirish. Fikr ob’ektiv hisoblangan narsa va hodi-salarni zamon (vaqt), makon (fazo) va mantiqiy jihatdan ma’luM tartibda joylashtirishdan iborat fikr yuritish operatsiyasi bilim-larni o‘zlashtirishda, ko‘nikma va malakalarni tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Odatda, sistemalashtirish operatsiyasi yordami-da narsa va hodisalar, faktlar, fikrlar va ob’ektlar makondagi, vaqtdagi egallagan o‘rniga qarab yoki mantiqiy joylashtiriladi.

Shuning uchun tizimga solish makoniy (fazoviy) xronologik bel-gi va mantiqiy belgisiga asosan uch turga ajratiladi. Ko‘chatlarninG boqqa olib chiqib o‘tqazilishi, sinf xonasidagi mebellarning bir tekis joylashtirilishi makoniy (fazoviy) tizim uchun misol bo‘lz oladi. Tarixiy voqealarni xronologik tartibda joylashtirilishi, kutubxonadagi kitoblarning xronologik jihatdan terib qo‘yilishI voqealarni zamonga (vaqtga) qarab tizimga solishning namunasi deb atash mumkin. Matematika, falsafa, psixologiya va mantiqqa (logi-kaga) doir asarlarda ilmiy maqolalarning (ya’ni punkt, paragraf nazarda tutilmoqda) joylashuvi mantiqiy tizimga solishning na-munasidir.

Maktab ta’limida o‘zlashtirilgan bilimlarni tizimga solish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu ish bir necha bosqichda amalga oshiri-ladi. Bilimlar dastlab predmetning boblari, qismlari bo‘yicha, so‘nG yaxlit holda o‘quvchi ongida tizimlashadi. Tizimlashtirishning ik-kinchi bosqichida bir-birga o‘xshash predmetlarga oid bilimlar fik-ran tartibga solinadi. Uchinchi bosqichda bir necha predmetlar yuzasidan to‘plangan bilimlar ma’lum tartibga tushadi, ularning o‘xshash va farqli tomonlari ajratiladi. Tizimga solishnikgto‘rtinchi bos-qichida darsdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda egallangan bi-limlarni tizimlashtirish nazarda tutiladi.

O‘qituvchi darsda o‘quvchilardan o‘tilgan mavzularni so‘rash, ularning to‘garak ishlarida, olimpiada va tanlovlarda qatnashuvini ku-zatish, devoriy gazetga yozgan maqolalarini tahrir qilish, ijodiy va yozma ishlarni tekshirish orqali ulardagi bilimlarning qanday tizimlashayotganini aniqlab berish mumkin.

Demak, insonning bilish faoliyatida «mavzulararo», «predmetlar-aro» bilimlarni tizimlashtirish yuzaga keladi. Binobarin, bilim-larning tizimga solinishi akdiy rivojlanishning dastlabki pog‘o-nasi xisoblanadi.

Tafakkur sifatlari

Tafakkur boshqa bilish jarayonlari kabi o‘zining individual xu-susiyatlariga ega bo‘lib, fikr yuritish faoliyatining shakllari, vo-sitalari va operatsiyalarining

munosabatlari kishilarda turlicha namoyon bo‘lishida o‘z ifodasini topadi. Odatda, tafakkurning indi-vidual xususiyatlariga (sifatlariga) bilish faoliyatining mazmun-dorlik, mustaqillik, epchillik, samaradorlik, fikrning kengligi, tezligi, chuqurligi va boshqa sifatlari kiritiladi.

Tafakkur mazmundorligi deganda insonning tevarak-atrofdagi moddiy voqelik to‘g‘risida ongida qay miqdorda (ko‘lamda) mulohaza-lar, muhokamalar, fikrlar, muammolar, tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi. Insonda sanab o‘tilgan xarakterdagi g‘oyalar to‘lib toshsa, shunchalik tafakkur mazmundor bo‘ladi. Kishilar bir-birla-ridan birinchi navbatda tafakkurning mazmundorligi bilan tafo-vutlanadilar.

Tafakkurning chuqurligi deganimizda, moddiy dunyodagi narsa-hodisalarning asosiy qonunlari, qonuniyatlari, xossalari, sifat-lari, ularning o‘zaro bog‘lanishlari, munosabatlari tafakkurimizda to‘liq aks etganligini tushunishimiz kerak. Tafakkur arsenalida joylashgan narsalarning qay yo‘sinda sistemalashganligiga qarab (to‘g‘ri va rasional yo‘l nazarda tutiladi), u yoki bu shaxsning tafak-kuri chuqurligi to‘g‘risida qat’iy bir qarorga kelish mumkin.

Tafakkurning kengligi o‘zining mazmundorligi, chuqurligi kabi sifatlari bilan muntazam aloqada bo‘ladi. Insondagi narsa va hodi-salarning eng muhim belgi va xususiyatlarini o‘zida mujassamlash-tirgan, o‘tmish yuzasidan, hozirgi davr haqida, shuningdek, kelajak to‘g‘risidagi mulohazalar, muammolar va tushunchalarni qamrab olgan tafakkur keng tafakkur deyiladi. Fikr doirasi keng, bilim saviya-si yuqori, serg‘oya, ijodiy izlanishdagi kishilarni akl-zakovatli, bilimdon yoki tafakkuri keng kishilar deb atash mumkin. Demak, insonning akl-zakovati, bilimdonligi, mulohazadorligi uning tafakkuri kengligidan dalolat berar ekan.

Inson tafakkuri o‘zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. Tafakkurning mustaqilligi de-ganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o‘z oldiga konkret maqsad, yangi vazifalar qo‘ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarak-terdagi faraz (gipoteza) qilishi, natijani ko‘z oldiga keltira oli-shi, qo‘yilgan vazifani hech kimning ko‘magisiz, ko‘rsatmasisiz, o‘zi-ning akliy izlanishi tufayli turli yo‘l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak.

Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiq-ligi va tanqiydiligidan namoyon bo‘ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda, insonning o‘z oldida yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo‘yishini, ana shularning barchasini amalga oshirishda, nihoyasiga yetkazishda, yechimni qidirishda usul va vositalarni shax-san o‘zi izlashi, aqliy zo‘r berib intilishi, ularga taalluqli qo‘shimcha belgi va alomatlarni kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon bo‘lishini nazarda tutamiz. Aqlning pishiqligi vazifalarni tez yechishda, yechish paytida yangi usul va vositalarni tez izlab topishda, ularni saralashda, ana shu usullar va vositalarni o‘z o‘rnida aniq qo‘llashda, trafaretga aylangan, eski yo‘l hamda usullardan forig‘ bo‘lishda va boshqa jarayonlarda ifodalanadi.

O‘zining va o‘zgalarning mulohazalarini, bu mulohazalarning chin yoki chin emasligini tekshira bilishda va namoyon bo‘lgan mulohaza-larga, muhokamalarga,

muammoli vaziyatga baho bera bilishda aql-ning tanqidiyligi muhim rol o‘ynaydi. Tafakkurning tanqidiy-ligi ob’ektiv va sub’ektiv ravishda ifodalanishi mumkin. Mazkur sifat insonni baholash o‘z-o‘zini baholash kabi tafakkurning indi-vidual xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. Agar tan-qidiylik oqilona, muhim belgilarga, muammo mohiyatining to‘g‘ri ochilishiga (ba’zan etalonga) asoslanib amalga oshsa, unday tanqi-diylik ob’ektiv tanqidiylik deb ataladi. Mabodo tafakkurning tanqidiyligi sub’ektiv xatolarga, umuman sub’ektivizmga og‘ib ket-sa, bunday holda sub’ektiv tanqiydilik deyiladi. Sub’ektiv tanqi-diylik salbiy oqibatga olib keladi, shuningdek, insonlar o‘rtasida «anglashilmovchilik g‘ovi»ni vujudga keltiradi, ikki shaxs o‘rtasida kutilmaganda ziddiyat paydo bo‘ladi. Insonda tafakkurning tanqi-diyligi oqilona, rasional tarzda vujudga kelsa, unda shaxs muhim sifat bilan boyiydi, deb aytish mumkin.

Maqsad, muammo va vazifalar o‘zga shaxslar tomonidan qo‘yilib, tayyor usul va vositalarga tayangan holda o‘zga kishilarning bevosita yordami bilan amalga oshirilishi jarayonida bir oz ishtirok etgan tafakkur nomustaqil tafakkur deb ataladi. Nomustaqil tafakkurli kishilar «tayyor mahsulotlar quli»ga aylanadilar, o‘sishdan orqada qolish xavfi tug‘iladi. Natijada, aql-zakovatli inson bo‘lish o‘rni-ga kaltabin, aqlan erinchoq, bexafsala odam bo‘lib voyaga yetadi. De-mak, tafakkurning nomustaqillik illati jahon progressiga to‘siq bo‘lib, yakka shaxs uchun esa fojia rolini bajarishi ehtimoldan xoli emas.

Fikrning mustaqilligi uning mahsuldorligi (samaradorligi) bilan uzviy bog‘langan. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma’lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g‘oyalar, tavsiyanomalar yaratilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo‘lsa, bunday kishining tafakkuri sermahsul tafakkur deb ataladi. De-mak, vakt oralig‘ida bajarilgan ish ko‘lami va sifatiga oqilona baho berish tafakkur mahsuldorligini o‘lchash mezoni sifatida xizmat qiladi.

Tafakkurning ixchamligi deganda, muammoni hal qilishning dast-lab tuzilgan rejasi (plani) mazkur jarayonda masala yechish shartini qanoatlantirmay qolsa, nomutanosiblik hosil bo‘lsa, hech ikkilan-may elastik ravishda o‘zgartishlar kiritishdan iborat fikr yuritish faoliyatini tasavvur qilmog‘imiz shart. Fikrning operativ jihat-dan, tezkorlik bilan o‘zgartishdan va to‘g‘ri yo‘nalishiga yo‘llab yubo-rishdan iborat tafakkur sifati uning ixchamligi deyiladi. Masa-lan, «Talaba sinovda avval g‘oyani noto‘g‘ri yoritayotib, o‘z-o‘ziga «bir-daniga» xatosini anglab, to‘g‘ri javob bera boshlashi» kabilar. De-mak, tafakkurning mazkur sifati fikrlarni, informatsiyalarni tinglovchilarga xato va kamchiliksiz yetkazib berish garovidir.

Tafakkurning tezligi qo‘yilgan savolga va muammoga to‘liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator faktorlarga: jumladan, fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog‘lanishlarning tezligi, turli hislarning mavjudligi-ga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog‘liqbo‘ladi. Bundan tashqa-ri, tafakkurning tezligi boshqa shartlarga: insonning bilim savi-yasiga, fikrlash qobiliyatiga, mavjud ko‘nikma va malakalariga ham bog‘liq ekanligi isbotlangan. Xulosa qilib aytganda, tafakkur ja-rayonlarining tezligi va jarayonlarning ma’lum fursat ichida qan-chalik samara berganligi bilan baholanadi.

Fikrlarning tezligi talabalar va o‘quvchilarga juda zarur psixo-logik qurol bo‘lib xizmat qiladi. Sessiya paytida, seminar mash-g‘ulotlarida faol ishtirok qilgan talaba hayajonlanib, egallagan bi-limlarini vaqtincha unutib, o‘zini yo‘qotib qo‘yadi. O‘rinsiz, salbiy emotsiyalar (his-tuyg‘ular) uning tafakkurini tormozlab, muvaffa-qiyatsizlikka olib keladi, ya’ni fikrni bayon qilishda inertlik paydo bo‘lib, keyinchalik butunlay tormozlanishga aylanadi. Ba’zi talabalar, aksincha, sessiyada hayajonlanib, fikrlari ravonlashadi. Qattiq hayajonlanish, qattiqtashqi ta’sir natijasida uyqudagi ayrim ney-ronlar uyg‘onib, funksiyasi jadallashib ketadi va fikr «birdani-ga» ravshanlanishi mumkin. Shuning uchun o‘qitish jarayonida talaba va o‘quvchilarning aqliy faoliyatini to‘g‘ri baholashda ularning in-dividual topologik xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvo-fiqdir.

Jahon psixologlarining ko‘rsatishiga qaraganda, yuqorida tah-lil qilib chiqilgan tafakkur sifatlari ularning asosiy xususiyati bilan uzviy bog‘liqdir. Tafakkurning asosiy va eng muhim belgisi, xususiyati — bu moddiy voqelikdagi muhim jihatlarini ajratib, mustaqil ravishda yangi mazmundagi umumlashmalarni keltirib chi-qarishdir. Inson oddiy narsalar to‘g‘risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisa mohiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush haqiqatidan umumiy qonuniyat yaratishga xarakat qiladi. Shubhasiz, inson tafakkuri hali izlanmagan, to‘la foydalanilmagan rezerv va imkoniyatlarga ega. Tafakkur psixologiyasining asosiy vazifasi ana shu rezervlarni to‘la ochish, fan va texnika progressini intensivlashdan iborat. Chunki har qanday kashfiyot, yangilik, progress inson akl-zakovatining mah-sulidir. Shu boisdan ham fan va texnika progressi insonshunoslik fanining rivojiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

5-Reja. Mustaqil fikrlash - sog‘lom ma’naviyatning mezoni sifatida. Tafakkurni rivojlantirish

Biz yuqorida tafakkurni individual xususiyatlari va ushbu jarayonga xos bo‘lgan umumiy qonuniyatlarni o‘rgandik. Lekin aslida maqsad shundayki, har bir shaxs o‘zidagi tafakkur va fikrlash jarayonlarining o‘ziga xos tomonini bilgan xolda uni o‘stirish yo‘llarini bilishi kerak. Oxirgi yillarda psixologlarning o‘tkazgan tadqiqotlari va kuzatishlari shuni ko‘rsatdiki, fikrlash jarayonlarini guruh sharoitida, dars paytida ham o‘stirish va bunga qisqa yo‘llar bilan erishish mumkin ekan. Ularning fikricha, guruhdagi hamkorlikdagi faoliyat idrok va xotiraning o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, fikrlash jarayonini tezlashtiradi va faoliyatni samaraliroq qiladi. Ayrim juda jiddiy va murakkab ijod daqiqalarini inobatga olmaganda, yaxshi tashkil etilgan dars jarayoni, undagi faoliyat shakli individual tafakkurning ham rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu narsa isbot qilinganki, jamoada ishlash ko‘plab nostandart fikrlarning tug‘ilishi, ularning ichidan eng yaxshilarining saralanishi va yangidan yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘larkan.

Ana shunday samara beruvchi metodikalardan biri «breynstorming» deb atalib, uning lug‘aviy ma’nosi «miyani zabt etish»dir («mozgovaya ataka» ruscha - «brain storming» ingl.). Uni o‘tkazish quyidagi tamoyillarga asoslangan: 1. Ba’zi intellektual masalalarni yechishda bitta yechim bilan cheklanib bo‘lmaydi va shu

maqsadda ijodiy fikrlovchilar guruhi tashkil etiladi va bu jarayonda «gruppaviy effekt» bo‘lishi kutiladi. Guruh ishi tez va optimal qarorlar qabul qilishga qaratilgan bo‘ladi va bunda alohida ayrim individual qarorlarga ta’sirlanishga yo‘l qo‘yilmaydi. 2. Guruhga shunday kimsalar kiritiladiki, ular bir-birlaridan fikrlash uslublarining noyobligi bilan farq qiladilar. Masalan, kimdadir mantiqiylik ustun, kimdir kreaktiv, kimdir tanqidchi va shunga o‘xshash. 3. Guruhda shunday ijodiylik ruhi bo‘lishi kerakki, har kim xoxlagan fikrini bemalol aytaveradi, u yoki bu fikr tanqid qilinishi mumkin, lekin uning egasi tanqid qilinmaydi. Bunday sharoitda o‘rtacha intellektual darajaga ega bo‘lgan shaxs ham shunday fikrlar izxor qila boshlaydiki, ular alohida qolgan paytida sira ham miyaga kelmagan bo‘lardi. Bu jarayon oliy o‘kuv yurtlarida darslarda ham qo‘llanilishi mumkin, faqat uning yuqoridagi tamoyillari inobatga olinishi va guruhda o‘zaro hamjihatlik muhiti bo‘lishi kerak.

Mavzu yuzasidan qisqacha xulosalar:

Ushbu mavzuda tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati, tafakkur turlari, shakllari va operatsiyalari batafsil bayon qilingan. Mustaqil fikrlash – talaba-yoshlarda atrof-borliq to‘g‘risida xolis va ob’ektiv tasavvurlarning shakllanishi uchun psixologik shart-sharoit ekanligi tahlil qilingan. Yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish va erkin fikrlashni tarbiyalash tamoyillari keltirilgan. Talabalarning o‘z ustida mustaqil fikrlashga yunaltiradi.

Mavzu yuzasidan tanch so‘zlar:

Tafakkur, insayt, konvergent va divergent tafakkur, mantiq, erkin fikrlash, nostandart fikr.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

Tafakkur psixologiyasi predmeti.

Tafakkur operatsiyalari haqida tushuncha.

Tafakkur shakllarining psixologik asoslari.

Tafakkur sifatlarining psixologik tavsifi.

Tafakkur turlari haqida mulohazalar.

Mustaqil tafakkurning psixologik mohiyati.

Tafakkur nazariyalari.

Tafakkur va akliy taraqqiyot.

Tafakkur va mantiq.

Tafakkurning ontogenezda rivojlanishi.

Tafakkur to‘g‘risida umumiy tushuncha.

Tafakkur operatsiyalarining psixologik mohiyati.

Tafakkur nazariyalari talqini.

Tafakkur turlari yuzasidan mulohazalar.

Tafakkurni rivojlanish xususiyatlari.

Test savollari:

№1.
Refleks termini qaysi so‘zdan olingan?
lotincha “refleks” so‘zi aks yettirish ma’nosini anglatadi
yunoncha “refleks” so‘zi sinash tekshirish ma’nosini anglatadi
lotincha “refleks” tamg‘a, o‘zgarmas degan ma’nosini anglatadi
yunoncha “refleks” takrorlash ma’nosini anglatadi
№2.
Ichki va tashqi tajriba ta’minoti asoschisi kim?
Djon Lokk
Stenli Xoll
David Gartli
Xristian Volf
№3.
Assotsiativ psixologiya asoschisi kim?
David Gartli
Tomas Rid
Xristian Volf
Vilgelm Vunt
№4.
Qobiliyatlar psixologiyasi yo‘nalishi tarafdorlari kimlar edi?
Xristian Volf, Tomas Rid
David Gartli, Xristian Volf
Vilgelm Vunt, Tomas Rid
Stenli Xoll, Djon Lokk
№5.
“Bosh miya reflekslari” (1863) asarining muallifi kim?
I.M.Sechenov
I.P.Pavlov
I.P.Ivanov
L.S.Vigostkiy

6-MAVZU. SHAXSNING HISSIY VA IRODAVIY JIHATLARI

REJA:

1.Hissiyot tug‘risida umumiy tushuncha
2. Hissiyotning o‘ziga xosligi
3. Hissiyot va emotsional holatlarning fiziologik asoslari
4. Iroda to‘g‘risida tushuncha

Mavzuning qisqacha mazmuni

Sub’ektiv munosabatlarning inson miyasida his-tuyg‘ular, emotsional holatlar, yuksak ichki kechinmalar tarzida aks etishi hissiyot va emotsiyani yuzaga keltiradi. Hissiyot - yaqqol voqelikning ehtiyojlar sub’ekti bo‘lmish shaxs miyasida ob’ektlarga nisbatan uning uchun qadrli, ahamiyatli bo‘lgan munosabatlarining aks ettirilishidir. Mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, munosabat atamasi bir necha marta matnda qayd qilindi, shuning uchun unga ayrim izohlar berish maqsadga muvofiqdir. Psixologiyada hali bir talay terminlar, atamalar, tushunchalar mavjudkim, ularga mohiyat, ma’no, ko‘lam, sifat, shakl jihatidan qo‘llanilishi yuzasidan ba’zi bir tuzatishlar kiritilishi ayni muddao bo‘lar edi.

Hissiyot tushunchasi kundalik turmushda va ilmiy psixologik manbalarda har xil ma’noda qo‘llaniladi. Jumladan, hissiyot o‘rnida sezgilar, anglanilmagan mayllar, anglanilmagan xohishlar, tilaklar, maqsadlar, talablar tushunchalardan foydalaniladi. Bu holatlar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshash-likka asoslanib ishlatilishi kundalik turmush voqealari bo‘lib hisoblanadi, xolos. Ilmiy nuqtai nazardan kelib chiqib taxlil qilinganda «Hissiyot», odatda, tirik mavjudodlar miyasida, ya’ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi ob’ektlarga nisbatan uning (odamning) munosabatlarini aks ettirish ma’nosida qo‘llaniladi.

Jahon psixologiyasida «hissiyot» bilan «emotsiya» terminlari (ay-niqsa, chet mamlakatlarda) bir xil ma’noda ishlatiladi, lekin ularni aynan bir xil holat deb tushunish mumkin emas. Bunday nuqson ommabop adabiyotlarda, chet ellarda chop etilgan darsliklarda aksariyat hollarda uchraydi. Odatda, tashqi alomatlari yaqqol namoyon bo‘ladigan his-tuyg‘ularni ichki kechinmalarda ifodalanishdan iborat psixik jarayon yuzaga kelishining aniq shaklini emotsiya deb atash maqsadga muvofiq. Masalan, ranglarning o‘zgarishi, yuzlarning ta’bassumlanishi, lablarning titrashi, ko‘zlarning yarqirashi, kulgi, yigi, g‘amginlik, ikkilanish, sarosimalik va boshqalar emotsiyaning ifodasidir. Lekin vatanparvarlik, javobgarlik, mas’uliyat, vijdon, mehr-oqibat, sevgi-muhabbat singari yuksak xislatlarni emotsiya tarkibiga kiritish g‘ayritabiiy hodisa hisoblanar edi. Ushbu hissiy kechinmalar o‘zining mohiyati, kuch-quvvati, davomiyligi, ta’sirchanligi, yo‘nalganligi bilan bir-biridan keskin farq qilishlariga qaramay, ularni emotsiya

sifatida talqin qilish oddiy saf-sataga aylanib qolgan bo‘lar edi. Shu boisdan ularning o‘zaro eng muhim farqi shundaki, birisi ijtimoiy (hissiyot), ikkinchisi esa (emotsiya) individual, xususiy ahamiyat kasb etadi.

1-Reja. Hissiyot tug‘risida umumiy tushuncha

Hissiyot borliqqa, turmushga, shaxslararo munosabatga nisbatan shaxsni sub’ektiv kechinmalarining aks ettirilishidir. Shaxs tirik mavjudod bo‘lishi bilan birga jamiyat a’zosi hamdir, shuning-dek, yakkahol (individual) inson sifatida tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlarini xolisona (ob’ektiv) aks ettiradi, in’ikos qiladi. Aks ettirish jarayoni favqulodda o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: a) shaxsning ehtiyojini qondi-rish imkoniyatiga egalikni; b) qondirishga yordam beradigan yoki qar-shilik ko‘rsatadigan ob’ektlarga sub’ekt sifatida qatnashishni; v) uni harakat qildiruvchi, bilishga intiltiruvchi munosabatlarini va hokazo. Sub’ektiv munosabatlarning inson miyasida his-tuyg‘ular, emotsional holatlar, yuksak ichki kechinmalar tarzida aks etishi his-siyot va emotsiyani yuzaga keltiradi. Hissiyot — yaqqol voqelikning ehtiyojlar sub’ekti bo‘lmish shaxs miyasida ob’ektlarga nisbatan uning uchun qadrli, ahamiyatli bo‘lgan munosabatlarining aks ettirilishi-dir. Mulohazalardan ko‘rinibturibdiki, munosabat atamasi bir necha marta matnda qayd qilindi, shuning uchun unga ayrim izohlar berish maqsadga muvofiqdir. Psixologiyada hali bir talay terminlar, ata-malar, tushunchalar mavjudkim, ularga mohiyat, ma’no, ko‘lam, sifat, shakl jihatidan qo‘llanilishi yuzasidan ba’zi bir tuzatishlar kiri-tilishi ayni muddao bo‘lar edi.

Psixologiya fanida munosabat tushunchasi ikki xil ma’noda qo‘lla-nilib kelinadi: 1) sub’ekt (shaxs) bilan ob’ekt (narsa) o‘rtasida tabiiy holda (tarzda) yuzaga keladigan o‘zaro aloqa o‘rnatish (ob’ek-tiv munosabatlar); 2) o‘rnatilgan aloqalarningaks ettirilishi (ularning kechinmasi), xususiy sub’ektning ehtiyojlari va ularning ob’ekt-lararo munosabati (sub’ektiv munosabatlar), binobarin, namoyon bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga shay turgan narsalar bilan odam o‘rtasidagi munosabat ma’nosida ishlatiladi. Hissiyot tushunchasi kundalik turmushda va ilmiy psixologik manbalarda har xil ma’no-Da qo‘llaniladi. Jumladan, hissiyot o‘rnida sezgilar, anglanilmagan mayllar, anglanilmagan xohishlar, tilaklar, maqsadlar, talablar tushunchalardan foydalaniladi. Bu holatlar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshash-likka asoslanib ishlatilishi kundalik turmush voqealari bo‘lib hisoblanadi, xolos. Ilmiy nuqtai nazardan kelib chiqib taxlil qilinganda «Hissiyot», odatda, tirik mavjudodlar miyasida, ya’ni shaxslarning ehtiyojlarini qonliruvchi va unga monelik qiluvchi ob’ektlarga nisbatan uning (odamning) munosabatlarini aks etti-rish ma’nosida qo‘llaniladi.

Jahon psixologiyasida «hissiyot» bilan «emotsiya» terminlari (ay-niqsa, chet mamlakatlarda) bir xil ma’noda ishlatiladi, lekin ular-ni aynan bir xil holat deb tushunish mumkin emas. Bunday nuqson ommabop adabiyotlarda, chet ellarda chop etilgan darsliklarda aksa-riyat hollarda uchraydi. Odatda, tashqi alomatlari

yaqqol namoyon bo‘la-digan his-tuyg‘ularni ichki kechinmalarda ifodalanishdan iborat psixik jarayon yuzaga kelishining aniq shaklini emotsiya deb atash maqsadga muvofiq. Masalan, ranglarning o‘zgarishi, yuzlarning ta’-bassumlanishi, lablarning titrashi, ko‘zlarning yarqirashi, kulgi, yigi, g‘amginlik, ikkilanish, sarosimalik va boshqalar emotsiyaning ifodasidir. Lekin vatanparvarlik, javobgarlik, mas’uliyat, vij-don, mehr-oqibat, sevgi-muhabbat singari yuksak xislatlarni emo-siya tarkibiga kiritish g‘ayritabiiy hodisa hisoblanar edi. Ushbu hissiy kechinmalar o‘zining mohiyati, kuch-quvvati, davomiyligi, ta’-sirchanligi, yo‘nalganligi bilan bir-biridan keskin farq qilish-lariga qaramay, ularni emotsiya sifatida talqin qilish oddiy saf-sataga aylanib qolgan bo‘lar edi. Shu boisdan ularning o‘zaro eng muhim farqi shundaki, birisi ijtimoiy (hissiyot), ikkinchisi esa (emotsiya) individual, xususiy ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlab o‘tilgan mulohazalarga qaramasdan, hissiyot bilan emo-siyaning o‘zaro bir-biridan qat’iy cheklab qo‘yish ham ba’zi angla-shilmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin. Faoliyat, xulq-atvor, muomala sub’ekti o‘zining shaxsi hamda jamiyati uchun ahamiyati hisob-langan narsalar va hodisalarni aks ettiruvchi munosabati hissiyotda mujassamlashadi. Shaxsning individual hayoti va faoliyatiga aloqa-dor (xohfoydali, xohzararli bo‘lishdan qat’i nazar) omillar, qo‘zg‘ov-chilar, turtkilarni ifodalovchi hamda kelib chiqishi instinktlar, shartsiz reflekslar, irsiy belgilar (ovqatlanish, jinsiy, himoya-lanish, qo‘rqish va boshqalar) bilan bog‘liq sodda hissiy holatlar «emotsiya» deyiladi. Emotsiyalar nafaqat insonlarga, balki jonli rivojlangan mavjudodlarga ham taallukli ruhiy (psixik) holatlar-dir. Hayvonlardagi emotsiyalar o‘zgarishi murakkab bo‘lgan tabiiy-lik (irsiy) alomatlarga asoslanuvchi sodda tuzilishga egadir. Odam bilan hayvon emotsiyalari o‘zlarining mohiyati, tuzilishi, ta’sir-chanligi, jadalligi, sifati, shakli bilan keskin tafovutlanadi. Emo-siyalar tashqi ko‘rinishga xosligi bilan, muvaqqat xususiyatga ega ekanligi bilan hissiyotdan farqlanadi. Shuni aytib o‘tish joizki, xissiyot hayvonot olamiga xos kechinma emas, u akl-zakovat sub’ekti sanalmish hazrati insongagina xos, xolos, chunki empatik (hamdard-lik) his-tuyg‘ular shaxsning mukammallik bosqichiga ko‘tarilishiga kafolat negizidir.

Hissiyot bilan emotsiya (uning yuksak darajalari nazarda tutila-di) inson shaxsining ijtimoiy-hayotiy shart-sharoitlarida yuzaga kelgan, odamning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida shakllangan (evo-lyuiion yo‘sinda), muayyan ijtimoiy muhitda (jamiyatda) istiqomat qiluvchi kishilartomonidano‘zlashtirilgan g‘oyalar, me’yorlar, qonun-qoidalar, nizomlar, qadriyatlarni aks ettiruvchi anglanilgan his-tuyg‘ular, murakkab ichki kechinmalarni vujudga kelish jarayonidir.

2-Reja. Hissiyotning o‘ziga xosligi

Hissiyotda shaxs psixikasining o‘ziga xos jabhalari, inson faoliyatining ayrim jihatlari sifatida harakatdagi, tevarak-atrofda-gi voqelikni odam bosh miyasida turli-tuman shaklda ichdan aks etti-riladi. Shuning uchun hissiyot borliqda sodir bo‘layotgan narsa va hodisalar yuzasidan shaxs uchun ahamiyatli, qadr-qiymatli

alomatla-ri tuyg‘usidan darak beruvchi signallar sistemasi tarzida talqin qilinadi. Yaqqol voqelikda sezgi a’zolariga ta’sir etuvchi har xil qo‘zg‘ovchilaridan ba’zch birlari alohidalanadi, o‘zaro mos tushganla-ri esa birlashadi, favqulodda namoyon bo‘la boshlagan his-tuyg‘ular bilan ular aralashib ketadi. Buning natijasida muayyan qo‘zg‘ovchi-lar tirik mavjudodlar uchun xotirjamlik yoki bezovtalik signaliga aylanadi, hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasini shakllantiruvchi shartli reflekslar tizimini barqarorlashtiruvchi omil tariqasida aks etadi. Hissiyotning bunday tarzda signal funk-siyasining bajarishi uning impressiv (lotincha 1tre5$yu so‘zidan olingan bo‘lib, taassurot degan ma’no anglatadi) jihati deb nomla-nishda o‘ziga xosligi shundaki, hissiyot tasavvur qilinayotgan obraz-larga, fikran rejalashtirilayotgan maqsadlarga mayl, faollik, in-tilish uyg‘otadi, shaxsning faoliyati va xatti-harakatlarining mu-vaqqat yoki uzluksiz motiviga aylanadi. Ushbu fiziologik jarayon-ning mohiyatini tushuntirishda I. P. Pavlov mana bunday yondasha-Di: tirik mavjudodlarning tabiiy muhitga moslashuvida qat’iyla-shadigan yoki zaiflashadigan dinamik stereotiplar tufayli hissiy va emotsional kechinmalarning ijobiy yoki salbiy ko‘rinishi vujud-ga keladi. I. P. Pavlovning talqinicha, dinamik stereotip — bu tashqi taassurotlarning ma’lum tarkibda takrorlanishi natijasida hosil qilingan shartli reflekslar ta’siridagi nerv bog‘lanishla-rining barqaror tizimidir. Tirik mavjudod hayoti va faoliyatida qiyinchiliklarga, qarshiliklarga uchrasa, dinamik stereotip «zaif-lashuvi» yuzaga keladi, buning oqibatida salbiy emotsional holat-lar, kechinmalar hosil bo‘ladi.

His-tuyg‘ular va emotsional holatlar kechishining turli shaklla-ri, ko‘rinishlari nafaqat signal funksiyasini bajaradi, balki ular shaxsning faoliyati, xulq-atvori ustidan boshqaruvchanlik funksiya-sini amalga oshiradi. Yuksak hislar bu ma’noda ustuvor rol o‘ynay-di (vijdon hissi, mas’uliyat va vatanparvarlik tuyg‘usi, empatik, ya’ni hamdardlik kechinmalari va boshqalar). Hatto emotsional holat-lar, hodisalar, harakatlar shaxsning tana a’zolari o‘zgarishida o‘z ifodasini topadi va ichki hissiy kechinmalarning tashqi alomatla-rini aks ettiruvchi muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Ovoz ohangi, sur’ati, tembri, chastotasi o‘zgarishi, mimika, imo-ishora, pantomi-mika, organizmning qizarishi, oqarishi, nafas olish va qon bosi-midagi beqaror holatlar ixtiyorsiz yoki ixtiyoriy, ongli ravishda kechishidan qat’i nazar emotsiyaning ekspressiv (lotincha yexrgezzyu degan atamadan olingan bo‘lib, ifodalash degan ma’noni bildiradi) jabhasi deyiladi.

Shaxs hissiyotning sub’ekti hisoblanib, mazkur holatning namo-yandasi, uni aks ettiruvchi tariqasida olamni anglash, bilish jarayo-nida o‘zining shaxsiy faoliyatini (xulq-atvorini) maqsadga muvo-fiqamalga oshirish uchun hissiy kechinmalarni o‘zgartirish qudrati-ga ega. His-tuyg‘ular shaxsdan ajralgan holda vujudga kelmaydi, shu-ning uchun ular hissiyot sub’ekti bilan birga hukm suradi, binobarin, hissiy kechinmalar aniq insonga taalluqli bo‘ladi, xolos. Inson-da emotsional taassurot qoldiradigan, yuz tuzilishida tabassum yoki qayg‘u, goho ajablanish uyg‘otadigan narsa va hodisalar hissiyotning ob’ekti bo‘lib hisoblanadi. Shaxsdagi emotsional o‘zgarishlar uning hayoti va faoliyatida, shaxslararo munosabatida, insonlar bilan mu-omalaga kirishishda, ayrim hollarda biron-bir

voqelik to‘g‘risida xayol surganda, armon tuyg‘usi odamga xotirjamlik bermaganida yuzaga keladi.

Hissiyot sub’ektiv ichki kechinmalarda ifodalansa ham uni aniq-lash mumkin, chunki dildagi qayg‘u alamlar, afsuslanish, achinish, quvonish, o‘zidan nolish, ko‘z va yuz harakatlaridagi bezovtalanish, hadiksirash, hayajonlanish tashqi tana a’zolarida, nutq faoliyatida, sustlik, loqaydlik hukmronlik qilganida bevosita ifodalanadi. His-tuyg‘ular ixtiyorsiz ravishda vujudga kelmaydi, shuning uchun ular kat’iy ravishda determinatsiyalashgan (sababiy bog‘langan) psixofi-ziologik xususiyatga egaligi tufayli u yoki bu tashqi ko‘zg‘atuvchi ta’-siriga nisbatan munosabat bildirish (javob reaksiyasi) tarzida hosil bo‘ladi. Vaziyat, shart-sharoitlar hissiyotning mexanizmi tariqasida xizmat qilishi mumkin. Shuni ham anikdashtirish lozimki, vaziyat ham, sharoit ham tabiiy (biologik), sub’ektiv (shaxslararo munosa-bat) ko‘rinishlarda vujudga kelganligi sababli hissiyotning mohiya-ti, sifati va shakliga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Qattiq sovuq, favquloddagi chang-to‘zon, xonada tok bo‘lmasligi, qo‘pol muomala, loqayd munosabat, avtoritar xulq-atvor va boshqalar vaziyatga, sharo-itga yaqqol misol bo‘la oladi.

Hissiyotning determinizm (sababiy bog‘lanish) prinsipiga asos-langanligidan qat’i nazar shaxs o‘zining faoliyatida, xulqida, muo-malasida hissiyotini, emotsional holatlarini idora qilishga, ba’zi hollarda o‘zini tutib turishga, voqelikka yoki hodisalarga nisbatan oldingi bahosini o‘zgartirishga, ichki murakkab kechinmalarini ong-li ravishda boshqarishga intiladi. Shaxsda vujudga keluvchi sub’ek-tiv holatlar, his-tuyg‘ular o‘zining yuzaga kelishi, namoyon bo‘lishi, mohiyati jihatidan hamisha ob’ektiv voqelikning timsoli, inson miyasiga singdirilgan, qayta ishlangan ko‘rinishidir. Ob’ektiv bor-liq yuzaga keltiradigan sub’ektiv his-tuyg‘ular, kechinmalar moddiy tana a’zolaridagina aks etish bilan cheklanmasdan, balki muayyan o‘zgarishlar shaxsning faoliyatida, nutqida, mulohazasida, xulqida bevosita ifodalanadi.

Shaxs hissiyot ob’ektiga nisbatan qanday shaxsiy munosabatda bo‘lishi favquloddagi holatda «Men»lik ifodalanishi his-tuyg‘ularning sifati deyiladi. Masalan, shaxsning muhabbati, rahm-shafqa-ti, hayajonlanishi, qahr-g‘azabi, bezovtalanishi, ruhan ezilish kabi sifatlarning muayyan tasnifi (klassifikatsiyasi) mavjuddir. Si-fatlar ikki xil yo‘sinda vujudga kelishi mumkin, jumladan, shaxs-ningo‘z ehtiyojini qondirishga va unga qarshilik (to‘sqinlik) qilishga aloqador narsa va hodisalarga nisbatan munosabatlari son-sanoq-siz bo‘lishi mumkin. Hissiyotning sifatlari shaxsning narsa va hodi-salarga nisbatan emotsional munosabatining o‘ziga xos va zaruriy alomatlari bo‘lib hisoblanadi. Psixologiyada shaxsning hayotiy va tabiat omillariga nisbatan emotsional munosabatlari ijobiy va salbiy turkumlarga ajratiladi. Ijobiy sifatlar narsa va hodisa-larga nisbatan ehtiyoj maqsadga muvofiqravishda qondirilsa, u holda rohatlanish, quvonch hislari ifodasi yuzaga keladi. Ehtiyojlarni Qondirishda to‘sikdar, xalaqit beruvchi omillar namoyon bo‘lsa, u taqdirda noxush kechinmalari, norozilik hislari tugiladi. Ijobiy

va salbiy sifatlar bevosita yo‘sindagi emas, balki bilvosita yo‘l bilan ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, hayot quvonchlarini eslash dadillikni uyg‘otsa, muvaffaqiyatsizlikni xayolga keltirish hadik-sirashni hosil qiladi.

Shaxs individual ehtiyojlaridan tashqari, ijtimoiy ehtiyojni qondirish bilan bog‘liq motivlar ta’siri tufayli ham ijobiy yoki salbiy hissiyot sifatlarini aks ettirishi kuzatiladi. Masalan, talabaningtanlovda qatnashishi quvonch hislarini yuzaga keltirsa, ikkinchi turdagi muvaffaqiyatsizlik xafagarchilik tuyg‘usini na-moyon etadi. Shaxsning maqolasi (gazeta, jurnalda) bosilib chiqsa faxrlanadi, kimningdir tomonidan utanqid qilinsa ruhan ezila-di. Ota-ona farzandini maqtasa quvonadi, koyisa esa xafa bo‘ladi va hokazo.

Hissiyotning ijobiy va salbiy sifatlaridan tashqari, uning ikkiyoklamalik (yunoncha atrgp ikkiyoqlama vazifa, lotincha ua1epNa «kuch» degan ma’no anglatib keladi) va noaniklikdan iborat asosiy xislatlari mavjuddir. Bu ruhiy holatlarda shaxsda ikkilanish hol-lari, noaniqtushunish munosabatlari aks etadi, lekin rohatlanish bilan qanoatlanmaslik hislarini bir-biriga qo‘shish mumkin emas.

Ambivalent (ikkiyoklama) hissiyotda rohatlanish bilan azoblanish tuyg‘ulari o‘zaro qo‘shilib ketish bilan cheklanibgina qolmasdan, balki uyg‘unlashgan, aralashgan holda ularning kechishi muhim xususiyatla-ridan biri bo‘lib hisoblanadi. Masalan, rashk hissida muhabbat bilan nafrat bir-biri bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Xo‘randa qorni ochli-gi uchun sho‘r ovqatni yeb biologik ehtiyojni qondirib, bir tomondan rohatlanishi, ikkinchi tomondan esa noxush hisni kechirishi mum-kin. Tashnalikdan iliq suvni ichib ham rohatlanishi, ham noxush-likka berilishi kuzatiladi. Kiyimi yupun shaxsga qalinroqto‘n be-rilsa, birtomondan quvonadi, ikkinchi tomondan esa uyaladi. Oshiq-larda sevish va o‘zidan nafratlanish holati kechadi yoki hijron shi-rin qayg‘u, lekin yoqimli istirob tarzidagi kechinmalar ikkiyoklama hissiyotga yorqin misoldir.

Shaxsning emotsional dunyosi uzluksiz tarzdagi ziddiyatlar, nizo-lar va ularning hal qilinishi, oldining olinishini aks ettirish-dan iborat jarayonlar majmuasidir. Asosan ijobiy, salbiy va ik-kiyoklama hissiyotni keltirib chiqaradigan omillar quyidagilardan iboratdir: 1) shaxs bilan muhit o‘rtasidagi (tabiiy muhit, ijtimo-iy muhit orasidagi) har xil mazmun hamda shakldagi munosabatlar; 2) tana a’zolari, ichki organizm tarkiblari muhitidagi munosabatlarning nisbiy muvozanati o‘zgarib turishi; 3) favquloddagi vazi-yatlar tufayli yuzaga keladigan har xil kechinmalar va boshqalar.

Xis-tuyg‘ularning yana bitta (to‘rtinchi) sifati shaxsning hissiyot ob’ektlariga nisbatan emotsional munosabatlarining qisqa muddat-pi aks etishini ta’minlovchi tashqi ta’sirining noaniqligi ifo-dalanishidir. Shuningdek, ob’ektlarning taassurotlari uzoq mud-datli xususiyatga ega bo‘lsa, bunday emotsional holatlar munosabat-larning sifati bo‘lishi mumkin; Shaxs o‘ziningturmush tajribasiga noma’lum, yap-yangi narsalarga duch kelsa, bu voqelik uni to‘lqinlan-tirishi, hayratlantirishi, unda havas va qiziqish uyg‘otishi mum-kin. Bu hissiy voqelik

(hodisa) yangi taassurotni anglashning his-siy jabhasi bo‘lib hisoblanadi. Tabiiy va ijtimoiy muhitning anglab olish chigal hodisasi ehtiyoj bilan bog‘lanishdan hamda muay-yan barqaror munosabat yuzaga keltirishdan oldin hissiy holatning predmetiga aylanadi. Shuning uchun ma’lum kechinmalarning negizi-da tanho «bu nima refleksi»ni tushunish ehtiyoji yotadi. Bilish fa-oliyati bilan uyg‘unlasha borgan anglash hissi beqarorligi, qisqa muddatliligi bilan tafovutlanadi hamda ob’ektga nisbatan yengil-roq salbiy yoki ijobiy munosabat sifatiga aylanadi.

Hissiyotning mazmuni turli-tuman bo‘lib, u shaxsning hayoti va taraqqiyoti imkoniyatlari bilan bog‘liq ob’ektlarga, hatto bevosita rohatlanish (azoblanish) hislarini yuzaga keltiruvchi narsalarga nisbatan munosabatlarida ifodalanadi. Demak, shaxsning hissiyot-lari turlicha moddiy va madaniy ehtiyojlariga asoslanadi, ularni qondirishga yordam beradigan omil ijobiy emotsiyani yuzaga keltira-di, so‘ng barqaror hissiyot singari mustahkamlanadi. Inson ehtiyo-jini qondirishga xalaqit beradigan narsa salbiy emotsional holat-ni vujudga keltiradi hamda hissiyot tariqasida mujassamlashadi.

Hissiyotning mazmuni to‘g‘risida mulohaza yuritilganda shu narsa-ni eslatib o‘tish joizki, his-tuyg‘ular barqarorligi, maqsadga muvo-fiqligi: birinchidan, shaxsga hech qanday xavf-xatar, tahdid solma-yotganligini, ikkinchidan, insonning hayoti va faoliyatida uni baxt-omad kutayotganligini, uchinchidan, shaxslararo munosabati, jamiyat-da tutgan mavqeini, to‘rtinchidan, tana a’zolarining salomatligini ro‘y rost aks ettiradi. Bu ko‘rinishlarning barchasi ijobiy sifat-lar ustuvorlik qilayotganligidan darak beradi, binobarin, yutuq-larga erishish ehtimoli darajasi yuksakligi, ijtimoiy yoki shaxsiy kutilma esa kafolatlanganligini anglatadi. Shaxs shaxslararo mu-nosabatning mahsuli bo‘lganligi tufayli undagi hissiyotlarning mazmuni, inson kamol topishi bilan uzviy bog‘liq tarzda, ko‘lami kengayib boradi, buning natijasida emotsional holatlar shaxsiy tor doiradan tashqari chiqib, tabiat hodisalari, jamiyat muammolari (iqtisodiy, siyosiy, tarixiy, ma’naviy jabhalar)ga taalluqli muno-sabatlarni o‘zida ma’naviy, mazmuniy, shakliy jihatdan mujassam-lashtiradi. Xuddi shu bois mas’uliyat valoqaydlik, muloqotmandlik va odamovilik, g‘azab va shavq, simpatiya va antipatiya, optimizm va pessimizm, xursandlik va xafalik, qahramonlik va qo‘rqoqlik, quvonch va qahr, ishtiyoq va zerikish, egoistlik va alturistlik, sofdillik va g‘arazgo‘ylik, mehnatsevarlik va dangasalik, samimiylik va lagan-bardorlik kabilarning barchasi kelib chiqishi (genezisi) jihatidan ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, quyidagi jabhalari bilan ajralib turuvchi: a) shaxsning shaxsiy nuqtai nazari; b) ijtimoiy hayotda egal-lagan mavqei; v) hayot va faoliyatda faolligi; g) jamiyatdagi hamkor-lik faoliyatda qatnashishi; d) guruh yoki jamoada shakllangan shaxs-lararo munosabatlari bilan bog‘liq hissiyotlardir. Shuni ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, shaxsning ba’zi his-tuyg‘ulari ularni ro‘yobga chiqa-ruvchi omillarning takroran ta’siri natijasida mustahkamlanib, uning (insonning) hukmron, ustuvor, barqaror emotsional xususiya-tiga aylanadi. Shu sababdan shaxslarning xushfe’l yoki jaholatli, qiziquvchan yoki sovuqqon, qo‘rqoq yoki jasur, mehribon yoki bag‘ri-tosh, xushmuomala yoki qo‘pol, kamgap yoki mahmadona degan yo‘sinda

inson (shaxs) sifatida tavsiflash, baholash mumkin. Milliy tarbi-yaning, milliy g‘oyaning asosiy vazifalaridan biri mamlakatimiz fuqarolarida milliy istiqlol g‘oyalariga sodiqlik, fidoiylik, va-tanparvarlik, mas’uliyatlilik ruhidagi yuksakhis-tuyg‘ularni shakl-lantirishdan iboratdir. Mustaqillik ideallariga munosib shaxs-larni kamol toptirish uchun, vatan ishqi bilan yonuvchi faol, shijo-atli, irodasi bukilmas, barqaror motivatsiyaga ega bo‘lgan insoniy sifatlarni ularda shakllantirish maqsadga muvofiq.

Shuni eslab o‘tish lozimki, hissiyot o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, uning kuchayishi yoki susayishiga qarab qanday oqibatlarga olib kelishini oldindan bashorat qilish yoki payqash mumkin. Shaxs-ning his-tuyg‘ularida ham barqaror, ham o‘zgaruvchan jabhalari birga-likda hukm suradi.

Shu sababdan shaxsning hissiyotida hukmron, ustuvor his-tuyg‘ular mavjud bo‘lishiga qaramay, ular vaziyat, sharoit yangilanish bois kes-kin o‘zgarishlarga uchraydi, dinamik stereotiplar zaiflasha bosh laydi. Shuning uchun psixologiyada hissiyot o‘zgarishining dinamika-si degan atamalar birikmasi uzluksiz ravishda qo‘llanilib kelina-di. Shaxsda namoyon bo‘layotgan hissiyot asta-sekin jadallashib borga-ni evaziga u ruhiy kechinma sifatida mustahkamlanib qolishi mum-kin. Masalan, jahon xalqlarida yer kurrasining u yoki bu joylarida qo‘poruvchilik ko‘rinishlariga jirkanch nazar bilan qarash tuyg‘usi uyg‘ongan bo‘lsa, keyinchalik terrorizmga (lotincha {eggog — kuch ishla-tish bilan qo‘rqitish demakdir) qarshi shafqatsiz kurash, nafrat umumiy militarizmga (lotincha tPNalz harbiylashtirish ma’nosini anglatadi) yo‘naltirildi. Xalqparda narkotik (yunoncha pagkoPkov — miyani aynitadigan) moddalarga nisbatan jirkanch tuyg‘u kuchayib bo-rishi, dinamikasi sababli narkobiznes (inglizcha ‘i$te$$ foyda de-gani) bilan ayovsiz kurash insoniyat genini (zotini) buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikka o‘sib o‘tdi. Shaxs kechirayotgan his-tuyg‘ular mazmundor, aks ettirilayotgan hodisalar rang-barang, o‘zaro ta’sirlar, aloqalar, munosabatlar serqirra, ko‘pyoklamalik xususiyat kasb etsa, u holda hissiyot dinamikasiga puxta negiz hozirlaydi.

Lekin shuni ham ta’kidlash ma’qulki, hissiyot dinamikasi har xil kechishi, uning xususiyati, yo‘nalishi bir oz o‘zgarishi mumkin. Chunki hissiyot bir yo‘nalishda kuchayib borish bilan bir qatorda uning susayishi, hatto so‘nib borishi, haddan tashqari zaiflashuvi ham kuzatiladi. Masalan, intizomni buzgan xodimni «haydash» bilan qo‘rqitish emotsional ta’sirini yo‘qotadi, agarda biror jazo chorasi qo‘llanilmasa, mabodo talabani dars qoldirishi po‘pisa qilish bilan cheklansa, unda qo‘rqinch ruhiy holati yo‘qoladi. Ana shunday hodisalar va nomutanosibliklarningtakrorlanishi sababli emotsi-onal moslashuv (adaptatsiya) jarayoni vujudga keladi, demak, hissiyot-da o‘zgarish sodir bo‘lmaydi. Agarda hissiyot ob’ektining (narsa, hodi-sa, holat kabilarning) mazmuni, ma’nosi shaxsda qiziqish uyg‘ota olmasa, bunday holda emotsion to‘yinish yuzaga keladi, oldin qiziq tuyulgan narsa keyinchalik zerikarli, yoqimsiz, noxush kechinmalar hosil qila boshlaydi. Shaxs bir necha marta surunkasiga axborot, qo‘shiq, hangoma eshita bergach, unda hayajonlanish, rohatlanish, kay-fiyat ko‘tarilishi paydo bo‘lmaydi,

aksincha insonda zerikish hissi uyg‘onadi, ularni eshitish esa jahl chiqazadi. Shuning uchun xohma’-lumot, xoh yumor bo‘lishdan qat’i nazar yangilik alomatlarisiz insonda qiziqish yo‘qoladi.

3-Reja. Hissiyot va emotsional holatlarning fiziologik asoslari

Emotsional holatlar boshqa ruhiy jarayonlar singari miya faoli-yatining natijasi yoki mahsuli bo‘lib hisoblanadi. Emotsional holat-larning yuzaga kelishiga tabiatda va jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zga rishlar, munosabatlar, aloqalar, taassurotlar asosiy sababchidir. O‘zgarishlar o‘z navbatida, birinchidan, shaxs hayoti va faoliyatining jadallashi yoki pasayishiga, ikkinchidan, insondagi ayrim ehtiyoj-larning paydo bo‘lishiga yoki yo‘qolishiga, uchinchidan, odam ichki organlari funksional holatlarining beqarorlashuviga olib kela-di. His-tuyg‘ular uchun eng xususiyatli fiziologik jarayonlar negizi sifatida shartsiz va shartli reflekslar xizmat qiladi va ularning muayyan tizimi bosh miya katta yarim sharlari po‘stida yuzaga keladi hamda shu joyda mustahkamlanadi. Murakkab shartsiz reflekslar esa: 1) yarim sharlarning po‘stloqosti bo‘shliqlari; 2) miya stvoliga te-gishli ko‘rish tepachalari (do‘ngliklari); 3) nerv qo‘zg‘alishlarini miyaning yuqori bo‘limlaridan vegetativ tizimiga o‘tkazib beruvchi markazlari orqali amalga oshiriladi. Shaxsda his-tuyg‘ularning ke-chishi hamisha miya po‘sti bilan po‘stloqosti markazlarining birlik-dagi (hamkorlikdagi) faoliyati natijasida ro‘yobga chiqadi

Shaxs ruhiy olamida, uni qurshab turgan tevarak-atrofda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar (xohtabiiy, xohsub’ektiv bo‘lishidan qat’i nazar) kechinmalar sub’ekti (inson) uchun qanchalik qadr-qiymat, yuksak ahamiyat kasb etsa, hissiy holatlarning mazmuni shunchali purma’no bo‘ladi. Buningta’sirida yuzaga keladigan muvaqqat bog‘-lanishlar tizimining qayta qurilishi qo‘zg‘alish jarayonini hosil qiladi. Mazkur jarayon miya katta yarim sharlari po‘stida tarqa-lib, so‘ng po‘stloqosti markazlarini egallab oladi. Katta yarim sharlar po‘stidan pastda turuvchi miya bo‘limlarida organizm fizi-ologik faoliyatining turli markazlari {nafas olish, ovqat hazm qilish va hokazo) joylashgan. Shu sababdan po‘stloqosti markazla-rining qo‘zg‘alishi ba’zi ichki a’zolar faoliyatining kuchayishiga olib keladi. Jumladan, nafas olish ritmikasining o‘zgarishi (hayajonlanganda bo‘g‘ilib qolishni, og‘ir va tartibsiz nafas olish-ni yuzaga keltiradi), yurak faoliyatining buzilishi (yurak urishi-ni tezlashtiradi), organizmni qon bilan ta’minlash izdan chiqi-shi (uyalgandan qizarishni, qo‘rqqandan oqarishni keltirib chiqa-radi, ichki sekresiya bezlari ishining nuqsonlari ko‘z yoshining oqizadi, hayajonlanganda og‘izini quritadi, qo‘rqqanda «sovuq» ter chiqaradi va hokazo.)

Ilmiy manbalarda talqin qilinishicha, miya katta yarim sharla-rining po‘sti mo‘’tadil sharoitida po‘stloqosti markazlariga bosh-qaruv va tormozlov yo‘sinida ta’sir ko‘rsatadi hamda hissiyotining tashqarida ifodalanishiga yo‘q qo‘ymaydi. Miya po‘sti kuchli daraja-da qo‘zg‘alsa, uning ta’sirida boshqaruvchanlik funksiyasi buziladi. Shaxs qattiq charchasa yoki kuchli mast bo‘lsa, irradiatsiya

oqibatida po‘stloqosti markazlari ham qo‘zg‘aladi, natijada harakatni nazorat qilishi yo‘qoladi.

Miya faoliyatining elektrofiziologik tadqiqotlari emotsiyalar-ning paydo bo‘lishida gipotalamolimbik (yunoncha urog1ga1aggsh5 — bosh miya bo‘limi nomi) tizimi va retikulyar formatsiya (lotincha geisi1it to‘rsimon, G‘ogtapo bog‘lam ma’nosini anglatadi)ning roli ko‘rsatib o‘tilgan. Ma’lumotlarda ko‘rsatilishicha, emotsional holatlarning fiziologik mohiyati katta yarim sharlar po‘stining va po‘stloqosti tizimi markazlarining funksiyasigina emas, balki ular: a) miya mexanizimlari faoliyatini faollashtiruvchi retikulyar formatsiya-ning, b) miyaning, talamus (ko‘rish do‘ngliklari)ning, gipotalamus-ning (do‘nglikosti qismining), v) yarim sharlar yangi po‘stlog‘i ora-sidagi limbik sistemaning funksiyalaridir.

Emotsional holatlar uchun po‘stloqosti tugunchalarining tarkibi-ga kiruvchi (miya katta yarim sharlarining oq moddasi bilan birla-shuvi kulrang modda yig‘indisi) markazlar ham muhim ahamiyatga ega. Agarda miya katta yarim sharlari po‘stlog‘i harakatlarini birlashti-rib, sezgilarni va sa’y-harakatlarni nozik ifoda qilib tursa, miya formatsiyalari tashqi hamda ichki muhitda sodir bo‘ladigan o‘zgarish-larga organizmning javob reaksiyalarini boshqaradi.

Ma’lumotlarga qaraganda, miya katta yarim sharlari po‘stlog‘i shi-kastlansa, tashqi olamdan hamda ichki organlardan keladigan qo‘zg‘ov-chilarning nozik tahlil qilinishi zaiflansa ham emotsional holat-lar saqlanib qolaveradi. Masalan, hayvonlar limbik tizimga, do‘ng-osti (gipotalamus) qismiga, ko‘rish tepaliklariga yo‘nalgan elektr qo‘zg‘atuvchilarga, retikulyar formatsiyasining qo‘zg‘alishlariga xursand-lik yoki diqqinafaslik, darg‘azablik yoki qo‘rqoqlik, lazzatlanish yoki azoblanish, rohatlanish yoki ko‘ngilxijillik sifatida javob reaksiyasi hosil bo‘ladi.

Psixofiziologolimlarning ma’lumotlariga qaraganda, miyaning muayyan joylaridan elektrod yordamida biotoklarni yozib olishning ko‘rsatishicha, sut emizuvchilarning gipotalamuslarida ham «rohatla-nish», ham «azoblanish» markazlari mavjud ekan. Tajribada «rohat-lanish» markazi qo‘zg‘atilganda yoqimli hislar uyg‘ongan, elektr toki bilan «azoblanish» markazi qo‘zg‘atilganda esa hayvonlar qaltirab, o‘zini har tomonga tashlagan. Keyinchalik sut emizuvchilar azoblan-tiruvchi emotsiyadan qochishga harakat qilganlar.

Yuqorida ta’kidlanganidek, ijobiy va salbiy his-tuyg‘ularning shunga o‘xshash markazlari bosh miyaning boshqa bo‘limlarida joylashganligiga qaramay, shartli ravishdagi rohatlanish va azoblanish markazlari ham mavjuddir.

Emotsiyalar bir-biriga yaqin masofada faoliyat ko‘rsatadilar. Taj-ribada qo‘sh (juft) markazlaridan birida elektrod bilan hosil qilin-gan qo‘zg‘alish ehtiyojdan kelib chiqqan holda salbiy yoki ijobiy emo-siyadan faqat bittasini vujudga keltirgan, xolos. Ba’zida yondosh joylashgan markazlarda qo‘zg‘alish tarqalgan bo‘lsa, u holda ambiva-lent yoki ikkiyokdama reaksiya ro‘yobga chiqadi. Shartli

ravishda nom-langan markazlar (rohatlanish, azoblanish) bir-biriga yaqin joylashishiga qaramasdan, har xil tuzilishga ega ekanligi aniklangan. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, «azoblanish» markazlari miyaning turli bo'limlariga joylashsa-da, lekin ular yagona tizim bilan bosh-qariladi. Salbiy emotsiyalardan farqli o'laroq ijobiy his-tuyg'u-lar va «rohatlanish» markazlari bir-birlari bilan jips aloqaga ega emas. Ta'kidlab o'tilgan mulohazalar emotsiyalar juft hamda qara-ma-qarshi xususiyatga ega ekanligidan dalolat bermokda. Shuninguchun har qaysi emotsiya qarama-qarshi turkumiga ega deb qat'iy ishonch bilan aytish mumkin, jumladan, sevgi-nafrat, yoqimli-yoqimsiz, xo-tirjamlik-bezovtalanish mas'uliyatlik-loqaydlik va boshqalar.

I. P. Pavlov, Ch. Sherrington, P. K. Anoxin, N. A. Bernshteyn, Ye. N. Sokolov, T. V. Simonov, D. Lindsley, R. U. Liper, B. I. Dodo-nov, U. Jems va boshqalarning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, tah-lil qilingan markazlarning qo'zg'atilishi shartli reflekslari hosil qilinishini mustahkamlovchi omil hisoblanadi. Buning natijasi-da elektr qo'zg'ovchi yordami bilan miya katta yarim sharlarining po'stida bilish jarayonlari va xatti-harakatlar stereotiplarining negizini tashkil qiluvchi muvaqqatbog'lanishlarhosil qilinadi. Shartli ref-lekslarningso'nishi,tormozlanishi, po'stloqningtanlash (selektiv) tizimi miya stvolining uzunasi bo'yicha tepalikosti va po'stloqosti nerv tugunlaridagi «markazlar»ning faoliyatiga bog'liqdir. I. P. Pavlov o'sha davrdayoq, «dinamik stereotip»ni hosil qilgandan keyin oliy nerv faoliyatida uni buzilish salbiy hissiyotlar kechi-shi uchun negiz bo'ladi, dinamik stereotipni oldindan tayyorlab, so'ng uni o'zgarishi ijobiy his-tuyg'ularni paydo qiladi, deb qat'iy ishon-tirgan edi.

Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, miyaning tepalikosti qismida (gipotalamusda)gi markazlar rohatlanish yoki azoblanish vaziyatlari ko'p marta takrorlansa ham hech o'zgarmasligi mumkin, lekin miya kat-ta yarim sharlari po'stloqosti nerv tugunchalari bo'ylab yoyilgan mar-kazlar qo'zg'atilishi natijasida emotsional reaksiyalar kuchsizlanishi, hatto so'nishi ham kuzatiladi. Bu voqelik shu bilan izohlanadi-ki, akdiy faoliyat va axloqiy kechinmalar emotsional tusi o'zining o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Binobarin, organizmning birlamchi ehtiyojlari yuzasidan signal beruvchi emotsional reaksiya-lar takroran qanoatlantirgandan keyin ham so'nmaydi. Shuningdek, organik jarohattufayli og'riq kamaymaydi, muayyan reaksiyalar o'zgar-maguncha jismoniy mashqdan maroqlanish shaxs ko'ngliga tegmaydi. Buning uchun albatta, salbiy, ijobiy, aralash (ambivalent) signal-lar insonning hayoti va faoliyatida o'z ahamiyatini yo'qotishi kerak. Turli markazlarni qo'zg'atganda yuzaga keladigan rohatlanish yoki azoblanish emotsiyalarining sifatiga, darajasiga va barqarorligiga asoslangan holda har bir sharoitda hissiy ifodalangan shartli ref-lektor aloqalar bir marta mustahkamlanganda hosil bo'lishini, boshqa vaziyatda mustahkamlanish uchun ko'p urinishga qaramay aloqa-ni tiklash mushkul ekanligini izohlash mumkin. Bu o'rinda shaxs-ning barqaror emotsional yo'nalganligi, mayllar mustahkamligi ru-hiy hodisasini, uningturmush tarzini, hayotiy ideallarni tushunti-rish mumkin. Masalan, mayxo'r (alkogol) yoki narkoman uchun rohatla-nish bilan bog'liq xatti-

harakat birlamchi bo‘lganligi tufayli tur-li ijtimoii voqealar (oiladagi judolik, ishxonadagi ko‘ngilsiz-lik, tabiiy ofat va boshqalar) uni bu yo‘ldan to‘xtatib qololmaydi, lekin muvaqqat holat vujudga kelishi mumkin (aytaylik bir necha daqiqa o‘zini tiyib turish), biroq tezda tabiiy ehtiyojga mutelik qilib, «tarki odat - amri mahol» yo‘sinda ish tutaveradi.

Odam va hayvon emotsiyalari: Shaxsning emotsional holatlari va kechinmalarining psixolog-lar va fiziologlar tomonidan eksperimental tarzda tadqiqot qili-nishiga qaraganda, yuksak darajada tashkil topgan hayvonlar emotsiya-larining fiziologik mexanizmlaridan insonniki juda katta tafo-vut qilmaydi. Lekin muammo hissiyotning mazmuni, sifati, shakli, ifodalanishi nuqtai nazaridan tahlil qilinganda inson bilan hay-von emotsiyasi (hissiyot) orasida keskin farq mavjudligi namoyon bo‘ladi. Tabiatshunos va insonshunos olimlar hayvonlarda emotsio-nal reaksiyalar, holatlar mavjudligini tan olsalar-da, biroq ular-da murakkab hissiyot, yuksak his-tuyg‘ular borligiga shubha bilan Qaraydilar yoki inkor qiladilar. Bu fikrga to‘liq qo‘shilish mum-kin, chunki insonlarda shunday his-tuyg‘ular borki, bunday hissiyot Hayvonlarda bo‘lishi mumkin emas, vaholanki g‘azablanish, qo‘rqish, jinsiy mayl, qiziquvchanlik, xursandlik, g‘amginlik har ikkalasi da uchraydi, ammo ular sifat va mazmun jihatdan bir-birlaridan keskin tafovutlanadi.

Inson emotsiyalari ijtimoiy hayotning shart-sharoitlariga mos-lashtirgan (patologik hollar istisno qilinganda), «ongli zot»ga taalluqli tabiat va jamiyatga nisbatan munosabatlarida namoyon bo‘la-di, maqsadga muvofiqlashtirish hamda boshqarish xususiyatiga ega. Ochlik hissi, jinsiy mayl va boshqa instinktlar sohalardagi emo-siyalar hayvon bilan insonda o‘xshash bo‘lsa-da, lekin ularning ifo-dalanishida farkdanishi mavjud. Bularningbarchasi instinktiv hara-kat bo‘lishi bilan birga insoniylashidan iborat uzoq evolyusion, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan, murakkab qiyin-chiliklarni yengish evaziga mazkur ko‘rsatkichga erishgan.

Inson hissiyotining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari mav-jud bo‘lib, ulardan eng asosiysi sababiy bog‘lanishlarga (determi-nirlashgan) egalikdir. Xuddi shu bois inson hissiyotlarining bio-logik va fiziologik tahlili, ularning tub mazmunini ochib bermay-di, shuningdek, hissiyotlar inson shaxsning ongli va ongsiz xatti-harakatlarini amalga oshiruvchi kuchga, ya’ni motivga o‘sib o‘tish yo‘lla-rini izohlab berishga qodir emas. Ma’lumki, emotsiyalarning «insoniylashuvi» hissiyotlar ichidan kechishi mazmuni va sifatlari ji-hatidan hayvonlarniki bilan qiyoslanganda o‘zining rang-barangli-gi, murakkabligi bilan shaxsniki ustuvordir. Insonlarning meh-nat, ma’naviyat, siyosat. oila, ishlab chiqarish bilan o‘zaro munosa-batlari, shuningdek, tabiat bilan odamlar orasidagi, shu bilan bir-ga shaxslararo munosabatlar bir qator insoniy hissiyotlarning va ularni ifodalash, tatbiqetish vositalarini vujudga keltiradi Shaxs yuz ifodalari, boshini tebratish bilan, xo‘rsinish orqali o‘zgalarga hamdardlik (empatiya) tuyg‘usini bildiradi. Bolalarga odob bilan javob berishni, suhbatdoshiga iliq, samimiy jilmayishni,

qariya va nogironlarga hurmat bilan joy bo‘shatishni, kichkintoylarga meh-ribonlikni shakllantirish lozim. Shaxs o‘z his-tuyg‘ularini o‘zi bo-shqaradi, ularni me’yoriy hujjatlar, ijtimoiy turmush qoidalari, etnik rasm-rusumlar, odatlar, an’analar, protsessual qonunlar nuq-tai nazaridan goh ma’qullaydi, goh qoralaydi. Shu bilan birga insonlar kuchli va jo‘shqin emotsiyalari kechishida tashqi xotirjam-likni sakday biladilar. Ularning ba’zilari o‘z hissiyotlarini ber-kitish uchun o‘zlarini befarq tutadilar, salbiy emotsiyalarni ifoda-lashga intiladilar. Shaxs o‘zining mimika va pantomimikalarini boshqarish imkoniyatiga ega, lekin organlardagi tabiiy o‘zgarishlar-ni ushlab turish mumkin emas. Masalan, nafas olish, qon aylanish, ovqat hazm qilish, ko‘z yoshlarini ushlab turish, rangni qizartirish, oqartirish va hokazo.

Emotsiyalarning ifodalanishi quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘li-shi mumkin:1) ifodali harakatlar (mimika va pantomimikalar); 2) organizmdagi turli hodisalar (ichki a’zolar faoliyati va holati-ning o‘zgarishi; 3) gumoral xususiyatdagi o‘zgarishlar (organizmning qon tarkibidagi, suyuqlikdagi kimyoviy o‘zgarishlar, modda almashish va hokazo). Emotsiyalarning tashqi ifodasiga mimika, imo-ishora, vajohat, qaddi-qomat o‘zgarishi, tashqi sekresiya bezlari faoliyati (yosh, so‘lak, ter ajralishi), xatti-harakatlar (tezligi, kuchi, yo‘nali-shi, muvofiqlashuvi), nutqning xususiyatlari va boshqalar. Emotsiya-lar, his-tuyg‘ular mazmuni, sifati, shakli jihatidan etnopsixolo-gik xususiyatiga ega.

Hissiy kechinmalarning shakllari: Hissiyotlar shaxs faoliyatining muhim jabhasi sifatida inson-ni keng emotsional sohasini rang-barangligi, ko‘pqirraligi haqida hissiy ton (yunoncha gopoz zo‘riqish, urg‘u berish ma’nosini bildira-di), emotsiyalar (lotincha yetouege qo‘zg‘atish, hayajonlash demakdir), affektlar (lotincha aGGesgiz ruhiy hayajon, shijoat, ehtiros ma’no-sini anglatadi), stress (inglizcha 81ge$8 zo‘riqish deganidir) va kay-fiyat kabi tushunchalar muayyan tasavvur bir imkoniyatga ega.

Hissiy ton (tus). Hissiyot aksariyat hollarda faqat emotsional tus sifatida ruhiy jarayonning o‘ziga xos sifat (sifatiy) jihati tariqasida vujudga keladi. Hissiyot bu o‘rinda o‘ziga o‘zi emas, balki bilishga intilayotgan, o‘zgartirayotgan, egallayotgan shaxsda ma’lum munosabatni namoyon qiluvchi narsalar, hodisalar va harakatlarning alohida xossasi, xislati hamda xususiyati ma’nosida gavdalanadi. Mazkur narsalarga nisbatan inson shaxsining sub’ektiv munosabat-lari to‘g‘risida mulohaza yuritilayotganini odam hamisha ham payqay olmaydi. Masalan, yoqimli muloqotdosh, kulgili hangoma, badbo‘y hid, behayo kino, ishtiyokdi mashg‘ulot, iboli qiz, yaramas xulq, xushchaqchaq yigit, xotirjamlantiruvchi xabar, zahmatli mehnat va boshqalar.

Emotsional ton yoki hissiy tus (masalan, affektiv ton) ba’zi hollarda barcha shaxslarda tug‘ma, nasliy xususiyat kasb etishi mum-kin. Jumladan, og‘riq hissi va boshqa xususiyatli kuchli qo‘zg‘atuvchi-lar bir davrda aks etgan yoqimsiz (noxush) hissiy ton bilan ajralib turadi. Masalan, merkaptan (lotincha tegs simob, sargapz

egallovchi Degan ma’no anglatadi), ya’ni simob bilan boshqa organik moddalar oirikmasidan tarqalgan hidlar har qaysi ruhan sog‘lom insonlar uchun yoqimsiz, jirkanch taassurot uyg‘otadi. Shuningdek, ba’zi rang-lar birikmasi (omixtasi), shilimshiq pardalarning qo‘zg‘alishi, qamishlarning ishqalanishi, egovning ovozi ham xuddi shunday iz qoldiradi. Shu bilan birga idrok obrazlari va tasavvurlarining aksariyat hissiy tonlari (tuslari) oldingi emotsional jarayonlari-dan sakdanib qolgan izlar, turmush tajribaning saboqlari ((aks sa-dolari) insonlarda o‘xshashligi tufayli «tug‘ma» deb baholanishi mumkin. Hissiy ton shaxsning ehtiyojlarini atrofdagi narsalar va vaziyatlar qoniqtirishi yoki qoniqtirmasligi, faoliyatning esa mu-vaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kechishini yaqqol namoyish eti-shiga xizmat qiladi. Shaxsning psixologik xislatlariga binoan his-siy ton (tus) o‘ziga xos idiosinkraziya (yunoncha 1sNo5 o‘ziga xos, 5upga815 qorishmoq, qorishuv ma’nosini bildiradi) xususiyatini kasb etadi, bunday ta’bli odam boshqalar uchun befarq tuyulgan narsalarga ham jirkanch munosabatini namoyish qiladi, masalan, duxobaga tegish-ni, baliq, yog‘, gul hidlarini yoqtirmaydi.

Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, ko‘rish, eshitish, hidlash, kinestetik (harakat) sezgilarga hamda idroklarga taallukli hissiy ton muhim amaliy ahamiyatga ega. Masalan, xonalar, ish joyi, trans-port vositalarining rangi (tusi) taassurotidan vujudga kelgan yoqimli va yoqimsiz hissiy ton mehnat samaradorligiga, xizmatchi-larning kayfiyatiga sezilarli ta’sir o‘tkazadi. Kimyoviy o‘g‘itlar, sabzovotlar yoqimsiz hidi, ishlab chiqarishdagi shovqinlar, tovush-lar hissiy ton jihatidan mehnat unumdorligini pasaytiradi. Xo-tirjamlik, yoqimsiz musiqa, iliq shaxslararo munosabatlar, muoma-la maromi, ahillik muvaffaqiyat kafolati, ijtimoiy taraqqiyot omili hisoblanadi.

Emotsiyalar. Emotsional jarayonlar, holatlar yoki tor ma’noda emo siyalar hissiy kechinmalarining o‘ziga xos xususiyatli shakllarida" bittasidir. Emotsiya — u yoki bu hissiyotning inson tomonidan bevo sita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iboratdir. Masalan, shaxs tomonidan musiqani sevish emotsiyani vujudga keltirmaydi, balki buning uchun musiqani eshitish, ijrochi mahoratiga tasanno bildi-rish, undan hayajonlanish yoki asar ijrosi yoqmasa g‘azabli hissiy kechinma hosil bo‘lishi ijobiy, bu salbiy emotsiya deyiladi. Qo‘rqinch, dahshat hissiy kechinma sifatida ob’ektlarga shaxsning munosabati-ni aks ettirib, turlicha shaklda namoyon bo‘lishi mumkin: odam dah shatdan qochadi, qo‘rquvdan serrayib qoladi, o‘zini idora qila olma har tomonga uradi, hatto xavf-xatarga o‘zini tashlashi ham mumkin.

Ko‘pincha emotsiyalar o‘zining ta’sirchanligi bilan bir-birida" ajralib turishiga qaramay, bunday sifatli hissiy holatlar stenik (yunoncha $*pepo5 so‘zidan olingan bo‘lib, kuch degan ma’no anglatadi) xususiyatli deyiladi. Bunday emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, ijobiy izlanishlarga kuch-quvvat, qanot bag‘ishlaydi. Masalan, xursandchilikdan shaxs «parvoz qiladi», «yul-duzni narvonsiz oladi», kimlargadir xolis yordam qilishga shoshadi, faollik, tinib tinchmaslik uning sifatiga aylanadi. Aksariyat hol-larda xushxabar,

muvaffaqiyat shaxsda stenik xususiyatli emotsiyalar-ni vujudga keltiradi. Ba’zi hollarda emotsiyalar o‘zining sustligi, zaifligi, nursizligi bilan tavsiflanadi, bunday hissiy holat as-tenik (yunoncha asTesha so‘zidan olingan bo‘lib, kuchsizlik, zaiflik ma’nosini bildiradi) deb ataladi. Bunday hissiyot insonni bo‘shash-tiradi, uni xayolga cho‘mdiradi, xayolparast qilib qo‘yadi, shu sababdan favqulodda shaxsdagi rahmdillik befoyda emotsional kechinmaga, uyalish vijdon azobiga, andisha esa qo‘rqoqlikka aylanib qolish xav-fi kuchli.

Har qanday vaziyatda ham emotsional xatti-harakat, faoliyat mo-tivlari bo‘lishidan tashqari, ular ba’zida faoliyatni tashkillashti-ruvchi, goho uni izdan chiqaruvchi omilga ham aylanishi mumkin. Emo-sional holatlar yo haddan tashqari kuchaysa yoki susaysa, xullas me’yo-ri, maromi izdan chiqsa, u holda shaxs faoliyati maqsadga yo‘nalishi-ni yo‘qotadi, buning natijasida ob’ektlar noto‘g‘ri aks ettiriladi, ular xolisona talqin qilinmaydi, baholashda mantiqiy nuqsonlar-ga yo‘l qo‘yiladi.

Affektlar. Haddan ziyod tez kechirishi bilan miyada paydo bo‘luv-chi, shaxsni tez qamrab oluvchi, jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga kelti-ruvchi, jarayonlar ustidan irodaviy nazoratlarning buzilishiga yetak-lovchi (o‘zini o‘zi boshqarishni zaiflashtiruvchi), organizm a’zolari funksiyasini izdan chiqaruvchi emotsional jarayonlarga affektlar deb ataladi. Affektlar qisqa muddatli bo‘lib, ular favquloddagi yong‘inga, yarqiragan portlashga, to‘satdan kelgan do‘lga, to‘fonga, ku-tilmagan silkinishga o‘xshab ketadi. Mabodo emotsiya ruhiy to‘lqin-lanish deyilsa, unda affekt holatlari turli bosqichlardan tuzilgan bo‘lib, ular o‘zaro o‘rin almashib turadi. Ma’lumki, vahimaga, tahli-kaga, sarosimaga tushib qolgan, o‘ta quvongan, kulgi nashidasi bilan band bo‘lgan, umidsizlik tuzog‘iga ilingan inson turli vaziyatlarda borliqni bir tekis aks ettira olmaydi. Chunki u mazkur sharoitlar-Da o‘z kechinmalarini har xil ifodalaydi, o‘zini turli darajada ush-laydi, harakatlarini esa turlicha boshqaradi. Bunda oraliq miya va miya katta yarim sharlari po‘stlog‘idagi ma’lum markazlarning kuchli qo‘zg‘alishi va boshqa markazlarning tormozlanishi me’yordan chiqib ketishi tufayli o‘zaro almashinib qoladi. Harakatchanlikning asta-sekin ko‘tarilishidan iborat stenik holat astenik holat bilan al-mashinadi (kuchli holat kuchsiz bilan aralashib ketadi), lekin qayta tiklanishga ulgurmaydi. Masalan, jo‘shqin harakatda, ko‘z yaltirashi-da, yuz qizarishida vujudga kelayotgan kuchli jahl ko‘rinishlari ko‘zning xiralanishi, yuz oqarishi, rang o‘chishi bilan bog‘lik qattiq g‘azabga aylanishi mumkin. Umidsizlik kechinmasida organizmning jo‘shqin reaksiyasi ba’zan hushidan ketib qolish holati bilan almashinadi. Ushbu vaziyat lotincha «zShroz» stupor, ya’ni serrayib qolish, karaxt holati deb psixologiyada qo‘llaniladi.

Affekt holati boshlanishida shaxs insoniy qadriyatlarning bar-chasidan uzoqlashib, o‘z hissiyotining oqibati to‘g‘risida ham o‘yla-maydi, hatto tana o‘zgarishlari, ifodali harakatlar unga bo‘ysunmay boradi. Kuchli zo‘riqish natijasida mayda, kuchsiz harakatlar barham topadi. Tormozlanish miya yarim sharlari po‘stini to‘la egallay bosh-laydi, qo‘zg‘alish po‘stloqosti nerv

tugunchalarida, oraliq miyada avj oladi, xolos. Buning natijasida shaxs hissiy kechinmasiga(dahshat, g‘azab, nafratlanish, umidsizlik va hokazolar) nisbatan o‘zida kuchli xohish sezadi.

Ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, ko‘pincha hissiyotlar affektiv shaklda o‘tishi tajribalarda sinab ko‘rilgan. Jumladan, 1) teatr to-moshabinlarida, 2) tantana nashidasini surayotgan olomonlarda, 3) es-hushini yo‘qotgan, telbanoma sevgi afsonalarida, 4) ilmiy kash-fiyot lahzasida, 5) tasodifiy qizg‘in uchrashuvlarda jo‘shqin shodlik-lar mujassamlashadi.

Affektlar vujudga kelishining dastlabki bosqichida har bir shaxs o‘zini tutushini, o‘zini ko‘lga olishni uddalash qurbiga ega bo‘ladi. Ularning keyingi bosqichlarida irodaviy nazorat yo‘qotiladi, iro-dasiz harakatlar amalga oshiriladi, yo‘lanmasdan xatti-harakat qilinadi. Affektiv holatlar mas’uliyatsizlik, axloqsizlik, mastlik alomatida sodir bo‘ladi, lekin shaxs har bir xatti-harakati uchun javobgardir, chunki u akl-zakovatli insondir. Affektlar o‘tib bo‘lga-nidan keyin shaxsning ruhiyatida osoyishtalik, charchash holati hukm suradi. Ba’zi hollarda holsizlanish, jamiki narsaga loqayd muno-sabat, harakatsizlik, faollik barham topishi, hatto uyquga moyil-lik yuzaga keladi. Shu bilan birga affektiv shok (fransuzcha sIos zarba degan ma’no anglatadi) holati ham sodir bo‘ladi, buning oqiba-tida organizmning ichki a’zolari funksiyasi buziladi, hatto yurak xuruji (infarkt lotincha agsSh5 - «xavf to‘ldirg‘ich», miokard yunon cha tuz ¯ tomir, kagsNa yurak degan ma’no bildiradi) yuzaga keladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, affektiv qo‘zg‘alish muayyan davrgacha davom etishi, ba’zan o‘qtin-o‘qtin kuchayishi yoki susayishi (pasayi-$_{sh}$i) sodir bo‘lib turishi mumkin.

StresS Stress inglizcha 5GGS55 so‘zidan olingan bo‘lib, jiddiy-lik, keskinlik, zo‘riqish degan ma’no anglatadi. XX asrning ikkin-chi yarmidan boshlab keskin vaziyat tufayli vujudga keladigan emo-sional holatlarni tadqiq etish psixologiya, fiziologiya, tibbiyot fanlarida keng qo‘lamda amalga oshirila boshlandi. Stress - og‘ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar, ishlar me’yoridan oshib ketib, xavfli vaziyatlar tug‘ilganida zaruriy chora-tadbirlarni zud-lik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo‘riqish-lar. Mana shunday sharoitlar va vaziyatlarning barchasini biron-bir emotsiya turi ro‘yobga chiqaradi. Stress emotsional holatining paydo bo‘lishi hamda kechishining psixologik xususiyatlarini aniklash na-faqat uchuvchilar, kosmonavtlar, dispetcherlar (inglizcha sN5ra1speg ishlab chiqarishni muvofiqlashtiruvchi ma’nosini anglatadi) uchun, balki sudyalar, korxona rahbari, ta’lim tizimi xodimlari uchun alo-hida ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya faniga stress tushunchasini olib kirgan olim kana-dalik fiziolog G. Sele (1936) sanaladi. U stressni tadqiq qilish-da moslashuv alomati (adaptasion sindrom yunoncha zupyogote — bel-gi, alomat, ko‘rinish moslashuvi demakdir) masalasiga, uning faoli-yatga ijobiy hamda salbiy ta’sir etishiga alohida ahamiyat bergan. Shuningdek, ekstremal (lotincha yexGgegliz favquloddagi holat, eng oxirgi vaziyat ma’nosini anglatadi) vaziyatlardagi, murakkab jara-yonlardagi

stressningo‘ziga xosligi, faoliyatni qaytatashkil qilish-gacha (dezorganizatsiya lotincha, s!e og£at5aGyup fransuzcha tashkilot, tuzilma ma’nosini bildiradi) olib borishi, shunga o‘xshash sharoit-larda shaxs xulqini bashorat etish (prognoz yunoncha rgo§poz15 - ba-shorat ma’nosini anglatadi) imkoniyatlari G. Seletomonidan o‘rganilgan.

Tadqiqotchi U. Kennonning gomeostazis (yunoncha o‘xshashlik $1a515 ma’nosini bildiradi) haqidagi ta’limotida stress holati har to-monlama o‘rganilgan. Ushbu terminni u psixologiyaga 1929 yilda olib kirgan. Gomeostazis mexanizmda moslashish xususiyatlari yaqqol o‘z ifodasini topadi. Uning mulohazasicha, faoliyat shakllarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida nerv sistemasi va miya funksiyasini oqilona ta’minlab turishda hamda sakdashda gomeostazis muhim rol o‘ynaydi.

Stress holatida shaxsning xatti-harakatlari o‘ziga xos tarzda o‘zga-radi, unda qo‘zgalishning umumiy reaksiyasi paydo bo‘ladi, uning hara-katlari tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Stressning kuchayi-shi esateskari reaksiyaga olib keladi, natijada tormozlanish, sust-lik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qila boshlaydi. Lekin stress holatida fiziologik o‘zgarishlar tashqi tomonidan qariyb ko‘zga tash-lanmasligi mumkin. Biroq muammoni yechishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalik stressning tashqi ifodasi deb taxmin qilinsa bo‘ladi. Shaxs stress holatida telefon nomerini adashtiradi, vaqtni chamalashda yanglishadi, ong faoliyati yengil tor-mozlanadi, idrok ko‘lami torayadi va boshqalar.

Stress holatida shaxsning psixologik xususiyatlari, turmush tar-biyasi, shakllangan malakasi muhim rol o‘ynaydi. Keskinlikning oldini olishda shaxsning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Undagi yuksak his-tuyg‘u-lar (mas’uliyat, burch, javobgarlik, vatanparvarlik, sadoqat va hoka-zo) stress holatida xatti-harakat buzilishining oldini olishga xiz-mat qiladi.

Kayfiyat. Shaxsning xatti-harakatlariga va ayrim ruhiy jarayon-lariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holat kay-fiyat deb ataladi. Shaxsning hayoti va faoliyati davomida shodonlik, hazilkashlik, umidsizlik, jur’atsizlik, zerikishlik, qayg‘urishlik singari his-tuyg‘ular uning ruhiy holatini umumiy tizimiga ayla-nadi. Ushbu vaziyat ba’zi emotsional taassurotlarning vujudga keli-shiga qulay zamin hozirlaydi, boshqasi uchun esa qiyinchilik tug‘di-radi. Inson xafa, ma’yus hissiy holat hukmronligida bo‘lsa, u holda tengdoshlarining haziliga, keksalarning o‘git-nasihatlariga, mas-lahatlariga quvnoq kayfiyat chog‘dagiga nisbatan mazmun, sifat ji-hatidan boshqacharoq tusda munosabat bildiradi. Shuning uchun ish-lab chiqarish va xalqta’limi tizimi jamoalarida, rasmiy, real gu-ruhlarida ishchanlik, o‘zaro yordam, hamkorlik, hamdardlik, iliq ru-\iy muhit yaratish, samimiy muomala maromini shakllantirish ham jismoniy, ham aqliy mehnat samaradorligini oshirishning kafo-latidir.

Kayfiyat nihoyatda xilma-xil, uzoq va yaqin manbalar negizid; vujudga keladi. Uni barqarorlashtirib turadigan asosiy manbalar-dan biri shaxslarning ijtimoiy jamiyatda hukmronlik qilayotish umumiy nuqtai nazarlari, hayotning turli jabhalarida aks etuvchi ta’sirlar, chunonchi mehnat muvaffaqiyati va ta’lim yutug‘i, rahbar va xodim, o‘qituvchi va saboqoluvchi o‘rtasidagi munosabatlari, oila$_{da}$gi shaxslararo muomala maromi, har xil vaziyatlarda paydo bo‘lgan turmushdagi qarama-qarshiliklar, shaxsning ehtiyojlari, qiziqish-lari, mayllari va ta’blarining qondirilishidan qanoat hosil kilishlik yoki qanoat hosil qilmaslik kayfiyatning manbalari bo‘lib xisoblanadi. Shaxsning ma’lum muddat ruhi tushib, noxush, zaif kay-fiyatda yurishi uning turmushida muammolar yuzaga kelganligidan xalovat, tinchlik buzilganligidan dalolat beradi. Bunday vaziyatlar namoyon bo‘lganida shaxsga oqilona mulohaza mahsulidan kelib chiq-qan holda xushtavozelik bilan ijobiy ta’sir o‘tkazish, ruhini te-tiklashtiruvchi vositalarni qo‘llash, kayfiyatini buzibturgan omil-larni batamom bartaraf etish maqsadga muvofiq.

Inson kayfiyatining paydo bo‘lishiga va o‘zgarishiga ta’sir qiluv-chi ikkita omilni tahlillash mutlaqo shart. Ulardan bittasi ob’ek-tiv va sub’ektiv xususiyatli vaziyatdir: a) tabiiy omillarga taalluq-li bo‘lgan vaziyat (havoning sovuqligi yoki issikligi, bioritmika o‘zgarishi), b) shaxslararo munosabatning noqulayligi va boshqalar. Ikkinchi bir manba sifatidagi talqin qilish mumkin — bu ob’ekt va sub’ektiv shart-sharoitlardir. Masalan, mehnat va o‘qish faoliya-tiga kerakli vositalarning mavjudligi (ish dastgohi, mehnat quro-li, yorug‘lik, auditoriya, partalar va boshqalar). Ikkinchidan, sub’ek-tiv munosabatlar: ilk psixologik muhit, muloqotmandlik maromi, rag‘batlantirish, muloqot o‘rnatish uslubi, shaxsiyatga tegmaslik, teng huquqlilik, hamkorlik, demokratiya prinsiplariga rioya qilishlik, o‘zaro tushunish, shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olish va hokazo.

Psixologiya fanida asosiy hissiyotlar atamasi ko‘chma ma’noda qo‘llanilib kelmoqda. Tadqiqotlar ichida K. Izartning tasnifi muayyan qiziqish uyg‘otadi, lekin his-tuyg‘ularning barchasini o‘zida qamrab olmaydi. K. Izartning talqinicha: 1) qiziqish — malaka va ko‘nikmalar shakllanishiga, o‘qishga moyillik uyg‘otadigan bilim-larni egallashga yordam beruvchi ijobiy hissiy holatdir; 2) quvonch qondirilishi dargumon bo‘lgan stakchi (hukmron) ehtiyojning qondi-rilishi mumkinligi bilan bog‘liq ijobiy hissiy holatdir; 3) hay-ratlanish — favqulodda ro‘y bergan holatlardan hissiy jihatdan ta’-sirlanishning ijobiy yoki salbiy jihatdan ifoda etilmagan belgisidir; 4) iztirob chekish — hozirgacha qondirilish ehtimoli ozmi yoki ko‘pmi mavjud tasavvur qilingan, muhim hayotiy ehtiyojlar-ning qondirilishi mumkin emasligi to‘g‘risida ma’lumot olinishi-ga bog‘liqsalbiy hissiy holatdir; 5) g‘azablanish — ob’ektiv tarzida kechadigan, shaxs uchun g‘oyat muhim ehtiyojni qondirish yo‘lida to‘siqlarni yengib chiqadigan salbiy hissiy holatdir; 6) nafratlanish -ob’ektlarga yaqinlashuv sub’ektning ma’naviy yoki estetik ideallar-ga zid kelib qolishi oqibatida ro‘y beradigan salbiy hissiy holat-dir; 7) jirkanish — shaxslararo munosabatlarda ro‘y beradigan va shaxsning hayotiy nuqgai nazarlari, qarashlari va xulq-atvoriga no-mutanosibligi

oqibatida hosil bo‘ladigan salbiy hissiy holatdir; 8) qo‘rquv — shaxs o‘zining xotirjam hayot kechirishiga ziyon yetishi mumkinligi unga real tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mavjud xavf-xatar to‘g‘risidagi xabarni olish bilan paydo bo‘ladigan salbiy hissiy holatdir; 9) uyalish — o‘zining ezgu maqsadlari, xatti-hara-katlari va tashqi qiyofasi, nafrati katta muhit kutilmasiga mos kelmaganligi bilan emas, balki o‘ziga loyiq xulq-atvor hamda tashqi siymosi shaxsiy tasavvurlarga ham mos emasligini anglashda ifoda-lanadigan salbiy hissiy holatdir.

Yuksak hislar: Kishilik jamiyati bilan hayvonot olami o‘rtasida psixologik tafovutlar yuksak hislarda o‘z ifodaeini topadi. Yuksak hislar ong-li harakatlarni bajarishning ob’ektiv sharoitlari, yo‘nalishlari, mazmuni bilan uyg‘unlashgan shaxs emotsional holatining barqaror, murakkab tarkibida paydo bo‘ladi va kechadi. Ko‘plab kechirilayotgan emotsiyalarda, affektlarda, kayfiyatlarda yaqqollashgan umumlashma hislar yuksak hislar deb ataladi. Ular o‘z tarkibiga sodda tuzilgan hislarni qamrab oladi, lekin oddiy hislar yig‘indisidan iborat emas, chunki yuksak hislar mazmuni, sifati, shakli bilan alohida-likka ega.

Shaxsda topshiriqni bajarish bilan bog‘liq javobgarlik hissi har xil ma’noda kechiriladi: 1) tashvishlanish emotsiyasi (bir to-mondan, xursandlik, ikkinchi tomondan esa qo‘rqish hissi) sifati-da; 2) o‘z kuchiga, g‘ayratiga, iftixoriga ishonch emotsiyasi tariqasida; 3) vazifaga jiddiy qaraydigan tengdoshlardan g‘azablanish emotsiya-si sifatida; 4) shart-sharoitlarni hisobga olishga nisbatan shubha-lanish sifatida va hokazo. Tahlildan ko‘rinib turibdiki, javobgar-lik hissining mohiyati ularning oddiy yig‘indisidan iborat emas, balki jamoa a’zolarining ehtiyojiga aylangan voqelikni anglash-dir. Masalan, kitob o‘qib lazzatlanish bilan kitobni o‘qib tugatish shodlik hissini farqlamoq lozim.

Psixologiya fanida yuksak hislar quyidagi turlarga ajratiladi: 1) mehnat faoliyatini davomida kechiriladigan hislar - praksik hislar (yunoncha rgax}$ so‘zidan olingan bo‘lib, ish, faoliyat, yumush degan ma’noni anglatadi); 2) intellektual hislar (lotincha ptgePesShzgan so‘zidan olingan bo‘lib, tushunish, akl degan ma’noni bildiradi); 3) axloqiy hislar (lotincha togaNz so‘zidan olingan bo‘lib, axloqiylik degan ma’noni anglatadi); 4) estetik hislar (yunoncha a15ge515 degan so‘zdan olingan bo‘lib, hissiy idrok, hissiy degan ma’-noni aks ettiradi).

Praksik hislar. Shaxsning amaliy hayotining istalgan tarmogi, maqsadga muvofiq ongli faoliyati shaxsning ularga nisbatan muay-yan munosabatda bo‘lishning muhim sohasiga aylanib qoladi.

Shaxs fidoiylik tuyg‘usini psixologik baholash: Umumiy psixologiya asoslarini puxta egallash orqaligina har bir shaxsda yuksak his-tuyg‘ular, mehnatga ijobiy munosabat, ijtimoiy faollik, komfort hislarini shakllantirish mumkin. O‘zini o‘zi ang-lash va milliy ongni qaror toptirish orqali mehnatsevar, vatan-parvar, fidoiy insonlarni tarkib toptirish lozim. Bozor iqtiso-diyotining birmuncha murakkab mexanizmlari qay yo‘sinda ishlashi-ni tushunib yetish, muvaffaqiyatli

faoliyat ko‘rsata olish uchun nima-lar qilish zaruratini anglash, unga to‘g‘ri yo‘l topa bilish shaxsdan muayyan yuksak tuyg‘u hamda xislatni taqozo etadi.

Hozirgi ijtimoiy muhitda shaxslararo munosabatlar silsilasi-da «birdamlik ruhi» va «mushtaraklik tuyg‘usi» singari hamkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishning samarali usullari va uslublari psi-xologiya fanida ishlab chiqilishiga qaramay, bugungi kun talabiga javob beradiganlari yetarli emas.

Umumiy psixologiya fanida xalq xo‘jaligi tarmoqlarini tashkil qilish va ularni boshqarish jarayonida «inson-texnika» tizimdan tashqari («inson-tabiat», «inson-obraz» singari yondashish bundan istisno) munosabatlari muhim ahamiyat kasb etish, ularningtahlili ko‘p jihatdan empirik, amaliy, miqdoriy, tatbiqiy ma’lumotlarga asoslanishi muayyan darajada yoritilganligiga qaramay, hozirgi davrda «inson-inson», «inson-jamoa», «jamoa-inson», «jamoa-jamoa» mu-nosabatlarining boshqaruv imkoniyatlarini tekshirish talab qilinadi.

Xo‘jalikni boshqarishning yangi qonuniyatlari, mexanizmlari, omillari, ijtimoiy manbalari, shaxslararo munosabat usullari, yakka shaxsning ijtimoiylashuvi xossalari, rahbar va tobe kishilar o‘zaro muomalasining maromi nizoli vaziyatlarning oldini olish, mazkur jarayonda iliq psixologik muhitning roli, ishlab chiqarish samara-Dorligini oshirishning imkoniyatlariga doir empirik va metodologik materiallar to‘plashning qulay shart-sharoitini yuzaga kelti-radi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, xo‘japik yoki muassasani boshqarish uchun rahbar quyidagilarga asoslanishi kerak:

demokratik desentralizm (mahalliy boshqaruv ustuvorligi);

boshqaruvda yakkaboshchilik;

siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, ma’rifiy ma’muriyatda xo‘jalik yuritishning birligi;

xo‘jalik hisobining oqilligi;

ommaning boshqaruv jarayonida faol qatnashuvi;

hamkorlik faoliyatining ishtirokchilarini ma’naviy va mod-diy jihatdan rag‘batlantirish;

kadrlarni tayyorlash, tanlash va joylashtirish jarayonlarida psixodiagnostikaga asoslanish.

Mehnat va ta’lim jarayonlari boshqaruv predmeti hamkorlik fa-oliyatida shaxsning xulqiga va ongiga guruhiy ta’sir o‘tkazishning xususiyatlarini, rahbar bilan ijrochi o‘rtasidagi muomala maromini tekshirish, shaxslararo munosabatlar bosqichlari, shakllari va ru-hiy muhitni ta’minlash mexanizmlarini tadqiq etishdir. Xuddi shu sababdan shaxs xislatlarini o‘lchash tizimini yaratish dolzarb muam-

molardan biri hisoblanib, ularning ayrim ko‘rinishlarini amali-yotga tavsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning fidoiyligi jamiyat taraqqiyoti, vatan gullab yashnashi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, altruizm tushunchasiga juda yaqin turadi.

Fidoiylik xislatini baholash shkalasi

Yo‘riqnoma: Siz quyida beriladigan psixologik vaziyatlarni o‘qib chiqing va o‘zingiz shu daqiqada qanday fikrlayapsiz, shunga qarab o‘ng tomondagi tegishli javob oldidagi raqamning tagiga chizib qo‘ying.

Shkaladagi har bir raqam bir ballni bildiradi (masalan, 1-1 ball, 2—2 ball, 3—3 ball, 4—4 ball).

Ushbu baholash shkalasi yordamida olingan miqdoriy natijalarni hisoblash, ularning ishonchlilik darajasini aniqpash va izohlash quyidagicha amalga oshiriladi.

Test, asosan ikki qismga, ya’ni to‘g‘ri (adekvat, umumiy fidoyi-lik) va teskari (kontr, individual fidoiylik) tarkibga ajratiladi.

Siz mazkur savollarning sanoq raqamlariga e’tibor bilan yi-g‘indisini hisoblang: 6, 9, 10, 15, 17, 18, 24, 25, 26, 27, 28, 30, 32, 33, 34, 35, 36, 37, 39, 40, 41. So‘ngra qolgan savol raqamlari javobi yi-g‘indisini hisoblang: 1, 2, 3, 4, 5, 7, 8, 11, 12, 13, 14, 16, 19, 20, 21, 22, 23, 28, 31, 38. Har ikkala yig‘indi orasidagi tafovutga 35 raqamini qushing.

Tajriba qatnashchilari tomonidan to‘plangan maksimal ko‘rsat-kichning umumiy yig‘indisi 164 ball qiymatni, minimal 82 ballni, eng past daraja esa 41 ballni tashkil qilishi mumkin. Biz ishlab chiqqan jadvalga, ya’ni natijalarni hisoblash prinsipiga binoan quyidagi darajalarga ajratiladi:

123 balldan 164 ballgacha - yuksak darajadagi fidoiylik xis-latiga ega bo‘lgan rahbar;

82 balldan 123 ballgacha — o‘rta ko‘rsatkichdagi fidoiylik xis-lati mavjud rahbar;

41 balldan 82 ballgacha — fidoiylik xislati past darajadan rahbar toifasi namoyon bo‘ladi.

Vatanparvarlik his-tuyg‘usini baholash mezonlari: Inson sr kurrasining hokimi, qudratli tabiat tomonidan in’om qilingan betakror ne’mati, aql-zakovati bilan mo‘’jizalar yaratuv-chi, biosfera va neosfera to‘g‘risidagi boy bilimlar, taassurotlar, tajribalarning egasi bo‘lishdan qat’i nazar, u muayyan fazoning, vaqtning, harakatlarning hukmi ostida hayot va faoliyat ko‘rsatishga moslashgan, uzoq ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrida unga odatlan-gan. Inson organik va

noorganik dunyo ajoyibotlari, xossalari hamda xususiyatlarini o‘zlashtirganligiga qaramasdan, u kuch-quvvat sohibi, muqim zaminda yashashga, uni avaylashga, sifat jihatidan o‘zgarti-rishga, unga mehr-muhabbatini, salohiyatini bagishlashga qaror qil-gan ongli zotdir.

Xuddi ana shu ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot pallasining sinov-lariga bardosh berib, tabiat ofatlarini yengib, unga ajdodlar hoki, xotirasi oldida qasamyod qilingan, ulug‘langan mo‘’tabar zamin Va-tan deb ataladi. Nafaqat Vatanning bir qism tuprog‘i, bir tomchi suvi, zarrin nuri, musaffo havosi, balki ajdodlarning tajribasi, ma’naviyati, madaniyati, donolar bisoti uchun xalq butun qalb haro-ratini baxshida etadi. O‘zbekiston o‘zbeklarning va unda yashovchi boshqa xalqlarning ona diyori hisoblanib, aholining unga nisbatan iliq, samimiy his-tuyg‘ulari vujudga kelishi tabiiydir.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasiningxalkdarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish va uni baholashga o‘rgatish bolalarda, o‘quvchi yoshlarda, voyaga yetgan kishilarda Vatanga muhabbat, sadoqat, g‘urur kabi yuksak hislar tarkib topishiga xizmat qiladi.

Quyida respublikamiz fuqarolarida vatanparvarlik hissining shakllanganlik darajasini aniklovchi mezonlar tizimini hukmin-gizga havola qilamiz. Mazkur test-so‘rovda his-tuyg‘uning motivi (harakatga keltiruvchi turtki), irodaviy jabhasi (qat’iyatlik), bi-lishga oid tomoni (kognitivlik), xulq-atvorni boshqarish (regulya-tivlik) vazifasi qamrab olingan.

Yo‘riqnoma. Diqqat bilan quyidagi keltirilgan gaplarni o‘qib chiqing va asosan har doim o‘zingizni qanday his qilasiz, sezasiz shunga mos keladigan o‘ng tomonda berilgan javoblar qatoridagi son tagiga chizib qo‘ying.

Test-so‘rov shaxsning ruhiy holatlarida vatanparvarlik his-tuy-g‘usini vujudga kelish darajasini aniklashga yordam beradi.

Test-so‘rov yordamida olingan miqdoriy natijalarni qisqacha izoh-lash quyidagicha amalga oshiriladi.

Test-so‘rov varaqasi, asosan, ikki qismga bo‘linadi. Ularning birinchisi shaxsning hayajonlanish darajasini ko‘rsatadi, ikkin-chisi esa hissiy holatlari.

Siz ushbu savollarning sanoq raqamlariga e’tibor bilan yig‘in-dini hisoblang: 3, 4, 5, 6, 8, 10, 11, 12, 14, 15, 16,22,27,28,30, 34,35, 37 38, 39, 42. So‘ngra qolgan savol raqamlari javobi yig‘indisini hisoblang: 1, 2, 7, 9, 13, 17, 188, 19, 20, 21, 23, 24, 25, 26, 29, 31, 32, 33, 40, 41. Har ikkala yig‘indi orasidagi tafovutga 35 raqamini qo‘shing. Tajribalarda ishtirok etgan shaxslar tomonidan to‘plagan umumiy yig‘indi biz ishlab chiqqan jadvalga binoan 75 ball qiymatiga teng bo‘lsa, u holda ishtirokchilarda xavotirlanish, hayajonlanish kuchli, yuksak his-tuyg‘u esa past ko‘rsatkichga ega ekanligini bildiradi. Sinaluvchilar yiqqan ballar miqdori 75 dan to 115 gacha qiymatdni tashkil etsa, u taqdirda qatnashchilarning

vatanparvarlik his-tuy-g‘ulari o‘rtacha ko‘rsatkichga ega ekanligini anglatadi. Agarda ular to-monidan jamg‘arilgan ballar qiymati yig‘indisi 115 dan yuqori bo‘lsa natijalar tahliliga ko‘ra unday toifadagi insonlarning vatanpar-varlik his-tuyg‘usi yuksak ko‘rsatkichga erishganligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, vatanparvarlik his-tuyg‘usi past darajada shakl-langan fuqaro bilan alohida tarbiyaviy tadbirlarni tatbiq qilish, individual yondashishni amalga oshirish zarur bo‘lib, ularga yordam berish uchun samarali psixologik ta’sir o‘tkazuvchi, hissiyot dinami-kasini maqsadga muvofiq yo‘naltiruvchi, milliy qiyofa xususiyatla-rini o‘zlashtirishga undovchi kechalar, uchrashuvlar tashkil qilish, ishtirokchilarni faollashtiruvchi ijtimoiy-psixologik vaziyatlar yuzaga keltirish ta’lim va tarbiya samaradorligini oshiradi.

Ushbu test-so‘rovdan amaliyotda foydalanish natijasida vatanpar-varlik his-tuyg‘usining motivasion, irodaviy, kognitiv va regulya-tiv jabhalarini psixologik tahpil qilish orqali uning shakllan-ganlik darajasi bo‘yicha insonlar o‘rtasidagi individual farqpash imkoniyati tug‘iladi.

4-Reja. Iroda to‘g‘risida tushuncha

Borliqni aks ettirish, faoliyatni muayyan yo‘nalishda tashkil qilish, muammolar yechimini egallash yuzasidan ma’lum bir qarorga kelish, uni amalga oshirish jarayonida qiyinchiliklarni yengish hara-katlar yordami bilan ro‘yobga chiqadi. Turli ehtiyojlar (shaxsiy, ja-moaviy, tabiiy, madaniy, moddiy, ma’naviy) tufayli vujudga kela-digan, maqsadga yo‘nalganlik xususiyatini kasb etadigan shaxsning faolligi o‘zining tuzilishi, shakli rang-barang bo‘lgan harakatlar, xatti-harakatlar va sa’y-harakatlar yordami bilan tabiat, jamiyat tarkiblarini maqsadga muvofiq kelmaganligi sababli qayta qura-di, takomillashtiradi, ezgu niyatga xizmat qildirishga bo‘ysundiri-ladi. Ehtiyoj, motiv, qiziqish, anglashilmagan, anglashilgan mayl-lar negizidan kelib chiqadigan barcha ko‘rinishdagi harakatlar o‘zla-rining yuzaga kelishiga binoan ixtiyorsiz va ixtiyoriy turkumlarga ajratiladi. Odatda, psixologiyada ixtiyorsiz harakatlar anglanil-gan yoki yetarli darajada anglanmagan istak, xohish, tilak, mayl, us-tanovka va shu kabilarning ichki turtki ta’sirida paydo bo‘lishi natijasida ro‘yobga chiqariladi. Mazkur istak va uning boshqa shakl-lari impulsiv (lotincha 1tri1i ixtiyorsiz qo‘zg‘alish ma’nosini anglatadi) xususiyatiga ega bo‘lib, inson tomonidan anglanilmagan-ligi uchun ma’lum ob’ektga qaratish yuzasidan rejalashtirilmagan, hatto ko‘zda tutilmagan bo‘ladi. Insonning favquloddagi vaziyatda yuzaga keladigan sarosimalik affekti, dahshat, hayajonlanish, ajab-lanish, shubhalanish va shunga o‘xshash boshqa mohiyatli, har xil shakl-dagi xatti-harakatlari ixtiyorsiz turkumdagilarga yorqin misoldir. Undagi atamalar ma’nosi, aks etish imkoniyati bundan oldingi his-siyot to‘g‘risidagi ma’lumotlarda keng ko‘lamda bayon qilingan.

Boshqa kategoriyaga taallukli harakatlar ixtiyoriy harakatlar deb nomlanib, ular maqsad ko‘zlash, maqsadni anglashni va uni amalga oshirishni ta’minlovchi operatsiyalar, usullar va vositalarni shaxs o‘z miyasida tasa^vvur qilishini,

samaradorligini taxminan baholashni taqozo etadi. O‘zining mohiyati bilan tafovutlanib turuvchi ixtiyo-riy harakatlarning alohida guruhini irodaviy harakatlar deb ata-luvchi turkum tashkil qiladi. Psixologik ma’lumotlarga asoslangan holda ularga quyidagicha ta’rif berish mumkin: «Maqsadga erishish yo‘lida uchraydigan qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish jarayo-nida zo‘r berish bilan uyg‘unlashgan, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan ongli harakatlar irodaviy harakatlar deyiladi».

Shaxsning irodaviy faoliyati o‘z oldiga qo‘ygan anglangan maq-sadlarni bajarishdan, amalga oshirishdan iborat sodda shakldagi harakatlarning majmuasidan iborat emas. Zo‘r berishni taqozo et-maydigan ish harakati (masalan, shkafdan choynak olish, sochiqni qoziqqa ilish va hokazolar) bilan irodaviy faoliyat tarkiblari o‘rtasida keskin tafovut mavjud. Irodaviy faoliyat o‘ziga xos xusu-siyatga ega bo‘lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda shaxs o‘z oldiga qo‘ygan va unga muhim ahamiyat kasb etuvchi maqsadlariga o‘zi uchun kamroq qiymatga molik xatti-harakat motivlarini bo‘ysundi-radi. Ustuvor (yetakchi) motivlar qo‘shimcha ko‘makchi motivlarni mu-ayyan yo‘nalishga safarbar qilib, umumiy maqsadga xizmat qildira-di.

Shaxs faolligining har xil ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular funksional tomondan bir-biridan farqlanadi, lekin iroda inson faolligining alohida o‘ziga xos shaklidan iboratligi ajralib turadi. Iroda insonning o‘z xatti-harakatlarini (xulq-atvorini) o‘zi boshqarishini, u yoki bu xususiyatli intilish va istaklarini tormozlashni talab qiladi, binobarin, u anglanilgan turlicha hara-katlar tizimi mujassam bo‘lishini nazarda tutadi. Irodaviy faoliyat mohiyati shunda ko‘zga tashlanadiki, bunda shaxs o‘zini o‘zi bosh-qaradi, o‘zini qo‘lga oladi, o‘zining xususiy ixtiyorsiz impulsiv tomonlarini nazorat etadi, hatto zarurat tug‘ilsa, u holda ularni tamoman yo‘qotadi ham. Iroda paydo bo‘lishining bosh omili inson tomonidan faoliyatning turli tarkiblarining irodaviy harakat-larni tizimli tarzda tatbiq etilishi bunday ish-harakatlarda ong bilan mujassamlashuvchi shaxsning faolligidir. Irodaviy faoli-yat shaxs tomonidan keng qo‘lamda anglanilgan va ruhiy jarayonlar-ni amalga oshirish xususiyati bo‘yicha irodaviy zo‘r berishni talab qiladigan aqliy amallarni taqozo etadi. Bunday aqliy amallar favquloddagi vaziyatni baholash, kelgusida amalga oshirishga mo‘ljal-langan harakatlar uchun vositalar va operatsiyalar tanlash, maqsad ko‘zlash va unga erishishning usullarini saralash, ularni tatbiq etish uchun muayyan qaror qabul qilish kabilar bo‘lib hisoblanadi. Ushbu amallarning barchasi irodaviy faoliyatning operasional tomoni deb baholanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ba’zi psixologik holatlarda, vaziyatlarda irodaviy faoliyat insonning butun hayot yo‘lini aniq-lab beradigan, uning ijtimoiy-psixologik qiyofasini (siymosini) namoyon qiladigan va ma’naviy-axloqiy qadriyatini ro‘yobga chiqarishga yordam beradigan qarorga kelish bilan uyg‘unlashadi. Shuning uchun bunday irodaviy harakatlarni amalga oshirish jaraenida shaxs ong-li harakat qiluvchi sub’ekt tariqasida ham ularning kashfiyotchisi, ham bir davrning o‘zida ijrochisi (bajaruvchi) bo‘lib ishtirok etadi.

Mazkur holatda shaxs o‘zida to‘kis mujassamlangan qarashlari tizi-miga (dinamik stereotipiga), iymon-e’tiqodga, ishonch va dunyoqara-shiga, qadriyatiga, hayotiy munosabatlari majmuasiga, aql-zakovati-ga, ma’naviyatiga asoslangan holda ongli yo‘l tutadi. Shaxsning umr (hayot) yo‘lida qadriy xususiyat kasb etuvchi javobgarlik hissi iroda-viy harakatlarni tatbiq qilishda uning miyasiga mujassamlashgan, anglanilgan barcha ijtimoiy-psixologik **shartlangan fazilatlar** (qarash, e’tiqod, qadriyat, ma’naviyat va hokazolar) sog‘lom fikr, us-tuvor (yuksak tuyg‘u) hissiyot tariqasida faollashadi, mustahkamlana-di hamda baholash, qarorga kelish, tanlash, ijro etish (bajarish) jarayonlariga ta’sir qilib, umumiy hamkorlik tizimida o‘z izini qoldiradi. Javobgarlik hissi shaxs ma’naviyati, ruhiyati, qadriyati namoyon bo‘lishi, kechishi, takomillashishi bosqichlarining boshqa-ruvchisi, ongli turtkisi, sifatining ko‘taruvchisi funksiyasini ba-jaradi.

Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining yirik namo-yandalari ijodiy faoliyatiga taallukli ma’lumotlar, qarorga kelish namunalari ularning ijtimoiy-psixologik qiyofalarini aks etti-rish imkoniyatiga egadir. Masalan, buyuk sarkarda Amir Temur Ko‘ra-goniyning «Kuch adolatdadir» degan hikmati, Alisher Navoiyning «Zanjirband sher - yengaman der» xitobi, Cho‘lponning «Xalqdengiz-dir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir» chaqirig‘i javobgarlikni yuksak his etgan holda xalqining xohish irodasini ifoda qilib, qat’iy irodaviy xatti-harakatlarini amalga oshirganlar, shu bilan birga ular o‘zlarining ma’naviy, qadriy, ruhiy qiyofalarini chuqur va ko‘pyoqpama ochib berishga musharraf bo‘lganlar. Ijtimoiy-tarixiy sahifalarimizda, yaqin o‘tmishimizda va istiqlol davrida ko‘plab vatandoshlarimiz irodaviy xatti-harakatlarining namunaviy ko‘ri-nishlarini namoyish qilganlar, bular rasmiy manbalarda va badiiy adabiyotlarda keng ko‘lamda yoritilgan.

Yuqoridagi mulohazalardan tashqari, irodaviy faoliyatning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari ham mavjuddir va ular muayyan tavsif-•parga asoslanib talqin qilinadi. Irodaviy faoliyatni yoki alohida iroda aktini (lotincha asShz harakat degan ma’noni anglatadi) amal-ga oshirishning xususiyatlaridan biri — bu bajarilayotgan harakat-larning erkin ekanligini shaxs tomonidan anglash (bunday qilsa Ham bo‘ladi yoki unday qilsa ham) iboratligidir. Ushbu jarayonda shaxs Ma’lumki, o‘z xulq-atvori va o‘z faoliyati sabablarini tashqi omil-lardan deb tushunishga moyil odamlar mavjud.

Psixologiya fanida nazoratni lokallashtirish deganda shaxsning individual faoliyati natijalari uchun mas’uliyatni tashqi kuchlarda va sharoitlarda qayd qilishni, shuningdek, ularning kuch-g‘ayratiga, qobi-liyatiga moyilligini belgilaydigan sifatlar majmuasi tushuniladi. Nazoratni lokallashtirish tashqi (eksternal) hamda ichki internal tur-lariga ajratiladi. Nazoratni tashqi lokallashtirishga ba’zi misol-larni keltiramiz. Xodim ishga, talaba darsga kech qolsa, bu hodisani turlicha bahonalar bilan izoxlashga harakat qiladi: 1) avtobus o‘z vaqti-da kelmadi; 2) yo‘lovchilar ko‘p bo‘lganligi uchun avtobusga chiqa olma-dim; 3) avtobus juda sekin harakat qiladi; 4) transport buzilib qola-di; 5) ko‘chada yo‘l harakati fojiasi yuz bergani tufayli ushlanib qol-dik va hokazo.

Psixologik tadqiqotlar natijalarining ko‘rsatishicha, nazoratning eksternal lokallik turining namoyon bo‘lishi shaxsning muayyan nuqsonlari va illatlariga bevosita bog‘liqsir, chunonchi insonning mas’ulyyatsizligi, o‘z imkoniyatiga ishonmasligi, hadiksira-shi, xavfsirashi, shaxsiy niyatini ro‘yobga chiqarishni paysalga solishi va boshqalar. Mabodo shaxs o‘z xulq-atvori oqibati uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olsa, o‘z qilmish-qidirmishlarini shaxsiy xususiyatidan deb tushunsa, bunday psixologik voqelik nazoratning internal (ichki) lo-kallashuvi mavjud ekanligini bildiradi. Nazoratning ichki lokal-lashtirishiga xos insonlar maqsadga erishish yo‘lida mas’uliyat yoki javobgarlik his etadilar, o‘zini o‘zi tahlillash imkoniyatiga egadir-lar. Ijtimoiy tarbiya jarayonida shaxsda lokallashtirishning har ik-kala (eksternal, internal) turini shakllantirish tufayli uning mus-tahkam shaxsiy fazilatiga aylantirish mumkin.

Irodaning o‘ziga xos ko‘rinishlari shaxsningtavakkalchilik vazi-yatidagi xatti-harakatida ro‘yobga chiqadi. O‘ziga mahliyo qiluvchi maq-sadga erishish yo‘lida xavf-xatar, yo‘qotish dahshati, muvaffaqiyat-sizlik unsuri bilan ham hamohang, ogoh dadil harakat tavakkalchi-lik deyiladi. Tavakkalchilik jarayonidagi noxushlik kutilmasi mu-vaffaqiyatsizlik ehtimoli bilan noqulay oqibatlar darajasi uy-g‘unlashuvi mezoni orqali o‘lchanadi. Tavakkalchilikda muvaffaqiyat bilan muvaffaqiyatsizlik kutilmasi ehtimoli yotadi, yutuqqa eri-shish shaxsda xush kayfiyatni vujudga keltirsa, mag‘lublik esa no-xushlik holatining bosh omili hisoblanadi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, yutuq (g‘oliblik) quvonch nashidasini uyg‘otsa, omadsizlik jazo, mod-diy va ma’naviy yo‘qotishni ro‘yobga chiqaradi. Lekin shunga qaramas-dan, insonlar tavakkal qilish harakatidan hech mahal voz kechmagan xohu kundalik hayot muammosiga aloqador voqelik, xoh murakkab meh-nat, xohharbiy yurishlar bo‘lishiga qaramay, shuning uchun tavakkal-chilik insoniyat dunyosining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davri-ning qaror qabul qilish namunasi, mahsuli sifatida shaxsning hayoti va faoliyatida to hozirgacha ishtirok etib kelmoqda.

Psixologik manbalarda ko‘rsatilishicha, tavakkalchilik harakati-ni amalga oshirishning o‘zaro uyg‘unlashgan ikkita sababi mavjudli-gi qayd qilib o‘tiladi. Qarorga kelishning birinchi sababi — bu yutuqqa umidvorlik muvaffaqiyatga erishilganda kutilishi ehtimol qiymatning mag‘lub oqibati ko‘rsatkichidan yuksakroq bo‘lishiga ishonchdir. Ushbu voqelik vaziyatni tavakkalchilik deb atalib, mu-vaffaqiyat motivatsiyasini muvaffaqiyatsizliqdan qutilish motiva-siyasidan yaqqolroq namoyon bo‘lishida o‘z ifodasini topadi. Shu bo-isdan tavakkalchilik inson uchun qaror qabul qilishda muhim ahami-yat kasb etadigan ruhiy hodisa hisoblanib, u yoki bu tarzdagi harakat-ni amalga oshirib, o‘z xulq-atvorini namoyish qiladi. Dehqon kechi-kib yerga urug‘ qadashga tavakkal qilgan bo‘lsa, hosil pishib yetilishi xavfi tug‘iladi, lekin agrotexnika vositalaridan jadal sur’atda foy-dalansa, asosiy mablag‘ni sarf qilib qo‘yish tashvishi uyg‘onadi. Iro-daviy qaror qabul qilib, tavakkalchilikdagi uning mardligi, ta-shabbuskorligi, qat’iyatligi mehnatda yutuqqa erishishni ta’min-laydi. Ammo bunday };arorga kelish goh o‘zini okdaydi, goho mutlaqo oqlamasligi ham mumkin. Bu borada

harakatning xavfli yoki xavfsiz yo‘lini tatbiq etish, tavakkalchilikning g‘oyaviy, ma’naviy yuksak-ligi, qarorning oqilonaligi baxtli tasodif sari yetaklashi mum-kin. Ba’zan tavakkalchining qobiliyati, qat’iyligi, malakaligi, hisob-kitobning to‘g‘ri qilganligi unga omad keltiradi.

Tavakkalchilikning ikkinchi sababi xatti-harakatning xavfli yo‘lini afzal bilgan xulq-atvorda ko‘zga tashlanadi. Bu voqelik shaxs-ning vaziyatosti faolligi deb nomlanib, insonning vaziyat talabla-ridan ustuvorlikka erishishida, undan (vaziyatdan) yuksakroq maqsad Qo‘ya olishda namoyon bo‘ladi. Tavakkalchilikning bu turi «vaziyatusti» yoki «xolisonalik» deb atalib, tavakkalchilik uchun tavakkalchilikka yo‘l qo‘yishni anglatadi hamda tavakkalchilikning tavakkalchiligi atamasini keltirib chiqaradi. Shaxsdagi tavakkalchilikni riskometr Deb ataluvchi maxsus asbobda o‘lchab ko‘rish mumkin. Bu asbob yordamida psixologik tajribada insonlarda muvaffaq bo‘lish ehtimoli mav-jud xolisonalik tavakkalchilikka moyillik, ularning haqiqiy xavf ostida irodaviy harakatlarini oldindan aytib berish (bashorat Qilish) imkoniyati vujudga keladi.

Iroda aktining tuzilishi: Iroda muammosiga bag‘ishlangan bundan oldingi sahifalarda ta’-kidlab o‘tilganidek, shaxsning irodaviy harakatlari murakkab psi-xologik mazmun, mohiyat, ma’no kasb etishi bilan tavsiflanadi. Shuni ham eslash o‘rinliki, shaxsda motivlar kurashining paydo bo‘lishi uchun unga mas’uliyat, javobgarlik hissining yuklatilishi, irodaviy harakatni amalga oshirish zaruriyati tug‘ilishi, mazkur vaziyatda shub-halanish, ikkilanish uyg‘onishi favqulodda unda irodaviy zo‘r be-rishlar vujudga kelishi lozim. Bu voqelikni tushuntirish yoki izoh-lash uchun psixologik nuqtai nazardan iroda aktining tarkiblari-dan iborat ekanligini anikdanish uchun uning unsurlari, bo‘linma-lari, tuzilishi to‘g‘risida mulohaza yuritish joiz.

Insonning miyasida tug‘iladigan maqsadga erishish tufayligina irodaviy harakat amaliyotga tatbiq etiladi. Ushbu fikr boshqacharoq ifodalanganda, shaxs u yoki bu harakat yordami bilan qo‘yilgan maqsa-diga erishish yo‘llarini anglab yetadi, ya’ni harakat bilan maqsad, o‘rtasidagi uyg‘unlik insonga tobora yaqqollashadi, anglashiniladi. Holbuki shunday ekan, shaxs o‘zining ruhiy holatini o‘zgartirishga qaror qiladi, qondirilishi lozim bo‘lgan ehtiyojlarini muayyan tar-tibga keltiradi, ularni birlamchi va ikkilamchi darajalarga ajra-tishni lozim topadi. Xuddi shu yo‘sinda irodaviy harakatni amalga oshirishningtarqoqva yig‘iqtarkiblari (unsurlari) maqsadga yo‘nal-tiriladi. Ushbu jarayonga inson shaxsini undayotgan, ham anglanil-gan, ham anglanilmagan ruhiy tayyorgarlik motivdan iborat bo‘lib, maqsadga intilish va unga erishish majburiyatini tushuntirishga xizmat qiladi.

Insonning hayoti va faoliyatida uning borliqdagi narsalarga nisbatan o‘zini tortadigan har xil xususiyatli maqsadlari vujudga kela boshlaydi. Lekin shuni ta’kidlash joizki, shaxs oldida paydo bo‘lgan maqsadlarni u tanlashi, mohiyat

jihatidan ma’qulligi (no-ma’qulligi) yuzasidan qaror qabul qilishi, ularning hozirgi davr uchun ahamiyat kasb etishini, istiqbol imkoniyatlari singari xusu-siyatlarini hisobga olishi lozim. Shaxs faolligining mexanizmi sifatida unda aniq, yaqqol, ob’ektga yo‘nalgan maqsadni amalga oshi-rish (qaror toptirish) ezgu niyati ro‘yobga chiqadi. Masalan, kundalik moddiy ehtiyojini qondirish, sayohatga chiqish, ish joyini almash-tirish, til Markaziga o‘qishga kirish, qarindoshlari holidan xabar olish, televizor tomosha qilish istaklari tug‘ilishi mumkin. Bu as-noda iroda aktining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, nafaqat xohish-istakdagi maqsadni tanlay olish, balki uni amalga oshirish imkoniyati aniqroq ekanligini tushunish hamda anglashdir. Xuddi shu tariqa irodaviy harakatning muhim tarkibi, binobarin, ajra-tib olingan maqsadga erishishning yo‘l-yo‘riqlari shakli va mohiya-ti to‘g‘risida mulohaza yuritish, uning ustida bosh qotirish davri boshlanadi. Mazkur jarayonda fikr yuritilayotgan vositalarning maq-sadga erishish yo‘liga muvofiqligi tahlil qilinadi, aqlan chamalab ko‘riladi, uni ro‘yobga chiqarishga mutlaqo mos yordamchi uslublar, hara-katlar tanlanadi. Yuqorida mulohaza yuritilgan aqliy xatti-hara-katlarning barchasi o‘zining mohiyati bilan iroda aktining tarki-biga kiruvchi aqliy jarayonlar, aqliy lahzalar, aqli vaziyatlar si-fatida mujassamlashadi.

Irodaviy aktning boshlanishi maqsadga erishish yo‘l-yo‘riqlari haqiqatan ham aniq istaklarning ushalishiga xizmat qilishi to‘g‘ri-sida oqilona qarorga kelishda o‘z ifodasini topadi. Psixologik ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, tanlangan harakatlar oqilona, omil-kor, odilona ekanligi to‘g‘risida qarorga kelinganida, maqsadga mu-vofiqligi ishonchli dalillar ustiga qurilganida ushbu jarayon qi-yinchiliklarsiz sodir bo‘ladi. Biroq aksariyat hollarda qarorga ke-lish murakkab jarayonga aylanadi, buning natijasida motivlar ku-rashi yuzaga keladi, binobarin, tanlash, yakdillikka kelish muddati birmuncha cho‘ziladi. Masalan, shaxsda ish joyini almashtirish xo-hish-istagi tug‘ildi deb aytaylik, biroq unda boshqa xususiyatga ega bo‘lgan intilishlari hukm surishi mumkin, o‘z navbatida ular ishxo-nani o‘zgartirishga to‘sqinlik ham qiladi. Jumladan, ish joyini o‘zgartirish maoshning yangi ishxonada bir oz yuqoriligi bilan bog‘-liq bo‘lsa-da, lekin yangi muhitga va jamoaga, notanish shart-sharo-itga, boshqacha talabga moslashish (ko‘nikish) zarurligini taqozo eta-di. Ana shu tarzdagi munosabatlar bilan motivlar kurashi yuzaga ke-ladi, uning negizida: a) yangi ish joyidan, b) ichki qanoatlanish tuyg‘usidan voz kechish kerakmi; yoki v) qimmatli imkoniyat tug‘ili-shi, g) uning istiqboli evaziga o‘zining boshqa ehtiyojlaridan yuz o‘girishi lozimmi, degan motivlar kurashi boradi. Motivlar kura-shida u yoki bu tarzda qarorga kelishni ma’qullash (e’tirof qilish) yoki ma’qullamaslik (e’tirof etmaslik) to‘g‘risidagi mulohazalarni tahlil qilish (ularni chamalash) bilan cheklanib qolmasdan, balki o‘zaro ziddiyatli, bir-birini inkor etuvchi harakatlarni tatbiqetish-ga undovchi qabilidagi motivlar kurashi ham tug‘ilishi mumkin. O‘zaro Qarama-qarshi motivlarning salmog‘i qamrovli bo‘lsa, shaxsni faoliyatga undovchi ehtiyojlarning ob’ekti o‘zining qiymati (ahamiyat-liligi) bilan o‘zaro baravarlashsa, u holda bunday motivlar kurashi ularga hamohang tarzda kuchli kechadi. Mabodo shaxsda

televidenieda kino ko‘rish xohishi bilan do‘stining tavallud topganligini tab-riklash uchun borish istagi o‘rtasida ruhiy kurash yuzaga kelsa, mo-tivlar kurashi sodir bo‘lmaydi, chunki bunday mahalda shaxsda kino-ni tomosha qilish tilagi (intilish) o‘zidan o‘zi yo‘qoladi. Lekin motivlar kurashi hamisha ham shunday yengil kechadi, deb xulosa chi-qarmaslik kerak, bunda munosabat, xohish shaxs uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etishiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Jumladan, shaxsni (sa-farga otlanish (tayyorgarligi) hamda qarindoshdagi to‘yga tabriklash uchun borish istaklari (zarurati) o‘rtasidagi motivlar kurashi o‘zaro bir-biriga zid ekanligi tufayli faqat ulardan bittasini tanlash taqozo etilganligi sababli murosasiz kurash tariqasida keskin tus olishi mumkin. Shunga o‘xshash motivlar kurashi natijasida muayyan qarorga kelishi yoki qaror qabul qilish vujudga keladi, bunda shub-halanish, sustlik, loqaydlik, ikkilanish singari sifatlar (goho illatlar) faoliyat doirasidan siqib chiqarilib, butun diqqat-e’ti-bor qarorni amalga oshirishga yo‘naltiriladi. Mabodo qarorga ke-linganidan keyin ham jur’atsizlik shaxsni ikkilanish sari yetak-lashda davom etaversa, u holda irodaviy harakat tub ma’nodagi g‘ay-ratdan, shijoatdan, sobitqadamlikdan, belgilangan maqsad sari in-tilishdan mahrum ekanligini aks ettiradi. Maqsadga erishish uchun shaxs o‘zini tayyorlaydi, psixologik va statistik kutilmalar o‘zaro tafovutlanishi yuzasidan ma’lumotlarni umumlashtiradi.

Shuni eslatib o‘tish o‘rinliki, qarorga kelish, uni amalga oshi-rishda qiyinchiliklarni bartaraf etishda irodaviy zo‘r berish mu-him ahamiyat kasb etadi. Aksariyat psixologik holatlarda inson to-monidan qarorga o‘z ehtiyojlarining ustuvorligi darajasi ta’siri-ni zaruriy chora tariqasida yengish bilan uyg‘unlashgan, jiddiylik, zo‘riqish xususiyatli ichki zo‘r berish jarayoni bilan uzviy bog‘liq-likka ega. Shaxs o‘zidagi qarama-qarshiliklarni yengishga nisbatan bunday munosabat (zaruriyat) birinchidan, sub’ektning ayrim istak-lari, mustahkamlangan salbiy odatlari; ikkinchidan, turmush hodi-salariga nisbatan ko‘nikish hissi; uchinchidan, ma’qullanilmagan axloq-odob prinsiplari, an’analar bilan kurashining kechishi iro-daviy aktning o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan xislati (sifati) iro-daviy zo‘r berish tomonidan idora qilinadi.

Insonda vujudga kelgan kuchli, shijoatli intilishlarni yo‘qo-lishiga harakat qilinadi Biroq qabul qilingan qaror (yoki qarorga kelish)ning axloq-odob prinsiplariga javob bera olishini (muta-nosibligini), ijtimoiy ahamiyat kasb etish imkoniyatini anglash $_{n}$ing o‘zi shaxs uchun murakkab ishni «o‘lik» nuqtasidan siljitishga, qo‘zg‘atishga yetarli darajadagi omil bo‘lib xizmat qila olmaydi.

Mazkur holatni shaxs tomonidan tushunish (anglash) burch, mas’u-liyat, javobgarlik, qat’iyatlilik tuyg‘ulari bilan qat’iy ishonch, zaruriyat, barqaror ichki kechinmalar (regulyator hislar) mustahkam-lansa, bunday davrda ushbu narsa ko‘pgina intilishlarni yo‘qotishga imkon beradigan haqiqiy irodaviy zo‘r berishni vujudga keltiradi. Yuksak hislar (burch, mas’uliyat, javobgarlik, vatanparvarlik, fi-doiylik kabilar) axloqiy talablar interiorizatsiyaga aylanganli-gini, ya’ni shaxsning ma’naviy mulkiga o‘tayotganligini, egoistik (xudbinlarcha) intilishlar bilan

altruistik (ijtimoiy fidoiy-lik) istaklari (xohishlari) o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kela-digan favquloddagi vaziyatda amalga oshiriladigan xulq-atvorning ichki mexanizmlarga aylanganini aks ettiradi. Yuksak hislar mo-tivlar kurashida intilish o‘ng yoki so‘l tomonga og‘ishini aniklaydi, maqsadni amalga oshishini ta’minlashda regulyator funksiyasini bajaradi.

Psixologiyada irodaviy akt to‘g‘risida mulohaza yuritilganda shu narsa ta’kidlanadiki, irodaviy zo‘r berishning ichki kechishi faqat qarorga kelishda paydo bo‘lmaydi, balki uni ijro etish jarayonida jadal sur’atga erishishda ham amalga oshadi. Buning psixologik ma’-nosi shuki, qabul qilingan qarorni ijro etish (bajarish) aksariyat hollarda sub’ektiv va ob’ektiv xususiyatli bir talay qarama-qarshi-liklarga duch keladi, ularni yengib o‘tish esa irodaviy zo‘r berishni, zo‘riqishni talab qiladi. Chunonchi, bozor iqtisodiyotiga maqsad va vazifasiz, tasodifiy yondashuv sifatida moslayotgan shaxs o‘z turmush tarzini o‘zgartirmasa, uzoqni ko‘zlab ish yuritmasa (bugungi kuni o‘tga-niga shukur qilib yashasa), faollik ko‘rsatmasa, imkoniyatidan foy-dalanmasa bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Inson-ningo‘zligi bilan ichki kurashi, xarakter xislatlarini o‘zgartirish-ga intilishi irodaviy zo‘r berishi tufayli amalga oshadi, xolos. Shuningdek, inson sanitariyaga, gigienaga rioya qilib yashashi (sayr qilish, xona havosini almashtirish, ovqat hazm bo‘lishini kutish, ozodalikka e’tibor qilishi yangi ko‘nikmalarni egallash kabi) iro-daviy zo‘r berishni taqozo etadi. Bu psixologik voqelikning negi-zida insonni oldin hayajonga solmagan, tashvishlantirmagan narsalarga e’tibor qilish mexanizmi yotganligi tufayli favquloddagi Qarshilik salbiy his-tuyg‘ularni (stress, affekt, frustratsiya kabilarni) vujudga keltiradi. Holbuki shunday ekan, shaxsning o‘zini O‘zi bilan ichki ruhiy kurashi natijasida muvaffaqiyatga erishilsa, u holda ijobiy xususiyatli hissiy kechinmalar yuzaga keladi, o‘zi-ning ustidan o‘zi hukmronlik tuygulari, o‘z kuch va qudratiga ishonch, uni anglab yetish, o‘ziga o‘zi buyruq berish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zini oldiga qo‘ygan eng muhim maqsadlarga erishish imkoniyatini tushunish ro‘yobga chiqadi. Ushbu ruhiy jarayonlar muammo yechimida ishtirok etishidan qat’i nazar, irodaviy zo‘r berish va uning ichki kechishi kuchli zo‘riqishlar tufayli amalga oshadi. Bu o‘rinda shaxs-ning xarakteri, individual xususiyatlari, ijtimoiy shartlangan xislatlari, har bir narsaga jiddiy munosabati yetakchi va ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o‘zini o‘zi boshqarish, gumanistik psi-xologiya tarkibidagi kategoriyalar hamda ularning hayot va faoliyatda namoyon bo‘lishi muhim rol o‘ynaydi. Ma’lumki, shaxsiy mayllar, ustanovkalardan tashqari, unga ijtimoiy ustanovkalarning ta’si-ri, o‘z roli, statusi yuzasidan baholash tizimining to‘g‘ri shakllan-ganligi bunda alohida ahamiyatga ega.

Shaxs ma’lum bir faoliyatni amalga oshirgunga qadar o‘z ruhiy olamida yuzaga kelgan ayrim sub’ektiv («Men» bilan «Men» emas qabildagi) qarshiliklarni yengishdan tashqari, unga muayyan tashqi, (ob’ektiv tarzdagi) ziddiyatlarni ham barham toptirishga to‘gri ke-ladi. Aytaylik, inson uchun ro‘yobga chiqarish zarur hisoblangan maq-sad aniq (yaqqol), uni amalga oshirish yuzasidan hech qanday shak-shubha bo‘lmasa-da, shuningdek, qarorga kelishda kuchsiz motivlar ku-rashi

davom etsa-da, lekin qarorni ijro qilishda ba’zi bir qiyin-chiliklar tug‘ilishi mumkin. Mazkur jarayonda vujudga kelgan qar-shilik va qiyinchiliklarni yengish insondan chidam, qat’iylik, fav-quloddagi, sira kutilmagan xolatni inobatga olishni taqozo etadi. Ba’zida esa uzluksiz ravishda ular bilan kurashish, irodaviy zo‘r berish, ularni yengish uchun esa ruhan tayyorgarlik mayli bilan qurol-lantirishni talab etadi. Bunday vaziyatlar zo‘riqish, tanglik, zo‘r berish, jiddiylik ma’lum davr davomida shaxsda saklanib turish majburiyatini yuklaydi.

Psixologik ma’lumotlarga qaraganda, irodaviy sa’y-harakat uchun o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan irodaviy zo‘r berish aksariyat hollar-da motivlar kurashidagi qarama-qarshilik yuzaga kelganligi bilan emas, balki shaxs tomonidan qabul qilingan qarorni ijro etish (bajarish, ado etish) jarayonida ob’ektiv xususiyatga molik qiyin-chiliklarni yengish tufayligina namoyon bo‘ladi. Xuddi shu bois iro-da akti tuzilishi tahlilining ko‘rsatishicha, ushbu holat iroda faoliyatining bir talay xususiyatlarini xaspo‘shlashga imkon yaratadi. Shuning bilan birga, irodaviy faoliyatning shaxs xatti-harakatla rida muayyan ustuvor vazifalar (funksiyalar) ijro etishini (baja-rishini) ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiqdir. Mazkur funksiya-lar: birinchidan, shaxsning xatti-harakatlarini amaliyotga tatbiq qilishningsifatdarajasini yuksaltiradi. Ikkinchidan, inson hayoti va faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi muammolar yechimini topishga sharoit yaratadi. Uchinchidan, inson shaxsiga muammo mohiya-tiga kirishini ta’minlaydi, shuningdek, harakatni maqsadga muvo-fiqlashtirishga xizmat qiladi.

Irodaviy faoliyat insonningxatti-harakatlarini uningborliqqa (atrof-muhitga) nisbatan ongli shaxs sifatida o‘z oldiga qo‘ygan us-tuvor maqsadlari mohiyatidan kelib chiqqan holda boshqaradi. Shaxs, bu asnoda, o‘ziningtanlagan ideallariga, uni yo‘naltiruvchi g‘oyalari-ga, ishonch-e’tiqodlariga, qarashlariga, o‘zga kishilar beradigan ba-holariga, o‘ziga o‘zi baho berish mezonlariga nomutanosib istaklar, xohishlar, tilaklar vujudga keltirmaslikka, ularni to‘xtatishga yoki batamom bartaraf etishga intiladi. Bu holat tahlili shundan dalo-lat beradiki, iroda bu o‘rinda shaxsning xatti-harakatlarini ji-lovlash (to‘xtatish), nazorat qilish, boshqarish, chetga og‘ishdan saq-lash (cheklash) funksiyalarini aks ettiradi. Irodaning xatti-hara-katlarini boshqarish funksiyasi shaxs uchun noxush, noqulay, yoqim-siz xohish-istak, harakat va intilishni cheklash, to‘xtatish, tiyish kabilardan iborat bo‘libgina qolmay, balki inson shaxsiy faolli-gini muayyan jabhaga, sohaga yo‘naltirish, o‘z harakatlari quvvatini oshirish, barcha narsalarni umumiy maqsadga muvofiqlashtirishdan iboratdir. Irodaviy jarayon hamisha shaxsni faollikka chorlaydi, uni qat’iy yo‘l belgilash sari yetaklaydi, barqaror harakat qilishga yo‘naltiriladi, ikkilanish, shubhalanishningoldini oladi. Shuning uchun ham maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar, amalga oshirilgan in-tilish, ro‘yobga chiqarilgan ezgu niyat shaxsda o‘ziga ishonch tuyg‘usini uyg‘otadi, dadil amallar qilishga yo‘naltiriladi, orzularni ushatishga nisbatan faol maylni shakllantiradi. Insonning erishgan yutug‘i, muvaffaqiyati har bir irodaviy harakat barqarorligini ta’min-laydi, amallar tanlash, qaror qabul qilish, shaxsiy uslubni tarkib toptirishni jadallashtiradi, yangi irodaviy harakatlarni amalga oshirishni yengillashtiradi,

o‘zidagi irodaviy sifatlarning tako-millashuviga puxta negiz hozirlaydi, irodaviy zo‘r berishni taqozo etuvchi harakatlarni tatbiq qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mazkur jarayon ham anglanilgan, ham anglanilmagan tarzda, motiv-^{La}R kurashi orqali (kuchsiz), irodaviy zo‘r berish, qiyinchiliklarni yengish tufayli namoyon bo‘ladi.

Iroda uchun irodaviy xatti-harakat motivatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu bois irodaning negizini shaxsning xatti-hara-katlari va ishlarining keng ko‘lamli, rang-barang xususiyatli mo-tivlashtirilishiga omil (turtki) tariqasidagi ehtiyojlarni vujud-ga keltiradi. Psixologiyada motivlashtirishning uch turi mavjudli-gi ta’kidlanadi (psixologik hodisalarning bir-biri bilan jips bog‘langan, lekin o‘zaro to‘la mutanosib bo‘lmagan, nisbiy mustaqil ko‘rinishlari motivlashtirish deyiladi).

1. Shaxsning ehtiyojlarini qondirish bilan shartlangan, uni faoliyatga undovchi (turtki) tarzda vujudga keluvchi motiv sifatida-gi motivlashtirishdir. Mazkur holatda motivlashtirish faollik nima sababdan vujudga kelishini, shaxsni faoliyatni amalga oshirishga undovchi ehtiyojlar mohiyatini tahlillashga xizmat qiladi.

Motivlashtirish faollik nimalarga yo‘naltirilganligini, nega aynan shunday xulq-atvor tanlanganligini, nima uchun boshqasiga e’tibor berilmaganligini asoslashga qaratiladi. Bu o‘rinda motiv-lar shaxsning xulq-atvor yo‘nalishini tanlashni aks ettiruvchi sa-bablar funksiyasini bajaradi. Bularning barchasi yaxlit holda kel-tirganida inson shaxsining yo‘nalishini vujudga keltiradi.

Motivlashtirish — bu inson axloqi va faoliyatini o‘zi boshqa-ruvchi vosita tariqasida namoyon bo‘lishidir. Ushbu vositalar tarki-biga emotsiyalar, xohishlar, tilaklar, qiziqishlar, mayllar va bosh-qalar kiradi. Masalan, emotsiyada insoniy fe’l-atvorning shaxsiy aks ettirish mohiyati baholanadi, binobarin, uning tub maqsadi faoliyat tuzilishiga mos tushmay qolsa, u taqdirda his-tuyg‘ular uning yo‘nalishini o‘zgartiradi. Buning natijasida fe’l-atvor qayta quri-ladi, oldingi harakatlarni jadallashtiruvchi yordamchi kechinmalar va boshqalar.

Shunday qilib, irodaviy harakatda uni motivlashtirishninguchta jabhasi (sohasi), ya’ni faollik manbai ekanligi, inson shaxsining yo‘nalganligi, o‘zini o‘zi boshqarish vositasiligi aks etadi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, irodaning asosi motivlashtirishga sabab bo‘luvchi ehtiyojlardan iborat ekanligi da-lillab o‘tiladi. Ehtiyojlar esa irodaviy harakatlar bajarilishini ta’minlaydigan yoki ularga to‘sqinlik qiladigan motivlarga aylana boradi. Irodaviy harakatlarning motivlari (sabablari) muayyan da-rajada anglanilgan xususiyat kasb etadi va shaxsni ularni amalga oshirishga yo‘naltirib turadi.

Psixologiyada ehtiyojning anglanilganligi darajasiga asoslan-gan holda intilish, istak kabilarni psixologik jihatdan tafovut qilish mumkin. Agarda ularning mohiyatini ta’rif orqali yoritish-ga harakat qilsak, u holda o‘zaro farqini tezda aniqlab olish imko-niyatiga ega bo‘lamiz. Intilish — yetarli darajada anglanilmagan, farkdanish, tabaqalashish imkoniyati sust ehtiyojdan tashkil topgan faoliyat motividan iboratdir. Masalan, shaxs yozgan maqolasini bo-sib chiqarishga intilishni xayoldan o‘tkazish chog‘ida nashriyotni ko‘z o‘ngiga keltiradi, muharrir bilan uchrashganda, suhbatlashganda mam-nuniyat tuyg‘usini his etadi. Xuddi shu bois intilish ob’ekti bilan takror-takror uchrashuvga rozi bo‘ladi va o‘z intilishini davom etti-rishga qaror qiladi. Biroq inson ba’zi hollarda unga huzur-halovat bag‘sh etayotgan motiv (sabab) mohiyatini anglamaydi ham, chunki u qan-day natijaga erishish mumkinligi to‘g‘risidagi ma’lumotga ega emas. Bundan ko‘rinib turibdiki, intilish psixologik jihatdan yetarli darajada aniqlikni o‘zida mujassamlashtirmaydi, ayrim shubhalar hukm surish ehtimoli mavjud, harakat unsurlari yuzasidan taxmin yetishmaydi.

Istak-shaxs tomonidan ehtiyojning yetarli darajada anglanilgan-ligi bilan tavsiflanuvchi faoliyat motividir. Intilishdan farqli o‘laroq istaqda nafaqat ehtiyoj ob’ekti, balki uni qondirishning yo‘l-yo‘riqlari, vositalari ham inson tomonidan tushuniladi. Ma-salan, oliy maktab o‘qituvchisi o‘qitish samaradorligini oshirish istagini bildirib, bu holatni ijtimoiy ehtiyoj sifatida tasavvur etib, ta’limning faol metodlarini qo‘llash haqida o‘ylaydi, o‘z faoliyatini yangicha tashkil qiladi, iqtidorli, bo‘sh o‘zlashtiruvchi talabalar bilan individual ishlash grafigini ishlab chiqadi, qo‘llanma-lar yaratish rejasini tuzadi va hokazo.

Inson faoliyatining motivlari (motivatsiyasi) uning yashash shart-sharoitlarini aks ettiradi, shuningdek, shaxs tomonidan namoyon ettirilgan ehtiyojlarini fahmlash imkoniyatini vujudga keltira-di. Ehtiyojlar ahamiyatining o‘zgarishi tufayli muayyan psixologik holatlarda motivlar kurashi paydo bo‘ladi, bunda bir istak boshqa istakka nisban qarama-qarshi qo‘yiladi, bu haqida oldingi sahifa-larda mukammal mulohazalar yuritilgan.

Qarshiliklar, qiyinchiliklar, nizoli vaziyatlarni yengish uchun irodaviy zo‘r berishga to‘g‘ri keladi. Irodaviy zo‘r berish to‘g‘risida mulohaza yuritilgan bo‘lsa-da, lekin unga ta’rif berilmaganligi sababli ayrim aniqpiklar kiritish joiz deb hisoblaymiz. Iroda-viy zo‘r berish - his-tuyg‘ular (hissiyot) shakli hisoblangan shaxs-ning irodaviy harakatiga (aktiga) qo‘shimcha motivlarni vujudga kel-tiruvchi, ba’zida ularni barbod qiluvchi, bilish jarayonlarini sa farbar etuvchi, muayyan zo‘riqish holati singari kechiriluvchi motiv-lar majmuasidir.

Irodaning individual xususiyatlari va fenomenlari mavjud bo‘lib, inson faoliyatining maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirishni ta’-minlaydi. Iroda shaxs faoliyatining ichki qiyinchiliklarini yengishga qaratilgan ongli tuzilmadan iborat bo‘lib, u o‘zini o‘zi boshqarish sifa-tida dastavval o‘ziga, o‘z hissiyotiga va xatti-harakatlariga hukmronlik qilishda aks etuvchi psixologik hodisadir. Irodaning

kuchi yoki kuchsizli-gini aks ettiruvchi holatlar uning individual xususiyatlarini namoyon kiladi. Ana shu atamalardan kelib chiqqan holda irodasi kuchli va irodasi sust (kuchsiz) odamlar hamda ularning ijobiy va salbiy fazilatlari, si-fatlari, xislatlari, illatlari to‘g‘risida mulohaza yuritiladi.

Irodasi sustlikning patologiyasi mavjud bo‘lib, ular abuliya (yunoncha aiPa qat’iyatsizlik degan doa’noni anglatadi) va apraksiya (yunoncha argax1a harakatsizlik ma’nosini bildiradi) atamalari bilan ifodalanadi. Abuliya — bu miya patologiyasi negizida vujudga keladigan faoliyatga intilishning mavjud emasligi, harakat qilish, uni amalga oshirish uchun qaror qabul qilish zarurligini anglagan tarzda shunday qila olmaslikdan iborat inson ojizligidir. Masa-lan, shifokor ko‘rsatmalariga rioya qilish zarurligini to‘g‘ri fahm-lagan abuliya kasali bilan shikastlangan bemor biror narsani baja-rishga o‘zini mutlaqo yo‘llay olmaydi. Apraksiya — miya tuzilishi-ning shikastlanishi tufayli yuzaga keladigan harakatlar maqsadga muvofiqligining murakkab buzilishidan iborat psixopatologik holatdir. Nerv to‘qimalarining buzilishi miyaning peshana qismla-rida yuz bersa, u holda xatti-harakatlarni erkin to‘g‘rilashda buzi-lish namoyon bo‘ladi, natijada iroda akti bajarilishi qiyinlasha-di. Abuliya va apraksiya — psixikasi og‘ir kasallangan insonlarga xos, nisbatan noyob, fenomenal psixopatologik hodisalardir. Lekin pedagogik faoliyatda uchraydigan irodaning sustligi miya patologiya-si bilan emas, balki noto‘g‘ri tarbiya mahsuli bilan tavsiflanadi.

Iroda sustligining yaqqol (tipik) ko‘rinishlaridan biri - bu yalqovlik hisoblanib, shaxsning qiyinchiliklarini yengishdan bosh tortishga intilishi, irodaviy kuch-g‘ayrat ko‘rsatishni qat’iy ra-vishda istamasligida o‘zini aks ettiruvchi illatdir. Yalqovlik - shaxs ojizligi va irodaviy sustligining, uninghayotga layoqatsizligining, shaxsiy va ijtimoiy faoliyatga (hamkorlikka) loqaydligining ifo-dasidir. Yalqovlik — shaxsning ruhiy qiyofasi bo‘lib, uzluksiz tar-biyaviy ta’sir va o‘zini o‘zi tarbiyalash orqali bartaraf etish imko-niyati mavjud ruhiy nuqsondir.

Iroda nazariyasi va tadqiqoti to‘g‘risida tushuncha: Irodaning tadqiqoti uzoq tarixga ega bo‘lib, inson ongining mohiyatini kashf qilish jarayonidan boshlab, muayyan bilimlar to‘pla-nishi tufayli shaxsning irodasi tabiatini tushunishga ilmiy yonda-shuv vujudga kelgan. XVII asrdayoq Gobbs va Spinozalar ta’kidlab o‘tganlaridek, faollik manbai bemahsul sohaning paydo bo‘lishi deb tushunish mumkin emas, chunki uni shaxsiy kuch-quvvatini hissiy intilish bilan uzviylikda qaramoqlik lozim. Spinozaning fikri-cha, iroda bilan aql aynan bir narsadir. Unga bunday tasdiqiy mu-nosabatning tug‘ilishi irodani ilmiy nuqtai nazardan tushunishni shakllantirgan bo‘lsa, ikkinchi bir tomondan u mustaqil substansiya sifatida tan olindi ham. V.Vundtning mulohazasicha, irodaning ne-gizida appersepsiya aktining sub’ekti tomonidan ichki faollik uniki ekanligini his etish yotadi. Uning bu konsepsiyasi emotsio-nal yoki affektiv nom bilan psixologiya faniga kirib keldi. U. Djemsning tan olishicha, irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayon-larga qorishtirib bo‘lmaydigan birlamchi xususiyatga egadirlar. Har qanday g‘oya dastlab dinamik tendensiyaga ega bo‘lganligi tufayli irodaviy

aktning vazifasi diqqat yordami bilan bir g‘oyaning bosh-qasi ustidan ustuvorligini ta’minlashdan iboratdir.

Psixologiyada yetarli darajada qat’iy fikr qaror topgankim, iro-da - bu insonning qo‘yilgan maqsadlariga erishishga yo‘naltirilgan ongli faolligidir. Iroda tushunchasi mohiyatiga inson tomonidan maqsad qo‘ya olish qobiliyati, o‘z emotsiyasini boshqarish, shaxsiy gav-dasini va xulqini idora qilish kiritiladi. V.I.Selivanov iroda-ni tadqiq etish negizidan kelib chiqqan holda ayrim xulosalar chi-qaradi:

a) iroda — bu shaxsning o‘z faoliyatini va tashqi olamdagi o‘zini o‘zi boshqarilish shakllarini anglashning tavsifidir;

b) iroda — insonning yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib, u ongning barcha shakl va bosqichlariga taalluqlidir;

v) iroda — bu amaliy ong, o‘zgaruvchi va qayta quriluvchi olam, shaxsning o‘zini ongli idora qilishlikdir;

g) iroda — bu shaxsning hissiyoti va aql-zakovati bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatidir, ammo qaysidir harakatning motivi (turtkisi) hisoblanmaydi.

V.I.Selivanov irodaning psixologik jabhalarini yoritayotib, u shunday g‘oyani ilgari suradi, insoning ongini jarayonlar, holatlar, xislatlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida tasavvur qilish mumkin. Shaxsning u yoki bu ongli harakati o‘zining tuzilishiga ko‘ra, u bir davrning uzida ham akdiy, ham hissiy, ham irodaviy hisoblanadi.

Tadqiqotchi V.A.Ivannikov esa irodani motivatsiyaning ixtiyo-riy shakli sifatida tushunadi, shuningdek, harakat ma’nosining o‘zgarishi hisobiga uni tormozlovchi yoki qo‘shimcha turtki yaratuvchi imkoniyat, yangi real motivlarni harakat bilan birlashtiruvchi, yoinki vaziyatning tasavvur motivi tariqasida talqin qiladi. Irodaviy boshqariluv esa harakatni «ixtiyoriy boshqariluv ko‘rinishlarining bittasi sifatida» tushuniladi, bunda boshqariluv motivatsiyaning ixtiyoriy o‘zgarish orqali amalga oshirilishi ta’kidlaniladi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, psixologiya fa-nida irodani tushunish, ta’riflash bo‘yicha bir xil munosabat yara-tilmaganiday, irodaviy sifatlarning ma’noviy asosini tahpil qilish yuzasidan ham umumiylik, umumiy qarashlar majmuasi mav-jud emas. Jumladan, V.A.Kruteskiy o‘z asarida irodaviy sifatlar tarkibiga sobitqadamlik, mustaqillik, qat’iyatlilik, sabr-toqat-lilik, intizomlilik, dadillik, jasoratlilik va tirishqoqlikni kiritadi.

P.M.Yakobson bo‘lsa, irodaning muhim sifatlarini mustaqillik, qat’iyatlilik, tirishqoqlik, o‘zini uddalashga ajratadi. Insonda namoyon bo‘ladigan irodaviy sifatlar sarasiga A.I.Shcherbakov mana bularni kiritadi: sobitqadamlik va

tashabbuskorlik, tashkillash-ganlik va intizomlilik, urinchokdik va tirishqoqlik, dadillik va qat'iyatlilik, chidamlilik va o'zini uddalashlik, botirlik va jaso-ratlik.

Lekin aksariyat ilmiy psixologik adabiyotlarda irodaviy sifat-lar qatorida «ishonch» atamasi sanab o'tilmaydi. Shunga qaramasdan, ishonch iroda sifati tariqasida tadqiq etilishiga haqlidir. Bu-ning uchun A.I.Shcherbakov tadqiqotidan namuna keltirishning o'zi yetarlidir. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, bir talabaga institutni qisqa vaqt (fursat) ichida tugatish taklif qilingan, lekin sinaluv-chi bu ishni uddasidan chiqa olmaslikni oshkora bildirgan. Shundan so'ng eksperimentator talabada o'z kuchiga ishonch uyg'otishga maqsad qilib qo'ygan va unda irodaviy zo'r berish, qiyinchiliklarni yengish vositalarini shakllantirgan. Buning natijasida talaba o'z maqsa-diga erishishga musharraf bo'lgan. Bunga o'xshash tajribalar boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham o'tkazilganligi ilmiy adabiyotlarda uchraydi. Shuning uchun ham o'z kuchiga ishonch psixologik hodisa si-fatida o'rganilishi ko'pchilikni qiziqtiradi, chunki kuchli iroda-viy zo'r berish qanday omillar bilan shartlanganligini kashf qilish muhim ilmiy muammo hisoblanadi. Xuddi shu bois hozirgi zamon psixologiyasining irodaga oid nazariyasi zaifligi tufayli iroda-viy sifatlarni tasniflashning asosiy tamoyili (prinsipi) ish-lab chiqilmagandir.

Ushbu psixologik muammoni hal qilish maqsadida V.K.Kalin iro-daviy sifatlarni tasniflashga (klassifikatsiyalashga) qaror qiladi. Uning nuqtai nazaricha, bazal irodaviy sifatlar irodaviy jara-yonlar asosida vujudga keladi, ammo bunda uning intellektual va axloqiy jabhalari ishtirok etmaydi. U bazal sifatlarni aniqlash uchun ongning quyidagicha namoyon bo'lishini tanlaydi:

a) faollik darajasining ortishi;

b) zarur bo'lgan faollik darajasini quvvatlash;

v) faollik darajasining pasayishi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda tadqiqotchi quyidagi sifat-larni mulohaza uchun tavsiya qiladi; g'ayratlilik, chidamlilik, vaz-minlik. Agarda bu jarayonda intellektual negiz ishtirok etmasa, shu narsani tushunib bo'lmaydi, qaysi hal qiluvchi qurilma hisobiga vaziyat baholanadi va harakatni kuchaytirish, quvvatlash, pasayti-rish to'g'risidagi komanda beriladi.

V.K.Kalin bazali tizimga kirmagan irodaviy sifa^larni ikki-lamchi deb nomlaydi, chunki ularda bilimlar, ko'nikmalar, emotsiya va intellektning paydo bo'lishi mujassalashadi. Muallif qat'iyatlik-ni ikkilamchilar qatoriga kiritadi, vaholanki uning fikricha, u o'ziga mahliyo qiladitn his-tuyg'ularni yengishdan, shuningdek, rad etilgan variantlardan, ishonchsizlikni to'sishdan tashkil topadi. U tirishqoqlikni ham ikkilamchi sifatlar tarkibiga kiritadi.

Chunki ularda ob'ektning to'planganligi ifodasi o'z aksini top-gan, ravshan hayotiy qadr-qiymat mujassamlashgan.

Chidamlilik tavsifida «qo‘shimcha impulslar», «qo‘shimcha iroda-viy zo‘r berish», «iroda kuchi», «sabr-toqat» jabhalari ifodasining O‘rni mavjud. Chidamlilikka turtkining xususiyatlari tirishqoqlik irodaviy sifatga mos tushish hollari uchraydi. Ye.P.Ilinning rang jadvalida tirishqoqlik sifati chidamlilikdan keyin joylashgan bo‘lib, quyidagi ta’rifga ega: «Tirishqoqlik - qiyinchilikka va muvaffaqiyatsizlikka qaramasdan, maqsadga erishish yo‘lida uzluk-siz ravishda intilishning paydo bo‘lishidir». Tadqiqotchi D.N.Usha-kovning mulohazasicha, «chidam» tushunchasi quyidagi ma’no anglatib keladi:

1) aksil harakat qilmasdan, shikoyatsiz, hasratsiz halokatli, mush-^{K}UL, noxush holatlarni dildan kechiradi;

aksil harakat qilmasdan, o‘z^arishlarni kutgan tarzda takdir haziliga rozi bo‘lish;

biror holatga mubtalolik;

nima bilandir kelishish, biror ortiqcha kechinmaga parvo qil-masdan, og‘irchilikni muruvvatkorona o‘tkazish;

imkon darajada amal qilishga ko‘nikish;

shoshqaloqlikka yo‘l qo‘ymaslik;

paysalga solishga, kutishga imkoniyat yaratish.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, tirishqoqlik, qat’iyatlik sifatlari bilan bir qatorda chidamlilikni irodaviy xislatlarning yetakchisi tariqasida tan olish, qiyinchiliklarga qaramasdan, hara-katni davom ettirishga intilish tarzida tushunish muhim ahamiyat kasb etishi shak-shubhasiz. Lekin og‘riqqa chidash, bardoshlikka mo-yillik nuqtai nazardan yondashinilganda esa irodaning erkinligi ta’biri, irodaviy sohaning paydo bo‘lishi va amalga oshishi mohiya-ti yuzasidan metodologik nuqsoniy talqin yuzaga kelishi mumkin.

Tibbiyot psixologiyasida ma’lumki, inson tomonidan og‘riqqa bar-dosh berish chidamlilik sifatining vujudga kelishi, kechishi jara-yonining yorqin ifodasidir. Hayot va faoliyat tajribalari ko‘rsati-shicha, shaxs og‘riqqa ko‘nika olmaydi, chunki buning negizida boshqa mexanizmlar yotishi turgan gap. Fiziologik me’yorlarga binoan shaxs og‘riqni sezish, idrok va tasavvur qilishning murakkab jismoniy qurilmasiga ega. Shunga qaramasdan, og‘riqni inson har xil his qili-shi, unga bardosh berishi, sabr-toqat bilan boshidan kechirishi mum-kin, bunda individual tafovut aniq namoyon bo‘ladi. Diqqatning og‘riq sezgilariga to‘planishi tufayli og‘riq zarbi kuchayadi — bu psixofi-ziologik qonuniyatdir. Xuddi shu boisdan odam og‘riq sezgilariga tobe bo‘lib qolmasligi lozim, aks holda u bu noxush kechinma, ruhiy holat ta’sirida uzoq muddat qolib ketishi kuzatiladi. Og‘riqni bosh-dan kechirish jarayonida nafaqat chidamlilik zarur, balki mushkul sharoitlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikmasi, qiyinchilikni yengish odati muhim

ahamiyat kasb etadi. Bunday xususiyatga ega bo‘lgan insonlarda o‘z hissiy a’zolarini, ularning harakatlarini idora qilish uquvi mavjuddir, aksincha nozik tabiatli, ichki intizomsiz, sabr-toqati zaif, mo‘rt ruhiy kechinmali shaxslar chidamsizligini na-moyish qiladilar.

Yuqorida bildirilgan mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, to hozirgacha psixologiya fanida asosiy, muhim irodaviy sifatlarni tasniflashning umumbirlik tamoyili mavjud emasligi tufayli aksariyat hollarda bir irodaviy xislat qo‘shaloq atama bilan belgilanishi davom etib kelmoqda (masalan, mustaqillik va tashabbus-korlik, jur’at va dadillik, tirishqoqlik va qat’iyatlik, vazmin-lik va o‘zini uddalash kabilar).

Psixologiyada irodani eksperimental o‘rganishga oid qator il-miy tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, ularning ayrimlaridan namuna-lar keltirib o‘tamiz. Ko‘pchilik tadqiqotchilar Ye.I.Ignatev qo‘llangan metodikasi va uning natijalariga xayrixoxlik bildiradilar. Le-kin muallifning o‘zi uni baholashda juda ehtiyotkorlik bilan muno-sabatda bo‘ladi. Uning mulohaza bildirishicha, ushbu metodika yetarli darajada ishonchli, irodaning tormozlashi paydo bo‘lishini tadqi-qot qilishda qoniqarli natijalar berishi mumkin, lekin undan «test» sifatida foydalanish ko‘ngildagidek ko‘rsatkichlarga olib kel-masligi ehtimoldan holi emas. Ushbu metodikaning mohiyati shundan iboratki, muskulningkuchli qisqarishidan keyin o‘ziningtinch hola-tiga qaytishdagi qarshiliklarini yengish xususiyatini tajribada tek-shirishdir. Xuddi shu vaziyatda irodaviy zo‘riqishni bartaraf etish namoyon bo‘ladi. Muallifning ta’kidlashicha, zo‘riqishdagi muskul-larning qisqarishini bir lahza to‘xtatib qolishni irodaning shart-li ko‘rsatkichi tariqasida qabul qilish mumkin, chunki mazkur jara-yonda inson o‘z tana a’zolari muskulini ongli boshqarish uquvi aks etadi. Ye.I.Ignatev tadqiqotida maksimal qisilishdan keyin iro-daviy zo‘riqishni (zo‘r berishni) 5 kg ortiq bo‘lmagan og‘irlikda pa-saytirishga yo‘l beriladi, uning taxminicha, bu kattalik (og‘irlik) zo‘riqish kuchini kamaytirmaydi va zo‘r berishni vaktincha to‘xtatib qolishga ta’sirini o‘tkazmaydi. Tadqiqotchi materiallarini taxlil qilishning ko‘rsatishicha, muskul zo‘r berishi 9-17 yoshdagi sinaluv-chilarda 14 kg dan 40 kg gacha og‘irlikni tashkil qiladi, zo‘r berish-ning 5 kg kamayish doirasi maksimal holatga nisbatan 35,7 protsent-dan to 12,5 protsent mikdorlarda mujassamlashadi.

Iroda sifatlarini tadqiqot qilishga intilgan V.I.Makarova test o‘rnida gimnastik stoldan matga (gollandcha, inglizcha «pta1» - polga yoziladigan matoga sakrashni tanlagan, chunonchi: oldingi 180° ayla-nish bilan old tomonga, orqaga. Tajriba davomida tomir urishi, tayyorgarlik vaqti, mimika, gavda holat, barmoklarni bukish qayd Qilib berilgan.

Shunday qilib, irodaviy sifatlarni aniqlash va baholash metod-lari o‘zlarining rang-barangligi bilan tavsiflanadi. Tadqiqotchi-lar o‘z faoliyatlarida harakatlarning odatiy va qiyinlashtirilgan sharoitlardagi xususiyatlari, ularning mahsuldorligi kabi hodisa-larni qayd qilish imkoniyatiga ega bo‘lganlar. To‘plangan ma’lumot lar

taxlilining ko‘rsatishicha, iroda motivlarda, maqsadlarda, o‘zini o‘zi baholashda, harakatlarda, faoliyatda o‘z ifodasini topar ekan. Xuddi shu bois iroda — bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ong-li boshqarishdir.

Irodaning fiziologik asoslari va sifatlari to‘g‘risida tushuncha: Iroda — odamning o‘z ustidan, o‘z his-tuyg‘ulari, o‘y-fikrlari, xatti-harakatlari ustidan hukmronlik qilishidir, boshqacha aytgan-da, iroda insonning o‘z xulq-atvorini ongli ravishda boshqara oli-shi, har qanday qiyinchiliklarga qaramay, o‘z oldiga qo‘ygan maqsa-diga erisha olish qobiliyatidir. Shaxsning ichki to‘siklarni barta-raf qila bilishi uningtashqi to‘siqlarni ham muvaffaqiyatli yengi-shiga imkoniyat yaratadi. Masalan, xizmatchi yugurish musobaqalarida qatnashib, ma’lum masofaga yugurishi, yo‘lda uchraydigan suv yoki bo-shqa g‘ovlardan o‘tishi, yomon ahvoldagi yo‘lakdan yugurishi lozim. Qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli yengib, xizmatchi mazkur qiyin-chiliklarni bartaraf etish uchun zaruriy irodaviy sifatlarni o‘zida mujassamlashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Shu bois irodaviy harakat-lar — shaxsning ko‘zlagan maqsadiga erishish uchun ham ichki, ham ta-shqi to‘siqlarni yengishi bilan uzviy bog‘liq ongli xatti-harakat-lardir.

Insonning irodaviy harakatlari va bunday harakatlarga qobil-ligi mehnat hamda ijtimoiy faoliyatda, ta’lim jarayonida yuzaga kelgan. Ijtimoiy turmush sharoitlari, tobora o‘sib boruvchi turli xususiyatli ehtiyojlar odamlardan bu ehtiyojlarni qondirish maqsa-dida borliqni o‘rganish, o‘zlashtirish va uni qayta qurishga yo‘nalti-rilgan xatti-harakatlarni taqozo etgan. Hamkorlikdagi jamoaviy mehnatda odamda nerv sistemasi, xususan, uning yuksak qismi — bosh miya rivojlanib, takomillashib boradi, shu bois shaxsning psixik haeti miyaning mahsuli yoki xossasidir, shuning uchun miya faoliyati-ning buzilishi tufayli psixikada ham o‘zgarishlar yuzaga keladi. Bosh miya po‘stlog‘idagi barcha bo‘linmalarning o‘zaro mutanosib ishlashi shaxsning me’yordagi ruhiy faoliyatini ta’minlab turadi.

Ilmiy natijalar tahlilining ko‘rsatishicha, iroda faqat tashqi xatti-harakatlarda namoyon bo‘lib qolmasdan, balki insonning or-tiqcha, noto‘g‘ri harakatlarni qilmasligida ham yaqqol ko‘zga tashlana-di. Shunday qilib, irodaviy harakatlar ham qo‘zg‘alish, ham tormoz-lanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, har ikkalasi bir-biriga uzluksiz ravishda ta’sir o‘tkazib turadi. I.P.Pavlovning tabi-richa, biz, normal kishilar doimiy ravishda ma’lum harakat va so‘zlar-dan o‘zimizni tiyib turamiz-ku, bu esa katta yarim sharlarning muay-yan punktlariga tormozlanish impulslari yuborish emasmi, axir.

Shuning uchun har qanday irodaviy harakatning fiziologik aso-sida bosh miya po‘stlog‘ida qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining murakkab dinamik munosabati yotadi. Qo‘zg‘alish jarayonlari zaif, kuchsiz bo‘lsa, u holda odamda irodaviy faollik susayadi, ba’zan, hatto apatiya holati vujudga keladi. Tormozlanish jarayonlarining kuch-sizlanishi shunday ruhiy holatga olib keladiki, bunda shaxs o‘zini o‘zi nazorat qilish, og‘irliklarga bardosh berish, o‘zini tuta

bilish, o‘z xatti-harakatlarini tartibga solishga qurbi yetmay qoladi. De-mak, tana a’zolari (organizm) faoliyatini va uning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasining tartibga soluvchi, idora qiluvchi katta yarim sharlar po‘stlog‘ining sog‘lom holati va me’yorda ishlashi insonga, o‘zini, o‘z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish xususiyati faqat inson zotigagina xosdir.

Ma’lumki, odamlar hayvonlardan qanchalik ko‘p uzoklasha borsa-lar, ularningtabiatgata’sir qilishlari shuncha ko‘p oldindan o‘ylash, rejali, oldindan belgilangan, ma’lum maqsadga qaratilgan ish tu-siga kira boradi. Shuning uchun jamoa bo‘lib mehnat qilish jarayoni-da odamlarda maqsadni anglash va o‘z oldiga maqsad qo‘yish, ishni bajarishdan oldin reja tuzib olish, ishga faol ravishda kirishish va keraksiz xatti-haeakatlardan o‘zini tiyish, maqsadga erishish yo‘lida uchraydigan qiyinchiliklarni yengish, o‘z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish qobiliyati, uquvi, zehni o‘sa boradi. Bor-liqdagi tashqi ta’sirlar atrof-muhitning ta’sir ko‘rsatishi tufay-li odamlarda irodaviy sifatlar takomillashadi, demakki iroda tar-kib topadi. Buyuk allomalarning fikricha, tashqi dunyo kishilarda paydo qiladigan taassurotlar uning miyasida ifodalanadi, unda his-tuyg‘u, fikr, mayl, irodaviy harakatlar tarzida, «ideal intilish-lar» tarzida aks etadi. Yana bir donishmandning mulohazasicha, ki-shining intilish va xohishlari, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari ob’ek-tiv dunyo tomonidan vujudga keltirilgan.

Irodaviy harakatlar inson yashab turgan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar, turmush tarzi bilan belgilanadi. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning, shaxslararo muomalaning o‘zgarishi bilan shaxs-ning o‘z oldiga qo‘yadigan maqsadlari ham, odamni faoliyatga undovchi motivlar ham o‘zgaradi. Mamlakatimizning fuqarolarining irodasi kelajagi buyuk davlat qurishga qaratilgandir. Respublikamiz yoshlari huquqiy demokratik, kuchli fuqaroviy jamiyat, mustaqillikni mustahkamlash g‘oyalari bilan bog‘liqbo‘lgan aniq, ham istiqbol maq-sadlarga ega. Fuqarolar o‘z oldilariga maqsadlar qo‘yar ekanlar, bu maqsadlarni qanday yo‘l va vositalar bilan amalga oshirish mum-kinligi to‘g‘risida ham o‘ylab ko‘radilar, qo‘yilgan maqsadlarga eri-shishning eng ma’qul, oqilona, odilona, omilkor usullari ular to-monidan tanlab olinadi.

Shuni ta’kidlash joizki, iroda bilimlar, his-tuyg‘ular, tafak-kur kabi psixologik kategoriyalar bilan uzviy aloqada, o‘zaro bir-biriga ta’sir o‘tkazishi tufayli ijtimoiy hayotda, insonning indi-vidual turmushida shakllana boradi va takomillashadi.

Psixologiyada iroda sifatlari qatoriga maqsadga intilish, o‘zini tuta bilish, chidamlilik, sabr-toqat, qat’iylik, botirlik, intizom-lilik, sabotlilik, mustaqillik, mardlik va boshqalar kiritiladi.

Maqsadga intilish — shaxsning o‘zidagi barcha kuch-quvvatlarini oldiga qo‘ygan maqsadiga qaratish, o‘z xatti-harakatlarini ko‘zlagan maqsadiga erishish vazifasiga bo‘ysundirish, har qanday qiyinchi-lik va to‘siklarga qaramay maqsadni amalga oshirish uchun intilish qobiliyatidir.

O‘zini tuta bilish — odamning o‘z xatti-harakatlari, his-tuyg‘ula-ri, xulq-atvori kabilarni boshqara bilishda aks etuvchi iroda sifa-tidir.

Chidamlilik — maqsadga erishishda odamning ko‘pincha sovuq va issiqqa ham, ochlik-tashnalikka ham, betoblik va boshqa shu singari qiyinchiliklarga qaramay, barcha to‘siqlarni yengib, o‘z maqsadini ro‘yobga chiqarishga intilishda aks etuvchi ijobiy sifatdir.

Qat’iylik — shaxsning vaziyatni tezda baholab, o‘z vaqtida asosli, o‘ylangan va mustahkam qaror qabul qilishi, hech qanday ikkilanish-siz uni bajarishga kirishishidan iborat fazilatidir.

Botirlik — odam sog‘lig‘i yoki hayoti uchun xavfli va murakkab sha-roitda ham biron qarorga kelishi va uni bajarishning uddasidan chiqa bilish xislatidir.

Intizomlilik — jamiyat qonunlariga, axloq normalari va qoida-lariga, milliy (umumbashariy) urf-odatlariga, ixtiyoriy hamda ong-li ravishda bo‘ysunishda ifodalanuvchi inson sifatidir.

Sabotlilik — shaxsning qabul qilgan qarorini bajarish va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish uchun, ko‘p vakt hamda muayyan qi-yinchiliklarni yengish talab etilishiga qaramay, og‘ishmay intili-shida gavdalanuvchi iroda belgisidir.

Mustaqillik — insonning o‘zicha biror qarorga kelishi va uni amalga oshirishidan, qarorni amaliyotga tatbiq etishning usul va yo‘llarini o‘zi mustaqil ravishda tanlashidan, har bir ishda o‘zining bilimlari, dunyoqarashi va e’tiqodlariga amal (rioya) qilishidan iborat iroda sifatidir.

Mardlik — oliy maqsadlarni ko‘zlab ish ko‘ruvchi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishda qat’iylik, vazminlik, sabr-matonat, chidam-lilik, bardoshlilik, mustaqillik va dadillik ko‘rsatuvchi xislatlar majmuasidir.

Odamlarda irodani o‘stirish uchun quyidagi ish-amallarni reja-lashtirish maqsadga muvofiq:

aniq va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsadlarni ko‘zlashga o‘rgatish yoki mashklantirish;

ilmiy dunyoqarash, barqaror e’tiqod va burch hissini shakllan-tirish;

maqsadga intilish va istakni ro‘yobga chiqarish mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

o‘z kuchiga ishonch tuyg‘usini tarkib toptirish uchun treninglar va sotstreninglarni qo‘llash;

ichki va tashqi to‘siqlarni yengishni mashq qilish, irodani tur-li vaziyatlarda ishga solish;

o‘z faoliyati mahsuliga va xulq-atvoriga baho berish bilan shu-g‘ullantirish;

sport bilan shug‘ullanish va jismoniy chiniqtirish;

kun tartibi bo‘yicha barcha harakatlarni amalga oshirish.

Shaxs irodasini o‘rganish testi

Ijtimoiy-ruhiy ehtiyojga asoslangan holda mamlakatimiz yoshla-rini komil inson qilib kamol toptirish uchun ularni o‘zini o‘zi uddalashga o‘rgatishdan ish boshlamoq zarur. Shaxsning o‘z faoliyati-ni va xulq-atvorini shaxsiy xohish irodasiga bo‘ysundirish, ro‘yobga chiqarish mustaqil fikrlashni barqarorlashtiradi, ko‘zlangan maq-sadni amalga oshirishga puxta zamin hozirlaydi, har xil xususiyatli qiyinchiliklar oldida matonat, sabr-toqat tuyg‘ularini namoyish etishga chorlaydi. Buning natijasida mustahkam irodali, prinsi-pial, qat’iyatli, uzoqni ko‘zlovchi, teran fikrlovchi, akl-zakovatli, vatan tuyg‘usi bilan yonuvchi haqiqiy milliy vatanparvar yoshlarni ijtimoiy hayotda, ta’lim-tarbiya jarayonida shakllantiradi. Inson-ga tug‘ilishdan beriladigan tabiiy mayllardan, akliy va axloqiy imkoniyatlardan unumli foydalanmasdan turib, yuksak ma’naviyat-li, farosatli, ijodiy izlanuvchan shaxslarni voyata yetkazib bo‘lmaydi. Xuddi shu boisdan, insonning bolaligidan tortib to ijtimoiy-lashuviga qadar davr oralig‘ida o‘zini o‘zi boshqarish usullari, vosi-talari bilan tanishtirish qat’iyatlilikni vujudga keltiradi.

Odatda, iroda inson tomonidan o‘z xulqi va faoliyatini ongli ravishda boshqarish sifatida baholanadi, maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakat va xulq-atvorning amalga oshishida tashqi, ichki qi-yinchiliklarni yengib o‘tish tariqasida ta’riflanadi.

Yoshlarning irodasi, eng avvalo, shaxsning ijtimoiy faolligi-da, mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribasida va ta’lim jarayonida namoyon bo‘ladi.

Mazkur faollikdan uning mazmunini va shaklan tuzilishini farqlash mutlaqo zarur. Shaxs faolligining mazmundor tomoni — uning ijtimoiy xislatlarida o‘z ifodasini topadi, chunki bunda ijtimoiy ko‘rsatma (attityud), e’tiqodlar, ma’naviy his-tuyg‘ular, qiziqishlar dominantlik xususiyatini kasb etadi. Shaxs faolligi-ning shakli faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi ruhiy ja-rayonlar, ichki, tashqi va anglashilgan irodaviy xatti-harakat, inti-lish namoyon bo‘lishi orqali aniqlanadi. Shaxs uchun qiyin sharoit-larda o‘zini o‘zi ongli ravishda boshqara olish imkoniyati irodaviy zo‘r berishning. yordami bilan yuzaga keladi va belgilangan muayyan aniq maqsad, reja hamda uni ro‘yobga chiqaruvchi xatti-harakatlar ularning ijrosiga yo‘naltiriladi.

Barkamol avlod shaxsining psixologik xususiyatlari markaziy rolining motivatsiya doirasi bajaradi va u ehtiyojlar, qiziqishlar, e’tiqodlar va ma’naviy his-tuyg‘ularda o‘z aksini topadi. Shaxslar-ning hayoti va faoliyatida, shuningdek, ijtimoiy tarbiyasiga asta-sekin ustuvor va barqaror motivlar vujudga kela boshlaydi, ular inson ijtimoiy shartlangan yo‘nalganligi va hayotiy pozisiyasini qat’iy belgilash uchun xizmat qiladi.

Aksariyat hollarda inson shaxsining ijtimoiy shartlangan xusu-siyatlari uning irodaviy faolligi yo‘nalishini gavdalantiradi. Ijtimoiy yo‘nalganlik shaxsning motivasion-irodaviy xislati hisoblanmish sobitqadamliqda o‘z ifodasini topadi. Inson shaxsi-ning irodaviy jarayonlari, holatlari, xislatlari faoliyatning mo-tivlari va maqsadini amalga oshirishning o‘ziga xos usuli sifatida yuzaga keladi.

Akliy faoliyatda irodaviy jarayonlar irodaviy xatti-harakatlar kechishining aynan ichida, ya’ni maqsad belgilashdan tortib to uning bajarilishigacha oraliqda ko‘zga tashlanadi. Ongli xulq-atvorda, ix-tiyoriy diqqatda, eslab qolishda, esga tushirishda, tafakkurda, xayolda ifodalanadi, murakkab muammolarni yechish, irodaviy zo‘r berish-ni safarbar etish uchun mutlaqo zarur, chunki busiz mehnat va o‘quv faoliyatida hech qanday natijaga erishish mumkin emas. Ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi samaralar keltirish majmuasi sifatida ikkiyoq-lama xususiyat kasb etadi.

Mehnat faoliyatidagi va ta’lim jarayonidagi irodaviy holatlar — bu vujudga kelgan qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli bartaraf etish-ning usullari, inson shaxsining omilkor, oqil ichki sharoitlari-ning muvaqqat ruhiy hodisasidir. Ularning qatoriga bir talay hayotiy shart-sharoitlar ta’siri ostida vujudga keluvchi optimizm va umumiy faollik, qiziquvchanlik, motivasion, mobilizasion tayyorgar-lik, qat’iyatlilik xususiyatlari kiradi.

Mehnat va stress — emotsional zo‘riqishning keskin holati ko‘ri-nishi, shakli hisoblanib, tashqi va ichki muhitning noxush omilla-rini shaxsga favqulodda ta’sir etish natijasida vujudga keladi. Ta’limiy hamkorlik (o‘qituvchi bilan talaba hamda talabalarning o‘zaro) faoliyatidagi frustratsiya — bilish faoliyatini tashkillash-tirishning tubdan teskari tomonga yo‘naltiruvchi ruhiy holatdir. Shaxs uzluksiz paydo bo‘luvchi va bartaraf qilish qiyin to‘siqlar-ningta’siri ostida ruhan tushkunlik, o‘zini yo‘qotib qo‘yish, ko‘pincha eksperimentga, vaziyatga nisbatan agressiv (tajovuz) reaksiyalar (ja-vob xatti-harakatlari) yuzaga kelishi kuzatiladi.

Inson shaxsining irodaviy xislatlari — bu, mehnat faoliyatida-gi, ta’lim jarayonidagi muvaqqat ruhiy holat emas, balki aksincha mazkur vaziyatga hech qanday bog‘liq bo‘lmagan odam turg‘un, barqaror ruhiy tuzilmasidir. Uning irodaviy sifatlariga sobitqadamlik, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, mustaqillik, tashkillashganlik, ishbilarmonlik, o‘zini qo‘lga olish, jasurlik, chidamlilik va bosh-qalar kiradi. Shaxs irodasining bo‘shligi, zaifligi qaysarlik, sa-botsizlik, yalqovlik, qo‘rqoqlik, prinsipsizlik, betashabbuslik, erinchoqlik, loqaydlik singari tushunchalar orqali tavsiflanadi.

Bilimlarni va mehnat ko‘nikmalarini egallashdagi sobitqadamlik — bosh irodaviy sifat hisoblanib, u irodaviy boshqa ko‘rinishlarning taraqqiyot darajasini va yo‘nalishini aniqlovchi asosiy omil bo‘lib sanaladi. Mustaqil va kelajagi buyuk davlat ideallariga sodiqlik, Vatan oldidagi burchning yuksak darajada anglashi, jamoat chilik hissi, yurt ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shish istagi va bular ning barchasi o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan sobitqadamlilik namunasidir.

Ta’lim-tarbiya jarayonidagi va mehnat faoliyatidagi tashabbuskorlik - shaxs o‘z xohish irodasiga binoan zarur xatti-harakatlar-ni amalga oshirish uquvidir. Mustaqil bilim olish va fikrlashda-gi mehnat faoliyatidagi qat’iyatlilik — shaxs tomonidan jiddiy va puxta mulohaza yuritib qaror qabul qilish, uni izchil ravishda hayotga tatbiq etish xislatidir. Tirishqoqlik shaxs qiyinchilik-larni yengish uchun kurashishda kuch-quvvatini aslo pasaytirmasdan, uzluksiz va uzoq muddat maqsadga erishish uchun intilish ko‘nikma-sidir.

Muammolarni yechish chog‘ida chidamlilik — shaxs tomonidan qabul qilingan qarorni amalga oshirishga halal beruvchi fikrni, hissiyot va xatti-harakatni tizginlovchi (tormozlovchi) inson uquvchanligi-dir. Tashkillanganlik — o‘z harakati va xulqini rejalashtirish, xu-susan uni ijro etishda shaxsni rejaga asoslanish malakasidir. Matonatlilik — qo‘yilgan maqsadni muqaddas his etgan holda o‘zini oqlaydigan xavf-xatarga qo‘l urish, qo‘rqinchga nisbatan yuzma-yuztura olish fazilatidir.

Ishbilarmonlik — har qanday o‘ylanilgan ishni qiyinchiliklar va qarshiliklardan qat’i nazar, omilkor yo‘llar qo‘llash tufayli oxiriga yetkazish xislatidir. Mustaqillik — o‘z e’tiqodiga qat’iy ishonch, shaxsiy kuch-quvvatiga ishonish, boshqalarning yordamiga muh-tojlik sezmaslik malakasidir. Shaxsning xulq-atvorida, mehnat va o‘quv faoliyatida, agarda ishlab chiqarish va ta’limiy mashg‘ulotlar oqilona, haqqoniy ravishda, to‘g‘ri uyushtirilsa, unchali muhim bo‘lma-gan irodaviy sifatlar ham paydo bo‘lishi mumkin, chunonchi inti-zomlilik, o‘zini qo‘lga olishlik va hokazo.

Ushbu ruhiy holatni aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan test-dan foydalanish mumkin. Tavsiya qilinayotgan fikrlarga shaxs «Ha» yoki «Yo‘q» degan javob qaytarish kerak.

Hayotdagi muvaffaqiyat tasodiflariga ko‘ra oldindan qilingan hisob-kitoblarga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi, deb o‘ylayman.

Agar o‘zimning sevimli mashg‘ulotlarimdan ayrilsam, unda men uchun hayotning mazmuni yo‘qoladi.

Men uchun har qanday ishning oqibati, natijasidan ko‘ra, uning bajarilish jarayoni muhim.

Men odamlarning o‘z yaqinlari bilan bo‘lgan munosabatlari-ning yaxshi emasligidan ko‘ra, ishdagi muvaffaqiyatsizliqdan ko‘proq qayg‘uradilar, deb hisoblayman.

Mening fikrimcha, ko‘pchilik odamlar yaqin kelajakka mo‘ljal-langan maqsad bilan emas, balki uzoqqa mo‘ljallangan maqsad bilan yashaydilar. Agar imkoniyat bo‘lsa-da, lekin hech kim sezmasligiga ishonchim komil bo‘lsa ham nojo‘ya harakat qila olmayman.

Mening hayotimda muvaffaqiyatsizliklardan ko‘ra muvaffaqi-yatli kunlar ko‘p bo‘lgan.

Menga amaliy, ishchan, ishbilarmon.odamlardan ko‘ra his-tuy-g‘uli, ko‘ngilchan inson ko‘proq yoqadi.

Hatto oddiy ishda ham men uning ba’zi elementlarini tako-millashtirishga harakat qilaman.

Muvaffaqiyatga erishish haqidagi fikrlarga berilib ketgan vaqtlarimda ehtiyotkorlik choralarini unutib qo‘yishim mumkin.

Yoshligimda ota-onam meni dangasa deb hisoblar edi.

Men o‘zimning muvaffaqiyatsizliklarimga sharoit emas, bal-ki ko‘proq o‘zimni aybdor deb hisoblayman.

Ota-onam meni qattiq nazorat qilishgan.

Menda qobiliyatga nisbatan sabr-toqat kuchli.

O‘z maqsadlarimdan qaytishga muvaffaqiyatga erisha olmasli-gim haqidagi fikr emas, balki dangasalik sabab bo‘ladi.

Men o‘zimni o‘zimga ishongan odamman deb hisoblayman.

Muvaffaqiyatga erishish uchun garchi imkoniyatlar mening foy-damga bo‘lmasa ham tavakkal qilishim mumkin.

Men tirishqoqodam emasman.

Hamma ishlar tekis (me’yorida) ketayotgan bo‘lsa, unda mening g‘ayratim yanada oshadi.

Agar men gazetada ishlaganimda edi, unda turli voqealar haqida yozishdan ko‘ra, ko‘proq odamlar yaratgan yangiliklarni yozgan bo‘lar edim.

Mening yaqinlarim, odatda, shaxsiy rejalarim bilan hamfikr bo‘lmaydilar.

Mendagi hayotga nisbatan talablarimning darajasi o‘rtoqla-rimning shunday talablaridan pastroq.

Men o‘z maqsadlarimga erishish yo‘lida qat’iyman.

Test kaliti. «Ha» - 1, 2, 6, 7, 8, 9, 15, 17, 19, 20, 22, 23. «Yo‘q» - 3, 4, 5, 10, 11, 12, 13, 14, 16, 18,21.

Natijalarning miqdoriy tahlili. Ballar yig‘indisi 0—9 dan past bo‘lganda — Sizning faoliyatingizda muvaffaqiyatga ehtiyoj yaqqol ko‘rin-maydi. 10—13 ballgacha: Sizda muvaffaqiyatga intilish bor, lekin hayot-da faoliyatingizni tashkil qilishda har doim ham muvaffaqiyatga ehtiyoj sezavermaysiz. **14—23** ballgacha:

Sizning faoliyatingizda muvaffaqiyat-ga ehtiyoj yuqori darajada, har doim muvaffaqiyat bo‘lishiga ishonasiz, Qat’iysiz, u yoki bu darajada murakkab, lekin bajarilishi mumkin ishlarni qilishni yoqtirasiz. 0—9 past, 10—13 o‘rtacha, 14—23 yuqori.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

Iroda to‘g‘risida umumiy tushuncha.
Iroda aktining tuzilishi.
Iroda nazariyalari talqini.
Iroda xislatlarini shakllantirish xususiyatlari.
Iroda patologiyasi, uni korreksiyalash.
Iroda psixologik kategoriya sifatida.
Irodaviy akt tuzilishi haqida mulohazalar.
Irodani mustahkamlash va shakllantirish imkoniyatlari.
Shaxs kamolotida irodaning roli.

Test savollari:

№1.
Nima ixtiyoriy diqqatni tarbiyalashga katta ahamiyatga ega.
O‘quv faoliyati
Irodaviy kuch
Tashqi muhit
Instinkt va qobiliyat
№2.
Xarakter shaxsning qaysi jihatiga tegishli?
Individual psixologik xususiyatlariga
Xissiy – irodaviy jabhalariga
Psixik (bilish) jarayonlariga
Xissiy – irodaviy jabhalariga, individual psixologik xususiyatlariga
№3.
Tibbiyot psixologiyasi asoschilarini aniqlang?
Bexterev V.M., Botkin S.P., Korsakov S.S., Luriya A.R.
S.P.Botkin
V.A.Vanger
A.R.Luriya
№4.
Hayvonlar psixikasi yevolyusiyasi haqidagi g‘oyalar muallifi kim?
Ch.Darvin
V.A.Vanger
V.M.Bexterev

S.P.Botkin

№5.

“Tabiiy tanlanish yo‘li bilan turlarning kelib chiqishi to‘g‘risida, yoki yashash uchun kurashda qulaylikka ega bo‘lgan turlarning saqlanib qolishi” (1859) kitobining muallifi kim?

Ch.Darvin

S.S.Korsakov

A.R.Luriya

V.M.Bexterev

7-MAVZU. PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI. SHAXSGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Reja:

1. Shaxs haqida tushuncha.
2. "Endopsixika" va "ekzopsixika" haqida tushuncha.
3. Shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida
4. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs.
5. Ijtimoiy tasirlarning shaxs tomonidan anglanishi.

Mavzuning qisqacha mazmuni

Psixologiyada shaxs muammosi va uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar. *Psixologiyada shaxs muammosi, shaxs va uning shakllanishi, shaxsni kamol toptirish tushunchasi, biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik konsepsiyalar.*

*"**Endopsixika" va "ekzopsixika"** haqida umumiy fikr muloxazalar xamda shaxsning boshqa odamlardan ajratib turadigan individual tuzilishga ega ekanligidir*

***Shaxs faoliyati va uning tuzilishi**. Faoliyat va shaxsning faolligi, ehtiyojlar va faoliyat motivlari, qiziqishlar, shaxsning dunyoqarashi, faoliyatning tarkibiy qismlari va turlari.*

1-Reja. Shaxs haqida tushuncha.

Shaxs tushunchasi keng va ko'p qirralidir. Mehnat qila olish ko'nikmasining mavjudligi, insonlar bilan birgalikda faoliyat munosabatni amalga oshirayotgan kishi asta – sekin shaxsga aylanib boradi. Bevosita moddiy dunyoni, jamiyatni va xususan o'zini o'rganish va faol tarzda qayta o'zgartirish jarayonining sub'ektga aylanmoqda. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi, ya'ni shaxs, individ, individuallik tushunchasining o'zaro bog'liqlik jihatlari mavjudmi? Buning uchun mazkur tushunchalarning mazmunini tahlil qilish samarali hisoblanadi

Shaxs deb - muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug'ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi.

Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi, ya'ni shaxs, individ, individuallik tushunchasining o'zaro bog'liqlik jihatlari mavjudmi? Buning uchun mazkur tushunchalarning mazmunini tahlil qilish samarali hisoblanadi. Shuning uchun ham dastlab individ tushunchasining mazmuniga to'xtalish lozim. A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida "Individ" tushunchasida

kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. Yangi tug‘ilgan chaqaloqni, katta yoshdagi odamni ham, mutafakkirni ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoiylik bosqichidagi qabilaning vakilini ham, madaniyatli mamlakatda yashayotgan yuksak bilimli kishini ham individ deb hisoblash lozim. Individ tushunchasi professor E.G‘ozievning “Umumiy psixologiya” darsligida tavsiflanishicha, individ lotincha ajralmas, alohida zot ma’nolarini anglatib, inson zotiga xoslik masalasini belgilab beradi. Shuningdek, katta yoshdagi ruhiy sog‘lom odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo‘q, oddiy malakalarni o‘zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi.

M.G.Davletshin tahriri ostida chiqqan “Psixologiyadan qisqacha izohli lug‘atda” individ bo‘linmas, ayrim jins, shaxs ma’nolarini anglatib, biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Keltirilgan ta’riflardan shuni xulosa qilish mumkinki **shaxs** deb muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug‘ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi.

Individ sifatida dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta’sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatining mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aql-hushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug‘diradi, qo‘llarining shakli shamoyili mehnat qurollaridan foydalanish istiqbollarining mavjud-ligini ko‘rsatadi. Yuqorida aytilganlarning barchasida chaqaloqning inson zotiga mansubligini ta’kidlanadi va bu fakt individ tushunchasida qayd etiladi.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri – bu uning individualligidir. **Individuallik** deganda insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik kishining o‘ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig‘indisi, iroda, faoliyat motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Individuallik individning boshqalardan farqlaydigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o‘ziga xosligi hamda uning qaytarilmasligidir. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o‘zida mujassamlashtirgan odam yo‘q, inson shaxsi o‘z individualligi jihatidan betakrordir.

2-Reja. “Endopsixika” va “ekzopsixika” haqida tushuncha.

Hozirgi kunda asosiy muammolardan biri bir shaxsning boshqa odamlardan ajratib turadigan individual tuzilishga ega ekanligidir. Ushbu psixologik muammoni hal qilish shaxsning mazkur tuzilishining ichki sharoitlarida ifodalanuvchi xulq-atvorni oldindan bashorat qilish imkonini yaratadi.

Shaxs tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan ikkinchi masala esa bunday tuzilishning bir necha tarkibiy qismlarga ajratishni taqozo etadi binobarin, ushbu bo‘laklarning yig‘indisi yaxlit inson shaxsini vujudga keltiradi. Jahon psixologiya fanida

psixologlar shaxsning psixologik tuzilishining tarkibiy qismlarini turli jihatlariga asoslanib, turkumlarga ajratishni tavsiya etmoqdalar.

Hozirgi zamon jahon psixologiyasida biologik (tabiiy) va ijtimoiy omillarning voqelikka ta'siri ostida shakllangan inson shaxsida ikkita muhim qism bo'lganligini tasdiqlovchi nazariya yuksak mavqeni egallab turibdi. Mazkur nazariyaga binoan "ichki psixik" ("endopsixik" – yunoncha endo ichki degan ma'noni bildiradi) degan g'oyani ilgari surdilar. Uning talqiniga ko'ra, **"endopsixika"** shaxsning psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o'zaro bog'liqligini aks ettiradi. Uning negizida insonning nerv-psixologik tuzilishi bilan "endopsixika" aynan bir narsa degan tushuncha tasdiqlanadi, chunki u odam shaxsining ichki mexanizmini yuzaga keltiradi. Psixik tuzilishning "endopsixik" qismi bo'lsa, shaxsning tashqi muhitga nisbatan munosabatini, shaxsga qarama-qarshi bo'lgan barcha jihatlarni, shaxslararo va ob'ektiv munosabatini belgilaydi. "Endopsixika" o'z navbatida shaxsning ta'sirlanishi, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlarining xususiyatlarini irodaviy zo'r berish xislatlarini ixtiyorsiz harakatlarni va shu kabi fazilatlarni aks ettiradi. **"Ekzopsixika**" esa o'z tarkibida shaxs munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayllari, ideallari, maslagi ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallagan bilimlarni, tajribalarni qamrab oladi. Tabiiy asosga ega bo'lgan "endopsixika" biologik shart-sharoitlarga bog'liq bo'lsa, "ekzopsixika" aksincha ijtimoiy voqeliklar ta'sir ostida yuzaga keladi, tarkib topadi va takomillashib boradi.

Demak shaxsni umumiy tariflaridan kelib chikkan xolda kuyidagi amaliy treninglarni mavzu yuzasidan o'tkazamiz.

3-Reja. Shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida

«Shaxs» tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, «Homo sapiens» - «aqlli zot» tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darvin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy - sotsial omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi. Sotsial yoki ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun

bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o‘zaro bog‘liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o‘zlarining eng durdona asarlarini bag‘ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo‘lgan narsa shu bo‘lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda to‘tgan o‘rni va mavqeini bilish zarur. Shaxsni o‘rganishning birlamchi mezoni ham shundan kelib chiqqan xolda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘rni bilan belgilanishi kerak. Lekin, shaxs bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar masalasi birdaniga, bir xil yechimga kelinmagan. Bu o‘zaro munosabatlar asosan ikki polyar nuqtai nazardan kelib chiqadi.

Nativizm yo‘nalishining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tug‘ma xarakterga ega, deb e’tirof etadilar. (Lens, Gruber va boshqalar).

Empirizm tarafdorlarining fikricha, yangi tug‘ilgan bola go‘yoki «top - toza taxta»(tabula rasa), unga hayot va undagi talablar o‘zining qonuniyatlarini yozadi va bola ularga so‘zsiz bo‘ysunishga majbur. Bu yo‘nalishning asoschilaridan biri Dj. Lokk bo‘lib (1632 - 1704) uning fikricha, tug‘ma fikrlar yoki g‘oyalar bo‘lishi mumkin emas, ular xoxish - tilak va og‘riq kabi elementar sezgilarning qayta ishlanishi natijalaridir. Hayotda ana shunga o‘xshash turli xil sezgilar va g‘oyalarning assotsiatsiyasi ro‘y beradi. G. Leybnis (1646-1716) Lokka e’tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o‘zi bo‘lmaydi, hattoki eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do‘ngliklar yoki tug‘ma asoratlar bo‘ladiki, ular layoqatlardek inson takdirida ma’lum rol o‘ynaydi. Bu ikkala yirik yo‘nalish o‘rtasidagi tortishuvlarga chek qo‘yish maqsadida F. Galton qator eksperimental tadqiqotlar o‘tkazib, har bir individga xos differensial xususiyatlar mavjudligini «egizaklar metodi» yordamida asoslashga harakat qildi. 3 - jadvalda Galton tomonidan irsiy va orttirilgan sifatlar munosabati yuzasidan aniqlangan natijalardan keltirilgan.

Galtondan keyingi tadqiqotlarda musiqaga bo‘lgan qobiliyatga ona tilining xususiyati ta’sir qilishi aniqlandi: yumshoq - tonal yoki keskir - tonal bo‘lmagan tillar. Masalan, keskinroq hisoblangan rus tilida gapiruvchi bolalardagi musiqani idrok qilish yumshok, tonal tillarda so‘zlashuvchi vetnamliklarning idrokidan ancha past chiqqan. Lekin yuqoridagi fikrlar va tortishuvlarning kelib chiqish sababi tushunarli bo‘lishi kerak: ular insonning asl mohiyatini tushunish va uning xulqini boshqarish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Demak, inson jamiyat a’zosi sifatida uning normalariga bo‘ysunadi, uning kutishlariga javob berishga harakat qiladi va o‘z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, shaxs fenomeniga ta’rif berish mumkin.

Sh a x s - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsulii, ongli faoliyatning sub’ekti bo‘lmish individdir. Shaxsga taalukli bo‘lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita

aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob’ekt, ham sub’ekt bo‘lishlikdir. Shaxsga taallukli bo‘lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta’sirlarni o‘z ongi va idroki bilan qabul qilib (ob’ektni), so‘ngra shu ta’sirlarning sub’ekti sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanok «mening hayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o‘sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir. Bu muhit - kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an’analar, udumlar, turli xil tillar olami bo‘lib, undagi ko‘plab qoidalarga ko‘pchilik mutloq qo‘shiladi, ba’zilar qisman qo‘shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo‘ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta’qiblanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib - qoidalarni qabul qiluvchi sub’ekt bo‘lsa, jamiyat - ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko‘rinishidir. Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta’sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma’naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta’sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a’zolari bo‘lmish shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ayrim alohida yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta’sirida bo‘ladi va ko‘plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o‘quv maskanlari, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san’at, madaniyat va boshk.) bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, shaxsdagi turli g‘oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta’sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog‘cha, maktab, boshqa o‘quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta’sir uning e’tiqodi darajasida ko‘tarilsa, va unda yana yangidan - yangi fikrlar va g‘oyalarning paydo bo‘lishi, o‘sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o‘z qobiliyatlari, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o‘qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo‘lib, elu - yurtiga xizmat qiladi. Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o‘ynaydi. Masalan, bosqichma - bosqich bozor munosabatlariga o‘tayotgan O‘zbekiston sharoitini oladigan bo‘lsak, yangicha iqtisodiy o‘zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya va shunga o‘xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo‘lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi.

4-Reja. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs

Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o‘z a’zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o‘zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo‘lishidan qat’iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; o‘quvchining o‘qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o‘rniga qo‘yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o‘rin bo‘shatishi – norma, va hakozo. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo‘lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko‘pchilik tomonidan e’tirof

etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo‘lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo‘lishini nazorat qiluvchi jazo va rag‘batlantirish mexanizmlari bo‘lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob’ektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta muysafid kishiga o‘rin bo‘shatishni norma deb qabul qilmagan o‘smirga nisbatan ko‘pchilikning ayblov ko‘zi bilan qarashi, yoki og‘zaki tanbex berishi, juda kam xollarda o‘zini bebosh tutayotgan o‘smirning qo‘lidan tutib, nima qilish kerakligini o‘rgatib, «ko‘zini moshday qilib ochib qo‘yish» ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko‘rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. Rol - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo‘lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o‘quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a’zo bo‘lish, stipendiya olib, ma’muriyatning ijtimoiy himoyasida bo‘lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o‘sha oliygox ichki tartib - intizomi normalariga so‘zsiz bo‘ysunish, darslarga o‘z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o‘zlashtirishni bajarish, amaliyotda bo‘lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota-ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya’ni, konkret shaxsning o‘ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi.

Shunga ko‘ra, kimdir «tartibli, ba’mani, fozil, axloqli va odobli» deyilsa, kimdir - be’mani, bebosh, o‘zgaruvchan, ikki yuzlamachi (ya’ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo‘lib qoladi. Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko‘pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo‘lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o‘zi uchun o‘ta ahamiyatli bo‘lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o‘sha vaziyatda boshqacharok, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa, rollarning ko‘pligi ba’zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda - shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirtdan tahsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga

tushadi - bir tomondan, talabachilik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o‘zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniksa, yoshlar o‘zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashish uchun ba’zan bir-biriga zid xislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo‘lishmoqda. Masalan, yosh oila boshligi, talaba, ota - onalarga moddiy jihatdan qaram bo‘lmaslik uchun, bir vaqtning o‘zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa - chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lishi mumkin. Bu holat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o‘z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

5-Reja. Ijtimoiy ta’sirlarning shaxs tomonidan anglanishi

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma’lum ma’noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning axloq - ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o‘ziga ham bog‘liqdir.

Odamning o‘z - o‘zini anglashi, bilishi va o‘z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o‘ziga, o‘z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya’ni, ijtimoiy xulq - shaxs tomonidan uni o‘rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e’tibor berishdan tashqari, o‘zining shaxsiy harakatlari, ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Shaxsning o‘zi, o‘z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo‘lgan obraz - «Men» - obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi. «Men» - obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o‘zi va o‘z sifatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta’rif berish mumkin. Demak, har bir inson o‘zini, o‘zligini kanchalik aniq va to‘g‘ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish extimoli ham shunchalik kam bo‘ladi, ya’ni u tarbiyalangan bo‘ladi.

O‘z-o‘zini anglash, o‘zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko‘pincha konkret shaxs tomonidan og‘ir kechadi, ya’ni inson tabiati shundayki, u o‘zidagi o‘sha jamiyat normalariga to‘g‘ri kelmaydigan, no’maqul sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga sikib chiqariladi (avstriyalik olim Z. Freyd nazariyasiga ko‘ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo‘lmay, u har bir shaxsdagi o‘z shaxsiyatini o‘ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko‘pincha turli xil yomon

asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta’kidlash lozimki, «Men» - obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o‘sha shaxsni o‘rab turgan tashqi muhit, o‘zgalar va ularning munosabati katta rol o‘ynaydi. Odam o‘zgalarga qarab, guyoki oynada o‘zini ko‘rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati - aynan o‘ziga o‘xshash odamlar obrazi orqali o‘zi to‘g‘risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya «Men» - obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Masalan, ko‘chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o‘z yutuqlaringiz va mashg‘ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo‘lib, uning qaergadir shoshayotganligiga e’tibor bermadingiz.

Shu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni tinglayotganligidan, hayoli boshqa yerda turganligidan bilib qolasiz va shu orqali ayni shu paytda «maxmadona, laqmaroq» bo‘lib qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu o‘rtog‘ingiz bilan uchrashganda, oldingi hatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun «O‘rtoq, shoshmayapsanmi?» deb so‘rab ham qo‘yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir. Ya’ni, suhbatdosh o‘rniga turib, o‘zingizga tashlangan nazar («men unga qanday ko‘rinyapman?») - refleksiyadir. Shaxsning o‘zi haqidagi obrazi va o‘z-o‘zini anglashi yosh va jinsiy o‘ziga xoslikka ega. Masalan, o‘ziga nisbatan o‘ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o‘smirlik davrida rivojlanadi.

Bu davrda paydo bo‘ladigan «kattalik» hissi qizlarda ham, o‘smir yigitchalarda ham nafaqat o‘ziga, balki o‘zgalar bilan bo‘ladigan munosabatlarini ham belgilaydi. Qizlardagi «Men» - obrazining yaxshi va ijobiy bo‘lishi ko‘proq bu obrazning ayollik sifatlarini o‘zida mujassam eta olishi, ayollik xislatlarining o‘zida ayni paytda mavjudligiga bog‘liq bo‘lsa, yigitlardagi obraz ko‘proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog‘li uyg‘un ekanligiga bog‘liq bo‘ladi.

Shuning uchun ham o‘smirlikda o‘g‘il bolalardagi bo‘yning pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan «Men» - obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi. Qizlarda esa tashqi tarafdan go‘zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarning bor - yo‘qligiga bog‘liq xolda «Men» obrazi mazmunan idrok qilinadi. Qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo‘lgan ayrim toshmalar yoki shunga o‘xshash fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emotsiyalarga sabab bo‘lsa-da, baribir, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o‘ziga xos turmagi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi.

«Men» - obrazi va o‘z-o‘ziga baho: «Men» - obrazi asosida ham bir shaxsda o‘z-o‘ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo‘lishi mumkin. O‘z-o‘ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog‘liq xolda turlicha bo‘lishi mumkin. Ya’ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta’sirida - aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning

real munosabatlariga bog‘liq bo‘lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya’ni, uning o‘zi sub’ektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog‘liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o‘qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maktovlari uning o‘z-o‘ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o‘qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya’ni, bu baho ko‘proq shaxsning o‘ziga bog‘liq bo‘lib, u sub’ektiv xarakterga egadir. O‘z-o‘ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to‘g‘ri bo‘lishi, balki u o‘ta past yoki yuqori ham bo‘lishi mumkin. O‘z-o‘ziga bahoning past bo‘lishi ko‘pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo‘yayotgan talablarining o‘ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e’tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o‘qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo‘lishi mumkin. Bunday o‘smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetrokda yurishga harakat qilishi, o‘zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik qayfiyatida bo‘lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va hatti-harakatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Hattoki, bunday holat suisidal harakatlar, ya’ni o‘z joniga qasd qilish, real borligidan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin. O‘z-o‘ziga baho o‘ta yuqori ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta’sir ko‘rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun’iy tarzda bo‘rttirilishi, noo‘rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o‘tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo‘ladigan psixologik holat «noadekvatlilik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs hattoki, mag‘lubiyatga uchraganda yoki o‘zida nochorlik, o‘quvsizliklarni sezganda ham buning sababini o‘zgalarda deb biladi va shunga o‘zini ishontiradi ham (masalan, «halaqit berdi-da», «falonchi bo‘lmaganida» kabi bahonalar ko‘payadi). Ya’ni, nimaiki bo‘lmasin, aybdor o‘zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida borabora odamlar «oyog‘i yerdan o‘zilgan», «manmansiragan», «dimog‘dor» kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o‘z-o‘ziga baho realistiq, adekvat, to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Realistik baho shaxsni o‘rab turganlar - ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo‘ni-qo‘shni va yaqinlarning o‘rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo‘lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, o‘z vaqtida kerak bo‘lsa to‘g‘rilashga o‘rgatilgan bo‘ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi - referent guruhning roli katta bo‘ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maktab turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo‘lishi (masalan, ota-ona, o‘qituvchi, ustoz, yaqin do‘stlar), yoki noreal, hayoliy (kitob kaxramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo‘lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta’sir yoki taz’yiq ko‘rsatish kerak bo‘lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi. Shunday qilib, o‘z-o‘ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o‘rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e’zozlanadigan qadriyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Keng ma’nodagi yirik ijtimoiy

jamoalar etalon rolini o‘ynashi oqibatida shakllanadigan o‘z-o‘ziga baho - o‘z-o‘zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat hislarining tarbiyalanishi, tabiiy, har bir yosh avlodda o‘zligini anglash, o‘zi mansub bo‘lgan halq va millat ma’naviyatini kadrlash hislarini tarbiyalamoqda. Bu esa, o‘sha yuksak o‘z-o‘zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir. Demak, o‘z-o‘zini baholash - o‘z-o‘zini tarbiyalashning muhim mezonidir.

O‘z-o‘zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa, quyidagilar kiradi:

■ o‘z-o‘zi bilan muloqot (o‘zini konkret tarbiya ob’ekti sifatida idrok etish va o‘zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);

■ o‘z-o‘zini ishontirish (o‘z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo‘ysundirish);

■ o‘z-o‘ziga buyruq berish (tig‘iz va ekstremal holatlarda o‘zini qo‘lga olish va maqbul yo‘lga o‘zini chorlay olish sifati);

■ o‘z-o‘ziga ta’sir yoki autosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan xolda o‘zida ma’qul ustanovkalarni shakllantirish);

■ ichki intizom - o‘z-o‘zini boshqarishning muhim mezoni, har doim har yerda o‘zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korreksiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat. Yuqoridagi o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlari orasida psixologik nuqtai nazardan o‘z- o‘zi bilan amalga oshiriladigan ichki dialog alohida o‘rin tutadi. O‘z-o‘zi bilan dialog - oddiy til bilan aytganda, o‘zi bilan o‘zi gaplashishdir. Aslida bu qobiliyat bizning boshqalar bilan amalga oshiradigan tashqi dialoglarimiz asosida rivojlanadi, lekin aynan ichki dialog muhim regulyativ rol o‘ynaydi. Ye. Klimov bunday dialogning uch bosqichini ko‘rsatib o‘tadi.

O‘spirinlik davrida shaxs ijtimoiylashuvi: Shaxs, uning dunyoni bilish, o‘zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni bilish, tushunishi va o‘zaro munosabatlar jarayonida o‘zidagi takrorlanmas individuallilikni namoyon qilishi hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog‘liq ayrim jihatlarini tahlil qilish bizga umumiy ravishda shaxs - jamiyatda yashaydigan ijtimoiy mavjudotdir, degan xulosani qaytarishga imkon beradi. Ya’ni, u tug‘ilgan onidan boshlab o‘ziga o‘xshash insonlar qurshovida bo‘ladi va uning butun ruhiy potensiali ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo‘ladi. Chunki agar insonning ontogenetik taraqqiyoti tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, hali gapirmay turib, odam bolasi o‘ziga o‘xshash mavjudotlar davrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy muloqotning barcha ko‘rinishlarining faol ob’ekti va sub’ektiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, har birimizning jamiyatdagi o‘rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo‘lgani, jamiyatga qo‘shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon psixologiyada ijtimoiylashuv yoki

sotsializatsiya deb yuritiladi. Demak, sotsializatsiya yoki ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo‘shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta’sirini qabul qilgan xolda, har bir harakati va muomalasida uni ko‘rsatishi, shu ijtimoiy tajribasi bilan o‘z navbatida o‘zgalarga ta’sirini o‘tkaza olishi jarayonidir. Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko‘rsatilayotgan ta’sir oddiy, mexanik tarzda o‘zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtai nazaridan turlicha sub’ektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta’sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10-15-ta o‘quvchidan iborat akademik litsey o‘quvchilarini olaylik. Ularning bilimni, ilmni idrok qilishlari, ulardan ota - onalarining kutishlari, o‘qituvchilarning berayotgan darslari va unda yetkazilayotgan ma’lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xilday. Lekin baribir ana shu 15 o‘quvchining har biri shu ta’sirlarni o‘zicha, o‘ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o‘quv ko‘rsatgichlari va iqtidorida aks etadi. Bu o‘sha biz yuqorida ta’kidlagan ijtimoiylashuv va individualizatsiya jarayonlarining o‘zaro bog‘liq va o‘zaro qarama-qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi. Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro‘y beradigan shart-sharoitlarini ijtimoiy institutlar deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (bog‘cha, maktab, maxsus ta’lim o‘choqlari, oliygohlar, mehnat jamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlari kiradi. Bu institutlar orasida bizning sharoitimizda oila va mahallaning roli o‘ziga xosdir. Insondagi dastlabki ijtimoiy tajriba va ijtimoiy xulq elementlari aynan oilada, oilaviy munosabatlar tizimida shakllanadi. Shuning uchun ham halqimizda «Qush uyasida ko‘rganini qiladi» degan maqol bor. Ya’ni, shaxs sifatlarining dastlabki qoliplari oilada olinadi va bu qolip jamiyatdagi boshqa guruhlar ta’sirida sayqal topib, takomillashib boradi. Bizning o‘zbekchilik sharoitimizda oila bilan bir qatorda mahalla ham muhim tarbiyalovchi - ijtimoiylashtiruvchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ba’zan odamning qaysi mahalladan ekanligini surishtirib, keyin xulosa chiqarishadi, ya’ni mahalla bilan mahallaning ham farqi bo‘lib, bu farq odamlar psixologiyasida o‘z aksini topadi. Masalan, bitta mahalladan yaxshi kelin chiqsa, aynan shu mahalladan qiz qidirib qolishadi. Ya’ni, shu mahalladagi ijtimoiy muhit qizlarning iboli, aqlli, sarishtali bo‘lib yetishishlariga ko‘maklashgan. Masalan, ayrim mahallalarda sahar turib ko‘cha - eshiklarni supurish odatga aylangan va barcha oilalar shu udumni buzmaydilar. Shunga o‘xshash normalar tizimi har bir ko‘cha-mahallaning bir-biridan farqi, afzallik va kamchilik tomonlarini belgilaydi, oxirgilar esa shu mahallaga katta bo‘layotgan yoshlar ijtimoiylashuvida bevosita ta’sirini ko‘rsatadi. Yana bir muhim ijtimoiylashuv o‘choqlariga maktab va boshqa ta’lim maskanlari kiradi. Aynan shu yerda ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyg‘unlashtiriladi. Bizning ijtimoiy tasavvurlarimiz shundayki, maktabni biz ta’lim oladigan, bola bilimlar tizimini o‘zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz.

Lekin aslida bu yer ijtimoiylashuv tarbiyaviy vositalarda yuz beradigan maskandir. Bu yerda biz ataylab tashkil etilgan, oxirgi yillarda joriy etilgan «Ma'naviyat darslari», «Etika va psixologiya» kabi tarbiyalovchi fanlarni nazarda tutmayapmiz. Gap har bir darsning, umuman maktabdagi shart-sharoitlar, umumiy muhitning tarbiyalovchi roli haqida. Masalan, dars paytida o'qituvchi butun diqqati bilan yangi darsni tushuntirish bilan ovora deylik. Uning nazarida faqat dars, mavzuning mazmuni va undan kuzlangan maqsad asosiyday. Lekin aslida ana shu jarayondagi o'qituvchining o'zini qanday tutayotganligi, kiyim - boshi, mavzuga sub'ektiv munosabati va qolaversa, butun sinfdagi o'quvchilarga munosabati hamma narsani belgilovchi, ijtimoiy tajriba uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omildir. Shu nuqtai nazardan o'quvchilar didi, kutishlari va talablariga javob bergan o'qituvchi bolalar tomonidan tan olinadi, aks xolda esa o'qituvchining ta'siri faqat salbiy rezonans beradi. Xuddi shunday har bir sinfda shakllangan muhit ham katta rol o'ynaydi. Ba'zi sinflarda o'zaro hamkorlik, o'rtoqchilik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan, guruhda ijodiy munozaralar va bahslar uchun qulay sharoit bor. Bu muhit tabiiy o'z a'zolari ijtimoiy xulqini faqat ijobiy tomonga yunaltirib turadi. Yana bir muhim ijtimoiylashuv muhiti - bu mehnat jamoalaridir. Bu muhitning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu yerga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan, ma'lum tajribaga ega bo'lgan, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. Qolaversa, egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar ham juda muhim bo'lib, shu muhitdagi ijtimoiy normalar xarakteriga ta'sir qiladi. Lekin baribir shaxsning kimlar bilan, qanday o'zaro munosabatlar muhiti ta'sirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezonlaridandir. Shuning uchun ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri - o'sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o'zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo'lib, ko'pincha oylik - maosh masalasi ana shulardan keyin o'rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, sog'lom ma'naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o'ynaydi.

Katta yoshdagi ijtimoiylashuvning o'ziga xosligi shundaki, unda individualizatsiya jarayoni aniqrok, sezilarliroq kechadi. Chunki katta odam nafaqat tashqi ta'sirlarni o'zlashtiradi, balki o'zidagi iqtidor, malakalar bilan boshqalarga ham tarbiyaviy ta'sir, shaxsiy o'rnak ko'rsatish imkoniyaga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, qarilikning ijtimoiy mohiyati shundaki, ota - bobolarmiz, onaxonlarimiz asosan o'zlaridagi mavjud ijtimoiy tajribani boshqalarga (farzandlar, nabiralar, mahalladagi yoshlar va x-zo) uzatish bilan shug'ullanadilar va bu narsa ayniqsa, Sharq halqlarida juda e'zozlanadi. Shu sababli ham mustaqil yurtimizda qariyalar e'zozlanadi, mahallaning boshqaruv roli kun sayin oshirilmoqda, oila - tarbiyaning bosh o'chog'i sifatida davlat himoyasida bo'lib kelmoqda. Bu mustaqil davlat yoshlarida yangicha tafakkur va ongning shakllanishiga, yurtga sadoqat, vatanparvarlikning rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar: Ijtimoiylashuvning institutlaridan tashqari uning oqibati masalasi ham psixologiyada muhim amaliy

ahamiyatga ega. Shaxs ijtimoiylashuvining eng asosiy mahsuli - bu uning hayotda o‘z o‘rnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, shaxsning yo‘nalganligi masalasiga ham fanda katta e’tibor beriladi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yunaltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turgun, barqaror motivlar majmuiga ega bo‘lishlik shaxsning yo‘nalganligi deb ataladi. Yo‘nalganlikning eng muhim tarkibiy qismlarini quyidagilar tashkil etadi: Mas’uliyat. Bu ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko‘rsatgichlardan sanaladi. Oxirgi yillarda psixologiyada nazorat lokusi nazariyasi (teoriya lokusa kontrolya) keng tarqaldiki, unga ko‘ra, har bir insonda ikki tipli mas’uliyat kuzatiladi. Birinchi tipli mas’uliyat shundayki, shaxs o‘zining hayotida ro‘y berayotgan barcha hodisalarning sababchisi, mas’uli sifatida faqat o‘zini tan oladi. («Men o‘zim barcha narsalarga mas’ulman. Mening hayotim va yutuqlarim faqat o‘zimga bog‘liq, shuning uchun o‘zim uchun ham, oilam uchun ham o‘zim javob beraman»). Mas’uliyatlilikning ikkinchi turi undan farqli, barcha ro‘y bergan va beradigan vokea, hodisalarning sababchisi tashqi omillar, boshqa odamlar (ota - ona, o‘qituvchilar, hamkasblar, boshliqlar, tanishlar va boshk.). Xorij mamlakatlarda o‘tkazilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ikkinchi turli mas’uliyat ko‘prok o‘smirlarga xos bo‘lib, ulardan 84% mas’uliyatni faqat boshqalarga yuklashga moyil ekanlar. Bu ma’lum ma’noda yoshlar o‘rtasida mas’uliyatsizlikning avj olganligidandir. Shuning uchun ham «nazorat lokusi» tushunchasini fanga kiritgan amerikalik olim Dj. Rotter (J. Rotter)ning fikricha, mas’uliyatni o‘z bo‘yniga olishga o‘rgatilgan bolalarda havotirlik, neyrotizm, konformizm holatlari kam uchrarkan. Ular hayotga tayyor, faol, mustaqil fikr yurituvchilardir. Ularda o‘z-o‘zini hurmat hissi ham yuqori bo‘lib, bu boshqalar bilan ham hisoblashish yashashga sira halakit bermaydi. Shuning uchun ijtimoiylashuvning muhim bosqichi kechadigan ta’lim muassasalarida yoshlarga ko‘prok tashabbus ko‘rsatish, mustaqil fikrlash va erkinlikni his qilishga sharoit yaratish kerak va bu hozirgi kunda birinchi prezidentimiz I.Karimov siyosatining asosini tashkil etadi. Maqsadlar va ideallar. Ijtimoiylashuvning mas’uliyat hissiga bog‘liq yo‘nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsadlar va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish, uzoq va yaqinga muljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini ta’minlaydi. Maqsad va rejasiz inson - ma’naviyatsiz pessimistdir. Bu maqsadlar doimo o‘zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog‘liqligi bilan xarakterlanadi. Ularning shakllanishi va ongda o‘rnashishida ma’lum ma’noda ideallar ham rol o‘ynaydi. Ideallar - shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu-umidlari, ular ongda bor, lekin har doim ham amalga oshmaydi. Chunki ularning paydo bo‘lishiga sabab bevosita tashqi muhit bo‘lib, o‘sha ideallar ob’ekti bilan shaxs imkoniyatlari o‘rtasida tafovut bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘smirning ideali otasi, u otasiday mashxur va el suygan yozuvchi bo‘lmoqchi. Bu orzuga yaqin kelajakda erishib bo‘lmaydi, lekin aynan ana shunday ideallar odamga maqsadlar qo‘yib, unga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga yordam beradi. Qiziqishlar va dunyoqarash. Qiziqishlar ham

anglangan motivlardan bo‘lib, ular shaxsni atrofida ro‘y berayotgan barcha hodisalar, olamlar, ularning o‘zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar to‘plash, ularni o‘rganishga imkon beruvchi omildir. Qiziqishlar mazmunan keng yoki tor, maqsad jihatidan professional, bevosita yoki bilvosita bo‘lishi, vaqt tomondan barqaror, doimiy yoki vaqtinchalik bo‘lishi mumkin. Qizikishlarning eng muhim tomoni shundaki, ular shaxs dunyoqarashi va e’tiqodini shakllantirishga asos bo‘ladi. Chunki e’tiqod shaxsning shunday ongli yo‘nalishiki, unga o‘z qarashlari, prinsiplari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashga imkon beradi. Halk doimo e’tiqodli insonlarni hurmat qiladi. E’tiqodning predmeti turlicha bo‘lishi mumkin - Vatanga e’tiqod, dinga, fanga, kasbga, axloqiy normalarga, oilaga, go‘zallikka va shunga o‘xshash.

E’tiqod va qiziqishlar har birimizdagi dunyoqarashni shakllantiradi. Dunyoqarash - tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g‘oyalar majmui bo‘lib, u shaxsni ma’lum bir qolipda, o‘z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o‘rin egallashga chorlaydi. Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an’analarni e’zozlashni, o‘z yaqinlariga mehribon va tanlagan yo‘liga - kasbi, maslagi va e’tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e’tiqoddir.

Milliy va ma’naviy qadriyatlarning roli: Dunyoqarash - shaxsning shaxsligini (individ emas), uning ma’naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko‘rsatuvchi kuchli motivlardandir. Shuning uchun ham uning shakllanishi va o‘zgarishi masalasi muhim masalalardan bo‘lib, hamma vaqt va davrlarda ham o‘ta dolzarb bo‘lib kelgan. O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgach, jamiyatda tub islohotlar boshlandi. Ana shu islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri - ma’naviy-ma’rifiy islohotlar bo‘lib, uning asosiy maqsadi jamiyat a’zolari dunyoqarashini istiqlol ruhida shakllantirishni maqsad qilib qo‘ydi. Davlatimizning yoshlar borasidagi siyosatining asosini ham ularda yangicha xurfikrlilik bilan yangicha dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu o‘rinda psixologiya o‘zgarishlar sharoitida e’tiqod, dunyoqarash va ideallar o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi omillar xususida quyidagilar ajaratadi: 1. Ma’naviyat va ma’rifat. Avvalo ma’rifat xususida. Bu - odamning tabiat, jamiyat va insonlar to‘g‘risidagi turli bilimlari, tushunchalari, ma’lumotlari majmui bo‘lib, uning mazmuni bevosita shaxs dunyoqarashining mazmun-mohiyatini belgilaydi. Demak, yoshlarga qaratilgan va ular o‘qib, o‘rganishi uchun yo‘naltirilgan barcha turdagi ma’lumotlar (kitoblar, ommaviy - axborot vositalari orqali, muloqot jarayonida), ular asosida shakllanadigan yangicha tasavvurlar yangicha dunyoqarash uchun zamindir. Mustaqillik yillarida eski, o‘zini tarix oldida oqlamagan mafkuradan voz kechildi, yangi mustaqillik g‘oyasi, uning asosiy tamoyillari, yoshlarni ma’rifatli qilish borasidagi vazifalar davlatimiz rahbari I.A. Karimov asarlarida muxtasar, aniq bayon etilgan. Ular asosida mamlakatimizda yangi «Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun» va «Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi» qabul qilindi. Ular yoshlarning eng ilg‘or ilm - fan yutuqlaridan

bohabar qilish, buyuk allomalar merosini chuqur va teran o‘rganish, zamonaviy texnologiyalar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, yoshlarni ma’rifatli qilishning barcha shart-sharoitlarini yaratishni nazarda tutadi. Bu say’i-harakatlar ma’naviyat borasidagi islohotlar, o‘zbek madaniyati, san’ati, adabiyotini rivojlantirish ishlari, tariximizni tiklash borasida amalga oshirilayotgan olamshumul ishlar tabiiy, yoshlarimizda yangicha dunyoqarashning shakllanishiga asos bo‘ladi. 2. Oila. Yurtimizda oila hamisha davlat himoyasida va oliy qadriyat sifatida e’zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o‘chog‘i bo‘lgani uchun ham uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e’tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezilarlidir. Respublikamizda «Oila» yili deb elon qilinishi, «Oila» ilmiy-amaliy Markazi o‘z faoliyatini boshlashi jamiyatda, yoshlar tarbiyasi borasida oilaning roli va mas’uliyatini oshirishga qaratilgan muhim tadbir bo‘ldi va ularda yurtga, Vatanga, yaqinlarga sadoqat, muhabbat hislarini tarbiyalash orqali dunyoqarashlari mazmuniga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. 3. Mafkura. Har bir davrning o‘z mafkurasi bo‘ladi va u shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida uning ongiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Kommunistiq mafkuradan batamom voz kechgan jamiyatimizda yangi mustaqillik mafkurasi shakllanmoqda. Zero, mafkura jamiyat a’zolarining tabiat, jamiyat va ijtimoiy jarayonlar xususidagi g‘oyalari, bilimlari majmui bo‘lib, har bir ijtimoiy guruh o‘ze’tiqodiga mos mafkurani tanlaydi. Mustaqillikdan ruhlangan, uning moddiy va ma’naviy ne’matlaridan baxramand bo‘layotgan O‘zbekistonliklar o‘tgan qisqa vaqt mobaynida uning qadriyatlari, har bir shaxsga yaratilayotgan cheksiz imkoniyatlari, ilm va bilim borasidagi shart-sharoitlarni anglab, o‘zlari ongli ravishda ana shu tuzumga sadoqat va uni sevish, ardoqlash va himoya qilishga tayyorlik falsafasini shakllantirmoqdalar. Yangi mafkura mustaqillik va milliy qadriyatlar g‘oyasi ta’sirida shakllanmoqda va bu tabiiy, birinchi navbatda yoshlar dunyoqarashini o‘zgartiruvchi muhim shartdir. 4. Ijtimoiy ustanovkalar. Sof psixologik ma’noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o‘zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm - bu ijtimoiy ustanovkalardir. Bu - shaxsning atrof muhitida sodir bo‘layotgan ijtimoiy hodisalarni, ob’ektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma’lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar urnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o‘zgartirishga aloqador kategoriyadir.

Rus olimi V.A. Yadov o‘zining dispozision konsepsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni to‘rt bosqich va to‘rt tizimli sifatida tasavvur qilgan. A) elementar ustanovkalar (set) - oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko‘pincha ongsiz tarzda hosil bo‘ladigan ustanovkalar. Ularni o‘zgartirish uchun moddiy shart-sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o‘zgartirish kifoya.

B) ijtimoiy ustnovkalar (attitud) - ijtimoiy vaziyatlar ta’sirida ijtimoiy ob’ektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar. Ularni o‘zgartirish uchun ijtimoiy shart-sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o‘zgartirish kerak.

V) bazaviy ijtimoiy ustanovkalar - ular shaxsning umumiy yo‘nalishini belgilaydi va ularni o‘zgartirish e’tiqodlar va dunyoqarashlarni o‘zgartirish demakdir.

G) Qadriyatlar tizimi - ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsulii sifatida jamiyatda qadr-qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovka. Masalan, saxix hadislar shunday qadriyatlardir, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham iloxiy, ham eng buyuk insonlar tomondan yaratilgan va avloddan avlodga o‘z qadrini yo‘qotmay kelayotgan qadriyatlardir.

Ijtimoiy ustnovkalarni o‘zgartirishning eng sodda va qulay yo‘li - bu ayni vaziyatlar va ulardagi ta’sirlarni qaytarishdir. Bu qaytarish qayd qilingan obraz sifatida inson ongida uzoq muddatli xotirada saqlanadi va vaziyat paydo bo‘lganda, ob’ektivlashadi, ya’ni o‘z kuchini va mavjudligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham agar chet el tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, u yerda biror g‘oyani ongga singdirish uchun bir odam yoki biror guruh o‘zsiyosiy, mafkuraviy yoki boshqa qarashlarini bir xil so‘zlar va iboralar, harakatlar bilan qaytaraveradi va shu yo‘l bilan ko‘pchilikning ma’qullashiga erishadi. Ayniksa, saylov oldi tadbirlarida ana shu usul keng qo‘llaniladi.

Shulardan kelib chiqib, ijtimoiy ustanovkalarni o‘zgartirishning usullari va psixologik vositalari orqali ham dunyoqarashni o‘zgartirishga erishish mumkin.

Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari: Jahon psixologiyasi fanida shaxsning kamoloti, uning rivojla nishi to‘g‘risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo‘lib, tadqiqotchi-lar inson shaxsini o‘rganishda turlicha pozisiyada turadilar va mu-ammo mohiyatini yoritishda o‘ziga xos yondashishga egadirlar. Mazkur nazariyalar qatoriga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kog-nitivistik, psixoanalistik, bixevioristik kabilarni kiritish mumkin. Quyida sanab o‘tilgan nazariyalar va ularning ayrim namo-yandalari tomonidan shaxsni rivojlantirishning prinsiplari to‘g‘ri-sidagi qaradxlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Biogenetik nazariyaning negizida insonning biologik yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan bo‘lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyoti ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o‘zaro shunchaki aloqa tan olinadi, xolos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh maqsadi - biologik determinantlariga (aniqlovchilariga) qara-tiladi va ularning mohiyatidan sotsial-psixologik xususiyatlar kel-tirilib chiqariladi.

Taraqqiyot jarayonining o‘zi, dastavval biologik yetilishning uni-versal bosqichi sifatida sharxdanadi va talqin qilinadi.

Biogenetik qonunni F.Myuller va E.Gekkellar kashf qilishgan. Biogenetik qonuniyat organning taraqqiyoti nazariyasini tashviqot qilganda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o‘ynagan. Biroq’rganning individual va tarixiy ta-raqqiyoti munosabatl; rini tushuntirishda

qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘ygan. Jumladan, biogenetik qonunga ko‘ra, shaxs psixologiyasining indi-vidual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyat tarixiy taraqqiyoti-ning (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g‘oya yotadi.

Nemis psixologi V.Shternning fikricha, chaqaloq (yangi tug‘ilgan bola) hali u odam emas, balki faqat sut emizuvchi hayvondir, u olti oylikdan oshgach, psixik taraqqiyoti jihatidan faqat maymunlar da-rajasiga tenglashadi, ikki yoshida esa oddiy odam holiga keladi, besh yoshlarda ibtidoiy poda holatidagi odamlar darajasiga yetadi, maktab davridan boshlab ibtidoiy davrni boshidan kechiradi, kichik maktab yoshida o‘rta asr kishilar ongiga va nihoyat yetukli davrdagina (16—18 yoshlarda) u hozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga erishadi.

Biogenetik nazariyaning yirik namoyandalaridan biri bo‘lmish amerikalik psixolog S.Xoll psixologik taraqqiyotning bosh qonuni Deb «rekapitulyatsiya qonuni»ni (filogenezni qisqacha takrorlashni) hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenezdagi individual taraqqiyot filogenezning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Olimning talqi niga binoan, go‘daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qayta-rishdan boshqa narsa emas. Bolalik davri esa qadimgi odamlarning asosiy mashg‘uloti bo‘lgan ovchilik va baliqchilik davriga aynan mos keladi. 8—12 yosh oralig‘ida o‘sish davri o‘smiroldi yoshidan iborat bo‘lib, yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho‘qqisiga hamohangdir. O‘spirinlik esa jinsiy yetilishdan (12—13) boshlanib, to yetuklik davri kirib kelgunga qadar (22—25 yoshgacha) davom etib, u romantizmga ekvivalentdir. S.Xollning talq-iniga qaraganda, bu davrlar «bo‘ron va tazyiqlar», ichki va tashqi nizolar (konflikt)dan iborat bo‘lib, ularning kechishi davomida odamda «individuallik tuyg‘u»si vujudga keladi. Shaxsni rivojla-nishining ushbu nazariyasi o‘z davrida bir talay tanqidiy mulohaza-lar manbai vazifasini o‘tadi, chunki inson zotidagi rivojlanish bosqichlari filogenezni aynan takrorlamaydi va takrorlashi ham mumkin emas.

Biogenetik konsepsiyaning boshqa bir turi nemis «konstitusion psixologiyasi» (insonning tana tuzilishiga asoslagan nazariya) na-moyandalari tomonidan ishlab chiqilgan. E.Krechmer shaxs (psixolo-giyasi) tipologiyasi negiziga bir qancha biologik omillarni (masa-lan, tana tuzilishining tipi va boshqalarni) kiritib, insonning jismoniy tipi bilan o‘sishining xususiyati o‘rtasida uzviy bog‘liq-lik mavjud, deb taxmin qiladi. E.Krechmer odamlarni ikkita katta guruhga ajratadi va uning bir boshqa sikloid toifasiga xos (tez qo‘zg‘aluvchi, his-tuyg‘usi o‘ta barqaror), ikkinchi uchida esa shizoid toifasiga (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his-tuyg‘usi chek-langan) xos odamlar turishini aytadi. Bu taxminini u shaxs rivoj-lanishi davriga ko‘chirishga harakat qiladi, natijada o‘smirlarda sikloid xususiyatlari (o‘ta qo‘zg‘aluvchanlik, tajovuzkorlik, affek-tiv tabiatlilik), ilk o‘spirinlarda esa shizoidlik xususiyatlari bo‘la-di, deya xulosa chiqaradi. Lekin insonda biologik shartlangan si-fatlar hamisha yetakchi va hal qiluvchi rol o‘ynay

olmaydi, chunki shaxsning individual-tipologik xususiyatlari bir-biriga aynan mos tushmaydi.

Biogenetik nazariyaning namoyandalari amerikalik psixologlar A.Gezell va S.Xoll taraqqiyotning biologik modeliga chamalab ish ko‘radilar, bu jarayonda muvozanat, integratsiya va yangilanish sikl-lari o‘zaro o‘rin almashinib turadi, degan xulosaga keladilar.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko‘rinishi Zig-mund Freydning shaxs talqinida o‘z ifodasini topgan. Uning ta’li-motiga binoan, shaxsning barcha xatti-harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlar bilan shartlangan, ayniqsa, bi-rinchi navbatda, u jinsiy (seksual) mayliga (libidoga) bog‘likdir. Bunga o‘xshash biologizatorlik omillari inson xulqini belgilovchi birdan-bir mezon yoki betakror turtki rolini bajara olmaydi.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko‘rinishi — bu aksil qutb-ga joylashgan sotsiogenetik nazariya hisoblanadi. Sotsiogenetik yonda-shishga binoan, shaxsda ro‘y beradigan o‘zgarishlar jamiyatning tuzi-lishi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, uni qurshab tur-gan odamlar bilan o‘zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko‘ra, inson bio-logik tur sifatida tug‘ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlari-ning bevosita ta’siri ostida shaxsga aylanadi.

G‘arbiy Yevropaning eng muhim nufuzli nazariyalaridan biri — bu rollar nazariyasidir. Ushbu nazariyaning mohiyatiga binoan jamiyat o‘zining har bir a’zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakat (xulq)ning barqaror usullari majmuasini taklif qiladi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo‘lgan maxsus rollari shaxsning xulq-atvor xususiyatida, o‘zgalar bilan munosabat, muloqot o‘rnatishida sezilarli iz qoldiradi.

AQShda keng tarqalgan nazariyalardan yana bittasi — bu indivi-dual tajriba va bilimlarni egallash (mustaqil o‘zlashtirish) naza-riyasidir. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqe-likka nisbatan munosabati ko‘pincha ko‘nikmalarni egallash va bi-limlarni o‘zlashtirishning samarasi qo‘zg‘atuvchini uzluksiz ravish-da mustahkamlanib borishning mahsulidir. (E.Torndayk, B.Skinner va hokazo).

K.Levin tomonidan tavsiya qilingan «fazoviy zarurat maydoni» nazariyasi psixologiya fani uchun (o‘z davrida) muhim ahamiyat kasb etadi. K.Levinning nazariyasiga ko‘ra individningxulqi (xatti-hara-kati) psixologik kuch vazifasini o‘tovchi ishtiyoq (intilish), maqsad (niyat)lar bilan boshqarilib turiladi va ular fazoviy zarurat may-donining ko‘lami va tayanch nuqtasiga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Yuqorida taxdil qilingan (sharxdangan) har bir nazariya shaxs-ning ijtimoiy xulqi (xatti-harakati)ni o‘zgalar uchun yopiqyoki mah-DUD muhit xususiyatlaridan kelib chiqqan holdatushuntiradi, bu o‘rinda odam xoxdaydimi

yoki yo‘qmi bundan qat’i nazar mazkur sharoitga moslashmog‘i (ko‘nikmog‘i) zarur, degan aqidaga amal qilinadi.

Bizningcha, barcha nazariyalarda inson hayotining ijtimoiy-tari-xiy vaziyatlari va ob’ektiv shart-sharoitlari mutlaqo e’tiborga olin-maganga o‘xshaydi. Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo‘lib, u bioge-netik, sotsiogenetik omillarning qimmatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotining birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Ushbu yondashishning uchta mustaqil yo‘nalishga ajra-tib tahlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o‘z mohiyati, mahsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o‘zaro tafovutlanadi.

Psixikaning irrasional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo‘lmish emotsiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyandalaridan biri — bu amerikalik psixolog E.Eriksondir. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o‘ziga xos betakror xususiyatga egadir.

Birinchi davr — go‘daklik. Ushbu davrda go‘dakda ongsizlikka asos-langan tashqi dunyoga nisbatan «ishonch» tuyg‘usi vujudga keladi. Bu-ning bosh sababchisi ota-onaning mehr-muhabbati, g‘amxo‘rligi va jon-kuyarligining nishonasidir. Agarda go‘dakda ishonch negizi paydo bo‘lmasa, balki borliqqa nisbatan ishonchsizlik hissi tug‘ilsa, u taq-dirda voyaga yetgan odamlarda mahdudlik, umidsizlik shaklida aks etuv-chi xavf vujudga kelishi, ehtimol.

Ikkinchi davrda, ya’ni ilk bolalikda jonzodda yarim mustaqqil-lik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usi shakllanadi yoki aksincha, ularning qarama-qarshisi bo‘lmish uyat va shubha hissi hosil bo‘ladi. Bo-lada mustaqillikning o‘sishi, o‘z tanasini boshqarishga keng imko-niyat yaratib, bo‘lg‘usida shaxs xususiyatlariga aylanuvchi tartib va intizom, mas’uliyat, javobgarlik, hurmat tuyg‘ularini tarkib top-tirishga puxta zamin hozirlaydi.

Uchinchi davr — o‘yin yoshi deb atalib, 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bola-larni o‘ziga qamrab oladi. Mazkur davrda tashabbus tuyg‘usi, qaysidir ishni amalga oshirish va bajarish maylini tarkib toptiradi. Mabo-do unda xohish-istakni ro‘yobga chiqarishning yo‘li to‘sib qo‘yilsa, ushbu holatda bola o‘zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur yosh davrida davra, ya’ni guruhiy o‘yin, tengqurlari bilan muloqotga kirishish jarayonla-ri muhim ahamiyat kasb etadi, natijada bolaning turli rollar sinab ko‘rishiga, xayoloti o‘sishiga imkon yaratiladi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg‘usi, uni tushunish mayli tug‘ila boshlaydi.

To‘rtinchi davr — maktab yoshi deb nomlanib, undagi asosiy o‘zga-rishlar ko‘zlagan maqsadga erishish qobiliyati, uddaburonlik va mah-suldorlikka intilish tuyg‘usi bilan ajralib turadi. Uning eng mu-him qadriyati — omilkorlik va mahsuldorlikdan iboratdir. Ushbu yosh davrining salbiy jihatlari (illatlari) ham ko‘zga tashlanadi va ularning qatoriga ijobiy xislatlari yetarli darajada

bo‘lmaganli-gi, ongi hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammo-larni yechishda aql-zakovatning yetishmasligi, bilimlarni o‘zlashti-rishda qoloqligi (sustligi) va hokazo. Xuddi shu davrda shaxsda meh-natga nisbatan individual munosabati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr — o‘spirinlik — o‘zining betakror xislati, indi-vidualligi va boshqa odamlar bilan keskin tafovutlanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, o‘smirlik shaxs sifatida noaniklik, muayyan rolning uddalamaslik, qat’iyatsizlik singari nuqsonlarga (illatlarga) egadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati «rolni kechiktirish»ning o‘zgarishi hisoblanib, birmuncha taraqqiyot bosqi-chiga ko‘tarilishining daqiqasidir. Unda ijtimoiy hayotda bajara-yotgan rollarining ko‘lami kengayadi, lekin ularning barchasini jid-diy egallash imkoniyati mavjud bo‘lmaydi, vaholanki bu kezda o‘spi-rin rollarda o‘zini sinab ko‘rish bilan cheklanadi, xolos. Erikson o‘spirinlarda o‘z-o‘zini anglashning psixologik mexanizmlarini ba-tafsil taxlil qiladi, unda vaqtni yangicha his qilish, psixoseksual qiziqish, patogen (kasallik qo‘zg‘atuvchi) jarayonlar va ularning tur-li ko‘rinishlari namoyon bo‘lishini sharhlaydi.

Oltinchi davr — yoshlik boshqa odamga (jinsga) nisbatan psixolo-gik intim yaqinlashuv qobiliyati (uquvi) va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, jinsiy mayl bu sohada alohida o‘rin tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholik va odamovilik kabi bexo-siyat xususiyatlari bilan tafovutlanadi.

Yetinchi davr — yetuklik davri deb atalib, hayot va faoliyatning barcha sohalarida (mehnatga, ijodiyotga, g‘amxo‘rlikda, pusht qoldi-rishda, tajriba uzatishda va boshqalarda) mahsuldorlik tuyg‘usi unga uzluksiz ravishda hamrohbo‘ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishi-da turtki vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur davrda ayrim jihatlarda turg‘unlik tuyg‘usi nuqson (illat) sifatida hukm surishi ehtimoldan holi emas.

Sakkizinchi davr, ya’ni qarilik inson tariqasida o‘z burchini ud-dalay olganligi, turmushning keng qamrovligi, undan qanoatlangan-ligi (qoniqqanligi) tuyg‘ulari bilan tavsiflanadi. Salbiy xususi-yat sifatida ushbu yoshda hayotdan, faoliyatdan noumidlilik, ulardan ko‘ngil sovish his-tuyg‘ularini ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir. Dono-lik, soflik, gunohlardan forig‘ bo‘lishlik bu yoshdagi odamlarning eng muhim jihati, saxovati hisoblanadi, binobarin, har bir alohi-Da olingan holatga nisbatan shaxsiyat va umumiyat nuqtai nazaridan Qarash ularning oliy himmati sanaladi. E.Shpranger «O‘spirinlik davri psixologiyasi» degan asarida qizlarning 13 yoshdan 19 yoshgacha, yigitlarning esa 14 yoshdan 22 yoshga-cha kiritishni tavsiya qiladi. Ushbu yosh davrida yuz beradigan asosiy o‘zgarishlar E.Shpranger bo‘yicha:

a) shaxsiy «Men»ni kashf qilish;

b) refleksiyaning o‘sishi;

v) o‘zining individualligini anglash (tushunish) va shaxsiy xususiyatlarini e’tirof qilish;

g) hayotiy ezgu rejalarining paydo bo‘lishi;

d) o‘z shaxsiy turmushini anglagan holda qurish ustanovkasi va hokazo. Uning fikricha, 14—17 yoshlarda vujudga keladigan inqirozning mohiyati ularga kattalarning bolalarcha munosabatidan qutulish tuyg‘usini tug‘ilishidan iboratdir. 17-21 yoshlarning yana bir xususiyati — o‘zining tengqurlari va jamoatchilik qurshovidan «uzilish inqirozi» va tanholik tuyg‘usining paydo bo‘lishidir. Bu holatni tarixiy shartlanganlik shart-sharoitlar va omillar vujudga keltiradi.

E.Shpranger, K.Byuler, A.Maslou va boshqalar personologik nazariyaning yirik namoyandalari bo‘lib hisoblanadilar.

Kognitivistik yo‘nalishning asoschilari qatoriga J.Piaje, Dj. Kelli va boshqalarni kiritish mumkin.

J.Piaje intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo‘lib, u intellekt funksiyalari va intellektning davrlari ta’li-motini o‘z ichiga qamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish, ko‘ni-kish)dan iborat bo‘lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi.

Muallif shaxsda intellekt rivojlanishining quyidagi bosqich-larga ajratadi:

sensomotor intellekti (tug‘ilishdan to 2 yoshgacha);

operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan to 7 yoshga-cha);

konkret operatsiyalar davri (7—8 yoshdan 11 — 12 yoshgacha);

formal (rasmiy) operatsiyalar davri.

J.Piajening g‘oyalarini davom ettirgan psixologlarning bir guruhini kognitiv-genetik nazariyaga biriktirish mumkin. Bu yo‘na-lishning namoyandalari qatoriga L.Kolberg, D.Bromley, Dj.Birrer, A.Vallon, G.Grimm va boshqalar kiradi.

Fransuz psixologi A.Vallon nuqgai nazaricha, shaxsning rivoj-lanishi quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

homilaning ona qornidagi davri;

impulsiv harakat davri — tug‘ilgandan to 6 oylikgacha;

emotsional (his-tuyg‘u) davri - 6 oylikdan to 1 yoshgacha;

sensomotor (idrok bilan harakatning uyg‘unlashuvi) davri - 1 yoshdan to 3 yoshgacha;

personalizm (shaxsga aylanish) davri - 3 yoshdan to 5 yoshgacha;

farqpash davri - 6 yoshdan to 11 yoshgacha;

7) jinsiy yetilish va o‘spirinlik davri — 12 yoshdan to 18 yoshgacha. Yana bir fransiyalik yirik psixolog Zazzo o‘z vatanidagi ta’lim

va tarbiya tizimining tamoyillaridan kelib chiqqan holda, mazkur muammoga boshqacharoq yondashib va uni o‘ziga xos talqin qilib, insonning ulg‘ayib borishini quyidagi bosqichlarga ajratishni tav-siya qiladi:

Birinchi bosqich - bolaning tug‘ilganidan 3 yoshigacha.

Ikkinchi bosqich - 3 yoshidan 6 yoshigacha.

Uchinchi bosqich — 6 yoshidan 9 yoshigacha.

To‘rtinchi bosqich - 9 yoshidan 12 yoshigacha.

Beshinchi bosqich — 12 yoshidan to 15 yoshigacha.

Oltinchi bosqich — 15 yoshidan 18 yoshigacha.

Sxemadan ko‘rinib turibdiki, R.Zazzo shaxs rivojlanishining bosqichlariga individuallik sifatida tarkib topish, takomillashish nazariyasidan kelib chiqib yondashgani shaxs shakllanishi pallasi-ning yuqori nuqtasi, ya’ni ijtimoiylashuvi bilan cheklanishga olib kelgan. Shuning uchun uning ta’limoti insonning ontogenezda tako-millashuvi, o‘zgarishi, rivojlanishi xususiyatlari va qonuniyatlari to‘g‘risida mulohaza yuritish imkonini bermaydi.

G.Grimm shaxs rivojlanishi quyidagi bosqichlardan iborat ekanligini tavsiya qiladi:

chaqaloqlik — tug‘ilganidan to 10 kungacha;

go‘daklik — 10 kunlikdan to 1 yoshigacha;

ilk bolalik — 1 yoshdan to 2 yeshigacha;

birinchi bolalik davri - 3 yoshdan to 7 yoshigacha;

ikkinchi bolalik davri — 8 yoshdan to 12 yoshigacha;

o‘smirlik davri 13 yoshdan to 16 yoshigacha o‘g‘il bolalar, 12 yoshdan 15 yoshigacha qizlar;

o‘spirinlik davri — 17 yoshdan to 21 yoshgacha yigitlar, 16 yoshdan

20 yoshgacha qizlar (bokiralar);

8) etuklik davri: birinchi bosqich — 22 yoshdan 35 yoshgacha erkaklar,

21 yoshdan 35 yoshgacha ayollar, ikkinchi bosqich — 36 yoshdan 60 yoshgacha
erkaklar, 36 yoshdan 55 yoshgacha ayollar;

9) keksayish (yoshi qaytgan davr) — 61 yoshdan to 75 yoshgacha erkaklar, 55 yoshdan to 75 yoshgacha ayollar;

10) qarilik davri - 76 yoshdan to 90 yoshigacha (jinsiy tafovut

yo‘q);

11) uzoq umr ko‘ruvchilar 91 yoshdan boshlab to cheksizlikkacha. Dj.Birron shaxs rivojlanishini quyidagicha tasavvur etadi:

go‘daklik — tug‘ilgandan to 2 yoshgacha;

maktaboldi davr — 2 yoshdan to 5 yoshgacha;

bolalik davri — 5 yoshdan to 12 yoshgacha;

o‘spirinlik davri - 12 yoshdan to 17 yoshgacha;

ilk yetuklik davri — 17 yoshdan to 20 yoshgacha;

yetuklik davri — 20 yoshdan to 50 yoshgacha;

yetuklik davrining oxiri — 50 yoshdan to 75 yoshgacha;

qarilik davri 76 yoshdan boshlab.

D.Bromleyning tasnifi boshqalarnikiga mutlaqo o‘xshamaydi, chunki unda shaxsning rivojlanishi muayyan davrlarga va bosqichlar-ga ajratilgan: birinchi davr — ona qornidagi muddatni o‘z ichiga qamrab oladi (zigota-embrion-homila-tug‘ilish), ikkinchi davr (bo-lalik): a) go‘daklik - tug‘ilgandan to 18 oylikkacha, b) maktabgacha bosqichdan oldingi - 19 oylikdan to 5 yoshgacha, v) maktab bolalik — 5 yoshdan 11 — 13 yoshgacha, uchinchi davr (o‘spirinlik) — 1) ilk o‘spirin-lik — 11 yoshdan to 15 yoshgacha, 2) o‘spirsnlik — 15 yoshdan to 21 yoshgacha, to‘rtinchi davr (yetuklik) — 1) ilk yetuklik davri — 21 yoshdan to 25 yoshgacha, 2) o‘rta yetuklik davri — 25 yoshdan to 40 yoshgacha, 3) yetuklik-ning so‘nggi bosqichi — 40 yoshdan to 55 yoshgacha, beshinchi davr (qari-lik) — 1) istefo bosqichi — 55 yoshdan to 65 yoshgacha, 2) qarilik bos-qichi — 65 yoshdan to 75 yoshgacha, 3) eng keksalik davri — 76 yoshdan to cheksizlikkacha.

Shunday qilib, biz chet el psixologiyasida shaxs rivojlanishi-ning yo‘nalishlari va nazariyalarini qisqacha sharxlab o‘tdik. Qilin-gan tahlillardan ko‘rinib turibdiki, Yevropa mamlakatlari va AQSh psixologlari orasida bu sohada bitta umumiy nazariya hali ishlab chiqilmagan. Buning bosh sababi shaxsning tuzilishi, uni shaklla-nish qonuniyatlari, uning kamolotida ob’ektiv va sub’ektiv ta’sir-larning roli, mikro va makromuhitning ta’siri, rivojlanishning tayanch

manbalari bo‘yicha umumiylikning yo‘kligi, aniqmetodologiyaga va ilmiy platformaga asoslanmaganlikdir.

Sobiq sho‘ro psixologiyasida shaxs rivojlanishi nazariyalari sharhlari: Sobiq sho‘ro psixologiyasida shaxsning rivojlanishi muammosi L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananev, L.I.Bojovich singari yirik psixologlarning asarla-rida o‘z aksini topa boshlagan. Keyinchalik ushbu masala bilan shu-g‘ullanuvchilar safi kengayib bordi. Xuddi shu boisdan shaxsning tuzilishi, ilmiy manbai, rivojlanishning o‘ziga xosligi bo‘yicha yondashuvda, muayyan darajada tafovutga ega. Hozirgi davrda shaxs-ning rivojlanishi yuzasidan mulohaza yuritilganda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruhga ajratish va undan so‘ng ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiq. Bizningcha, ontogenezda shaxs taraqqiyotini bir necha bosqichlarga ajratish va ularning har biriga alohida ilmiy psixologik ta’rif berish nuqtai nazaridan yonda-shish quyidagi nazariya va yo‘nalishlarni tashkil qiladi. Jumladan, rivojlanishdagi inqirozga binoan (L.S.Vigotskiy), motivasion yondashish (L.I.Bojovich), faoliyatga ko‘ra munosabat (D.B.Elkonin), shaxsning ijtimoiylashuvi xususiyatiga e’tiboran (A.V.Petrovskiy), shaxsni tutgan pozisiyasini hisobga olib (D.I.Feldshteyn) va hokazo.

L.S.Vigotskiy jahon psixologlari shaxsningtuzilishi va rivoj-lanishiga oid nazariyalarni tanqidiy tahlil qilib, kamolotni vu-judga keltiruvchi ruhiy yangilanishlardan kelib chiqqan holda jara-yonni quyidagi bosqichlarga ajratadi.

Chaqaloqlik davri inqirozi (krizisi).

Go‘daklik davri - 2 oydan 1 yoshgacha. Bir yasharlik inqiroz.

Ilk bolalik davri — 1 yoshdan 3 yoshgacha. 3 yasharlik inqiroz.

Maktabgacha yoshdagi davr — 3 yoshdan 7 yoshgacha. 7 yasharlik inqiroz.

Maktab yoshi davri — 8 yoshdan 12 yoshgacha. 13 yasharlik inqiroz.

Pubertat (jinsiy yetilish) davri — 14 yoshdan 18 yoshgacha. 17 yasharlik inqiroz.

L.S.Vigotskiy o‘z asarlarida rivojlanishning har bir davrining o‘ziga xos xususiyatlariga chuqur ilmiy ta’rif bera olgan. Tadqiqot-chi shaxsning rivojlanishida eng muhim ruhiy yangilanishlar yuzasi-Dan ham ilmiy, ham amaliy ahamiyat kasb etuvchi mulohazalar bildir-gan. Biroq uning fikrlari ichida o‘ta munozarali, bahsbob o‘rinlar talaygina. Hozirgi zamon psixologiya fanida L.S.Vigotskiyning shaxsningrivojlanishi nazariyasi ilmiy, tarixiy, ijtimoiy ahamiyat kasb etadi, taraqqiyotni keltirib chiqaruvchi inqirozlarning roli to‘g‘risidagi mulohazalari va olg‘a surgan g‘oyalari shu kunning talabi bilan hamohangdir.

Sobiq sho‘ro psixologiyasining yirik namoyandasi, L.S.Vigots-kiyning shogirdi L.I.Bojovich shaxs shakllanishini muayyan davr-larga bo‘lishda motivlarga asoslanadi, shuning uchun bu yondashuvni motivasion deb yuritish mumkin. L.I.Bojovich mulohazasiga bino-an, shaxsning shakllanishi ushbu darajalardan iborat: birinchi bos-qich — chaqaloqlik - tug‘ilgandan to 1 yoshgacha, ikkinchi bosqich — motivasion tasavvur — 1 yoshdan 3 yoshgacha, uchinchi bosqich — «Men»ni anglash davri — 3 yoshdan 7 yoshgacha, to‘rtinchi bosqich — ijtimoiy jonzod ekanligini anglash davri — 7 yoshdan 11 yoshgacha, beshinchi bosqich: a) o‘z-o‘zini anglash davri - 12 yoshdan 14 yoshgacha, b) o‘z o‘rnini belgilab olish (topish) davri - 15 yoshdan 17 yoshgacha.

L.I.Bojovich shaxs shakllanishininghar bir bosqichini psixolo-gik tavsifini berib, ularni keltirib chiqaruvchi omillar, manba-lar, turtkilar, mexanizmlar negizini ochib berishga harakat qilgan. Olima fikrining yo‘nalishi shaxs psixologiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, motivasion yondashuvga bevosita tahlil va sharh bo‘ysundiril-gan.

D.B.Elkoninning shaxs shakllanishi klassifikatsiyasi yetakchi faoliyat nazariyasiga (A.N.Leontev ta’limotiga) asoslanib, har bir taraqqiyot pallasida u yoki bu ko‘rinishdagi faoliyat ustunlik qilish ehtimoliga suyanadi. Insonning shaxs sifatida kamol topishi jara-yonidagi yetakchi faoliyat roli ushbu nazariyaning asosini tashkil qiladi.

D.B.Elkonin shaxs shakllanishini quyidagi bosqichlarga ajra-tadi:

go‘daklik davri — tug‘ilgandan to 1 yoshgacha; asosiy faoliyat — bevosita emotsional muloqot;

ilk bolalik davri — 1 yoshdan to 3 yoshgacha; asosiy faoliyat — predmet bilan manipulyatsiya (nozik harakat) qilish;

maktabgacha davri - 3 yoshdan to 7 yoshgacha; asosiy faoliyat — rolli o‘yinlar, asosiy faoliyat — o‘qish;

kichik o‘smirlik davri - 10 yoshdan to 15 yoshgacha; asosiy faoli-yati — shaxsiy ichki (intim) muloqot;

katta o‘smirlik yoki ilk o‘spirinlik yosh davri — 16 yoshdan to 17 yoshgacha; asosiy faoliyat — o‘qish-kasb tanlash.

D.B.Elkoninning shaxs shakllanishi bosqichlari muayyan ko‘lam-dagi psixologlar tomonidan iliq qarshi olinishiga qaramasdan, ma’lum darajada munozarabob o‘rinlar yo‘qemasligi e’tirof qilindi. Bizningcha, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlari faqat alohida olingan faoliyat doirasi ta’siri bilan chegaralanib qolmasligi,

balki oraliq bosqichlari ham mavjudligi va undan kelib chiqqan holda ruhiy yangilanishlarda ham o‘zgarish bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Shunga

qaramasdan, D.B.Elkoninning mazkur nazariyasi psi-xologiya fanida, ayniqsa, yosh davrlari psixologiyasida eng ommabop-lardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bolalar psixologiyasi fanining yirik namoyandasi A.A.Lyublin-skaya shaxs taraqqiyotini muayyan bosqichlarga ajratishda pedagogik psixologiya pozisiyasidan turgan holda faoliyat nuqtai nazardan unga yondashadi, ma’lum davrlarga ajratadi va ularni atroflicha sharhlab berishga intiladi.

Chaqaloqlik davri - tug‘ilgandan to bir oylikkacha.

Kichik maktabgacha davri - 1 oydan to 1 yoshgacha.

Maktabgacha yoshdan oldingi davr — 1 yoshdan to 3 yoshgacha.

Maktabgacha yosh davri - 3 yoshdan to 7 yoshgacha.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilik davri - 7 yoshdan to 11 (12) yoshgacha.

O‘rta sinf o‘quvchisi davri (o‘smirlik) - 13 yoshdan to 15 yoshgacha.

7. Yuqori sinf o‘quvchisi davri - 15 yoshdan to 18 yoshgacha. Pedagogik psixologiyaning taniqli namoyandasi V.A.Kruteskiy

insonning ontogenetik taraqqiyotini mana bunday bosqichlardan tar-kibtopish ehtimoli mavjudligini asoslab berishga harakat qiladi:

Chaqaloqlik (tug‘ilgandan to 10 kunlikkacha).

Go‘daklik davri (10 kunlikdan to 1 yoshgacha).

Ilk bolalik davri (1 yoshdan to 3 yoshgacha).

Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davr (3 yoshdan to 5 yoshgacha).

Bog‘cha yosh davri (5 yoshdan to 7 yoshgacha).

Kichik maktab yoshi davri (7 yoshdan to 11 yoshgacha).

O‘smirlik yoshi davri (11 yoshdan to 15 yoshgacha).

Negadir mualliflarning aksariyati ontogenezda shaxsning rivoj-lanishini qolgan bosqichlarini hisobga olmaydilar.

Hozirgi zamon psixologiyasining taniqli vakili A.V.Petrovs-kiy inson taraqqiyotiga shaxsni tarkib toptirishning sotsial-psi-xologik nuqtai nazardan yondashib, o‘ziga xos original klassifika-siyasini yaratadi. Ushbu nazariya negizida yuksalish, yetuklikka inti-lish g‘oyasi yotganligi sababli bolalik, o‘smirlik, o‘spirinlik davr-lari yotadi, xolos. A.V.Petrovskiygacha psixologlar taraqqiyotning bir tekis jihatini olib o‘rgangan bo‘lsalar, bundan o‘laroq u shaxs shakllanishining prosotsial (ijtimoiy qoidalarga rioya qilib) va asotsial (aksijtimoiy) bosqichlari mavjud bo‘lishi mumkinligini Dalillab berishga harakat

qiladi. Shuning uchun taraqqiyot uchta makrofazadan iborat ekanligini sharhlab, uning birinchi turi bolalik davriga to‘g‘ri kelib, ijtimoiy muhitga moslashish, ko‘nikish (adap-tatsiya), ikkinchisi — o‘smirlarga xos individuallashish (individua-lizatsiya), uchinchisi — o‘spirinlik, ya’ni yetuklikka intilish davrida individual holatlarni muvofiqlashtirish (birlashtirish) xususi-yatlari bilan tavsiflanadi. A.V.Petrovskiy shaxsning shakllani-shini quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lshpini ta’kidlab o‘tadi:

Ilk bolalik (maktabgacha yoshidan oldingi davr) — tug‘ilgandan to 3 yoshgacha.

Bog‘cha yoshi davri — 3 yoshdan to 7 yoshgacha.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchi davri - 7 yoshdan to 11 yoshgacha.

O‘rta sinf o‘quvchisi (o‘smirlik) davri - 11 yoshdan to 15 yoshgacha.

Yuqori sinf o‘quvchisi (ilk o‘spirinlik) davri - 15 yoshdan to 17 yoshgacha.

A.V.Petrovskiyningklassifikatsiyasi qanchaliktakomil darajada bo‘lmasin, taraqqiyotning oraliq bosqichlari, ularning o‘ziga xos xu-susiyatlari mavjudligini e’tirof etishga moyildir. Chunki ijti-moiy qoidalarga binoan o‘sishmi yoki aksilijtimoiymi, unga qara-masdan, har ikki yo‘nalishning ham oraliq jabhalari bo‘lishi ehti-moldan xoli emas, lekin bu g‘oyani chuqurroq sharxlab berish joiz.

D.I.Feldshteyn klassifikatsiyasi ham shaxsga ijtimoiy yonda-shuvga asoslangan bo‘lsa ham, lekin u A.V.Petrovskiynikidan keskin farq qiladi. D.I.Feldshteynning fikricha, insonni shaxs sifati-da shakllanish jarayonida ikkita katta taraqqiyot bosqichini bosib o‘tadi, ulardan biri — «Men jamiyat ichida» degan pozisiyadan iborat bo‘lib, u o‘ziga quyidagi yosh bosqichlarini qamrab oladi:

ilk bolalik — 1 yoshdan 3 yoshgacha,

kichik maktab yoshidagi o‘quvchisi davri — 6 yoshdan to 9 yoshgacha,

yuqori sinf o‘quvchisi davri — 15 yoshdan to 17 yoshgacha.

Shaxs taraqqiyotidagi ikkinchi pozisiya «Men va jamiyat» deb nom-lanib, u quyidagi yosh bosqichlariga taalluqlidir:

go‘daklik - tug‘ilgandan to 1 yoshgacha;

maktabgacha yoshdagi bolalar - 3 yoshdan 6 yoshgacha;

o‘smirlar - 10 yoshdan to 15 yoshgacha.

D.I.Feldshteyn boshqa tadqiqotchilardan farqli o‘laroq, o‘smir-lik davrini uch bosqichga ajratadi. Uning mulohazasiga ko‘ra, birin-chi bosqich (10—11 yosh)

o‘ziga munosabatni kashf qilishdan iborat bo‘lib, o‘zini shaxs sifatida his qilish va qat’iy qarorga kelish bilan yakunlanadi. Ikkinchi bosqich 12-13 yoshdagi o‘smirlarni o‘z ichiga olib, bir tomondan, o‘zini shaxs sifatida tan olish, ikkinchi to mondan, o‘ziga salbiy munosabatda bo‘lish xususiyatiga ega. Uchinchi bosqich 14—15 yoshli katta yoshdagi katta o‘smirlardan iborat bo‘lib, tezkorlikda o‘z-o‘zini baholashga moyil munosabati bilan tavsiflanadi.

Bolalarda «Men jamiyat ichida» pozisiyasi ilk bolalik, kichik maktab yoshidagi, yuqori sinf o‘quvchilik davrlarida faollik keng ko‘lamda quloch yoyadi, chunki mazkur taraqqiyot bosqichida faoliyatning amaliy predmetli jihatlari jadal o‘sishda bo‘ladi. Ularda «Men va jamiyat» poziiiyasi vujudga kelishi maktabgacha tarbiya yoshi, o‘smirlik davrlariga to‘g‘ri kelib, ular tomonidan ijtimoiy xatti-harakatlarning normalari va qoidalarini o‘zlashtirish, shaxslararo munosabat o‘rnatish, o‘zaro muloqotga kirishish xususiyati bilan tavsiflanadi. Ana shu murakkab sotsial-psixologik holatlarga asoslangan holda D.I.Feldshteyn bolaning ijtimoiy taraqqiyotida uning jamiyatga nisbatan munosabatining asosiy (bosh) va oraliqtoifalarga ajratadi. Bolada jamiyatga nisbatan oraliq munosabatning shakllanishi ijtimoiylashuv, individuallashuvning tarkibiy qismlarini egallash va bir davrdan ikkinchisiga o‘tishi natijasida yuzaga keladi. Asosiy (bosh) munosabat — shaxsning rivojlanishida keskin siljish nuqtalarining paydo bo‘lishi, ichki sifat o‘zgarishlarining vujudga kelishi va unda yangi xislatlarni tarkib topishining mahsulidir.

Shuni alohidata’kidlabo‘tish kerakki, D.I.Feldshteynning shaxs rivojlanishi nazariyasi ontogenezda yuz beradigan barcha psixologik holat va fazilatni izohlab berish imkoniyatiga ega emas. Lekin u ta’lim-garbiya sifatini oshirishga va takomillashtirish jarayoni (faoliyati)ga ijobiy ta’sir o‘tkazish xususiyati bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, hamdo‘stlik mamlakatlari psixologlari tomoni-dan bir qator puxta ilmiy-metodologik negizga ega bo‘lgan shaxsning rivojlanishi nazariyalari ishlab chiqilgan. Ularning aksariyati ontogenezda shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini ochishga muayyan hissa bo‘lib xizmat qiladi, amaliy va nazariy muammolarni yechishda keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Ammo ontogenezda shaxsning shakllani-shi va rivojlanishi xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariya yaratish mavrudi yetib keldi.

Sobiq sho‘ro psixologiyasida shaxs ta’rifi: Umumiy psixologiya fanida shaxsning shakllanishi va rivojla-nishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etiladi.

Bu borada psixologlar tomonidan shaxsga nisbatan turlicha ta’rif berilgan va uning tuzilishini o‘ziga xos tarzda tasavvur qilishgan. Quyida mualliflarning ayrimlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

A.G.Kovalevning fikricha, shaxs — bu ijtimoiy munosabatlar-ning ham ob’ekti, ham sub’ektidir. A.N.Leontev ushbu masalaga bosh-qacharoq yondashib, unga shunday ta’rif beradi: shaxs — bu faoliyat sub’ektidir. K.K.Platonovning talqiniga binoan: jamiyatda o‘z ro-lini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a’zosi shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroqochishgaharakat qilgan S.L.Rubinshteyn ta’rificha, shaxs — bu tashqi ta’sirlar yo‘nalishini o‘zgartiruvchi ichki shart-sharoitlar majmuasidir.

Psixologiya fanida bir-biriga yaqin, lekin ayniyat bo‘lmagan tu-shunchalar qo‘llanilib kelinadi, chunonchi: odam, shaxs, individual-lik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab berish uchun har birining psixologik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Odam: sut emizuvchilar sinfiga daxldorlik, biologik jonzod ekanligi odamning o‘ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo‘llar-ning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miya-ga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o‘ziga xos to-monlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzod sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobili-yatidan tashqari o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o‘zgartirish imkoniyatiga ham egadir.

Shaxs. Mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi, til yordami bilan, boshqa kishilar bilan muloqot (muomala)ga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

Individuallik. Har qaysi inson betakror o‘ziga xos xususiyat-larga ega. Shaxsning o‘ziga xos qirralarining mujassamlashuvi in-dividuallikni vujudga keltiradi. Individual shaxsning intellek-tual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo‘ladi.

Sobiq sovet psixologiyasida eng ko‘p tarqalgan shaxsning tuzili-shiga oid materiallar bilan qisqacha tanishib o‘tamiz. S.L.Rubinshteyn bo‘yicha shaxs quyidagi tuzilishga ega:

Yo‘nalganlik — ehgiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e’tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.

Bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar — hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.

Individual tipologik xususiyatlar - temperament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi.

K.K.Platonov ta’limotiga ko‘ra, shaxs tuzilishi quyidagi shaklga

ega:

I. Yo‘nalganlik osttuzilishi — shaxsning axloqiy qiyofasi va mu-

nosabatlarini birlashtiradi. Undan harakatchanlik, barqarorlik, ja-dallik, ko‘lam (hajm) darajalarini farklash lozim.

II. Ijtimoiy tajriba osttuzilishi — ta’lim vositasida, shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko‘nikmalar va odatlarni qamrab oladi.

Psixologik aks ettirish shakllari osttuzilishi — ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

Biologik shartlangan osttuzilish — miya morfologik va fizi-ologik xususiyatlariga muayyan darajada bogliqbo‘lgan patologik o‘zga-rishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik xosiyatlarini birlashtiradi.

A.G.Kovalev talqiniga binoan, shaxs mana bunday tuzilishga ega:

1. Yo‘nalganlik — voqelikka nisbatan inson munosabatini aniq-laydi, unga o‘zaro ta’sir etuvchi har xil xususiyatli g‘oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi.

Ustuvor yo‘nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgi-laydi.

Imkoniyatlar — faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta’minlovchi tizim. O‘zaro ta’sir etuvchi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tur-licha qobiliyatlar.

Xarakter. Ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo‘ladi. Xarakter tizimidan irodaviy va ma’naviy sifatlar ajra-tiladi.

Mashqlar tizimi. Hayot va faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korreksiyalash), o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zini o‘zi bosh-qarishni ta’minlaydi.

Shaxsning psixologik tuzilishi modellari tahlili: Psixologiya fanida sistemali yondashuvga oid tadqiqotlarning ko‘rsatishiga qaraganda, har qaysi tizimning tavsifi sifatida uning tuzilishi qabul qilinadi. Odatda, ya’ni struktura — bu ob’ektning bir qator tarkiblari o‘rtasidagi uning yaxlitligi, o‘ziga o‘zining ay-niyatlashuvini ta’minlovchi barqaror ichki aloqalar majmuasidir.

Biz shaxs strukturasi, ya’ni tuzilishi muammosini bayon, talqin qilishda tayanch va jabha, komponent tushuncha tariqasida yaxlit tuzi lishning nisbiy mustaqil qismidan, taxlilning birligi sifatida element tushunchasidan (atamasidan), har qanday kontekstlardan yax-litlik xususiyatini aks ettirmasa ham ulardan foydalanamiz. Bun-day tafovut (farq) shaxs xususiyatlarini yaxlit holda mukammal ochish uchun tarkibiy tizimli va elementli-tizimli darajalarini namoyon etish uchun mutlaqo zarur.

Shaxsning tuzilishi to‘g‘risidagi muammo o‘zining dolzarbligi bilan fanningtadqiqot doirasidan, predmetidan tashqari chiqadi. Shaxs tuzilishiga oid

ilmiy tasavvurlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi yaxlit nazariyaning zaruriy sharti hisoblanib, insonning ijtimoiy mohiyati qirralarini ochish imkoniyatiga egadir. Xuddi shu boisdan psixologiyaga falsafa, pedagogika, tibbiyot singari fanlarning na-moyandalari tomonidan uni muhokama qilish namoyon bo‘layotganligi tufayli unga qiziqishning yuksakligidan dalolat bermoqda.

Psixologiya fani shaxs strukturasining modelini yaratishga bosh-qa fanlardan izchilroq kirishadi, uning tabiatini aks ettirish imkoniyatiga erishadi, natijada u psixologiya muammolari majmua-sida markaziy o‘rin egalladi. Psixologiya olimlari tomonidan tad-qiqot qilinayotgan dolzarb muammolar bilan shaxs tuzilishiga oid masala u yoki bu jabhasi orqali uzviy bog‘liqlikka ega. Bu kontekst-da xulq motivatsiyasi, shaxsningtipologiyasini ishlab chiqish, shaxs-ga ta’sir o‘tkazishning samarali yo‘l-yo‘riqlarini qidirishni esla-tib o‘tishning o‘zi kifoya.

Psixologiya fanida shaxsga strukturaviy yondashish bo‘yicha engsal-mokli ilmiy izlanishlar amalga oshirilganligi qonuniy holat bo‘lib, xilma-xil shaxs strukturasining modeli yaratilganligi fikrimiz-ning yorqin dalilidir. Bu borada B.G.Ananevning fikricha, psixo-logik hodisalarni akl (intellekt), hissiyot (emotsiya) va irodaga aj-ratilishi inson psixologiyasida strukturaviy yondashish tajribasi-ning dastlabki ko‘rinishi bo‘lib, uning haqchilligi ko‘pgina psixo-loglar tomonidan tan olinishidir. B.G.Ananev strukturaviy yonda-shishning boshqa variantlari tariqasida turlicha psixik hodisalar bilan qarama-qarshi aloqalarning e’tirof etilishi — psixik akt-larning psixik funksiyalar, ongning ongsizlik, tendensiyalarning potensiyalar bilan uyg‘unligini ta’kidlaydi. L.S.Vigotskiyning mulohazasiga ko‘ra, insonning psixik funksiyalarini yuksak, mada-niy, quyi, tabiiy turlarga ajratishni kiritish mumkin, chunki ularning negizida ta’lim bilan insonning oliy nerv faoliyatida bi-rinchi va ikkinchi signallar sistemasi o‘zaro ta’sirining ifodala-nishi yotadi.

Hozirgi davrda psixologiya fanida psixologik hodisalarni psi-xik jarayonlarga, holatlarga, shaxsning xususiyatlariga ajratish qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvning mavjudli-gi B.G.Ananev tomonidan strukturaviy konsepsiyaning bir tajri-basi sifatida qaraladi. Bu voqelik «hodisalarni bir qator jabha-lari bilan to‘ldirishga intilish psixofiziologik xususiyat kasb etib, psixik jarayonlar uchun dastlabki materiallarni to‘plash imkoniya-tini (idrok, tafakkur, emotsiya, iroda) beradi». Uning fikricha, dastlabki materiallar, bir tomondan, psixik funksiyalar (sensor, mnemik), xulqning, ikkinchi tomondan, elementar motivlari (ehti-yoj, ustanovka) hisoblanadi. Olimning mulohazasicha, bu qo‘shimcha-lar «genetik ma’no kasb etib, fiziologiyadan miya mexanizmlarini umumpsixologik va neyrogumoral regulyatorlarini qamrab olish psi-xologiyaga o‘tishga imkon beradi». Lekin ushbu strukturaviy yonda-shuvning maxsus psixologik deb qarashdan qat’i nazar, hozirgi za-mon sintetik insonshunosligi uchun umumiy ahamiyatli jihatni yuk-saklikka ko‘tarishga qodir emas.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan psixik hodisalarning turli ko‘ri-nishlarini fenomenlarga ajratishning qonuniyligi bo‘yicha bahs yuritmasdan turib, jumladan jarayonlarga, holatlarga, xususiyatlarga bo‘linishdan ko‘z yumib, ushbu kategoriyalar, ularning turlicha talqi-ni shaxs strukturasining tarkibiy qismlariga tenglashtirish mum-kin emasligini qayd etish zarur. Chunki ular sof psixologik asnoda vaqt va fazo o‘lchami bo‘yicha aniqlikka ega emasdirlar. Shuning uchun B.G.Ananev tomonidan kiritilgan ilmiy qo‘shimchalar umumpsixo-logik vaziyatni keskin o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lmasa-da, uning ayrim tomonlarini to‘ldirishga ega.

Shaxs tuzilishining modelini ishlab chiqishdagi muhim qiyin-chiliklarning eng asosiy sababi har xil nuqtai nazarlar mavjud-ligida yorqin namoyon bo‘ladi, ular «shaxsningtuzilishiga ko‘ra, sub-stansional va ideal, irsiy va egallaganlik, ijtimoiy va psixolo-gik, somatik va psixologik tomonlariga ega» (V.M.Banshikov). Mu-lohazadan ko‘rinib turibdiki, bunda shaxsning «substansional to-moni»ni irsiy, turmushda egallaganlik, somatik jabhalar bilan taqqoslaganda mustaqil strukturaviy tarkib sifatida alohida re-allikka ega emas. Bunday talqin biron-bir psixologik hodisani turlicha nuqtai nazardan izohlash bilan bog‘liqbo‘lib, yakkahol, ya’ni individual voqelik (reallik) ustida gap borayotganligini bildi-radi.

Psixologiya fanida qo‘llanilib kelinayotgan va nisbatan barqarorlashgan shaxsni yo‘nalganlikka, temperamentga, xarakter va qobi-liyatlarga bo‘lish yetarli darajada keskin e’tirozlarga sabab bo‘layot-gani yo‘q. Shuninguchun ko‘pgina psixologlar umumiy tizimning maj-muasini tashkil qiluvchi murakkab xususiyatlarning tuzilishi sifa-tida qaraydilar va shaxsning yaxlit tavsifini ifodalaydi, deb tu-shunadilar. A.G.Kovalevning fikricha, temperament tabiiy (irsiy) xususiyatlarning tizimini bildirib keladi, yo‘nalganlik — ehtiyoj, qiziqish, ideallar tizimi, qobiliyatlar — intellektual, irodaviy va emotsional xislatlar ansambli, xarakter — xulq-atvor usullari-ning va munosabatlarining sintezidir.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, shaxsning murakkab tuzi-lishga ega bo‘lgan ko‘p qirrali xususiyatlari, fazilatlari, xislatla-ri o‘zaro bir-birlarining ichiga singib ketganligi natijasida ta-biiy, emotsional ehtiyojlar, munosabatlar, xulq-atvor usullari to‘g‘ri-sidagi mulohazalar umumlashmalar umumlashmasidir. Chunki qiziqish-lar va ideallarni intellektual, emotsional, irodaviy xususiyatla-risiz tasavvur qilish mumkin bo‘lmaganiday, munosabatlar va xulq-atvor usullari ham alohida hukm surishi g‘ayritabiiy holatdir.

B.D.Pariginning fikricha, shaxsning statik tuzilishga quyida-gilar kiradi:

umuminsoniy psixologik xususiyatlar;

milliy, kasbiy, iqtisodiy, siyosiy, sinfiy birlikka aloqa-dor ijtimoiy o‘ziga xos xususiyatlar;

shaxsning individual betakror xususiyatlari. Bizningcha, olim tomonidan ta’kidlab o‘tilgan xususiyatlarning har qaysisi shaxs psi-xikasida mavjud bo‘lib, ular alohida xislatlar guruhi ko‘rinishiga ega emasdirlar.

Yuqorida tahlil qilingan modellarning hech qaysisi sistemali yondashuv doirasidagi hozirgi zamon shaxs strukturasi to‘g‘risidagi modelga mos kelmas edi. Ushbu modellarning tarkib (jabha)larida nisbiy mustaqil birlik xususiyati aks topmaganligi tufayli bir vaziyatda ular o‘zaro tobe elementlarga, ikkinchi hodisalarda esa tak-roriy xislatlar ko‘rinishiga o‘xshab ketadi. Shuningdek, shaxs tuzi-lishi umuman muayyan nazariy yoki amaliy ahamiyatga egatomon (jab-ha)lari bilan ajralibturmaydi. Shuninguchun ta’kidlangan hech bir model psixologik mohiyatini o‘zida aks ettiruvchi, jamiyat a’zosi sifatidagi insonning tipiklik va individuallik qiyofalarini tahlil qilishni ta’minlay olmaydi.

Uzoqchet el psixologlarining shaxs tuzilishining mohiyatini ochib berishga qaratilgan ko‘pgina yondashuvlari ham yuksak ko‘rsatkichlarga erishmaganligi tufayli bu masalani yoritish uchun keskin o‘zgarish kiritilmadi. G.Ollport, G.Myurrey, R.Linton, K.Rodjers, A.Mas-lou va boshqa olimlarning yaqqol shaxsning psixologik mohiyatini tushunchalar tizimi yordami bilan xaspo‘shlashi ijobiy izlanish tar-zida o‘ziga tortadi, lekin unda shaxs «kundalik turmushimizda biz bilgan shaxsning aynan timsolidir», deb ta’riflanadi.

Mazkur ijobiy ezgu niyatlarni amaliyotda qaror toptirishga shaxs-ningtizimi tashkiliy tomonini baholay olmaslik va ichki omillar rolini bir tomonlama orttirish holati to‘sqinlik qiladi. Jumla-dan, R.Linton shaxs tuzilishini «individuumga aloqador psixik holatlar va hodisalar tashkiliy agregati», deb talqin qilishni tak-lif qiladi, buning natijasida ularning shunchaki yig‘indisi yuzaga keladi, xolos.

Tanikli AQSh psixologi G.Ollportning fikricha, shaxs «ichki tizim», «dinamik qurilma», «Men», «qandaydir metapsixologik Men» o‘zida oldindan maqsad va dispozisiyani aks ettiruvchi, inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qarortoptiruvchi jon-zotdir». Xuddi shu boisdan shaxsningsinfiy-tarixiy jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o‘rnini psixologik talqin egallaydi chamamda.

Psixologlardan T.Parsons, G.Mid va boshqalar «shaxsning rolli tuzilishi» nomli konsepsiyani ishlab chiqib, odamningyaxlit sub’ek-tiv dunyosini, uning psixologik qiyofasini diqqat markazidan, id-rok maydonidan chetda qoldiradilar.

Shunga qaramasdan, sobiq sho‘ro faylasuflari va psixologlari shaxsning strukturasiga biryokdama yondashishga barham berishga in-tildilar, uningjamiyatda bajaradigan rolini adolatli baholab, ij-timoiy, ijtimoiy-psixologik, psixologiktizimlarda rolningturli kontekstda maqsadga muvofiq bajarilishini ko‘rsatib o‘tdilar. Bu kontekstdagi asosiy yoki bosh muammo rollarni internalizatsiyalash-ningyaqqol psixologik mexanizmlari, ular bilan bog‘liqbo‘lgan nor-malari, rollar o‘rtasidagi psixologik farqlar, shaxs tuzilishida mustahkam joy

olgan, unga nisbatan tashqi omillar; qo‘zg‘atuvchilar tarzida saqlanuvchilar hisoblanadi.

Chet el psixologiyasida olimlar diqqatini keyingi yillarda shaxs modelining psixologik omillari tortmoqda, ularning asosiy vari-antlari G.Ayzenk, R.Kettell konsepsiyalari bilan bevosita bog‘liq-Dir. Mazkur konsepsiyalar ko‘p yoki oz miqdordagi «omillar» (Ay-zenkda ular 2—3 ta, Kettellda esa 20 tadan ziyod)ga asoslangan bo‘lib, Ular muayyan darajada umumlashgan individuallikning yoki shaxsqiyofasini ifodalovchi, psixologik xususiyatlarni aks ettiruvchi ruhiy tizimni qayd qilishga suyanadi. Ammo tub ma’nodagi shaxs-ning psixologik konsepsiyasi ham individuallik qiyofalarini haqiqiy ijtimoiy-psixologik mohiyatini ochish imkoniyatiga ega emas, chunki xususiyatlarning qonuniy ravishdagi o‘zaro aloqalari tavsif qilinmay qolingan.

Ta’kidlangan paradoks sistemasi yondashuv pozisiyasi orqali izoh-lanishi mumkin, lekin yaxlit tizimning tavsifisiz ayrim kompo-nentlarning mazmundor tasnifini amalga oshirish imkoniyati yo‘q. Darhaqiqat shuning uchun «insonning ijtimoiy-psixologik xususi-yatlari yoki alohida psixologik tizimdan kelib chiqqan holda maj-mua» deb atashga suyanib ish yuritish orqali hech qanday «shaxs tuzili-shi»ni yaratib bo‘lmaydi.

Shaxsning dinamik tuzilishidagi modellari sobiq sovet psixo-loglari taxmin qilgan qiyinchiliklarningoldini olish mazmunida ifodalangan.

B.D.Pariginning qat’iy asoslanib aytishiga ko‘ra, shaxsning di-namik strukturasining yetakchi (farklanuvchi) alomati yaqqol vaqt oralig‘iga bog‘likligi, shaxs faoliyati yoki psixikaning muayyan hola-tiga aloqadorligidir. Shaxsning dinamik strukturasining ikki asosiy jabhagataalluqligiga, ya’ni psixik holatlarga va xulqqa ishora qilgan B.D.Pariginning mulohazasicha, shaxsning kayfiyati yoki psi-xologik jihatdan o‘zining tayyorgarlik xislati yuksak ahamiyatli yangilanishdir.

Olimningtalqiniga ko‘ra, psixologiktayyorgarlik — bu integral strukturaviy tuzilmadan iborat bo‘lib, muayyan vaqt oralig‘ida inson psixikasining jismli yo‘nalganlik darajasi va tonalligini tavsiflaydi. Psixologik tayyorgarlik o‘zining tuzilishi bo‘yicha uch xil jabhani qamrab oladi (konstantli, dolzarbli, vaziyatli) va fa-oliyatda muhim funksiyalarni bajaradi: a) muayyan vaqt birligida individ tomonidan qayta ishlanuvchi va idrok qilinuvchi barcha jo-riy axborotlarning akkumulyatori; b) inson faolligining toniza-tori va regulyatori; v) faoliyat va axborotni qabul qilish ustanovka-si; g) shaxsning qadriyatga yo‘nalganlik omili hisoblanadi. Inson hayoti va faoliyatining u yoki bu lahzalarida psixikasining (kompo-nentlari) tarkibiy qismlari bilan sodir bo‘lishlikning psixik tayyorgarligi sintetik ravishda birlashgandir. Bu muammo parigin-chasicha, psixik tayyorgarlik psixik holatlarning dominantligi de-gan tushunchaga yaqinlashib qoladi. Vaholanki, shaxsning dinamik va statik tuzilishi munosabatini hisobga olmaydi, psixologik tayyor garlikning miqdoriy tavsifi yo‘llarini ko‘rsatib o‘tmaydi, nati-jada uning ko‘lami cheksizga aylanib qoladi.

K.K.Platonov tomonidan ilgari surilgan shaxsning dinamik funksional tuzilishi (strukturasi) katta qiziqish uyg‘otadi. Olim shaxs xususiyatlarining barcha boyligini qamrab oluvchi, ko‘p bosqich-li modelini yaratishga intiladi. Shaxs tuzilishining elementlari bo‘lib, uning xossalari, xususiyatlari, qiyofasi hisoblanadi. K.K.Pla-tonov shaxs tuzilishining turli tomonlari bilan o‘zaro aloqador to‘rt tuzilishga ajratadi:

1) shaxsning axloqiy qiyofasi munosabati va yo‘nalganlik bir-lashtiruvchi ijtimoiy shartlangan osttuzilish.

Bu osttuzilishga aloqador shaxsning xislatlari tabiiy mayllar-ga bevosita bog‘liqligi yo‘q va tarbiyaviy yo‘l bilan shakllantirila-

di;

tajribaning osttuzilishi; unga ta’limiy yo‘l bilan egallan-gan bilimlar, malakalar, ko‘nikmalar, odatlar kiradi, ammo bu nar-sa shaxs qiyofasining biologik shartlangan ta’siri ostida kechadi (K.K.Platonov).

shaxsning individual xususiyatlari bilan shartlangan ba’zi psixik jarayonlar (xotira tipi, emotsional harakat barqarorligi ko‘rsatkichi, mashqpanish yo‘li) bilan shakllantiriladi. Biologik shartlangan xususiyatlarning ta’siri yanada aniqroq ko‘zga tashlana-di;

4) biologik shartlangan osttuzilish biopsixik xusussyatlarni, fazilatlar, temperament...(shaxsning tipologik xususiyatlarini), jinsiy va yosh xususiyatlar, shuningdek, insonning patologik o‘zgari-shini birlashtiradi. Bu osttuzilish mashklantirish orqali shakl-lantiriladi, miyaning morfologik va fiziologik xususiyatlariga bog‘liq. K.K.Platonovning fikricha, bu osttuzilishga shaxs qiyofasi (xususiyatlari)ning asosiy jabhalarini kiritish mumkin.

Qisqacha tahlil qilingan K.K.Platonovning shaxstuzilishiga oid konsepsiyasi (nazariyasi) keng ko‘lamdagi ta’lim va tarbiya amaliyoti bilan jips aloqasi tufayli o‘ziga tortadi. Ammo muallif bu borada shaxs va inson to‘g‘risidagi mulohaza yuritganda uning real xususiyat-lari va holatlarini yaqqol ochib bermaydi. Ma’lumki, hozirgi za-monda bir-biridan sezilarli, deyarli farqlanuvchi talqinlar hukm surmoqda, kezi kelganda bahs predmetini sun’iy ravishda o‘zgarish Hollari uchrab turadi. Uning asarlarini o‘rganish jarayonida, shaxs tuzilishi to‘g‘risidagi mulohazalarda, shaxsning bu muammosi funk-Sional psixologik — pedagogik jabha ekanligi oydinlashib boradi, trenirovka, mashqlanish, ta’lim olish yo‘li bilan unda u yoki bu xis-latlar shakllantiriladi.

K.K.Platonov «shaxsning tomonlari va uning osttuzilishi» tu-shunchalarini sinonim sifatida qo‘llanilganligini ta’kidlab, uni quyidagicha izoxdab beradi: «Shaxsning moddiy jabhalari to‘g‘risida emas, balki funksional tomonlarining o‘zaro ta’siri to‘g‘risida gap boradi». Bundan ko‘rinib turibdiki, shaxsning

komponentlari, uning xususiyatlari, tuzilishi nimani bildiradi, degan muammoga javob topib bo‘lmaydi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan hodisalarni (vaqtni fazoviy) baho-lash ontologik asnoda o‘z yechimini topa olmaydi. Chunki struktura yaxlit tuzilma bo‘lganligi tufayli u hech qachon jabha, tomon va ji-hatlarning shunchaki majmuasidan iborat bo‘lmasligi ravshan. Bino-barin, osttuzilish tushunchasini talqin qilishda umumiy qabul qilin-gan qoidaga ko‘ra nisbiy jihatdan mustaqil tarkiblardan tuzilga-nidan qat’i nazar, u bundan kengroqyaxlitlikning qismi bo‘lib hisob-lanadi. Ana shu fikrdan kelib chiqqan holda quyidagilarni ko‘z o‘ngiga keltirish muvofiq: birinchidan, shaxsning ijtimoiy sifatlari o‘z xolicha hukm surmaydi, balki yaqqol nerv sistemasida qayd qilina-di, ya’ni tabiiy-biologik mexanizmlar yerdami bilan amalga oshadi. Ikkinchidan, biologik shartlangan shaxs sifatlarining aksariyati filo va ontogenezda bevosita ijtimoiy shart-sharoitlarning ta’-siri ostida shakllanadi. Shuning uchun biologik shartlanganlikning ijtimoiylikdan ajratishni o‘zi o‘ta murakkab bo‘lib, amaliy jihat-dan genotip bilan fenotip o‘rtasida demarkasion (fransuzcha sktagsagyup — qat’iy chegara) chiziq o‘tkazish mumkin emas. Uchinchi-dan, na biologik, na ijtimoiy shartlangan sifatlar, fazilatlar, xislatlar inson tomonidan egallanayotgan tajribadan tashqarida na-moyon bo‘lishi kuzatilmaydi. Shuningdek, insonningo‘zlashtiradigan bilimlari, malakalari, ko‘nikmalari, odatlarining o‘ziga xosligi uning shaxsidagi nuqsonlar kompensatsiyasi ko‘pincha axloqiy yo‘nal-ganlik va mayllarga bog‘liq. To‘rtinchidan, alohida olingan bilim jarayonlarining tipologik xususiyatlari bilan shartlangan shaxs fazilatlarini o‘zaro bir-biridan ajratib tahlil qilish ham g‘ayri-tabiiy holatdir. Yuqoridagi mulohazalarning barchasi shaxsda namo-yon bo‘ladigan xislatlarida o‘z ta’sirini, izini qoldiradi.

Xuddi shu boisdan K.K.Platonov tomonidan tavsiya qilingan ost-tuzilishning tabiiy yaqqol shaxs tuzilmasi majmuasi sifatida qabul qilish o‘ta bahslidir. K.K.Platonov bo‘yicha shaxsning to‘rt «osttuzi-lish» jabhalari hisoblanadi, chunki turli kontekstdagi ularning har qaysisiga shaxs fazilati tariqasida qarash va shunda uning in-tegral tizimini baholash mumkin.

V.S.Merlin ham shaxsning tuzilishi masalasiga alohida ahamiyat bergan olimlardan biri sanaladi. Uningcha, shaxsning qismlariga ajratib talqin qilinmaydigan jabha (komponent) — bu uning xis-latlaridir. Ularninghar biri muayyan yo‘nalganlik mohiyatini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, shaxs munosabatini aks ettiradi. Shunga binoan shaxsningtuzilishi deganda V.S.Merlin insonningo‘z-o‘ziga, o‘zgalarga, mehnatga u yoki bu munosabatini o‘zida birlashtiruvchi shaxs xususiyatlariningtashkiliy va o‘zaro aloqadorligini anglatuvchi o‘ziga xos «simptomokompleks»ni tushunadi.

Olimning muammoga bunday yondashuvi go‘yoki juda o‘rinli, to‘la ashyoviy daliliy tasavvurni vujudga keltiradi. Shaxs tuzilishi mu-ammosini uzil-kesil hal qilinishi, yechimini topish uchun ayrim shartlarga rioya etilishi lozim. Birinchidan,

«shaxsning munosaba-ti» tushunchasi mohiyatini yaqqol ochish, ikkinchidan, shaxsning xusu-siyatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarni detallashtirgan holda ishlab chiqish darkor. V.S.Merlinning faktlar konstatatsiyasiga binoan «simptomokompleks» shaxs tuzilishining bayoniy va statik tavsifi-ni bildiradi, xolos», holbuki shunday ekan «mazkur ijtimoiy sha-roitlarda shaxs tuzilishining rivojlanishi va yuzaga kelishi qonu-niyatlari» o‘rnatilishi joiz.

Ko‘pgina psixologlarning qarashlarida shaxsning ijtimoiy-psi-xologik tavsifi qiyofasining tuzilishida yetakchi rol o‘ynashi va qayd etishi ta’kidlanadi. Shu jumladan, tadqiqotchi N.I.Reynvald-ning fikricha, shaxsning tuzilishi va uning har bir qiyofasi (xisla-ti) uch mezon asosida taxdil qilinishi joiz:

orientirovkaning darajasi va anglanganlik xususiyatiga;

u yoki bu ehtiyojiy holatlarni harakatlantirishning xususiyati hamda tashkiliyligi;

paydo bo‘lishning jadalligi, jiddiyligi va zo‘riqishga, ya’ni insonning emotsional irodaviy, bilishga oid sifatlari nuqtai na-zariga va boshqalar.

N.I.Reynvaldning izohlashicha, faoliyatning regulyatsiyasida psi-xik funksiyalarni umumlashgan guruhlashtirish ularning uch o‘lchovli (mezonli) tasnifining akd (intellekt), hissiyot (emotsiya) va iroda mohiyati zimmasiga tushishi shaxs tuzilishini temperament, xarak-ter va qobiliyatlarga, ikkinchi tomondan esa ekstraversiya, intro-versiya omillariga ajratishga barham beradi.

N.I.Reynvaldning ushbu yondashuvi A.R.Luriyaning miya faoliyatining uch blokli roli tasnifiga bevosita mos tushadi, chunonchi, akl (intellekt) ko‘p hollarda informasion blok orqali amalga osha-di, iroda (tashkiliylilik) programmalashtirish bloki bilan, xil-ma-xil emotsional holatlar (hissiyot) yuzaga kelishining negizida «energetik» blok yotadi. Akl, hissiyot, iroda va ularni ro‘yobga chiqa-ruvchi miyaning bloklari, harakatlantiruvchilarni emas, balki o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan insonning atrof-muhitga nisbatan munosaba-tining uch lahzasini anglatadi.

Xullas, qarashlarning rang-barangligi muammo yechimining har xil variantlari, invariantlari, modifikatsiyalari, modullari va mo-dellari bir davrning o‘zida hukm surishini ta’minlaydi hamda sis-temali yondashuv majmuasi yuzaga kelishi uchun puxta negiz, mexanizm va barqaror manba hozirlaydi.

O‘zini o‘t anglash**:** Hozirgi zamon psixologiya fanining metodologik va nazariy mu-ammolari qatorida qo‘llaniladigan asosiy kategoriyalar, tushuncha-lar, ta’riflarga anikliklar kiritishdan, *tezaurus,* kontekst nuq-tai nazaridan ularni talqin qilishdan iboratdir. Ushbu mulohaza-lar mohiyatini o‘zini o‘zi anglash, axloq, ma’naviyat, taraqqiyot, di-namika va shaxsga oid tushunchalar to‘g‘risidagi qarashlar tashkil eta-di. Mazkur tushunchalar o‘zaro ierarxik tuzilmaga ega bo‘lib, biri ikkinchisini taqozo etadi va o‘ziga xos muayyan tizimni vujudga kel-tiradi, majmuaning markazida esa inson (shaxs, sub’ekt, komil inson) turadi.

Shu fikrni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, psixologiya fanida axloqiy o‘zini o‘zi anglash ruhiy jarayon, hodisa, voqelik, xususiyat sifatida alohida o‘rganilmaganligi tufayli uni tahlil qilish o‘zini o‘zi anglash, axloq, milliy xarakter, ma’naviyat, qadriyat kategoriya-lari bilan bevosita bog‘liq ravishda amalga oshiriladi.

Bizningcha, ajratib ko‘rsatilgan kategoriyalar, tushunchalarni o‘ziga xos tarzda yoritish psixologiyani asosiy va ustuvor atamasi sanal-mish shaxsni yaqqol anglash imkoniyatini yaratadi, axloqiy o‘zini o‘zi anglashning ijtimoiy-psixologik voqelik tariqasida aniq namoyon bo‘lishini o‘rganishni kafolatlaydi.

Axloqiy o‘zini o‘zi anglash «o‘zini o‘zi anglash»ning xususiy (alo-hida) ko‘rinishi, jabhasi bo‘lganligi tufayli uning ruhiy tuzili-shi, tabiati, o‘ziga xosligi, tarkib topishi, rivojlanishi va tako-millashuvi, ob’ektiv, sub’ektiv, ichki hamdatashqi shart-sharoitla-ri, eng avvalo, o‘zini o‘zi anglash jarayonining ichki xususiyatlariga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Psixologiya fanida uning nazariy, amaliy va tatbiqiy tomonla-ri muayyan darajada o‘rganilgan, hozir ham izlanishlar davom etti-rilmoqda, chunonchi, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, V.S.Merlin, A.N.Leontev, L.I.Bojovich, A.G.Spirkin, Ye.V.Shoroxova, I.I.Ches-nakova, P.R.Chamata, K.A.Abulxanova-Slavskaya, V.V.Stolin, E.G‘.G‘o-ziev, B.T.G‘affarov va boshqalar.

Hozirgi zamon psixologiya fanida o‘zini o‘zi anglashning tabia-tini tushuntirishda, talqin qilishda ikki xil qarash, yondashish mavjud bo‘lib, ular bir-biridan keskin darajada tafovutlanib tu-" radi. Birinchi yondashishga qaraganda, o‘zini o‘zi anglash - bu o‘z yo‘na-lishini o‘zgartirgan ongning aynan o‘zidir, xuddi shu bois u inson ongining maxsus ko‘rinishi demakdir. Ushbu talqin sobiqsovet psi-xologiyasida keng tarqalgan nazariya bo‘lib L.S.Vigotskiy, A.N.Le-ontev, Ye.V.Shoroxova, I.I.Chesnakova, V.V.Stolin va ularning sho-girdlari tomonidan ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq qilib kelin-moqda.

Bu sohadagi ikkinchi mulohaza S.L.Rubinshteynning ilmiy ishla-rida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, keyingi davrlarda uning shogirdi K.A.Abulxanova-Slavskaya tomonidan o‘tkazilgan izlanishlarda iz-chil ravishda rivojlantirilmoqda. Uning fikriga binoan, ong va o‘zini o‘zi anglash jismoniy real hamda yuridik shaxsga taallukli xususiyatlardan iborat bo‘lib, ular uning hayoti va faoliyatini vosi-ta yoki «qurol» sifatida ta’minlab turuvchi ruhiy jarayondir. Biz-ningcha, ikkinchi yondashish o‘zini o‘zi anglashning tabiati yuzasidan to‘g‘ri (adektiv) ma’lumot berish imkoniyatiga ega, binobarin, meto-dologik nuqtai nazardan uni ilmiy-nazariy va amaliy-tatbiqiy jihatdan tadqiqot qilish yuksak ko‘rsatkichlar berishi mumkin.

Yuqoridagi o‘zini o‘zi anglashning ruhiy tabiati haqidagi ikki xil munosabatning mavjudligi uning paydo bo‘lishi sabablarini, yo‘nalish ob’ektini, tadqiqot predmetini turlicha yoritilishga olib keladi. Birinchi yondashashga ko‘ra,

o‘zini o‘zi anglashni vujudga keli-shining bosh sababi inson bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatning o‘zaro nomutanosibligidir. Inson muayyan jamiyatda, mikro va mize muhitda yashar ekan, u xuddi shu muhitda (makro, mikro, mize) mavjud bo‘lgan qonun-qoidalarga vatartib-intizomga bo‘ysunishga hamda shular asosida, ularning negizida o‘z xulq-atvori, munosabatlarini idora qilishga, boshqarishga majburdir. O‘z xulq-atvorini va munosabatla-rini o‘zi idora qilish jarayoni (uquvi) esa, ularni yuzaga keltiruvchi ehtiyojlarni, xohish istaklarni, motiv va mayllarni, maqsad va qizi-qishlarni (imitatsiya, identifikatsiya, refleksiya bosqichlari kechi-shini) boshqarishdan iboratdir. Bunday ko‘rinishdagi, tuzilishdagi, mazmundagi anglash va uni idora qilish psixologik nuktai nazardan ehtiyojning individual ongdagi ifodasini hamda ular o‘rtasidagi bo‘ladigan munosabatlarni tartibga solishni taqozo etadi. Uning paydo bo‘lishining bosh sababi ham, yo‘nalish ob’ekti ham ongdir, ya’ni u ongning ichki barqarorligi natijasida yuzaga keladi va bar-qarorlikni (ichki muvofiqlikni) shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Shu narsani ta’kidlash o‘rinliki, birinchi yondashishning namo-yandalari talqinida ongning ichki beqarorligini vujudga keltiruv-chi elementlar (tarkiblar, ruhiy tuzilma qismlari) yuzasidan ola-digan ma’lumotlarga qaratadi. Bunday ma’lumotlar inson tomoni-dan o‘zlashtirilgandan keyin bir xil mazmunga ega bo‘lmaganliklari tufayli o‘zaro qarama-qarshilikka uchraydi, ularning o‘zaro mutano-sibligini ta’minlash uchun inson ijtimoiy ongiga murojaat qiladi va shu yo‘l orqali ma’nolar o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etadi. Xuddi shu boisdan ham L.S.Vigotskiyning shaxsiy fikricha, o‘zini o‘zi anglash turli xil ma’nolar o‘rtasida birlikni (umumiylikni) vujudga keltirish jarayoni sifatida va o‘zlashtirilgan ong tariqa-sida namoyon bo‘ladi.

A.N.Leontevtalqiniga qaraganda, individual (yakka shaxsga oid) ongdagi mohiyat bilan mazmun o‘rtasidagi ziddiyat o‘zini o‘zi anglash-ningsababchisidir. A.N.Leontevning shogirdi V.V. Stolinninguqti-rishicha, o‘zini o‘zi anglashning asosida (negizida) «menlik»ning mazmunlari o‘rtasidagi ziddiyat yotadi.

B.G.Ananev izlanishlarida aks etishicha, o‘zini o‘zi anglashning paydo bo‘lishi omili — odamning individual xosiyati, faoliyat sub’ektliligi shaxslilik xususiyatlariningtarkib topishidagi no-tekislik va geteroxronlikdir. Uning mulohazasiga ko‘ra, o‘zini o‘zi anglash ana shu uchala xususiyatni o‘zaro muvofiqlashtiradi va xuddi shu tariqa ongning individualligini ta’minlab turadi.

Shaxsning faolligi: Shaxs o‘zining faoliyati tufayli tevarak-atrofdagi olam bilan faol munosabatda bo‘ladi. Shaxsning faolligi deganda odamning atrofdagi tashqi muhitga ko‘rsatadigan ta’siri tushuniladi. Tashqi muhit bilan faqat odamlar emas, hayvonlar ham o‘zaro munosabatda bo‘ladilar. Lekin hayvonlar tashqi muhitga moslashib yashaydilar, odamlar esa tashqi muhitga moslashibgina qolmasdan, uni o‘zgartirishga ham qodirlar. Shaxsning faolligi uning turli qiziqishlarida, ehtiyojlarida namoyon bo‘ladi. XX asr boshlarida avstriyalik

psixolog Z.Freyd shaxs faolligini quyidagicha tushuntiradi. Odam o‘zining avlodlaridan nasliy yo‘l bilan o‘tgan instinktiv mayllarining namoyon bo‘lishi tufayli faoldir, instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo‘ladi Z.Freyd shaxsning faolligini jinsiy mayllar bilan bog‘laydi. Shaxsning faolligini hozirgi zamon ilmiy psixologiyasi to‘g‘ri hal qilib beradi. Inson shaxsiy faolligining asosiy manbai uning ehtiyojlar, deb tushuntiradi.

Psixologik nuqtai nazardan borliq to‘g‘risida mulohaza yuritilganda, tirik mavjudotlarning (oddiy tuzilishga ega bo‘lganidan tortib, to murakkabigacha) tevarak-atrof bilan hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan turli xususiyatli bog‘lanishlarni ta’minlab turuvchi faoliyati (qaysi darajasi, shakli ekanligidan qat’iy nazar) ularning barchasi uchun umumiy bo‘lgan xususiyat hisoblanadi. Ularning faolligi tufayli murakkab tuzilishli faoliyat yuzaga kelib, (ongning mahsuli sifatida) turli-tuman mohiyatli har xil ko‘rinishdagi ehtiyojlar (ularning toifalarga aloqadorligi kelib chiqishi jihatidan biologik, moddiy, ma’naviy va boshqalar)ni qondirish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu boisdan faollik faoliyatning asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lib, tirik mavjudotlarning o‘z imkoniyati darajasida tashqi olam ta’sirlariga javob qilish uquvchanligining tarkibi sanaladi.

Psixologik manbalarga asoslanib, fikr yuritishimizda ehtiyoj – jonli mavjudotning tobe ekanligini ifoda etuvchi va mazkur shart-sharoitlarga nisbatan faolligini namoyon qiluvchi holat tariqasida ifodalaniladi.

Insonning faolligi boshqa mavjudotlardan ham mohiyat, ham shakl jihatidan tafovutga ega bo‘lib, yuzaga kelgan ehtiyojlarning turli vaziyatlarda qondirilishida o‘z ifodasini topadi. Jumladan, mavjudotlar va hayvonlar o‘zlarining tanasi va uning a’zolari tuzilishiga, instinktlarning turli-tumanligiga binoan, o‘z o‘ljasini tutib olishga nisbatan intilishni vujudga keltiruvchi tabiiy imkoniyati uni oldindan payqash, sezgirlik orqali zudlik bilan faol harakat qiladi. Hayvonlar ehtiyojlarining qondirilish jarayoni qanchalik maqsadga muvofiq ravishda kechgan bo‘lsa, bu esa o‘z navbatida ularning qurshab olgan yashash muhitiga engillik bilan moslashuvini ta’minlaydi. Masalan, asalari xatti-harakatlarining tug‘ma, irsiy dasturida uning gullarga qo‘nib, nektar yig‘ish ehtiyojlari bilan cheklanib qolmasdan, balki bu ehtiyojlarni qondirish ob’ektlari (gullarning navlari, ularning uzoq va yaqinligi, qaysi tomonda joylashganligi, mo‘l-ko‘lligi kabilar va hokozo) aks etadi. Shu boisdan mavjudotlarning ehtiyojlarida ularning faolligi omili sifatida tabiiy alomatlar instinktlar, shartsiz reflekslar va hokazolar bevosita qatnashadi.

Odamning ehtiyoji unga ta’lim va tarbiya berish jarayonida shakllanadi, ya’ni insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba, ko‘nikma, malaka, odat, ma’naviyat, qadriyatlar bilan yaqindan tanishishi ularni o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Tabiat tomonidan vujudga keltirilgan jism, narsa, buyum inson uchun biologik ehtiyojni qondiruvchi o‘lja ma’nosini va ahamiyatini yo‘qotadi. Odam boshqa mavjudotlardan farqli o‘laroq, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrining xususiy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi muayyan buyumni zaruriyat talabiga binoan tubdan qayta o‘zlashtirishga, takomillashtirishga qodir ongli zotdir. Xuddi shu boisdan odamning o‘z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot darajasi bilan o‘lchanadigan faoliyat shakli va turini egallashning faol muayyan maqsadga

yo‘naltirilganligi, ma’lum rejaga asoslangan ijodiy ko‘rinishi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Insondagi tor ma’nodagi ehtiyojlar uning shaxsiy talablarini qondirish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik faoliyatida yuzaga keluvchi jamoaviy ehtiyojlar yakkaxolligiga oid xususiyat kasb etadi. Aytaylik, ma’ruza o‘qishga taklif qilingan mashg‘ulotga o‘qituvchining puxta tayyorgarligi o‘z predmetining o‘ta fidoiysi ekanligi uchun emas, balki jamoa nufuziga dog‘ tushirmaslik ma’suliyati ijtimoiy burch hissiga nisbatan ehtiyoj sezganligi tufayli amalga oshadi. Shaxsiy ehtiyoj guruhiy, jamoaviy munosabatlar uyg‘unlashib ketganligi sababli o‘zaro qorishiq xususiyatiga ega bo‘ladi. Har qanday individual faoliyatga nisbatan ehtiyojning tuzilishi ijtimoiy alomat, umumiylik, hamkorlik xususiyatini kasb etib, faoliyatga yondashuvda yakkaxollik umumiylikni, umumiylik esa alohidalikni uzluksiz ravishda beto‘xtov aks ettirib turadi. Psixologiya fanida ehtiyojlarni tasniflash ularni kelib chiqishi va o‘z predmetining xususiyatiga binoan amalga oshiriladi. Odatda o‘zlarining kelib chiqishiga binoan ehtiyojlar tabiiy va madaniy turga ajraladi.

Tabiiy ehtiyojlarda inson faoliyati faolligi o‘z shaxsiy hayotini himoya qilish, o‘z avlodi hayotini saqlash, uni qo‘llab-quvvatlash uchun zaruriy shart-sharoitlarga yuritilganlik, tobelik aks etadi. Tabiiy ehtiyojlar tarkibiga odamlarning ovqatlanishi, tashnalikni qondirishi, jinsiy moyillik, uxlash, issiq va sovuqdan saqlanish, musaffo havoga intilish tana a’zolariga dam berish kabilar kiradi. Tabiiy ehtiyojlar uzoq vaqt davomida qondirilmasa, uning oqibatida inson halokatga mahkum bo‘ladi, o‘z sulolasi hayoti va faoliyatini xavf ostida qoldiradi.

Inson faoliyatining faolligi insoniyat madaniyati mahsuli bilan bog‘liqligini ifodalab, madaniy ehtiyojlarni yuzaga keltiradi. Madaniy ehtiyojlar to‘g‘risida mulohaza yuritilganda uning ijtimoiy ildizlari kishilik tarixining dastlabki manbalari bilan uzviy bog‘lanib ketishini ta’kidlab o‘tish lozim.

Lekin tabiiy ehtiyojlar madaniy ehtiyojlar bilan o‘zaro uyg‘unlashgan bo‘lib, birinchisi ikkinchisini taqozo etadi. Chunki ular bir-birining negizidan kelib chiqadi. Xuddi shu boisdan madaniy ehtiyojlar ob’ektiga tabiiy ehtiyojlarini qondiruvchi uy-ro‘zg‘or buyumlari, mehnat faoliyati orqali boshqa kishilar bilan bog‘lanish vositalari, madaniy aloqalar o‘rnatish usullari, shaxslararo muomalaga kirishish uslublari, ijtimoiy turmush zaruriyatiga aylangan narsalar, o‘qish va tajriba orttirish yo‘llari kiradi. Odatda jamiyatda ta’lim va tarbiya tizimini egallash, xalq an’analari, marosimlari, bayramlari, odatlari rasm-rusumlari, xulq-atvor ko‘nikmalarini o‘zlashtirish jarayonida rang-barang madaniy ehtiyojlar vujudga keladi, yangicha ma’no kasb eta boshlaydi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, tabiiy ehtiyojlar qondirilmasa, ular insonni halokat yoqasiga etaklaydi, biroq madaniy ehtiyojlarning qondirilmasligi unday oqibatlarga olib kelmaydi, uning kamolotini sekinlashtiradi.

Psixologiya fanida ehtiyojlar o‘z predmetining xususiyatiga ko‘ra moddiy va ma’naviy turlarga ajratiladi, ularni keltirib chiqaruvchi mexanizmlar manbai turlicha ekanligi e’tirof etiladi.

Insonning ovqatlanishi, kiyinishi, uy-joyga ega bo‘lishi, maishiy turmush ashyolariga intilishi, komfort hissini qondirish bilan bog‘liq madaniyat

predmetlariga nisbatan ehtiyoj sezish moddiy ehtiyojlar majmuasini yuzaga keltiradi. Ma’naviy madaniyatni yaratish va o‘zlashtirish shaxsning o‘z fikr mulohazalari va his-tuyg‘ulari bo‘yicha boshqa odamlar bilan muomalaga kirishishi hamda axborot almashtirishi, badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan tanishishi, mahalliy matbuotni o‘qish, kino va teatr ko‘rish, musiqa tinglash kabilarga ehtiyoj sezish, ya’ni ijtimoiy ong mahsuliga tobelik ma’naviy ehtiyojlar tizimini vujudga keltiradi.

Ma’naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib vujudga kelgan ma’naviy ehtiyojlarni qondirish jarayoni moddiy ehtiyojlarning tarkibiga kiruvchi moddiy narsalar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi kitob, yozuv qog‘ozi va boshqalar.

Ehtiyojlarning turlari haqida fikr bildirilganda yana shu narsaga e’tibor berish kerakki, kelib chiqishiga binoan tabiiy turga taalluqli ehtiyoj o‘z predmetiga ko‘ra moddiy guruhga xuddi shu mezonlar bo‘yicha bir davrning o‘zida madaniy ehtiyojning moddiy yoki ma’naviy ehtiyoj turkumiga kiritish mumkin. Shu tariqa ehtiyojning kelib chiqishi va predmeti, xususiyati bo‘yicha ikki mezonga asoslanib, muayyan guruhlarga ajratiladi. Inson ongining tarixiy taraqqiyotiga nisbatan va ehtiyojlarning ob’ektiga bergan munosabatiga binoan har xil tasniflanadi va xuddi shu mezonlarga ko‘ra ular rang-barang turlarga ajratiladi. Ularning izchilligi, barqarorligi, davomiyligi, ko‘lami, ahamiyatliligi, predmetliligi, ijtimoiyligi, individualligi kabi xususiyatlari bilan o‘zaro bir-biridan farqlanadi. Ehtiyojlar faoliyati va xulq-atvor motivlari bilan teng aloqada bo‘ladi.

Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi: Garchand psixologik adabiyotlarda ayniqsa yosh va pedagogik psixologiyaga oid manbalarda motiv va motivatsiya masalasi ko‘p bora ko‘tarilgan bo‘lsa-da, batafsil yoritilmagan. Masalan, ayrim psixologlar maktabgacha yoshda ayrim tarqoq situasion mayllar ma’lum motivlar tizimlariga aylanib borishini qayd etadilar. Biroq bu fikr atroflicha chuqurroq o‘rganilmagan. Shunga muvofiq adabiyotlarda psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida motiv va motivatsiya tushunchasi turlicha talqin qilingan.

Eng keng tarqalgan ta’riflarga ko‘ra, motiv – bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig‘indisidan iboratdir. Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta’rif beriladi:

A.Maslouning fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig‘indisidir.

S.L.Rubinshteynning ta’kidlashicha, motiv bu ehtiyojning his qilinishi va qondirilishi.

S.L. Rubinshteyn. «Motivatsiya – bu psixika orqali amalga oshuvchi determinatsiyadir».

A.N.Leontev – motivni inson faoliyatiga yo‘nalgan aniq ehtiyojlar va uni qo‘zg‘atadigan voqelik deb hisoblaydi.

Motiv –ma’lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq faoliyatga undovchi sabab.

Motivatsiya keng ma’noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko‘p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi.

Motivatsiya – insonni faoliyatga undashning murakkab, ko‘p darajali tizimi bo‘lib, u o‘zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Motivatsiya – murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo‘lib, u o‘zini mayllar, maqsadlar, ideallar ko‘rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi.

Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir.

V.S.Merlin motivlar tizimlarining ayrim jihatlarini ancha batafsil yoritib bergan. U motivlar tizimlarining shakllanish jarayonini quyidagicha tasavvur etadi: «turli motivlar bora-bora o‘zaro bog‘liq va bir-biriga tobe bo‘lib boradi hamda oxir oqibatda motivlarning yaxlit tizimi vujudga keladi». V.S.Merlin fikricha, motivlar tizimining shakllanishi jarayonida nafaqat motivlar barqarorligi, balki motivlarni anglash kabi shartlar bajarilishini talab etiladi. Demak, V.S.Merlin bo‘yicha motivlari tizimlari o‘zaro bog‘liq va bir-biriga tobe shaxs motivlarining bir butun yig‘indisidan iborat. Ammo V.S.Merlin garchi motivlar tizimlarining ayrimlarini haqiqatdan ham muhim jihatlarini ko‘rsatib o‘tgan bo‘lsa ham, motivlar o‘rtasidagi tizimli munosabatlarni motivlar tizimlari va faoliyat ko‘rsatish muammosini tadqiq etmagan.

Chet el psixologlari orasida A.Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi bilan mashhurdir. O‘z nazariyasida A.Maslou ehtiyojlarning quyidagi ierarxik qatorini ajratadi: fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoj, muhabbat va boshqalar bilan bog‘liq bo‘lish ehtiyoji, hurmatga bo‘lgan ehtiyoj, insonning o‘z yashirin imkoniyatlarini to‘laroq namoyon etish va ro‘yobga chiqarish ehtiyoji va boshqalarni kiritadi. A.Maslou fikricha, muayyan ehtiyojning qondirilishi uchun avval ierarxik qatorda undan oldingi ehtiyoj qondirilgan bo‘lishi talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, A.Maslou konsepsiyasida ierarxiyada yuqori o‘rinni egallovchi ehtiyojlar quyi o‘rindagi ehtiyojlarga tobedir. A.Maslou konsepsiyasida motivasion jarayonlar boshqaruvida odam ongining ishtiroki, boshqaruvdagi roli e’tiborsiz qoldirilgan. Olim ehtiyojlar ierarxiyasidagi vertikal munosabatlarni tahlil qilib, bir darajada joylashgan ehtiyojlar orasidagi gorizantal munosabatlar esa o‘rganilmagan.

Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta, keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o‘ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo‘ladi.

Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiyaning mazmuni va energetik tomoni haqidagi muhim savol psixologlar tomonidan ifodalab berildi. Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbai sifatida qaraladi, ular mazmunli tomoniga e’tibor bermay, aniq mexanizmlar sifatida energiya, boshqaruv va xulq-atvorga taqsimlaydilar.

Ierarxik, darajaviy tuzilish – bu tizimlilik xususiyatiga ega bo‘lgan hodisalarning bir jihatidir. Shu tufayli shaxs motivasion sohasining ierarxiyasini samarali tadqiq etish uchun uni motivasion hodisalarning boshqa jihatlari bilan aloqadorlikda o‘rganish zarur bo‘ladi. Motivasion hodisalar tizimliligini tadqiq

etishda asosiy e’tibor esa bu hodisalar o‘rtasidagi tizimli munosabatlarni o‘rganishga qaratilishi kerak. Bu borada R.S.Vaysmanning shaxs motivasion sohasining tizimliligi haqida bildirilgan fikri alohida e’tiborga loyiq. Uning yozishicha, «Motivasion sohaning tizimliligi – motivasion o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi aloqadorlik, xilma-xil munosabatlar mavjudligida namoyon bo‘ladi. Shunday munosabatlardan biri ierarxik munosabatdir. Yana bir turdagi munosabatni «ro‘yobga chiqarish» munosabati deb atash mumkin. Bu munosabat shuni anglatadiki, har bir ehtiyojning qondirilishida turli motivlar yig‘indisining ro‘yobga chiqarilishi mumkin. Uchinchi turdagi munosabat shunda namoyon bo‘ladiki, har xil ehtiyojlarning qondirilishida bir motiv ishtirok etadi yoki aksincha, bir ehtiyoj qondirilishida turli motivlar qatnashadi. Bunday munosabat «o‘zaro tobelik» munosabati nomini oldi.

Geshtalt psixologiya maktabi namoyondalari uchun motivatsiya o‘ziga xos talqinga ega bo‘lib, uning mohiyatini eksperimental tarzda o‘rganishga nisbatan intilish yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. K.Levin (1890-1947) motivlarni eksperimental o‘rganish metodikasini ishlab chiqib, ularni mutlaqo mustaqil holat sharoitida tushuntirishga harakat qilgan va bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan. Geshtalt psixologiya maktabining namoyondalariga obraz tushunchasi qanchalik o‘ta ahamiyatli bo‘lsa, K.Levinning maydon nazariyasi uchun motiv kategoriyasi xuddi shunday muhim ahamiyat kasb etadi. Obraz va motiv o‘zaro aloqasiz hukm surishi ta’kidlanadi, motivatsiyani amalga oshiruvchi vaziyatning predmetli ma’noviy mazmuni esa inkor qilinadi.

K.Levin motivni quyidagicha ifodalaydi: motiv – muayyan muvaffaqiyatli mikrointervalda shaxsning bevosita yaqqol muhit bilan munosabatlaridan kelib chiquvchi voqelikdir. Uning mazkur nazariyasida insonda har xil ma’no anglatuvchi ikkita motivasion o‘zgarish hukm surishi tan olinadi. Geshtalt psixologlarning asarlarida shunday holatlar ham mavjudki, ularda xulq motivatsiyasi muammolari shaxsning muhim xususiyatlarini tahlil qilish negizidan kelib chiqib qaraladi. Ushbu holat G.Olport konsepsiyasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uningcha, eng muhim jihat bu inson xulqini o‘zgarish sabablarini ochishdir. Shuning bilan birga mazkur vaziyatga olib keluvchi motivlar omillarini tekshirishlari ham alohida ahamiyatga ega ekanligini anglab yetish qiyin emas.

Rus psixologlari orasida V.G.Aseyevning tadqiqotlarida motivasion tizim masalasi ancha chuqur o‘rganilgan. Uning fikricha, inson motivasion sohasining ontogenetik taraqqiyoti davomida bu soha tizimli rivojlanishga nisbatan moyillikni namoyon etadi. Bu moyillik V.G.Aseyev ko‘rsatishicha, stixiyali shakllanuvchi, undovchi kuchlarning kattaroq motivasion birliklarni o‘zaro qo‘shilib hosil qilishda namoyon bo‘ladi. Motivasion tizimning birligi sifatida V.G.Aseyev undovchi kuchlarni qayd etadi. Bu tushuncha doirasiga u motiv, ehtiyoj, qiziqish, intilish, maqsad, ideal, mayl, motivasion ustanovka va boshqalarni kiritadi. Shunday qilib, V.G.Aseyev turli motivasion hodisalar, mayl turlari o‘rtasida tizimli munosabat mavjud deb hisoblaydi. Demak, bunday yondashuvda motivasion tizim komponenti mayl bo‘lib hisoblanadi.

V.G.Aseyev shaxs motivasion sohasining tuzilishi muammosiga ham katta e’tibor beradi. Uning qayd etishicha, inson motivasion sohasining tuzilishi quyidagi xususiyatlarga ega: situasion va impulsiv undovchilarning yonma-yon joylashganligi, shaxsiy mayllarning mazmun va dinamik sifatlariga ko‘ra bir-biriga yaqinligi. Bu xususiyatlar motivatsiyaning tizimli sifatlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Ayrim tadqiqotchilar masalan, V.E.Chudnovskiy, V.I.Kovalev motivlar tizimi va shaxs yo‘nalishi o‘rtasida aloqadorlik mavjudligini qayd etmoqda. P.T.Yakobson esa xulq-atvor motivatsiyasi muayyan qadriyatlar tizimlari bilan bog‘liqligini ta’kidlab, motivlarni shaxs qadriyatlari orientatsiyasiga tobe birliklar sifatida o‘rganishni taklif etadi. Uning fikricha, bunday izlanish ijtimoiy psixologik yo‘nalishda amalga oshirilishi kerak.

Motivlar tizimi tushunchasiga berilgan ancha keng ta’riflarni adabiyotlarda uchratish mumkin. Jumladan, V.S.Morozovning qayd etishicha, «Shaxs motivlar tizimini uning sub’ektiv ehtiyojlari, maqsadlari, g‘oyalari, qarashlari, tasavvurlari shuningdek, intilishlari, shakllari va boshqalar tashkil etadi». Bunday ta’rifda «tizim» tushunchasi qanday ma’noda qo‘llanilayotgani ancha noma’lum. Uni aniqlashtirish talab etiladi.

Yuqorida tilga olingan muammolar bilan shaxs motivasion sohasining darajaviy tuzilishi muammosi bevosita bog‘liq. Psixik hodisalarning darajaviy tuzilishi g‘oyasi psixologiyada keng tarqalgan va tadbiq etib kelinmoqda va bu bejiz emas, zero darajali tuzilish haqidagi tasavvurlar turli psixik hodisalarning muayyan tizimga keltirilgan modellarini hosil qilish imkoniyatini beradi. Shaxs motivasion sohasida o‘z darajasi va murakkabligiga ko‘ra turlicha bo‘lgan motivasion hodisalarning mavjudligi darajaviy tuzilishi haqidagi g‘oyalarning bu yo‘nalishda ham samarali qo‘llash uchun sharoit yaratadi.

Inson motivasion sohasining ierarxik darajaviy tuzilishi masalasi motivatsiya bilan bog‘liq eng o‘tkir va keskin bahslarga sabab bo‘luvchi muammolardan biridir. Hozirgacha alohida olingan motivasion hodisalarning ierarxik tuzilishi ehtiyojlar ierarxiyasi va boshqalar tadqiq etib kelingan. Ammo barcha motivasion hodisalarning yagona ierarxik tuzilishi haqidagi masala yetarlicha o‘rganilmagan.

Rus psixologlari orasida motivlar ierarxiyasi masalasi A.N.Leontev, L.I.Bojovich va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. A.N.Leontev XX asrning 40-yillarida maktabgacha yosh davrida shaxs shakllana boshlashini ta’kidlar ekan, bu jarayon bolada motivlar ierarxiyasi tarkib topishi bilan bog‘liqligini uqtirgan edi. A.N.Leontev fikricha, sub’ektning tashqi olam bilan birga munosabatlari kengayib borgan sayin motivlarning o‘zaro solishtirilishi yuz beradi, buning oqibatida esa ular o‘rtasida ierarxik munosabatlar shakllanadi. Motivlar ierarxiyasi olimning fikriga ko‘ra, motivlar funksiyalari bilan belgilanadi. Boshqacha qilib, aytganda ierarxiyada yuqori o‘rinni, ma’no hosil qiluvchi funksiyani bajaradigan motivlar quyi o‘rinni esa stimul motiv egallaydi. Demak, A.N.Leontev motivlar funksiyasining ikki darajasini: ma’no hosil qiluvchi va stimul darajalarini ajratadi. Ammo A.N.Leontev o‘z nazariyasida motivlar ierarxiyasining shakllanish jarayonida shaxsning sub’ektiv, faol roli qanday bo‘lishini ko‘rib chiqmaydi.

Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o‘z-o‘zini qanday tutishi egallagan mavqei ham sababsiz o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada «motiv», «motivatsiya» tushunchalari ishlatiladi.

Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o‘zini tushunishi sabablarini o‘rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan narsa bo‘lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi: a) ichki sabablar, ya’ni holati, harakat egasining sub’ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo‘ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar); b) tashqi sabablar – faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari, ya’ni bular aynan aniq holatlarni keltirib chiqarishga sabab bo‘ladigan tashqi stimullardir.

Mavzuni yanada mustaqil o‘rganish va xayotga tadbiq etish maqsadida kuyidagi mavzuga oid amaliy treninglarni tavsiya etamiz

“Mening hayotdagi shiorim” trening mashg‘uloti.

Mashg‘ulot tavsiya etiladigan holatlar: guruhiy psixokorreksion faoliyatda hamda individual psixokorreksion faoliyatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib *emotsional-hissiy sohadagi buzilishlarni, *qadriyatlar tizimida yuzaga kelgan buzilishlarni, *xarakter aksentuatsiyasini psixokorreksiya qilishda, shuningdek motivasion sohani rivojlantirishda va psixologik resurslarni shakllantirishda.

Ishtirokchilarga hayotda unga doimo olg‘a intilishga, kuch va g‘ayrat topa olishga, kelajakka ishonchini kuchaytirishga har vaqt yordam bera oladigan hayotiy motivasion (ilhomlantiruvchi) shior o‘ylab topish topshirig‘i beriladi. Shunga e’tibor berish so‘raladiki, o‘sha shiorni siz doimo ko‘rinib turadigan joylarga yozib qo‘ya oladigan bo‘ling va uni ko‘rganda sizda beixtiyor hayotga nisbatan motivatsiya(qiziqish va intilish) paydo bo‘lsin. O‘ylab ko‘rish uchun 5-10 daqiqa vaqt berilish mumkin. Ijodiy, o‘ziga xos yondoshish so‘raladi. Shundan so‘ng hamma o‘zining shiorini o‘qib eshittiradi.

Ishtirokchilardan ushbu shiorlarini yozib olishlari, doimo yodda tutishlari tavsiya etiladi. Chunki ushbu shior bevosita mazkur trening bilan bog‘liq barcha bilim-ko‘nikmalarni yodga tushishini va saqlanishini ta’minlaydi. Trener ishtirokchilarning shiorlarini diqqat bilan tahlil qilishi hamda o‘rni kelsa ularni psixologik tahlil qilib ushbu shior uning o‘ziga yoki boshqalarga qanday ijobiy va salbiy ta’sir qilishi mumkinligini aytib o‘tishi lozim. Chunki, gohida o‘quvchilarda destruktiv prinsiplar hayotiy shiorga aylanib qolishi kuzatiladi, psixologning vazifasi o‘quvchilardagi shunday destruktiv, shaxs shakllanishiga salbiy ta’sir qiluvchi omillarni bartaraf qilishdan iborat. Bu mashg‘ulot orqali o‘quvchining dunyoqarashi va tafakkur tarzini ham o‘ziga xos ravishda diagnostika va korreksiya qilish imkoni yuzaga keladi.

“Men kimman?” trening mashg‘uloti.

Mashg‘ulot tavsiya etiladigan holatlar: guruhiy psixokorreksion faoliyatda hamda individual psixokorreksion faoliyatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib *emotsional-hissiy sohadagi buzilishlarni, *qadriyatlar tizimida yuzaga kelgan buzilishlarni, *xarakter aksentuatsiyasini psixokorreksiya qilishda, *shuningdek. motivasion sohani rivojlantirish, shaxsdagi ijtimoiy rollarni konstruktiv refleksiya qilish va psixologik resurslarni shakllantirishda,* shaxslararo (guruhiy, oilaviy, ota-ona va farzand) munosabatlaridagi buzilishlarni korreksiya qilishda.

Kun va Mak-Partlendning “Men kimman?” metodikasining foydalanish qulayligi, soddaligi bilan bir qatorda samaradorligi o‘rganib chiqildi. Mazkur metodikaning o‘ziga xosligi va olib borgan tajribalarimizning yangiligi shundaki, metodikadan psixologik konsultatsiya jarayonida bir vaqtning o‘zida professional psixodiagnostik test hamda psixokorreksion ta’sirga ega universal metodika sifatida foydalanish mumkin. Yuqoridagilarni e’tiborga olib, amaliy psixologlar Kun va Mak-Partlendning “Men kimman?” metodikasidan “xulqi og‘ishgan” o‘smirlar bilan psixologik konsultatsiya olib borishda foydalanishsa, psixologik faoliyat samaradorligi yanada jadallashadi.

“Men kimman?” metodikasi dastlab 1945-yilda amerikalik psixologlar M.Kun va Mak-Partlendlar tomonidan taklif etilgan bo‘lib, test metodika sifatida tavsiflangan. Metodikaning nazariy asosi sifatida Manferd Kunning “Men” konsepsiyasi ko‘rsatilib, ijtimoiy rollar, turli rollarning axloqda namoyon bo‘lishi, shaxsning o‘zini o‘zi idrok qilish orqali o‘zini tahlil qilish (refleksiya) kabi konsepsiyalarni ham o‘z ichiga oladi. L.S.Vigotskiy tomonidan berilgan tavsifda, Kun va Mak-Partlendning “Men kimman?” metodikasi orqali shaxsdagi psixik hodisalarni ob’ektiv tadqiq etish mumkinligini aytib o‘tiladi. A.A. Bodalev, V.V. Stolin kabi olimlar mazkur metodika insonning o‘zi haqidagi tasavvurlarini, jumladan “Real Men” va “Ideal Men” kabi fenomenlarni ochib berishda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq ekanligini ilgari surishgan. XX asr oxirlarida rus tilida mazkur metodikani bir qator (T.V.Rumyanseva, V.I.Yurchenko) modifikatsiyalari yaratilgan va amaliyotda foydalanilgan. Respublikamizdagi amaliy psixologlar faoliyatida ham mazkur metodikaga murojaat qiladigan hamda ijtimoiy psixologik treninglarda undan foydalanadigan psixolog olimlar (I.I.Maxmudov, X.M.Alimov) mavjudligini ham aytib o‘tish joiz. Shunday bo‘lsada, psixologlarimiz ilmiy adabiyotlar orqali “Men kimman?” metodikasining nazariy va amaliy asoslari bilan to‘liq tanishtirilmagan.

Metodikaning dastlabki varianti va uning modifikatsiyalari o‘rtasidagi asosiy farqlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, dastlabki variantda (M.Kun va Mak-Partlend) sinaluvchi 12 daqiqada “Men kimman?” degan savolga 20 ta o‘zining javoblarini berishi kerak bo‘lgan. Yo‘riqnoma ham shu tarzda berilgan. T.V.Rumyanseva taklif etgan modifikatsiyaga ko‘ra, sinaluvchi 15 daqiqa davomida 20 tadan ortiq javob berishi mumkin. V.I.Yurchenkoning (“Shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabatini belgilovchi 20 ta ta’kid” deb atalgan) modifikatsiyasida sinaluvchiga qo‘yiladigan savollar ikkita bo‘lib, ular “Men kimman?” va “Men qandayman?”

tarzida berilgan. Sinaluvchi ushbu savollarning har biriga 20 tadan 40 tagacha javob berishi lozim bo‘lgan. Lekin, metodikadan olingan natijalarni tahlil va talqin qilish prinsiplari deyarli bir xilda amalga oshiriladi. Biz o‘zbek tilida taklif qiladigan metodikadagi sinaluvchiga beriladigan yo‘riqnomada sinaluvchi 15 daqiqa davomida “men kimman, qandayman?” degan umumiy savolga iloji boricha ko‘proq javob variantlarini berishi kerak.

Trening dasturi vazifalari:

1.Shaxslararo jipslikni ta’minlash.
2. Nizoli vaziyatlarda o‘zini tutishni o‘rganish.
3. O‘z o‘ziga bo‘lgan ishonchni orttirish.
4.Atrofdagilarni va o‘zini hurmat qilishga o‘rgatish.
5.Xulq atvordagi ijobiy va salbiy tomonlar haqida fikr almashish.

Kutilayotgan natijalar:

1. Ishtirokchilarning kayfiyatini ko‘tarilishi.
2. Ishtirokchilar orasida o‘zaro hurmat tuyg‘usining vujudga kelishi.
3. Ishtirokchilarning bir birlari haqida kengroq tasavvurga ega bo‘lishlari.
4. Trening ishtirokchilarini o‘zaro ahillashuvi.
5. Ishtirokchilarda o‘zaro psixologik to‘siqlarni bartaraf etish.

Trening mashg‘uloti 80 daqiqa davom etib, 7 ta mashg‘ulotdan iborat.

1 mashg‘ulot	“Olma”	5 daqiqa
2 mashg‘ulot	“Botqoqlik o‘yini”	10daqiqa
3 mashg‘ulot	“Avlodlar o‘rtasidagi nizo”	15 daqiqa
4 mashg‘ulot	“G‘aram, tepalik, so‘qmoq”	10 daqiqa
5 mashg‘ulot	Oila muammolari	15 daqiqa
6 mashg‘ulot	“Oila tasviri”	20 daqiqa
7 mashg‘ulot	“Avtobus”	5 daqiqa

Treningimiz samarali o‘tishi uchun mashg‘ulotlar jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilishimiz lozim.

1. Intizomga rioya qilish.
2. Maxfiylik.
3. Faollik.
4. Samimiylik.
5. “Yagona mikrafon”.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Shaxs haqida umumiy tushuncha.
2. Shaxs shakllanishini harakatga keltiruvchi kuchlar.
3. Shaxs shakllanishida ijtiioiy muhitning roli.

Test savollari:

№1.
Yuridik psixologiya fani nimani o‘rganadi?
Jinoiy jarayon ishtirokchilarining xulq-atvori psixik xususiyatlarini o‘rganadi.
Jinoyatchilar ruhiyatini
Qonunni
Konstitutsiyani
№2.
Harbiy psixologiya nimani o‘rganadi?
Harbiy harakat sharoitidagi xulq-atvorni, boshliqlar va xodimlarning psixologik xususiyatlarini
Hayvon va odam psixikasini
Sport psixologiyasini
№3.
Sport psixologiyasi fani nimani o‘rganadi?
Sportchilar shaxsi va faoliyatining psixologik xususiyatlarini
Yosh psixologiyasi
Qiyosiy psixologiyani
Harbiy psixologiyani
№4.
Yosh psixologiyasi nimani o‘rganadi?
Turli yoshdagi kishilarning psixik jarayonlarining psixologik qonuniyatlarini
Kayfiyat, ruhlanish, yehtiros
Temperament, xarakter, qobiliyat
Harbiy harakat sharoitidagi xulq-atvorni, boshliqlar va xodimlarning psixologik xususiyatlarini
№5.
Qiyosiy psixologiya fani nimani o‘rganadi?
Hayvon va odam psixikasi qiyoslanadi, ularning farq va o‘xshashlik tomonlari aniqlanadi
Siyosiy, iqtisodiy bilimlarni aniqlaydi
Shaxs taraqqiyotiga ta’sir yetuvchi omillarni aniqlash
Ta’lim va tarbiya jarayonini o‘rganadi

8-MAVZU. SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ULARNI DIAGNOSTIKA QILISH.

1. Temperament haqida tushuncha
2. Xarakter va uning fiziologik asoslari
3. Qobiliyat to‘g‘risida tushuncha.

Mavzuning qisqacha mazmuni

Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari*. Temperament haqida tushuncha va uning turlari, temperamentning fiziologik asoslari, temperament va shaxs. Xarakter to‘g‘risida tushuncha. Xarakterning fiziologik asoslari, xarakter xususiyatlari va xarakter aksentuatsiyasi. Qobiliyatlar haqida tushuncha. Layoqat nishonalari va qobiliyatlar, qobiliyat va intellekt, intellekt ko‘pligi nazariyasi (G.Gardner bo‘yicha).*

1-Reja. Temperament haqida tushuncha

Shaxsning individual xususiyatlari uning tug‘ma, biologik xususiyatlariga bog‘liq. Chunki aslida bir tomondan shaxs ijtimoiy mavjudot bo‘lsa, ikkinchi tomondan biologik – yaxlitlik, tug‘ma sifatlarni o‘z ichiga olgan individ hamdir.

Temperament individning dinamik – o‘zgaruvchan psixik faoliyati jarayonini ta’minlovchi sifatlarini o‘z ichiga olib, u shaxsda ontogenetik taraqqiyot jarayonida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo‘ladi. Temperament xususiyatlari odam bir faoliyat turidan ikkinchisiga, bir emotsional holatdan yoki bir malakalardan boshqasiga almashtirgan paytlarda reaksiyalarning egiluvchan va dinamikligini ta’minlaydi.

Demak, temperament (lot. “temperamentum” – aralashma so‘zidan olingan) – shaxs faoliyati va xulqining dinamik (o‘zgaruvchan) va emotsional-hissiy tomonlarini xarakterlovchi, biologik shartlashgan individual xususiyatlar majmuidir.

Temperament xususiyatlari shaxsning ichki tuzilmasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi, ya’ni ularning namoyon bo‘lishi uning konkret vaziyatlarga munosabatini, ekstremal vaziyatlarda o‘zini qanday tutishini belgilab beradi. Masalan, inson turli vaziyatlarda o‘zini turlicha tutadi: oliy o‘quv yurtida talabalar safiga qabul qilinganligi to‘g‘risidagi axborotni eshitgan bolaning o‘zini tutishi, yoki hayotning og‘ir sinovlari (yaqin kishining o‘limi, ishdan haydalish, do‘stning xoinligi kabi) paytida odam beixtiyor namoyon qiladigan reaksiyalari uning temperamentiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun bir xil vaziyatni turli shaxslar, biri og‘ir-bosiqlik bilan, boshqasi esa o‘zini yo‘qotgudek darajada his-hayajon bilan boshidan

kechirar ekanlar. Shu sababli shaxs temperamenti uning shakllanishi va ijtimoiy muhitda o‘ziga xos mavqeni egallashida, shaxslararo muloqot jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, temperament hayotiy voqealar va vaziyatlarni turli mezonlar asosida ajratishga imkon beradi. Bunda temperament odamning ijtimoiy ob’ektlarga nisbatan “sezgirligini” tarbiyalaydi, professio-nal mahorat va kasb malakasining oshib borishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Temperament ta’rifidan ma’lum bo‘ldiki, uning xususiyatlari tug‘ma hisoblanadi. Shunday bo‘lsada, u shaxsga bevosita aloqador va anglanadigan bo‘lgani uchun ham ma’lum ma’noda dinamik ko‘rinishda bo‘ladi. Masalan, inson go‘daklik davrida flegmatikka o‘xshash xususiyatlarni namoyon qilgan bo‘lsa, u umrining oxirigacha faqat shundayligicha qoladi, deb bo‘lmas ekan.

Temperamentning fiziologik asoslari to‘g‘risida tushuncha qadimgi yunon olimi Gippokrat ta’limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o‘zaro bir-biridan tafovutlanishi ularning tana a’zolaridagi suyuqliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda joylashuviga bog‘liq ekan. Uning fikricha, inson tanasida to‘rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo‘lib, ular o‘t yoki safro *(yunon. “chole” - o‘t)*, qon *(lot. “sanguis” yoki “sanguinis”* - qon*)*, qora o‘t *(yunon. “melas” - qora, “chole” - o‘t)*, balg‘am *(yunon. “phlegma” - balg‘am)* kabilardan iborat bo‘lib, unga ko‘ra:

1) o‘tning xususiyati – quruqlikdir, uning vazifasi tana a’zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir;

2) qonning xususiyati – issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir;

3) qora o‘tning xususiyati – namlikdir, uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir;

4) balg‘amning (shilimshiq moddaning) xususiyati – sovuqlikdir, uning vazifasi badanni sovutib turishdan iboratdir.

Gippokrat ta’limotiga muvofiq, har bir insonda shu to‘rt xil suyuqlik mavjud bo‘lib, uning bittasi ustuvorlik qilib, mazkur aralashmalardan qaysi biri salmoqliroq bo‘lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, chunonchi, xolerikda sariq o‘t, sangvinikda qon, melanxolikda qora o‘t, flegmatikda balg‘am (shilimshiq modda) ustun bo‘lishi ta’kidlanadi.

Gippokratning to‘rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya’ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi *(sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik)* ramziy ma’noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo‘llanilib kelinmoqda.

Sangvinik – juda faol, qiziquvchan bo‘lib, atrofdagi narsalar, insonlar diqqatini tez jalb etadi. U imo-ishoralarni ko‘p ishlatib, uning chehrasiga qarab kayfiyatini anglab olish qiyin emas. Juda sezgir bo‘lishiga qaramay, kuchsiz ta’sir(qo‘zg‘atuvchilar)ni seza olmaydi, serg‘ayrat, ishchan, toliqmasdir. Faollik bilan reaktivlik munosabati muvozanatli bo‘ladi, imtizomli, o‘zini tiya biladi va boshqara oladi. Uning xatti-harakati jo‘shqin, nutq sur’ati tez, yangilikni tez payqaydi, aql idroki teran, topqir, qiziqishlari, kayfiyati, intilishlari o‘zgaruvchandir. Ko‘nikma va malakalarni tez egallaydi, ko‘ngli ochiq, dilkash,

muloqotga tez kirishadi, uning xayoloti (fantaziyasi) yuksak darajada rivojlangan, tashqi ta’sirlarga hozirjavob bo‘ladi.

Xolerik – sust senzitivlik xususiyatiga ega bo‘lib, juda faol va reaktivdir. Ko‘pincha reaktivligi faollikdan ustun kelib, u betoqatlik, serzardalik va giperaktivlikni namoyon qiladi. Sangvinikka qaraganda qo‘zg‘aluvchan, lekin ko‘proq rigid, qiziqishlari, intilishlari barqaror, xatti-harakatlarda qat’iylik mavjud bo‘lsada, biroq diqqatni bir joyga to‘plashda qiynaladi, nutq sur’ati tez va h.k.

Flegmatik – senzitivligi sust, his-tuyg‘usi (emotsiyasi) kam o‘zgaruvchan, shunga ko‘ra bunday shaxsni kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin bo‘lib, ko‘ngilsiz hodisa xavf-xatar haqidagi xabarga xotirjamlik bilan munosabatda bo‘ladi. Vazmin, kam harakat, imo-ishorasi, mimikasi ko‘zga yaqqol tashlanmasada, lekin serg‘ayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatlidir. Uning nutq va harakat sur’ati sust, farosati qiyiqroq. Diqqatni to‘plashi osoyishta, rigid ko‘rinishida bo‘lib, diqqatni ko‘chirishi qiyin kechadi. Intravertlashgan, kam gap, ichimdan top toifasidan bo‘lib, yangilikni qabul qilishi murakkab va tashqi taassurotlarga sustlik bilan javob beruvchandir.

Melanxolik – senzitivligi yuksak, tortinchoq, g‘ayratsiz, arazchan, xafaqon bo‘ladi. U jimgina yig‘laydi, kam kuladi, qat’iyligi va mustaqilligi zaif, tez toladi, ortiqcha ishchan emas. Diqqati barqaror, his-tuyg‘usi sust o‘zgaruvchan, rigid va intravertlashgan.

Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma’lum insonlar guruhi uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o‘zaro bog‘liqligi tushunilib, uning tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o‘zaro bog‘liqligini turlicha aks ettirgan holda, yangi omillar mazkur tiplarning psixologik tavsifini qayta tahlil qilishni taqozo etadi.

Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi mumkin:

1. Senzitivlik (lot. “sensus” - sezish, his qilish) – insonda bironta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo‘lgan o‘ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi jumladan, sezgilarning paydo bo‘lishi uchun kerak qo‘zg‘ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasi (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashishi tushuniladi.

2. Reaktivlikda aynan bir xil kuch bilan ta’sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildirilib, uning yorqin ro‘yobga chiqishi – emotsionallik, ta’sirchanlikda ifodalanadi.

3. Faollik – inson qandaydir faollik darajasi bilan tashqi olamga ta’sir etishi va maqsadlarni amalga oshirishida ob’ektiv hamda sub’ektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan yengishidir.

*4. Reaktivlik bilan faollikning o‘zaro munosabati*da odamning faoliyati ko‘p jihatdan nimaga bog‘liqligiga binoan, chunonchi tasodifiy tarzdagi tashqi va ichki

sharoitlarda (kayfiyatga, favquloddagi hodisalarga) yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlarga koʻra fikr bildirish nazarda tutiladi.

5. Reaksiya tempi – turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechishi tezligiga, binobarin, harakat tezligiga, nutq sur'atiga, farosatlilikka, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqarishdir.

6. Harakatlarning silliqligi va unga qarama-qarshi sifat - rigidlik (qotib qolganlik) – shaxsning oʻzgaruvchan tashqi taassurotlarga qanchalik yengillik va chaqqonlik bilan muvofiqlashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligi (rigidligi – qotib qolganligi)ga nisbatan baho berishdan iboratdir.

7. Ekstravertlik va intravertlik - shaxsning faoliyati va reaksiyasi koʻp jihatdan nimalarga bogʻliqligiga, chunonchi favquloddagi tashqi taassurotlarga (ekstravertlik) yoki, aksincha, timsollarga, tasavvurlarga, oʻtmish hamda kelajak bilan uygʻunlashgan mulohazalarga (introvertlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Temperamentning ilmiy psixologik asoslari va uning fiziologik mexanizmlari keyingi ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning bosqichlarida ishlab chiqilib, bu borada izlanilishlar davom ettirilmoqda. Temperamentning fiziologik asoslariga oʻzining ulkan hissasini qoʻshgan olimlardan biri rus fiziologi I.P.Pavlov hisoblanib, u hayvonlarning oliy nerv faoliyatini tadqiq qilayotganida itlarda shartli reflekslarning paydo boʻlishi, kechishi, davom etishi xususiyatlari insonlarnikidan farq qilishi va bu hodisa temperamentda ham uchrashi mumkinligini kashf etadi. I.P.Pavlov temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bogʻliq boʻlishi mumkin, degan xulosani berib, mazkur ta'limot boʻyicha, shartli reflekslar paydo boʻlishining individual xususiyatlari roʻyobga chiqishining sabablari nerv tizimi xususiyatlari mohiyatidandir. Muallif nerv tizimining uchta asosiy xususiyatiga alohida ahamiyat beradi:

1) qoʻzgʻalish jarayoni va tormozlanish (toʻxtalish) jarayonining kuchi;

2) qoʻzgʻalish kuchi bilan tormozlanish kuchi oʻrtasidagi muvozanatlilik darajasi (nerv tizimining muvozanatlashgani);

3) qoʻzgʻalishning tormozlanishi bilan almashinishi tezligi (nerv jarayonlarining harakatchanligi).

Uning koʻrsatishicha, har bir hayvonning temperamenti ham mazkur xususiyatlarning u yoki bunisiga aloqador boʻlmay, balki ularning majmuaviy tarziga, qonuniy birlashuviga bogʻliq boʻladi. I.P.Pavlov shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari bilan temperamentga aloqador nerv tizimi xususiyatlarining oʻzaro qoʻshiluvini nerv tizimining tipi deb nomlaydi va uni toʻrtta tipga ajratadi:

1) kuchli, muvozanatli, epchil (sangvinik);

2) kuchli, muvozanatsiz, epchil (xolerik);

3) kuchli, muvozanatli, sust (flegmatik);

4) kuchsiz tip (melonxolik).

Asabga bog‘liq bo‘lgan tabiiy xususiyatlarni ham umuman o‘zgarmas deb bo‘lmas ekan, chunki tabiatda o‘zgarmaydigan narsaning o‘zi yo‘q. Masalan, V.S.Merlin temperamentning psixologik tasnifi va ularning hayotiy vaziyatlarda namoyon bo‘lishini boshqarish masalasida ko‘p ishlar qilib, uning fikricha, insonda mavjud bo‘lgan faollik, bosiqlik, emotsional tetiklik, hissiyotlarning tezda namoyon bo‘lishi va o‘zgaruvchanligi, kayfiyatning turg‘unligi, behalovatlilik, ishchanlik, yangi ishga kirishib ketish, malakalarning tez hosil bo‘lishi kabi qator sifatlar asosida shaxsdagi o‘sha ekstraversiya va intraversiya xossalari yotadi va ularni ham o‘zgartirish va shu orqali temperamentni boshqarish mumkin.

Shulardan kelib chiqqan holda, shaxsning mehnat qilish uslubini tanlash va professional mahoratni o‘stirishda ayni shularga e’tibor bersa ularning faoliyat natijasi samarador ko‘rsatkichga ega bo‘lishi kuzatiladi. Masalan, ba’zilar xoleriklarga o‘xshash qiziqqon, tezkor bo‘lib, ular mehnat jarayonida faollik, ishni tez bajarishga layoqati ijobiy bo‘lsa, uning salbiy tomoni ishni chala tashlab ketish xavfi, ba’zi tomonlariga esa yuzaki qarashi kishini o‘ylantiradi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, hayotda sof temperament ham bo‘lmaydi va u yoki bu temperament tipi juda yaxshi ham emas, har bir tipning o‘ziga xos nozik, kuchsiz tomonlari va shu bilan birga kuchli, ijobiy tomonlari ham bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash o‘rinliki, olimlar fikricha temperamentni faoliyat talablariga moslashtirish (muvofiqlashtirish) imkoniyati mavjud ekan. Chunki har qanday faoliyat psixik jarayonlari dinamikasiga muayyan talablar tizimini qo‘yadi. Xususan:

– kasb-hunarlarning insonlar temperamentiga mos turini tanlash kerak, chunki ularning psixik xususiyatlariga mutanosib kasbni tanlash professional tanlash deyiladi;

– shaxslarning individual xususiyatlarini hisobga olish joiz;

– temperamentga xos kamchiliklarni (salbiy illatlarni) bartaraf etish lozim;

– insonlarda individual uslubni shakllantirish zarur. Chunki shaxsning faoliyatiga ongli, faol va ijodiy munosabatda bo‘lishi muvaffaqiyatlar garovidir.

Xolerik davriy almashib turadigan ishda o‘zining imkoniyatlarini namoyon qilsa, sangvinik turli sohalarda ya’ni u tug‘ma lider hisoblanadi. Flegmatik aniq, o‘zgarmaydigan rejimli ishni afzal ko‘rsa, melanxolik esa nozik qo‘l ishlari, badiiy sohada moyilligi yaqqol seziladi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, psixik faoliyatning dinamikasi nafaqat temperamentga, balki motivlarga, psixik holatlarga, his-tuyg‘ularga ham bevosita bog‘liqdir.

2-Reja. Xarakter va uning fiziologik asoslari

Xarakter – ijtimoiy muhit ta’sirida tarkib topib, shaxsning atrofdagi voqelikka va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatida ifodalanadigan, muayyan sharoitda tipik xulq-atvor usullarini belgilab beradigan barqaror individual psixik xususiyatlar yig‘indisidir. Xarakter tug‘ma, o‘zgarmaydigan xususiyat emas. U kishining hayot sharoitlariga bog‘liq holda tarkib topib, o‘zgaruvchan va tarbiyalanuvchandir. Maxsus sharoitda ta’lim-tarbiya ta’sirida salbiy xarakter

xususiyatlarini bartaraf qilish, ijobiy xarakter xususiyat (xislat)larini shakllantirish mumkin.

Psixologiya fanida xarakterni tahlil qilishni o‘ziga xos tizimi mavjudki, bu psixologik tuzilishning qonuniyatlari, tipologiyasi va rivojlanishini ifoda etadi. Shu bois, psixologiyada xarakterni psixologik tadqiq etish *xarakterologiya*ning asosiy predmeti hisoblanadi.

Mazkur tushunchaning etimologiyasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, xarakterologiya *(grek. “characterology”, “character” - xislat, belgi, alomat, nishon, xususiyat, “logos” - fan, ta’limot)* – xarakter va uning mohiyati, strukturasi, tarkib topishi va rivojlanishi haqidagi ta’limotdir.

Xarakterologiyaga oid bilimlarga amalda qadimdan ehtiyoj sezilib kelingan ekan. Masalan, quldor bozordan qul sotib olish jarayonida uning jismoniy xususiyatlari haqida turli xatti-harakatlarni bajartirish tarzida ma’lumotga ega bo‘lganlar, lekin u o‘zining bo‘lajak quli itoatkor yoki bo‘ysunmaydigan, soddadil yoki ayyor, mehnatkash yoki dangasa kabi xarakter xislatlari haqida ma’lumotga ega bo‘la olmaganlar. Shuning uchun, quldorlik jamiyati sharoitlarida xaridor bo‘lajak qulining xarakterini aniqlashning turli tizimiga amaliy ehtiyoj sezganligidan dalolat beradi.

Psixologiya tarixida xarakterologiyaga oid dastlabki ma’lumotlar odamning bosh suyagi va tana hamda yuz tuzilishiga bog‘lab aniqlash orqali tarkib topgan (Aflotun, Arastu, Abul-Faraj Bar Ebrey, Iogann Kaspar Lafater, Frans Gall, Charlz Darvin).

Aflotun va Arastu kishi xarakterini uning aft-angoriga qarab aniqlash nazariyasi asoschilari hisoblanadilar. Ular kishi tashqi ko‘rinishida biron bir hayvonga o‘xshashlik belgilarini topib, so‘ngra uning xarakterini ana shu hayvonniki bilan bir xil, deb tavsiflaganlar. Jumladan, Arastuning fikricha, buqaniki singari yo‘g‘on burun dangasalikni, cho‘chqanikiga o‘xshash teshiklari katta va keng burun axmoqlikni, arslonniki kabi burun mag‘rurlikni, quyonlarniki singari tukning mayinligi qo‘rqoqlikni, sher va yovvoyi cho‘chqaniki kabi tukning dag‘alligi botirlikni anglatadi. Shunga o‘xshash nazariyalar O‘rta asr Suriya yozuvchisi Abul-Faraj Bar Ebrey asarlarida ham uchraydi.

XVIII asrda Iogann Kaspar Lafaterning fiziologik tizimi mashhur bo‘lib ketdi. U inson bosh suyagining konfiguratsiyasi va imo-ishorasini o‘rganish kishi xarakterini aniqlashning asosiy yo‘li, deb hisoblaydi.

Keyinchalik xarakterologik ta’limot nemis shifokori Frans Gallning nomi bilan bog‘liq frenologiya degan nom oldi. Frans Gall fikricha, inson bosh suyagining bo‘rtiq joylarini ushlab ko‘rib, uning ruhiy belgilarini aniqlash mumkin.

Charlz Darvinning yuz ifodasining tavsiflanishi, uning yumshoq to‘qimalari holatiga bog‘langan fiziognomik ta’limoti xarakterologiya sohasida ko‘pgina psixologlarning izlanishlari uchun asos bo‘ldi.

Xarakterni o‘rganishda tashqi ko‘rinish ma’lum ahamiyatga ega bo‘lsada, biroq shaxsning tashqi qiyofasi uning xarakterologiyasida batafsil ma’lumotlar manbai bo‘la olmaydi.

Keyinchalik fan olami rivojlanishining turli bosqichlarida, shaxsning xarakterologik xususiyatlarini o‘rganishda faoliyat va munosabatlar tizimi hamda boshqa psixik xususiyatlarni tadqiq etish borasidagi ilmiy izlanish va munozaralar ham xarakterga oid turli xil yondashuvlarni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Xarakterda o‘zlashtirilayotgan hayotiy timsollar shaxsning xulq-atvori va faoliyatida ijtimoiy-psixologik xususiyatlar sifatida tarkib topishni ta’minlovchi psixologik vositalar inson “Men”ining tavsiflovchi poydevori hisoblanadi.

Xarakter temperament (mijoz)dan farqli o‘laroq hayotda, muomala va hamkorlikdagi faoliyat jarayonida vujudga kelishi va shakllanishida farq qiladi. Xarakter xislatlari to‘rtta yirik tizimga ajratiladi. Bu xususiyatlar insonning munosabatlarida aks etgan bo‘lib, ular quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

Bunday xarakter xususiyatlarini o‘quvchi va talabalarda shakllanishi va namoyon bo‘lishi o‘qish faoliyatini amalga oshirayotgan jamoada, oilada, norasmiy guruhlarda kuzatiladi.

Xarakter xislatlari va xulq-atvor xususiyatlari

№	**Munosabatlarning nomlanishi**	**Xarakter xislatlari va xulq-atvor xususiyatlari**
1.	Odamlarga bo‘lgan munosabat	Muloqotmandlik, ochiqlik, aniqlik, mehribonlik, tundlik, tortinchoqlik, johillik, kamtarinlik va b.
2.	Faoliyatga bo‘lgan munosabat	Vijdonlilik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ehtiyotsizlik, mas’uliyatsizlik va b.
3.	Ijtimoiy va shaxsiy mulkka bo‘lgan munosabat	Betartiblik, tejamkorlik, ozodalik, ehtiyotkorlik va b.
4.	O‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat	Vazminlik, talabchanlik, o‘zini sevish, o‘ziga ishonchlilik, xudbinlik va b.

Psixologiyada xarakter xislatlarining paydo bo‘lish shartlarida organizmning nasliy xususiyatlari (*biologik qonuniyatlari*) asos bo‘lsada, ammo u *ijtimoiy qonuniyatlar* bilan tavsiflanadi. Ushbu masalani irsiyatga bog‘lab tushuntirish gomozigot egizaklarni o‘rganish orqali inkor qilinadi, chunki ularning nasliy xususiyatlari aynan bir xildir. Ular temperament xususiyatlari bo‘yicha tubdan o‘xshash bo‘lsalarda, lekin xarakter xislatlariga ko‘ra bir-biridan keskin farq qiladilar. Shuning uchun xarakterning shaxs turmush sharoitiga bog‘liqligini uning fiziologik asosi ham, tashqi taassurotlar tizimi tufayli vujudga keladigan shartli reflektor funksional holati ham tasdiqlaydi.

Xarakter tarkib topishi muayyan qonuniyatlar ta’sirida amalga oshib, uning har bir xislati shaxs munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi, ular o‘z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Nasliy xususiyatlari bir xil egizaklarda turlicha ijtimoiy muhitda har xil xarakter xislatlari shakllanishi tadqiqotlarda isbotlangan. Shu sababdan ijtimoiy tuzimni tavsiflovchi keng ijtimoiy munosabatlar shaxsning

ijtimoiy tipik xususiyatlarigina emas, balki xarakterning individual xususiyatlari (xislatlari) tarkib topishiga ham katta ta’sir o‘tkazadi. Ijtimoiy munosabatlarga bevosita yoki bilvosita bog‘liq tarzda, oilada, bolalar va mehnat jamoalarida hayrihoxlik, o‘rtoqlik, o‘zaro yordamlashish, hamkorlik yoki, aksincha, johillik, zolimlik, badjahllik kabi shaxslararo munosabatlar tarkib topa boshlaydi. Oilaviy muhit, undagi shaxslararo munosabatlar, farzandlarning miqdori, yoshidagi farqi, nizoli vaziyatlarning ko‘rinishi, ota-ona munosabatiga asoslangan holda xarakterning o‘ziga xos xususiyatlari shakllantirilsa, bolalar bog‘chasidagi, maktabdagi shaxslararo munosabatlar ham xarakterning maxsus xislatlarini tarkib toptiradi. Mehnat jamoalarida, norasmiy guruhlarda ham xarakter xususiyatlarida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga kelib, ilk yoshlik davrida esa shakllangan xarakter xislatlari nihoyat darajada barqaror bo‘lib, ularga ayrim o‘zgarishlar kiritish juda qiyin kechadi. Shaxsda mayllarning qondirilishi yoki qondirilmasligi bilan bog‘liq holda tarkib topgan munosabatlar o‘zining mustahkamligi bilan ajralib turadi. Xarakter xislatlarining chuqurligi, barqarorligi, doimiyligi ko‘p jihatdan shaxs munosabatlarining onglilik darajasiga bog‘liq. Insonning haqqoniylik, mehnatsevarlik xislatlari tasodifiy tarkib topmagan bo‘lib, uning ongli qarashlariga, ishonch aqidalariga mos tushsa, u holda har qanday qiyin holatlarda ham namoyon bo‘laveradi.

Xarakter bilan temperamentning o‘zaro munosabati ularni *fiziologik asoslari* bilan belgilanadi. Xarakter xususiyatlarining tashqi jihatdan namoyon bo‘lib aynan shu tarzda muayyan vaqt mobaynida kechishi *dinamik* xususiyat deyiladi. Xarakter xislatlarining dinamik xususiyati temperament xususiyatlariga bog‘liqdir. Ana shu holatga muvofiq ravishda temperament xususiyatlari ham xarakterning ma’lum xislatlarining vaqt davomida tashqi namoyon bo‘lishi ham temperament tipiga bog‘liq.

Taraqqiyot va tarbiyaning ijtimoiy sharoitlari hamda ularning psixikaning irsiy individual xususiyatlari bilan o‘zaro munosabati xarakter xislatlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri tavsiflamaydi, balki shaxsning faoliyati orqali belgilaydi. Uning faoliyatiga taalluqli aynan bir xil ijtimoiy sharoitda ham xuddi shu bir xil irsiy xususiyatlaridan turli xarakter xislatlari shakllanadi. Shu boisdan xarakterning rivojlanishi shaxsning faol faoliyati jarayonida uning xatti-harakatlariga bog‘liq tarzda amalga oshadi. Xarakterning tarkib topishida faol faoliyatda harakatning individual o‘ziga xos usullari shakllanadi. Harakat usullarining avtomatlashuvi muayyan dinamik stereotip hosil qilinishi bilan bog‘liq shartli reflektor funksional holatning natijasidir. Avtomatlashuvning bir necha turdagi psixologik mexanizmlari mavjud bo‘lib, ulardan biri – bu *odat*lardir. Xarakter xislatlari tarkib topishining muhim shartlaridan yana biri – bu xislatlarni zaruriy xatti-harakatlarda chidam bilan *mashq qilish*dan iboratdir.

Xarakterning tarkib topishida *taqlidchanlik*ning roli katta bo‘lib, u harakat usullari avtomatlashuvining bosh manbai hisoblanadi va uning ahamiyatliligi ko‘p jihatdan ifodali xatti-harakatlarning shaxs emotsional (hissiy) kechinmalariga ta’siri bilan belgilanadi. Taqlidchanlik xatti-harakat namunasiga taqlid qilish uchun

mo‘ljallangan shaxs munosabatlari tomonidan motivlashtirilgandagina xarakter xislatlarini tarkib toptirish shartiga aylanadi.

Xarakterning shakllanishida muayyan psixik faoliyatga yaxlit ob’ektiv va sub’ektiv mayllik tarzidagi ko‘rsatma berish (ustanovka), psixologik mexanizm negizida yuzaga kelgan avtomatlashish muhim bo‘lib, bunda ko‘rsatma (ustanovka) odatlaridan farqli o‘laroq, muayyan harakatlarga tayyor turishgina bo‘lib qolmay, balki bilish jarayonlariga, hissiy va irodaviy reaksiyalarga ham tayyor turishlikdir.

Xarakterning hosil bo‘lishida nizoli vaziyatlar alohida ahamiyat kasb etib, bunda xarakter faqat murakkab va keskin vaziyatlarda (sharoitlarda) yorqin namoyon bo‘libgina qolmasdan, balki mazkur holatlarda u tarkib ham topadi. Odatda xarakter xislatlarining o‘zgarishidagi individual farqlar shaxsning nizoli vaziyatlardan chiqish uchun qanday yo‘l-yo‘riq topishiga bog‘liq. Shunday qilib, shaxs o‘zining butun hayoti va faoliyati davomida o‘z xatti-harakatlari, odatlari bilan o‘z xarakter xislatlarini o‘zi yaratadi va ularni boshqarishga odatlanadi.

Xarakter xususiyatlarining variantliligi ularning faqat sifat jihatidan rang-barangligi va o‘ziga xosligida emas, balki miqdor jihatidan ifodalanganligida ham namoyon bo‘ladi. Xarakter xususiyatlarining miqdoriy ifodalanishi, ya’ni ayrim belgilarning haddan tashqari kuchli namoyon bo‘lishi shaxs xulq-atvori me’yorining eng oxirgi marrasiga borib, patologik belgilar bilan chegaralanish holatida kuzatiladi. Bu holat psixologiyada xarakter aksentuatsiyasi (me’yordan ortishi) deb ataladi. Bunda shaxsda boshqalarga nisbatan barqarorlik bo‘lgani holda bir xil qattiq xayajonlantiruvchi omillarga zaiflik ortishi kuzatiladi.

3-Reja. Qobiliyat haqida tushuncha.

Psixologiya fani qobiliyatlar bilan faoliyatning muhim jabhalari bo‘lmish bilim, ko‘nikma va malakalarning aynan bir narsa ekanligini rad etib, ularning birligini e’tirof qiladi. Shuning uchun qobiliyatlar faqat faoliyatda ro‘yobga chiqadi. Agar shaxs rasm solishga hali o‘rganmagan bo‘lsa, uning tasviriy san’atga nisbatan qobiliyatini namoyon qila olmaydi.

Bolalik davrida u yoki bu qobiliyatlarning atrof-muhitdagi odamlar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik xuddi ana shu qobiliyatlari tufayli jahonda munosib shon-shuhrat qozonishga musharraf bo‘lgan juda ko‘p allomalarning nomi olamga mashhur, chunonchi, Albert Eynshteyn (nisbiylik nazariyasi asoschisi), Nikolay Lobachevskiy (yangi geometriya yo‘nalishi asoschisi) va boshqalar o‘qishida genial olim bo‘lib voyaga yetishishiga hech qanday asos yo‘q edi.

Demak, qobiliyatlar deb shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiyatlarga aytiladi.

Qobiliyat sifat va miqdor jihatdan tavsiflanib, uning *sifat tavsifi* shaxsning qaysi individual-psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Uning *miqdoriy tavsifi* esa faoliyatga

qo‘yiladigan talablarga shaxs tomonidan qay yo‘sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildirib, ya’ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog‘lik tez, yengil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.



Qobiliyatlar sifatida ro‘yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o‘ziga xos tarzdagi ko‘rinishga ega. Bulardan ayrimlari haqida to‘xtalib o‘tamiz:

*Matematik qobiliyat*ga matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish-amallarni kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o‘rtasida aloqa o‘rnatish, to‘g‘ri va teskari fikr yuritishdan yengilga o‘tishlik, masala yechishda fikr yuritishning epchilligi kabilar kiradi.

Adabiy qobiliyat esa nafosat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko‘rgazmali obrazlarning jonliligi, “til zehni”, behisob xayolot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o‘zi ifodalashga intiluvchanlik va boshqalarni o‘zida ifodalaydi. Ajratib ko‘rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko‘rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o‘zaro bir-biriga o‘xshamagan talablari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, *pedagogik, tibbiy, musiqaviy, texnik*

qobiliyatlar va shunga o‘xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo‘lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Umumiy qobiliyatlar (sifatlar)ni maxsus qobiliyatlarga (sifatlarga) zid tarzda tushuntirish mumkin emas. Chunki shaxsning umumiy qobiliyatlari maxsus qobiliyatlarni hosil qiluvchi omillardan iborat. *Maxsus qobiliyatlar* ko‘lam jihatdan torroq bo‘lishiga qaramay, chuqurroq mohiyatni o‘zida mujassamlashtiradi.

Rus olimi I.P.Pavlov o‘z ta’limotida *“badiiy”, “fikrlovchi”, “o‘rta”* tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliy nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signal sistemasidan iboratligi to‘g‘risidagi ta’limotiga asoslanadi. Birinchi signallar va ikkinchi signallar sistemasi esa obrazlar haqida so‘zlar orqali signal berishdan iboratdir. Ikkinchi signallar sistemasi I.P.Pavlov tomonidan “signallarning signali” deb nomlangan edi. Ushbu tipologiyani osonroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

– shaxs psixik faoliyatida birinchi signallar sistemasining signallari nisbatan ustunlik qilsa inson *“badiiy”* tipga taalluqli bo‘lib, ular uchun bevosita taassurot, jonli tasavvur, yorqin idrok, his-tuyg‘ular (emotsiyalar) natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi xosdir;

– mabodo «signallarning signali» nisbatan ustuvor bo‘lsa – bu shaxs *“fikrlovchi tipga”* munosib bo‘lib, ular uchun, mavhum, mantiqiy tuzilmalar, nazariy mulohazalar va metodologik muammolarning ustunligi muvofiqdir;

– agarda har ikkala signallar aralashib ketgan bo‘lsa (birortasining ustunligi sezilmasa) – bu inson*”o‘rta tipga”* mansub odamdir.

– Psixologiyada ko‘proq qobiliyat tushunchasi aql-zakovat, ya’ni *intellekt* tushunchasi bilan bog‘lab o‘rganiladi.

Intellekt (lot. “intellectus” – tushunish, bilish, “intellectum” – aql) aql-idrokning shunday bo‘lagiki, uni o‘lchab, o‘zgartirib, rivojlantirib boriladi. Bu intellekt va u bilan bog‘liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta’sir ko‘rsatadi.

Govard Gardner “Intellektning xilma xilligi” nazariyasida intellekt bu turli-tuman qobiliyatlardan tashkil topgan shunchaki hodisa emas, balki aksincha intellektning har xil turlari ko‘p, ulardan har qaysisi o‘zicha muhim va boshqalardan mustaqil deb ta’kidlagan edi.

G.Gardner ta’kidlaydiki har bir odamda hech bo‘lmaganda VIII turi bor:

I. Og‘zaki-lingvistik intellekt sohibi o‘qishni yaxshi ko‘radi, so‘zlarni o‘zlashtirishi oson, katta so‘z boyligiga ega, ijod etishni yaxshi ko‘radi. Bunday intellekt shoirlarda, yozuvchilarda va notiqlarda kuchli rivojlangan bo‘ladi.

II. Mantiqiy-matematik intellekt hisoblashni va sonlar bilan ishlashni yaxshi ko‘radigan, mantiqiy masalalar va jumboqlarni yechishni, shaxmat o‘ynashni yoqtiradigan, o‘z tengdoshlariga nisbatan ko‘proq abstrakt darajada fikrlaydigan, sabab va oqibat aloqalarini tushunadigan shaxslarga xosdir.

III. Vizual - fazoviy intellektli odam ko‘rinadigan obrazlar bilan fikr yuritadi, xaritalarni, chizmalarni, diagrammalarni matnga nisbatan osonroq o‘qiydi,

fantaziyalarga berilishni va san’at bilan shug‘ullanishni yaxshi ko‘radi, yaxshi rasm chizadi, qiziqarli uch o‘lchovli modellarning konstruksiyasini ishlaydi, o‘qish paytida so‘zlardan emas, balki illyustratsiyadan ko‘proq axborot oladi. Intellektning bu turi ko‘z bilan ko‘rish tasavvuri, o‘zlashtirishi his-tuyg‘usi bilan bog‘liq bo‘lgan va predmetlarni ko‘rish orqali eslab qolish qobiliyati ichki aqliy obrazlarni yaratish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

IV. Motor-harakatli intellekt turi yuqori sport natijalarini ko‘rsatadi; imo-ishoralarni, mimikasini, boshqalarning qiliqlarini yaxshi o‘xshatadi; narsalarni qismlarga bo‘lishni va qaytadan yig‘ishni yoqtiradi; ko‘rgan narsalarning hammasini qo‘li bilan tegib ko‘radi; yugurishni, sakrashni, kurashga tushishni yaxshi ko‘radi, hunarlarga qobiliyati borligini namoyish qiladi.

V. Musiqaviy-ritmik intellektning bu turi musiqaga oid obrazlarni, atrofimizdagi tovushlarni o‘z ichiga olgan holda, bilishga va ritmni sezishga asoslangan. Bu tur ko‘proq kompozitorlarda, musiqachilarda, ashulachilarda va o‘yinchilarda rivojlangan.

VI. Shaxslararo intellekt tengdoshlari bilan aloqada bo‘lishni yaxshi ko‘radi, vaziyatlarda rahbar bo‘lib qoladi, boshqa bolalar bilan o‘ynashni va ularga o‘rgatishni yoqtiradi, birga qayg‘ura oladi, boshqa bolalar uning davrasiga intilishadi.

VII. O‘z-o‘ziga yo‘nalgan intellekt sohibi mustaqillik - iroda kuchi tuyg‘usini namoyish qiladi, o‘zining ijobiy tomonlarini va kamchiliklarini haqiqatdan ham tan oladi, unga hech narsa xalaqit bermagan paytda vazifalarni yaxshi bajaradi, o‘zini tuta oladi, yolg‘izlikda ishlashni afzal ko‘radi, o‘z his-tuyg‘ularini aniq ta’riflab beradi, o‘z xatolaridan saboq oladi, o‘z qadrini biladi.

VIII. Tabiatga yo‘nalgan intellekt tabiat hodisalari, hayvonlar, o‘simliklarga qiziqishini ko‘rsatadi, tabiat dunyosini tushunish, atrofdagi muhitning belgilari va xususiyatlarini ajrata olish, klassifikatsiyalash qobiliyatini namoyon qiladi.

Demak, shaxsning u yoki bu faoliyatiga tayyorligi tariqasida yuzaga keladigan har qaysi yaqqol intelektlar tuzilishi o‘z tarkibiga yetakchi va yordamchi, umumiy va maxsus nomdagi majmua sifatlarni qamrab olgan bo‘lib, murakkab tizimdan iborat ekan.

Talant qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi ekanligidan dalolat beradi. *Talant (yunon. “talanton”- qimmatbaho, noyob narsa, irsiy, tabiiy xislat)* muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta’minlaydigan qobiliyat hamda iste’dodlar majmuasidir.

Talant – katta, ijodiy va zo‘r mehnat mahsuli bo‘lsa, mehnat esa hayotiy tajriba, ko‘nikmalarning zaruriy majmuasi manbaidir. *Ijodiyot*ning sharti esa hayotiy tajriba, zaruriy ko‘nikma va malakalar yig‘indisining mavjudligidir. Ijodiy faoliyat talantning ajralmas qismi hisoblanib, bunda *ruhlanish* deb nomlangan psixologik holat alohida ahamiyat kasb etib, bunda ruhlanish faoliyat mahsuldorligi ortishiga qaratilgan ijodiy lahzadan iborat holatdir. Talant imkoniyat tariqasida psixologik hodisa hisoblansa, u holda *mahorat* – haqiqatga aylangan imkoniyat gavdalanishidir. Psixologik nuqtai nazardan haqiqiy *mahorat* – bu shaxs talantining faoliyatda namoyon bo‘lishidir.

Layoqat esa qobiliyatning tabiiy zamini sifatida faoliyatda muhim rol o‘ynaydi. *Layoqat* deb qobiliyatlar taraqqiy etishining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo‘ladigan miya tuzilishining, sezgi a’zolari va harakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlariga aytiladi.

Qobiliyat va layoqatlar muayyan tabiiy zaminga bog‘liq bo‘lsa-da, lekin ular faqat tabiatning in’omi emas, balki insoniyat tarixiy taraqqiyotining bebaho (qimmatli) mahsulidir. Xuddi shu bois qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi shaxslar tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish davomida ijtimoiy shartlangan bilimlar va ko‘nikmalarni tarkib toptirishning yaqqol usullariga bevosita bog‘liqdir. Mavzuga oid kuyidagi amaliy tavsiyalarni berishimiz mumkin.

PSIXOKORREKSION RIVOYAT

Hayotning har qanday muammoli holati va vaziyati uchun sharq xalqlarida rivoyatlar, hadislar, donishmandlarning hikoyalari, masallari mavjud bo‘lib, ular muayyan muammoli-psixologik holatlarda korreksion ta’sirga ega bo‘lishi mumkin. Psixologik konsultatsiya jarayonida shunday rivoyatlardan va korreksion voqelikni mujassamlashtirgan matnlardan foydalanish psixoterapevtik mashg‘ulot sifatida samarali hamdir. Jumladan aytib o‘tish joizki: psixolog bir necha savollarni bir rivoyat bilan yechimini taklif qilishi mumkin, mijozga (o‘smir o‘quvchiga) kuchli u kutgan va ehtiyojmand bo‘lgan “yo‘lni ko‘rsatishi mumkin”, shuningdek, berilgan psixokorreksion rivoyat mijozni himoya mexanizmlarini buzib, uni o‘ylantirgan muammolar yechimini va talqinini beradi. Rivoyat aytib berilayotgan jarayonning o‘zida mijozda refleksiya va o‘zini o‘zi tahlil qilish jarayoni bilan korreksion jarayon uyg‘unlashib ketadi.

Bu metoddan foydalanishda psixologdan ijodkorlik, kuchli dunyoqarash va katta psixokorreksion rivoyatlar bazasi kerak bo‘ladi. Aytish joizki, har qanday sharq xalqlari rivoyatlari va hikoyalarini tematik ro‘yxatini tuzib ulardan korreksion faoliyatda foydalanish mumkin. Bunda Yusuf Xos Xojib, Jaloliddin Rumiy, Imom G‘azzoliy asarlariga murojaat qilish mumkin. Ayniqsa hozirgi kunda ulug‘ allomalarimizning hamda xalq og‘zaki ijodining namunalari bo‘lgan odob-axloq, tarbiya, xush-xulq to‘g‘risidagi rivoyatlari va hikoyalari jamlanmalari kichik kitobchalar shaklida juda ko‘p miqdorda nashrdan chiqmoqda. Quyida xulqi og‘ishgan o‘quvchilar uchun psixologik korreksion va rivojlantiruvchi ishlarni olib borishda psixokorreksion rivoyatlardan foydalanishni amaliy jihatdan ochib berganmiz. Amaliyotchi psixologlarimiz ham shu tarzda turli rivoyatlardan amaliy faoliyatda foydalanishlari mumkin.

“MIXLAR HAQIDA RIVOYAT” trening mashg‘uloti.

Mashg‘ulot tavsiya etiladigan holatlar: guruhiy psixokorreksion faoliyatda hamda individual psixokorreksion faoliyatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib emotsional-hissiy sohadagi buzilishlarni, qadriyatlar tizimida yuzaga kelgan buzilishlarni (agressivlik, bezovtalik), xarakter aksentuatsiyasini psixokorreksiya qilishda.

Trener quyidagi rivoyatni o‘qib beradi:

Bitta kichik shaharchada bir yosh yigit yashar ekan. U yigit juda jahldor, jahli tez, odamlarning kichik ayblari uchun ularni haqoratlab, gohida atrofdagilariga baqirib tashlar, hayotdan alamzada ekan. Ichidan kechayotgan his tuyg‘ularini umuman boshqara olmasligi, o‘zini nazorat qila olmasligidan tajovuzkor va zulmkor insonga aylana boshlabdiki, uning qo‘ni-qo‘shnilari, atrofdagilar undan shikoyat qila boshlabdilar. Buni payqagan uning keksa lekin donishmand otasi o‘g‘lini yoniga chaqirib nasihat qilibdi va unga har vaqt yigitning yana jahli chiqsa, o‘zini nazorat qilishi qiyin bo‘lsa, kimnidir haqorat qilish holatiga tushib qolsa, alamzadalik zulm hislari chulg‘ab olsa hovli chetidagi katta chinorni ko‘rsatib unga uzun bir mixni qoqishni buyuribdi. Yigit otasini ko‘rsatmasini bajara boshlabdi, vaqt o‘tib yigitdan odamlar shikoyat qilmay qo‘yishibdi, chunki yigit ancha o‘zini nazorat qilishni o‘rganib olgan edi. Shunda ota yigitni o‘z oldiga chaqirib ikkinchi ko‘rsatmasini beribdi. Endi yigit har gal o‘zini biror bir keskin vaziyatda o‘zini boshqara olsa uyga kelib daraxtdan bitta mixni sug‘urib tashlashi kerak edi. Yana ma’lum vaqt o‘tibdi. Ota qarasaki daraxtda bironta ham mix qolmabdi. Shunda ota o‘z o‘g‘lini chinor yoniga chaqirib uning kamolot yo‘lida ekanligini aytibdi va uni maqtabdi. Lekin so‘zi oxirida quyidagi gapni ta’kidlabdi: “O‘g‘lim chinor bag‘ridagi ushbu mix izlari sening insonlar qalbida va o‘zingning ruhiyatingda qoldirgan og‘riqli izlaringdir, garchi sening qilmishlaring mixlarni yulib olib tashlaganing kabi unut bo‘lgandir, biroq izlar qolgan”.

Rivoyat trener tomonidan aytib berilgach, ishtirokchilardan olgan xulosa va taassurotlari hamda jaxldorlik, qo‘pollik kabi boshqa yomon xulq namunalari, illatlar salbiy tomonlari va oqibatlari to‘g‘risida so‘raladi? Shuningdek, ushbu rivoyat hikmatini doimo esda saqlash tavsiya etiladi. Qo‘shimcha ravishda, kichik aqliy hujum mashg‘ulotini amalga oshirish ham mumkin, bu “Agar shunday jahldor hayotdan alamzada insonni uchratsangiz unga nima maslahat bergan bo‘lardingiz?” degan savol bilan amalga oshiriladi hamda o‘quvchidan shaxsiy fikri (maslahati)ni aytish so‘raladi, agar mashg‘ulot guruhda bo‘lsa guruh bo‘ylab o‘quvchilar fikrlarini bildirishlari kerak yoki kichik guruhlarda ishlash orqali, har bir guruh shu masalada tavsiyalar jamlanmasi asosida guruh taqdimotini ham qilishi mumkin.

“BO‘LAKLARNI TOP” METODIKASI.

Maqsad: maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqat, hayol va tafakkur jarayonlarini rivojlanganlik darajasini aniqlash va rivojlantirish.

Metodika jihozi: turli predmetlar va mevalar rasmlari chizilgan rasm va rasm bo‘laklari.

Metodikani o‘tkazish tartibi: bu metodika 5-6 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, individual yoki kichik guruxda olib borish mumkin.

Ko‘rsatma: bolaga oldindan tayorlab qo‘yilgan rasm va alohida kesilgan rasm bo‘laklari chizilgan jadval beriladi. Namunada berilgan rasmlarda pastdagi jadvaldan mosini tanlang va qalam bilan birlashtiring. Topshiriqni bajarishga 30-40 soniya vaqt ajiratiladi.

Natijalarni baholash.

Har bir to‘g‘ri javob uchun 2,5 balldan jami 10 ball beriladi.
10 ball – bola 30 soniya davomida 4 ta bo‘lakni to‘g‘ri birlashtirsa.
7,5 ball – bola 30 soniya davomida 3 ta bo‘lakni to‘g‘ri birlashtirsa.
5,5 ball – bola 40 sonya davomida 2 ta bo‘lakni to‘g‘ri birlashtirsa.
2,5 ball- bola 40- soniya davomidabo‘laklarni to‘g‘ri birlashtirsa.

Rivojlanganlik darajasi.

10 ball - bolaning diqqati, hayol va tafakkuri yuqori,
7,5 ball – bolaning diqqati, hayol va tafakkuri yaxshi,
5,5 ball- bolaning diqqati, hayol va tafakkuri o‘rta,
2.5 ball – bolaning diqqati, hayol va tafakkuri past. Bunday bolalar korreksion guruxlarga tavsi etiladi.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1.Xarakter xislatlari qanday guruhlarga bo‘linadi?
2.Xarakter aksentuatsiyasi nima va uning qanday tiplari mavjud?
3.Qobiliyat to‘g‘risida umumiy tushuncha bering?
4.Qobiliyatning qanday turlarini bilasiz?

Test savollari:

№1.
Shaxsning individual psixologik xususiyatlariga nimalar kiradi?
Xarakter, temperament, qobiliyat
Sezgi, xarakter, qobiliyat
Temperament, diqqat, ko‘nikma.
Malaka, xarakter, xayol

№2.
Jonli organizmning yorug‘lik ta’siri ostida xarakatlanish tendensiyasi nima deyiladi ?
Fototropizm
Taksizlar
Potropizm
Termotropizm
№3.
Xemotropizm nima ?
Muayyan fizikaviy-kimyoviy muxitni tanlash tendensiyasi
O‘ziga xos xarakatlar bilan javob berish usullari
Issiqlik ta’siri oyida xarakatlanish tendensiyasi
Mexanik usul bilan qo‘zg‘atuvchining ta’siri ostida xarakatlanish
№4.
Tashqi real xarakatdan ichki timsoliy xarakatga o‘tish jarayonini nima deb ataladi?

Interiorizatsiya
Temperament
Qobiliyat
Xarakter
№5.
Qobiliyatlar psixologiyasi yo‘nalishi tarafdorlari kimlar edi?
Xristian Volf, Tomas Rid
David Gartli, Xristian Volf
Vilgelm Vunt, Tomas Rid
Stenli Xoll, Djon Lokk

PSIXOLOGIYA FANI BO‘YICHA QO‘SHIMCHA MATERIALLAR:

INSON HAYOTI VA FAOLIYATINI O‘ZGARTIRUVCHI ASOSIY PSIXOLOGIK OMILLAR.

Jahon psixologiyasida xulq-atvor, muomala va faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlovchi omillarning eng muhimi tariqasida insonning emotsional hayoti yotishi aksariyat nazariyotchi psixologlar tomonidan ta’kidlab o‘tiladi. Bu talqinning haqqoniyligiga hech qanday e’tirozlar bo‘lishi mumkin emas, chunki mazkur omil eksperimental psixologiyaning mustaqil soha sifatida vujudga kelishidan e’tiboran ustuvor, dalil taqozo qilmaydigan atribut singari tadqiqot predmeti mohiyatiga singib ketgan. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, inson muomalasining, xulq-atvorining kechishi, faoliyatining muvaffaqiyatli, sermahsul yakunlanishi ko‘p jihatdan shaxsning emotsional holatlariga (emotsional ton, kayfiyat, stress, affekt va hokazo), izohlanishi murakkab bo‘lgan ruhiy kechinmalarga, yuksak his-tuyg‘ularga bog‘liq.

O‘yin, mehnat, o‘quv, muomala va boshqa faoliyat turlarining muvaffaqiyatli kechishi, shaxslararo munosabatlarda xulq-atvorning namoyon bo‘lishi ijobiy psixologik holat sifatida baholansa, emotsiya va hissiyotning barqaror, maqsadga yo‘nalgan tarzda hukm surish ehtimoli e’tirof etiladi. His-tuyg‘ularning mustahkamligi, barqarorligi, mukammalligi sifatlarining mavjudligi ularning dinamik stereotiplar tipiga aylanganligidan dalolat beradi, faoliyat va xulqning shaxs tomonidan ongli ravishda boshqarish uslubi shakllanganligini bildiradi. Tabiatning tarkibiy qismlari va jamiyatning a’zolari bilan turli shakldagi, har xil xususiyatli munosabatga kirishishi, ular bilan muomala qilish maromlarining davriy (muvaqqat tarzda) o‘zgarishni vujudga keltiradi. Ana shu o‘zgarish tufayli muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik, omad va omadsizlik, optimizm va pessimizm, romantika va realiya, simpatiya va antipatiya, progress va regress, jo‘shqinlik va tushkunlik, faollik va sustlik kabi birinchisi ijobiy (pozitiv) ikkinchisi esa salbiy (negativ) ruhiy hodisa kelib chiqadi. Faoliyat va xulqning amaliyotda bir tekis kechishini ta’minlovchi emotsional holat barqarorligining buzilishi unga qiyos qilingan muvaffaqiyatning birlamchi omili to‘grisidagi ilmiy ma’lumotlarni shubha ostida qoldiradi. Binobarin, jamiki narsaningboshlang‘ich asosi, manbai emotsiya degan g‘oyani, uning qiymatini umumiy fonda birmuncha qadrsizlantiradi, lekin ikkinchi darajali omilga aylantirib yubormaydi. Omillarning bir-lamchi va ikkilamchi, ustuvor va yetakchi, umumiy va xususiy, ob’ektiv va sub’ektiv, muhim va nomuhim mezonlar, alomatlar, o‘lchamlar yordami bilan baholanishi ushbu psixologik masala mohiyatini oqilona tal-qin qilish zaruriyatini vujudga keltiradi. Holbuki shunday ekan, ularning mohiyatini, keltirib chiqaruvchi sabablarini, harakatlantiruvchi kuchlarini muayyan dalillarga asoslanib tahlil qilish mu-ammosi maydonga keladi.

Inson faoliyati va xulqini muayyan qonuniyatlarga asoslangan holda amalga oshishi ham ob’ektiv, ham sub’ektiv shart-sharoitlarga bog‘liq. Tabiiy omillarni keltirib chiqaruvchi ob’ektiv (tashqi) shart-sharoitlar, ya’ni mikro va makro muhit, moddiy borliq, yordamchi vositalarning mavjudligi, ularning yuksak talablarga javob bera olish imkoniyati, tashqi qo‘zg‘atuvchilarning bezararligi, vaqt va fazoviy o‘lchovlarning muvofiqligi, mutanosibligi kabilardan tarkib topadi.

Xulq va faoliyatning namoyon bo‘lishi uchun tabiiy shart-sharoit-lar tizimi yaxlit holda ishtirok etishi, ularning muvaffaqiyatini ta’minlovchi omillar majmuasi tariqasida xizmat qilishi mumkin. Tabiiy shart-sharoitlardagi to‘kislikdan tashqari ayrim yetishmovchiliklar va uzilishlarning sodir bo‘lishi nuqsonlarni keltirib chiqaradi, buning oqibatida ruhiy kechinmalar faolligi, ildamligi, maqsadga yo‘nalganligi buziladi.

Tabiiy shart-sharoitlar muhit ta’sirida, inson ruhiy olamida bir qator keskin ham sifat, ham miqsor o‘zgarishlari vujudga keladi, ular yangilanishlarda, yangi fazilatlar, xislatlar tug‘ilishida namoyon bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, tabiiy mu-hitningtarkibi bo‘lmish geofafik muhit bu borada muhim rol o‘ynaydi, ko‘pincha u, birinchidan, biologik shartlangan shaxs sifatlariga ta’sir etib, fenotiplarni genotiplarga aylantiradi (hududiy muhit, relef, stixiya kutilishi: zilzila, qor ko‘chkisi, dovul, suv tosh-qini, oyoq yetmas qorli tog‘lar va hokazo). Ikkinchidan, ontogenezda shaxs xarakterologik xususiyatlarining tabiiy ravishda shakllanishiga ta’sir o‘tkazadi, shuning bilan birga mikro muhit bilan genlar, irsiy belgilar, alomatlar o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlab turuvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Ob’ektiv (tabiiy) shart-sharoitlardan tashqari, inson omili bilan uzviy bog‘liqligi sub’ektiv (shaxsga oid, uning qiyofasiga bog‘-liq) shart-sharoitlar muomalaning, faoliyatning, xulqning ijtimoiy turmushda samarali amalga oshishini uzluksiz ravishda ta’minlab turadi. Sub’ektiv shart-sharoitlarning qatoriga shaxsning barqarorligi, xarakterning mustahkamligi, ehtiyoj, motiv, maslak, salohiyatning puxtaligi, o‘zini o‘zi boshqarish uslubining qat’iy ravishda shakllanganligi, biologik shartlangan xislatlar esa o‘zaro uyg‘unlashganligi kabilar kiradi.

Odatda, ob’ektiv (tabiiy) va sub’ektiv (shaxsga oid) shart-sharoitlardagi o‘zgarishlar tufayli ijobiy (pozitiv) yoki salbiy (negativ) xususiyatli psixologik holatlar, hodisalar, xislatlar, kechin-malar ustuvorligi yuzaga kelib, moddiy asos funksiyasini bajaruv-chi oliy nerv faoliyatini, markaziy asab tizimining ritmikasini, ishchanlik qobiliyatini pasaytiradi. Buning oqibatida faoliyat, xulq va muomala amalga oshishida odatiy sa’y-harakatlar, operatsiyalar, maromlar buzila boshlaydi, favqulodda asabiylik, ruhiy nuqsoniy-lik, qonuniyatdan chetga og‘ishlik, noxush kechinmalar hokimligi yetak-chilik qiladi. Xuddi shu sababdan, faoliyat, xulq va muomalaning muvaffaqiyati shubha ostida qolishi mumkin, chunki mahsuldorlik, sobitqadamlilik, maqsadga yo‘nalganlik sifatlarining dominantligi yo‘qoladi, natijada ushalmagan ezgu niyatlar armon tariqasida yuksak his-tuyg‘ular safida davriy hukm surishda davom etaveradi.

Insonning tabiatga va jamiyatga nisbatan munosabati tasodiflarsiz, favquloddagi vaziyatlarsiz amalga oshishi mumkin emas, chunki ehtimollar darajasidagi kutilishning yo‘kdigi rejasiz vaziyatlar-ni shaxsning idrok maydonida keltirib chiqaradi. Hayot va faoliyat strategiyasi va taktikasining ekstremal tarzda o‘zgarishi individu-al va ijtimoiy xususiyatli vaziyatlarning paydo bo‘lishiga olib ke-ladi. Vaziyatlar stixiyali, xaotik (betartib, tasodif) xatti-harakat-larni vujudga keltirib, tekis, odatiy, davriy, barqaror xususiyat-lar ritmikasini izdan chiqaradi, natijada insonning motivasion, emotsional, kognitiv, regulyativ, xulqiy, irodaviy tuzilishi tar-kiblarining funksiyasi buziladi. Shaxs tuzilishiga favquloddagi vaziyatlarning ichki larzasi faoliyat, xulq va muomalaning onglilik holatidan ongsizlikka o‘tishini taqozo etadi, binobarin, muvaffa-qiyatsizlik realiyaga aylanadi.

Xo‘sh, nima uchun shaxs tasodiflarning oldini olishga tayyor emas yoki ko‘pincha u bu borada kuchsizlik, ojizlik qiladi?

Ushbu muammo yechimini juda sodda tarzda hal qilish ham mumkin: shaxs ongli zot, yaratuvchilik qudratiga ega bo‘lishidan qat’i nazar - u tabiatning tarkibiy qismi, instinktlar, shartsiz ref-lekslar ta’siriga beriluvchandir;

shaxsning tana a’zolari (organizmi) favquloddagi hodisalar va vaziyatlarga moslashgan emas (stixiya, halokat, tasodif, stress, affekt, xavf-xatar - risk);

shaxs komillik darajasiga erishmaganligi tufayli sababiy bog‘lanish oqibatlarini, fobiya bilan bog‘liq his-tuyg‘ularni oldindan sezish, payqash, ularga nisbatan aks ta’sir berish imkoniyati yo‘q;

shaxsda ikkinchi qiyofaning shakllanmaganligi (test, trening, trenirovka bilan qurollanmaganligi) uning xavf-xatar qurboniga aylantirishi shubhasiz.

Jahon psixologiyasi fanining ma’lumotlariga qaraganda, muvaf-faqiyatsizlikdan hech kim himoyalangan emas, chunki ijtimoiy immu-nitet juda kuchsiz aksil ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Ma’lumki, jismoniy, axloqiy va aqliy barkamollik tub ma’nodagi komil inson to‘g‘risida mulohaza yuritishga imkon beradi vatarkiblarning to‘la mutanosibligi, uyg‘unlashganligi, o‘zaro taqozo etuvchanligi asosiy mezon vazifasini bajaradi. Komillik darajasi sub’ektning ma’naviy dunyosiga aylanmas ekan, u taqdirda hech kim tasodiflar, favquloddagi vaziyatlar shaxs tomonidan odatiy hodisa sifatida osoyishta qabul qilinmaydi.

Muvaffaqiyat garovi (kafolati) funksiyasini bajaruvchi omillarning genezisi to‘g‘risidagi fikr yuritilganda, eng avvalo, ularning birlamchiligini, asosiy manba ekanligini nazarda tutish na-zariy hamda metodologik muammolar yechimini oqilona topishga puxta negiz hozirlaydi, boshlang‘ich harakat nuqtasini belgilab berish-ga xizmat qiladi. Nazariy mulohazalarga binoan, faoliyat, xulq va muomalaning bir tekis, samarali kechishi genetik nuqtai nazardan quyidagilarga bog‘liq:

Ob’ektiv (tabiiy) va sub’ektiv (shaxsga oid) shart-sharoitlar mavjudligiga. Ob’ektiv va sub’ektiv shart-sharoitlar hukm surishini o‘zgartiruvchi tasodifiy va favquloddagi vaziyatlar ta’sirchanligiga, ustuvorligiga. Emotsiya va hissiyotning ijobiy (pozitiv), salbiy (negativ) xususiyat kasb etishiga.

Insonning shaxslilik va xarakterologik xususiyatlarining barqarorligiga (beqarorligiga). Shaxsning komillik darajasiga erishganligiga va hokazo.

Shaxsning hayot va faoliyatda muvaffaqiyatga erishish, maqsadga muvofiq sa’y-harakatlarni unga yo‘naltirish uchun quyidagilarga e’tibor qilish zarurlarning zaruratidir:

ob’ektiv va sub’ektiv shart-sharoitlar o‘zgarsa, ularga tuza-tishlar (korreksiya) kiritishga tayyorgarlikka;

favquloddagi vaziyatlarga ko‘nikish uchun shaxsga trening yorda-mi bilan ta’sir o‘tkazishga, unda ikkinchi qiyofani shakllantirishga;

organizmning har qanday stixiyalarga chidamliligini orttirishga;

komillikka intilish his-tuyg‘ularini takomillashtirishga;

shaxs imkoniyatlarini ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashishga (o‘zini o‘zi kashf qilish, o‘ziga o‘zi buyruqberish, o‘zini o‘zi takomillashti-rish, o‘zini o‘zi baholash, o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zini o‘zi bosh-qarish, o‘ziga o‘zi taskin berish, o‘zini o‘zi qo‘lga olish va hokazo).

Inson hayotini va faoliyatini o‘zgartiruvchi asosiy omillar mav-jud bo‘lib, ular muayyan darajada shaxsning ta’siriga beriluvchan-dirlar.

SHAXSNING PSIXOLOGIK TUZILISHI MODELLARI TAHLILI.

Psixologiya fanida sistemali yondashuvga oid tadqiqotlarning ko‘rsatishiga qaraganda, har qaysi tizimning tavsifi sifatida uning tuzilishi qabul qilinadi. Odatda, ya’ni struktura - bu ob’ektning bir qator tarkiblari o‘rtasidagi uning yaxlitligi, o‘ziga o‘zining ayniyatlashuvini ta’minlovchi barqaror ichki aloqalar majmuasidir.

Biz shaxs strukturasi, ya’ni tuzilishi muammosini bayon, talqin qilishda tayanch va jabha, komponent tushuncha tariqasida yaxlit tuzilishning nisbiy mustaqil qismidan, taxlilning birligi sifatida element tushunchasidan (atamasidan), har qanday kontekstlardan yax-litlik xususiyatini aks ettirmasa ham ulardan foydalanamiz. Bun-day tafovut (farq) shaxs xususiyatlarini yaxlit holda mukammal ochish uchun tarkibiy tizimli va elementli-tizimli darajalarini namoyon etish uchun mutlaqo zarur.

Shaxsning tuzilishi to‘g‘risidagi muammo o‘zining dolzarbligi bilan fanningtadqiqot doirasidan, predmetidan tashqari chiqadi. Shaxs tuzilishiga oid ilmiy tasavvurlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi yaxlit nazariyaning zaruriy sharti hisoblanib, insonning ijtimoiy mohiyati qirralarini ochish imkoniyatiga egadir. Xuddi shu boisdan psixologiyaga falsafa, pedagogika, tibbiyot singari fanlarning na-moyandalari tomonidan uni muhokama qilish namoyon bo‘layotganligi tufayli unga qiziqishning yuksakligidan dalolat bermoqda.

Psixologiya fani shaxs strukturasining modelini yaratishga bosh-qa fanlardan izchilroq kirishadi, uning tabiatini aks ettirish imkoniyatiga erishadi, natijada u psixologiya muammolari majmuasida markaziy o‘rin egalladi. Psixologiya olimlari tomonidan tad-qiqot qilinayotgan dolzarb muammolar bilan shaxs tuzilishiga oid masala u yoki bu jabhasi orqali uzviy bog‘liqlikka ega. Bu kontekst-da xulq motivatsiyasi, shaxsning tipologiyasini ishlab chiqish, shaxsga ta’sir o‘tkazishning samarali yo‘l-yo‘riqlarini qidirishni esla-tib o‘tishning o‘zi kifoya.

Psixologiya fanida shaxsga strukturaviy yondashish bo‘yicha eng salmokli ilmiy izlanishlar amalga oshirilganligi qonuniy holat bo‘lib, xilma-xil shaxs strukturasining modeli yaratilganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Bu borada B.G.Ananevning fikricha, psixologik hodisalarni akl (intellekt), hissiyot (emotsiya) va irodaga aj-ratilishi inson psixologiyasida strukturaviy yondashish tajribasining dastlabki ko‘rinishi bo‘lib, uning haqchilligi ko‘pgina psixologlar tomonidan tan olinishidir. B.G.Ananev strukturaviy yonda-shishning boshqa variantlari tariqasida turlicha psixik hodisalar bilan qarama-qarshi aloqalarning e’tirof etilishi - psixik akt-larning psixik funksiyalar, ongning ongsizlik, tendensiyalarning potensiyalar bilan uyg‘unligini ta’kidlaydi. L.S.Vigotskiyning mulohazasiga ko‘ra, insonning psixik funksiyalarini yuksak, mada-niy, quyi, tabiiy turlarga ajratishni kiritish mumkin, chunki ularning negizida ta’lim bilan insonning oliy nerv faoliyatida birinchi va ikkinchi signallar sistemasi o‘zaro ta’sirining ifodala-nishi yotadi.

Hozirgi davrda psixologiya fanida psixologik hodisalarni psi-xik jarayonlarga, holatlarga, shaxsning xususiyatlariga ajratish qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvning mavjudligi B.G.Ananev tomonidan strukturaviy konsepsiyaning bir tajribasi sifatida qaraladi. Bu voqelik «hodisalarni bir qator jabha-lari bilan to‘ldirishga intilish psixofiziologik xususiyat kasb etib, psixik jarayonlar uchun dastlabki materiallarni to‘plash imkoniyatini (idrok, tafakkur, emotsiya, iroda) beradi». Uning fikricha, dastlabki materiallar, bir tomondan, psixik funksiyalar (sensor, mnemik), xulqning, ikkinchi tomondan, elementar motivlari (ehtiyoj, ustanovka) hisoblanadi. Olimning mulohazasicha, bu qo‘shimchalar «genetik ma’no kasb etib, fiziologiyadan miya mexanizmlarini umumpsixologik va neyrogumoral regulyatorlarini qamrab olish psixologiyaga o‘tishga imkon beradi». Lekin ushbu strukturaviy yondashuvning maxsus psixologik deb qarashdan qat’i nazar, hozirgi zamon sintetik insonshunosligi uchun umumiy ahamiyatli jihatni yuksaklikka ko‘tarishga qodir emas.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan psixik hodisalarning turli ko‘rinishlarini fenomenlarga ajratishning qonuniyligi bo‘yicha bahs yuritmasdan turib, jumladan jarayonlarga, holatlarga, xususiyatlarga bo‘linishdan ko‘z yumib, ushbu kategoriyalar, ularning turlicha talqini shaxs strukturasining tarkibiy qismlariga tenglashtirish mumkin emasligini qayd etish zarur. Chunki ular sof psixologik asnoda vaqt va fazo o‘lchami bo‘yicha aniqlikka ega emasdirlar. Shuning uchun B.G.Ananev tomonidan kiritilgan ilmiy qo‘shimchalar umumpsixologik vaziyatni keskin o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lmasa-da, uning ayrim tomonlarini to‘ldirishga ega.

Shaxs tuzilishining modelini ishlab chiqishdagi muhim qiyinchiliklarning eng asosiy sababi har xil nuqtai nazarlar mavjudligida yorqin namoyon bo‘ladi, ular «shaxsningtuzilishiga ko‘ra, substansional va ideal, irsiy va egallaganlik, ijtimoiy va psixologik, somatik va psixologik tomonlariga ega» (V.M.Banshikov). Mu-lohazadan ko‘rinib turibdiki, bunda shaxsning «substansional to-moni»ni irsiy, turmushda egallaganlik, somatik jabhalar bilan taqqoslaganda mustaqil strukturaviy tarkib sifatida alohida reallikka ega emas. Bunday talqin biron-bir psixologik hodisani turlicha nuqtai nazardan izohlash bilan bog‘liqbo‘lib, yakkahol, ya’ni individual voqelik (reallik) ustida gap borayotganligini bildiradi.

Psixologiya fanida qo‘llanilib kelinayotgan va nisbatan barqarorlashgan shaxsni yo‘nalganlikka, temperamentga, xarakter va qobiliyatlarga bo‘lish yetarli darajada keskin e’tirozlarga sabab bo‘layotgani yo‘q. Shuninguchun ko‘pgina psixologlar umumiy tizimning maj-muasini tashkil qiluvchi murakkab xususiyatlarning tuzilishi sifatida qaraydilar va shaxsning yaxlit tavsifini ifodalaydi, deb tu-shunadilar. A.G.Kovalevning fikricha, temperament tabiiy (irsiy) xususiyatlarning tizimini bildirib keladi, yo‘nalganlik - ehtiyoj, qiziqish, ideallar tizimi, qobiliyatlar - intellektual, irodaviy va emotsional xislatlar ansambli, xarakter - xulq-atvor usullari-ning va munosabatlarining sintezidir.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, shaxsning murakkab tuzilishga ega bo‘lgan ko‘p qirrali xususiyatlari, fazilatlari, xislatlari o‘zaro bir-birlarining ichiga singib ketganligi natijasida tabiiy, emotsional ehtiyojlar, munosabatlar, xulq-atvor usullari to‘g‘ri-sidagi mulohazalar umumlashmalar umumlashmasidir. Chunki qiziqishlar va ideallarni intellektual, emotsional, irodaviy xususiyatla-risiz tasavvur qilish mumkin bo‘lmaganiday, munosabatlar va xulq-atvor usullari ham alohida hukm surishi g‘ayritabiiy holatdir.

B.D.Pariginning fikricha, shaxsning statik tuzilishga quyida-gilar kiradi:

umuminsoniy psixologik xususiyatlar;

milliy, kasbiy, iqtisodiy, siyosiy, sinfiy birlikka aloqador ijtimoiy o‘ziga xos xususiyatlar;

shaxsning individual betakror xususiyatlari. Bizningcha, olim tomonidan ta’kidlab o‘tilgan xususiyatlarning har qaysisi shaxs psixikasida mavjud bo‘lib, ular alohida xislatlar guruhi ko‘rinishiga ega emasdirlar.

Yuqorida tahlil qilingan modellarning hech qaysisi sistemali yondashuv doirasidagi hozirgi zamon shaxs strukturasi to‘g‘risidagi modelga mos kelmas edi. Ushbu modellarning tarkib (jabha)larida nisbiy mustaqil birlik xususiyati aks topmaganligi tufayli bir vaziyatda ular o‘zaro tobe elementlarga, ikkinchi hodisalarda esa takroriy xislatlar ko‘rinishiga o‘xshab ketadi. Shuningdek, shaxs tuzi-lishi umuman muayyan nazariy yoki amaliy ahamiyatga egatomon (jab-ha)lari bilan ajralibturmaydi. Shuninguchun ta’kidlangan hech bir model psixologik mohiyatini o‘zida aks ettiruvchi, jamiyat a’zosi sifatidagi insonning tipiklik va individuallik qiyofalarini tahlil qilishni ta’minlay olmaydi.

Uzoqchet el psixologlarining shaxs tuzilishining mohiyatini ochib berishga qaratilgan ko‘pgina yondashuvlari ham yuksak ko‘rsatkichlarga erishmaganligi tufayli bu masalani yoritish uchun keskin o‘zgarish kiritilmadi. G.Ollport, G.Myurrey, R.Linton, K.Rodjers, A.Mas-lou va boshqa olimlarning yaqqol shaxsning psixologik mohiyatini tushunchalar tizimi yordami bilan xaspo‘shlashi ijobiy izlanish tarzida o‘ziga tortadi, lekin unda shaxs «kundalik turmushimizda biz bilgan shaxsning aynan timsolidir», deb ta’riflanadi.

Mazkur ijobiy ezgu niyatlarni amaliyotda qaror toptirishga shaxs-ningtizimi tashkiliy tomonini baholay olmaslik va ichki omillar rolini bir tomonlama orttirish holati to‘sqinlik qiladi. Jumladan, R.Linton shaxs tuzilishini «individuumga aloqador psixik holatlar va hodisalar tashkiliy agregati», deb talqin qilishni tak-lif qiladi, buning natijasida ularning shunchaki yig‘indisi yuzaga keladi, xolos.

Tanikli AQSh psixologi G.Ollportning fikricha, shaxs «ichki tizim», «dinamik qurilma», «Men», «qandaydir metapsixologik Men» o‘zida oldindan maqsad va dispozisiyani aks ettiruvchi, inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qarortoptiruvchi jon-zotdir». Xuddi shu boisdan shaxsningsinfiy-tarixiy

jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o‘rnini psixologik talqin egallaydi chamamda.

Psixologlardan T.Parsons, G.Mid va boshqalar «shaxsning rolli tuzilishi» nomli konsepsiyani ishlab chiqib, odamningyaxlit sub’ektiv dunyosini, uning psixologik qiyofasini diqqat markazidan, idrok maydonidan chetda qoldiradilar.

Shunga qaramasdan, sobiq sho‘ro faylasuflari va psixologlari shaxsning strukturasiga biryokdama yondashishga barham berishga intildilar, uningjamiyatda bajaradigan rolini adolatli baholab, ij-timoiy, ijtimoiy-psixologik, psixologiktizimlarda rolning turli kontekstda maqsadga muvofiq bajarilishini ko‘rsatib o‘tdilar. Bu kontekstdagi asosiy yoki bosh muammo rollarni internalizatsiyalash-ningyaqqol psixologik mexanizmlari, ular bilan bog‘liqbo‘lgan normalari, rollar o‘rtasidagi psixologik farqlar, shaxs tuzilishida mustahkam joy olgan, unga nisbatan tashqi omillar; qo‘zg‘atuvchilar tarzida saqlanuvchilar hisoblanadi.

Chet el psixologiyasida olimlar diqqatini keyingi yillarda shaxs modelining psixologik omillari tortmoqda, ularning asosiy vari-antlari G.Ayzenk, R.Kettell konsepsiyalari bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur konsepsiyalar ko‘p yoki oz miqdordagi «omillar» (Ay-zenkda ular 2-3 ta, Kettellda esa 20 tadan ziyod)ga asoslangan bo‘lib, Ular muayyan darajada umumlashgan individuallikning yoki shaxsqiyofasini ifodalovchi, psixologik xususiyatlarni aks ettiruvchi ruhiy tizimni qayd qilishga suyanadi. Ammo tub ma’nodagi shaxs-ning psixologik konsepsiyasi ham individuallik qiyofalarini haqiqiy ijtimoiy-psixologik mohiyatini ochish imkoniyatiga ega emas, chunki xususiyatlarning qonuniy ravishdagi o‘zaro aloqalari tavsif qilinmay qolingan.

Ta’kidlangan paradoks sistemasi yondashuv pozisiyasi orqali izohlanishi mumkin, lekin yaxlit tizimning tavsifisiz ayrim komponentlarning mazmundor tasnifini amalga oshirish imkoniyati yo‘q. Darhaqiqat shuning uchun «insonning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yoki alohida psixologik tizimdan kelib chiqqan holda maj-mua» deb atashga suyanib ish yuritish orqali hech qanday «shaxs tuzilishi»ni yaratib bo‘lmaydi.

Shaxsning dinamik tuzilishidagi modellari sobiq sovet psixo-loglari taxmin qilgan qiyinchiliklarningoldini olish mazmunida ifodalangan.

B.D.Pariginning qat’iy asoslanib aytishiga ko‘ra, shaxsning di-namik strukturasining yetakchi (farklanuvchi) alomati yaqqol vaqt oralig‘iga bog‘likligi, shaxs faoliyati yoki psixikaning muayyan holatiga aloqadorligidir. Shaxsning dinamik strukturasining ikki asosiy jabhaga taalluqligiga, ya’ni psixik holatlarga va xulqqa ishora qilgan B.D.Pariginning mulohazasicha, shaxsning kayfiyati yoki psixologik jihatdan o‘zining tayyorgarlik xislati yuksak ahamiyatli yangilanishdir.

Olimningtalqiniga ko‘ra, psixologik tayyorgarlik - bu integral strukturaviy tuzilmadan iborat bo‘lib, muayyan vaqt oralig‘ida inson psixikasining jismli yo‘nalganlik darajasi va tonalligini tavsiflaydi. Psixologik tayyorgarlik o‘zining tuzilishi bo‘yicha uch xil jabhani qamrab oladi (konstantli, dolzarbli, vaziyatli) va faoliyatda muhim funksiyalarni bajaradi: a) muayyan vaqt birligida individ tomonidan qayta ishlanuvchi va idrok qilinuvchi barcha jo-riy axborotlarning akkumulyatori; b) inson faolligining tonizatori va regulyatori; v) faoliyat va axborotni qabul qilish ustanovka-si; g) shaxsning qadriyatga yo‘nalganlik omili hisoblanadi. Inson hayoti va faoliyatining u yoki bu lahzalarida psixikasining (kompo-nentlari) tarkibiy qismlari bilan sodir bo‘lishlikning psixik tayyorgarligi sintetik ravishda birlashgandir. Bu muammo parigin-chasicha, psixik tayyorgarlik psixik holatlarning dominantligi de-gan tushunchaga yaqinlashib qoladi. Vaholanki, shaxsning dinamik va statik tuzilishi munosabatini hisobga olmaydi, psixologik tayyor garlikning miqdoriy tavsifi yo‘llarini ko‘rsatib o‘tmaydi, nati-jada uning ko‘lami cheksizga aylanib qoladi.

K.K.Platonov tomonidan ilgari surilgan shaxsning dinamik funksional tuzilishi (strukturasi) katta qiziqish uyg‘otadi. Olim shaxs xususiyatlarining barcha boyligini qamrab oluvchi, ko‘p bosqichli modelini yaratishga intiladi. Shaxs tuzilishining elementlari bo‘lib, uning xossalari, xususiyatlari, qiyofasi hisoblanadi. K.K.Platonov shaxs tuzilishining turli tomonlari bilan o‘zaro aloqador to‘rt tuzilishga ajratadi:

Shaxsning axloqiy qiyofasi munosabati va yo‘nalganlik bir lashtiruvchi ijtimoiy shartlangan osttuzilish.

bu osttuzilishga aloqador shaxsning xislatlari tabiiy mayllarga bevosita bog‘liqligi yo‘q va tarbiyaviy yo‘l bilan shakllantiriladi;

tajribaning osttuzilishi; unga ta’limiy yo‘l bilan egallangan bilimlar, malakalar, ko‘nikmalar, odatlar kiradi, ammo bu narsa shaxs qiyofasining biologik shartlangan ta’siri ostida kechadi (K.K.Platonov).

shaxsning individual xususiyatlari bilan shartlangan ba’zi psixik jarayonlar (xotira tipi, emotsional harakat barqarorligi ko‘rsatkichi, mashqpanish yo‘li) bilan shakllantiriladi. Biologik shartlangan xususiyatlarning ta’siri yanada aniqroq ko‘zga tashlana-di;

Biologik shartlangan osttuzilish biopsixik xusussyatlarni, fazilatlar, temperament (shaxsning tipologik xususiyatlarini), jinsiy va yosh xususiyatlar, shuningdek, insonning patologik o‘zgarishini birlashtiradi. Bu osttuzilish mashklantirish orqali shakllantiriladi, miyaning morfologik va fiziologik xususiyatlariga bog‘liq. K.K.Platonovning fikricha, bu osttuzilishga shaxs qiyofasi (xususiyatlari)ning asosiy jabhalarini kiritish mumkin.

Qisqacha tahlil qilingan K.K.Platonovning shaxstuzilishiga oid konsepsiyasi (nazariyasi) keng ko‘lamdagi ta’lim va tarbiya amaliyoti bilan jips aloqasi tufayli o‘ziga tortadi. Ammo muallif bu borada shaxs va inson to‘g‘risidagi mulohaza yuritganda uning real xususiyatlari va holatlarini yaqqol ochib bermaydi. Ma’lumki, hozirgi za-monda bir-biridan sezilarli, deyarli farqlanuvchi talqinlar hukm surmoqda, kezi kelganda bahs predmetini sun’iy ravishda o‘zgarish Hollari uchrab turadi. Uning asarlarini o‘rganish jarayonida, shaxs tuzilishi to‘g‘risidagi mulohazalarda, shaxsning bu muammosi funksional psixologik - pedagogik jabha ekanligi oydinlashib boradi, trenirovka, mashqlanish, ta’lim olish yo‘li bilan unda u yoki bu xislatlar shakllantiriladi.

K.K.Platonov «shaxsning tomonlari va uning osttuzilishi» tushunchalarini sinonim sifatida qo‘llanilganligini ta’kidlab, uni quyidagicha izoxdab beradi: «Shaxsning moddiy jabhalari to‘g‘risida emas, balki funksional tomonlarining o‘zaro ta’siri to‘g‘risida gap boradi». Bundan ko‘rinib turibdiki, shaxsning komponentlari, uning xususiyatlari, tuzilishi nimani bildiradi, degan muammoga javob topib bo‘lmaydi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan hodisalarni (vaqtni fazoviy) baholash ontologik asnoda o‘z yechimini topa olmaydi. Chunki struktura yaxlit tuzilma bo‘lganligi tufayli u hech qachon jabha, tomon va jihatlarning shunchaki majmuasidan iborat bo‘lmasligi ravshan. Bino-barin, osttuzilish tushunchasini talqin qilishda umumiy qabul qilingan qoidaga ko‘ra nisbiy jihatdan mustaqil tarkiblardan tuzilganidan qat’i nazar, u bundan kengroq yaxlitlikning qismi bo‘lib hisoblanadi. Ana shu fikrdan kelib chiqqan holda quyidagilarni ko‘z o‘ngiga keltirish muvofiq: birinchidan, shaxsning ijtimoiy sifatlari o‘z xolicha hukm surmaydi, balki yaqqol nerv sistemasida qayd qilinadi, ya’ni tabiiy-biologik mexanizmlar yerdami bilan amalga oshadi. Ikkinchidan, biologik shartlangan shaxs sifatlarining aksariyati filo va ontogenezda bevosita ijtimoiy shart-sharoitlarning ta’siri ostida shakllanadi. Shuning uchun biologik shartlanganlikning ijtimoiylikdan ajratishni o‘zi o‘ta murakkab bo‘lib, amaliy jihatdan genotip bilan fenotip o‘rtasida demarkasion (fransuzcha sktagsagyup - qat’iy chegara) chiziq o‘tkazish mumkin emas. Uchinchidan, na biologik, na ijtimoiy shartlangan sifatlar, fazilatlar, xislatlar inson tomonidan egallanayotgan tajribadan tashqarida na-moyon bo‘lishi kuzatilmaydi. Shuningdek, insonning o‘zlashtiradigan bilimlari, malakalari, ko‘nikmalari, odatlarining o‘ziga xosligi uning shaxsidagi nuqsonlar kompensatsiyasi ko‘pincha axloqiy yo‘nalganlik va mayllarga bog‘liq. To‘rtinchidan, alohida olingan bilim jarayonlarining tipologik xususiyatlari bilan shartlangan shaxs fazilatlarini o‘zaro bir-biridan ajratib tahlil qilish ham g‘ayri-tabiiy holatdir. Yuqoridagi mulohazalarning barchasi shaxsda namoyon bo‘ladigan xislatlarida o‘z ta’sirini, izini qoldiradi.

Xuddi shu boisdan K.K.Platonov tomonidan tavsiya qilingan ost-tuzilishning tabiiy yaqqol shaxs tuzilmasi majmuasi sifatida qabul qilish o‘ta bahslidir. K.K.Platonov bo‘yicha shaxsning to‘rt «osttuzilish» jabhalari

hisoblanadi, chunki turli kontekstdagi ularning har qaysisiga shaxs fazilati tariqasida qarash va shunda uning in-tegral tizimini baholash mumkin.

V.S.Merlin ham shaxsning tuzilishi masalasiga alohida ahamiyat bergan olimlardan biri sanaladi. Uningcha, shaxsning qismlariga ajratib talqin qilinmaydigan jabha (komponent) - bu uning xis-latlaridir. Ularninghar biri muayyan yo‘nalganlik mohiyatini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, shaxs munosabatini aks ettiradi. Shunga binoan shaxsningtuzilishi deganda V.S.Merlin insonningo‘z-o‘ziga, o‘zgalarga, mehnatga u yoki bu munosabatini o‘zida birlashtiruvchi shaxs xususiyatlarining tashkiliy va o‘zaro aloqadorligini anglatuvchi o‘ziga xos «simptomokompleks»ni tushunadi.

Olimning muammoga bunday yondashuvi go‘yoki juda o‘rinli, to‘la ashyoviy daliliy tasavvurni vujudga keltiradi. Shaxs tuzilishi mu-ammosini uzil-kesil hal qilinishi, yechimini topish uchun ayrim shartlarga rioya etilishi lozim. Birinchidan, «shaxsning munosaba-ti» tushunchasi mohiyatini yaqqol ochish, ikkinchidan, shaxsning xusu-siyatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarni detallashtirgan holda ishlab chiqish darkor. V.S.Merlinning faktlar konstatatsiyasiga binoan «simptomokompleks» shaxs tuzilishining bayoniy va statik tavsifi-ni bildiradi, xolos», holbuki shunday ekan «mazkur ijtimoiy sha-roitlarda shaxs tuzilishining rivojlanishi va yuzaga kelishi qonu-niyatlari» o‘rnatilishi joiz.

Ko‘pgina psixologlarning qarashlarida shaxsning ijtimoiy-psi-xologik tavsifi qiyofasining tuzilishida yetakchi rol o‘ynashi va qayd etishi ta’kidlanadi. Shu jumladan, tadqiqotchi N.I.Reynvaldning fikricha, shaxsning tuzilishi va uning har bir qiyofasi (xisla-ti) uch mezon asosida taxdil qilinishi joiz:

orientirovkaning darajasi va anglanganlik xususiyatiga;

u yoki bu ehtiyojiy holatlarni harakatlantirishning xususiyati hamda tashkiliyligi;

paydo bo‘lishning jadalligi, jiddiyligi va zo‘riqishga, ya’ni insonning emotsional irodaviy, bilishga oid sifatlari nuqtai na-zariga va boshqalar.

N.I.Reynvaldning izohlashicha, faoliyatning regulyatsiyasida psixik funksiyalarni umumlashgan guruhlashtirish ularning uch o‘lchovli (mezonli) tasnifining akd (intellekt), hissiyot (emotsiya) va iroda mohiyati zimmasiga tushishi shaxs tuzilishini temperament, xarak-ter va qobiliyatlarga, ikkinchi tomondan esa ekstraversiya, introversiya omillariga ajratishga barham beradi.

N.I.Reynvaldning ushbu yondashuvi A.R.Luriyaning miya faoliyatining uch blokli roli tasnifiga bevosita mos tushadi, chunonchi, akl (intellekt) ko‘p hollarda informasion blok orqali amalga osha-di, iroda (tashkiliylilik) programmalashtirish bloki bilan, xil-ma-xil emotsional holatlar (hissiyot) yuzaga kelishining negizida «energetik» blok yotadi. Akl, hissiyot, iroda va ularni ro‘yobga chiqa-ruvchi

miyaning bloklari, harakatlantiruvchilarni emas, balki o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan insonning atrof-muhitga nisbatan munosaba-tining uch lahzasini anglatadi.

Xullas, qarashlarning rang-barangligi muammo yechimining har xil variantlari, invariantlari, modifikatsiyalari, modullari va mo-dellari bir davrning o‘zida hukm surishini ta’minlaydi hamda sis-temali yondashuv majmuasi yuzaga kelishi uchun puxta negiz, mexanizm va barqaror manba hozirlaydi.

EHTIYOJLARNING TURLARI

Inson bir davrning o‘zida ham individuallik, ham ijtimoiylikni aks ettirgan bo‘lganligi sababli uning ehtiyojlari shaxsiy va ijtimoiy xususiyatga egadir. Boshqacha so‘z bilan aytganda, undagi tor ma’noli shaxsiy xususiyatga ega bo‘lganday tuyg‘u uyg‘otuvchi (tabiat in’omiga aloqador) ehtiyojlarni qondirish jarayoni ham ijtimoiy hamkorlik faoliyatining mahsuli (dehqonlar, ishchilar, xodimlar va boshqa kasbdagi) odamlarning sa’y-harakati, hamkorlikdagi mehnatining moddiy tarzdagi ifodalanishidan foydalanishida aks etadi.

Ushbu masalaga boshqacha tarzda yondashilsa, unda o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy muhit negizida yaratilgan vositalar va usullardan foydalaniladi, natijada u yoki bu sharoitga nisbatan ehtiyoj his etadi. Masalan, yog‘ochdan boltaga dasta yasash uchun unda xohish mavjudligining o‘zi yetarli emas, balki bir qator shart-sharoitlar, dastgoh, duradgorlik asboblari bo‘lishi lozim, uning sifa-tiga nisbatan ehtiyoj ham tug‘iladi. Xuddi shu boisdan unda o‘z xohish-istaklarini ro‘yobga chiqaradigan talab bilan imkoniyatga qaratilgan ehtiyoj vujudga keladi. Insondagi tor ma’nodagi ehtiyojlar uning shaxsiy talablarini qondirish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik faoliyatida yuzaga keluvchi jamoaviy ehtiyojlar yakkaholligiga oid xususiyat kasb etadi. Aytaylik, ma’ruza o‘qishga tayutif qilingan o‘qituvchining mashg‘ulotga puxta tayyorgarligi o‘z predmetining o‘ta fidoyisi ekanligi uchun emas, balki jamoa nufuziga dog‘ tushirmaslik mas’uliyati, ijtimoiy burch hissiga nisbatan ehtiyoj sezganligi tufayli amalga oshadi. Shaxsiy ehtiyoj guruhiy, jamoaviy munosabatlar uyg‘unlashib ketganligi sababli o‘zaro qori-shiq xususiyatga ega bo‘ladi. Har qanday individual faoliyatga nisbatan ehtiyojning tug‘ilishi ijtimoiy alomat, umumiylik, hamkorlik xususiyatini kasb etib, faoliyatga yondashuvda yaqqahollik umumiylikni, umumiylik esa alohidalikni uzluksiz ravishda beto‘xtov aks ettirib turadi.

Psixologiya fanida ehtiyojlarni tasniflash ularni kelib chiqishi va o‘z predmetining xususiyatiga binoan amalga oshiriladi.

Odatda, o‘zlarining kelib chiqishiga binoan ehtiyojlar tabiiy va madaniy turga ajratiladi.

Tabiiy ehtiyojlarda inson faoliyatining faolligi, o‘z shaxsiy hayotini himoya qilish, o‘z avlodi hayotini saqlash, uni qo‘llab-quvvatlash uchun zaruriy shart-sharoitlarga tortilganlik, tobelik aks etadi. Tabiiy ehtiyojlar tarkibiga odamlarni ovqatlanish, tashnalikni qondirish, jinsiy moyillik, uxlash, issiq va sovuqdan asranish, musaffo havoga intilish, tana a’zolariga dam berish kabilar kiradi. Tabiiy ehtiyojlar uzoq vaqt davomida qondirilmasa, uning oqibatida inson halokatga mahkum bo‘ladi, o‘z sulolasi hayoti va faoliyatini xavf ostiga qoldiradi.

Tabiiy ehtiyojlar insonda hayvonot ajdodlarnikiga va ibtidoiy jamoa a’zolarinikiga o‘xshash bo‘lsada, lekin ular o‘zining psixologik mohiyatiga ko‘ra mavjudodlarnikidan ham sifat, ham mikdor jihatdan tafovutlanadi. Ehtiyojlarni

qondirilish usullari, shakli, quroli tobora takomillashib borishdan tashqari, ularning mohiyati, mazmuni ham o‘zgarib bormoqda, misol uchun hozirgi zamon kishisi eramizdan oldingi ajdodlarimizga nisbatan boshqacha tarzda o‘z ehtiyojlarini ro‘yobga chiqaradi va ularni qondirishga intiladi. Uy ro‘zg‘or buyumlarining o‘zgarishi ehtiyojlarini qondirish yo‘lla-ri takomillashuvidan darak beradi. Shuning uchun insonlarning tabiiy ehtiyojlari ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega, chunki ular ij-timoiy-tarixiy taraqqiyot mahsulidan iboratdir.

Inson faoliyatining faolligi insoniyat madaniyatini mahsuli bilan bog‘liqligini ifodalab, madaniy ehtiyojlarni yuzaga keltira-di. Madaniy ehtiyojlar, madaniyat to‘g‘risida mulohaza yuritilganda uning ijtimoiy ildizlari kishilik tarixining dastlabki manba-lari bilan uzviy bog‘lanib ketishini ta’kidlab o‘tish lozim. Lekin tabiiy ehtiyojlar madaniy ehtiyojlar bilan o‘zaro uyg‘unlashgan bo‘lib, birinchisi ikkinchisini taqozo etadi, chunki ular biri-birining negizidan kelib chiqadi. Xuddi shu boisdan madaniy ehtiyojlar ob’ektiga tabiiy ehtiyojlarini qondiruvchi uy-ruzg‘or buyumlar, mehnat faoliyati orqali boshqa kishilar bilan bog‘lanish vositalari, mada-niy aloqalar o‘rnatish usullari, shaxslararo muomalaga kirishish uslublari, ijtimoiy turmush zaruriyatiga aylangan narsalar, o‘qish va tajriba orttirish yo‘llari kiradi. Odatda, jamiyat ta’lim va tar-biya tizimini egallash, xalq an’analari, marosimlari, bayramlari, odatlari, rasm-rusumlari, xulq-atvor ko‘nikmalarini o‘zlashtirish jarayonida rang-barang madaniy ehtiyojlar vujudga keladi, yangicha ma’no kasb eta boshlaydi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, tabiiy ehtiyojlar qondirilmasa, ular insonni halokat yoqasiga yetaklaydi, biroq madaniy ehtiyojlarning qondirilmasligi unday oqibatlarga olib kelmaydi, ammo odamda madaniy fazilatlarning shakllanishiga putur yetkazadi, uning kamolotini sekinlashtiradi.

Shu narsani ta’kidlab o‘tish joizki, madaniy ehtiyojlar o‘zining darajasiga ko‘ra, jamiyat tomonidan o‘z a’zolari oldiga qo‘yilayotgan talablar bilan bog‘liqligiga binoan, ular o‘zaro bir-birlaridan kes-kin tafovut qiladi. Masalan, hozirgi zamon yoshlarining bilim olishga nisbatan tinimsiz izlanishini, ya’ni bilim olish ehtiyoji-ning mohiyatini eng so‘nggi moda bo‘yicha kiyinishga odatlangan xud-di shu yoshdagi tengdoshining ehtiyojlarini bir xil mezon bilan o‘lchash va baholash adolatdan emas. Chunki ehtiyojlarning mohiyatiga, ularni qondirish uchun amalga oshirish ko‘zda tutilgan faoliyat natijasiga, ularning xususiyatiga ijtimoiy yoki individual yo‘nalganligiga bi-noan, har qaysisi alohida-alohida baholanadi. Ijtimoiy jamiyat tomonidan o‘z fuqarolari oldiga qo‘yilayotgan talablariga, jamiyatning huquq asoslariga, xalq an’analariga, yurish-turish qoidalariga, ma’naviyat va qadriyat tizimiga, maslak va dunyoqarash mohiyatiga mos tushadigan ehtiyojlar yuksak onglilik, ijtimoiy faollik, ma’-naviy kamolot uchun xizmat qiladi, jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri bo‘lib madaniy ehtiyojlarni tug‘ilish va ularni qondirilish darajasi va ma’naviyatni egallashdagi roli hisoblanadi.

Psixologiya fanida ehtiyojlar o‘z predmetining xususiyatiga ko‘ra moddiy va ma’naviy turlarga ajratiladi, ularni keltirib chiqaruv-chi mexanizmlar manbai turlicha ekanligi e’tirof etiladi.

Insonning ovqatlanish, kiyinish, uy-joyiga ega bo‘lish, mai-shiy turmush ashyolariga intilish, komfort hissini qondirish bilan bog‘liqmadaniyat predmetlariga nisbatan ehtiyoj sezish moddiy ehti-yojlar majmuasini yuzaga keltiradi. Ma’naviy madaniyatni yaratish va o‘zlashtirish, shaxsning o‘z fikr mulohazalari va his-tuyg‘ulari bo‘yicha boshqa odamlar bilan muomalaga kirishish hamda axborat al-mashtirish, badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan tanishish, mahalliy matbuotni o‘qish, kino va teatr ko‘rish, musiqa tinglash kabilarga ehtiyoj sezish, ya’ni ijtimoiy ong mahsuliga tobelik manaviy ehti-yojlar tizimini vujudga keltiradi.

Ma’naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar bilan uzviy bogliqbo‘lib, vujudga kelgan ma’naviy ehtiyojlarni qondirish jarayoni moddiy ehtiyojlarningtarkibiga kiruvchi moddiy narsalar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, kitob, yozuv qog‘ozi va boshqalar.

Ehtiyojlarning turlari haqida fikr bildirganda yana shu narsaga e’tibor berish kerakki, kelib chiqishiga binoan tabiiy turga taalluqli ehtiyoj o‘z predmetiga ko‘ra moddiy guruhga, xuddi shu mezonlar bo‘yicha bir davrning o‘zida madaniy ehtiyojning moddiy yoki ma’naviy ehtiyoj turkumiga kiritish mumkin. Shu tariqa ehtiyojning ke-lib chiqishi va predmeti xususiyati bo‘yicha ikki mezonga asoslanib muayyan guruhlarga ajratiladi. Inson ongining tarixiy taraqqiyotiga nisbatan va ehtiyojlarning ob’ektiga bo‘lgan munosabatiga bi-noan, har xil tasniflanadi va xuddi shu mezonlarga ko‘ra ular rang-barang turlarga ajratiladi. Ularning izchilligi, barqarorligi, doimiyligi, ko‘lami, ahamiyatliligi, predmetliligi, ijtimoiyligi, individualligi kabi xususiyatlari bilan o‘zaro bir-biridan farqlanadi. Ehtiyojlar inson faoliyati va xulq-atvor motivlari bilan jipsaloqada bo‘ladi.

Inson ehtiyojlarining rivojlanishi.

Muayyan muhitda yashovchi hayvonning u yoki bu tarzdagi xatti-harakati aniqehtiyojni qondirishga qaratilgan bo‘ladi. Shu boisdan ehtiyoj hayvonni faollikka undash bilan cheklanib qolmasdan, balki faollikning turlari, shakli, harakatlantiruvchi kuchiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Hayvonda ovqatlanish ehtiyojini tug‘ilishi unda faollikni vujudga keltiradi, natijada so‘lak bezlari ishlay bosh-laydi, o‘lja qidirish, uni poylash, tutish va iste’mol qilish bilan bog‘liq holatlar majmuasi yuzaga keladi. Mazkur jarayonlar shartli reflekslar, faollikni keltirib chiqaruvchi yangi qo‘zg‘ovchilar va unga muvofiq bo‘lgan yangi harakatlar bilan bog‘lanishi mumkin, biroq hayvon xatti-harakatining tuzilishida hech qanday o‘zgarish yuz ber-maydi. Jahon fiziologlari va psixologlari tomonidan hayvonlar-da shartli reflekslarni shakllantirishga oid tajriba materialla-rida ko‘rsatilishicha, vosita sifatida foydalanilgan qo‘ng‘iroq cha-linishi hayvon uchun tashqi qo‘zg‘atuvchilar ichidan faqat ovqatlanishga bog‘liq signal (xabar) vazifasini bajaradi, xolos.

O‘rgatilgan hayvon tomonidan tepkini bosish jarayoni unga ov-qatni berilishi bilan aloqador xatti-harakat tarzida amalga oshi-riladi. Shuning uchun hayvon har qanday murakkab shartli reflekslar yordami bilan o‘z xatti-harakatini amalga oshirgan bo‘lishiga qara-may, ehtiyojlar bevosita uning psixikasini aks ettirish muayyan ob’ektga yo‘naltirish, xulqini idora qilish funksiyasini bajaradi. Chunki hayvon a’zolariningbiologik-tabiiy ehtiyojlari psixik aks ettirish mazmuni va sifatini, tashqi olam ta’siriga nisbatan javob sifatida paydo bo‘luvchi xatti-harakatlarni muvofiqlashtirib turadi.

Insonning faoliyati, xulq-atvori, xatti-harakati hayvonlarnikidan tubdan farq qiladi, ularni tarkib toptirish mutlaqo boshqa asosga quriladi. Misol uchun bolani ovqatlanishi, xatti-harakati, qoshiqdan foydalanish, maxsus ajratilgan joyda o‘tirish, ovqat yeyish qurolini ishlata olish uningtabiiy extiyojlari tufayli yuzaga kelgan deb e’tirof etish haqiqatdan uzoqfikr, chunki uning negizida yotuv-chi mexanizmlar siri tushuntirib berilmagan. O‘z-o‘zidan ma’lumki, tabiiy ehtiyojni qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi shart emas, insonda uyquga ehtiyoj tug‘ilsa, u holda hech qanday yumshoq o‘ringa, divanga talab sezilmaydi, charchagan odam duch kelgan joyda o‘z ehtiyojini qondiraveradi. Madaniy xatti-harakatlar, odatlar-ning insonda vujudga kelishi ijtimoiy tarbiyaning ta’sirida ta-biiy ehtiyojlarni qondirishning vositasi, sharti sifatida gavda-lanib, qurollar, buyumlar ularning tarkibiy qismiga aylana bosh-laydi. Bunday xatti-harakatlar shaklini keltirib chiqaruvchi aso-siy manba tub ma’nodagi ehtiyoj emas, balki uni qondirishning jamiyat taraqqiyoti talab qilgan qoidalari, usullari, kamolot taqozo etuvchi madaniy ko‘nikmalar hisoblanadi. Jamiyatning taraqqiyot bosqichlariga binoan tabiiy ehtiyojlarni qondirishning yangidan-yangi, yanada takomillashgan vositalari insoniyat tomonidan yarati-laveriladi va bular ehtiyojlar tarkibi bilan qorishib ketadi. Ma-daniy va ma’naviy ehtiyojlar to‘g‘risida ham xuddi shu tarzdagi o‘zga-rishlar yuz beradi, shaxsning boshqa kishilar bilan muloqotga kiri-shishi, bilimlarni o‘zlashtirishda texnik vositalardan foydalani-shi, nutq va kiyinish madaniyatining o‘sishi, ularni qondirishga nisbatan talab darajasining ortishi mazkur ehtiyojlar riojlanishini ta’minlaydi.

Psixologiyada ehtiyojlar rivojlanishining bir necha bosqichlari mavjud ekanligini ta’kidlab o‘tish zarur. Chunki ehtiyojlar inson ontogenezida paydo bo‘lib, to umrining oxirigacha o‘zgarib, takomil-lashib boradi. Kishilik jamiyatlarida ehtiyojlar bir-biridan ham mohiyat, ham shakl jihatidan tafovutga ega bo‘lganiday, yosh davrlari-ga qarab, ular xuddi shunday mezonlar bo‘yicha o‘zaro farqlanadilar.

Bola faolligini rivojlantirishning dastlabki bosqichlaridayoq, biologik jihatdan ahamiyat kasb etuvchi buyumlar, jismlar ustuvorlik xususiyatiga ega bo‘lmaydilar, aksincha ularning inson tomonidan foydalanish usullari ehtiyojlarning omillari tariqasida gav-dalanadi. Binobarin, mazkur buyumlar, aslahalarning ijtimoiy taj-ribalarini egallashdagi ahamiyati, roli namoyon bo‘lishning mexa-nizmlari sifatida maydonga keladi. Bolalarning xuddi shu

yo‘sinda egallaydigan xatti-harakatlarining yangi shakllari - bu jamiyat to-monidan ijtimoiy amaliyot vazifalariga munosib ravishda ish-lab chiqilgan usullaridan iborat bo‘lib, buyumlar bilan shaxsning munosabati tarzida yuzaga keladi, kishining kundalik faoliyati ichi-dan muhim joy egallaydi. Stol atrofida o‘tirish, qoshiqbilan ovq-at yeyish, krovatda uxlash, televizor tomosha qilish, o‘yinchoqo‘ynash, kattalar bilan muomala qilish yuqoridagi fikr mohiyatini yaqqollashtirishga yordam beradi. Ehtiyojni qondirishning vositalaridan foydalanish qoidalari ijtimoiy muomala usullari, faoliyatni amal-ga oshirishning yo‘l-yo‘riqlari katta yoshdagi odamlar tomonidan yoshlarga o‘rgatiladi. O‘z ehtiyojlarini muayyan buyumlar vositasida qondirishga va ularni muayyan faoliyat turiga tatbiq etishning insoniy shakllarini egallashga o‘rgatish maxsus mashqlar orqali amal-ga oshirilib, «Yetuk shaxs - bola» tarzida yuzaga keladi. Demak, bola ehtiyoji qondirilayotgan insoniy shart-sharoitlar ta’siri ostida shaxsning xulq-atvori vositalar ahamiyati bilan emas, balki ularning ijtimoiy qiymati bilan belgilanadi. Ehtiyojlarning qondirilish darajasi, uning og‘ir yoki yengil ko‘chishi shaxsning shakllani shida muhim ahamiyatga ega, shu boisdan ularni qondirish maqsadga muvofiq, oqilona mezonlarga suyanib amalga oshirilsa ijtimoiy ahamiyati yanada ortadi.

Insonda madaniy va ma’naviy ehtiyojlar turmush tajribasi ortishi, bilim saviyasi kengayishi, maxsus mashqlar egallanishi, ijtimoiy hayot qoidalariga uzluksiz ravishda rioya qilishi, narsa va hodisalarga munosabati o‘zgarishi tufayli rivojlana boradi. Odam tobora barkamol bo‘la borishi uning oldiga yangicha talablar qo‘yadi ularni bajarish esa ehtiyojning yangi, nisbatan murakkab, mohiyat jihatdan teran xususiyat kasb etuvchi shakllarni vujudga keltiradi ularning qondirilishi esatuzilishga ega bo‘lgan vositalarni taqozo etadi. Ma’lumotlilik akl-zakovat ko‘rsatkichining yuksalishi, is-te’dod alomatlarining ro‘yobga chiqishi, faollikning ortishi, xatti-harakat tarkibida keraksiz bo‘g‘inlarning kamayish ehtiyoji tako-millashgan shaklining namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Inson komfort sari intilar ekan, demakki, unda yangi ehtiyojlar yuzaga keladi, ularni qondirilishi esa yangi bir sifat darajasiga ko‘tariladi. Madaniyatning yangi qirralari ochilishi, ma’naviyatni egallashga nisbatan xohish-istakning kuchayishi, fan va texnikaning taraqqiyoti, millatlararo munosabatlar ko‘lamining kengayishi rang-barang ehtiyoj turlari va shakllari rivojlanishiga muhim shart-sharoitlar yaratadi. Insonning barkamollik sari intilishdagi imkoniyatlari-ni ro‘yobga chiqarish orzusi ehtiyojlar rivojlanishi harakatlanti-ruvchi kuchga aylanadi.

Psixologiya fanida ehtiyoj quyidagi tiplarga ajratiladi:

Individual — yakka shaxsga yo‘naltirilgan.

Guruhiy — real guruhlar moddiy va ma’naviy intilishi.

Jamoaviy - jipslashgan guruhpar talabi majmuasi.

Hududiy - etnik guruhning muayyan o‘ziga xos talablari qondarilishi

Etnik — ma’lum millat yoki xalqlarning safarbarligini ta’minlash.

Umumbashariy - yer yuzi xalqlarining umumiy talablarining majmuaviy aks etishi.

QIZIQISHNING PSIXOLOGIK TAVSIFI

Qiziqish shaxsning muhim psixologik jabhalaridan biri hisob-lanib, unda insonning individual xususiyati bevosita mujassamla--shadi. Qiziqish – insonlarning dunyoqarashi, e'tiqodlari, ideallari, ya'ni uning oliy maqsadlari, ezgu niyatlari, orzu-umidlari bilan bevosita muhim rol o‘ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o‘zlashtirishda, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishga, bilim saviyasining kengayishiga yordam beradi.

Qiziqish motiv singari borliqning mo‘'jizakor tomonlarini bilishga, fan asoslarini egallashga faoliyatning turli-tuman shakllariga nisbatan ijodiy yondashishni vujudga keltiradi, mehnatga, ta'limga mas'uliyat bilan munosabatda bo‘lishni shakllantiradi, har qaysi yakkahol (individual) shaxsda ishchanlik, g‘ayrat-shijoat, egil-mas irodani tarkib toptirishga puxta psixologik shart-sharoitlar yaratadi.

Qiziqishning psixologik mohiyatidan kelib chiqqan holda yonda-shilganda, qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro‘yobga chiqarish manbai rolini bajaradi.

Jahon psixologiya fanining yirik namoyandalari shaxsning qizi-qishiniuningyaxlitruhiy dunyosi bilan, binobarin, odamningaqliy faoliyati, bilish jarayonlari, irodasi, xarakteri, temperamenti, hissiyoti, qobiliyati bilan, umuman olganda inson tuzilishining barcha qirralari bilan bog‘liqtarzda tushuntirishga harakat qilganlar.

Qiziqish muammosi psixologik nuqtai nazardan N.A.Ribnikov, N.F.Dobrinin, N.D.Levitov, M.F.Belyaev, L.A.Gordon, L.I.Bojovich, N.G.Morozova, M.G.Davletshin, M V.Vohidov, V.A.Tokareva, E.G‘.G‘oziev va boshqalarning nazariy metodologik xususiyatga ega bo‘lgan asarlarida hamda maxsus eksperimental tadqiqotlarida rivojlantirildi.

Hozirgi zamon psixologiyasida qiziqish ob'ektiv borliqning insonlar ongiga sub'ektiv tarzda aks etishlaridan biri sifatida tan olinadi. Qiziqish shaxsning muayyan voqelikdagi, ma'lum vaziyatdagi turli nar"sa va hodisalarga tanlab munosabatda bo‘lishida, insonning o‘ziga xos qaror qabul qilishida, o‘zini o‘zi nazorat eta bilishida, maqsadga intiluvchanligida, yuzaga kelgan ob'ektiv va sub'ektiv to‘siklarning yengishida ifodalanadi.

Psixologiya fanining yirik namoyandalarining ta'limoticha, qiziqish odamlarning ehtiyojlari negizida yuzaga keladi, yaqqol ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitda, vaziyatda vujudga keladi, shaklla-nadi, barqarorlashib boradi hamda ularning shaxsiy turmush sharoi-tida va faoliyatida, ijtimoiy ishlab chiqarishda

qatnashishi singari omillarda gavdalanadi. Umumiy talqinlarga asoslanib mulohaza bildirilganda, qiziqish alohida jarayon, ma’lum psixologik funksiya emas, chunki u his-tuyg‘u, iroda, ong, qolaversa, jamiki psixik holatlar, hodisalar va ichki kechinmalarning o‘zida mujassamlashtirgan, murakkab tizimli ruhiy voqelikdir.

Qiziqishni psixologik mohiyatining dastlabki ko‘rinishi - bu uni odamlar tomonidan anglab yetishi yoki tushunish imkoniyatidir. Shaxs qiziqish mahsulini, uning oqibatini anglash, tasavvur etish orqaligina ob’ektiv borliqdagi narsa va hodisalarga ongli, tanlab munosabatlarda bo‘ladi. Lekin bu voqelik (anglash, tushunish) insonda birdaniga sodir bo‘lmaydi, balki muayyan vaqt davomida unda bilish jarayonlari, shaxsiy fazilatlari, individual-tipologik xususiyatlari rivojlanishi tufayli yuzaga keladi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, qiziqishning psixologik mohiyati namoyon bo‘li-shida aqliy jarayonlar muhim rol o‘ynashi hodisasi qayd qilinishi u faqat intellektdan tashkil topadi, degan ma’noni anglatmaydi, albatta. Xuddi shu boisdan, qiziqishni psixologik mohiyatining ikkinchi ko‘rinishi - uning his tuyg‘ular, emotsional holatlar bilan uyg‘unlashgan, mujassamlashgan tarzda ifodalanishidir. Ma’lumki, his-tuyg‘ular, shuningdek, emotsional holatlar (emotsional ton, kay-fiyat, shijoat, ehtiros va boshqalar) shaxsning borliqdagi aniq vo-qelikka, narsa va hodisalarga, muayyan faoliyatga nisbatan intilishni, sa’y-harakatlarni kuchaytiradi, jadallashtiradi, safarbarlik-ni ob’ektga yo‘naltiradi. Inson o‘z shaxsiy qiziqishini qondirgandan keyin unda yoqimli his-tuyg‘ular uyg‘onadi, ruhiy qoniqish esa o‘z navbatida lazzatlanish (praksik) hisni vujudga keltiradi, buning natijasida frustratsiya (ruhi tushish) uning shaxsiyatini egallaydi.

Qiziqishni psixologik mohiyatining uchinchi ko‘rinishi uning iroda sifatlari bilan yoinki iroda akti bilan umumlashgan tarzda vujudga kelishidir. Irodaviy zo‘r berish, muayyan qaror bo‘yicha intilish, ba’zi qiyinchiliklarni yengish, mustaqillik namoyon qilish qiziqishni qaror toptiradi, shaxsni maqsad sari yetaklaydi.

Qiziqishni psixologik mohiyatining to‘rtinchi ko‘rinishi uni oliy nerv faoliyati xususiyatlari va temperament tiplari bilan birga mujassamlashgan holda namoyon bo‘lishidir.

Qiziqishning nerv-fiziologik mexanizmlari to‘g‘risida mulohaza yurtilganda, dastavval rus olimi I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta’limotini ta’kidlab o‘tish joiz. Uning «bu nima?» refleksi, ya’ni orientirovka (mo‘ljal olish) refleksi qiziqish-ning moddiy negizini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

I P Pavlov va uning shogirdlaridan keyin P.K.Anoxin, N.A.Bernshteyn, B.M.Teplov, V.S.Merlin, V.D.Nebilisin va boshqalar insondagi qiziqishning nerv-fiziologik mexanizmlarini bosh miya katta yarim sharlari po‘stlog‘ida orientirovka refleksi negizida murakkab muvaqqat bog‘lanishlarning vujudga kelishidir, degan yo‘sin-da talqin qilmoqdalar. Qiziqishning moddiy asoslari o‘zaro in-duksiya qonuni, po‘stloqdagi optimal qo‘zg‘alish o‘chog‘i va dinamik ste-reotiplar (I.P.Pavlov), dominanta (A.A.Uxtomskiy), orientir mu-rakkab psixofiziologik hodisa ekanligi (Ye.N.Sokolov) va boshqalar bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi davrda qiziqish shaxsning individual-psixologik xususiyatidan iboratdir, degan xulosa odatiy narsaga aylanib qoldi. Shunga qaramasdan, ba'zi manbalarda qiziqish muayyan soha bo'yicha to'g'ri mo'ljal olishga, yangi omillar bilan tanishishga, voqelikni to'la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivdir, degan ta'rifga ham egadir. Shunga mutanosib tarzda qiziqish bilish jarayoni tusini kashf etadigan, ijobiy his-tuyg'ularda yo'naltirilgan ob'ekt bilan chuqurroq tanishishga, u haqda ko'proq ma'lumotga ega bo'lish, uning mohiyatini anglab yetishga nisbatan shaxsning istagida namoyon bo'ladi, qabilida mulohazalar hukm suradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shaxsning ishtiyoqini qondirishga yo'naltirilganligini aks ettiruvchi qiziqishni qondirilishi, hech qachon uning so'nishini ifodalamaydi, aksincha, ob'ektning noma'lum qirralarini aniqlashga nisbatan intilish davom etaveradi. Shu bilan birga qiziqishlar bilishning, uning jarayonlari funksional holatining doimiy qo'zg'atuvchi mexanizmi sifatida vujudga keladi va aks ettirishda davom etadi.

Psixologiyada qiziqish mana bunday tiplarga ajratilishi mum-kin: 1) mazmuniga ko'ra: shaxsiy va ijtimoiy; 2) maqsadiga binoan: bevosita va bilvosita; 3) ko'lamiga qaraganda: keng va tor; 4) qizi-qishlar darajasi bo'yicha: barqaror va beqaror va boshqalar.

Qiziqishning mazmun jihatidan o'zaro tafovutlanishi quyidagilarda mujassamlashadi: bilish ehtiyojlarining ob'ektlari qaysilar, bilishning mazkur faoliyat maqsadi bilan mutanosibligi, shaxsning yashayotgan muhitiga nisbatan munosabati kabilar. Shaxsda nimalarga nisbatan qiziqish uyg'onadi, uningbilish ehtiyojlari ob'ek-tining ijtimoiy qiymati qanday ahamiyat kasb etadi? Insonning shaxsiy qiziqishi kelib chiqishiga ko'ra birlamchi bo'lishiga qaramasdan, u bir davrning o'zida ijtimoiylik xususiyatini kasb etaveradi. Uning kasbiy faoliyatiga nisbatan qiziqishi oxir-oqibatda jamiyatuchun naf keltirishi, ravnaqi uchun qiymatlidir. Ijtimoiy xususiyatli qiziqishlarning paydo bo'lishi shaxsiy ahamiyat kasb etish sari yetaklashi muqarrar. Chunki umumiylik (ijtimoiylik) bilan xususiylik (shaxsga oidlik) uyg'unlashgan holda hukm suradi va ular bir bosqichdan boshqa bir bosqichga avtomatik ravishda o'taveradi yoki ular doimo o'rin almashtirib turishadi. Shaxs o'z qiziqishi tufayli biron-bir narsani kashf etsa, individual ehtiyojini qondiradi, shuningdek, jamiyat, jamoa uchun ishlab chiqarishni takomillashtirishga bu narsa xizmat qiladi. Shu boisdan jamiyatning, jamoaning eng dolzarb vazifalaridan biri yoshlarning mustaqil, faol bilishga, ijtimoiy ahamiyatga moyillik mehnat faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otishdan iboratdir. Toki ularda jiddiy, sermazmun, jami-yattomonidan rag'batlantiriluvchi, mehr-muhabbatga sazovor qiziqishlar shakllansin.

Qiziqishning maqsad jihatidan farqi bevosita va bilvosita namoyon bo'ladigan qiziqishlarning mavjudligini aniqlaydi. Bevosita qiziqishlar voqelikning, jismlar va hodisalarning emotsional jozibaliligi, his-tuyg'ularga ega

bo‘lishligi, tashqi ta’sirlarga beriluvchanligi tufayli vujudga keladi. Bevosita qiziqishlar o‘rganilayotgan narsaning ma’nosi bilan uning shaxs faoliyati uchun ahamiyati mos tushgan taqdirda paydo bo‘lishi mumkin. Psixologiyada bevosita qiziqishning yuzaga kelishini faoliyatning maqsadini anglash bilan bog‘liqbo‘lgan bilishni ehtiyoj deb atash qabul qilingan. Meh-nat va o‘qish faoliyatida hamisha his-tuyg‘uga, jozibaga tayanib ish tutish imkoniyati mavjud bo‘lmasligi sababli jismoniy va aqliy mehnatni ongli idora qilishda muhim ahamiyat kasb etadigan bavo-sita qiziqishlarni tarkib toptirish masalasi ishlab chiqarish hamda ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Shunday qilib, u yoki bu narsalarni (hodisalar mohiyatini) bi-lish, ko‘rish, idrok qilish, anglab yetish uchun qiziqarli tuyulgan ichki kechinmalar bevosita qiziqishni aks ettiradi. Bilvosita qiziqish-lar mehnat faoliyati yoki ta’lim olish jarayonining muayyan ijti-moiy ahamiyati bilan uning shaxs uchun sub’ektiv ahamiyati o‘zaro mos tushganida bilvosita qiziqish yuzaga keladi. Binobarin, shaxs maz-kur jarayonda bu narsalar meni qiziqtirgani uchun juda qiziqarli-dir, degan xulosaga keladi. Mehnat faoliyati va ta’lim jarayonini ongli tashkil etishda yetakchi va ustuvor rol o‘ynaydigan bilvosita qiziqishlarni tarkib toptirish uchun maxsus treninglarga, omilkor yo‘l-yo‘riqlarga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Odamlarning qiziqishlari o‘zining ko‘lami bilan bir-biridan farqqiladi. Shunday shaxslar toifasi ham mavjudki, ularningqizi-qishlari faqat birgina sohaga qaratilgan bo‘ladi. Boshqa bir toifa-$_{ga}$ taalluqli odamlarda esa qiziqishlar qator sohalarga, fanlarga, ob’ektlarga yo‘naltirilganligini uchratish mumkin. Lekin turli sohaga nisbatan qiziqishlarning biri ikkinchisiga salbiy ta’sir etishi mumkin emas, agarda ular oqilona boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lsa. Qiziqishning torligi ko‘pincha salbiy hodisa sifatida baholanishi mumkin, lekin ayni chog‘da ularning kengligi ham nuqson tariqasida tahlil qilinsa bo‘ladi. Biroq shaxsning barkamol shaxs bo‘lib kamol topishi qiziqishlar ko‘lamini tor emas, balki keng miqyosda bo‘lishini taqozo etadi.

Qiziqishlar o‘zlarining darajasiga qarab barqaror va beqaror turlarga ajratiladi. Barqaror qiziqishga ega bo‘lgan shaxs uzoq vaqt davomida yoqtirgan predmetlariga, ob’ektlariga, hodisalarga nisba-tan o‘z maylini hech o‘zgarishsiz saqlab tura oladi. Shu boisdan inson ehtiyojlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi, shaxsning ruhiy fazila-tiga aylana boshlagan qiziqishlar barqaror qiziqishlar deyiladi. Barqaror qiziqish shaxs qobiliyatining rivojlanganligidan darak berishi mumkin. Ana shu nuqtai nazardan olib qaraganimizda, maz-kur qiziqish tashxis qiluvchanlik xususiyatiga ega. Biroq insonlar-da barqaror qiziqishning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash uchun ularning mehnat faoliyati va o‘quv jarayonidagi qiziqishlari-ning tashqi ifodasini atroflicha o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Odatda, qiziqishningtashqi ifodasi shaxsning o‘ziga o‘zi baho berish, o‘zini o‘zi tahlil qilish faoliyatlarida namoyon bo‘ladi. Barqaror qiziqish to‘g‘risida mulohaza yuritilganda, uning boshqa tarkibiy qismlari va qirralarini hisobga olish lozim, chunki bu narsa ko‘p jihatdan shaxsning irodaviy sifatlari, xarakterining

vazminligiga bog‘liq. Qiziqishning barqarorligi uning nisbatan jadal tarzda namoyon bo‘lishi hamda uzoq davom etishi bilan ifodalanadi. Shaxsning zaruriy ehtiyojlarini yuksak darajada aks ettiradigan, shuningdek, uning psixologik tuzilishiga xos xislatlarga aylanib boradigan qiziqishlari barqaror qiziqish deyiladi. Barqaror qiziqish qobiliyatning bir ko‘rinishiga o‘xshash bo‘lib, maqsadga yo‘nalganligi bilan muhim ham individual, ham ijtimoiy ahamiyatga, qiymatga egadir.

Qiziqishlarning ba’zi holatlarda beqaror bo‘lishligi insonlarning yosh, jins, tipologik xususiyatiga bog‘liqdir. Bunday toifadagi odamlarda qiziqishlar g‘oyatda ehtirosli kechadi, biroqqisqa muddatli bo‘lishi mumkin. Masalan, bir vaktning o‘zida ular bir nechta fanlarga, tabiat hodisalariga qiziqadi, barcha narsaga ishtiyoqbilan kirishib, muammo mohiyatiga chuqur kirib bormasdan, boshqa holatlar bilan mashg‘ul bo‘lib ketadilar. Unday xususiyatli shaxslar mashg‘ulot-largatez kirishadi va shunday yo‘sinda so‘nibturadi ham. Qiziqishlar salohiyatli voyaga yetgan odamlarning, yoshlarning o‘z iste’dodlarini maqsadga yo‘naltirgan tarzda amalga oshishini ta’minlaydi.

Shaxsdagi qiziqishlarni rivojlantirish va barqarorlashtirish uchun ularning negizini tashkil etadigan faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishga, maqsadga muvofiq ravishda shug‘ullanishga, mayl uyg‘otishga puxta zamin hozirlash zarur, toki qiziqishlar motiv, ehtiyoj, e’ti-qod funksiyasini bajarishga aylansin.

Shunday qilib, qiziqishlar, shaxs faoliyati asoslarining tanho yo‘nalishi emas, lekin uning eng muhim jihatidan iboratdir.

Psixologiya fanining so‘nggi davrdagi ma’lumotlariga asoslangan holda qiziqishning bir nechta darajalarga ajratish mumkin: a) sinchkovlik, b) qiziquvchanlik, v) bilishga qiziqish, g) turg‘un yoki kasbiy qiziqish. Sinchkovlik qiziqishning biror narsaga nisbatan kuchli intilishdan iborat qisqa muddatli turi yoki darajasidir. Qiziquvchanlik shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, ularning bilishga nisbatan faol munosabatidan iborat qiziqish darajasidir. Bilishga qiziqish anglashinilgan darajadagi, maqsadga muvofiqlashgan, jismoniy va aqliy faoliyatning yangi qirralarini egallashga yo‘naltirilgan qiziqish turidir. Turg‘un qiziqish shaxs-ning kasbiy ko‘nikmalar, malakalar va bilimlarni egalashga yo‘nal-tirilgan, kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan uyg‘unlashgan, maqsad-ga erishish yo‘lida faollik ko‘rsatuvchi qiziqish turidir.

Shaxslar ixtiyoriga piktogramma, anagramma, turli xususiyatli testlarni havola qilish ularda qiziqishning ichki mexanizmlarini keltirib chiqaradi. Bu narsa o‘z navbatida ularda o‘z qiziqishini o‘zi boshqarish ko‘nikmasini shakllantiradi, har qanday qo‘zg‘aluvchiga javob berishdan iborat stereotip hosil bo‘ladi.

Qiziqishning bu turi va uning yuqori bosqichi shaxsning voqe-likdagi ichki bog‘lanishlarni, munosabatlarni bilib olishga yo‘llaydi hamda ruhiy to‘siklar va qiyinchiliklarni yengadigan, muvaffaqiyat-sizliklardan cho‘chimaydigan,

qat’iyatlik, intiluvchan, toliqmas individual xususiyatni shakllantirishga yordam beradi. Odamlarda o‘zini o‘zi boshqarish, shaxsiy qiziqishini idora qilish, o‘ziga o‘zi buyruq berish, o‘zini qo‘lga olish, o‘zini o‘zi takomillashtirish singari shaxs xususiyatlarini shakllantirish ijtimoiy, tarixiy hamda ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etadi.

SHAXSNING USTANOVKASI YOKI ANGLANILMAGAN MAYLLARI

Psixologiya fanida xulq-atvor va faoliyatga qaratilgan anglanilmagan mayllar orasida muayyan darajada tadqiq etilgani usta-novka (ko‘rsatma berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish) muammosi hisoblanadi. Ushbu umumiy psixologik masala gruzin psixologi D.N.Uznadze va uning shogirdlari tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilgandir.

Ustanovka o‘zbek tilida ko‘rsatma berish, anglanilmagan mayllar, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish ma’nosida qo‘llanilib kelinadi. Lekin keyingi atamalar uning haqiqiy mohiyatini, ma’nosini o‘zida mukammal aks ettirmaydi, shuning uchun terminni hech o‘zgarishsiz qoldirsa ham bo‘ladi.

Odatda, ustanovka deganda, bilish faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ehtiyojni ma’lum uslubda qondirishga ruhiy jihatdan tayyor turishlik tushuniladi. Ustanovka shaxsning o‘zi anglab yetmagan muayyan ruhiy holati yoki maylidir. Bunday holatda shaxs biron-bir ehtiyojni qondirish mumkin bo‘lgan ma’lum faoliyatga nisbatan ruhan tayyor turadi. Ustanovkaning mavjudligi va uning qonuniyat-lari eksperimental tarzda ta’kidlab o‘tilgan ilmiy maktab namoyandalari tomonidan anikdangan. Mazkur tajribada sinaluvchiga ikkkta, bittasi katta, ikkinchisi esa kichikroq soqqachani uzluksiz ra-vishda bir nechta (10—15) marta ko‘zi yumuq holda paypaslab taqqos-lash taklif qilinadi. Eksperimentning navbatdagi bosqichida soq-qachalar almashtirilib, baravar jismlar har xil tuyuladi, ya’ni si-naluvchida illyuziya (noto‘g‘ri aks ettirish) holati yuzaga keladi. Bun-day psixologik voqeaning vujudga kelishiga asosiy sabab shuki, ob’ektiv jihatdan o‘zaro teng soqqachalar taqqoslanganligida ular bir-biriga teng emas, degan mayl bilan favqulodda sub’ektiv sharo-itda ish tutilganligidir. Ushbu holat oddiyroq qilib tushuntiril-ganda, taqqoslash jarayoni ustanovka (ko‘rsatma berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish) asosida amalga oshirilganligi uchun shunday oqibatga olib kelgandir.

D.N.Uznadzening ta’kidlashicha, insonda ustanovka bilan bog‘liq psixofiziologik holat markaziy nerv sistemasigina emas, balki uning periferik qismi faoliyatini ham mahsuli bo‘lib hisoblanadi. D.N.Uznadzening tajribalarida sinaluvchining o‘ng qo‘liga nav-bat bilan avval katta, keyin kichik soqqachalar berib turiladi va bu vaziyat 10-15 marta takrorlanadi. Tajribaning oxirgi bosqichida sinaluvchining chap qo‘liga bir-biriga teng soqqalar beriladi. Buning natijasida uning chap qo‘lida ham illyuziya, ya’ni noto‘g‘ri idrok Qilish vujudga keladi. Ko‘z bilan idrok qilishda ikkita o‘zaro teng ob’ektlarni qayd qilishdagi ustanovka o‘ng ko‘zga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Eksperimental tarzda o‘rganilgan ustanovkali vaziyatlar-ni takrorlash evaziga insoning o‘ziga sezilmagan holda muayyan ob’ekt-larda sub’ektga taallukli «fiksal ustanovkalar» (qayd etilgan us-tanovkalar) vujudga kelganligi anikdangan. Demak, ustanovkani eks-perimental tadqiqot etish

natijasida anglanilmagan mayllar asta-sekin qayd qilinuvchi (fiksasion) darajasiga o‘sib o‘tish mumkin.

Ijtimoiy turmushda D.N.Uznadzening natijalariga o‘xshash qator ma’lumotlar shaxsda mustahkamlanib qolganligi tufayli ustanovka funksiyalarini bajarib kelmoqda: 1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilari-ning oldida turgan ustanovkalar xuddi shunday toifaga kirganligi sababli o‘qituvchining barcha topshiriqlarini darhol bajarishga tayyor turadilar; 2) hisobchilarga nisbatan qo‘rs, rasmiyatchi deyishlik; 3) olimlarga nisbatan parishonxotirlik; 4) savdo xodimlariga nisba-tan uddaburonlik, daromad qilishga ustasi faranglik; 5) bolaning haqgo‘yligi, sir tutmasligi; 6) qariyaning so‘zi tugaguncha o‘salning joni uzilishi to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar ustanovkaga yaqqol mi-sol bo‘la oladi.

Shuningdek, ba’zi jamoalarda, guruhlarda, oilalarda ustanovkaga asoslanish, ularga ishonch noxush oqibatlarga olib keladi. Avtoritar tafakkur, milliy stereotip, etnik rasm-rusumlar ham ustanov-kaga misoldir. Davolovchi shifokorning ustanovkalariga bemorning rioya qilishi irqchilik munosabatlari, ilmiy unvonli ziyolilarga berilgan super (orttirma) baholar va boshqalar ustanovkaning ang-lanilmagan shaklini o‘zida mujassamlashtiradi. Shuni ta’kidlash joizki, ba’zi hollarda shaxs uchun anglanilmagan ustanovka o‘z pozi-siyasini aniq namoyish qilishda e’tiqod sifatida gavdalanadi, an-glanilmagan omillar tariqasida aks etadi.

Gruzin psixologlari tomonidan ustanovkaning turlicha xislatlari (qo‘zg‘aluvchanlik, dinamiklik, statiklik, plastiklik-dag‘allik, labillik-stabillik, irradiatsiya-generalizatsiya) va tiplari (dif-fuz, differiansiallashgan, fiksatsiyalashgan) anikdangan. Ularning fikricha, ustanovkaning ba’zi bir xislatlari mutanosibligi uning har xil tiplarini vujudga keltiradi. Psixoz va nevrozlar ustanovkaning patologik o‘zgarishlarida o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, ustanovka inson hukmronligini va qudratini tashkillashtirishning yuksak darajasi sanaladi. U xulq-atvorining batartibligi va izchilligining asosi hisoblanadi. Ularning mulohazalaricha, ustanov-ka insoning muayyan shaklda munosabat bildirishga yuksak yo‘sinda umumlashgan tayyorgarlik holati, reaksiyaning yaqqol natijasining kodlashtirilgan neyrodinamik modeli, mazkur reaksiya vaqtini ol-dindan payqash, qolaversa, yaxlit faoliyat tuzilishining ajralmas jabhasi hisoblanadi. Shuning uchun ustanovka o‘zgaruvchanlik va bar-qarorlik jips birligini anikdashga xizmat qiladi. U o‘zining o‘zga-ruvchanlik bilan munosabat bildirishi javob qaytarishning barqa-rorligini ta’minlaydi.

Ustanovkaning yuksakroq bosqichi anglanish ko‘rinishga ega bo‘la-di. Guruhiy va jamoaviy munosabatlarda uning a’zolarini ishontirish (ularga ta’sir o‘tkazish) orqali muayyan yo‘nalishga safarbar qilish; fikrlarda umumiylikni vujudga keltirish holatlari bunga yorqin misoldir. Ishonish va ishontirish odamlarning xarakter xislatiga, xulq-atvoriga bevosita bog‘liq. Bu holat psixologiyada eksperimental tarzda tadqiq etilgan. Masalan, sinaluvchilarga ma’lum vaqt oralig‘ida soatiga qaramay, sekundlarini o‘z ichida sanash orqali bir

daqiqaning cho‘zilishini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lgan-lar. Keyinchalik bu sanash signal berish bilan tekshirilib turil-gan, ba’zan «yolg‘on» signallar, ya’ni lampochka yonish bilan tajriba bo‘linishga yo‘l qo‘yilgan. Qatnashchilarda eksperimentatorga ishonch bo‘lganligi sababli xatolarga yo‘l qo‘yishgan.

Ishonuvchanlikni anikdashda «konformizm» (kelishuv, murosa-yu, madora)dan foydalanilgan. Ichki vatashqi kelishuvchanlik (konfor-mizm), ichdan kelishmovchilik (nokonformizm) guruhiy ishonuvchan-lik mohiyatini o‘rganish uchun ob’ekt sifatida foydalanishgan. Bir guruh odamlarning ochiq ovoz berishi konformizmning namoyon bo‘lishidir. Lekin konformizm «soxtalik»ni ham keltirib chiqarish mum-kin, uning aks ettiruvchisi esa konformist deb ataladi, ko‘pincha ideallardan voz kechish hollari ham uchrab turadi.

Xulq-atvor va faoliyatning anglanilmagan omillari qatoriga mayllar kiradi. Hali differensiyalashmagan, yetarli darajada anglanilmagan ehtiyojdan tashkil topgan xulq-atvor va faoliyatini amalga oshirishga undovchi omil mayl deb ataladi. Moyillik holatiga kirib borayotgan shaxs uchun jalb qilayotgan ob’ektida uni nima qiziq-tirayotgani va qaysi alomat o‘ziga tortayotgani sababi noaniqligi. Faoliyat maqsadi sub’ektiga noma’lumligi tufayli mayl hukm suradi. Bunday psixik holat insonlarda tez-tez uchrab tursada, lekin uzining tezkor o‘tkinchligi bilan boshqa voqealardan ajralib turadi. Odatda, ushbu mohiyatli psixik holatni harakatlantiruvchi ehtiyoj so‘nishi yoki tilakka aylantirish mumkin. Binobarin, u xohish, niyat, orzu, fantaziya kabi shakllarga aylantirish tufayli shaxs to-monidan anglaniladi. Bunday shakldagi mayllarning odamlarda mavjud bo‘lishi ularning yaqin va uzoq kelajakka intilishlaridan da-lolat beradi.

Z.Freyd mayllarga nisbatan o‘ziga xos nazariya yaratgan bo‘lib, u aksariyat holatda jinsiy (instinktiv) mayllar to‘grisida mulohaza yuritadi (libido — jinsiy mayl), «edip kompleks» («Shoh Edip» asari bo‘yicha), «psixoanaliz» atamalari orqali qo‘rqish, himoya, be-gonalashish singari instinktiv moyillikni talqin qiladi.

Shuni ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, har qanday anglanilmagan mayl-lar o‘zidan o‘zi yo‘qolib ketmaydi, balki ular bir bosqichdan, ko‘ri-nishdan ikkinchi turga, shakllarga almashadi, mutlaqo boshqacha yangi sifatga ega bo‘ladi. Ular maqsadga, talabga o‘sib o‘tishi bilan angla-nilganlik darajasiga erishadi. Ko‘ngil g‘ashlik, ruhan bezovtalanish, noma’um xatti-harakatlar sababi insonga noma’lum bo‘lsa, ular ang-lanilmagan darajada ekanligini bildiradi va mayl funksiyasini bajaradi.

GURUH VA JAMOA. SHAXSLARARO MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI

Har bir shaxs o‘z faoliyatini turli guruhlar sharoitida yoki turli guruhlar ta’sirida amalga oshiradi. Chunki jamiyatdan chetda qolgan yoki insonlar guruhiga umuman qo‘shilmaydigan individning o‘zi yo‘q, inson jamiyatda yashar ekan, u doimo turli o‘ziga o‘hshash shaxslar bilan muloqotda, o‘zaro ta’sirda bo‘ladi, bu muloqot jarayonlari esa doimo kishilar guruhida ro‘y beradi. Shuning uchun ham guruhlar muammosi, uni o‘rganish va guruhlarning shakllanishiga oid ilmiy xulosalar chiqarish ijtimoiy psixologiyaning asosiy mavzularidan va muammolaridan biridir.

Psixologik ma’noda *guruh – bu umumiy belgilar, umumiy faoliyat, muloqot hamda umumiy maqsad asosida birlashgan kishilar uyushmasidir*. Demak, odamlar guruhi tashkil topishi uchun albatta qandaydir umumiy maqsad yoki tilaklar, umumiy belgilar bo‘lishi shart. Masalan, talabalar guruhi uchun umumiy narsalar ko‘p: o‘quv faoliyati, bilim olish, yoshlarga xos birliklar (o‘spirin yoshlar), ma’lum o‘quv yurtida ta’lim olish istagi va hokazo. Ko‘chada biror tasodif ro‘y berganligi uchun to‘plangan kishilar uchun ham umumiy bo‘lgan narsa bor – bu qiziquvchanlik bo‘lib o‘tgan hodisaga guvohlik, unga umumiy munosabatdir.

Guruhni alohida shaxslar tashkil etadi, lekin har bir guruh psixologiyasi uni tashkil etuvchi alohida shaxslar psixologiyasidan farq qiladi va o‘ziga xos qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Ayni shu qonuniyatlarni bilish esa turli tipli guruhlargi boshqarish va ana shu guruhlarni tashkil etuvchmilarni tarbiyalashning asosiy mezonidir.

Guruhlarning turlari ko‘p, shuning uchun ham ularni turli olimlar turlicha klassifikatsiya qiladilar. Bizning nazarimizda, G.M.Andreyevaning “Ijtimoiy psixologiya” darsligidagi klassifikatsiya guruhlarning asosiy turlarini o‘z ichiga qamrab olgan. U har qanday kishilar guruhini avvalo *shartli va real guruhlar*ga bo‘ladi. Real guruhlar aniq tadqiqot maqsadlarda to‘plangan laboratoriya tipidagi hamda tabiiy guruhlarga bo‘linadi. Konkret faoliyat va odamlarning ehtiyojlari asosida tashkil bo‘ladigan bunday tabiiy guruhlarning o‘zi kishilarning soniga qarab *katta, kichik guruhlar*ga bo‘linadi. Katta guruhlar uni tashkil etuvchilarning maqsadlari, fazoviy joylashishlari, psixologik xususiyatlariga qarab uyushgan va uyushmagan turlarga, kichiklari esa o‘z navbvtida endi shakllanayotgan – diffuz hamda taraqqiyotning yuksak pog‘onasiga ko‘tarila olgan jamoa turlariga bo‘linadi.

Guruhlarning turlari:

1. Katta guruhlar – millat va elatlarga, davlat va katta tashkilotlar va sinflarga aytiladi. Katta guruhlarning o‘ziga xos an’analari, urf-odatlari, millatlarning o‘ziga xos mentaliteti mavjud bo‘ladi. Har bir millatning hayot va turmush tarzi boshqasidan ozmi-ko‘pmi farq qiladi. Har bir katta guruhni ehtiyojlar, g‘oyalar,

qiziqishlar va maqsadlar ham bir-biridan ajratib turadi. Lekin katta guruhlarning tarkibi doimiy emas, u o‘zgarib turadi. Katta guruh a’zolari o‘zlarini shu guruhga (millat, din, partiyaga) mansub deb hisoblaydilar. “Menlik” — bizlikka aylanadi. Lekin “bizlik” kuchaysa, “egotsentrizm”ga aylanishi mumkin. Agar bu holat millatlarda yuz bersa, millatchilik paydo bo‘ladi.

2. O‘rta ijtimoiy guruhlarga tashkilot, zavod-fabrika, maktab, harbiy qism va boshqalar kiradi. Ular bir joyda(hududda) faoliyat ko‘rsatadilar, ularni yagona maqsad va g‘oya birlashtiradi. Tarkibi doimiy. Soni bir necha yuzdan bir necha minggacha yetishi mumkin.

3. Kichik guruh a’zolarining soni 8 tadan 40 kishigacha tashkil etadi. Ularning quyidagi umumiy belgilari mavjud:

- Ular bir-birlarini taniydilar.
- Ularni umumiy maqsad birlashtiradi.
- Bu kishilar o‘zaro bog‘liq va birgalikda faoliyat ko‘rsatadilar.
- Ularning orasida ish va shaxsiy munosabatlar mavjud.
- Tarkibi doimiy bo‘lib, ular yagona norma, qadriyatlarga amal qiladilar. Ularning rasmiy yoki norasmiy yetakchilari mavjud.

Bunday kichik guruhlarga o‘quvchilar, talabalar guruhi, brigada, do‘stlar jamoasi, sport jamoasi va boshqalar kiradi.

4. Kichik guruhchalardagi a’zolar soni 2 – 7 kishidan iborat bo‘lib, ularga oila, do‘stlar guruhchasi va boshqalar kiradi. Bu kichik guruhcha doimiy tarkibga ega bo‘lib, uning qadriyatlari, normalari ham doimiy mustahkam bo‘ladi. Bunday guruhchalar begonalar uchun ochiq yoki yopiq bo‘lishi mumkin. Kichik guruhcha a’zolari orasida o‘zaro bog‘liqlik kuchli bo‘ladi.

Rasmiy guruh – maxsus maqsadlar uchun tashkil etilgan bo‘lib, uni rasmiy yetakchi boshqaradi.

Norasmiy guruh – biror maqsadda, ixtiyoriy birlashgan kishilar guruhi. Bunga do‘stlar, havaskorlar va boshqa maqsadda birlashgan shaxslar guruhi kiradi.

Shartli guruh – vaqtincha bir yerga to‘plangan, vazifa va maqsadlari ham vaqtincha bo‘lishi mumkin. Bu guruhlarga sayohatchilar, turistlar guruhi, konfrensiya qatnashchilari va boshqalar kiradi.

Referent guruh (yoki etalon guruh) shaxs tomonidan qadriyatlari juda muhim hisoblangan guruhga referent guruh deyiladi. Bu asosan qadriyatlari va qiziqishlari o‘xshash bo‘lgan do‘stlar, mahalladoshlar guruhi. Bu guruhning ta’siri guruh a’zolariga kuchli bo‘ladi.

Birlamchi guruh – (kontakt guruhi) yuqorida keltirilganidek, bunga oila, brigada, sinf va boshqalar kiradi. Ularni faoliyat turi, bir hududda yashash va qadriyatlar birligi birlashtiradi.

Ikkilamchi guruh – bu guruh a’zolari orasida bevosita muloqot va munosabatlar bo‘lmasa ham, ularni faoliyat yoki maqsad (g‘oya) birlashtiradi.

Gorizontal guruh – asosan bir xil mavqedagi kishilarning to‘plamiga aytiladi.

Vertikal guruh – har xil ijtimoiy mavqeda, lavozim va tabaqadagi kishilarning biror maqsaddagi birlashuviga aytiladi.

Ijtimoiy chetlashgan guruh – a’zolari jinoyat qilmasalar ham jamiyatda qabul qilingan normalarni ozmi-ko‘pmi buzadilar. Bular rokerlar, xippilar, metallistlar, qimorbozlar va boshqalar.

Ijtimoiy buzuq guruhlar – bularga jamiyatda qabul qilingan normalarni buzib, jinoyat uchun birlashgan shaxslar to‘plami nazarda tutiladi. Guruh a’zolari har xil mavqeda bo‘ladi. Guruh a’zolarining qanday mavqe(status)da ekanini aniqlash uchun kichik guruhlarda J.Mareno tomonidan yaratilgan sotsiometriya metodikasi qo‘llaniladi. Ta’lim va tarbiya jarayonida guruhdagi yuqori mavqedagi va juda past tanlov olgan (past mavqedagilar) larga asosiy e’tibor beriladi.

Guruh a’zolari o‘z qobiliyati va imkoniyatlariga qarab guruhda(oilada, sinfda, mehnat jamoasi va boshqalarda) har xil rol bajaradilar. Masalan: er, xotin, rahbar, o‘qituvchi, farzand va hokazolar.

Guruh normasi – guruh a’zolari tomonidan qabul qilingan axloq, xulq-atvor normasi.

Guruhdagi pozisiya – guruh a’zolarining ijtimoiy hodisalarga, hayotga, tengdoshlariga munosabatlari.

Ijtimoiy sanksiyalar – guruh a’zolarini (shaxsni) jamiyat (guruh) tomonidan qabul qilingan normalarga rioya qilishga majbur qiluvchi ta’sir vositalari. Ijobiy sanksiyalarga qo‘llab-quvvatlash, himoya va boshqalar kiradi. Salbiy sanksiyalarga jazolash, quvvatlamay qo‘yish, hurmat qilmaslik, guruhdan chetlatish.

Guruh jipsligi – guruh a’zolarining ichki birligi, o‘zaro hamkorligi.

Guruh a’zolarining o‘zaro mosligi – guruh a’zolarining pozisiyalari, qadriyatlarining yaqinligi. O‘zaro faoliyatda hamkorlik va birlik qila olishlari.

Guruh yetakchisi – (lideri) norasmiy lider deb, guruh a’zolari tomonidan eng ko‘p tanlov olgan va hurmatga sazovor shaxs hisoblanadi. Yetakchilar qobiliyat va imkoniyatlariga qarab turlicha farqlanadi: hissiy, intellektual, tashkilotchi va boshqalar.

Rasmiy yetakchilar (lider) — guruh a’zolari tomonidan saylanadi yoki yuqori tashkilotlar tomonidan tayinlanadi.

Guruh bosimi – guruhning o‘z a’zolarining xatti-harakatiga, xulq-atvoriga ta’siri.

Kichik guruhlarni va jamoalarni o‘rganish V.Mede va F.Ollportlarning XX asrning birinchi yarmida olib borilgan tadqiqotlardan boshlandi. XX asrning 30 – 40-yillarda M.Sherif va T.N’yukomlar jamoada shaxslarning xulq-atvorini o‘rgandilar.

Guruh dinamikasini o‘rganishga Kurt Levin asos solgan. U «maydon nazariyasi»ning ham muallifidir. Jamoada jipslik, rahbarlik, guruh bosimi va nazariyasiga ham asos soldi.

J.Moreno «sotsiometrik yo‘nalish»ning kashfiyotchisidir.

Quyidagi o‘quv topshiriqlar mavzuni yanada takomillashtirishda foydalaniladi.

Shaxslararo munosabatlar va nizoli vaziyatlarni hal etish usullari.

Maqsad: Rolli o‘yin orqali hamkorlik munosabatlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

Boshlovchi 10 ta o‘quvchini xonaning o‘rtasiga taklif etadi. Ular ikki qator bo‘lib, bir-birlariga qarama-qarshi turishadi va ular oldiga yo‘riqnomaga binoan vazifa qo‘yiladi.

Yo‘riqnoma: «Tasavvur qiling, siz ikkita maktabning vakillarisiz. Yaqinda fizika fanidan ikki kunlik olimpiada bo‘lishi kerak, lekin olimpiadaning qaerda bo‘lishi hali aniq emas. Birinchi qator - A tomon - birinchi maktab vakillari, ikkinchi qator esa - V - tomon - ikkinchi maktab vakillari. Olimpiada kimning maktabida o‘tishi hozirgi sizning harakatingizga bog‘lik. Har bir tomondagi o‘quvchi iloji boricha qarshisidagi sherigini har xil va’dalar, takliflar bilan o‘z tomoniga og‘dirib olishga harakat qilishi kerak. Lekin bu muloqot so‘zsiz - imo-ishoralar yordamida o‘tishi kerak. Qaysi tomonga o‘tilsa, olimpiada shuning maktabida o‘tadi. Buning uchun sizga ikki minut vaqt beriladi».

O‘kuvchilarning muloqoti tugagandan so‘ng bajarilgan vazifa tahlil etiladi. Ishtirokchilar joylariga o‘tirganlaridan so‘ng boshlovchi bo‘lib o‘tgan yechim variantlarini flipchartga yozadi. Ushbu muzokaradagi munosabatlar quyidagicha bo‘lishi mumkin.

1. A-B. A tomon B tomonga o‘tadi va B joyida qoladi. Munosabatlarning bu turi B nuqtai nazaridan qaraganda raqobat deb ataladi.
2. A-B. A tomon joyida qoladi, B tomon esa A tomoniga o‘tadi. B nuqtai nazaridan qaraganda bu xil munosabat yon berish deb ataladi.
3. A-B. A ham B ham bir-birlarining tomoniga o‘tishmaydi va o‘z joylarida qolishadi, bu xil munosabat passivlik, ya’ni masalani hal etishdan qochish deyiladi.
4. A-B. To‘rtinchi munosabat tipi kompromiss deb ataladi. Bizning misolimizda olimpiada 3-bir maktabda o‘tkazilishi taklif etiladi.
5. A-B. Bu munosabat turi hamkorlik deb ataladi. Va bunda muammo ikkala tomonning manfaatlari hisobga olingan holda hal etiladi. Ya’ni olimpiadaning bir kuni bir maktabda, ikkinchi kuni esa ikkinchi maktabda o‘tadi. Bu holda ikkala tomonning qiziqishlari qondiriladi. Va hech qaysi tomon o‘zini kamsitilgan deb his etmaydi.

Bu mashq xulosasiga ko‘ra, muloqotning hamkorlik uslubi eng samarali va konstruktiv bo‘lib hisoblanadi.

Mashg‘ulotning ikkinchi yarmi nizoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilardan biron-bir nizoli, muammoli vaziyatni aytish so‘raladi. Ushbu nizoli vaziyatning turli yechimlari o‘quvchilardan so‘raladi va har bir taklif etilayotgan variant biron munosabat turiga taalluqli deb topiladi. Odatda, muammoli vaziyat yechimlaridan hamkorlikka taalluqli bo‘lgan variant nizoni hal etishdagi konstruktiv yo‘l bo‘lib hisoblanadi. Bir necha nizoli vaziyatlarni taxlil etish orqali o‘quvchilardan ushbu xulosa mustahkamlanadi.

«Avtobusda».

Maqsad: O‘quvchilarda muomala madaniyatini shakllantirish, shaxslararo munosabatlarni ijobiy rivojlantirish.

Ishtirokchilardan biri avtobusdagi bezori rolini o‘ynaydi, qolganlar esa yo‘lovchilar. Bezori avtobusdagi ikkita o‘rindiqni egallab olib, biriga o‘zi o‘tiribdi, biriga esa magnitofonini qo‘ygan. U hech kimga joy bermoqchi emas. Yo‘lovchilardan har biri bezori bilan til topishib uning yoniga o‘tirishga harakat qilib ko‘rishi kerak. Shart shuki - maqsadga janjalsiz erishish lozim.

«Avlodlar o‘rtasidagi nizo».

Maqsad: O‘quvchilarda muomala madaniyatini shakllantirish, shaxslararo munosabatlarni ijobiy rivojlantirish.

Bunda uch kishi ishtirok etadi - yigit, qiz va katta yoshli odam. Avlodlar o‘rtasida «Eh, hozirgi yoshlar...» qabilida taqlid uyushtiriladi. Yigit va qizning vazifasi: imkon boricha xushmuomalalik bilan nizodan qochish. Jyuri a’zolari har bir o‘quvchining harakatini baholab boradi.

«Orqadagi yozuvlar».

Ishtirokchilarning orqalariga varaq mahkamlab qo‘yiladi. Hamma ishtirokchilar xonada xohlagan odamining oldiga borib uning orqasidagi qog‘ozga bu odamning nimasi o‘ziga yoqishini yozishi kerak. Vazifani mukammallashtirish ham mumkin. Masalan, o‘sha odamda nimani o‘zgartirishni xohlashini yozishi mumkin.

Informatsiyani (ma’lumotni) so‘zsiz uzatish.

Bu o‘yinda boshlovchi yo‘naltirib turuvchi rolini bajaradi. Boshlovchi shunday tushuntirish beradi: «Hozir bir kishi xonadan tashqariga chiqib turadi, qolganlar esa unga qanaqa ma’lumotni aytish lozimligi haqida kelishib olishadi. Men uni chaqiraman, shunda butun guruh imo-ishora, turli qiliqlar va yuz harakatlari bilan unga shu informatsiyani uzatishga harakat qilishadi. Chaqirilgan odamning vazifasi - guruh unga aytmoqchi bo‘layotgan ma’lumotni anglab olishdan iborat».

Boshlovchiga eslatma: Odatda, o‘smirlar o‘yin muhitidan nojo‘ya xatti-harakatlarni bajarish uchun bahona sifatida foydalanishlari mumkin. Albatta, bu o‘yinda nojo‘ya harakatlar bo‘lishi tabiiy, lekin kimki vaziyatdan sho‘xlik va hazil-huzul uchun foydalanmoqchi bo‘lsa, uni o‘ynayotgan guruhinng o‘zi tartibga keltirib qo‘yishi kerak. Bu usulning muhim ta’sir kuchiga egaligini hisobga olib, uni jamoatchilikdan holi va shovqin kam bo‘lgan maxsus xonalarda o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Ikki qo‘llab ko‘rishish.

Ishtirokchilarning hammasi doira shaklida o‘tirishadi. Qo‘llar bir-biriga birlashtirilgan bo‘ladi. Ishtirokchilar birvarakayiga xohlagan tomonidagi (chap yoki o‘ng yonidagi) kishiga salomlashish uchun qo‘shqo‘llab qo‘l uzatadi. Unisi esa qo‘llarini yonidagisiga uzatishi mumkin va birinchi ishtirokchiga navbat yetgunicha shu holda davom etadi. Shunday qilib bir nechta mos kelmaslik holati kuzatilishi tabiiy. Ana shunda qanaqangi qiy-chuv ko‘tarilishini ko‘rasiz!Bu o‘yinni bir necha bor takrorlash nafas rostlash va tinchlanish uchun foydalidir.

Aziz mehmon o‘yini.

Maqsad: a) shaxsning va xususan, protogonist (mehmon) shaxsining guruh tomonidan hurmat qilinishini tasdiqlash; b) guruhda odam bilan muomala qilish san’atini shakllantirish; v) bevosita (o‘yinni amalga oshirish orqali) guruhdagi ayrim ishtirokchilarning protogonistga nisbatan salbiy munosabatini shakllantirish.

Bu o‘yinda protogonist sifatida guruhdagi eng ko‘zga tashlanmaydigan, sust o‘smir tanlanadi.

Boshlovchi o‘yinning mohiyatini quyidagicha tushuntiradi: «Hozir bir kishi tashqariga chiqib, to uni chaqirmagunimizcha eshik orqasida kutib turadi. Qolganlardan 7 kishini biz har bir o‘yin qatnashchilarining ishtirokini va xulq-atvorini baholash uchun (5 balli sistemada) hakam sifatida saylaymiz. Vazifangiz nimadan iboratligini aytib oling: eshik ortidagi kishi - bizning eng aziz mehmonimiz. Tasavvur qiling, u bizning respublikamiz uchun do‘st mamlakat bo‘lgan AQSh davlatining vakili bulib, O‘zbekiston va Amerika o‘rtasida mustahkam aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun tashrif buyurgan. Ishtirokchilardan biri mehmonni chaqiradi, shu bilan birga unga hamrohlik va tarjimonlik ham qiladi. Qolgan ishtirokchilarning har biri mehmon bilan ko‘rishishga, undan nimanidir so‘rashga, unga nimalarnidir gapirib berishga harakat qilishi kerak, chunki mehmon zerikib qolmasligi kerak. Hakam a’zolarining vazifasi: qatnashchilarning ishtirokini kuzatib borib, kimda-kim mehmon bilan quruq, betakalluf, soxta, xushomadgo‘ylarcha va odobsizlarcha munosabatda bo‘lsa, ularning ballarini tushirishdan iborat. Odobsizlar va ballari past bo‘lganlar o‘yindan chiqariladi. Hakamlar har bir ishtirokchining o‘rtacha bahosiga qarab, uning o‘zaro munosabatga kirishish qobiliyatiga baho beradilar».

Boshlovchi ham ishtirokchilar bilan birgalikda hakam a’zolarini, xamrohlik qiluvchi (tarjimon)ni va «mehmon»ni tanlaydi. Xamrohlik qiluvchi xonadan chiqib ketadi va bir pasdan so‘ng «mehmon»ni boshlab kiradi. Ishtirokchilar protogonistni doira shaklida o‘rab oladilar va uning atrofida kim qanday istasa shundayligicha o‘tiradilar. U bilan gaplashishning navbatma-navbatligi shart emas, muhimi har bir ishtirokchi u bilan munosabatga kirishishi kerak.

Oldindan ma’lum bo‘lgan kulguli narsalar (mehmon bilan «chet tilida gaplashish» va muloqotning odatlanilmagan usuli) o‘yinga zavq bag‘ishlaydi, kulgu uyg‘otadi, lekin ta’kidlangan jiddiylik yo‘qolmaydi. Tajribalarda ko‘rinishicha, protogonist bilan muloqotda bo‘luvchi shaxslar o‘z munosabatlarida xazilomuz, kulguli harakatlarni ham qo‘llaydilar. Bunda ishtirokchilar, hatto hakamlar tomonidan ballar kamaytirilishi ehtimolini ham unutib qo‘yadilar. Shunday vaziyat kuzatilganda, o‘yin nihoyasida boshlovchi ishtirokchilarning bu xil (noo‘rin) harakatlarini yengilgina bo‘lsa xam ta’kidlab o‘tishi kerak.

Mehmon nomiga aytilayotgan olqishlar haqida oldindan boshqotirib o‘tirish shart emas, balki ishtirokchilar buni o‘yin jarayonida o‘ylab topishlariga imkoniyat yaratish kerak.

MULOQOT PSIXOLOGIYASI

Muloqot - *odamlar o‘rtasida birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir.* Shaxs – ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi – uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o‘zaro ta’sir doirasida bo‘lishini anglatib, bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Insoniy munosabatlarda dastlab odamlar o‘rtasida ro‘y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo‘lishgani sari, ular o‘rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o‘rtasida umumiylik, o‘xshashlik va uyg‘unlik kabi sifatlar paydo bo‘lib, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig‘izligi teskari reaksiyalarni – bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi.

Muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo‘ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o‘ziga jalb etadi. Shuning uchun ham muloqot, uning jihati, tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o‘rgatish (ijtimoiy psixologik trening) masalalari bilan shug‘ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o‘rni va salohiyati keskin oshdi.

Muloqot hamkorlikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlanishini o‘z ichiga olib, bunday ma’lumot almashinuv muloqotning *kommunikativ jihati* sifatida ta’riflanadi. Odamlar muloqotga kirishar ekanlar, uning eng muhim vositalaridan biri sifatida *til*ga murojaat qiladilar.

Muloqotning ikkinchi jihatida – munosabatga kirishuvchilarning nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan emas, balki *xatti-harakatlar* bilan ham almashinuvi nazarda tutilib, bu muloqotning *interaktiv jihati* deb yuritiladi.

Nihoyat, muloqotning uchinchi jihati *perseptiv* deb atalib, bunda munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlari tushuniladi.

Shunday qilib, muloqot jarayonida shartli ravishda uchta, ya’ni *kommunikativ* (axborot uzatish), *interaktiv* (hamkorlikda harakat qilish) va *perseptiv* (o‘zaro birgalikda idrok etish) jihatlarni alohida ko‘rsatish mumkin. Ana shu uchta jihatning birligi muloqot jarayonida hamkorlikdagi faoliyat va jalb etilgan odamlarning o‘zaro birgalikdagi harakatlarini tashkil etish usuli sifatida maydonga chiqadi.

Muloqotning kommunikativ jihati. Muloqotning hamkorlikda harakat qilish va faoliyat ko‘rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan muloqot vositasi til bo‘lib, u muloqotga kirishuvchilar o‘rtasida aloqa bog‘lanishini ta’minlaydi. Tilning ushbu maqsad uchun tanlangan so‘zlar mohiyatiga ko‘ra kodlashtirgan holda axborotni ma’lum qilayotgan kishi ham, bu mohiyatning kodini ochgan, ya’ni uning ma’nosini oshkor etgan va ana shu axborot asosida o‘z xulq-atvorini o‘zgartirgan holda bu axborotni qabul qilayotgan kishi ham tushunadi.

Axborotni boshqa kishiga yo‘llayotgan kishi (kommunikator) va uni qabul qilayotgan kishi (resepient) munosabat va birgalikdagi faoliyat maqsadlarga erishish uchun mohiyatlarni kodlashtirish va kodini ochishning bitta yagona sistemasidan foydalanishlari, ya’ni «bitta tilda» so‘zlashishlari kerak bo‘ladi. Agar kommunikator va resepient kodlashtirishning turli xil sistemalarini qo‘llasalar, ya’ni bir-birlariga noma’lum bo‘lgan “til”da so‘zlashsalar, bu holda ular o‘zaro hamjihatlikka va birgalikda faoliyat borasida muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. Qo‘llanadigan belgilar (so‘zlar, imo-ishoralar va hokazolar) zamiridagi *mohiyat* muloqotda ishtirok etayotgan shaxslarga tanish bo‘lgan taqdirdagina axborot ayirboshlash mumkin bo‘ladi.

Mohiyat – tevarak-atrofdagi voqelikni bilishni ifoda etadigan qism sifatidagi mazmunga ega bo‘lgan so‘zlar belgisi tizimidir. Bunda so‘zlar belgilari tizimi hayot kechirish, ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish va uzatish vositasi sifatidagi tilni tarkib toptiradi. Ijtimoiy tajriba to‘plash va uzatish vositasi sifatidagi til aniq tovushlardan foydalangan holda o‘y-fikrlar almashinuvi, axborot berishni amalga oshiradi.

Muloqotning psixologik vositalari. Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko‘zlagan maqsadlaridan biri – o‘zaro bir-birlariga ta’sir ko‘rsatish, ya’ni fikr-g‘oyalariga ko‘ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o‘zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsata olish –*psixologik ta’sir* deyiladi.

Psixologiyada *psixologik ta’sir*ning asosan uch vositasi farqlanadi:

Verbal ta’sir – bu so‘z va nutq orqali ko‘rsatadigan ta’sirlardir. Har qanday nutq ko‘rinishida odam o‘zidagi barcha so‘zlar zahirasidan foydalanib, eng ta’sirchan so‘zlarni topib, sherigiga ta’sir ko‘rsatishni xohlaydi.

Paralingvistik ta’sir – bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillari bo‘lib, bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to‘xtashlar, duduqlanish, yo‘tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi.

Noverbal ta’sir «nutqsiz» ko‘rinishga ega bo‘lib, bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o‘rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi.

Agar muloqot jarayonini yaxlit bir faoliyat sifatida undagi asosiy maqsad - muomalaga kirishgan shaxslarning umumiy muammolarini yechish bo‘ladigan bo‘lsa, muloqotning tashabbuskori bo‘lgan shaxsning ta’siri qanchalik adresatga - ta’sir yo‘naltirilgan kimsaga yetib borishi katta amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun ham olimlar muloqotning samaradorligi ko‘proq qaysi vositalarga bog‘liqligiga qiziqadilar. Amerikalik olim Mexrabyanning ma’lumotlariga ko‘ra, birinchi uchrashuvda biz boshqalardan kelayotgan noverbal signallarga 55%ga ishonamiz, ulardan ta’sirlanamiz; 38% - paralingvistik va 7%gina nutqning

bevosita mazmuniga ishonamiz. Shuning uchun ham obrazli tarzda “Kiyimga qarab kutib olinadi, aqlga qarab kuzatiladi” deyiladi. Keyingi uchrashuvlarda bu mutonosiblik, tabiiy, o‘zgaradi.

Albatta, paralingvistik hamda noverbal vositalarning muloqatdagi o‘rni va ulushi masalasi suhbatdoshlarning yosh, jins, kasb, hattoki, milliy xususiyatlariga bog‘liq. Masalan, boshqa bir amerikalik olim Argayl turli millatlar vakillari muomalasida qiliqlar va qo‘l harakatlarining kuchi va takrorlanishini o‘rgangan. Ma’lum bo‘lishicha, 1 soat mobaynida finlar bir marta qiliq qilarkan, italiyaliklar - 80 marotaba, fransuzlar - 20 va meksikaliklar 180 marta. Demak, har bir xalq vakilining asriy udumlari, rasm-rusmlari, odatlari va emotsionalligiga qarab qiliq va harakatlar ma’lum o‘rin egallar va bu narsa o‘z navbatida muloqotni kuchaytiradi, uni boyitadi.

Muloqot jarayonida suhbatdoshlarning fazoviy joylashishlari hamda vaqt mezonlari amaliy ahamiyatga ega. Masalan, yuzma-yuz turib gaplashish, telefon orqali yoki qichqirib gapirishdan farq qiladi. Yoki muloqotning vaqt mezonlari ayniqsa diplomatik uchrashuvga o‘z vaqtida kelish va unda odob-axloqqa qat’iy rioya qilish yoki aksincha, sherikni hurmat qilmaslik, uchrashuvga kechikib kelish, uzoqdan turib gaplashish, iyaklarni tepaga qaratib, kibor bilan gapni boshlash, muzokaralarning har bir sekundi o‘ziga xos ma’no va mazmun kasb etadi va mos tarzda sharxlanadi.

Yuqorida ta’kidlangan holatlar psixologiyadagi maxsus bo‘lim - proksemika tomonidan o‘rganiladi. Bu yo‘nalishning asoschisi amerikalik E.Xoll bo‘lib, uning o‘zi proksemikani “fazoviy psixologiya” deb atagan. Masalan, u amerikaliklarga xos bo‘lgan suhbatdoshning sherigiga nisbatan fazoviy joylashuvi xususiyatlarini aniqlab, muloqotning turli sharoiti va shakliga qarab, fazoviy yaqinlashuvning o‘rtacha qiymatini aniqlagan:

intim (yaqin) masofa - 0 - 45 sm;
personal (shaxsiy) masofa - 45-120 sm;
ijtimoiy masofa - 120-400 sm;
ommaviy masofa - 400-750 sm.

Har bir masofa o‘ziga xos muloqot vaziyatlariga mos. Vaqt va fazo bilan bog‘liq aloqalarning o‘ziga xos majmui *xronotoplar* deb ataladi. Amaliyotda “kasalxona palatasi xronotopi”, “vagon yo‘lovchilari xronotopi” va boshqalar aniqlangan.

Muloqotda suhbatdoshlarning ko‘z qarashlari - vizual kontaktlari ham katta ahamiyatga ega. Vizual kontakt - bu qarashlar soni, ularning uzoqligi, qarashlardagi statika va dinamik almashinuvlar, ko‘z olib qochishlar va boshqalardir. Argayl shulardan kelib chiqib, “yaqinlik (intimlik) formulasi”ni ishlab chiqqan va bunda intimlilik darajasi suhbatdoshlarning o‘rtasidagi masofaga va ko‘z qarashlarga bog‘liqligini isbotlagan. Chunki ko‘z qarashlar suhbatdoshning muloqotga tayyorligi, uni davom ettirish kerak yoki kerak emasligi haqida ma’lumot berib, suhbatning yo‘nalishini belgilaydi.

Yana bir muhim ta’sirchan belgilar majmuini o‘ziga mujassam etgan soha - bu yuzimizdir. Ilmiy adabiyotda yuz qiyofasining 2000 dan ziyod qirralari

aniqlangan. Ularni ma’lum tartibda tizimga solish uchun P.Ekman *“FAST” - Facial Affect Scoring Technique* deb nomlangan metodikani ham taklif etgan. Professor Pol Ekman vizual kontaktning yuz sohasiga yo‘nalishiga ko‘ra yuz uch zonaga bo‘linadi:

I - Nigoh ko‘z va peshona sohasiga qaratilishi - “bo‘yruq” zonasi.

II - Nigoh ko‘z va burun va burun oldi sohasiga qaratilishi- “ijtimoiy, do‘stlik” zonasi.

III - Nigoh ko‘z, og‘iz, iyak va undan pastki sohalariga qaratilishi- “intim, yaqinlik” zonasi.



I - zona II - zona III - zona

9.1-rasm.

Mazkur yo‘nalishda uzoq yillik tadqiqot olib borgan mutaxassislardan Allan Piz va Barbara Piz hisoblanadi. Quyida ularning “Noviy yazik telodvijeniy” nomli kitobi (M.,2010) dan noverbal qiliqlar tasnifini keltirib o‘tamiz:



9.2-rasm

Birinchi rasmdagi holat- qo‘l kaftlarining chakkaga quyilganligi uning nimagadir juda hayratlanib, qiziqayotganligining belgisidir.

Ikkinchisida, agar suxbat qiziqarli bo‘lmasa yoki yoqmasa qo‘lini yuziga qo‘yib, bosh barmoqni daxaniga qo‘yib, qolgan barmoqlari bilan og‘zini bekitadi.



9.3-rasm.

Agar suhbatdosh yelkalarini qisayotgan bo‘lsa, demak, u siz bilan bo‘lgan suhbatga befarq, unga baribir yoki tushunmayotganlik belgisi.

Qo‘llar ko‘krakda bog‘langan bo‘lsa, bu suhbatdoshning berkligi, himoyalanganlik, muloqotda yopiqlik ramzi.

Agar suhbatdoshning qo‘l kaftlari ochiq bo‘lsa, bu samimiylik belgisidir.



9.4.-rasm

Agar suhbatdosh iyagiga tegib, yoki uni ishqalayotgan bo‘lsa, demak, u qaror qabul qilishga harakat qilayotganligi belgisi.

9.5-rasm

Agar odam labining chetiga, burniga tegib, yoki uni ishqalayotgan bo‘lsa, demak, u o‘z fikriga ishonchsizligi, yolg‘on gapirayotganligi belgisi.

Agar suhbatdoshingiz barmoqlari bilan stolni tinmay chertayotgan bo‘lsa, demak, u betoqat, yoki unga siz bilan suhbatlashish zerikarli, shuning uchun u asabiylashmoqda.

Agar u qo‘l barmoqlarini qisayotgan bo‘lsa, demak, u nimadandir juda xavotir, o‘zini himoyasiz his qilmoqda.

Suhbatdoshning qo‘llarini musht qilib turishi undagi vajohat belgisi, lekin u bu holatni, badjahllikni nazorat qilmoqchi.

Agar suhbatdoshning qo‘llari behol bo‘lib, kaftlari yuqoriga qaratilgan tarzda oldinga intilgan bo‘lsa, demak, u nimadandir taajjubda, tashvishda, qiyinchilikda.

Agar odam tez yurib borayotib, iyaklarini ko‘targan holda qo‘llarini erkin tashlab qo‘ygan bo‘lsa, demak, u o‘ziga ishonadi, u - qat’iyatli.

Odam ketayotganda, ikki quli cho‘ntakda, boshi egik bo‘lsa, demak uning ruhi tushgan, xafa, depressiya holatida bo‘ladi.

Agar qo‘llarining uchlarini birlashtirib “uycha” shaklini eslataayotgan bo‘lsa, bu - uning nimanidir o‘ylayotganligi yoki nimagadir qiziqayotganligi ramzidir.

Agar odam stulning qirgogiga o‘tirib olgan bo‘lsa, bu yo sabrsizlik bilan kutayotganligi, yoki nimagadir qiziqish bildirayotganligi ramzidir.

Odam oyoqlarini bir-birining ustiga qo‘yib olib, oyog‘ini yengil tebratayotgan bo‘lsa, demak, u zerikmoqda.

Agar odam o‘zini orqaga tashlab, qo‘llarini bir-biriga bog‘lab, bo‘ynida ushlagan bo‘lsa, demak, u dam olmoqchi, va boshqalarda taassurot qoldirmoqchi

Agar qo‘l berib ko‘rishishda qaysi tomonning qo‘li tepada bo‘lsa o‘sha odam *ustunlik*, pastda bo‘lsa o‘sha odam *bo‘ysunuvchanlik*, vertikal, to‘g‘ri holatda bo‘lsa *tenglik* holati bo‘ladi.

Shunday qilib, biz odatiy, tabiiy deb idrok qiladigan faoliyatimiz bo‘lgan - muloqotda ham ko‘plab sirlar va o‘ziga xos nozik tomonlar borki, ularning barchasi bizdan muloqotdagi bilimdonlikni va o‘zgalarga va o‘zimizga e’tiborliroq bo‘lishimizni talab qiladi.

Shu o‘rinda aytish joizki, muloqot jarayonining samarasi suhbatdoshni *tinglay olish*ga ham bog‘liq. Muloqotga o‘rgatishning muhim yo‘nalishlaridan biri – odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o‘rinli foydalanishga o‘rgatishdir.

Tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

Empatik tinglash

Empatiya (ingl.empathy – hamdardlik, o‘zini boshqaning o‘rniga qo‘ya olish mahorati) – bu insonning boshqalarning kechinma va his-tuyg‘ulariga nisbatan emotsional javob bera olish qobiliyatidir. Empatiyani namoyon qilishning 3 varianti mavjud: empatik ta’sirlanish (kuzatish orqali boshqa insonda namoyon bo‘layotgan emotsiyalarga o‘xshash emotsional ta’sirlarni boshdan kechirish), boshqa nuqtai-nazarni qabul qilish (o‘zini boshqaning o‘rnida tasavvur etish), simpatik ta’sirlanish (boshqa insonning his-tuyg‘usini tushunish g‘amho‘rlik, jonkuyarlik, rahmdillikni yuzaga keltirishi).

Empatik tinglash qoidalari:

- qalbni o‘z kechinmalari va muammolaridan ozod qilish, suhbatdosh haqida noto‘g‘ri fikrlardan voz kechish, uning his-tuyg‘ularini qabul qilishga intilish muhim;

-suhbatdoshining so‘zlariga nisbatan ta’sirlanishda uning kechinmalari, his-tuyg‘ularini aniq aks ettirish, nafaqat to‘g‘ri idrok etganligini, balki tushungan va qabul qilganligini ham namoyon qilish zarur;

- suhbatdoshning his-tuyg‘ularini aks ettirish uning harakatlari va yashirin xulq-atvor motivlarini izohlashsiz amalga oshirilish zarur, unga shu his-tuyg‘ularning sabablari haqida o‘z fikrini tushuntirish shart emas;

- pauzani ushlash muhim, qo‘shimcha mulohaza va sharhlarga shoshish kerak emas. Bunda qoidaga ko‘ra maslahat, nasihat, tanqid, baho berilmaydi.

Passiv tinglash

So‘zlayotgan insonning nutqiga minimal darajada aralashish, maksimal darajada diqqatini jalb qilishni anglatadi (diqqat bilan jim turish mahorati). Ushbu tinglashning muhim signali noverbal ta’sir, ya’ni ko‘z kontakti, bosh irg‘itmoq yoki silkitmoq hisoblanadi. Bu tinglash turi quyidagi vaziyatlarda maqsadga muvofiq:

Agar suhbatdosh o‘z nuqtai-nazarini aytishni xohlayotgan bo‘lsa;

Agar suhbatdosh o‘z muammolari haqida so‘zlayotgan bo‘lsa;

Keskin va tang vaziyatlarda;

Sizdan yuqori lavozimdagi inson bilan suhbatda (masalan, sizni rahbaringiz tanqid qilganda)

Passiv tinglash qoidalari:

Pozitiv reaksiyalar: a) ma’qullamoq (“xo‘p”, “ha-ha”, “qani”, bosh irg‘itish); b) “exo-ta’sir” (suhbatdoshning so‘nggi so‘zini takrorlash); v) “ko‘zgu” (suhbatdoshning oxirgi gapini so‘zlar tartibini o‘zgartirib takrorlash); g) “parafraza” (suhbatdoshning fikrini boshqa so‘zlar bilan yetkazish); d) undash (“xo‘sh …”, “keyinchi?”); ye) emotsiyalar(“o‘o‘o‘”, voy, ex, juda soz, qoyil, kulgu); j) aniqlashtiruvchi savollar (“qaytadan takrorla, nima deding?”);

Negativ reaksiyalar: a) so‘zlayotgan insonni bo‘lish yoki davom ettirish;b) suhbatdoshning fikrlaridan mantiqiy natija qidirish; v) “beadab ta’sir” (“ahmoqlik”, “bo‘lmagan gap”, “bu hammasi bema’nilik”); g) qayta so‘rash; d) suhbatdoshga e’tiborsizlik (tinglovchi sherigini nazarga ilmaydi, uning so‘zlariga e’tibor bermaydi). Passiv tinglash asosan bahs-munozarasiz suhbatlarda yoki nizo xavfida qo‘llaniladi.

*Aktiv tinglash.*Bunda birinchi planga axborotning aksi chiqadi. Bu olingan axborotni tinglash jarayonida tahlil qilish va savol, luqma yordamida darhol javob berishni anglatadi.Ushbu tinglash turi muloqotda eng konstruktiv hisoblanadi.

Aktiv tinglash qoidalari:

a) aniqlash, oydinlashtirish(“men tushunmadim”, “yana bir bor takrorlang”, “nimani nazarda tutdingiz?”, “tushuntirib bera olasizmi?”); b)parafraza (suhbatdoshning so‘zlarini o‘z so‘zlari bilan takrorlash, “siz hisoblaysizki…”, “boshqacha aytganda…”); v) his-tuyg‘ularning aks etishi (“nazarimda, siz…his qilayapsiz», “tushunaman, sizning hozir jahlingiz chiqyapti…”); g) undash

(“qani…”, “keyinchi…”); d) davom etish, ya’nisuhbatdoshning so‘zlariga so‘z kiritish, uning so‘zlarini o‘z so‘zi bilan tugatish, so‘zlarni aytib turish; ye) baholash (“sizning gapingiz qiziqtirib qo‘ydi…”, “menga yoqmayapti”); j) taqriz berish (“shunday qilib, siz hisoblaysizki…”, “sizning so‘zlaringiz anglatadiki…”). Bunday muloqot usullarini qo‘llash ikki maqsadga erishishga imkon beradi: adekvat qaytuvchan aloqa ta’minlanadi; suhbatdoshga bilvosita uning ro‘parasida teng huquqli sherik ekanligi haqida axborot boradi.Teng huquqli sheriklar pozisiyasi ikala suhbatdosh ham har so‘zi uchun javobgar ekanligini anglatadi. Har bir insonning tinglash uslubi quyidagi omillarga bog‘liq: jins, yosh, mavqe, individual xususiyatlar (xarakter, temperament, qobiliyat, qiziqishlar va b.), muayyan vaziyat.

Muloqotning interaktiv jihati. Muloqot shaxslararo birgalikdagi harakat, ya’ni odamlarning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida tarkib topadigan aloqalari va o‘zaro bir-birlariga ta’sirining yig‘indisi sifatida yuzaga chiqadi. Hamkorlikdagi faoliyat va munosabat ijtimoiy qoidalar – odamlarning birgalikdagi harakati va o‘zaro munosabatlarini qat’iyan belgilab qo‘yadigan hamda jamiyatda udum bo‘lgan xulq-atvor namunalari asosida amalga oshiriladigan *ijtimoiy nazorat* sharoitida yuz beradi.

Jamiyat ijtimoiy qoidalar sifatida qabul qilgan, ma’qul topgan, udumga aylangan va tegishli vaziyatda turgan har bir kishidan bajarilishini kutayotgan namunalarning o‘ziga xos tizimini yaratadi. Ularning buzilishi qoidadan chetga chiqadiganlarning xulq-atvori to‘g‘rilanishini ta’minlaydigan *ijtimoiy nazorat* mexanizmlari (ma’qullamaslik, ta’na qilish, jazolash)ni o‘z ichiga oladi. Qoidalarning mavjudligi va qabul qilinishi haqida biron kishining barcha boshqa odamlar xulq-atvoridan farq qiluvchi xatti-harakatiga atrofdagilarning bir xilda munosabat bildirishi dalolat beradi. Ijtimoiy qoidalar mehnat intizomi, harbiy burch va vatanparvarlik talablariga javob beradigan xulq-atvor namunalaridan tortib, odoblilik qoidalariga qadar hammasini o‘z ichiga oladi. Odamlarning ijtimoiy qoidalariga murojaat qilishi ularda o‘z xulq-atvori uchun mas’ullik hissini uyg‘otadi, harakatlari va qiliqlarning ushbu qoidalarga mos kelishi yoki mos kelmasligini baholagan holda ularni tuzatib borish imkonini tug‘diradi. Qoidalarga qarab mo‘ljal olish kishiga o‘z xulq-atvorining shakllarini andozaga qarab moslash, ijtimoiy jihatdan maqbullarini tanlab olish, nomaqbul shakllariga amal qilmaslik, o‘zini muloqot jarayonida yo‘naltirib va boshqarib borish imkonini beradi. Odamlar o‘zlashtirilgan qoidalardan o‘zlarining xususiy xulq-atvorini boshqalarning xulq-atvori bilan taqqoslaydigan mezon sifatida foydalanadilar.

Hamkorlikdagi harakat jarayonlarini ijtimoiy nazorat munosabat-ga kirishadigan odamlar “bajaradigan” rollar (Psixologiyada rol deganda xulq-atvorning normativ jihatidan ma’qul bo‘lgan muayyan ijtimoiy mavqeni egallab turgan har bir kishidan atrofdagilar kutayotgan namunasi tushuniladi) repertuariga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. Sub’ekt o‘qituvchi yoki o‘quvchi, shifokor yoki bemor, katta yoshli kishi yoki bola, rahbar yoki xodim, ona yoki bola va shu kabi rolni bajaradi. Har qanday rol mutlaqo aniq talablarga va atrofdagilarning muayyan orzu-istaklariga javob berishi kerak.

Shaxs muloqotning turli xil vaziyatlarida qoida tariqasida har xil rollarni bajaradi. Masalan: o‘zining xizmatidagi roliga ko‘ra rahbar bo‘lib turgan kishi betob bo‘lib qolganda, bemor roliga kirgan holda shifokorning barcha ko‘rsatmalarini bajaradi; shu bilan birga oilada u keksa onasining mo‘mingina o‘g‘li rolini saqlab qoladi va hokazo. Rol mavqelarining ko‘pligi ba’zida ularning to‘qnash kelishiga – rol konfliktlariga (ziddiyatlarga) sabab bo‘ladi.

Turli xil rollarni bajarayotgan odamlarning hamkorlikdagi harakati rollar ehtimoli bilan boshqariladi. Kishi buni istasa-istamasa atrofdagilar undan muayyan namunaga mos keladigan xulq-atvorni talab qiladi. Rolning qonday bajarilishi *ijtimoiy nazorat* ostida bo‘ladi, ijtimoiy jihatdan muqarrar ravishda baholanadi va namunadan salgina chetga chiqilishi esa qoralanadi.

Muloqotning perseptiv jihati. Muloqotning ushbu jihatida bir kishining ikkinchi kishi tomonidan idrok qilinishi, tushunishi, baholanishi kuzatiladi. Muloqotning mazkur jihati quyidagi bosqichlar orqali amalga oshishi mumkin:

1) Idrok qilinayotgan odamni idrok qiluvchi o‘zining shaxsiy xislatlari bilan qiyoslash natijasida, uning mahsuli bo‘yicha talqin qilinadi va tushuntiriladi; bunday idrok qilish tarzida insonni inson tomonidan aks ettirish, o‘xshatish, unga taqlid qilish, undan ibrat olish uslublari orqali yuzaga keladi, ya’ni *identifikatsiya* (aynan o‘xshatish) bosqichi bevosita amalga oshadi. Bunda kishi hamkorlikda harakat qilish vaziyatida sherigi o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rib, uning ichki holati, niyatlari, o‘y-fikrlari, xohish-istaklari haqida taxmin qilinadi, bunda ular anglanilgan yoki anglanilmagan bo‘lishi mumkin.

2) Idrok qilinayotgan shaxsning o‘rniga idrok qiluvchi o‘z xohishi bo‘yicha mulohaza yuritishi, uni tushunishga intilish o‘z-o‘zini anglash negizida namoyon bo‘ladi, ya’ni *refleksiya* bosqichi vujudga kelganligi to‘g‘risida muayyan qarorga kelinadi. Refleksiyada kishi idrok etish sub’ekti sifatida o‘ziga nisbatan sherigining munosabati anglab yetiladi. Lekin kishi har doim ham muloqot jarayonida o‘zini kim ekanligini to‘liq anglab yetolmaydi, bu esa uning o‘zi qilgan xatti-harakatlari sabablarini boshqalarga to‘nkashga majbur qiladi. Kishi o‘z xatti-harakatlari sabablarini, niyatlarini, o‘y-fikrlarini, xulq-atvor motivlarini boshqa kishilarga to‘nkash orqali tushuntirishi psixologiyada *kauzal atributsiya* ya’ni sababiy izohlash deb ataladi.

3) O‘zga kishilarning kechinmalari va his-tuyg‘ulariga nisbatan hamdardlik bildirish, mehr-oqibatliligini amaliy ifodalash orqali ularni tushunish imkoniyati tug‘iladi, buning natijasida tub ma’nodagi empatiyaga asoslangan idrok qilish bosqichi yuzaga keladi.

4) O‘zga kishilarga, ijtimoiy guruh a’zolariga nisbatan berilgan xislatlarni hozirgacha ma’lum bo‘lgan ijtimoiy qoliplarga mos tarzda ommaviy tarzda yoyish, tavsif berish va baholash *stereotipizatsiya (bir xil qolipga solish)* ya’ni, *stereotiplashtirish* deyiladi. Idrok etish sub’ekti ijobiy munosabatda bo‘lgan shaxslarga ijobiy, yoqtirmaydigan shaxslarga salbiy baho berilishi kauzal atributsiyaga xos tipik hollardan biridir. Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, shaxs muloqot jarayonida o‘z ob’ekti nisbatan ijobiy taassurotga ega bo‘lsa, sub’ektga ma’lum bo‘lmagan fazilatlarini ijobiy baholashga yoki aksincha, ob’ekt salbiy

taassurot qoldirgan bo‘lsa, sub’ektga ma’lum bo‘lmagan xislatlarini salbiy baholashga harakat qilar ekan. Bu holat psixologiyada *oreol effekti* nomi bilan yuritiladi.

Muloqot odamlarning jamiyatda o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etib, u hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo‘lganligini hisobga olinganda, odamlarning mehnat unumdorligi va samaradorligini ta’minlovchi muhim omil ekanligini bildiradi.

Muloqot mazmuniga ko‘ra quyidagi turlarga ajraladi:

Moddiy muloqot deganda sub’ektni dolzarb ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida, ayni paytda shug‘ullanayotgan faoliyatining mahsulotlari va predmetlarini ayirboshlash tushuniladi.

Kognitiv muloqot deb shaxslarning hamkorlikdagi faoliyatida narsa va hodisalarni o‘rganish, ma’lumotlarni bilib olish jarayonida o‘zaro bilim almashinuviga aytiladi.

Kondision muloqotda psixologik va fiziologik holatlar ayirboshlanadi. Masalan, shifokor bemorning tushkun kayfiyatini ko‘tarishi yoki aksincha, ona qizining o‘ksinib yig‘layotgan holatiga yig‘i bilan munosabat bildirishi va hakozo.

Motivasion muloqot muayyan yo‘nalishda hamkorlikda harakat qilish uchun o‘zaro maqsadlar, qiziqishlar, motivlar, ehtiyojlar almashinuv jarayoni bilan izohlanadi.

Faoliyat muloqoti kognitiv muloqot bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda harakatlar, operatsiyalar, ko‘nikma va malakalar ayriboshlanadi. Bu muloqot jarayonida ma’lumotlar uzatiladi, bilim doirasi kengayadi, qobiliyatlar rivojlanadi, takomillashadi.

Muloqot maqsadiga ko‘ra biologik va ijtimoiy ko‘rinishda bo‘ladi. *Biologik* muloqot nasl qoldirish, organizmni rivojlantirish, himoyalash kabi tabiiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq bo‘lsa, *ijtimoiy* muloqot esa shaxslararo munosabatlarni kengaytirish, mustahkamlash, takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavzuni amaliy axamiyatlarini ochib berish maqsadida kuyidagi metodika xamda treninglardan foydalansak maqsadga muvofiq buladi.

Muloqot jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish.

Bajarish tartibi: Ishtirokchilar 5-8 kishidan iborat bir necha guruhga bo‘linadi, har bir ishtirokchi 5 soniya vaqt oralig‘ida biror tematika bo‘yicha so‘z aytishi kerak. Ba’zilar mavzudan chetlasa ham, miyaga kelgan eng birinchi fikrlarni aytib muloqatdagi qo‘rquvdan forig‘ bo‘lishga urinadilar. Vazifani bajarishda qiyinchilikka uchraganlar o‘yindan chetlashtiriladi. Oqibatda guruhda 1 nafar g‘olib qoladi.

Metodik tavsiya: ishtirokchilar javob berishi istalgan tartibda bo‘lishi mumkin, buni ishtirokchilarning o‘zlari belgilaydilar. Ya’ni javob bergan ishtirokchi keyingi ishtirokchini o‘zi ko‘rsatadi.

Muloqotchanlik sifatlarini o‘stirishga oid trening mashg‘ulotlari

Maqsadi: Muloqotga kirisha olish malakasini takomillashtirish va muloqotda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish.

Vazifalari: shaxs holati va kayfiyatlarini barqarorlashtirish; ishtirokchilarning bir-birlari haqida tasavvurlarni kengaytirish;ijtimoiylashuvga yordam bo‘ladigan ko‘nikma, malakalarini shakllantirish;guruh ishtirokchilarini bir-birlarini tushunishga hamda hamkorlikda ishlashga o‘rgatish.

Kutilayotgan natijalar: muloqotga kirisha olish qobiliyatini takomillashtirish;mulotqot jarayonidi yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish;hamkorlikda ishlashga o‘rgatish;

Qoidalar:O‘ng qo‘l qoidasi (kimni qo‘lida mikrofon bo‘lsa o‘sha odam gapiradi);Faollik qoidasi (rolli vaziyatlarda har bir kishi o‘ziga mavjud bilim, ko‘nikma va malakasidan foydalanish);Muloyimlilik qoidasi (barcha qatnashchilari bir-birlariga xushmuomalalik bilan, ismlari bilan muloqot qilishlari kerak bo‘ladi);Reglament qoidasi (Trening qatnashchilar o‘z fikrlarini aniq, lo‘nda, qisqa bayon etishlari kerak);Sirlilik qoidasi (mashg‘ulot jarayonidagi barcha kechinmalar guruhdan tashqaridagi chiqishi mumkin emas);Telefonlarni o‘chirib qo‘yish qoidasi;

Trening o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyati: muloqot jarayonida yuzaga ma’daniyati shakllantirish, muloqot texnikasini yanada rivojlantirish.

Muloqot mavzusiga tegishli o‘yinlar.

«Buzuq telefon» mashqi.

Maqsad: Ma’lumot uzatishdagi buzilishlarni anglash.

Ma’lumotni anglangan holda idrok qilish va faol tinglash uslubini o‘zlashtirish.

Yo‘riqnoma: «Ushbu mashqimizda 6 kishi ishtirok etishi kerak. Bunda 5 kishi xonadan tashqarida poylab turishadi, 1 kishi esa xonada qoladi. Men xonada qolgan odamga og‘zaki topshiriq aytaman. Bu odam iloji boricha hamma topshiriqni eslab qoladi va ikkinchi (xonadan tashqarida turganlardan biriga) odamga aytadi. Ikkinchi odam uchinchisiga, uchinchisi to‘rtinchisiga va h.k. Biz esa ma’lumotlar qanday uzatilishini kuzatib turamiz. Keyin esa xuddi shu jarayonni muhokama qilamiz».

5 ta o‘quvchi xonadan chiqqanidan keyin boshlovchi qolgan 1 kishiga quyidagicha topshiriq aytadi: «Siz maktab direktorining muovinisiz. Direktorimiz Sobir Komilovich Sizni ancha poyladilar. Lekin kelmaganingizdan so‘ng sizga men orqali topshiriq aytib ketdilar. Aytdilarki, u kishi hozir bizga Yaponiya apparaturasini olish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishga ketdilar, u yerdan chiqib rayonda kengaytirilgan yig‘ilishga borar ekanlar. Agar ular soat 12 gacha kelmasalar o‘qituvchilar majlisini o‘zingiz o‘tkazar ekansiz, bu majlisda 8 «b» sinfning davomatini ko‘rib chiqish kerak. Keyin soat 15.00 da maktabimizga Polshadan kelayotgan mehmonlarni kutib olish uchun aeroportga 1 ta «Neksiya» bilan 1 ta «Damas» avtomashinasini chiqarish kerak ekan. Yana aytdilarki, soat 17.00 da XTBning ijtimoiy ta’minot bo‘limidan go‘sht kelar ekan. Hamma o‘kituvchilarga 2 kilogrammdan go‘sht tarqatib direktorning ulushini xolodilnikka

solib qo‘ysangiz o‘zlari kelib olib ketar ekanlar».Shundan so‘ng ma’lumotlar birin-ketin kirib kelayotgan o‘quvchilarga uzatila boshlaydi.

Mashq so‘ngida odatda ma’lumotning buzilishi kuzatiladi. Mashqda ishtirok etgan o‘quvchilar video yordamida ma’lumot mazmunini bilib oladilar. Shundan so‘ng o‘quvchilarga har qanday ma’lumotni birinchi manbadan olish zaruriyati aytib o‘tiladi. Ma’lumotlarning bir kishidan ikkinchi kishiga o‘tishi natijasida u qanchalik o‘zgarib ketishi paydo bo‘ladigan mish-mish gaplarga asos bo‘lishi aytib o‘tiladi.

Ma’lumot uzatishdagi xatolarni bartaraf etish maqsadida faol tinglashni o‘rganish mashqi taklif etiladi. Bu mashq yo‘riqnomasiga ko‘ra hamma o‘quvchilar uch kishilik guruhlarga bo‘linadilar. Bu guruhdagi uch o‘quvchi uch xil rolda ishtirok etadi: gapiruvchi, tinglovchi va nazoratchi.

Gapiruvchi hayotdagi biror bir voqeani aytib beradi va tinglovchi bu voqeani iloji boricha esida olib qolib, qaytadan takrorlab aytib berishi kerak. Nazoratchining vazifasi yo‘l qo‘yilgan xatolarni aytishdan iborat. Guruhdagi har bir ishtirokchi uchta roldan birortasida ishtirok etishi shart. Ushbu mashqni bajarish orqali ishtirokchilar verbalizatsiya, ya’ni faol tinglash metodini o‘zlashtiradilar.

MULOQOTChANLIKNI OShIRIShGA QARATILGAN TRENING MAShG‘ULOTI.

Maqsad: Shaxslarda muloqotchanlik xususiyatlarini rivojlantirish, shaxslararo munosabatlarda muloqotga kirisha olish qobiliyatini oshirish.

Vazifa:

1.Turli xil vaziyatlarda muloqotga kirishishini o‘rgatish.

2.Eshitish va tinglash malakasini.

3.O‘z fikrini boshqalarga singdira olishga o‘rgatish.

Kutilayotgan natijalar:

1.Turli xil vaziyatlarda o‘zgalar bilan muloqotga kirishish ko‘nikmalarini shakllantirish.

2. O‘z-o‘ziga baho berishni o‘zgartirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlikdan xalos bo‘lish.

3. Suxbatdoshinig noverbal xatti harakatlarini tushunishga o‘rgatish.

Trening o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari:

Muloqotchanlikni oshirish maqsadida trener tomonidan trening mashgulotlarida, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar va talabalarda qo‘llanilishi mumkin.

Uslublar: «Qor uyumi», «Presskonferensiya», «Karusel», «Ishorani top» mashqlari.

Ishtirokchilar: Talabalar.

Vaqti: 80 minut.

Reja:

900 910	Kirish qismi. - qoidalar qabul qilish. - Maqsad va vazifalar	Trener

	- Kutuvlar. - Tanishuv «qor uyumi» usuli.	
910 930 930 950	Asosiy qism (Amaliy mashg‘ulotlar). 1)«Presskonferensiya» mashqi. - Trener so‘zi (instruksiya) - Mashg‘ulot davomiyligi. - Muxokama. - Trener xulosasi 2)«Karusel» mashqi. - Trener so‘zi. - Mashg‘ulot davomiyligi. - Muxokama. - Trener xulosasi.	Trener
950 1010	3)«Holatni top» mashqi. - Trener so‘zi. - Mashg‘ulot davomiyligi. - Muxokama. - Trener xulosasi	Trener
1010-1020	Yakuniy qism. - Trener xulosasi - Kutilgan maqsadlarni aniqlash (Bugungi treningdan men...). - Yakuniy muxokama.	Trener

Glossariy

Avtoritar usul – bunda shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik o‘z ahamiyatini yo‘qotadi.

Adaptatsiya - *(lot. «adapto» - moslanmoq)* – sezgi organlari, ya’ni a’zolari (analizatorlar)ning taassurot kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o‘zgarishidan iborat bo‘lgan holatdir. Adaptatsiya hodisasida sezgirlik ortishi yoki kamayishi mumkin.

Antipatsiya - *(lot. «anticipatio» - oldindan sezish, payqash, oldindan idrok qilish, hodisa mohiyatini ochishdagi topqirlik)* inson tomonidan faoliyat maqsadini ro‘yobga chiqarish rejasini va modelini yaratishda ifodalanadi.

Appersepsiya – idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman, ruhiy hayotning barcha mazmuni bilan belgilanishidir.

Aralashtirib yuborish – shaxs xavotiriga sabab bo‘lgan ob’ektga nisbatan yuzaga keluvchi hisslarni boshqa ob’ektga yo‘naltirilishini ifodalovchi himoya mexanizmi.

Attraksiya - insonni (o‘zi bilan o‘zga o‘rtasidagi munosabatda namoyon bo‘ladigan) o‘ziga mahliyo qilish, qalbni «jiz» ettiradigan, ongsizlikka taalluqli insonni inson tomonidan idrok qilish hodisasi bo‘lib, bu hodisa bir qancha manbalar, qo‘zg‘atuvchilar, motivlar ta’sirida vujudga keladi.

Affekt - (*hissiy portlash, jazava*) kishini tez chulg‘ab oladigan va shiddat bilan o‘tib ketadigan holat bo‘lib, ular ongning anchagina darajada o‘zgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilgan-ligi, odamning o‘zini o‘zi idrok qila olmasligi, shuningdek uning butun hayoti va faoliyati o‘zgarib qolganligi bilan ajralib turadi.

Biogenetik konsepsiya - inson shaxsining taraqqiyotini biologik omil, ya’ni nasliy omil bilan belgilaydigan yo‘nalish.

Biografiya (tarjimai hol) metodi - yordamida inson hayoti, faoliyati, ijodiyoti to‘g‘risidagi og‘zaki va yozma ma’lumotlar o‘rganiladi. Bunda kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o‘zgalar ijodiga bergan baholari, tanbehlari, taqrizlari alohida o‘rin egallaydi.

Boshqaruv psixologiyasi – jamiyatda faoliyat ko‘rsatayotgan shaxslar, guruhlar va jamoalar o‘rtasidagi ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan nazorat, baholash, munosabat qonuniyatlarini, rahbar faoliyati va xarakteri, qobiliyati xususiyatlarini tadqiq qiladigan ijtimoiy psixologiyaning sohasi.

Gallyusinatsiya - yaqqol voqelikdagi idrok va hodisalarning tana analizatorlariga bevosita ta’sir etmasdan inson ongida turli obrazlar-ning (ovozlarning eshitilishi, sharpalarning sezilishi) xayolan, fikran paydo bo‘lishidan iborat idrokning psixopatologik (ruhiy xastalik) hodisasi.

Guruh – ma’lum ijtimoiy faoliyat maqsadlar asosida to‘plangan, muloqot ehtiyojlari qondiriladigan insonlar uyushmasi bo‘lib, bunda ikkita asosiy mezon mavjud, ya’ni biror faoliyatning bo‘lishi (muloqot, o‘yin, o‘qish, mehnat) hamda u yerda odamlarning o‘zaro muloqoti uchun imkoniyatning mavjudligi kuzatiladi.

Demokratik usul – bu usulda suhbatlar, munozaralar, mulohazalar o‘zaro tenglik, o‘zaro hurmat ruhiga bo‘ysundirilib, ta’sir o‘tkazish sohalari yashiringan holda bo‘ladi.

Depressiya – bu hozirgi kunga va kelajakka ishonchsizlik bilan qarash, doimo past kayfiyatda bo‘lish, horg‘inlik, hech narsa qilishga intilmaslik va fikrlashning sustlashuvidir. Depressiya (tushkunlik) - bu siqilish, ma’yuslik va g‘amginlik kayfiyatdir.

Determinizm prinsipi - *(lot. determinata-belgilayman degan ma’noni bildiradi)* tabiat va jamiyat hodisalari, xususan, psixik hodisalarning ob’ektiv sabablar bilan belgilanishi haqidagi ta’limotdir.

Diqqat - inson his-tuyg‘usini va ongini bir nuqtaga to‘plab, muayyan bir ob’ektga faol qaratilishiga aytiladi.

Diqqatsizlik – diqqatni ob’ektga yo‘naltira olmaslik va to‘play olmaslik, atrofdagi kishilarga nisbatan e’tiborsizlik yoki iltifotsizlikdan iborat shaxsning salbiy xarakter xislatidir.

Differensial psixologiya – shaxslar o‘rtasidagi tafovut va farqlarni hamda guruh a’zolari orasidagi nomutanosibliklarning psixologik jihatlarini, ya’ni psixologik farqlarini o‘rganuvchi psixologiya sohasi.

Yosh psixologiyasi – shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlarini inson tug‘ilishidan to umrining oxirigacha bo‘lgan davrini, ya’ni ontogenezni o‘rganadigan psixologiya sohasi.

Identifikatsiya - (aynan o‘xshatish) kishi hamkorlikda harakat qilish vaziyatida sherigi o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rib, uning ichki holati, niyatlari, o‘y-fikrlari, xohish-istaklari haqida taxmin qilinadi, bunda ular anglanilgan yoki anglanilmagan bo‘lishi mumkin.

Idrok - sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo‘lib, barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko‘nikmalar bir davrning o‘zida namoyon bo‘ladi va bevosita aks ettirishda ishtirok etadi.

Ijtimoiylashuv – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash, hayot – faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib, bunda har bir shaxsning jamiyatga qo‘shilishi, uning me’yorlari, talablari, kutishlari va ta’sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko‘rsatishi va kerak bo‘lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o‘z navbatida o‘zgalarga ta’sirini o‘tkaza olishdek murakkab jarayondir.

Izolyatsiya - uyat , aybdorlik, shodlik, qayg‘u bilan bog‘liq tasavvurlar bo‘lib, shaxs ular bilan bog‘liq affektlardan uzoqlashtiriladi (ajratiladi).

Illyuziya - hissiy a’zolarimizga bevosita ta’sir etib turgan narsa va hodisalarni noto‘g‘ri (noadekvat), yanglish, xato idrok qilishdan iborat jarayonning noyob hodisasi.

Ingibisiya - shaxs faoliyati samaradorligiga o‘zgalarning borligi tufayli salbiy ta’sir ko‘rsatish, masalan, ma’nosiz so‘zlarni yodlashda, labirintli masalalarni yechishda, ko‘paytirish bilan bog‘liq, murakkab arifmetik misollarni bajarishda

boshqa odamlarning aralashuvi va ularning borligi faqat fikrlash jarayoniga tormozlovchi salbiy ta’sir ko‘rsatishi tushuniladi.

Intellekt - *(lot. «intellectus» – tushunish, bilish, «intellectum» – aql)* aql-idrokning shunday bo‘lagiki, uni o‘lchab, o‘zgartirib, rivojlantirib boriladi. Bu intellekt va u bilan bog‘liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta’sir ko‘rsatadi.

Intellekt karta - (*ing. mind maps*) taniqli ingliz psixologi, xotira va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodikalar muallifi Toni Byuzen tomonidan ishlab chiqilgan.

Intellektualizatsiya – mavhum, intellektual terminlarni muhokama qilishdan o‘zini uzoqlashtirish sifatida tazyiq soluvchi emotsional tang vaziyatdan chiqib ketish uchun o‘ziga xos urinishdir.

Interioreseptiv sezgilar - ichki tana a’zolari holatlarini in’ikos etuvchi hamda uning reseptorlari ichki tana a’zolarida, to‘qimalarida joylashgan bo‘ladi.

Interiorizatsiya - tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o‘tish ro‘y berishidir.

Intravertlik - timsollarga, tasavvurlarga, o‘tmish hamda kelajak bilan uyg‘unlashgan mulohazalarga taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Iroda – shaxsning oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o‘z-o‘zini boshqarishidir.

Irodaviy harakatlar - oldindan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun ongli ravishda amalga oshiriladigan va rejalashtirilgan harakatlardir.

Kayfiyat – ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatni ifoda etib, u aniq bir hissiyotga aloqador bo‘lmaydi.

Kauzal atributsiya - kishining o‘z xatti-harakatlari sabablarini, niyatlarini, o‘y-fikrlarini, xulq-atvor motivlarini boshqa kishilarga to‘nkash orqali tushuntirishidir.

Kognitiv dissonans - insonni yangi bilimlarni izlashga, muammolar yechimini topishga chorlovchi hayajonlanish, ajablanish, qiziqish, hayratlanish, lol qolish, shubhalanish kabi intellektual hisslarning paydo bo‘lishi.

Konformizm — shaxsning guruh yoki ko‘pchilikning ta’siriga berilishini tushuntiruvchi xodisadir.

Kuzatish metodi - tabiiy metodlar jumlasiga kirib, bunda tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorini bevosita tashqaridan turib kuzatish orqali ma’lumotlar to‘plash usuli bo‘lsa, o‘z-o‘zini kuzatish esa odam o‘zida kechayotgan biror o‘zgarish yoki hodisani o‘zi o‘rganish maqsadida ma’lumotlar to‘plashdir.

Qobiliyat - shaxs faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo‘ladigan individual-psixologik xususiyat-larga aytiladi.

Laboratoriya eksperimenti - tekshiruvchi kishi tekshiriladigan psixik hodisani qachon kerak bo‘lsa, o‘sha vaqtda ataylab vujudga keltirilib, tekshirilayotgan psixik hodisa tabiiy sharoitda birgalikda sodir bo‘ladigan boshqa psixik hodisalar eksperiment mobaynida o‘zgartirilishi, boshqa psixik hodisalar bilan muayyan bir tarzda bog‘lanishi, kuchi, tezligi, hajmi va boshqa shu kabi jihatlari o‘lchab ko‘rilishi mumkin.

Layoqat - qobiliyatlar taraqqiy etishining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo‘ladigan miya tuzilishining, sezgi a’zolari va harakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlari.

Liberal usuli - bu usul muloqot jarayonida murosasiz, ko‘ngilchan bo‘lish, tashqi ko‘rinishdan iliq psixologik iqlimni, guruhiy moslikni o‘zida aks ettirgandek tuyulsada, har qanday vaziyatni til topib hal qilishga, prinsipiallikdan uzoqlashishga, subutsizlikka olib keladi.

Lider - guruhning shunday a’zosiki, u go‘yoki barcha guruhiy jarayonlarning boshida turadi va o‘z xulqi, qobiliyati bilan o‘zgalarga ta’sir qila oladi.

Manipulyatsiya - muloqot jarayonidagi manipulyatsiyada suhbatdoshga ta’sir ko‘rsatib, uning xohishiga qarshi ravishda o‘z fikriga ko‘ndiriladi. Bunda biryoqlama ustunlikka erishiladi.

Maxsus psixologiya – normal psixik rivojlanmagan tug‘ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar, defektlar ta’siri ostidagi insonlarning psixologiyasini tadqiq qilish sohasi.

Mehnat psixologiyasi – insonning mehnatga munosabati, mehnat faoliyatining qonuniyatlari va rivojlanishini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi.

Mehnat faoliyati - tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo‘lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma’naviy ne’matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdir.

Modellashtirish metodi - kuzatish, so‘roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida olingan natijalar qoniqtirmagan vaziyatda qo‘llaniladi. Bunda o‘rganilayotgan hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o‘sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o‘rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Muloqot - odamlar o‘rtasida birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir.

Muloqot faoliyati – shaxsning individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo‘ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri bo‘lib, u insondagi kuchli ehtiyojlardan biri – inson bo‘lish, odamlarga o‘xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashti-rishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Muloqotning interaktiv jihati - munosabatga kirishuvchilarning nutq jarayonida axborotni faqat so‘zlar bilan emas, balki *xatti-harakatlar* bilan ham almashinuvi nazarda tutiladi.

Muloqotning kommunikativ jihati - muloqotda hamkorlikdagi faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlashni o‘z ichiga olib, ma’lumot almashinuv sifatida ta’riflanadi.

Muloqotning perseptiv jihati - munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlari tushuniladi.

Nutq – inson til yordami bilan boshqa odamlarga o‘tmish, hozirgi zamon va kelajakka oid narsalar, voqelik yuzasidan axborot, xabar, ma’lumot berishi.

Ong va faoliyat birligi tamoyili - psixologiya fanida ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi voqelik emas, ular aynan bir-biriga o‘xshash ham emas, biroq ular bir butunlikni tashkil etishi bilan izohlanadi.

Ongsizlik - shunday holatki, bunda odam ixtiyorsiz tarzda, o‘zi bilmasdan yoki anglamasdan turli xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Bu xatti-harakatlar avtomatik tarzda kundalik hayotda, uyquda, ya’ni tush ko‘rayotganda yoki gipnotik holatlarda kuzatilib turadi. Ongsizlik, tabiiyki, ongga bog‘liq bo‘lmagan holat.

Oreol effekti - shaxs muloqot jarayonida o‘z ob’ektiga nisbatan ijobiy taassurotga ega bo‘lsa, sub’ektga ma’lum bo‘lmagan fazilatlarni ijobiy baholashga yoki aksincha, ob’ekt salbiy taassurot qoldirgan bo‘lsa, sub’ektga ma’lum bo‘lmagan xislatlarini salbiy baholashdir.

Parapsixologiya – hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqari-dagi, tushuntirish qiyin bo‘lgan ekstrosensorika – o‘ta sezuvchanlik, telepatiya – fikrni masofaga uzatish, kelajakka bashorat qilish va shu kabi psixik hodisalarni o‘rganadi.

Parishonlik – diqqatni ma’lum bir ob’ektga qarata olmaslikdan iborat salbiy xususiyat.

Pedagogik psixologiya – tarbiya va ta’lim muammolarini hamda shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishi, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o‘rganadi.

Proeksiya - individ o‘zining nojoiz istaklari va qilmishlarini boshqa odamga tegishli deb hisoblaydigan xavfli himoya mexanizmi hisoblanadi.

Proprioreseptiv sezgilar - tana va gavdaning holati hamda harakatlari haqida ma’lumot (axborot, xabar) beruvchi, muskullarda, bog‘lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan bo‘ladi.

Psixogenetik yondashish - biogenetik, sosiogenetik omillarning qiymatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotini birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi.

Psixika - yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati va miyaning mahsuli bo‘lib, u borliqni sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta’sir etishi asosida vujudga kelib, bilish jarayonlarida, shaxsning xususiyati va holatlarida, diqqati, his-tuyg‘ulari, xarakter xislatlarida, qiziqishi hamda ehtiyojlarida o‘z ifodasini topadi.

Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi tamoyili - psixik taraqqiyot insonning mehnat faoliyatiga, ta’limga, o‘yin va muloqot faoliyatiga bog‘liq ekanligini aniqlashda foydalaniladi.

Psixologik himoya – sub’ektning mavjud ijobiy holatni saqlashga yunaltirilgan jarayon va mexanizmlar tizimidir.

Psixologiya - yunoncha psychelogos so‘zi “jon”, “ruh” haqidagi fan, ta’limot degan ma’noni anglatadi.

Psixofiziologiya – odamlarning individual-psixologik va psixofiziologik farqlarini tadqiq qiluvchi, psixikaning genetikasini o‘rganuvchi psixologiya sohasi.

Rad etish – individning atrofdagilar tufayli unga tahdid solayotgan kechinmalardan, ularning mavjudligidan o‘zini chetga tortish yo‘li bilan himoyalanishida namoyon bo‘ladigan himoya mexanizmi.

Rasionalizatsiya - individga o‘z muvaffaqiyatsizliklarini haqiqatga yaqinroq oqlab izohlashga imkon beradigan himoya mexanizmi sanaladi.

Reaktiv qurilma (reaksiya shakllanishi) - himoya mexanizmi bir xil impuls va hissiyotlarni cheklash, ularga qarama qarshi impuls va hissiyotlarni kuchaytirish yuli bilan xavotirlanish darajasini pasaytirishga imkon beradi.

Reaktivlik - aynan bir xil kuch bilan ta’sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi va uning yorqin ro‘yobga chiqishi – emotsionallik, ta’sirchanlikda ifodalanadi.

Reaksiya tempi – turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechish tezligiga, binobarin, harakat tezligiga, nutq sur’atiga, farosatlilikka, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqarishdir.

Regressiya – individning stressni bartaraf qilishga urinishda bir muncha soddaroq usullardan foydalanishi. Masalan, tang vaziyatlarda bolalikka qaytishi yoki o‘zini yosh boladek tutishidir.

Repressiya (siqib chiqarish) - noxush fikrlarni ong darajasiga yetib borishiga to‘sqinlik qiladigan himoya mexanizmi. Bunda ong uchun iztirobli bo‘lgan mazmun birmuncha yengilroq narsaga ko‘chadi.

Referent guruh - shunday odamlar guruhiki, ular har bir shaxs uchun ideal insonlar bo‘ladiki, shaxs ularning niyatlari, qiziqishlari, harakat normalari, g‘oya va fikrlariga ergashishga tayyor bo‘ladi, harakatlaridan andoza oladi, ularga taqlid qiladi.

Refleksiya - kishining idrok etish sub’ekti sifatida o‘ziga nisbatan sherigining munosabatini anglab yetishidir.

Ruhlanish - muayyan maqsadga, faoliyatga katta kuch va istak bilan intilishdan iborat bo‘lgan holat.

Salomatlik psixologiyasi - psixogigiena va psixoprofilaktika, turmush darajasining infratuzilmasini oshirish masalalari bilan shug‘ullanadi.

Samotizatsiya – qiyin vaziyatdan chiqib ketish uchun o‘zini bemor sifatida ko‘rsatish, yoki sog‘ligi yomonligi bilan fiksatsiya qilish tushuniladi.

Sezgi - oddiy psixik bilish jarayoni bo‘lib, moddiy qo‘zg‘atuvchilarning muayyan reseptorlarga bevosita ta’sir etishi orqali real olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini va shuning bilan birga, inson organizmining (uning a’zolarining) ichki holatlari-ni alohida-alohida aks ettirishdan iborat bilishning dastlabki bosqichidir.

Senzitivlik - *(lot. «sensus» - sezish, his qilish)* – insonda bironta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo‘lgan o‘ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi jumladan, sezgilarning paydo bo‘lishi uchun qo‘zg‘ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar

qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasining (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashishi tushuniladi.

Sensibilizatsiya - analizatorlarning o‘zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezgirlikning kuchayishi.

Sinesteziya - *(yunon. «sinesteziya» - birgalikda sezish)* qo‘zg‘atuvchi-ning birin-ketin analizatorga ta’siri bilan analizatorlarga xos sezgining paydo bo‘lishi.

Sotsiogenetik konsepsiya - shaxs taraqqiyotini uning atrofidagi ijtimoiy muhitga bog‘lab tushuntiradi. Bunga ko‘ra, «odam ijtimoiy muhit nusxasidir».

Sotsiometrik test - kichik guruh a’zolari o‘rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o‘rganish va ularning darajasini o‘lchashda qo‘llanilib, unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan.

Stereotiplashtirish - kishilarga, ijtimoiy guruh a’zolariga nisbatan berilgan xislatlarni hozirgacha ma’lum bo‘lgan ijtimoiy qoliplarga mos tarzda ommaviy tarzda yoyish, tavsif berish va baholashdir.

Stress - *(inglizchada stress – tazyiq ko‘rsatish, zo‘riqish degan so‘zdan olingan)* psixologik ta’rifga ko‘ra, affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomliligiga ko‘ra kayfiyatlarga yaqin bo‘lgan his-tuyg‘ular boshdan kechirilishining alohida shakli ya’ni, hissiy zo‘riqishdir

Sublimatsiya - idning impulslari ijtimoiy ma’qul faollikka yo‘naltiriladigan o‘rin almashtirish shaklidir.

So‘rov metodi - psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma’lumotlar to‘plashning an’anaviy usullaridan biri bo‘lib, unda sinaluvchi tekshiruvchining savollariga javob berishi kerak bo‘ladi.

Tabiiy eksperiment - kuzatish va laboratoriya eksperimenti metodi o‘rtasida turadi. Tabiiy eksperimentda tekshiruvchi kishining o‘zi tekshiriladigan kishida yoki kishilarda psixik jarayon (masalan, xotira, diqqat, tasavvur) hosil qilish yoki tekshiriladigan kishilarda individual xususiyatlarni namoyon etish uchun maxsus sharoit tug‘diriladi.

Talant - *(yunon. «talanton» - qimmatbaho, noyob narsa, irsiy, tabiiy xislat)* muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta’minlaydigan qobiliyat hamda iste’dodlar majmuasi-dir.

Tafakkur - atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordamida bilvosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon bo‘lib, u ijtimoiy sababiy ichki bog‘lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir. Qachonki muammoli vaziyat paydo bo‘lganda tafakkur ishga tushadi.

Temperament *(lot. «temperamentum» - aralashma)* – shaxs faoliyati va xulqining dinamik (o‘zgaruvchan) va emotsional-hissiy tomonlarini xarakterlovchi, biologik shartlashgan individual xususiyatlar majmuidir.

Test metodi - *(ing. sinash, tekshirish)* biror o‘rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, hamda ularni ko‘pchilikda qayta-qayta sinash va ma’lumotlarni korrelyatsion analiz orqali ishonchlilikni tekshirishda ham ishlatiladi.

Tibbiyot psixologiyasi – bemorlarning davolanishi, gigiena, profilaktika, diagnostika jihatlarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi bo‘lib, unda tadqiqotlar

tizimiga kasalliklarning kechishi, ularning shaxs psixologiyasiga ta’siri qonuniyatlari, insonning kasallikdan sog‘ayishiga mikroijtimoiy guruh ta’siri o‘rganiladi.

O‘yin faoliyati – bevosita biror moddiy yoki ma’naviy ne’matlar yaratishni nazarda tutmasada, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari taqlid qilish orqali bola tomonidan o‘zlashtiriladigan faoliyatdir.

O‘qish faoliyati - shaxs kamolotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko‘nikmalar o‘zlashtiriladi.

Umumiy psixologiya – umumiy psixologik qonuniyatlar, mexanizmlar, murakkab ichki bog‘lanishlar, nazariy va metodologik tamoyillar, ilmiy tadqiqot metodlari, psixikaning filo va ontogenetik o‘zgarishlarini, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan o‘rganadigan fan sohasidir.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi - inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida psixologiyada keng qo‘llaniladi.

Faollik – inson qandaydir faollik darajasi bilan tashqi olamga ta’sir etishi va maqsadlarini amalga oshirishida ob’ektiv hamda sub’ektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan yengishidir.

Fasilitatsiya - inglizcha *«facililate»* so‘zidan olingan bo‘lib, “engillashtirmoq” degan ma’noni anglatib, o‘zgalarning borligi tufayli shaxs faolligining ortishi, ishining yengillashuvi va samaradorligi tushuniladi.

Frustratsiya - doimiy stress oqibatida maqsadning yo‘q bo‘lib qolishi, rejaning izdan chiqish holatidir.

Xayol - inson ijodiy faoliyatining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi, u tizimiy xususiyatli xatti-harakatning oraliq va yakuniy mahsullari orqali aks etadi, muammoli vaziyatda noaniqlik, noma’lumlik alomatlari vujudga kelsa, u holda faoliyat rejasini qayta ko‘rib chiqishni ta’minlash imkoniyatiga ega.

Xarakter – ijtimoiy muhit ta’sirida tarkib topib, shaxsning atrofdagi voqelikka va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatida ifodalanadigan, muayyan sharoitda tipik xulq-atvor usullarini belgilab beradigan barqaror individual psixik xususiyatlar yig‘indisidir.

Xotira - individning o‘z tajribasini esda olib qolishi (fiksatsiya), esda saqlashi (retensiya) va keyinchalik uni yana esga tushirishi (reproduksiya) yoki unutishi jarayoni.

His-tuyg‘u – kishining o‘z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg‘ul bo‘layotganiga nisbatan o‘zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir.

Shaxs yo‘nalganligi - psixologiyada ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo‘naltirib turadigan hamda real vaziyatlarga nisbatan turg‘un va barqaror motivlar majmuiga ega bo‘lish deb, ta’riflanadi.

Shaxs - muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug‘ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individdir.

Ekzopsixika - shaxsning tashqi muhitga nisbatan munosabati, shaxsga qarama-qarshi bo‘lgan barcha jihatlari, shaxslararo va ob’ektiv munosabati ifodalanadi.

Eksperimental psixologiya – eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qilishning umumiy sohasi. XIX asrning o‘rtalarida psixologik hodisalar ustidan ilk bor amaliy eksperimental-psixologik tadqiqotlar o‘tkazilgan. V.Vundt eksperimental psixologiya-ning fan sifatida ajralib chiqishiga o‘zining katta hissasini qo‘shgan.

Eksterioreseptiv sezgilar - tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishga moslashgan hamda reseptorlari tananing sirtqi qismida joylashgan bo‘ladi.

Eksteriorizatsiya - aqlda shakllangan g‘oyalarni bevosita tashqi harakatlarga yoki tashqi faoliyatga ko‘chirilishidir.

Ekstravertlik - shaxs faoliyati va reaksiyasi ko‘p jihatdan favquloddagi tashqi taassurotlarga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Emotsiyalar – «hissiyot» («emotsiya») va «his-tuyg‘u» so‘zlari ko‘pincha sinonimlar sifatida qo‘llaniladi. «Emotsiya» so‘zini o‘zbek tiliga aniq tarjima qilinganda u ruhiy hayajonlanish, ruhiy harakatlanish degan ma’noni anglatadi.

Endopsixika - shaxs psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o‘zaro bog‘liqligida aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: O‘zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T-2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. 2017 y, 104 bet, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining “O’zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 y, 488 bet, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining “O’zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2016 y, 56 bet, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining “O’zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi.
6. Abdullayeva Sh. A. Pedagogika.- Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2012.
7. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. - T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
8. Bern E. Igri, v kotorie igrayut lyudi. Lyudi, kotorie igrayut v igri. Erik Bern; [per. s angl. A.Gruzberga]. –M.: Eksmo, 2012.
9. Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya vuzov Piter, 2016 g.
10. Verderber R., Verderber K. Psixologiya obщeniya. – SPb.: praym - EVROZNAK, 2003.
11. Davletshin M.G.,To‘ychiyev S.M.Umumiy psixologiya T.:TDPU, 2002.
12. Ziyamuhamedov B. “Pedagogika” Toshkent.“Tamaddun” nashriyoti, 2014.
13. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. / Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.
14. Ibragimov X.I., Yo‘ldoshev U.A., Bobomirzaev X. Pedagogik psixologiya./O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “O‘bekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
15. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. - T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008.
16. Ilin Ye.P. Psixologiya obщeniya i mejlichnostnix otnosheniy. – SPb.: PITER, 2009. – 576 s
17. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Mirzayeva N.A. Psixologiya. Darslik – Toshkent, 2010.
18. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Shukurova M.A. Psixik-bilish jarayonlari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2010.

19. Karimova V. M. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T., 2002.
20. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. Ma’ruzalar matni. – T., 2000.
21. Karimova V.M. Psixologiya. T.: Sharq, 2000.
22. Kudryavaya N. V., Ye.M.Ukolova, Smirnova N. B., Voloshina Ye. A., Zorin K. V. (Pod obщey redaksiey: N. V. Kudryavaya) Pedagogika v medisine. M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2012.
23. Kelvin S.Xoll, Gardner Lindsey. Teoriya lichnosti / per. S angl. I.B.Grinnshpun. – 2-e izd. – M.: Psixoterapiya, 2008.
24. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. – Toshkent, «O‘qituvchi», 2001.
25. Nemov R.S. Prakticheskaya psixologiya. Vlados, 2002.
26. Nemov R.S. Prakticheskaya psixologiya. Poznanie sebya: Vliyanie Na Lyudey: Posobie Dlya Uch-Sya. - M: Gumanit. Izd.Sentr Vlados, 2003.
27. Nemov R.S. Psixologiya. M.: Vlados, 2003. 1-2 t.
28. Novgorodseva I.V. Pedagogika v medisine. Izdatelstvo «FLINTA», 2017.
29. Oila psixologiyasi/ Mualliflar: G‘.B.Shoumarov va boshqalar. Prof. G‘.B.Shoumarov tahriri ostida. – Toshkent: “Sharq” NMAK, 2008.
30. Ochilov M., Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: “Nasaf” nashriyoti. 2000.
31. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Sh.A.Abdullayeva, D.A.Axatova, B.B.Sobirov, S.S.Sayitov. – T.: Fan, 2004.
32. Piz A., Piz B. Noviy telodvijeniy. Rasshirirennaya versiya. – M.: Eksmo, 2010.
33. Podlasiy I.P. “Pedagogika” 2 tomlik kitob. Moskva. Vlados. 1999.
34. Rean A.A., Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya vuzov. - SPb.: Piter, 2002.
35. Umarov B.M., Raxmanova D.R. Osnovi uchebno-psixologicheskoy deyatelnosti studentov vuza. Izd. im. G.Gulyama, Tashkent, 2008 g. 111 str.
36. Umarov B.M. Psixologiya (2-nashr. Nopedagogik, nopsixologik oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun dasrlik). “Voris” nashriyoti,- Toshkent, 2012.
37. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida. – T.: «O‘qituvchi», 1992.
38. Freydjer R., Feydimen D. Bolshaya kniga psixologii. Lichnost. Teorii, uprajneniya, eksperimenti. /per. s angl.-SPb.:Praym-EVROZNAK. 2008.
39. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. –T.: TDPU, 2010.
40. G‘oziev E. Yosh davrlari psixologiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2008. Uchinchi nashr.
41. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010.
42. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1-2 Kitob.
43. Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. - T. 2005.
44. Chaldini R. Kak nauchitsya ubejdat i dobivatsya uspexa / Robert Chaldini; [per. s angl. O.Epimaxova]. –M.: Eksmo, 2010.

45. Shoyimova Sh.S. Muloqot psixologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma «ZAMON POLIGRAF»OK Toshkent, 2017.

46. Shoyimova Sh.S. Shaxs psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. «LESSON PRESS» Toshkent, 2017 y.

47. Myers David G., DeWall C. Nathan. Psychology. Hardcover, Revised. 2015.

48. Davis S. F. Handbook of Research. Methods in Experimental Psychology. Wiley-Blackwell, 2003.

49. Criteria for High-Quality Assessment. Stanford Center for Opportunity Policy in Education. Chicago. 2013.

50. Dominic Upton, Annie Trapp. Teaching psychology in higher education. Copyright © 2010 Blackwell Publishing Ltd . 328 pages.

51. Nine Principles of Good Practice for Assessing Student Learning. Authors: American Association for Higher Education (AAHE), 2014

52. Syed Amin Tabish. Assessment Methods in Medical Education. 2012.

53. Tony Buzan. Mind Map mastery. The complete guide to leering and using the most powerful thinking tool in the Inverse. 2018 years. 233 page.

Internet saytlari:

1.www.edu.uz - OO‘MTV rasmiy sayti

2.www.ziyonet.uz - ta’limiy portal

3.www.pedagog.uz - TDPU rasmiy sayti

4.www.natlib.uz - Alisher Navoiy nomli O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti.

M U N D A R I J A

Kirish….....3
1-mavzu. Psixologiya fanining dolzarb vazifalari va predmeti.....5
2-mavzu. Psixologiyaning zamonaviy metodlari va ularni amaliyotga tadbiq etish.....20
3-mavzu. Psixikaning rivojlanishi. Organizm va psixika.....34
4-mavzu. Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi. Bilish mezonlari va ularning adekvatligi.....49
5-mavzu. Tafakkur va mustaqil fikrlash shart-sharoitlari. Ijodiy va mantiqiy fikrlash.....69
6-mavzu. Shaxsning hissiy va irodaviy jihatlari.....112
7-mavzu. Psixologiyada shaxs muammosi. Shaxsga ta’sir etuvchi psixologik omillar.....159
8-mavzu. Shaxsning individual psixologik xususiyatlari va ularni diagnostika qilish.....208
Qo‘shimcha materiallar.....224
Inson hayoti va faoliyatini o‘zgartiruvchi asosiy psixologik omillar…….....224
Shaxsning psixologik tuzilishi modellari tahlili.....228
Ehtiyojlarning turlari.....236
Qiziqishning psixologik tavsifi.....242
Shaxsning ustanovkasi yoki anglanilmagan mayllari.....248
Guruh va jamoa. Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi.....251
Muloqot psixologiyasi.....257
Glossariy.....270
Adabiyotlar ro‘yxati.....278